O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Z.T.NISHANOVA, M.XOLNAZAROVA

PSIXOLOGIK XIZMAT

Maruza matini

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar

Ta'lim sohasi: 110000 – Pedagogika

Ta'lim yo`nalishi: 5110900 – Pedagogika va psixologiya

Toshkent – 2017

Psixologik xizmat darsligi ta'lim tizimida faoliyat yuritadigan psixologning
faoliyati mazmuni haqida talabalarga bilim va ko`nikmalar berishga qaratilgan. Unda psixologning turli muassasalardagi faoliyatlarining asosi bo`lmish korreksion va maslahat berish ishlariga urg`u berilgan.
Darslik pedagogika-psixologiya (5110900) – ta'lim yo`nalishi talabalariga
mo`ljallangan. Shu bilan birga darslikdan amaliy psixologlar hamda o`qituvchilarkeng foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar: psixologiya fanlari nomzodi, dotsent
G.Q.To`laganovapsixologiya fanlari nomzodi, dotsent
P.S.Ergashev

KIRISH

Inson psixologiyasini tushinish, tahlil qilish, rivojlantirishga jiddiy e'tibor berishmasalasi hamma zamonlarda va hamma davlatlarda ham ijtimoiy-iqtisodiytaraqqiyotning yetakchi vazifalaridan biri bo`lib kelgan.XX asr bo`sag`asida psixologiya fani va uning ilg`or vakillari o`zlariningnavbatdagi jahonshumul ilmiy maqsadlari – insonga, ayni paytda, jamiyatgapsixologik xizmat ko`rsatish tizimining muqarrarligini nazariy-ilmiy jihatdan asoslab berishga muvaffaq bo`ldilar.Darslikda psixologik xizmat predmeti, maqsadi, vazifalari, ob'ekti, yo`nalishlari,uning fan sifatida rivojlanish tarixi, chet ellardagi va respublikamizdagi holati bayonetilgan.Shu bilan birga amaliyotchi psixolog tayanadigan asosiy hujjat psixologikxizmat haqida Nizom, unga kiritilgan o`zgartirishlar, amaliyotchi psixologning burchva majburiyatlari, uning asosiy faoliyat turlari aks ettirilgan. Shuningdek, undapsixolog faoliyatining asosiy shakllaridan – korreksion va maslahat berish ishlarining tamoyillari, korreksion dasturlarga qo`yiladigan talablar, bilish jarayonlari, shaxslararo munosabatlar, kasbiy o`zlikni anglash, oilaviy munosabatlar psixokorreksiyasi kabi dolzarb mavzular keng yoritilgan. Darslik mualliflarning so`ngi besh yillikda chop etilgan o`quv qo`llanmalari asosida yozilgan bo`lib, ayrim mavzular yangi dasturga asosan to`ldirilib qayta ishlangan. Darslik ta'lim tizimidagi psixologning mutaxassislikni egallashidagi asosiy kitoblaridan biri bo`lib qoladi, degan umiddamiz.

Mualliflar

1-BOB. PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISHNING UMUMIY MEZONLARI

Reja:

1.Psixologik xizmatning yuzaga kelish tarixi.
2.Ta'lim sohasida psixologik xizmatni tashkil etishning tamoyillari va strukturasi.
3. Psixologik xizmatning predmeti maqsad va vazifalari.
4.Psixologik xizmat nazariyasi va amaliyotidagi zamonaviy tendensiyalar va muammolar.

**Mavzuning o`quv maqsadi:** talabalarni ta'lim sohasida psixologik xizmatni tashkil etishning shart-sharoitlari bilan tanishtirish,talabalarni psixologik xizmatni tashkil etishda amal qilish lozim bo`lgan qoidalar bilan qurollantirish, bo`lajak psixologlarda kasbiy mahoratni tarbiyalash.

Darsning vazifasi:Talabalarni psixologik xizmat nazariyasiga aloqador zamonaviy tendensiyalar bilan tanishtirish va ularning psixologik xizmat amaliyotida uchraydigan muammolar to`g`risidagi bilimlarini rivojlantirish.

Tayanch tushunchalar: Psixologik xizmat, psixologik xizmat metodologiyasi, aqliy taraqqiyot koeffitsienti, psixodiagnostika, psixologik maslahat, psixologik korreksiya.

1.Psixologik xizmatning yuzaga kelish tarixi

Psixologik xizmat **AQShda 1800** yillardan boshlab rivojlana boshladi. AQShning birinchi amaliyotchi psixologlari o`z-o`zini tarbiyalash muammosini o`rgangan eksperimental psixologlar edilar. Amerika maktablarida aqliy taraqqiyot koeffitsientini aniqlash keng tarqalib, keyinchalik "Gaydens" xizmatining rivojlanishiga olib keldi. Fransuz maktab psixologiyasining otasi **Alfred Bine** bo`lib, u bu sohada 1894 yildan ish boshlagan. **1905 yilda Fransiya** ta'lim vazirligi Binega umumiy dastur bo`yicha o`qiy olmaydigan bolalarni tekshirish muammosi bilan murojaat qiladi va shu tariqa aqliy taraqqiyotda orqada qolgan bolalarni ajratadigan Bine-Simon testi yaratildi.

1909 yilda Fransiyada maktab psixologik xizmati tashkil etiladi. 1970 yilda Fransiyada psixologik-pedagogik yordam guruhlari psixologik xizmatning asosiy turini tashkil etdi. Bunday guruhlar maktab psixologiyasi bo`yicha bir mutaxassis, ta'lim psixologiyasi bo`yicha bir mutaxassis, psixomotor rivojlanish bo`yicha bir mutaxassisni o`z ichiga oladi. Bunday brigada 800-1000 o`quvchiga xizmat qiladi, bir maktabda joylashib, bir necha maktabga xizmat qilishi mumkin.

1985 yilda Fransiya pedagog-psixologlarining funktsiyalari aniqlab berildi. Pedagog-psixolog shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun qo`lidan kelgan barcha ishlarni qilishi kerak, bunda u bu ishlarga o`qituvchilarni va ota-onalarni ham jalb etishi mumkin. Pedagogik psixolog o`z ishida lozim topsa,

maktab va oila tarbiyasiga qarshi chiqishi mumkin, deb maxsus ta'kidlangan. Ko`pchilik Sharqiy Yevropa mamlakatlarida maktab psixologik xizmati tuman yoki viloyat psixologik-pedagogik markazlari shaklida tashkil etilgan. Masalan, **1980 yilda Chexoslavakiyada** tarbiya masalalari bo`yicha modda maktab to`g`risidagi qonunga kiritildi. Psixologik xizmatning asosiy mazmuni – sog`lom shaxsning o`sishini ta'minlash, shaxs rivojlanishidagi turli qiyinchiliklarni korreksiya qilish, kasb tanlash muammolaridir.Chexoslavakiyadagi psixolog maslahatchining asosiy funktsiyasi psixodiagnostik faoliyatdan iboratdir.

Sobiq sovet psixologiyasida bolalar tarbiyasi va ta'limida psixologiyadan foydalanish borasida urinishlar pedologiya doirasida vujudga keldi. Pedologiya rivojlanayotgan va o`sayotgan shaxsning barcha biologik va ijtimoiy xususiyatlarini qamrab oluvchi fandir. 1936 yilda pedologik qarashlarni to`xtatish haqida qaror qabul qilindi, shu bilan birga rus psixologlari amalga oshirayotgan bola psixologiyasidagi ijobiy izlanishlar ham to`xtab qoldi. Faqat 60 yillarning oxiriga kelib, psixologlarning maktab ishida amaliy ishtirok etishi qayta tiklandi. Sobiq Sovet Ittifoqida birinchi bo`lib **Estoniyada 1975 yilda** maktabda psixologik xizmat tashkil etildi (rahbari X.I.Liymets, Yu.L.Sierd bo`lib, tarbiyasi qiyin o`smirlar uchun maxsus maktablarda ish olib bordilar). **Rossiyada 1982 yilda** maktablarda psixolog shtati ochildi. Rossiyada I.V.Dubrovina psixologik xizmatning rivojlanishiga ulkan ulush qo`shgan, u ushbu mavzuda doktorlik dissertasiyasini yoqlagan va bir qancha asarlar muallifidir.1984 yilda Moskvada sobiq sovet ittifoqida psixologiya institutida "SSSRda psixologik xizmat muammolari bo`yicha I umumittifoq anjumani bo`lib o`tdi. Anjumanda maktabda psixologik xizmat sektsiyasi ham ish olib bordi.

Psixologik xizmatning respublikamizdagi holati. Psixologik xizmat-ijtimoiy psixologik muammo sifatida talqin qilinar ekan, barcha rivojlangan mamlakatlardagi kabi, O`zbekistonda ham mazkur psixologik xizmat muammosining qay tariqa va qanday ilmiy-tashkiliy asoslarda bartaraf etilayotganligini o`rganish, tahlil qilish va talqin qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, Respublikada psixologik xizmatga oid olib borilayotgan nazariy-ilmiy va amaliy-uslubiy tadqiqotlar ko`lamiga ma'lum tartibda baho bermay turib, O`zbekistonda psixologik xizmatni yanada takomillashtirish va rivojlantirish masalasi haqida fikr mulohaza yuritib bo`lmaydi.

O`zbekistonda psixologik xizmat tarkib topishining dastlabki ildizlari va intihosi asrimizning 30-yillaridagi pedologiya fani va pedologik xizmat faoliyatlariga borib taqaladi. Mazkur yillarda ta'lim jarayonini tashkil etish va rivojlantirish o`quvchi va o`qituvchi faoliyati bilan bog`liq psixologik omillarga asoslangan va bu talaygina yaxshi natijalar ham bergan. Biroq, afsuski, o`sha davrda sobiq ittifoq mafkurasi va xalq ta'limi o`rtasida paydo

bo`lgan ayrim ob'ektiv va sub'ektiv ziddiyatlar oqimi umumta'lim maktablari uchun muhim ahamiyat kasb etgan pedologik xizmat ildiziga bolta urdi va uni rasmiy tarzda yo`qqa chiqardi. Natijada, pedagogik psixologiya yo`li bilan bajariladigan barcha ishlar maktabda faqat pedagogik yondashuvlar asosidagina amalga oshirildi. Shunday bo`lsa-da, O`zbekistondagi umumta'lim tizimi bilan bog`liq izlanishlar va tadqiqotlar to`xtab qolgani yo`q. Ayniqsa, P. I. Ivanov, V. E. Chudnovskiy, M.G. Davletshin, M. Vohidovlar tomonidan ishlab chiqilgan qator ilmiy va metodik tavsiyalar maktabda psixologik xizmat tatbiqini yaratish uchun ma'lum darajada asos bo`lib keldi. Binobarin, 70-80-yillarda Toshkent Davlat Universiteti psixologiya kafedrasi olimlari tomonidan ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning hayotga tatbiqini amalga oshirish maqsadida talaygina mehnat jamoalarida psixologik xizmat tizimi joriy qilindi va Respublikamizda ilk bor qator mehnat va ishlab chiqarish jamoalarida inson va mehnat faoliyati, shaxs va shaxslararo munosabatlar, ishchi va rahbar, ruhiyat va rentabellik, rahbar va jamoa psixologiyasi bilan bog`liq ilmiy-amaliy ishlar olib borildi. Shuningdek, 60-70 yillarda O`zbekiston Pedagogik Fanlar Ilmiy Tekshirish instituti xodimlari P.P.Zimin, V.A.Tokareva, M.Sh.Rasuleva, M.Dadajonovlar tomonidan maktabda psixologik xizmat tatbiqini o`rganishga oid qator izlanishlar, amaliy tadbirlar olib borildi.

Ayniqsa, 1966 yilda Chirchiq shahrida axloqiy tarbiyaga oid,1973 yilda Andijonda oilaviy tarbiyaga oid, Samarqandda taniqli psixolog N.A.Menchinskaya ishtirokida aqliy taraqqiyot muammolariga oid olib borilgan izlanishlarni alohida qayd etish mumkin. **1989 yilda** O`zbekistonda amaliyotchi psixologlarning yetishmasligi sababli Nizomiy nomli **TDPIda** amaliyotchi psixologlar tayyorlash fakulteti ochildi.

O`zbekistonda psixologik xizmatning rivojlanishida M.G.Davletshin, E.G`.G`oziev, B.R.Qodirov, G`.B.Shoumarov, V.M.Karimova, Sh.R.Baratov,E.N.Sattarov, F.S.Ismagilova, Z.T.Nishanova, N.S.Safaev, F.I.Haydarov, S.X.Jalilova va boshqalar hissa qo`shganlar. 1998 yilda Sh.R.Baratov "Ta'lim tizimida va ishlab chiqarishda psixologik xizmatni tashkil etishning psixologik xususiyatlari" mavzusida doktorlik dissertasiyasini yoqlagan.

2.Ta'lim sohasida psixologik xizmatni tashkil etishning tamoyillari va strukturasi

Ma'lumki, psixologiya fanida aynan psixologik xizmat muammosiga bag`ishlangan va uning barcha yo`nalishlarini batafsil bayon etishga qodir ilmiy adabiyotlar yetarli bo`lmasa-da, bugungi kunda fan olamida va jamiyat taraqqiyotida psixologik xizmat muammosining zarurligini ko`rsata oluvchi va uning "metodologik ildizlarini" asoslab bera oluvchi ilmiy tadqiqodlarni

alohida qayd etish mumkin. Mazkur adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, ulardagi psixologik xizmat metodologiyasiga taalluqli ayrim umumiy jihatlarni ijtimoiy psixologiya fani nuqtai nazaridan tadqiq qilishimizga to`g`ri keladi. Chunonchi, barcha tadqiqotchilar ham ijtimoiy psixologiyaning metodologik tamoyillariga amal qilgan holda psixologik xizmat uchun muhim bo`lgan u yoki bu jihatni nazariy-ilmiy tarzda asoslab beradilar. Bular ichida psixologik xizmatning muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun muhim nazariy-ilmiy ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy psixologik vazifalarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarni (G.M.Andreeva, B.D.Parigin, T.V.Snigireva, A.V.Filippov, P.N.Shixirev, V.A.Yadov) ta'kidlash joiz. O`zbekistonlik psixologlardan M.G.Davletshin, V.M.Karimova, B.R.Qodirov, G`.B.Shoumarov, E.G`.G`oziev, Sh. R.Baratovlarni alohida qayd etish mumkin. Bu esa psixologik xizmatning bugungi kundagi ayrim dolzarb jihatlari, muammolari va uning yechimlari haqida o`ylashga, fikr mulohaza yuritishga va vazifalarni belgilab olishga nazariy-ilmiy va metodologik manba sifatida yordam beradi, deb o`ylaymiz. Ijtimoiy psixologiya metodologiyasi, tamoyillari va vazifalarini belgilashga qaratilgan tadqiqotlar mazmunida psixologik xizmat muammosining ham ma'lum ma'noda yashirinib yotganligini ko`ramiz.

Gap shundaki, har bir fanning rivojlanishi yangi dalillar asosida ilmiy yo`nalishni ochib beruvchi metodik qurilmalarning tuzilishi bilan bevosita bog`liqdir. Chunki, aniq metodologiya bo`lmagan sohada aniq amaliy natijalar ham bo`lmaydi. Zero, ijtimoiy psixologiya fanining yana bir muhim yangi vazifasi psixologik xizmat metodologiyasi bilan bog`liq nazariy, amaliy va empiric yo`nalishdagi tadqiqotlar ko`lamini belgilashning bugungi kungacha nechog`lik hal qilinayotganligini tahlil qilishga to`g`ri keladi. Bu borada psixologiya olamida hanuzgacha mukammal tarzda ishlab chiqilgan, rasmiy tarzda tan olingan yagona ilmiy yo`nalish yoki kontseptsiyaning qabul qilinmaganligi ayon bo`lsa-da, ilg`or g`arb psixologlari, Markaziy hamdo`stlik Davlatlari psixologlari, O`zbekiston psixologlari tomonidan olib borilgan va olib borilayotgan (eksperimental izlanishlarga yo`l ochib berilayotgan) fan olami uchun o`ziga xos salohiyatga va nufuzga ega bo`lgan tadqiqotlar mavjudki, ular qaysidir jihati bilan psixologik xizmat modeli, uning psixologik himoya vositasi sifatidagi mohiyati, ahamiyati hamda ijtimoiy istiqbollari haqidagi ilmiy-amaliy tasavvurlarimizni shakllantirishga asos bo`lib xizmat qilishi mumkin. Ilmiy adabiyotlardan bizga ma'lum bo`lishicha, ijtimoiy psixologik xizmat metodologiyasining umumiy yo`nalishlari G`arb ijtimoiy psixologiya namoyondalari tadqiqotlarini quyidagicha izohlash mumkin: V.Vundtning 1900 yilda chop etilgan "Xalqlar psixologiyasi" nomli yirik (o`n tomlik) epik asari ijtimoiy psixologiya yo`nalishlarini yorqinlashtirishga xizmat qilib, inson ma'naviyati, madaniyati va mafkurasini o`rganishning murakkab tomonlarini ochib berdi.

Taniqli ingliz psixologi Vil'yam Makdugallning 1908 yilda yozilgan "Ijtimoiy psixologiyaga kirish" asaridagi "ijtimoiy xulq-atvor instinktlari" nazariyasi freydizmga qarshi o`laroq inson instinktlari va faoliyat uyg`unligini ta'minlash muammosini yoritishga ilk bor asos bo`lib xizmat qildi. Binobarin, E.Fromm, J.Sallivan kabi olimlar tomonidan guruhlar psixologiyasi nazariyasini yaratishga asos solindi. Bunda turli xil ijtimoiy psixologik treninglar orqali guruhdagi shaxslararo munosabatlar bilan bog`liq psixologik iqlimni kamol toptirish yo`llarining ilk bor ko`rsatilishi mehnat jamoalaridagi ijtimoiy psixologik xizmat vazifalarini belgilash uchun ma'lum darajadagi empirik ma'lumot sifatida xizmat qilishi mumkin. G`arbda yaratilgan kognitivizm doirasidagi nazariyalar psixologik xizmat metodologiyasi uchun muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, L.Festingerning kognitiv dissonanslar nazariyasi (insonning faoliyat ob'ektiga nisbatan xulq-atvori yoki munosabatini ongli ravishda o`zgartirishga asoslangan), T.Nyuxomning hamkorlik kommunikativ nazariyasi (o`zgalarga va umumiy faoliyat ob'ektiga ijobiy munosabatlarni tarkib toptirishga asoslangan), C.X.Osgud va P.Tanenbaumaning "kongruentlik" (inson kognitiv tuzilishi asosidagi ob'ektni baholashga qaratilgan) nazariyasi, G.Olport, A. Maslou, K.Rodjers kabi ijtimoiy psixologlarning gumanistik doiradagi qator tadqiqiy izlanishlari shular jumlasidandir. Yana shuni qayd etish kerakki, amerikalik taniqli psixolog Abraxam Xarold Maslouning "Insonga bir butun yondashuv konsepsiyasi" psixologik xizmat jarayonida insonni tushunish va ijtimoiy motivatsion rivojlantirish muammosi ustida tadqiqotlar olib borilishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Maslouning fikricha, insonning barcha tug`ma potentsial imkoniyatlari faqatgina ijtimoiy shart-sharoitning yaratilishi bilan ro`yobga chiqishi va kamol topishi mumkin. Albatta, mazkur fikrlarning nechog`lik haqiqat ekanligini bugungi kunda har bir insonning o`ziga xos va uning ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiluvchi imkoniyatlari ko`lamini o`rganish hamda tarbiyalashni asosiy vazifa qilib olgan psixologik xizmatning tashkil etilishini muntazam kuzatishlarimiz natijalari tasdiqlab turibdi. Maslou fan olamida o`ziga xos "motivatsion tizimning ierarxik modeli"ni yaratdiki, unga muvofiq individ xulq-atvoridagi ijtimoiy jihatdan muhim bo`lgan yuqori ehtiyojlarning yo`nalishi quyi extiyojlarning qay tariqa qondirilishi asosidagina tarkib topishi mumkin. Bu jarayon quyidagi tartibga ega: Darhaqiqat, mazkur ierarxik tizim motivatsiyaning ilmiy jihatdan asoslab berilishi birinchidan, ijtimoiy psixologiyadagi ehtiyojlar va motivlar bilan bog`liqqator tadqiqotlarga hamohang bo`lsa, ikkinchidan, mazkur yo`nalishdagi psixologikxizmat metodologiyasini yaratish uchun alohida istiqbolga ega.Chunki, psixologik xizmatda insonning ijtimoiy ehtiyojlari muammosi ilmiy jihatdan to`g`ri talqin qilinishi va to`g`ri yo`naltirilishi lozim. Bu borada qator taniqli sotsiolog, sixolog va faylasuflar tomonidan e'tirof etilgan ilmiy mulohazalarga tayanish

mumkin. Masalan, D.N.Uznadzening "... ehtiyoj tushunchasi ... tirik organizm uchun zarur bo`lgan va ayni paytda qo`lga kiritilmagan barcha narsalarga taalluqli" va M.S.Kagan, A.V.Margulis, E.M. Etkindlarning "ehtiyoj – kerakli narsalarning yetishmaslik oqibati", V.A.Yadovning "ehtiyoj – inson shaxsi va organizm faoliyati uchun kerak bo`lgan zarurat hamda yetishmovchilik mahsuli", L.I.Bojovichning "ehtiyoj – individ organizmi va u shaxs taraqqiyoti uchun muhim bo`lgan zarurat", A.V.Petrovskiyning "ehtiyoj – jonli mavjudot hayot kechirishining konkret shart-sharoitlariga uning qaramligini ifoda etuvchi va bu shart-sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi holat" kabi fikrlari shaxs taraqqiyotini ta'minlash yo`lida ehtiyojlarning biologik va ijtimoiy uyg`unligini hisobga olgan holda psixologik xizmatning navbatdagi vazifalarini belgilash imkonini beradi. Psixologik xizmat metodologiyasini yaratishda insonning hissiy holatini tushunish va uning o`z mehnati mahsullaridan ijtimoiy qoniqish jarayonini tahlil qilish, rivojlantirishga bag`ishlangan ayrim tadqiqotlarning o`rni hamda istiqboliga ham alohida e'tiborni qaratish lozim. Masalan, F.Xersberg va uning izdoshlari tomonidan mehnat faoliyatini tashkil etishdagi emotsiogen farqlanish mexanizmlari tadqiq qilindi. Mazkur izlanish mahsuliga ko`ra mehnat faoliyatini tashkil etishda ijodiylik, mustaqillik, o`z-o`zini bilish, rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarga e'tibor berilsa, shaxs faoliyati unumdorligiga ijobiy ta'sir etuvchi hissiy kechinmalarni va aksincha, faqat texnik jarayondangina iborat bo`lgan mehnat sharoiti yaratilsa, shaxs faolligiga salbiy ta'sir etuvchi hissiy kechinmalarning namoyon etilishi kuzatiladi.

Darhaqiqat, faoliyatning bajarilishiga nisbatan ijobiy-hissiy kechinmalar shakllantirilmas ekan, faoliyat mahsuli ham insonning o`z faoliyatidan ijtimoiy ma'nodagi qoniqishi ham nihoyatda past saviyada bo`ladi. Psixologik xizmat esa, bizningcha, xuddi ana shu yerda o`z ta'sirini, ya'ni faoliyatdan ijtimoiy qoniqish jarayonini ma'lum darajada yuqori saviyaga ko`tara olish san'atini ko`rsatishi lozim. Ishchi xodimlarning mehnatdan qoniqish muammosi ustida olib borilgan ayrim tadqiqotlar natijasi psixologik xizmatning metodologik modelini loyihalashtirishga xizmat qilsa ajab emas.

Masalan, sobiq sovet psixologiyasi olimlari (N.F.Naumova, A.G.Zdravomislov, V.A.Yadov, V.P.Rojin, T.P.Bogdanova, E.A.Klimov, T.A.Kitvel) mehnatdan qoniqish jarayonini shaxsning munosabatlari motivlari, o`z-o`zini baholash ustanovkasi kabi ijtimoiy psixologik mezonlar bilan belgilanishini tavsiya etadilar va buni o`zlarining qator empirik tadqiqotlarida asoslab beradilar. G`arb ijtimoiy psixologiya olamida, ayniqsa Amerika psixologlari nazdida esa mehnatdan qoniqish "qator ijtimoiy ustanovkalarning o`zaro bir-biriga chambarchas bog`liqligi", "mehnat jarayonini sub'ektiv baholash bilan bog`liq emotsional holatlarning namoyon bo`lishi" sifatida

talqin qilinadi va mehnat faoliyatining ijtimoiy qimmatini oshirishga qaratilgan psixologik xizmat uchun muhim ilmiy-amaliy tavsiyalar beriladi.

"Mehnatdan qoniqish"ni ijtimoiy psixologik jarayon sifatida tadqiq qilgan ayrim psixologik tadqiqotlarni psixologik xizmatning metodologik vazifalaridan kelib chiqqan holda qayd etishimiz mumkin. Binobarin, vengriyalik psixologlar I.Balint va M.Muraning tadqiqotlarida psixologik xizmat vazifasini aniqlashga qaratilgan shaxslarning o`z ishidan qoniqishini ta'minlash va o`z ishidan (ya'ni o`z faoliyatidan) qoniqmaslik holatini bartaraf etish yo`llari ko`rsatiladi. Shuningdek, bu olimlarning ilmiy talqinicha, har bir ishchi-xodimning o`z ishidan qoniqishi uning kayfiyatini, faolligini ta'minlasa, ishdan qoniqmaslik esa korxonada yuz beruvchi ayrim favqulotda baxtsiz hodisalarning kelib chiqishiga sabab bo`ladi. Psixologik xizmat metodologiyasi uchun individual psixologik farqlanish nazariyasining yaratilishini va bu borada o`nlab yirik tadqiqotlarning mavjudligini muhim manbalardan biri sifatida hech mubolag`asiz e'tirof etish mumkin.

Differentsial psixologiyaning mahsuli bo`lgan bu yo`nalish, dastavval, nemis psixologi V.Shtern nomi bilan bevosita bog`liqdir. U o`zining 1901-yilda yozgan "Individual farqlanish psixologiyasi haqida" nomli asarida har bir individning o`ziga xos psixologik olami mavjudligini eksperimental tarzda tadqiq qiladi. F.Gal'ton, A.Bine, F.Lazurskiy, R.Kettell kabi olimlar bu sohada yangi bir yo`nalishni kashf qildilar. Shundan so`ng differentsial psixologiya har bir individ yoki guruhdagi qiziqishlar, ustanovkalar, hissiy qo`zg`alishlarni o`lchash va farqlash ob'ekti sifatida maydonga chiqdi. Psixologik xizmat metodologiyasi uchun ahamiyatli tomoni shundaki, har bir individ yoki shaxsning o`zigagina xos psixologik parametrlarini aniqlash va tegishli ilmiy mulohaza yurita olishga xizmat qiluvchi kompleks testlar, usullar, metodikalar majmuasi yaratildi. Binobarin, chet el ilg`or psixologiyasida psixologik xizmat metodologiyasi uchun muhim o`rin tutuvchi quyidagi yo`nalishlarga asos solindi:

1) Ch.Spirmen tomonidan "ikki omil" nazariyasi yaratildi. Bu nazariyaga muvofiq insonning har bir faoliyatida barcha faoliyatlar uchun umumiy bo`lgan (1-omil) va aynan mazkur faoliyatga mos bo`lgan (2-omil) barcha xususiyatlar o`zaro bog`liqlikda tadqiq qilinadi. Tadqiqotchi ushbu omillarning inson va faoliyat uyg`unligini ta'minlash uchun zarur bo`lgan psixologik mohiyati va mazmunini ochib beradi.

2) L.Terstoun, Dj.Gilford tomonidan yaratilgan "Multifaktor" nazariyasiga binoan birlamchi aqliy qobiliyatlar (idrok tezligi, xotira assotsiatsiyalari va hokazo) ning har bir individdagi tarkib topganlik ko`lami tadqiq qilindi va shu asosda har bir shaxs faoliyatiga alohida yondashuvni taqozo etuvchi psixologik xizmatning mmetodologik tamoyillari ishlab chiqildi. Umuman, psixologiyada individual farqlanishning 56 xil yo`nalishidagi tipi ma'lum va mashhur.

Masalan, ob'ektiv va sub'ektiv tip (dastavval, A.Bine tajribalarida qayd etilgan) fikrlovchi faol tip (A.M.Djordantu bo`yicha), ratsionalistlar va empiriklar (U.Djems tadqiqotlari bo`yicha) "chuqur-tor" va "mayda-keng" tip, (G.Gross ma'lumotlari bo`yicha), nazariy, iqtisodiy, estetik, ijtimoiy, siyosiy, diniy tiplar (E.Shpranger tadqiqotlari bo`yicha); shizotimik va tsiklotimik tiplar (E.Krechmer tadqiqotlari bo`yicha); visserotonik, somatomik, serebrotonik tiplar (U.Sheldon bo`yicha); ekstrovert va introvert tiplar (K.T.Yung va G.Yu.Ayzenk ma'lumotlari bo`yicha) haqidagi empirik ma'lumotlarning qayd etilishi, shular jumlasidandir. B.M.Teplov, V.S.Merlin, V.D.Nebilisin, E.A.Golubeva, B.R.Qodirov va ularning shogirdlari tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlar mazmuni ijtimoiy psixologiya psixologik xizmat uchun muhim bo`lgan har bir shaxsning (individning) tabiiy va tug`ma sifatlarini, oliy nerv faoliyatining o`ziga xos qobiliyat elementlarini va unga ta'sir etuvchi ta'lim-tarbiya, tashqi muhit va faoliyatning nechog`lik tashkil etilish jarayonini mukammal o`rganish va uni ijtimoiy maqsadlar asosida rivojlantirish yo`llarini belgilash uchun katta imkoniyat yaratdi. Mazkur imkoniyatlar avvalambor insondagi u yoki bu faoliyatni bajarishga bo`lgan iqtidor kurtaklarini o`rganishni va shu asosda shaxs faolligini kamol toptirish uchun asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Shunga muvofiq maxsus tadqiqotlar shuni tasdiqlayaptiki, faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun individual xususiyatlar, ayniqsa, har bir shaxs temperamenti hamda individual uslubiga ham bog`liq. Ayniqsa, mehnat va o`quv faoliyati jarayonida ushbu holatni kuzatish, tahlil qilish va rivojlantirish bilan bog`liq usullar majmuasining ishlab chiqilishi psixologik xizmatning muhim vazifasi ekanligidan dalolatdir. Shaxs faoliyatiga individual yondashuv yo`nalishi bilan bog`liq psixologik xizmatning ma'lum metodologik tamoyillarini ilmiy-tadbiqiy jihatdan asoslab beruvchi olim N.S.Leytes ma'lumotlariga qaraganda, asab tizimi nisbatan kuchsiz bo`lgan kishilarda ko`pincha bir xildagi ishning bajarilishida ma'lum afzalliklar borligi aniqlangan, ularning yuqori sezgirligi ta'sirlanuvchanlik muvaffaqiyatini ta'minlaydi, lekin u yoki bu faoliyat jarayonidagi favqulotda va kuchli qo`zg`aluvchilar asosida namoyon bo`luvchi vaziyatlarda kuchsiz tipdagi kishilar aynan o`zlarining fiziologik xususiyatlariga ko`ra ishni uddalay olmay qolishlari mumkin. Chunonchi, asab tizimi tipi ancha kuchli bo`lgan kishilar bir xil, ancha sust tipdagi kishilar esa boshqa xil vazifalarni bir muncha oson hal qiladilar. Asab tizimining kuchi bo`yicha farqlanadigan kishilar bir xildagi vazifani hal etishga ko`pincha har xil yo`llar bilan borishlari kerakligini N.S.Leytes o`z asarlarida har tomonlama asoslab berdiki, bu psixologik xizmatda hisobga olinishi mumkin bo`lgan muhim jarayondir. Zero, faoliyat unumdorligi insonning o`z potentsial imkoniyatlari ko`lamidan oqilona foydalanishning mahsulidir. E.A.Klimov, V.S.Merlin, V.M.Rusalov

B.M.Teplov tadqiqotlarida ham shaxs temperamenti asosida uning mashg`ul bo`lgan u yoki bu faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishdagi individual uslubning belgilanishi zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beruvchi ma'lumotlar bor.

E.A.Klimovning empirik ma'lumotlari shuni ko’rsatadiki, bir necha stanokda ishlashda asab tizimining ham "harakatchan tip"idagi, ham "harakatsiz tip"idagi xodimlar birdek yuqori darajadagi ishlab chiqarish muvaffaqiyatlariga erishishi mumkin. Buning asosiy sababi esa bir xil mehnat vaziyatida turlicha harakat yo'nalishini tanlay bilish va amalga oshirishdir. Umuman, yuqorida qayd etilgan olimlarning umumiy fikr-mulohazalariga ko`ra individual uslubning shaxsda darrov paydo bo`lmasligi, balki ko`pincha stixiyali tarzda (ya'ni, individual-hissiy asab sifatlari yordamida) paydo bo`lishi qayd etiladi. Demak, har bir shaxsga psixologik xizmat davomida o`z imkoniyatlari va faoliyat talabi uyg`unligini ta'minlash yo`llarini izlash asosida yondashilsa, mazkur shaxs faoliyatidagi individual uslubning tarkib topishi tobora rivojlanib, takomillashib nboradi. Bu esa, o`z navbatida shaxs va jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etmay qolmaydi. V.M.Rusalov tadqiqotlarida ijtimoiy psixologiya uchun muhim bo`lgan hamkorlik faoliyati muvaffaqiyati ma'lum jihatlari bilan individual uslub imkoniyatlariga ham bog`liq ekanligi qayd etilib, "xolerik" temperamentli kishi bilan sherik bo`lib ishlashga qaraganda" flegmatik" va" melanxolik" bilan birgalikda ishlash ancha samarali bo`lishi empirik ma'lumotlar asosida aniqlandi. Demak, muassasadagi amaliy psixolog har bir shaxs faoliyati hamkorligini tashkil etish jarayonida ushbu imkoniyatlarni hisobga olishi orqali ijtimoiy psixologik yutuqlarga erishishi mumkin.

3. Psixologik xizmat predmeti, maqsadi va vazifalari

Prezidentimiz o`zining O`zbekistonning bugungi istiqlol va istiqbol yo`lini ifodalovchi boshqa qator ma'ruzalari, asarlarida ham iqtisodiyot bilan ma'naviyat, inson ruhiyatining barkamolligi, hayotning o`zaro ajralmas, bir-birini to`ldiradigan, o`zaro ta'sir, aks ta'sir etadigan muhim omillari ekanligini, ayni paytda bugungi iqtisodiy o`nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishni, ma'naviy o`nglanish, ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg`un bo`lishini ta'minlashning muqarrar ijtimoiy zarurat ekanligini qayta-qayta ta'kidlaydi. Bu vazifalarning bajarilishi esa har bir shaxs va uning faoliyatini bugungi ijtimoiyiqtisodiy taraqqiyot tamoyillari qo`ygan talablar asosida qaror toptirishga ko`maklashuvchi psixologik xizmat jarayonining muvaffaqiyatli tatbiq etilishiga ham bog`liq ekanligi shubhasizdir. Zero, shaxs va uning faoliyatini har tomonlama rivojlantirish muammosiga psixologiyaning amaliy-tatbiqiy yo`nalishlari asosida yondashish zarurligi haqida ko`pgina olimlar o`z fikr-mulohazalarini bildirganlar hamda bildirib

kelmoqdalar. Ayniqsa, I.V.Dubrovina va X.Y.Liymets, Yu.L.Sierdlarning ko`p yillik tadqiqotlari natijasi o`laroq, umumta'lim maktablarida psixologik xizmatning joriy etilishi bu boradagi MDH mamlakatlarida qo`yilgan ilk qadam ekanligini alohida qayd etish mumkin. Qolaversa, o`zbek olimlaridan E.G`.G`oziev, M.G.Davletshin, G`.B.Shoumarov, B.R.Qodirov, R.Z.Gaynutdinov, V.M.Karimova, N.A.Sog`inovlarning ham O`zbekiston o`rta umumta'lim maktablari va oila tizimlarida psixologik xizmatni joriy etish borasida olib borayotgan qator nazariyilmiy va amaliy-uslubiy ishlari Respublikamizda psixologik xizmatni joriy etish va rivojlantirish uchun ma'lum darajada asos bo`lmoqda. Xalq ta'limi tizimidagi va o`rta maxsus kasb-hunar tizimidagi psixologik xizmatning maqsadi – shaxsning har tomonlama garmonik kamoloti, to`laqonli psixologik taraqqiyotni ta'minlovchi qulay shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.

Psixologik xizmatda tadqiqot va ta'sir o`tkazish ob'ekti maktabgacha yoshdagi bolalar, o`quvchilar, maxsus o`quv yurti va oliy maktab, kollej talabalari, o`qituvchilar, ota-onalar bo`lib hisoblanadi, ularni alohida yoki guruhiy shaklda tadqiq qilish mumkin.

Psixologik xizmat **uch asosiy bo`g`indan** tuzilgan:

1) Aniq o`quv muassasasida ishlaydigan bolalar amaliy psixologi.
2) Tuman xalq ta'limi qoshidagi tashhis markazi.
3) Respublika kasb-hunarga yo`naltirish va psixologik-pedagogik tashhis markazi.

Psixologik xizmat **metodlari** turli tuman bo`lishi mumkin:

a) xalq ta'limi va o`rta maxsus kasb-hunar ta'limi xodimlari, o`quvchilar, talabalar bilan ma'ruzalar turkumi, aholining psixologik madaniyatini o`stirish maqsadida trening mashg`ulotlari o`tkazish;
b) ilmiy ommabop adabiyotlarni yaratish va ularni tarqatish;
v) ommaviy axborot vositalarida chiqishlar;

Psixologik xizmatning mazmuni:

g) psixodiagnostik tadqiqotlar o`tkazish, metodikalar ishlab chiqish (test savol varaqasi, tajriba, kuzatish, suhbat va boshqalar);
d) psixologik maslahat berish;
e) psixologik konsiliumlar o`tkazish;
j) ta'lim va tarbiya beruvchi dasturlardan foydalanib psixodrama, psixokorreksion treninglarni amalga oshirish;
z) psixologik tadqiqot ob'ektining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o`quv dasturi, o`quv tarbiya rejalarini tahlil qilish va hokazolar.

Hozirgi bosqichda psixologik xizmat faoliyatining 2 yo`nalishi: dolzarb va kelajak yo`nalishlari mavjud. **Dolzarb yo`nalish** o`quvchilar ta'lim tarbiyasidagi qiyinchiliklar, ular xulq-atvoridagi, muloqotdagi va shaxsi shakllanishidagi buzilishlar bilan bog`liq muammolarni hal qilishga qaratilgan.

**Kelajak yo`nalishi** har bir bola individualligini rivojlantirishga, jamiyatda yaratuvchanlik hayotiga psixologik tayyorlikni shakllantirishga qaratilgan. Psixolog pedagogik jamoa faoliyatiga har bir o`quvchi shaxsi garmonik rivojlanish imkoniyatlari haqida asosiy psixologik g`oyani olib kiradi. Ikki yo`nalish ham bir-biri bilan bog`liq. Kollejlardagi va akademik litseylardagi psixologik xizmat o`rta maxsus ta'limining zaruriy tarkibiy qismidir. Bu xizmatning zaruriyligi kollej va akademik litsey ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Har bir o`quvchida hayotga ijodiy munosabat va individual xususiyatlarning taraqqiyotini ta'minlaganligini psixologik xizmat to`g`ri tashkil etilgan deyish mumkin. Psixolog o`zining inson xulq-atvori va psixik faoliyati, psixik taraqqiyotning yosh qonuniyatlari haqidagi kasbiy bilimlariga, ularning o`quvchilar va kattalar, tengdoshlari bilan o`zaro munosabat xususiyatlariga, o`quv-tarbiya jarayonini tashkil etishga bog`liqligiga tayanib, bolaga individual yondashuv imkoniyatlarini ta'minlaydi, uning qobiliyatlarini aniqlaydi, normadan chetlashishlarning bo`lishi mumkin bo`lgan sabablarini psixologik-pedagogik korrektsiya qilish yo`llarini aniqlaydi. Bu bilan psixologik xizmat maktabda o`quv tarbiya ishining mahsuldorligini oshirishga, ijodiy faol shaxsni shakllantirishga imkon beradi.

Psixologik xizmatni uch nuqtai nazardan qarab chiqish mumkin: ilmiy nuqtai nazar, tashviqot nuqtai nazar va amaliy nuqtai nazar. Ilmiy nuqtai nazar, tashviqot nuqtai nazar va amaliy nuqtai nazarlarning birligi **psixologik xizmat predmetini** tashkil etadi.

Ilmiy nuqtai nazar – psixologik xizmatning metodologik muammolarini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bu yo`nalish ijrochilarining asosiy funksiyasi maktab psixologik xizmatida ishning psixodiagnostik, psixokorreksion va rivojlantiruvchi metodlarini ishlab chiqish va nazariy asoslashga bag`ishlangan ilmiy tadqiqotlarni o`tkazishdan iborat.

Tashviqot nuqtai nazari xalq ta'limi xodimlarining psixologik bilimlardan foydalanishini nazarda tutadi. Bu yo`nalishda asosiy harakatlantiruvchi shaxslar bo`lib pedagoglar, metodistlar va didaktlar maydonga chiqadi.

Amaliy nuqtai nazarni maktab psixologlari amalga oshiradilar. Ularning vazifasi bolalarning maktab ta'limiga tayyorligini aniqlash, o`quvchilarning o`qish faoliyatini osonlashtirish, o`quvchi shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o`quvchilarning qobiliyat va moyilliklarini aniqlash, rivojlantirish, talabalar bilan hunarga, kasbga oid suhbat, maslahat ishlarini olib borish, turli xildagi "tarbiyasi qiyin" bolalar bilan ish olib borish kabi asosiy vazifani hal qilishdan iboratdir. Psixologik tashviqot ishlari teleko`rsatuv va radioda chiqish, yakkama-yakka maslahatlar tashkil etish, muloqot treninglari uyushtirishdan iboratdir. Psixologik xizmatning uchala vazifasi o`zaro chambarchas bog`liq, ularning birgalikda olib borilishi maqsadga muvofiq.

Kollej, litseydagi psixologlar direktorga va boshqarmaga bo`ysunadi. Kollej, litsey direktorlariga psixologik xizmat haqidagi Nizomda ko`rsatilgan vazifalar bilan bog`liq bo`lmagan vazifalarni kollej psixologiga topshiriq tariqasida berishlariga ruxsat etilmaydi. Psixologik xizmatning eng yuqori darajasi oliy va o`rta maxsus ta'lim vazirligi qoshidagi psixologik xizmatni tashkil etish va boshqarishning muvofiqlashtirilgan Respublika tashhis markazi tariqasida xizmat qiladi. Bu markazning psixologlar, pedagoglar va tibbiy xodimlardan iborat 3-5 kishilik doimiy ishlaydigan xodimlari bo`lishlari zarur.

Psixologik xizmatning tuzilishini quyidagi tarzda tavsiya etish mumkin. Xalq ta'limi tizimida psixologik xizmat uch bosqichdan iboratdir:

1. Yuqori bosqich – psixologiya kafedralari tomonidan psixologik markazlarning buyurtmalariga binoan ilmiy-amaliy hujjatlar, ko`rsatmalar va metodikalar ishlab chiqariladi.
2. O`rta bosqich – psixologik markazlar tomonidan yangi diagnostik amaliyotga tatbiq qilib ko`riladi.
3. Quyi yoki ommaviylashgan darajada barcha amaliy psixologlar faoliyatini yo`lga qo`yadilar.

4.Psixologik xizmat nazariyasi va amaliyotidagi zamonaviy tendensiyalar va muammolar

Transakt tahlil. (E.Bernning transakt tahlili) E.Bern ildizi psixoanalizga taqaluvchi taniqli kontseptsiyani yaratdi. Biroq E.Bern kontseptsiyasi shaxsning o`zi va boshqalar bilan munosabatini dasturlovchi xulqatvor kognitiv sxemalarini aniqlash va belgilashga urg`u qiluvchi ham psixodinamik, ham bixeviorial yondashuvlar, g`oyalar va tushunchalarni o`zida mujassam etgan. Zamonaviy transakt tahlil – shaxs nazariyasini, kommunikatsiyalar nazariyasini, bolalar rivojlanish nazariyasini o`z ichiga oladi. Amaliyotda u alohida odamlar bilan ishlashdan tashqari er-xotin, oilalar va turli guruhlarni korrektsiyalash tizimini tashkil etadi. Bern bo`yicha shaxs tuzilishi(strukturasi) uch “Men” yoki “Ego-holatlar”ning mavjudligi bilan xarakterlanadi: “Ota yoki ona”, «Farzand», “Katta”. “Ota yoki ona” – shartlar, talab va ta’qiqlarning interiorizatsiyalashgan ratsional me’yorlari bilan namoyon bo`luvchi “Ego-holat”. “Ota yoki ona” – bu bolalikda ota-onadan yoki boshqa obro`li shaxslardan olingan ma’lumot bo`lib, o`z ichiga xulq-atvor qoidalarini, ijtimoiy me’yorlarni, u yoki bu vaziyatda amalga oshirish mumkin bo`lgan va mumkin bo`lmagan me’yor va ta’qiqlardir. Ota-ona ta’siri ikki yo`nalishda amalga oshadi: birinchisi, “Mendek qil” shiori ostida olib boriluvchi bevosita yoki to`g`ridan-to`g`ri ta’sir, ikkinchisi, “Mendek emas, men aytganimdek qil” shiori bilan amalga oshiriluvsi bilvosita ta’sir. “Ota yoki ona” nazorat qiluvchi (ta’qiqlar, sanktsiyalar) yoki g`amxo`rlik qiluvchi (maslahat, qo`llab-

quvvatlash) bo`lishi mumkin. “Ota yoki ona”ga “Mumkin”, “Majbur”, “Hech qachon”, “Demak, eslab qol”, “Qanday bema’nilik”, “Bechora” kabi direktiv jumlalar xos. «Farzand» – odamdagi mazkur emotiv asos ikki shaklda namoyon bo`ladi.“Tabiiy bola” – bolaga hos bo`lgan barcha impulslar: ishonuvchilik, bevositalik, to`g`rilik, qiziquvchanlikni o`z ichiga oladi; bular odamga munosabatlardagi o`zigaxos maftunkorlik va iliqlilikni baxsh etadi. Shu bilan birga u injiq, tez hafa bo`ladi, egotsentrik, o`jar va agressivdir.“Adaptatsiyalangan bola” – ota-ona umid va talablariga mos keluvchi xulq-atvorni nazarda tutadi. “Adaptatsiyalangan bola”ga yuqori konformlik, o`ziga ishonchsizlik, uyatchanlik, tortinchoqlik xos. “Adaptatsiyalangan bola” qatoriga ota-onasiga qarshi chiquvchi “qo`zg`alonchi” bolalar ham mansub. «Farzand»ga “Men xohlayman”, “Men qo`rqaman”, “Men yomon ko`raman”, “Meni ishim yo`q” kabi jumlalar xos.
“Katta (ulg`aygan) “Men - holati” – odamning o`z tajribasiga tayangan holda borliqni ob'ektiv baholash va shu asosda mustaqil, vaziyatga mos keluvchi qarorlar qabul qilish qobiliyati xos. Ulg`ayganlik holati butun hayot davomida rivojlanish imkoniyatiga ega. “Katta”ning lug`ati reallikga bo`lgan beasos mulohazalardan holi ravishda qurilgan bo`lib, ob'ektiv va sub'etiv reallikni ob'ektiv ravishda o`lchash, baholash va ifoda eta olish imkonini beruvchi tushunchalardan iborat. “Kattalik, ulg`ayganlik” holati ustun odamlar ob'ektiv ratsional bo`lib, eng muvofiq adaptive xulq-atvorni amalga oshirish imkoniyatiga egalar.Agar “Ulg`ayganlik” holati muhrlangan bo`lib, faoliyat ko`rsatmasa, bunday odam o`tmishda yashaydi, u o`zgaruvchan dunyoni anglay olmaydi va uning xulqi “Farzand” va “Ota-ona” hayot kontseptsiyasi bo`lsa, “Farzand” his-tuyg`ular asosidagi hayot kontseptsiyasidir, “Ulg`ayganlik” esa ma'lumot yig`ish va uni tahlil etishga qaratilgan tafakkur asosidagi hayot kontseptsiyasidir. Bernda “Katta”“Ota-ona” va “Farzand” orasidagi qozi rolini o`ynaydi. U “Ota-ona” va “Farzand”da yozilgan ma'lumotni tahlil etgan holda mazkur vaziyatda qanday xulq-atvor muvofiqligini, qaysi streotiplardan voz kechib, qaysilarini qoldirish kerakligini tanlaydi. Shu sababli korrektsiya doimiy “Ulg`aygan, katta” xulq-atvorni shakllantirishga qaratilgan bo`lib, uning maqsadi “Doimo katta (bo`ladi)”. Transakt tahlil quyidagilarni o`z ichiga oladi: Korreksion ta'sir asosida rolli o`yinlar texnikasi yordamida o`zaro ta'sir (munosabat)larni demonstratsiyalashni nazarda tutuvchi “ego-pozitsiya (holat)lar”ni tizimli tahlili yotadi. Bunda ikki muammo (boshqalardan) yaqqol ajralib turadi: Kontaminatsiyalar, ya'ni ikki turli xil “ego-holatlarni” aralashuvi.Ajralishlar, ya'ni “ego-holatlar”ni bir-biridan keskin ajralib, chegaralanib qolishi.Transakt tahlilda ochiq kommunikatsiya (aloqa) tamoyili qo`llaniladi, tushunarli so`zlar bilan suhbatlashishadi (mijoz transakt tahlilga oid adabiyotlar o`qishi mumkin). Korrektsiya maqsadi. Asosiy maqsadi - mijozga o`z o`yinlarini, hayotiy

stenariyni, “ego-holatlar”ini anglashga va (zaruriyat bo`lganda) hayot qurish xulqatvoriga oid yangi qarorlar qabul qilishga yordam berish. Korrektsiya mazmuni – insonning bo`yniga qo`yilgan xulq-atvor dasturlaridan ozod etish hamda uni to`laqonli munosabatlar va yaqinlikka qobiliyatli, mustaqil, spontan bo`lishiga yordam berishdan iborat.Shu bilan birga mijozning mustaqillik va avtanomlikka erishishi, majburiyat (zo`rlash)lardan ozod bo`lishi, samimiyat va yaqinlikka ijozat beruvchi, o`yindan holi bo`lgan haqiqiy munosabatlarga kirishishi ham korrektsiya maqsadiga kiradi.

Yakuniy maqsad – shaxs avtanomiyasiga erishish, xulq, xatti-harakat va histuyg` ulari ma'suliyatini qabul qilishdan iborat. Psixolog pozitsiyasi. Psixologning asosiy vazifasi – zaruriy insaytni ta'minlash. Shu asosida uning pozitsiyasiga qo`yiladigan asosiy talablar – hamkorlik, mijozni qabul qilish, psixolog va ekspert pozitsiyalarini o`zaro birlashtirishdan iborat. Bunda psixolog mijozning “Katta”, “ego-holati”ga murojaat qilib, “Farzand”ning injiqliklariga erk bermaydi va mijozdagi g`azablangan “Ota-ona”ni tinchlantirmaydi.Psixologning (mijoz bilan) suhbatda mijozga tushunarli bo`lmagan terminologiyadan haddan ortiq foydalanishi, uni muammolarni o`z ishonchsizliklaridan himoyalanishga intilishi deb hisoblanishi mumkin. Mijozga qo`yiladigan talab va umidlar (natijalar). Transakt tahlildagi ishning asosiy sharti shartnoma tuzishdan iborat. Shartnomada mijoz o`z oldiga qo`yuvchi maqsadlar: mazkur maqsadlarga erishish yo`llari; o`zaro hamkorlikdagi ta'sir bo`yicha psixolog takliflari, mijoz bajarishi zarur bo`lgan talabalar ro`yhati haqida aniq kelishib olinadi. Mijoz belgilangan maqsadga erishish uchun o`zining qaysi qarashlarini, his-tuyg`ularini, xulq-atvor streotiplarini o`zgartirishi kerakligini hal qiladi. Erta yechim qarorlarni qaytadan ko`rib chiqqandan so`ng, mijoz avtonomiyaga erishish uchun fikrlashni, xulq-atvori va his-tuyg`ularini o`zgartiradi. Shartnomaning mavjudligi ikkala tomon (psixolog va mijoz)ning o`zaro ma'suliyatini taqozo etadi.

F.Perlzning geshtaltterapiyasi. Amerikalik psixolog F.Perlz tomonidan geshtaltpsixologiya, ekzistentsializm, psixoanaliz g`oyalari ta'sirida yaratilgan metod amaliyotda katta muvaffaqiyatga erishdi. F.Perlz tomonidan geshtaltpsixologiyada idrok sferasiga qo`yilgan figura (shakl) yuzaga kelish qonuniyatini inson xulq-atvori motivatsiyasi sohasiga ko`chirdi. U ehtiyojlarni yuzaga kelishi va qondirilishini mgeshtaltlar shakllanish va yakunlanish ritmi sifatida ko`rib chiqqan. Perlz bo`yicha, motivatsion sfera organizmning o`zini regulyatsiya qilish tamoyili asosida o`z funktsiyasini bajaradi. Inson o`zi va uni o`rab turgan atrof-olam bilan muvozanatda bo`ladi. O`z ehtiyojlarini, moyilliklarini realizatsiyalash - uyg`un, sog`lom shaxsga erishish yo`lidir. O`z ehtiyojlarini qondirishga, surunkali tarzda to`sqinlik qiluvchi, o`z “Men”ini realizatsiyasidan bosh tortgan inson vaqt qadriyatlarga amal qila boshlaydi, bu

esa o`z navbatida organizmning o`zini regulyatsiyalash jarayonini buzilishiga olib keladi. Geshtaltterapiyaga muvofiq organizm bir butun deb ko`rib chiqiladi va xulq-atvorning har qaysi aspektida insonning butun hayoti namoyon bo`lishi mumkin,deb hisoblanadi. Organizm – muhit, inson esa keng "dala"ning bir bo`lagidir. Sog`lom shaxsda muhit bilan chegara harakatchan bo`lib, aniq bir ehtiyojning paydo bo`lishi muhit bilan "kontakt" (aloqa)ni talab etadi va geshtaltni shakllantiradi, ehtiyojni qondirish esa geshtaltni yakunlaydi va muhitdan "chetlanishini" talab etadi. Nevrotik shaxsda "kontakt" va "chetlashish" jarayonlari qattiq buzilgan bo`lib, ehtiyojlarni adekvat qondirilishini ta'minlaydi.F.Perlz shaxsiy
o`sish –o`zini regulyatsiyalashga hamda ichki dunyo va muhit o`rtasidagi
muvozanatni koordinatsiyalashga imkon beruvchi o`zini anglash zonalarini kengayish
jarayoni deb hisoblagan. U anglashni uch zonasini ajratib ko`rsatadi: Ichki –
badanimizda amalga oshuvchi hodisa va jarayonlar.Tashqi – ongda aks etuvchi tashqi
voqea-hodisalar.O`rta – fantaziyalar, e'tiqodlar, munosabatlar.Nevrozda birinchi
ikkita geshtaltterapiyada o`zini regulyatsiya qilish jarayonining buzilishini besh mexanizmi farqlanadi:

Introeksiyada inson boshqa odamlarning hissiyotlari nuqtai nazarlari, e'tiqod,
baho, me'yor va xulq-atvor namunalarini o`zlashtiradi, ular o`z navbatida shaxsiy
tajriba bilan to`qnashib, shaxsni assimilyatsiya qilmaydi. Mazkur
noassimilyatsiyalashgan tajriba – introekt – inson shaxsini yot qilish hisoblanadi. Erta
introektlar qatoriga bola tomonidan tanqidiy fikrlashsiz o`zlashtirib olinadigan otaona
nasihatlari kiradi. Vaqt o`tishi bilan introektlar va o`z shaxsiy e'tiqodlarni
farqlash murakkablashadi. "U undan talab etilgandek fikrlaydi".

Proeksiya – integratsiyaning to`liq aksidir. Proektsiyada inson uning "Menkonsepsiya"
siga muvofiq bo`lgan o`ziga xos sifatlarni chetlashtiradi. Proektsiya
natijasida yuzaga kelgan "teshik"lar introektlar bilan to`ldiriladi. "U boshqalarga
ularni ayblayotgan narsalarni qiladi".

Retrofleksiya – o`ziga burish, ma'lum bir ehtiyojlar ijtimoiy muhit to`sqinligi
sababli qondira olinmaganligi natijasida, tashqi muhitda manipulyatsiyalashga
mo`ljallangan energiyani o`ziga yo`naltirish hollarida kuzatiladi va qondirilmagan

ehtiyoj yoki yakunlanmagan geshtalt sifatida ko`pgina agressiv hissiyotlar kabi namoyon bo`ladi. “U boshqalarga qilmoqchi bo`lganlarni o`zicha qiladi”. “Men” va
boshqalar orasidagi ziddiyat ichki shaxsiy ziddiyatga aylanadi. Nutqda “Men”...
qilishga o`zimni majburlashim kerak” kabi jumlalar mavjudligi refrofleksiya ko`rsatgichi hisoblanadi.

Defleksiya – real kontakt (aloqa)dan qochish. Defleksiyaga ega inson boshqa odamlar, muammo va vaziyatlar bilan bevosita aloqadan bosh tortadi. Defleksiya
ko`p gapirish, rituallik, xulq-atvor, ziddiyatli vaziyatlarni “tekislash” tendentsiyasi
shaklida namoyon bo`ladi.

Konfluensiya (yoki qo`shish) - “Men” va atrof olam o`rtasidagi chegarada namoyon bo`ladi. Bunday mijozlar qiyinchilik bilan o`z fikr, tuyg`u va xohishlarini
boshqalarnikidan farqlay oladilar. Konfluentsiya o`zida birqator himoya mexanizmlarini mujassam etib, undan foydalanishda individ o`zining asl “Men”idan
voz kechadi.

Yuqorida sanab o`tilgan mexanizmlar ta'sirida shaxs bir butunligi buziladi, u fragmentlar, alohida bo`laklarga bo`lingan holda bo`ladi. Ko`pincha bunday fragmentlar sifatida dixotomiyalar: aktiv-passiv, qaramlik-alohidalik, ratsionallikemotsionalik
va hokazolar namoyon bo`ladi.

Geshtaltkorrektsiyada “tugallanmagan ish” tushunchasi asosiy va markaziy tushunchalardan biri hisoblanadi. “Tugallanmagan ish” – bu javobsiz qolgan histuyg`
ular reallikni, bo`lib o`tayotganlarni aktual tarzda anglashga to`sqinlik qilish hodisasidir.Perlz bo`yicha, “Tugallanmagan ish”ning ko`p uchraydigan va eng og`ir
turlaridan biri xafagarchilik bo`lib, u kommunikatsiya (aloqa)lar haqiqiyligini buzadi.

Tugallanmaganlarni yakuniga etkazish, emotsional to`siqlardan ozod etish – geshtaltkorrektsiyasining muhim qismlaridan biri.Yana bir muhim terminlardan biri
“qochish, bosh tortish”dir. Mazkur tushuncha yordamida iqrordan bosh tortish hamda
tugallanmagan ish bilan bog`liq yoqimsiz kechinmalarni qabul qilish bilan aloqador

xulq-atvor xususiyatlari aks etadi. Geshtaltterapiya shaxsiy integratsiyasiga erishishda to`xtatilgan his-tuyg`ularni ifodalashni, ular bilan konfrontatsiyaga kirishishni hamda ularni qayta ko`rib (ishlab) chiqishni rag`batlantiradi. Haqiqiy individuallikni ochish yo`lidagi geshtaltkorrektsion jarayonda mijoz F.Perlz tomonidan nevroz bosqichlari deb ataluvchi besh bosqichdan o`tadi: **Birinchi bosqich**– soxta munosabatlar, o`yinlar va rollar boqichi. Bu qalbaki rolli xulq-atvor, odatiy streotiplar, rollar qatlamidir. Nevrotik shaxs boshqa odamlar orzu-umidlari asosida yashab, o`z "Men"ini realizatsiyalashdan bosh tortadi. Natijada inson o`z maqsad va ehtiyojlarini qondirishdan qochadi, frustratsiya, umidsizlik his etadi, hayot ma'nosini yo`qotadi.

Ikkinchi bosqich– fobik bosqich – qalbaki xulq-atvor va manipulyatsiyani anglash bilan bog`liq. Biroq, mijoz samimiyat qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tasavvur qilganda, uni qo`rquv hissi bosadi. Inson haqiqiy o`zligini ko`rsatishdan va o`z og`ir kechinmalariga duch kelishdan qo`rqadi.

Uchinchi bosqich - berklik va umidsizlik bosqichi. Bu bosqich inson nima qilishni, qayerga harakat qilishni bilmasligi bilan harakterlanadi. U tashqaridan beriladigan madad yo`qotilgani uchun qayg`uradi, lekin o`z ichidagi tayanch nuqtani topishga tayyor emas va hech qanday istagi ham yo`q. Natijada inson berklikdan chiqib ketishdan qo`rqqan holda kvo-statusini saqlaydi. Bu payt o`z nochorligi achinish bilan xarakterlanadi.

**To`rtinchi bosqich** - imploziya, inson o`zini o`zi chegaralagani va o`z "Men"ini bosganligini to`liq anglagani bilan shartlangan ichki umidsizlik, o`zidan nafratlanish holati. Bu bosqichda mijoz o`limdan qo`rqishni his etishi mumkin. Bu payt katta miqdordagi energiyani jalb etishi va insonning ichki kuchlarini o`zaro kurashi bilan xarakterlanadi. Buning natijasida yuzaga kelgan bosim, mijozni yo`q qilishga qodirdek kuzatiladi. Inson umidsizlikka tushgan holda qat'iylik bilan qaror

qabul qilishga urinish va bu ishni uddasidan chiqishga intiladi. Bu o`z “Men”iga yo`l
ochish qatlamidir.
Beshinchi bosqich– eksklyuziv, portlash. Mijoz ustidan qalbakilikni tashlab, o`z “Men”i asosida yashashni boshlaydi. Mazkur bosqichga yetganlik o`z hissiyotlarini ifodalash va boshdan kechirish qobiliyatiga ega autentik shaxs shakllanganligidan dalolat beradi. Demak, geshtaltkorreksiya – bu shaxsni ozod va
mustaqil etishga yo`naltirilgan yondashuvlardir.
Korreksiya maqsadlari. Geshtaltkorreksiya maqsadi mijoz shaxsini o`sish, qadr-qimmat va ulg`ayishga erishish hamda to`liq integratsiyasiga imkon berish
yo`lida “qulf”larni yechish, insonda mavjud tabiiy potentsial resurslarni faollashtirishdan iborat.Asosiy maqsad – insonga uning potentsialini to`liq realiatsiyalashga ko`maklashish. Bu maqsad bir necha yordamchi maqsadlarga tafovutlanadi:
Psixolog pozitsiyasi – geshtaltkorreksiyada psixolog mijozning bir butun geshtalt
shaxsiga integratsiyalangan katalizator, yordamchi, hamkor sifatida ko`rib chiqiladi.
Psixolog mijozning shaxsiy hissiyotlariga bevosita aralashuvni oldini olishga hamda
mazkur his-tuyg`ularni ifodalashni osonlashtirishga urunadi.
Mijoz bilan o`zaro ta'sirining asosiy maqsadi – mijoz shaxsiy o`sishini ta'minlashga olib keluvchi ichki shaxsiy zahiralarni faollashtirish.
Mijozga qo`yiladigan talablar va kutiladigan natijalar. Geshtaltkorreksiyada mijozga o`z xulq-atvori va hayoti sxemasini anglash asosida pozitsiya(holat)lari
interpretatsiyalash huquqini o`z ichiga oluvchi faol rol beriladi. Mijoz

ratsionalizatsiyalashdan kechinmalarni boshdan kechirishga o`tishi kutiladi. Mazkur
jarayonda mijozning o`z hissiyotlarni verbalizatsiyasidan ko`ra, uni mazkur jarayonga, aktual boshdan kechirishga tayyorligi muhim ahamiyat kasb etadi.
Takrorlash va muhokama uchun savollar:
1. Psixologik xizmatning rivojlanish tarixi haqida nimalarni bilasiz?
2. Psixologik xizmat ishlari qanday bosqichlarni o`z ichiga oladi?
3. Psixologik xizmatning predmeti nimadan iborat?
4. Psixologik xizmat ishlarini tashkil etishning maqsad va vazifalari haqida aytib bering.
5. Psixologik xizmat nazariyasi va amaliyotidagi zamonaviy tendensiyalar va muammolar nimalardan iborat?
Mavzu yuzasidan test savollari:

1.Psixologik xizmat qaerda va nechanchi yili rivojlana boshlagan?
*A. AQShda 1800 y.
B.Fransiyada 1990 y.
S.Estoniyada 1980 y.
D.Toshkentda 1941 y.
E.Rossiyada 1960 y.
2.Fransiya talim vaziri kimga o`qiy olmaydigan bolalarni tekshirish vazifasini topshiradi?
A.Elkoninga;
B.Feldshteynga;
*S.Binega;
D.E.G`ozievga;
E.Levinga.
3.Sobiq sovet ittifoqida birinchi bo`lib qayerda va nechanchi yilda maktabda psixologik xizmat
tashkil etildi?
A.Rossiyada 1982 y.
*B. Estoniyada 1975 y.
S.Chexoslavakiyada 1980 y.
D.O`zbekistonda 1989 y.
E.to`g`ri javob yo`q.
4. Fransiyada psixologik-pedagogik yordam guruhlari necha mutaxassisni o`z ichiga oladi?
31
A 1 ta;
B 2 ta;
*S 3 ta;
D 4 ta;
E 5 ta.
5. Fransiyadagi psixologik-pedagogik yordam guruhlari qancha o`quvchiga xizmat qiladi?
A. 500-700.
B. 700-900.
S. 900-1100.
*D. 800-1000.
E. 1000-1200.
6.Chexoslovakiyadagi psixolog maslahatchining asosiy funksiyasi nimadan iborat?
*A. Psixodiagnostik faoliyat;
B. psixologik maslahat;
S. psixokorreksion faoliyat;
D. Suhbatlar o`tkazish;
E. Treninglar o`tkazish.
7. Sobiq ittifoqda pedalogik qarashlarni to`xtatish haqidagi qaror qachon qabul qilindi?
A. 1916 y
B. 1926y
*S. 1936y
D. 1946y
E. 1956y
8.Estoniyadagi psixologik xizmat asoschilari kimlar?

*A. Liymets, Sierd
B. Bine, Simon
S. Leontev, Vigotskiy
D. Rubinshteyn, Bojovich
E. Elkonin, Davidov
32
9. O`zbekistonda xalq ta’limi va ishlab chiqarishda psixologik xizmat bo`yicha ilmiy ish qilgan
psixologni aniqlang.
A. Davletshin
B. G`oziev
S. Qodirov
D. Xaydarov
*E. Baratov
10. Psixologik xizmat amaliyotida keng qo`llaniluvchi transakt tahlil nazariyasining asoschisini aniqlang.
*A. E.Bern.
B. F.Perlz.
S. Z.Freyd.
D. R.Bendler.
E. J.Grinder.
33

2-BOB.TA’LIM SOHASIDAGI PEDAGOG-PSIXOLOGNING BURCHI VA MAJBURIYATLARI: ISHNING AHLOQIY TAMOYILLARI

Reja:
1.Ta’lim sohasida psixolog faoliyatining huquqiy asoslari.
2. Amaliyotchi psixologning ahloqiy kasbiy faoliyati.
3.Amaliy psixologning axloqiy kasbiy faoliyati asosida yotuvchi asosiy tamoyillar.
4. Psixologning ijtimoiy roli, kasbiy pozitsiyasi va statusi.
5.Amaliy psixolog shaxsiga qo`yiladigan talablar.
6. Psixologning amaliy psixologik xizmat vakili sifatidagi kasbiy shakllanishi muammosi
Mavzuning o`quv maqsadi: talabalarni ta'lim sohasida psixolog faoliyatining huquqiy asoslari bilan tanishtirish,talabalarni amaliyotchi psixologning ahloqiy kasbiy faoliyati haqida ma’lumot berish.
Darsning vazifasi:Bo`lajak psixologlarda kasbiy bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirish.
Tayanch tushunchalar:
Psixologik xizmat haqida Nizom, amaliyotchi psixolog, ijtimoiy rol, psixoprofilaktika, psixodiagnostika, psixologik maslahat, psixologik korreksiya.

1.Ta’lim sohasida psixolog faoliyatining huquqiy asoslari

Psixologik xizmat haqida Nizom amaliyotchi psixolog o`z faoliyatida amal qiladigan asosiy hujjat hisoblanadi. Psixologik xizmat haqida Nizom Sobiq Ittifoqda 1989 yilda qabul qilingan. Ushbu Nizomga ko`ra psixologlar haftasiga 41 soat ishlashar edi. O`zbekiston mustaqillikka erishganidan so`ng barcha sohalarda bo`lgani kabi psixologik xizmat sohasida ham bir qancha muvaffaqiyatlarga erishildi. Ulardan biri 1994 yilda tuzilgan "O`zbekiston Respublikasi xalq ta'limida psixologik xizmat, xalq ta'limi tizimida ishlaydigan psixologlarning malakasini oshirish va ularning attestatsiyasi haqida Nizom"ning Xalq ta'limi vaziri J.G`.Yo`ldoshev tomonidan tasdiqlanishi (**1996 yil 5 aprel**) bo`ldi. **2001 yilda** bu Nizomga

o`zgartirish kiritildi. Nizomga yettinchi bo`lim, kasb hunarga yo`naltirish bo`limi
34
ham qo`shildi. Maktablarga maxsus kasb-hunarga yo`naltirish darslari kiritildi. Ushbu darslarni psixologlar o`ta boshlashdi. **2002 yilda** Nizomga qayta o`zgartirish kiritildi. Bu o`zgarishning salbiy va ijobiy tomoni bo`ldi. Ijobiy tomoni shundaki, psixolog xonasini jihozlash maktab, litsey, kollej ma'muriyati zimmasiga yuklatildi. Salbiy tomoni esa, o`quvchilar kontingentining ortishida namoyon bo`ldi. Maktabda o`quvchilar soni 1000 nafar va undan ortiq bo`lsa, bir shtat birligi psixolog ajratiladigan bo`ldi. Kollejlarda 750 va undan ortiq o`quvchilarga 1 shtat birligi psixolog ajratilishi belgilandi.**2010 yilda** Nizomga qayta o`zgartirish kiritildi.

Psixologik xizmat haqida Nizom(1996 y) 6 bo`limdan iborat. Ular:

Umumiy qoidalar quyidagi bandlarni o`z ichiga olgan.

1. Psixologik xizmat xalq ta'limi va oliy o`rta maxsus ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.
2. Psixologik xizmat mutaxassislari barcha muammolarni hal qilishda har qaysi shaxsning “pedagog, o`quvchi, talaba, ota-ona” manfaati va uning har tomonlama garmonik rivojlanishidan kelib chiqqan holda yondashadi.
3. Psixologik xizmat mutaxassislari o`z faoliyatlarini tibbiyot xodimlari, defektologik xizmat, muhofaza qilish tashkilotlari, muayyan komissiyalar, balog`atga
35
etmagan o`smirlar inspeksiyasi, ota-onalar qo`mitasi, ishlab chiqarish jamoasi, jamoatchilik bilan uzviy aloqada amalga oshiradilar.

Amaliyotchi psixologlar o`qituvchiga berilgan barcha imtiyozlardan foydalanish huquqiga ega. Ularning mehnat ta'tili muddati barcha o`qituvchilar bilan barobardir. 1996 yildagi Nizomga ko`ra o`quvchilar soni 500gacha bo`lgan maktablarda 1 ta psixolog lavozimi belgilanadi. O`quvchilari 500 kishidan ortiq kontingentdagi maktablarda har 500 o`quvchi uchun ikkinchi psixolog lavozimi belgilanadi. Maktabgacha tarbiya muassasalaridagi har bir bolalar muassasasida 1shtat birligida bolalar psixologi lavozimi belgilanadi. Kollej va litseylarda har 250 o`quvchi uchun shtatli psixolog lavozimi tayinlanadi. O`quvchilar soni 250 kishidan yuqori kontingentli hollarda har 250ta o`quvchi uchun qo`shimcha psixolog shtati belgilanadi.

Psixoprofilaktika ishlari.

1. Ushbu yo`nalishning asosiy vazifalari har bir yosh bosqichida komil shaxs sifatida etilishi, aqlan barkamolligini ta'minlashning shart- sharoitini yaratish.
2. Shaxs kommunikativ va intellektual taraqqiyoti bo`sag`asida vujudga kelishi mumkin bo`lgan buzilish va nuqsonlarni o`z vaqtida oldini olish.

Psixologik maorif yoki ma'rifat o`quvchilar yoki xalq ta'limi xodimlari, aholining psixologik madaniy saviyasini ko`tarishga qaratilgan. Psixologik ma'rifat quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Psixologik muammolar bo`yicha pedagogik kengashlarda, ilmiy kengashlarda ma'ruzalar bilan chiqish.
2. Xalq ta'limi xodimlari o`rtasida psixologiya fanining oxirgi yutuqlarini targ`ib qilish.
3. Ota-onalar, tarbiyachilar va psixologlar ishtirokida psixologik seminarlar o`tkazish (bog`chada, maktabda).

4. Psixoturkum, ma'ruzalar va seminarlar tashkil qilish (oliy o`quv yurtlarida).
5. Metodik qo`llanmalar ishlab chiqish.
6. Ota - onalar bilan ma'rifiy suhbatlar o`tkazish.

7. Tajriba ishtirokchilarining kasbiy faoliyati xususiyatlarini hisobga olgan holda ularga psixologik ko`rsatmalar va tavsiyalar ishlab chiqish.
Psixodiagnostik ish.
Mazkur ishlar o`quvchilarni maktab, kollej va litseylarda o`qitish davomida psixologik-pedagogik jihatdan chuqurroq o`rgatishga yo`naltirilgan bo`lib, ularning individual xususiyatlarini, ta'lim va tarbiyadagi nuqsonlar sabablarini yoritishga yo`naltirilgandir. Psixodiagnostika ishlari guruhda yoki yakka holda o`tkaziladi. Bu asosda amaliy psixologlar quyidagi vazifalarni bajaradi:
1. Yosh davri taraqqiyoti mezonlariga muvofiqligini maktab o`quvchilari va bilim yurti tinglovchilarini, oliy o`quv yurti talabalarini psixologik tekshiruvdan o`tkaziladi. Ularning kamolot darajasini belgilaydi. O`quvchilarning kasbiy yaroqliligini diagnostika qiladi. Ularning shaxs hissiyotlari, irodaviy sifatlari, histuyg`ulari,o`z-o`zini boshqarish imkonini, intellektual darajasini tekshiradi.
2. Maktab yoshidagi bolalar, o`quvchilar kasb-hunar bilim yurti tinglovchilari, yangi tipdagi maktab, bolalarda uchraydigan o`qitish malakalari ko`nikmalarini egallashdagi nuqsonlar, xulq-atvoridagi kamchiliklar, intellektual taraqqiyot shaxs fazilatlaridagi buzilishlar sababini diagnostika qiladi.
3. Bolalarning voyaga etganlar va tengqurlari bilan munosabatini o`rganish uchun ularni tekshiradi.
4. Iqtidorli yoshlar, talabalar, aspirantlar tanlovlarida ishtirok qilish. Ilmiy psixologik tavsiyalar ishlab chiqish va shunga asoslanib nafaqa berish.
Rivojlantiruvchi va korreksion ishlar.
Psixologik xizmat mazkur ijtimoiy psixologik institutlar shaxs va individning tarkib topishi, ongiga faol ta'sir ko`rsatishni taqozo etadi. Ta'lim tizimidagi psixologning vazifasi psixologik xizmatni muayyan qoida, mezonga asoslanib tashkil qilishdan iborat. Yosh davr xususiyatlariga binoan psixikaning rivojlanishi shaxsning shakllanish qonuniyatlarini amaliyotga tadbiq etish, o`qituvchilar jamoasiga bolalar o`quvchilar va talabalar ta'lim tarbiyasini individuallashtirishga yordamlashish, ularning qobiliyatlarini shaxsini o`sishi darajasiga qarab o`qituvchilarga korreksiya ishlarini amalga oshirishda ko`rsatmalar berish. Psixologik xizmatning ushbu

yo`nalishida alohida ahamiyat kasb etadigan narsa bu bolalar, o`quvchilar, talabalar o`sishida kechikish, orqada qolish, ularda hulqning buzilishi, ta'limda o`zlashtirishning yomonlashuvi kabilarni o`rganish hisoblanadi.

2. Amaliyotchi psixologning ahloqiy kasbiy faoliyati

Psixologik xizmat xodimlari barcha muammolarni hal qilishda bolani har tomonlama va garmonik rivojlanish vazifalariga va uning qiziqishlariga tayanadilar. Amaliyotchi psixolog o`z faoliyatini pedagogik jamoa va ota-onalar bilan yaqin aloqada amalga oshiradi. Psixologik xizmat o`z faoliyatida tibbiy, defektologik va boshqa xizmat turlari, shuningdek, bola tarbiyasida yordam ko`rsatuvchi jamoatchilik xodimlari bilan yaqin aloqada ish olib boradi. Barcha mutaxassislar bilan munosabat tenglik asosida va fikrlarning bir-birini o`zaro to`ldirishi asosida quriladi.
Psixolog quyidagi aniq ishlarni amalga oshirishi lozim:

- bolalar, o`quvchilar, talabalar va ta'lim-tarbiya ishi bilan shug`ullanuvchi barcha shaxslarga, jumladan, ma'muriyat (direktor, rektor, mudira), o`qituvchilar, murabbiylar, ota-onalar, ijtimoiy hamda jamoatchilik tashkilotlari xodimlariga aniq maslahatlar berish;
- ta'lim, tarbiya, taraqqiyot, kasb tanlash va turmush qurish, o`zaro munosabat, muomala va muloqot sirlari, tengdoshlar va voyaga etganlar munosabati, maslak, dunyoqarash, qobiliyat, iqtidor, axloq-diyonat, iymon, vatanparvarlik muammolari yuzasidan yakka tartibda, guruh va jamoa tarzida maslahatlar uyushtirish;
- mamuriyatga bolalar, o`quvchilar va talabalarni (yotoqda, klublarda, kutubxonalarda) qiziqtiruvchi masalalar bo`yicha maslahat berish; ularni faollashtirish, ularga ta'sir o`tkazish to`g`risida rahbar kadrlarga amaliy ko`rsatmalar va tavsiyalar tayyorlash;
- shaxsning psixologik holati yuzasidan ekspert-konsultant sifatida tergov ishlarida qatnashish, xalq sudlariga bolalar, o`quvchilar va talabalar psixik o`sishining xususiyatlariga oid ma'lumot berish, o`g`il va qizlarni asrab olish, onalik va otalikdan mahrum qilish, tashkilotlarni g`amho`rlik va vasiylik to`g`risidagi qabul

qilgan qarorga munosabatini bildirish, shaxsning taqdirini hal qilishda qatnashish va maslahatlar berish;
- ota-onalarga bolaning psixik rivojlanish xususiyatlari, shaxs sifatida shakllanishi, odamlarning o`zaro munosabati, bunda farzandning yosh, jins, shaxsiy tipologik xususiyatlari muammosi yuzasidan ilmiy-amaliy ma'lumotlar berish;
- xalq ta'limi tizimining barcha bo`g`inlari va bosqichlarida ma'ruza o`qish, otaonalar yig`ilishida, metod birlashma majlisida, pedagogik kengashda, ilmiy kengashda ishtirok qilish orqali muallimlar, ota-onalarning psixologik madaniyatini oshirishga harakat qilish.

Psixolog ta'lim-tarbiya ish rejasini tuzishda, tarbiyaviy tadbirlar ishlab chiqishda, o`quv dasturi va qo`llanmalarni yaratishda faol ishtirok etishi, bosh maqsad bo`lgan shaxsning intellektual qobiliyati, umuminsoniy fazilati, bilim olish ko`nikmalari va malakalari, mutaxassislik fazilatlarini shakllantirishdek muqaddas ishga o`zining munosib ulushini qo`shishdan iborat sharafli vazifani bajaradi.

Yangi tipdagi maktablarga, o`rta maxsus va kasb-hunar hamda oliy o`quv yurtlariga o`quvchilar, talabalar tanlash mohiyati, vazifasi, monandligi, ularning imkoniyati, istiqboli to`g`risida ilmiy-amaliy xususiyatga molik konsultativ ishlarni olib borish: yoshlarni saralash, tanlash, ixtisosga yaroqlilik va layoqatlilik darajasini aniqlash, tanlov jarayonida maslahatchi sifatida qatnashish va boshqalar.

Amaliy psixologning huquqlari:

- Bog`cha, maktab va oliy o`quv yurtining ta'lim-tarbiya shart-sharoitlarini aniq hisobga olib faoliyat uchun eng muhim yo`nalishni tanlaydi.
- Pedagogik kengash, ota-onalar yig`ilishi, ilmiy kengash va pedagogik konsiliumlarda ishtirok etadi.
-o`quv-tarbiya jarayonida bolalar, o`quvchilar va talabalar xulqi, o`quv faoliyati xususiyatlarini kuzatish maqsadida dars, ma'ruza, sinfdan va auditoriyadan tashqari mashg`ulotlarda, umumiy tadbirlarni o`tkazishda qatnashadi.
-Murabbiy, ota-onalar qo`mitasi, o`qituvchilarning metod birlashmalari majlislarida ishtirok etadi.

-Bog`cha, maktab, o`quv yurtlarining hujjatlari bilan tanishadi va ularni tahlil qiladi.
-Muayyan davr oralig`ida amaliy faoliyatning yetakchi yo`nalishi yuzasidan har xil ishlarni navbatma-navbat amalga oshiradi.
-Ilmiy izlanishlarni yo`lga qo`yish maqsadida bog`chada, maktabda, o`quv yurtlarida guruhiy va yakka tartibdagi psixologik tekshirishlar hamda tajribalar o`tkazadi.
-Pedagog-psixolog sifatida o`z tajribalarini umumlashtirib, maqolalar va xabarlar e'lon qiladi.
-Pedagogik-psixologik bilimlarni turmushda targ`ibot qilish ishlarini olib boradi.
-Psixolog ixtisosligi bo`yicha yarim stavkada ishlash imkoniyatiga ega (Ushbu fikr ikkinchi mutaxassislik sifatida qayta tayyorlovdan o`tgan psixologlarga tegishlidir).
-Majburiyatlarini muvaffaqiyatli bajarish uchun yuqori tashkilotlardan shartsharoit yaratishni talab qiladi.
-Nizom bandlariga, uning ish tamoyillariga zid bo`lgan ma'muriyat topshirig`ini bajarishdan bosh tortadi.
-Ma'muriyat orqali u yoki bu tashkilotga o`quvchilarga yordam berish zaruriyati to`g`risida ma'lumotnoma yuboradi (ota-onalar ish rejimini o`zgartirish, sanatoriy bilan ta'minlash, yo`llanma berish, vaqtincha mehnat bilan ta'minlash va boshqalar).
-O`quvchilar va abiturientlarni kasb tanlashga oid muammolarini hal qilish maqsadida kasbga yo`naltirish markazlariga murojaat qiladi.
-Ota-onalarga zaruriyat tug`ilganda oilaviy turmush psixologiyasiga oid konsultativ xizmat xonalarini tavsiya qiladi.
- Tibbiyot va defektologik muassasalarga rasmiy talablar yuboradi.
-Tibbiy psixologik-pedagogik konsultativ ishlarda ishtirok qiladi, balog`atga yetmagan o`smirlar komissiyasi faoliyatida qatnashadi, bola taqdiri hal qilinayotgan tashkilotlar bilan aloqa bog`laydi. Umuman, psixolog yordamchi ovoz berish huquqiga ega, xolos. Agarda qabul qilingan qarorlarga nisbatan e'tiroz bildirsa, u holda o`z fikrini bildirish, uni dalillash uchun yuqori tashkilotlarga murojaat qiladi.

-Psixologik xizmatni ilmiy jihatdan ta'minlash maqsadida ilmiy-uslubiy markazlar bilan uzviy aloqa bog`laydi.
-Bog`cha, maktab, o`quv yurti faoliyatini yaxshilash, takomillashtirish bilan bog`liq bo`lgan muammolarni hal qilishni xalq ta'limi tashkilotlari oldiga qo`yadi.
-Ilmiy-uslubiy markaz rahbarligida yangi diagnostik metodikalar ishlab chiqish, tavsiyalar yozishda faol ishtirok qiladi.
- Amaliy psixolog maktab ma'muriyati va tuman tashxis markaziga bo`ysunadi.
-Kontingent 1000 tadan oshgan umumta'lim maktablarida maktab psixologi lavozimi ta'sis etiladi.
-Maktabgacha tarbiya muassasalarining ikkitasiga bitta psixolog lavozimi belgilanadi.
-Texnika, kasb - hunar bilim yurtlarida o`quvchilar kontingenti 750 dan ko`p bo`lsa, bitta shtat ajratiladi.
-Pedagogik kollejlarda, talabalar qancha bo`lishidan qat’iy nazar amaliy psixolog faoliyat ko`rsatilishi shart.
-Oliy maktablarda psixologik markaz faoliyat ko`rsatilishi lozim.

Amaliy psixologning ish haqi katta metodist darajasida bo`lishi nazarda tutiladi.
-Amaliy psixologning ta'tili barcha maktab o`qituvchilari bilan bir vaqtda bo`ladi.
Oliy va o`rta maxsus, xalq ta'limi tizimidagi psixologlarning faoliyati, psixologik maslahat va muomalaning ijtimoiy-psixologik faol usullari, psixokorreksion, psixodiagnostika, ijtimoiy, pedagogik, bolalar psixologiyasi sohalari bo`yicha umumpsixologik tayyorgarlik olgan, psixologik ixtisosga ega bo`lgan mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

3.Amaliy psixologning axloqiy kasbiy faoliyati asosida yotuvchi asosiy tamoyillar

Amaliyotchi psixologning o`qituvchilar, o`quvchilar, ota-onalar hayoti bo`yicha muammolariga shaxsiy tajribasi bo`lmay turib, maslahat berishga haqqi bormi?
Bu muammo birinchi navbatda oilaviy hayot va oilada bolalarni tarbiyalash masalalariga tegishlidir. Bu masalani muhokama qilishda psixologlar anchadan beri bahslashadilar va hali umumiy qarorga kelinmagan.

Ba'zilar bu savol xirurg haqidagi: «biror marta operatsiya stoliga yotmasdan, operatsiya qilishga haqqi bormi?» - degan savolga o`xshaydi, deyishadi. Ma'lumki, tibbiyotda bunday savol tug`ilmaydi. Shuning uchun, psixologlarning birinchi guruhi, mutaxassis, amaliyotchi sifatida har xil yoshdagi insonlar bilan turli muammolar bo`yicha ishlashni bilishi kerak, deb hisoblaydilar.
Psixologning xususiy hayoti va shaxsiy tajribaning mavjudligi yoki yo`qligi katta ahamiyatga ega emas: muhimi bu kasbiy mahorat (professionalizm).
Boshqa psixologlarning fikricha, amaliyotchi psixologning shaxsiy hayotiy tajribasi muhim ahamiyatga ega, hech qanday eng yuksak kasbiy mahorat va bilimlar bilan ham almashtirish mumkin emas. Ularning fikricha, nizolar va ularni boshqarish usullari haqida o`n soatlik ma'ruzani eshitish mumkin, lekin agar siz yaqin kishingiz bilan bo`lgan nizoni boshdan kechirmagan bo`lsangiz, munosabatlarni buzmasdan amaliy hal qila olmagan bo`lsangiz, ish joyingizda nizolarni boshqarishga kirishmang. Bunda sizda faqat texnika va faqat kasbiy mahorat namoyon bo`ladi, sizning ichki dunyoingiz, ruhingiz, sizning boshdan kechirganlaringiz, sizning dardingiz bo`lmaydi. Shunday qilib, kasbiy ishda texnika yoki shaxsiy tajriba bilan boshdan kechirayotgan ichki dunyo, ruh - ikkisidan biri bo`lishi kerak.
Nima uchun «va» so`zini emas, yoki so`zini ishlatish kerak. Bizningcha, amaliyotchi psixologning kasbiy ishi – bu kasbiy bilimlar va hayotiy tajribasidir. Birini ikkinchisidan ajratish mumkin emas. Psixologik kasbda kasbiy bilimlar va shaxsiy tajribasiz ish olib borish qiyin.
-Pianinochini kuzatsak. U soatlab texnik vosita hisoblanmish qo`l va barmoqlarni mashq qiladi. Lekin u chalayotganda «texnik barmoqlari» tagida asar «musiqaviy hayot» sifatida yashay boshlaydi, o`zining musiqiy ruhiyatiga ega bo`ladi. Siz doim texnik ijrochi bilan mumtoz ijroni ajrata olasiz.
Texnika faqat asos, haqiqiy ijod yetishib chiqadigan yer, negizdir.
Psixolog sizning hayotingizda hammasi joyidami?
Maktab psixologlari, umuman amaliy sohadagi ishlaydigan psixologlarga atrofdagilar boshqacha munosabatda bo`ladilar. Men oramizda nima bo`layotganiga

tushunmayman? «Siz psixologsiz-ku, hammasini tushunishingiz va tushuntirishingiz kerak»,- deyishadi.

Yuqori sinfda o`qiydigan qizi onasiga: «Oyi, siz nimadir qiling, psixologsiz-ku», deydi.
Maslahatga kelgan mijoz: «Siz psixologsiz, biz birga yashashimiz yoki yashamasligimizni, o`zingiz hal qiling», deydi. Psixologlar ko`pincha boshqalarga oilaviy nizolar bo`yicha maslahat berishadi-yu, lekin ba'zan o`zlarining oilalarida hammasi joyida bo`lmasligi ham mumkin. Bunga ko`pincha ularning oila psixologiyasi bo`yicha hamma narsani bilganliklari tufayli oilada haddan tashqari yumshoq bo`lishlari ham sabab bo`lishi mumkin. Ishda professional psixolog bo`lib, uyda bo`lsa professional rolni chetga qo`yib, xuddi ish kiyimingizni yechib, uy xalati kiyganday, o`zimizni erkin tabiiy his qilishimiz zarur.

4. Psixologning ijtimoiy roli, kasbiy pozitsiyasi va statusi

Hozirgi vaqtda maktablarda, litsey va kollejlarda ikki yo`l bilan amaliy psixologiyaga kelgan psixologlar ishlashadi. Birinchilari–universitetlarning psixologiya fakul'tetini bitirgan va ikkinchilari–maktabda ma'lum vaqt o`qituvchi bo`lib ishlab, keyin amaliyotchi psixologlar fakultetini bitirib, so`ng o`z maktablariga psixolog sifatida qaytib kelganlar.
Bu ikki psixologlar guruhining qaysi biri mahsuldorroq, degan savol tug`iladi. Asosiy ma'lumotli psixologlar yaxshi kasbiy bilimga egalar, psixologik metodlarni yaxshi biladilar. Lekin ular maktab hayotidagi ishning barcha xususiyatlaridan xabardor emaslar.
Ikkinchi mutaxassislikni egallagan o`qituvchi psixologlar, aksincha, maktab va pedagogik amaliyot bilan yaxshi tanishlar, lekin psixologik bilimlar va psixologik ish ko`nikmalari etishmasligini his qiladilar.
Psixologning shaxsiy va kasbiy moslashuvi.
Psixolog bitiruvchilar dastlab maktabga borganda, o`zlarini himoyasiz sezadilar, birinchi navbatda nima qilish kerakligini, o`zini qanday tutishni, kim bilan qanday gaplashishni bilmaydilar. Ular maktabda muammolarga ko`milib ketadilar,

hammasini birdan bajarib, maktabga foydali ekanligini ko`rsatishga urinadilar, maktabda har kuni, dam olish kunlari, hatto kechalari ham qolib ketadilar. Natijada zo`riqish, charchash, ish qobiliyatining pasayishi ko`zga tashlanadi.
Shu o`rinda psixologlar psixologik xizmat haqidagi Nizomda keltirilgan psixologlarning huquqlari va javobgarligi bilan tanishishlari maqsadga muvofiq.
Nizomda keltirilishicha, psixolog quyidagi huquqlarga ega:
 bolalar, ularning ota-onalari yoki qonuniy vakillari, shuningdek, maktabgacha ta'lim, umumta'lim muassasasi, mehribonlik uyi pedagoglari bilan olib boriladigan ishlarning muayyan yo`nalishlarini mustaqil shakllantirish;
 psixologik xizmatni amalga oshirish doirasida tadbirlarning ketma-ketligini, maktabgacha ta'lim, umumta'lim muassasasi, mehribonlik uyi pedagogik jarayonining o`ziga xos tomonlari, muayyan shart-sharoitlari va kontingentini hisobga olgan holda o`z faoliyatining ustuvor yo`nalishlarini belgilash;
 muassasa rahbariyatiga o`zi uchun xona, mebel jihozlari, kompyuter va boshqa texnika vositalari, idora buyumlari ajratilishi to`g`risidagi talablar bilan murojaat qilish;
 maktabgacha ta'lim, umumta'lim muassasasi, mehribonlik uyi hujjatlari bilan tanishish;
 psixologik-pedagogik tashxisga oid yangi metodikalar, psixoprofilaktika va

korreksion-rivojlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqishda qatnashish, ularni sinovdan o`tkazish va amaliyotga joriy etishda ishtirok etish;
 ma'muriyat bilan kelishgan holda sinfdagi va sinfdan tashqari mashg`ulotlar, shuningdek, boshqa tadbirlarda o`quvchilarning xulq-atvori hamda individual xususiyatlarini, ularning o`qishga, sinf rahbari va o`qituvchilar bilan muomala munosabatini o`rganish maqsadida ishtirok etish;
 psixologik tadqiqot va tajribalar o`tkazish, ularning natijalarini ilmiy jurnallarda hamda boshqa matbuot nashrlarida e'lon qilish;
 muassasa ma'muriyati ko`rsatmalari psixologning mazkur Nizomda belgilangan majburiyatlari, funksiyalari va faoliyat yo`nalishlariga zid bo`lsa, ularni bajarmaslik;
44
 bolalar taqdirini hal etuvchi turli idoralar va komissiyalar ishida maslahat ovozi huquqi bilan qatnashish, qabul qilingan qarorlar qoniqtirmagan holatlarda yuqori turuvchi idoralarga murojaat qilish;
 joylardagi davlat hokimiyati idoralariga, tibbiyot va huquqni muhofaza qilish muassasalariga, boshqa davlat va jamoat tashkilotlariga bolalar huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilish masalalari bo`yicha iltimosnomalar bilan murojaat qilish;
 barcha darajadagi tashxis markazlariga maktab o`quvchilarining kasbiy o`zligini belgilashi hamda kasb - hunarga yo`naltirish masalalalari bo`yicha murojaat etish;
 O`zbekiston Respublikasi qonunchiligida xalq ta'limi tizimi muassasalari xodimlari uchun nazarda tutilgan rag`batlantirish va imtiyozlardan foydalanish.
Shuningdek, psixologik xizmat haqidagi Nizomda keltirilishicha, psixologlar mehnatini rag`batlantirish quyidagi holatlarni o`z ichiga oladi:
45
– Psixologlar mehnatini moddiy va ma'naviy rag`batlantirish amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.
– Ko`p yillik mehnatlari natijalari bo`yicha yuqori natijalarga erishgan psixologlar O`zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va O`zbekiston Respublikasi Hukumatining mukofotlariga taqdim etilishi mumkin.
– Psixologlar shartnoma asosida haq to`lanadigan ta'lim va psixologik xizmatlar ko`rsatishda, shuningdek, xalq ta'limi muassasalarining manfaatdor yuridik hamda jismoniy shaxslar bilan tuzadigan tadqiqotchilik loyihalari (grantlar)ni bajarishda qatnashadilar.
– Psixologlarga malaka toifalari attestatsiya natijalariga ko`ra belgilanadi hamda ularning mehnatiga haq to`lash differensial tarzda malaka toifasiga muvofiq amalga oshiriladi.

5.Amaliy psixolog shaxsiga qo`yiladigan talablar

Amaliy psixologning faoliyati uning huquqlari va burchlari majmuasi bilan boshqarilib turilishi lozim. U quyidagilardan iborat:
- Psixolog o`z faoliyatini O`zbekiston Respublikasi hukumatining xalq ta'limi sohasi bo`yicha qabul qilgan hujjatlariga amal qilgan holda bajarishi shart. Psixolog oliy o`quv yurtining psixologiya sohasini (qisqa kursni) bitirganligini tasdiqlovchi maxsus hujjatga ega bo`lishi lozim.
- Psixologiya fanining eng so`nggi yutuqlaridan xabardor bo`lishi, bolalar psixologiyasi, pedagogik psixologiya, amaliy psixologiyani chuqur bilishi zarur.

Diagnostik, psixoprofilaktik, rivojlantiruvchi va psixokorreksion ishlarning hozirgi zamon ilmiy yutuqlariga asoslangan metodlar bilan qurollanishi, xalq ta'limi tizimida doimo o`z malakasini oshirib borishi kerak.
- Muammolar muhokamasida va ular yuzasidan qaror qabul qilishda kasbiy vakolat chegarasidan aslo chetga chiqmaslik ma'qul.
- Shu sohaning mas'ul mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan qoidalarga rioya qilgan holda barcha ko`rsatmalar va tavsiyalarni qat’iy bajarishi shart.

- Barcha psixologik masalalarni hal qilishda o`quvchi va talaba manfaati, ijtimoiy tarbiya maqsadidan kelib chiqishi zarur.
- Diagnostik va korreksion faoliyat natijalarini sir saqlash, olingan ma'lumotlar sinaluvchilar shaxsiyatiga zarar keltirmasligi, ularni qurshab turgan muhit a'zolari tahlikaga tushmasligi kerak.
- Ma'muriyat, ota-onalar, o`qituvchilar jamoasi bilan hamkorlikda faoliyat ko`rsatishi lozim.
- Bog`chada, maktabda va oliy o`quv yurtida o`tkaziladigan tadqiqot maqsadi, mohiyati, vazifasi va natijalari yuzasidan pedagogik kengash, ilmiy kengash, ma'muriyat (rahbariyat, direktor, rektor)ga ma'lumot berish va Nizom bandlariga qat'iy rioya qilishi maqsadga muvofiqdir.
- Ma'muriyatga, pedagogik kengashga, ilmiy kengashga o`quvchi va talabalarga yakka tartibda yondoshishni ta'minlovchi imkoniyat, ularni hal qilishning psixologik shartlari, ta'lim-tarbiyadagi nuqsonlarning oldini olish omillari, yo`llari yuzasidan yordam ko`rsatish zarur.
- Bolalar, o`quvchilar, talabalarning shaxsiy muammolarini hal qilishda baholi qudrat ko`mak berishi darkor.
- Ota-onalarga tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda maslahatlar berish, nizoli vaziyat va psixologik holatlarni birgalikda tahlil qilish va amaliy tavsiyalar bildiradi.
- Ota-onalarga farzandlarning tibbiy yordamga muhtojligi yoki boshqa muassasalarga murojaat qilish zaruriyat ekanligini yuksak pedagogik odob bilan tushuntirishi, berilayotgan ko`rsatmalarga ularni ishontirishi shart.
- Barcha qoidalarga va tasdiqlangan hujjatlarga rioya qilingan holda o`tkaziladigan ishlarni qayd qilish va belgilashi lozim.
- O`z faoliyatining (yutuq, nuqson, nizo, hamkorlik) natijalari yuzasidan yuqori tashkilotlarga o`z muddatida axborot berib borish, qabul qilingan hisobot shakllariga hech og`ishmasdan rioya qilishi kerak.
- Bog`cha, maktab, yangi tipdagi o`quv yurti va oliy o`quv yurtlarida maxsus talablarga javob beruvchi, jihozlangan psixologik kabinetni tashkil qilishi maqsadga muvofiq.

- Amaliy psixologlarning seminarlari va ilmiy-amaliy anjumanlarida faol ishtirok qilishi kerak.
- O`zbekistan Respublikasining mafkurasiga, Konstitutsiyasiga, ijtimoiy, etnopsixologik, axloq-odob qoidalariga zid bo`lgan tekshirishlar o`tkazmasligi kerak.
- Bolalar, o`quvchilar va talabalar tanlash komissiyasida (birinchi sinfga, maxsus sinflarga, yangi tipdagi maktablarga, oliy o`quv yurtlariga qabul qilishda, chet elga ularni o`qishga yuborishda) qatnashishi lozim.
- Ijtimoiy psixologik holatlarni o`rganishda mahalliy hokimiyatga yordam

berish va ommaviy harakatlarni barqarorlashtirishda oldingi safda bo`lishi darkor.

6.Psixologning amaliy psixologik xizmat vakili sifatidagi kasbiy shakllanishi muammosi

- Barcha psixologik masalalarni hal qilishda o`quvchi va talaba manfaati, ijtimoiy tarbiya maqsadidan kelib chiqishi zarur.
- Diagnostik va korreksion faoliyat natijalarini sir saqlash, olingan ma'lumotlar sinaluvchilar shaxsiyatiga zarar keltirmasligi, ularni qurshab turgan muhit a'zolari tahlikaga tushmasligi kerak.
- Ma'muriyat, ota-onalar, o`qituvchilar jamoasi bilan hamkorlikda faoliyat ko`rsatishi lozim.
- Bog`chada, maktabda va oliy o`quv yurtida o`tkaziladigan tadqiqot maqsadi, mohiyati, vazifasi va natijalari yuzasidan pedagogik kengash, ilmiy kengash, ma'muriyat (rahbariyat, direktor, rektor)ga ma'lumot berish va Nizom bandlariga qat'iy rioya qilishi maqsadga muvofiqdir.
- Ma'muriyatga, pedagogik kengashga, ilmiy kengashga o`quvchi va talabalarga yakka tartibda yondoshishni ta'minlovchi imkoniyat, ularni hal qilishning psixologik shartlari, ta'lim-tarbiyadagi nuqsonlarning oldini olish omillari, yo`llari yuzasidan yordam ko`rsatish zarur.

3. Tuzilgan ikki ro`yxatni o`z oldingizga qo`ying. Maktabni qiziqtiradigan va siz hal qila oladigan muammoni toping. Bu muammo ikki talabga javob berishi lozim:

uning hal qilinishi maktab uchun zarur, hamda siz psixolog sifatida muvaffaqiyatli hal qilinishiga imkon hosil qilishingiz lozim.

Siz boshqa psixologlar kabi yanglishganingizda ham, sizning ijtimoiy boyligingiz maktab tomonidan tanqid qilishingizdan asrab turadi. Ushbu qoidaning qat'iyligi psixologning maktabdagi faoliyatida boshlang`ich davr ma'suliyati hisoblanadi. Dastlab ish boshlaganda siz xato qilishga yoki qurbingiz yetmaydigan katta muammoni hal qilishga kirishganligingiz uchun muvaffaqiyatga erisha olmaganligingizni sabab qilishga haqqingiz yo`q.Sizga berilgan dastlabki baho uzoq vaqt esda qoladi. Vaqt o`tishi bilan sizning o`zingizga ishonmasligingiz, xatoga yo`l qo`yishingiz yo`qoladi, tajriba to`playsiz, muvaffaqiyatga erishasiz, lekin maktabga kelganingizdagi baho, soyangizdek orqangizdan anchagacha ergashib yuradi.

4. Maktab kutilmalarini ijtimoiy psixologik tadqiq qilish jarayonida psixolog odamlarning psixologiya haqida nimalarni o`ylashi, psixologning maktabdagi ishi haqida barcha ma'lumotni oladi.

Respondentlaringizni ikki guruhga bo`ling. Birinchi guruhga psixologga ijobiy yondashadigan, uning maktabdagi rolini to`g`ri tushunadigan o`qituvchilar, otaonalarni kiriting. Bu guruh psixologik bilimlar olishga, psixologik mashg`ulotlarda ishtirok etishga ichdan tayyorlar.

Ikkinchi guruhga psixologiyaga tanqidiy yondashadigan o`qituvchilar, o`quvchilar va ota-onalar kiradi. Bu guruhga psixologiyaga befarq qaraydigan yoki

Qoida: maktabda ishni ob'ektiv qiyin hal qilishga yillar kerak bo'ladigan, bir psixologning kuchi yetmaydigan, balki mutaxassislar guruhi hal qiladigan muammolardan boshlamang. O'zingiz hal qilishingizga ishonmaydigan muammolardan boshlamang. Maktab uchun zarur bo'ladigan, o'z mahoratingizni, o'zingizga ishonchni hamda muvaffaqiyatlaringizni namoyon qila oladigan muammolardan boshlang.

Bu hislatlar sizning ijtimoiy boyligingiz bo'lib qoladi va u doim sizni himoya qiladi.

psixologiyani boshqa kasblar (vrach, narkolog, ruhoniy, va boshqa kasb) bilan almashtiradigan respondentlar kiradi.

Bu qoidaning muhimligi quyidagicha tushuntiriladi: Birinchidan, maktabda dastlab ish boshlashingizda, psixolog sifatida o`z kuchingizga to`liq ishonmaganingizda boshqa odamlarning qarshiligini yengish bilan bog`liq ortiqcha stressli hissiyot bilan to`ldirishning hojati yo`q. Ikkinchidan, psixologni ijobiy qabul qiladigan birinchi guruh sizni psixologik jihatdan qo`llab-quvatlaydilar. Siz o`zingizning foydangizni his qilasiz, o`z kuchingizga ishonch hosil qilasiz. Uchinchidan, ishingiz haqidagi birinchi guruh ishtirokchilari tarqatadigan ijobiy taqrizlar psixologning ijobiy imidjini shakllantiradi, bu esa albatta ikkinchi guruhdagi insonlarning fikriga ta'sir qiladi, ularning psixologiyaga qarashlarini salbiydan ijobiyga o`zgarishiga olib keladi.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

1. Psixolog o`z faoliyati davomida qanday ishlarni amalga oshirishi lozim?
2. Psixologning huquq va burchlari nimalarni o`z ichiga oladi?
3. Maktab psixologiga qoýiladigan talablar nimalardan iborat?
4. Psixologning amaliy psixologik xizmat vakili sifatidagi kasbiy shakllanish jarayonida qanday muammolar uchraydi?
5. Psixologning shaxsiy va kasbiy moslashuvi deganda nimalarni tushunasiz?

Mavzu yuzasidan test savollari:

1.Amaliyotchi psixolog o`z faoliyatida kimlar bilan yaqin aloqada ish olib boradi?
*A.O`qituvchilar, ota-onalar, defektologlar;
B. direktor, oshpaz, tikuvchi;
S.shofyor, kosmonavt, quruvchi;

Qoida. Ish faoliyatingizni birinchi guruh orasida boshlang. O'z kuchingizga to'liq ishonganingizda, maktabda siz haqingizda ijobiy fikr paydo bo'lgandagina ikkinchi guruh respondentlari bilan ham shug'ullanishingiz mumkin.

D.hech kim bilan, yolg`iz ishlaydi;
E.hamma javoblar to`g`ri.
2.Psixologik xizmat haqidagi nizom nechanchi yillarda qabul qilingan?
A.1994 y, 2000 y.
B.1995 y, 2001 y.
*S.1996 y, 2010 y.
D.1997 y, 2000 y.
E. 1993 y, 2001 y.
3.Psixologning psixoprofilaktik ishlari necha bosqichda olib boriladi?
A. 4-bosqichda;
B. 5-bosqichda;
S.2-bosqichda;
*D. 3-bosqichda;
E. Bosqichlarsiz umumiy holda.
4.Psixologik-pedagogik konsilium nima?
A. Tuzatish, to`g`rilash;
*B. jamoa bo`lib muhokama qilish;
S. tarbiyasi og`ir bolalarni o`rganish;
D. Aqliy taraqqiyot darajasini o`rganish;
E. To`g`ri javob yo`q.

5. Bog`cha psixologlari qanday ishlarni amalga oshiradi?
A. Bolaning bog`chaga tayyorgarligini aniqlash;
B. tarbiyachilarga mashg`ulotlar o`tishda tavsiyalar berish;
S. bolaning bog`chaga moslashishini aniqlash;
*D. Hammasi to`g`ri;
E. Bolaning individual psixologik xususiyatlarini aniqlash.
6. Psixolog ish uslubini aniqlang.
A. Psixoprofilaktika, demokratik;
B. psixokorreksiya, liberal;
*S. indivudial, guruhiy;
51
D. Avtoritar, psixodiagnostik;
E. Barcha javob to`g`ri.
7. Psixologik xizmat ishi qanday bosqichlarni o`z ichiga oladi?
A.psixoprofilaktika;
B. psixologik maorif va ma'rifat;
S. psixodiagnostika va psixokonsultatsiya;
*D. barcha javoblar to`g`ri;
E. psixologik maslahat.
8. Psixologik xizmatning asosiy mazmuni nimadan iborat?
*A har tomonlama yetuk insonni tarbiyalash;
B.o`quvchi, o`qituvchi, ota-onalarni tarbiyalash;
S. tarbiyasi qiyin o`quvchilarni tarbiyalash;
D. sog`lom shaxsning o`sishini taminlash;
E. to`g`ri javob yo`q.
9. Psixologik xizmat faoliyatining ikki yo`nalishini ko`rsating.
A. individual, guruxiy;
*B. dolzarb va kelajak;
S. ilmiy va amaliy;
D. metodik va metodologik;
E. bevosita va bavosita.
10. Maktabda o`quvchilar soni qancha bo`lsa 1 shtat birligi psixolog ajratiladi(1996 yildagi Nizom bo`yicha)?
A. 400 ga1 psixolog;
*B. 500 ga1 psixolog;
S. 600ga1 psixolog;
D. 700ga 1 psixolog;
E. 800 ga 1 psixolog.
52

3-BOB.TA'LIM SOHASIDAGI PSIXOLOG FAOLIYATINING ME'YORIY HUJJATLARI

Reja:
1.Pedagog-psixolog faoliyatiga aloqador mavjud Qaror, Farmoyishlar.
2.Mutaxassislik yo`riqnomasi.
3. Istiqbol va joriy ish rejalari.
4.Ta'lim sohasidagi psixologik xizmat me’yoriy xujjatlari.

**Mavzuning o`quv maqsadi:** talabalarni pedagog-psixolog faoliyatida mutaxassislikka qo`yiladigan talablar, huquq va majburiyatlarning mezonlarini baholovchi me'yoriy hujjatlar bilan tanishtirish.

Darsning vazifasi: talabalarda psixologning ish faoliyati, amalga oshirishi lozim bo`lgan vazifalari haqida tasavvurni shakllantirish.

Tayanch tushunchalar:
Psixologik xizmat haqida Nizom, psixologning huquq va majburiyatlari, mutaxassislik yo`riqnomasi, yillik ish reja, me’yoriy hujjatlar.

1.Pedagog-psixolog faoliyatiga aloqador mavjud Qaror, Farmoyishlar

Ma'lumki, mamlakatimizda istiqlol yillarida, barcha jabhalarda bo`lgani kabi, ta'lim tizimida ham keng ko`lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi va rahnamoligida ishlab chiqilib, hayotga izchil tatbiq etilayotgan “Ta'lim to`g`risida”gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va boshqa bir qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar yurtimizda ta'lim-tarbiya sifatini yangi bosqichga ko`tarish, o`quv muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va o`sib kelayotgan yosh avlodning zamon talablari darajasida bilim olish, kasb-hunar egallashiga xizmat qilmoqda. Tarbiyalanuvchi, o`quvchi-yoshlar qobiliyati va iste'dodini rivojlantirish, aniq maqsadni ko`zlagan holda ular bilan ishlash tizimini takomillashtirish, ushbu yo`nalishda oila, mahalla va jamoatchilik hamkorligini kuchaytirish, jamoatchilik e'tiborini o`quv-tarbiya jarayoniga, tarbiyalanuvchi, o`quvchi-yoshlar shaxsini rivojlantirishga jalb etish yo`nalishidagi ishlar kuchaytirilmoqda. Ta'kidlash joizki, yuqorida ko`rsatilgan vazifalarni amalga

oshirishda ta'lim muassasalaridagi psixologik xizmat ham oxirgi o`rinda emas. Ushbu yo`nalishida olib borilayotgan ishlarning samaradorligini oshirish maqsadida bir nechta yangiliklar yaratildi. Jumladan, ta'lim muassasalarida psixologik xizmatni tashkil etish bo`yicha yangi me'yoriy hujjat, ya'ni O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7 iyundagi “Umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilarini akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida o`qitish bilan qamrab olishni ta'minlash bo`yicha normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish to`g`risida”gi 109-sonli qarori (184-modda) ga muvofiq “O`zbekiston Respublikasi xalq ta'limi muassasalarida psixologik xizmat to`g`risida”gi Nizom ishlab chiqilib, O`zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O`zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xuzuridagi Davlat test markazining 2010 yil 5 iyuldagi 29, 131-QQ, 17G`QQ -sonli Qo`shma Qarori bilan tasdiqlandi va amaliyotga tatbiq etildi. Nizomda psixologik xizmatning maqsadi, vazifalari hamda faoliyatning tashkiliy asoslari belgilandi, ya'ni maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va umumiy o`rta ta'lim maktablari o`quvchilarining, “Mehribonlik” uylari tarbiyalanuvchilarining psixologik salomatligini muhofaza qilish, pedagogik jamoalarda sog`lom psixologik muhitni ta'minlash hamda mazkur ta'lim muassasalarida faoliyat ko`rsatayotgan amaliyotchi psixologlarning huquq va vazifalari to`g`risida atroflicha tushunchalar berildi. Umumta'lim maktablarida psixologik xizmat xonasini tashkil etish yuzasidan Yo`riqnoma ishlab chiqildi. Yo`riqnoma asosida har bir tumanda bittadan namunaviy psixologik xizmat xonasi tashkil etildi.

2012 yil 24 apreldagi 130-sonli "O`zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'limni rivojlantirish bo`yicha idoralararo muvofiqlashtiruvchi Kengashning asosiy vazifalari to`g`risida"gi yig`ilishning 2-sonli bayoni ijrosini ta'minlash to`g`risida"gi buyruqda bolalarning iqtidorini erta yoshdan aniqlashning samarali metokalarini amaliyotga joriy etish bo`yicha ilmiy laboratoriya tarkibi, o`smir yoshdagi o`quvchilarning shaxs xususiyatlari va individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faol ijtimoiy hayotga tayyorlash maqsadida ilg`or texnologiyalarga asoslangan "O`smir va

zamon" pedagogik-psixologik dasturi majmuasi, olti yoshli bolalarning psixologikpedagogik
tashxis komissiyalari to`g`risida nizom, o`quvchilarni kasb-hunarga
yo`naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi ilmiy-metodik
kengashi to`g`risida nizom, ta'lim muassalari amaliyotchi psixologlarning eng yaxshi
ish tajribalarini o`rganish, umumlashtirish va ommalashtirish bo`yicha yo`riqnomalar
keltirilgan.
O`zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'limni rivojlantirish bo`yicha idoralararo
muvofiqlashtiruvchi Kengashning asosiy vazifalari to`g`risida”gi yig`ilishining 2-
sonli bayoni ijrosini ta'minlash to`g`risida BUYRUQqa binoan O`zbekiston
Respublikasida uzluksiz ta'limni rivojlantirish bo`yicha idoralararo
muvofiqlashtiruvchi Kengash tarkibidagi umumiy o`rta ta'lim sifatini ta'minlash va
maktab bitiruvchilarini kasb-hunar kollejlariga to`liq qamrab olishni tashkil etish
sho`basining ish rejasiga muvofiq bolalarning iqtidorini erta yoshdan aniqlashning
samarali metodikalarini amaliyotga joriy etish maqsadida Respublika tashxis Markazi
qoshida psixologiya, defektologiya va kasb-hunarga yo`naltirish bo`yicha tadqiqot
olib borayotgan olimlarni jalb etgan holda jamoatchilik asosida ilmiy laboratoriya
tashkil etilgan. Ilmiy laboratoriya xodimlariga iqtidorli bolalar rivojlanishining
psixologik-pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish va tajriba - sinovdan o`tkazish;
bolalarning iqtidorini erta aniqlash bo`yicha metodikalarni amaliyotga samarali joriy
etish bo`yicha o`quvlar tashkil etish vazifasi yuklatilgan.
*O`smir yoshdagi o`quvchilarining shaxs xususiyatlari va individual-psixologik
xususiyatlarini inobatga olgan holda faol ijtimoiy hayotga tayyorlash maqsadida
ilg`or texnologiyalarga asoslangan* ***“O`smir va zamon” pedagogik-psixologik
dasturi*** *majmuasi.*Psixologik xizmat umumiy o`rta maktablari o`quvchilarini kasbiy
yo`naltirishda asosiy komponentni tashkil etib, o`quvchilarni shaxsiy qiziqishlarini,
iqtidorini hamda jamiyatni kerakli mutaxassislarga bo`lgan extiyojini hisobga olgan
holda kasb tanlashida yordam beruvchi psixologik-pedagogik va tibbiy
tadbirlardandir. Kasbga yo`naltirishning maqsadlaridan biri o`quvchilarni va maktab
bitiruvchilarini ongli va mustaqil ravishda aniq kasbni tanlashiga va ta'lim
muassasalariga (akademik litsey, kasb-hunar kolleji) o`qishga yo`naltirishga

tayyorlashdan iboratdir. Qo`yilgan maqsadlardan kelib chiqib kasbga yo`naltirishning
quyidagi asosiy yo`nalishlarini aniqlash mumkin:
Kasbiy bilim- o`quvchilarga har xil kasblar, mutaxassisliklar, mansablar haqida
ma'lumot berish; ta'lim turlari va kerakli tanlangan kasb va mutaxassislikni qaysi
o`quv yurtida olish mumkin; bundan tashqari kasblarni insonning jismoniy, ruhiy va
shaxsiy sifatlariga talabini hisobga olgan holda tanlash.
Kasbiy maslahat – o`quvchilarni kasbni va o`quv muassasasini shaxsiy
hususiyatlarini va mehnat bozori talablarini hisobga olgan holda tanlashda yordam
ko`rsatish va ma'lumot berish.
Kasbiy tashxis - bilishlik (o`quv fanlariga, ilmga) va kasbiy qiziqishlik
(kasblarga, mutaxassisliklarga) ni aniqlash va baho berish; o`quvchilarning tanlagan
kasbi va kasbiy rejalari sababini bilish.
Kasbiy tarbiya – bolalar va o`smirlarda umumkasbiy o`quv ko`nikmalarini
hamda kasbga nisbatan qiziqishini, mehnatsevarlikni, mas'uliyatni, ishchanlikni
rivojlantirish va shakllantirish.

“O`smir va zamon” pedagogik-psixologik dasturi majmuasi” ning maqsad va vazifalari: Maqsad – o`quvchilarga ongli kasb-hunar tanlashlarida yordam berish.
Vazifalari:
- yaqin va uzoq maqsadlarni aniqlashni o`rgatish;
- kasbiy maqsadlarga erishishda o`zining tayyorgarligini anglashi uchun yordam berish;
- tanlagan kasblar bo`yicha o`zining imkoniyatlarini va kasbga berilgan talablarni taqqoslashga yordam berish;
- kasbiy maqsadlarga erishish yo`llarida qiyinchiliklarni anglash va ularni bartaraf etish yo`llarini o`rgatish;
- o`z-o`zini rivojlantirish yo`llarini topishga yordam berish;
Mazkur dastur quyidagi tamoyillarga asoslanadi:
• Kasbni ongli ravishda tanlash tamoyili;
•Tanlagan kasbning odamning qiziqishlariga, layoqatlariga, qobiliyatiga va jamiyatning ehtiyojlariga mosligi tamoyili;

• Faollik tamoyili – insonning o`zi kasbni tanlaydi;
• Rivojlanish tamoyili – kasb insoning kamolotiga imkon berishi kerak.
Bunda psixologning vazifasi quyidagilardan iborat:
- psixologik-pedagogik maslahat olib boradi;
- o`quvchilarning kasbiy qiziqishlari va layoqatlarini o`rganadi;
-o`quvchilarning kasbiy qiziqishlarini psixologik tashxis metodikalari yordamida o`rganadi va monitoringini olib boradi;
- o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish bo`yicha trening mashg`ulotlarini o`tkazadi;
- o`quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda psixologik maslahat ishlarini olib boradi;
- o`quvchilarda o`zining imkoniyatlarini xolisona baholash malakalarini shakllantiradi;
- sinf rahbarlariga o`quvchilarning qiziqishlari va layoqatlarini baholashda va tahliil etishda yordam beradi.
***Olti yoshli bolalarning psixologik-pedagogik tashxis komissiyalari to`g`risidagi nizom*ga** ko`ra Olti yoshli bolalarning psixologik-pedagogik tashxis komissiyasi (keyingi matnda Tashxis komissiyasi) O`zbekistonRespublikasining “Ta'lim to`g`risida”gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi hamda Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 mayda qabul qilingan “O`zbekiston Respublikasida umumiy o`rta ta'limni tashkil etish to`g`risida”gi 203-sonli qarori, “O`quvchilarni kasb–hunarga yo`naltirish va psixologik-pedagogik tashxis Markazlari to`g`risida”gi hamda mazkur Nizom asosida tuman, shahar hududida aqliy va jismoniy sog`lom bo`lgan olti yoshli bolalarni maktabda o`qishga saralab olish maqsadida tashkil etiladi.Tashxis komissiyalari har bir tuman (shahar) xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo`limi(XTMFMTvaTEB) qoshida hamda umumta'lim maktablarida tuziladi. Tashxis komissiyasining tarkibi tuman (shahar) XTMFMTvaTEBtavsiyasiga asosan ta'lim muassasalari: psixolog, logoped, shifokor va boshlang`ich sinf o`qituvchisi mutaxassislardan iborat bo`lib, tegishli(viloyat) xalq ta'limi boshqarmasi buyrug`i bilan tasdiqlanadi.Tashxis

komissiyasi o`z faoliyatini mazkur Nizom talablari, XTMFMTvaTEB mudiri tomonidan tasdiqlangan jadval asosida amalga oshiradi.
Tashxis komissiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:
Tibbiy ko`rik xulosalariga muvofiq jismoniy va aqliy jihatdan mutloq sog`lom deb topilgan olti yoshli bolalarni maktabda ta'lim olishga ijtimoiy-psixologik va ma'naviy- ahloqiy jihatdan tayyorgarlik darajasini o`rganish.
Joriy yilning 1 sentyabrgacha bo`lgan davrda olti yoshga to`ladigan, psixologik-pedagogik tashxis xulosasiga ko`ra maktabga tayyor deb topilgan bolalarga umumta'lim maktablarining 1-sinfiga o`qishga tavsiya berish.
Tashxis natijalari asosida maktabda o`qishga tayyor emas deb topilgan olti yoshli bolalarning ota-onalariga ularni maktabga tayyorlash masalasida maslahat hamda korreksion-rivojlantiruvchi guruhlarida shug`ullanish yuzasidan tavsiyalar berish.
Tuman (shahar) hududidagi barcha maktabgacha ta'lim muassasalariga qatnaydigan va qatnamaydigan olti yoshli bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasini maxsus psixologik tashxis metodikasi yordamida o`rganish.
Tashxis komissiyasi ish yakuni bo`yicha hisobotni XTMFMTvaTEB hamda viloyat xalq ta'limi boshqarmalariga taqdim etish.
Psixolog olti yoshli bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasini psixologik tashxis metodikalari asosida o`rganadi. Barcha mezonlar bo`yicha talablarga javob bergan bolalarga maktabda o`qishga tavsiya beradi. Maktabga tavsiya etilmagan bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalarida yoki uy sharoitida maktabga tayyorlash xususida ota-onalarga maslahatlar beradi. Logoped bolaning tovush talaffuzi, fonematik eshituvi va grammatik qurilishini shakllanganlik holatini o`rganadi. bolaning og`zaki nutqini rivojlanish darajasini aniqlaydi, nutqning tempi, ravonligi va aniqlik holatini tekshiradi.
O`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi ilmiy-metodik kengashi to`g`risidagi nizomga muvofiq O`zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis Markazi ilmiy-metodik Kengashi

(kelgusida Kengash) O`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish va psixologikpedagogik Respublika tashxis Markazining kasb-hunarga yo`naltirish va psixologikpedagogik tashxis tizimining rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va kollegial ko`rib chiqish, barcha bosqichdagi hududiy o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish va psixologik-pedagogik diagnostikasini metodik ta'minlash kichik guruhlari, ta'lim muassasalari kasb-hunarga yo`naltirish va psixologik xizmatining o`sib kelayotgan yosh avlodni kasb-hunar tanlash, kasbiy o`zligini anglashi va kasbiy tanlov bo`yicha mustaqil qaror qabul qilishi sohasidagi faoliyatlarining samaradorligini oshirish maqsadida tashkil etiladigan maslahat Kengashi hisoblanadi.Kengash o`z ish faoliyatini O`zbekiston Respublikasi qonuniy aktlari, Xalq ta'limi vazirligi hamda O`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis Markazining me'yoriy va huquqiy hujjatlari hamda mazkur Nizom asosida tashkil etadi.Kengash qarorlari tavsiya xarakteriga ega. Kengashning hududiy o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish va psixologik-pedagogik diagnostikasini metodik ta'minlash kichik guruhlari, ta'lim muassasalarining kasb-hunarga yo`naltirish va psixologik xizmati amaliyotiga tatbiq etilishi lozim bo`lgan tavsiyalari o’quvchilarni

kasb-hunarga yo`naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis Markazi direktorining buyrug`i bilan rasmiylashtiriladi.
Ilmiy-metodik Kengashning vazifalari va ish mazmuni: Ilmiy-metodik Kengashning maqsadi O`zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimida kasb-hunarga yo`naltirish va psixologik xizmatni rivojlantirish bo`yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ilmiy-metodik va tashkiliy-metodik ishlanmalarni ekspertizadan o`tkazishdan iborat.
Ilmiy-metodik Kengashning vazifalari quyidagilarni tashkil etadi: kasbhunarga yo`naltirish ishlarining etarlicha ishlab chiqilmagan aspektlarini aniqlash va tegishli ma'lumotlar bankini shakllantirish maqsadida barcha bosqichdagi kasbhunarga yo`naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazlari, ta'lim muassasalarining kasb-hunarga yo`naltirish va psixologik xizmatini ilmiy-metodik, dasturiy, axborot ta'minotini tahlil qiladi; yoshlarni kasb-hunarga yo`naltirish va psixologik xizmat sohasidagi huquqiy-me'yoriy, ilmiy-metodik va tashkiliy-metodik ishlanmalarni ekspertizadan o`tkazadi hamda O`zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi
59
vazirligining o`quv-metodik, multimediya o`quv vositalari va shunga o`xshash tarqatma materiallarni ekspertizadan o`tkazish va ulardan ta'lim muassasalarida foydalanishni muvofiqlashtirish guruhiga taqdim etadi; kasb-hunarga yo`naltirish va psixologik-pedagogik tashxisning ilmiy-metodik, dasturiy va axborot ta'minoti bo`yicha ishlanmalarni rejalashtiradi va muvofiqlashtiradi; kasb-hunarga yo`naltirish va psixologik-pedagogik tashxis muammolarining turli jihatlari bo`yicha Respublika va hududiy o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish va psixologik-pedagogik diagnostikasini metodik ta'minlash kichik guruhlari xodimlari, boshqa taalluqli tashkilot, muassasa va ta'lim muassasasi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan ilmiy-metodik va didaktik ishlanmalarning qo`lyozmalarini ko`rib chiqadi va nashrga tavsiya etadi; ilmiy-metodik Kengashning yillik ish rejalarini ko`rib chiqadi va tasdiqlaydi.
Ilmiy-metodik Kengash ishini tashkil etish. Kengash tarkibi Respublika kasbhunarga yo`naltirish va psixologik-pedagogik tashxis Markazining rahbar va mutaxassislari, O`zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, o`rta maxsus, kasbhunar ta'limi Markazi, boshqa taalluqli vazirlik, idora, jamoat tashkilotlari, assotsiatsiyalar, ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining vakillari, ularning tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar o`quv yurtlari rahbarlaridan tashkil topadi;
***Ta'lim muassasalari amaliyotchi psixologlarning eng yaxshi ish tajribalarini o`rganish, umumlashtirish va ommalashtirish bo`yicha yo`riqnoma***. Umumta'lim maktablarining, maktabgacha ta'lim muassasalari, “Mehribonlik” uylari amaliyotchi psixologlari orasidan ilg`or, tashabbuskor va ijodkor mutaxassislarni tanlash hamda ularning kasbiy yo`nalishdagi iqtidorlarini, kasbiy mahoratlarini aniqlash, ularning ilg`or ish tajribalarini o`rganish va ommalashtirish psixologlarning kasb mahoratlarini takomillashtirishning eng qulay shaklidir.
Ilg`or ish tajriba bu psixologning o`z faoliyatiga ijodkorona va novatorlarcha yondashib, o`quvchilarga sifatli psixologik xizmat ko`rsatishning yangi yo`llarini izlab topishdir. Ilg`or ish tajribalarini o`rganish va ommalashtirish maqsadi:Umumta'lim maktablarining amaliyotchi psixologlari orasidan ilg`or, tashabbuskor va ijodkor mutaxassislarni hamda ularning turli yo`nalishdagi
60
iqtidorlarini, kasbiy mahoratlarini aniqlash, rag`batlantirish, aniqlangan ilg`or

tajribalarni ommalashtirish .
Ilg`or ish tajribalarini o`rganish va ommalashtirishning asosiy vazifalari:
Ish tajribasi o`rganilayotgan psixolog quyidagi talablarga javob berishi kerak:
- mahsus ma'lumot va yuqori darajadagi bilimga ega bo`lishi;
- turli vaziyatlarda samarali psixologik yordam bera olish malaka va ko`nikmalariga ega bo`lishi;
- o`quvchilar bilan o`tkazilgan psixologik-pedagogik tashxis metodikalari asosida aniq tahlillar va istiqbol rejalar tuza olishi, ularning mavjudligi;
- o`quvchilarni kasb -hunarga yo`naltirish va psixologik–pedagogik tashxisga doir yangi yo`nalishdagi izlanishi va o`z psixologik kontseptsiyasiga ega bo`lishi;
- zamonaviy psixologiyaning rivojlanishiga doir fikr va takliflar bera olishi;
- psixologik korrektsion mashg`ulotlar jarayonida kompyuter, internet, elektron pochta tizimi, texnik moslamalardan samarali foydalana olishi;
- mutaxassisligi bo`yicha jahon psixologiyasi ilg`or ish tajribalaridan xabardor bo`lishi;

- ish jarayonida o`ziga xos yutuqlarga erisha olishi, zamon bilan hamnafasligi, mustaqillik mafkurasi va milliy istiqlol g`oyasi, jamiyat hayotining iqtisodiy va siyosiy sohalardagi o`zgarishlardan psixologik jarayonlarda foydalana olishi;
- ijtimoiy hayotda, jamoatchilik orasida ma'naviy-ma'rifiy faollik ko`rsata olishi;
- ma'naviy yangilanish jarayonida jamiyat xavfsizligiga ta'sir etuvchi tashqi va ichki tahdidlar hamda g`arazli g`oyalarga qarshi keskin kurasha oladigan darajada bilimga ega bo`lishi;
- yangiligi, amaliyotdagi metodikaga qo`shgan yangi usullari;
Ilg`or ish tajribalarni aniqlash o`rganish, umumlashtirish va ommalashtirish bosqichlari asosida amalga oshiriladi. Ilg`or ish tajribani umumlashtirish uchun quyidagi ishlar amalga oshiriladi:
 psixolog haqidagi ma'lumotlar umumlashtiriladi;
 o`rganilgan yo`nalish bo`yicha psixologning amalga oshirgan ishlari to`plam holatiga keltiriladi;
 psixologning ilg`or ish tajribasiga aniq xulosalar qilinadi;
 psixologning ta'lim-tarbiya sohasidagi bajargan ishlari bo`yicha mukammal tavsiyalar yaratiladi;
 materiallar kerakli miqdorda ko`paytiriladi; ilg`or ish tajribalar seminarkengashlarda, pedagogik kengashlarda, tuman metodika uyushmasi yig`ilishlarida muhokama qilinadi.
Ilg`or ish tajribalarini ommalashtirishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:
 pedagogik kengash, metod birlashma yig`ilishida, anjumanlarda, pedagogik o`qishlarda so`zlab berish;
 ilg`or tajriba, tayanch maktablarida, seminarlarda, ijodiy guruhlarda, malaka oshirish kurslarida ma'lumot berish;
 ommaviy axborot vositalarida maqolalar va tavsiyalar shaklida berish.
Ilg`or ish tajribani ommalashtirish quyidagi tizimda amalga oshiriladi:
1.Tuman (shahar) miqyosida ommalashtirish.
 Tuman miqyosida ommalashtirish uchun maktabpedagogika kengashi qarori, maktab rahbari taqdimnomasi va psixologning faoliyatiga oid hujjatlar, yaratgan

yangiliklari haqida ma'lumot tayyorlanib, tavsiyalar tuman o`quvchilarini kasbhunarga yo`naltirish va psixologik-pedagogik diagnostikasini metodik ta'minlash kichik guruhiga taqdim etiladi, tavsiya etilgan hujjatlar tuman psixologlari metodik uyushmasi a'zolari tomonidan o`rganiladi va taqdimotlari eshitiladi, so`ng tuman metodika kabineti kengashiga ommalashtirish uchun tavsiya etiladi. Tuman metodika kabinetining kengash yig`ilishining qarori bilan tuman miqyosida ommalashtiriladi;
 viloyat miqiyosida ommalashtirish uchun tuman metodika kabinetining qarori, psixologning faoliyatiga oid hujjatlari, tayyorlagan tavsiyalari va tuman metodika kabineti mudirining taqdimnomasi metodika markaziga taqdim etiladi.
2. Viloyat miqyosida ommalashtirish.
 Tuman metodika kabinetining metodik kengashi qarori asosida viloyat Metodika markazi qoshidagi O`quv-metodika kengashi a'zolari tomonidan faoliyat o`rganiladi, muhokama qilinadi va Metodika markazi kengashiga ommalashtirish uchun tavsiya etiladi. Viloyat metodika markazi kengashi qarori bilan viloyat miqyosida ommalashtiriladi;
 Respublika miqyosida ommalashtirish uchun Viloyat metodika markazi kengashi qarori, o`qituvchining faoliyatiga oid hujjatlar, ilg`or ish tajribalari haqida ma'lumot, tayyorlagan tavsiyalari va VXTB boshlig`ining taqdimnomasi respublika tashxis Markaziga Respublika miqyosida ommalashtirish uchun taqdim etiladi.
3. Respublika miqyosida ommalashtirish.
Respublika miqyosida ommalashtirish uchun tavsiya etilgan ilg`or ish tajriba Respublika tashxis markazi ta'lim muassasalarida psixologik xizmat bo`limi tomonidan o`rganiladi. Ilmiy metodik kengashida muhokama qilinib, kengashning qarori bilan Respublika miqyosida ommalashtiriladi (trening ishlanmalari to`plam sifatida chop etiladi, targ`ibot-tashviqot maqsadida psixologlar, o`qituvchilar ishtirokida seminarlar tashkil etiladi).
63

2.Mutaxassislik yo`riqnomasi

Psixologik xizmat “psixologiya” ixtisosligi bo`yicha oliy ma'lumotga ega bo`lgan psixolog yoki qayta tayyorlashdan o`tib, “amaliyotchi psixolog” malakasiga ega bo`lgan oliy ma'lumotli pedagoglar tomonidan amalga oshiriladi.
Psixologning vazifalari:
 bolalarning shaxsiy va ijtimoiy, intellektual rivojlanishi, psixologik salomatligini saqlash uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish va ta'minlashga yo`naltirilgan kasbiy faoliyatni amalga oshirish;
 o`quvchilarning (tarbiyalanuvchilarning) rivojlanishiga to`sqinlik qiluvchi sabablarni aniqlash va ularga psixologik yordam (psixokorreksiya, psixoprofilaktika, reabilitatsiya va tavsiyalar) ko`rsatish bo`yicha tadbirlarni amalga oshirish;
 turli yoshdagi bolalarning xarakter xususiyatlari va shaxs sifatlarini inobatga olgan holda ularning qobiliyat, layoqat, bilish va kasbiy qiziqishlarini o`rganish, korrektsiya qilish va rivojlantirish;
 6-7 yoshdagi bolalarni psixologik tekshiruvdan o`tkazish va ularning boshlang`ich sinfda ta'lim olishga tayyorgarlik darajasini aniqlashda qatnashish;
 o`quvchilarni tashxis qilish va natijalarni ta'lim olish davomida (1-sinfdan 9-sinfgacha) “Psixologik-pedagogik tashxis daftari” da qayd etib borish;
 o`quvchilarning (tarbiyalanuvchilarning) individual, jinsiy va yosh

xususiyatlarini inobatga olgan holda korrektsion - rivojlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqishda ishtirok etish, ularda ijobiy ijtimoiy ustanovkalarni, ta'lim olish, hayotiy va kasbiy o`zligini anglashga tayyorgarlik motivatsiyalarini shakllantirish;
 iqtidorli bolalar va o`smirlarning ijodiy rivojlanishi uchun psixologik qo`llabquvvatlanishini
tashkil etish va amalga oshirish;
 ijtimoiy va huquqiy xavf omillarining ta'sirini aniqlash, ularning bolalar va o`smirlarga ta'sirini kamaytirish uchun psixologik tashxis tadbirlaridan foydalanish, ijtimoiy muhitda ularning xulq-atvori va muloqotini psixologik-pedagogik korrektsiyalash;
64
 bolalarning ma'naviy-ma'rifiy, intellektual va jismoniy tarbiyasiga ko`maklashish, o`quvchilar (tarbiyalanuvchilar), pedagog xodimlar, ota-onalar yoki qonuniy vakillarning psixologik madaniyatini shakllantirish;
 bolalar tarbiyasi, ta'limi va rivojlanishi, shuningdek, ota-onalar va bolalar munosabatlaridagi muammolar bo`yicha ota-onalar yoki qonuniy vakillarga psixologik maslahatlar berish;
 bolalar bilan ishlashda samarali natijalarga erishish va o`zining kasbiy mahoratini oshirish maqsadida mutaxassis psixologlarning ilg`or tajribalarini va ilmiy uslubiy adabiyotlarni o`rganish;
 psixologik xizmat, shuningdek, pedagogik jamoaning bolalar tarbiyasi va rivojlanishi bilan bog`liq bo`lgan tadbirlari bo`yicha ma'muriyatning buyruq va farmoyishlarini bajarish;
 o`z faoliyatiga doir hujjatlar va hisobotlarni o`rnatilgan shakllarda yuritish, ta'lim muassasasida tarbiyaviy tadbirlarning ishlab chiqilishi, rejalashtirilishi va o`tkazilishida, shuningdek, maktab, oila, mahalla hamkorligi amalga oshirilishida ishtirok etish;
 umumta'lim muassasalarida o`quvchilar soni ko`pligini inobatga olgan holda, psixologik xizmatni amalga oshirishda sinf rahbarlari ham ishtirok etishlari mumkin. Buning uchun maktab psixologi sinf rahbarlari bilan avvaldan tayyorgarlik ishlarini o`tkazishi kerak.
Psixologlarning asosiy funktsiyalari:
 har bir yosh bosqichida (bolalik, o`smirlik, yoshlik) shaxsning barkamol shakllanishi va rivojlanishiga ko`maklashuvchi psixologik-pedagogik shartsharoitlarni yaratish;
 o`quvchilarning intellektual, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishidagi buzilishlar, shuningdek, ularning xulq-atvori hamda muomalasidagi og`ishlarni aniqlash;
 o`quvchilar (tarbiyalanuvchilar), ularning ota-onalari yoki qonuniy vakillari, pedagoglar o`rtasida psixologik bilimlarni shakllantirish va rivojlantirish maqsadida psixologik ma'rifat ishlarini olib borish;
65
 o`quvchilarning qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatlari va shaxsiy sifatlari, shuningdek, kasb hamda o`rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida keyingi ta'lim yo`nalishini (akademik litsey yoki kasb-hunar kollejini) tanlash motivlarini aniqlash bo`yicha tashxis tadbirlari (suhbatlar, anketa so`rovlari, testlar)ni tashkil etish va o`tkazish;
 iqtidorli bolalar va o`smirlarni aniqlash, ularning bilimga qiziqishlari,

moyilliklari va qobiliyatlarini rivojlantirish, o`quv hamda ijodiy faoliyatga undash uchun zaruriy psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni yaratishda ishtirok etish;
 o`quvchilar (tarbiyalanuvchilar)ning darslarni o`zlashtirmasligi, atrofdagilar bilan ziddiyatli munosabatlarda bo`lishi bilan bog`liq bo`lgan shaxsiy muammolarini aniqlash, ularni ota-onalar yoki qonuniy vakillar, ta'lim muassasalari pedagoglari, mehribonlik uylari tarbiyachilari bilan birgalikda hal etish;
 tarbiyasi og`ir, pedagogik qarovsiz bolalar va o`smirlarni psixologik tekshirish, ularning xulqidagi og`ishlarni va ijtimoiy muhitga moslasha olmaslik holatini korreksiyalash, o`qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar yoki qonuniy vakillar uchun ularni qayta tarbiyalash hamda huquqbuzarliklarning oldini olish bo`yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
 tarbiyasi og`ir o`smirlar (huquqbuzarlar)ga psixologik tavsifnomalar tayyorlash, ularni voyaga etmaganlar ishlari bo`yicha komissiyalarga taqdim etish, komissiya qarorlarini ishlab chiqishga ko`maklashish;
 psixologik yordamga muhtoj o`quvchilar (tarbiyalanuvchilar)ning turli toifalari bilan korreksion - rivojlantiruvchi, profilaktik va maslahat tadbirlarni o`tkazish;
 «Ishonch qutisi» ishini tashkil etish, o`quvchilar jamoasi va pedagogik jamoada sog`lom psixologik iqlimni yaratish hamda saqlab qolish;
 o`z faoliyatining barcha yo`nalishlari bo`yicha hujjatlarni (rejalar, dasturlar, hisobotlar, ma'lumotnomalar, xulosalar va hokazo) yuritib borish.
Psixologlar o`z funktsiyalarini maktabgacha ta'lim, umumta'lim muassasalari, mehribonlik uylari pedagogik faoliyatining o`ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda bajaradilar, tarbiyalanuvchilar, o`quvchilar, ularning oilalari haqidagi

ma'lumotlarning sir saqlanishini ta'minlaydilar, beradigan tavsiyalarining asoslanganligi va o`z faoliyati natijalari uchun shaxsan javobgardirlar.

3. Istiqbol va joriy ish rejalari

Psixologik diagnostika −bolalarni maktabgacha ta'lim va maktab yoshi davomida psixologik jihatdan uzluksiz har tomonlama o`rganish, ularning individual - psixologik xususiyatlarini aniqlash, o`qish xulq-atvorlaridagi nuqsonlarning sabablarini aniqlab berishga qaratilgan tadbirlarga doir ish rejasi.

№	**Bajariladigan ishlar mazmuni**	**Muddati**	**Mas'ul shaxs**
1.	6 yoshli bolalarni maktabga tayyorgarligini aniqlash. (PPD ko`rigi)	May, iyun,iyul, avgust (85 kun) davomida.	Psixolog, PPD ko`rik komissiyasi a'zolari.
2.	1-sinf o`quvchilari uchun tashhis daftarlarini to`ldirish(belgilangan metodika asosida) 1-sinf o`quvchilari o`rtasida sinov o`tkazish)	Sentyabr, oktyabr	Psixolog

3. 1-sinfga qabul qilingan 6 yoshli
bolalarning maktabga psixologik
moslashuvi va rivojlanish
dinamikasini o`rganish.
Noyabr, dekabr. Psixolog
4. 9-sinf o`quvchilari o`rtasida
Respublika tashhis Markazi
tomonidan tavsiya etilgan tashhis
metodikalarini o`tkazish.
Oktyabr, May. Psixolog
5. O`qituvchining shaxsini va
pedagogik qobiliyatlarini
tekshirish.
Sentyabr, Oktyabr. Psixolog
6. 9 - sinf o`quvchilari o`rtasida Yil davomida. Psixolog

chuqurlashtirilgan psixologik
tashhis o`tkazish.
7. Tarbiyasi qiyin bolalar va
o`smirlarning psixologik
xususiyatlarini o`rganish.
Sentyabr, oktyabr. Psixolog
8. Iqtidorli o`quvchilarni tanlash va
ular bilan yakka holda ish olib
borish.
Dekabr, yanvar. Psixolog
Psixoprofilaktik ishlar.
Psixologik profilaktika− maktabda yuzaga kelishi mumkin bo`lgan turli psixologik-pedagogik muammolarning oldini olishga yo`naltirilgan tadbirlarga doir ish rejasi.
№ Bajariladigan ishlar mazmuni Muddati Mas'ul shaxs
1. Sinf jamoasi bilan yoki
o`quvchilar bilan yakka
(individual) holda suhbat
uyushtirish.
Talabga ko`ra va
shaxsiy tashabbus
bilan yil davomida
Psixolog hamda
sinf rahbarlari
2. Tarbiyasi og`ir o`quvchilar
xulqini korrektsiya qilish uchun
sinf rahbarlariga yo`l-yo`riqlar
ko`rsatish.
Dekabr, yanvar Psixolog hamda
sinf rahbarlari
3. Maktabda psixologik muhitni

o`rganish va uni
barqarorlashtirish.
Doimiy Psixolog
4. O`quvchilar o`rtasida ayshishratga,
giyohvandlikka, yengil
turmush kechirishga, qing`ir yo`l
bilan boyishga ruju qiluvchi
Doimiy Psixolog

shaxslar bilan yakka tartibda
ishlash
Psixologik ma'rifat va tashviqot ishlari.
Psixologik ma'rifat va tashviqot − maktabning pedogogik jamoasini,
o`quvchilarni va ota-onalarni psixologik bilimlarini egallashga jalb etish, ularning
psixologik madaniyatini oshirishga yo`naltirilgan tadbirlarga doir ish rejasi.
№ Bajariladigan ishlar mazmuni Muddati Mas'ul shaxs
1. Ota-onalar bilan turli mavzularda
majlislar o`tkazish
Yil davomida
talabga ko`ra
Psixolog, otaonalar
2. Ota-onalar uchun so`rovnomalar
testlar ishlab chiqish.
Yil davomida
Psixolog
3. Maktab pedagogik kengashlarida
ma'ruza bilan ishtirok etish.
Yil
davomida
Psixolog
4. Psixologik xizmat hujjatlarini
rasmiylashtirish.
Yanvar. Psixolog
5. O`zlashtirmovchi o`quvchilar bilan
ishlashga doir aniq psixologikpedagogik
tavsiyalar, ko`rsatmalar ishlab
chiqish.
Yil
davomida
Psixolog, sinf
rahbarlari,
o`qituvchilar
Psixokorreksion ishlar
Psixologik korreksiya va rivojlantirish − shaxs shakllanishi va psixik
rivojlanishida sodir bo`ladigan kechikish, salbiy buzilish va nuqsonlarni bartaraf
etish, shaxs va jamoaga faol ijobiy ruhiy ta'sir o`tkazish, shaxslararo
munosabatlardagi muvofiqlikni ta'minlashga yo`naltirilgan tadbirlarga doir ish rejasi.

№ Bajariladigan ishlar mazmuni Muddati Mas'ul shaxs

1. Muayyan diagnostik ish asosida Sentyabr, may. Psixolog va 1-sinf

69

tavsiyalar ishlab chiqish: A)
xotirani rivojlantiruvchi darslarni
tashkil qilish; B) maktabga qabul
qilingan 6 yoshli bolalar bilan
«Psixologik sog`lomlashtirish
dasturi» asosida korreksion
darslar tashkil qilish.
Talabga ko`ra III-
chorak
davomida
rahbarlari.

2. Zamonaviy psixodiagnostika va
psixokorreksion metodikalar bilan
ishlash.
Yil davomida Psixolog

3. O`zlashtirmovchi o`quvchilar ruhiy
dunyosidagi nuqsonlarni aniqlash
va ularga yordam berish yo`lyo`
riqlarini ishlab chiqish,
amaliyotga tatbiq etish.
May,
iyul, avgust.
Psixolog

4. Xarakterida turlicha
aktsentuatsiyasi mavjud
o`quvchilar bilan psixokorreksion
ishlarni o`tkazish.
Yil davomida,
talabga ko`ra.
Psixolog

Psixokonsultativ ishlar.

Konsultatsiya (maslahat) − ziddiyat va nizolarni yumshatish, har bir shaxsning mavjud imkoniyatlarini imkon qadar kuchliroq namoyon eta olishiga zarur shartsharoitlar yaratish, o`qituvchilar va ota-onalarning psixologik muammolarini hal etishga yordam berish, ularni o`z psixologik salomatliklarini muhofaza qilishga o`rgatishga doir maslahatlar berish ishlariga asoslangan faoliyat rejasi.

O`quvchilarni o`qishga qiziqtirish
uchun nimalar qilish kerak.
Yil
davomida
Psixolog

70

Maktab o`qituvchilarini

qiziqtiradigan masalalar bo`yicha
maslahat berish.
Yil davomida
talabga ko`ra.
Psixolog
Boshlang`ich sinf
o`quvchilarining maktabga
moslashuviga yordam berish.
Noyabr, dekabr Psixolog, sinf
rahbarlari.
Shaxsga oid, ixtisoslikka doir
muammolar yuzasidan
o`qituvchilarga keng
ko`lamda maslahatlar berish.
Doimiy Psixolog
Kasb-hunarga yo`naltirish ishlari.
Kasb-hunarga yo`naltirish −o`quvchilarning layoqati, qiziqishi va
qobilyatlariga mos kasb-hunarlarni ongli tanlashni tayyorlashga doir tadbirlar ish
rejasi.

O`quvchilar bilan kasb tanlashga
doir suhbatlar o`tkazish, ularni
faoliyat ko`rsatayotgan o`rta
maxsus o`quv yurtlari yo`nalishi
bilan sinf rahbari va proforientator
orqali tanishtirish.
Yil davomida
Psixolog, sinf
rahbari,
proforientator.
O`quvchilarni kasb tanlashga
yo`naltirish,o`zlashtirmovchilikning
sababini aniqlash.
Yil davomida,
talabga ko`ra.
Psixolog,
proforientator.

4.Ta'lim sohasidagi psixologik xizmat me’yoriy xujjatlari

Pedagog-psixolog faoliyatining me'yoriy xujjatlari"O`zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'limni rivojlantirish bo`yicha idoralararo muvofiqlashtiruvchi Kengashning asosiy vazifalari to`g`risida"gi yig`ilishning 2-sonli bayoni ijrosini

ta'minlash to`g`risida"gi buyruq va psixologik xizmat to`g`risidagi nizomni o`z ichiga oladi.

Psixologik xizmat to`g`risidagi NIZOM O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7 iyundagi 109-sonli “Umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilarini akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida o`qitish bilan qamrab

olishni ta'minlash bo`yicha normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish to`g`risida”gi qarori (O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2010 y., 23-son, 184-modda) ga muvofiq, O`zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimidagi muassasalarda Psixologik xizmat (keyingi o`rinlarda Psixologik xizmat deb ataladi)ning maqsadi, vazifalari hamda faoliyatining tashkiliy asoslarini belgilaydi.
Amaliyotchi psixologlar maktabda psixologik xizmatning 6 ta (psixologik ma'rifat, psixologik-pedagogik tashxis, psixologik profilaktika, psixologik korrektsiya va rivojlantirish, psixologik maslahat, kasb-hunarga yo`naltirish) yo`nalishi bo`yicha faoliyat olib boradi va ulardan mazkur yo`nalishlar doirasidagi ish hujjatlarining yuritilishi talab etiladi.
Mazkur yo`nalishlar doirasida psixolog tomonidan yuritilgan har bir hujjat, birinchidan, psixologning o`zi uchun o`quvchi shaxsining barcha jihatlari, uning oilaviy muhiti, atrofdagilarning ta'siri, xatti-harakati hamda xulq-atvoridagi o`zgarishlar, buzilishlar va boshqalar xususida to`plangan ma'lumotlar tizimining yaratilishiga, ushbu ma'lumotlarni birini ikkinchisi bilan taqqoslashdan olingan xulosalarning to`planib borishiga imkoniyat yaratadi.
Ikkinchidan, ish hujjatlarining mavjudligi psixolog faoliyatining bosqichmabosqich, tizimli ravishda borishini va yuqori natijalar olishga erishilishini ta'minlaydi.
Rasmiy va me'yoriy hujjatlar:
-O`zbekiston Respublikasining ta'limga, voyaga etmaganlar huquqlarini muhofaza qilishga oid qonun hujjatlari, Respublika Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmon va farmoyishlari.
-O`zbekiston Respublikasi xalq ta'limi muassasalarida psixologik xizmat to`g`risida Nizom.

-O`zbekiston Respublikasida o`quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo`naltirish tizimini rivojlantirish Kontseptsiyasi.
-Me'yoriy hujjatlar to`plami (buyruqlar, qarorlar, farmoyishlar, bayonnomalar).
-«Maktab va hayot» jurnalining to`plamlari.
-Hisobotlar.
Shuningdek, yuqori tashkilotlardan kelgan hujjatlar ijrosini nazorat qilish daftari yuritiladi.
Takrorlash va muhokama uchun savollar:
1.Pedagog-psixolog faoliyatidagi mutaxassislikka qo`yiladigan talablar, huquq va majburiyatlarning mezonlarini baholovchi mavjud me'yoriy xujjatlar nimalardan iborat?
2. Psixolog o`z faoliyati davomida qanday istiqbol va joriy ish rejalarni amalga oshirishi lozim?
3. Kasb-hunarga yo`naltirish ishlari bo`yicha psixolog yil mobaynida qanday ishlarni bajaradi?
4.Psixologning yil mobaynidagi konsultatsiya (maslahat) ishlari qanday bosqichlarni o`z ichiga oladi?
5. Psixologik xizmat ishlaridagi psixologik korrektsiya va rivojlantirish jarayonining mohiyati nimadan iborat?
Mavzu yuzasidan test savollari:
1. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o`tkaziladigan rivojlantiruvchi ishlarning asosiy shakli nimadan iborat?
A.Mehnat.
B.Jazo.
S. Maqtov.
*D.O`yin.
E.O`qish.
2. Mehribonlik uylariga qachon psixolog shtati joriy qilingan?

A. 1967.
B. 1977.
*S. 1987.
D. 1997.
E. 1992.
3. Psixologik konsilium qaysi yo`nalishdagi ishning muhim bosqichi hisoblanadi?
73
A.Psixodiagnostik.
B.Psixokorreksiya.
S .Psixologik ma'rifat.
D.Psixologik rivojlantiruvchi.
*E.Psixoprofilaktik.
4. Psixolog konsiliumda qanday vazifalarni amalga oshiradi?
*A.Har bir o`qituvchida o`quvchiga nisbatan ustanovkani o`zgartirish.
B.O`qishda orqada qolish sabablarini aniqlash.
S.O`quvchilarning, o`qituvchilarning va butun jamoaning rivojlanishiga yordam berish.
D.O`quvchilarning ota-onalari, to`garak rahbarlari va boshqa kishilar bilan hamkorlik qilish.
E.O`quvchilar bilan qanday ishlar olib borilganligi haqida ma'lumot berish.
5. Maktablarda o`quvchilar soniga qarab psixolog shtati qanday belgilanadi?
A. 500 -1.
*B. 1000-1.
S. 1500-1.
D. 2000-1.
E.Har bir maktabga 1 psixolog.
6. Kollejlarda psixolog shtati qanday belgilanadi?
A. 650-1.
*B. 750-1.
S. 850-1.
D. 950-1.
E. 500-1.
7. Bog`chalarda psixolog shtati qanday belgilanadi?
*A.Har 1 bog`chaga – 1.
B. 100 bolaga – 1.
S. 200 bolaga – 1.
D. 150 bolaga - 1.
E.To`g`ri javob yo`q?
8. Maktab, kollej psixologlari necha yilda malaka oshiradi?
74
A.Har 1 yilda.
B.Har 2 yilda.
*S.Har 3 yilda.
D.Har 4 yilda.
E. Har 5 yilda.
9. Maktab psixologining huquqlari nimadan iborat?
A.Psixolog hech qanday huquqga ega emas.
B.O`qituvchi foydalanadigan barcha imtiyozlardan psixolog ham foydalanishi mumkin.
S. 48 kunlik mehnat ta’tiliga chiqishi mumkin.
D. Haftasiga 20 soat ishlaydi.
*E. B, S, D.
10. Maktab psixologining burchlari nimadan iborat?
A.Eksperimental tadqiqotlar o`tkazish.
B.O`qituvchilar bilan hamkorlikda ishlash.
*S.Tadqiqot natijalarini sir saqlash.
D.Ota-onalar iltimosi bilan maslahatlar berish.
E.Kasbga yo`llash ishlarini olib borish.

4-BOB. AMALIY PSIXOLOG FAOLIYATINING ASOSIY KO`RINISHLARI

Reja:

1.Psixologik tashviqot − ta'lim tizimidagi psixologik xizmat vazifasi sifatida.
2. Psixologik profilaktika va uning psixologik xizmat faoliyatidagi roli va mazmuni.
3. Psixologik-pedagogik konsilium
4. Psixologik xizmat faoliyati tizimida psixologik maslahat,uning turlari.
5.Psixodiagnostika−psixologik xizmat vazifalaridan biri sifatida.
6.Diagnostik-korreksion ishning o`tkazish bosqichlari.

**Mavzuning o`quv maqsadi:** talabalarni amaliy psixolog faoliyatining asosiy ko`rinishlari bilan tanishtirish.

Darsning vazifasi: Talabalarga psixologik tashviqot, psixologik profilaktika, psixologik maslahat, psixologik-pedagogik konsilium, diagnostik-korrektsion ishlar haqida ma’lumot berish, bo`lajak mutaxassislarda ushbu faoliyatlarning psixologik xizmatdagi roli va mazmuni to`g`risidagi bilimlarni rivojlantirish.

Tayanch tushunchalar:

Psixologik tashviqot, psixologik profilaktika, psixologik maslahat, psixologik-pedagogik konsilium,diagnostik-korrektsion ishlar.

1.Psixologik tashviqot −ta'lim tizimidagi psixologik xizmat vazifasi sifatida

Psixolog ta'lim tizimida faoliyat yuritar ekan tashviqot vazifalarini ham amalga oshiradi. Bunda u pedagogik kengashlarda, ota-onalar majlislarida, o`quvchilar oldida ma'ruza qilish orqali psixologik bilimlarni targ`ibot va tashviqot qiladi. Shu bilan birgalikda OAVda, ya'ni ilmiy va ommabop jurnal va gazetalarda maqolalar chop ettirish hamda radio va televidenieda psixologik bilimlarni ommalashtirish bilan shug`ullanadi.

Psixologik ma'rifatning va tashviqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- o`quvchilarga eng oddiy psixologik bilimlarni berish va ularning bu bilimlarni egallashiga erishish, tengdoshlari va kattalar bilan shaxslararo munosabatlarga kirishish, o`zlarining shaxsiy sifatlari va xarakter xususiyatlari, qobiliyatlari,

layoqatlariga baho bera olish bilan bog`liq bo`lgan bilishga oid qiziqishlarini rivojlantirish;
- o`quvchilarda o`quv jarayoniga, o`qituvchilar va tarbiyachilar bilan muloqotga ijobiy munosabatni shakllantirish;
- o`smirlar, yigit va qizlarning jinsiy tarbiyasi, ularning oila psixologiyasi va oilaviy munosabatlar, shaxsiy gigiena va kasalliklarning oldini olish sohasidagi bilimlarni egallashiga erishish;
- har bir bolaga individual yondashuvni amalga oshirishda pedagoglar, tarbiyachilar, ota-onalar yoki qonuniy vakillarning psixologik kompetentligini oshirish;
- individual suhbatlar, ochiq darslar, seminarlar va maslahatlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali psixologik bilimlarni targ`ib qilish.

2. Psixologik profilaktika va uning psixologik xizmat faoliyatidagi roli va mazmuni

Psixoprofilaktika amaliyotchi psixolog faoliyatining maxsus turi bo`lib, maktabdagi barcha o`quvchilar uchun shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

Psixologik profilaktikaning vazifalari quyidagilarni tashkil etadi:

1. Shaxsning muayyan sharoitga moslashishi (ko`nikishi)ga oid (adaptatsion) ishlarni olib borish:

a) maktabgacha yoshdagi bolalarning bog`cha sharoitiga moslashishi (buning uchun ijtimoiy moslashish bilan bog`liq bo`lgan maxsus guruhlar tuzish, nevrotik holatlarni bartaraf qilish, tarbiyasi qiyin bolalar bilan va ularning ota-onalari, tarbiyachilari bilan alohida ishlashni tashkil qilish);
b) o`rta umumta'lim va yangi tipdagi (innovatsion) maxsus maktablar (gimnaziya, litsey, kollejlar) o`quvchilarini mazkur muhitga moslashish xususiyatlari.
2. Bolalarni birinchi bosqichli ta'limga qabul qilishda qatnashish, ularni maktab ta'limiga psixologik tayyorgarlik darajasini aniqlash, o`qituvchilar bilan hamkorlikda o`quvchilar bilan individual (yakka tartibda) ishlash dasturini ishlab chiqish, yangi
77
tipdagi maktablarga, xususan, kollej, litsey va gimnaziyalarga o`quvchilar qabul qilishda faol ishtirok etish.
3. O`quvchilarni ta'limning bir bosqichidan ikkinchisiga o`tkazishning kompleks psixologik-pedagogik tadqiqotida bevosita qatnashish, shuningdek, litsey va kollejlarda bir sinfdan boshqa sinfga o`tkazishni psixologik jihatdan tekshirish, o`qituvchilar hamda ota-onalar bilan hamkorlikda ta'limning yangi bosqichiga o`quvchining tayyorgarligini hisobga olgan holda yakka tartibda ishlash dasturini yaratish, shuning bilan birga, ota-onalarga farzandlarining bilimlaridagi uzilishlarni kamaytirish uchun maxsus uslubiy yo`l-yo`riq berish.
4. Ta'lim-tarbiya, yashash va turmush sharoiti bilan bog`liq nevrotik holatlar, psixologik tanglik hamda zo`riqishni oldini olish uchun bolalar bilan uzluksiz ravishda ishlash. Shaxsning qobiliyati, mayli, moyilligi, iqtidori, psixologik fazilatlari va xususiyatlari to`laqonli darajada namoyon bo`lishini ta'minlash maqsadida ularning aqliy taraqqiyotini aniqlash uchun psixologik konsiliumlar tashkil qilish.
5. Yangi tipdagi maktablarda eng qulay psixologik muhitni yuzaga keltirish uchun maxsus ish olib borish; pedagogik jamoada muomala madaniyatini takomillashtirish, (kattalar bilan kattalar o`rtasida); o`quvchilar bilan o`qituvchilar muomala jarayonini yaxshilashga yordam berish; shaxsga oid, ixtisoslikka doir muammolar yuzasidan o`qituvchilarga keng ko`lamda maslahatlar berish.
6.O`qituvchilar jamoasi a'zolari o`rtasidagi ruhiy zo`riqish va toliqishni kamaytirish, yo`qotish, ularning oldini olish uchun zarur chora-tadbirlar qo`llash, muallimlarning kasbiy faoliyati uchun muhim kommunikativ malakalarni tarkib toptirishga ko`maklashish.
7. Tarbiyaviy ish rejasi amalga oshirilgan va qo`llashga tayyorgarlik ko`rilayotgan tadbirlar ta'sirchanligining bolalar, o`quvchilar, talabalarning yosh va etnopsixologik xususiyatlariga, ularni kamolotga etkazish maqsadi va vazifalariga monandligi nuqtai nazaridan tahlil qilish.
8. Maktabning istiqboli bilan bog`liq bo`lgan, ilmiy jihatdan asoslangan modelini o`quvchilar bilan hamkorlikda yaratish. Umumta'lim va yangi tipdagi maktablarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini psixologik-pedagogik diagnostika qilishda
78
qatnashish, unga o`zgartirishlar, tuzatishlar kiritish, oqibat natijada o`quvchilarning ruhiy jihatdan taraqqiy etishi muammosini maqsadga muvofiq hal qilinishi uchun xizmat qilsin.
9. O`quv motivlari, shaxsning yo`nalishi, uni etnomadaniyat bilan bog`liq bo`lgan qadriyatlarga yo`naltirish xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayoniga tuzatishlar kiritish. Shaxslararo, etnik guruhlararo, millatlararo har xil

ko`rinishdagi ziddiyatlarning oldini olish uchun psixologik tadbirlarni ishlab chiqish (munozara, bahs uyushtirish, xalqlarning tarixi va madaniyatini oqilona o`rganish, bu sohadagi ijobiy tajribalarga alohida etibor berish);
10.O`quvchilar, talabalar, xodimlar, muallimlar o`rtasida sodir bo`luvchi har xil nizolarning psixologik ildizini o`rganish, shaxslararo munosabatlarning asl mohiyatini namoyon qilish, ularni keltirib chiqaruvchi motivlarni tahlil qilish, favqulotdagi vaziyatni engillashtirish va ularni tamoman bartaraf qilish yo`llari yuzasidan maslahatlar berish.
11.Yoshlar o`rtasida aysh-ishratga, giyohvandlikka, engil turmush kechirishga, qing`ir yo`l bilan boyishga (chayqovchilik, qizlar orasidagi engiloyoqlikka) ruju qiluvchi shaxslar bilan yakka tartibda ishlashni yo`lga qo`yish. Og`ir kasalliklarga uchragan o`quvchilar, o`qituvchilar, talabalar ruhiyatini tetiklashtirish abadiyat qonuni bilan ularni tanishtirish, pessimistik kayfiyatdan voz kechib, ularni shukrona qilib yashashga o`rgatish yuzasidan tavsiyalar berish, bevaqt halokatning oldini olish.
12. Xulqi, xatti-harakati buzilgan o`rta va oliy maktab o`quvchilari, muallimlari, talabalari bilan yakka tartibda ish olib borish.
13. O`zlashtirmovchi o`quvchilar va talabalar ruhiy dunyosidagi nuqsonlarni aniqlash, ularga yordam berish yo`l-yo`riqlarini ishlab chiqish, amaliyotga tatbiq qilish hamda korreksion ishga muhtoj kishilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish.
14.O`z-o`zini boshqarish imkoniyatini o`rta va oliy maktab jamoalari a'zolari o`rtasida aniqlash(bioritmika, emotsiya, motivatsiya, iroda, qiziqish va diqqatni shaxs tomonidan idora qilinishi nazarda tutiladi).
15. Tarbiya va ta'limning yangi metodlari samaradorligini tekshirish va boshqalar.

Psixoprofilaktik ish - amaliyotchi psixologning eng kam ishlangan faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Psixoprofilaktika muammolari ko`proq Amerika adabiyotlarida aks etgan.
Psixoprofilaktikada uch bosqich ajratib ko`rsatiladi:
Birinchi bosqich *dastlabki profilaktika* deb ataladi. Bu bosqichda psixolog sog` bolalar bilan ishlaydi yoki maktabdagi barcha o`quvchilarni qamrab oladi. Ko`pchilik mualliflarning ta'kidlashicha, maktab psixik sog`liq profilaktikasi uchun qulay hisoblanadi. Ular maktab psixologlarini dastlabki profilaktikani o`tkazadigan mutaxassislar deb tan oladilar.
Ikkinchi bosqich profilaktika muammolari mavjud bolalarga qaratiladi. Uning maqsadi −o`qishdagi va xulq-atvordagi qiyinchiliklarni iloji boricha erta aniqlab, ularni yo`qotishdan iboratdir. Ikkinchi bosqich ota-onalar va o`qituvchilarga maslahatni ham o`z ichiga oladi.
Uchinchi bosqich. Psixolog o`qishdagi va xulq-atvordagi yaqqol ko`rinib turadigan muammolari bor bolalarga o`z diqqatini qaratadi.
Profilaktikaning dastlabki maqsadi − jiddiy psixologik qiyinchiliklarni va muammolarni yo`qotish va tuzatishdan iborat. Psixolog oldiga kelgan bola bilan alohida ishlaydi. Maktab psixologining asosiy kuchi uchinchi bosqichga, ya'ni «tarbiyasi qiyin» bolalarga qaratiladi va o`quvchilarning asosiy qismi psixolog e'tiboridan chetda qolib ketadi.
Hozirgi Amerika psixologlari maktablardagi psixologik xizmatni psixik sog`liq xizmati sifatida faoliyat ko`rsatishning tarafdori bo`lib chiqmoqdalar.

Shunday qilib, psixolog profilaktik ishining asosiy vazifalari quyidagilar:
1. Har bir yosh bosqichida insonning shaxs sifatida shakllanishi, aqlan barkamollikni ta'minlashning oqilona shart-sharoitlarini yaratish;
2. Shaxs kamoloti va intellektual taraqqiyoti bo`sag`asida vujudga kelishi mumkin bo`lgan psixologik nuqsonlar va buzilishlarni o`z vaqtida oldini olish hisoblanadi.

3. Psixologik-pedagogik konsilium

Konsilium − (lot. Consilium - kengash, maslahatlashish) bir yoki bir qancha sohalardagi mutaxassislarning ma'lum muammoni o`rganish va uni hal etish uchun kengashishi hisoblanadi. Psixoprofilaktik ishlarning usullaridan biri pedagogik psixologik konsiliumni tashkil etadi. Y.K.Babanskiyning ta'kidlashicha, o`quvchilarni o`rganishni yaxshi yo`lga qo`yish uchun, to`liq yozma tavsifnomalar yozishdan ko`ra sinf o`qituvchilarining o`quvchilar haqidagi fikrlarini jamoa bo`lib muhokama qilish, sinfga va o`quvchilarga individual yondashuv choralarini ishlab chiqish yaxshi natijalar beradi. Bunday jamoa bo`lib, muhokama qilishlarni shartli ravishda pedagogik- psixologik konsilium deb ataladi.

Psixologik-pedagogik konsilium o`qishda orqada qolish sabablarini yoki xulqatvordagi kamchilik natijalarini muhokama qilishga yo`naltirilgan bo`ladi.

Pedagogik konsiliumda psixologning vazifasi −o`quvchi intellektual taraqqiyotini baholashda o`qituvchilarga har xil tomondan yondoshuvga yordamlashishdan iborat. Pedagogik konsilium imkoniyatlarini baholashda sub'ektivizmdan holi bo`lish ularni ob'ektiv baholash imkonini beradi. Lekin, baxtga qarshi o`qituvchilarda u yoki bu o`quvchi haqida o`z fikri bo`ladi, ularning bu fikrlarini o`zgartirish juda qiyin. Shuning uchun konsilium natijasi foydali bo`lishi uchun psixolog unga jiddiy tayyorlanishi kerak.

Psixolog konsiliumda ishtirok etib quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:
1. Pedagogik jamoa o`quvchi psixik va shaxsiy xarakteristikalarini turli tomondan ko`rsatish, bunda albatta ijobiy kuchli tomonlarni ta'kidlash joiz. Kuzatish, suhbat, psixodiagnostika natijalariga asoslanib, o`quvchi muammolarining kelib chiqishi haqida isbotlangan farazlarni keltirish zarur.
2. Har bir o`qituvchida o`quvchiga nisbatan mavjud ustanovkasini o`zgartirishga erishish zarur. Bu juda qiyin vazifa bo`lib, uni ehtiyotkorlik bilan hal qilish lozim, konsilium o`tkazguncha sekin-asta boshlash kerak.

Ko`pincha o`qituvchi o`quvchiga nisbatan fikrini o`zgartirgisi kelmaydi.

O`qituvchi bunda psixolog nima haqida gapirayotganini tushunmaganligi uchun

emas, balki ongli ravishda o`z hayotini murakkablashtirgisi kelmaganligi uchun shunday qiladi.
3. Barcha o`qituvchilarning o`quvchi muammolarini, uning shaxsi mohiyatini jamoa bo`lib, tushunishlariga erishish. Faqat ana shu holda o`quvchi foydasiga o`zaro harakat qilishlariga ishonish mumkin.

Shunday qilib, psixologik-pedagogik konsilium psixoprofilaktik ishning muhim bosqichi hisoblanadi. Yuqori darajada tayyorlangan konsilium o`quvchilarning, o`qituvchilarning va butun jamoaning rivojlanishiga yordam beradi.

Psixologik-pedagogik konsiliumning funksiyalariquyidagilar:
1. Ijtimoiy nazorat funksiyasi o`smir xulq atvorini nazorat qilib boruvchi, unga

to`g`ri yo`l-yo`riqlar ko`rsatuvchi kishilarning ishini o`z ichiga oladi. PPK jarayonida sinf rahbari, ota-onalar, o`qituvchilar uchun aniq tavsiyalar ishlab chiqiladi.
2. Ijtimoiy qo`llab-quvatlash funksiyasi− shaxs o`zi mustaqil ravishda engib o`tolmaydigan, shaxs taraqqiyotiga salbiy ta'sir qiluvchi sharoitlarni engib o`tishda yordam berish.
3. Pedagogik reabilitatsiya funksiyasi. Bu vazifaning asosiy mazmuni o`quvchining obro`sini o`qituvchilar, ota-onalar, do`stlari orasida ko`tarishdir. Ko`pincha xulqida salbiy o`zgarishlar ro`y bergan bolalarga nisbatan o`qituvchi va guruhdoshlarida, hatto ota-onalarda ham ishonchsizlik paydo bo`ladi. PPK o`quvchining ijobiy tomonini o`rganib, uni o`quvchining o`ziga, ota-onalarga pedagoglarga ko`rsatishi, unga bo`lgan ishonchni uyg`otishi muhimdir.
2. Psixoprofilaktik funksiyasi. PPK tibbiy xizmat xodimlari, psixolog yoki boshqa mutaxassislar ishtirokida o`quvchilarning jismoniy va ruhiy sog`lig`ini

saqlash, ish qobiliyatini oshirish, ular orasida nizolarni kamaytiish, o`quvchilarda paydo bo`lgan ijtimoiy psixologik muammolarni hal qilish kabi ishlar olib borish yo`llarini belgilaydi.
PPK o`quvchilarni, ota-onalarni yoki o`qituvchilarni jazolovchi, ko`rsatma beruvchi tashkilotiga aylanib qolmasligi shart. Shuning uchun PPK olib boruvchilar yuqori malakali mutaxassislar bo`lishi kerak. Pedagoglar, psixologlar, vrachlar, psixiatrlar, narkologlar, militsiya xodimlari psixologik-pedagogik konsiliumning domiy ishtirokchilari bo`lishlari mumkin. Bulardan tashqari o`quvchilarning otaonalari, to`garak rahbarlari va boshqa kishilar taklif qilinishi mumkin.
Konsilium rahbari. Konsilium rahbari konsiliumning muntazam ishlashini tavsiya qilingan takliflarning amalga oshishini nazorat qilish kabi ishlarni olib boradi. O`quv muassasasi rahbarlaridan biri konsiliumning rahbari (moderator) bo`lishi mumkin. Konsilium kotibi o`quvchi haqida ma'lumotlarni to`playdi, unga tavsifnnoma yozadi, PPK yordamiga muhtoj o`quvchilar ro`yxatini tuzadi, konsilium a'zolari bilan aloqa bog`lab turadi.
Maktab vrachio`quvchi sog`lig`i va uning sog`lig`ini mustahkamlash borasida olib borilgan ishlar haqida ma'lumot beradi.
Balog`atga yetmagan yoshlar bo`yicha inspektor. Agar o`quvchi uning hisobida turgan bo`lsa, uning do`stlari, kimlar bilan ko`proq vaqtini o`tkazadi, u bilan qanday ishlar olib borilganligi haqida ma'lumot beradi. Maxsus maslahatchi zaruriy hollarda chaqiriladi. Bu narkolog, psixiatr, psixonevrolog yoki logoped bo`lishi mumkin.Psixolog konsiliumning asosiy ishtirokchisi va tashkilotchisidir.U qo`yilgan diagnozning to`g`riligi qilinayotgan yordam va tarbiya metodlarining adekvatligi, o`quvchi bilan olib borilayotgan ishlarning maqsadga muvofiqligi, konsilium natijalari bo`yicha shaxsan javob beradi.
Sinf rahbari. O`quvchiga tavsifnoma yozadi, u bilan ishlash jarayonida yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarni bayon qiladi, konsilium oldiga ma'lum talablar qo`yadi, kuzatish kundaligini to`ldirib boradi.

4.Psixologik xizmat faoliyati tizimida psixologik maslahat, uning turlari
Psixologik xizmat faoliyati yosh va pedagogik psixologiya, psixokorreksiya, psixologik maslahat sohasida umumiy psixologik va maxsus psixologik bilimlar olgan mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Psixologik xizmatga jalb qilingan

pedagoglar bu mutaxassislikni olish uchun maxsus qayta tayyorgarlikdan o`tishlari lozim.
Maslahat berish psixologik xizmatning asosiy yo`nalishlaridan biridir. Lekin psixologik maslahat o`zi nimaligi haqida yagona tushuncha yo`q. Kollejlardagi yoki akademik litseylardagi psixolog ishi bir-biridan tubdan farq qiladi. Psixolog aniq o`quv muassasasidagi o`qituvchilar va o`quvchilar orasidagi munosabatning ijobiy va salbiy tomonlari rivojlanadigan ijtimoiy muhitning ichida bo`ladi. U har bir o`quvchi yoki o`qituvchining o`zinigina emas, shaxslararo munosabatning murakkab sistemasini ham ko`radi, boshqa ish turlari bilan birgalikda vaziyatni hal qiladi.
Psixolog maslahat berish ishlarida quyidagi ishlarni olib boradi:
1. Bolalar, o`qituvchilar, talabalar ta'lim va tarbiyasi bilan shug`ullanuvchi barcha shaxslarga, jumladan ma'muriyat, direktor, rektor, mudir,o`qituvchilar, murabbiylar, ota-onalar, ijtimoiy va jamoatchilik tashkilotlari xodimlariga aniq, yaqqol maslahatlar berish.
2. Ta'lim, taraqqiyot, tarbiya, kasb tanlash va turmush qurish, o`zaro munosabat, muomala va muloqot sirlari, tengdoshlar va voyaga yetmaganlar munosabati, masalan, dunyoqarash, qobiliyat, iqtidor muammolari yuzasidan individual, guruhiy, jamoaviy tarzda maslahatlar uyushtirish.
3. Ma'muriyatga, bolalar, o`quvchilar, talabalarga (yotoqxonada, klublarda, kutubxonalarda) qiziqtiruvchi masalalar bo`yicha bolalar, o`quvchilar, talabalarning psixik o`sishi xususiyatlariga oid ma'lumot berishi, o`g`il va qizlarni asrab olish, onalik va otalikdan mahrum qilish, tashkilotlarning g`amxo`rlik va vasiylik to`g`risidagi qabul qilgan qarorlariga munosabati, shaxs taqdirini hal qilishda qatnashishi va maslahatli fikr berishi lozim.
4. Ota-onalarga bolaning psixik rivojlanishi xususiyatlarini shaxs sifatida shakllanishi, o`zaro munosabat maqomlari, bunda farzandlarning yoshi, jinsi,

individual-tipologik xususiyatlari muammosi bo`yicha ilmiy-amaliy maslahatlar beradi.
5. Yangi tipdagi maktablarga o`rta-maxsus va kasb-hunar kolleji o`quvchilari, akademik litsey talabalariga ularning imkoniyati, istiqboli to`g`risida ilmiy-amaliy xususiyatga molik konsultativ ishlar olib borish: yoshlarni saralash, tanlash, kasbga yaroqlilik darajasini aniqlash, tanlov komissiyasida maslahatchi sifatida ishtirok etish.
Maslahat berish ishlari amaliyotchi psixologning asosiy faoliyat turlaridan biridir. Maslahat berish ishlari o`qituvchilar, o`quvchilar, ota-onalar uchun olib boriladi. Maslahat berish ishlari individual va guruhiy bo`lishi mumkin. Amaliyotchi psixologlar ish tajribasini umumlashtirish shuni ko`rsatadiki, o`qituvchilar ko`pincha psixologga quyidagi muammolar bo`yicha murojaat qiladilar: turli fanlar bo`yicha o`quvchilarning o`zlashtirishdagi qiyinchiliklari, bolalarning o`qiy olmasligi va istamasligi, guruhdagi nizoli vaziyatlar, shaxsiy pedagogik ta'sirning natija bermasligi, har xil yoshdagi bolalarning tengdoshlari oila muloqati va bolalar jamoasining shakllanishi, kasbiy malakalarini oshirish yo`llari, o`quvchilarning qobiliyatlari, layoqatlari, qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirish yo`llari, o`quvchilar bilan kasbga yo`naltirish ishlarini olib borish.
Bolalar psixologiyasi sohasida psixologik maslahatlar berish 60 yildan ko`proq vaqt ichida chet elda rivojlanib bormoqda. Bunga A.Binening ishlari asos bo`lib

xizmat qiladi. Uning faoliyati sog`lom, pedagogik qarovsiz bolalarni taraqqiyotda normadan og`ishgan bolalardan ajratish maqsadida aqliy taraqqiyotni o`lchash metodlarini ishlab chiqishga bag`ishlangan edi.
Hozirgi vaqtda maslahat berish amaliyoti bola tarbiyasi va psixik taraqqiyotini murakkablashtiradigan qator noto`g`ri fikrlarning kuchayganligi bilan duch kelmoqda. Ular orasida qator ijtimoiy-iqtisodiy omillarning qarama-qarshi ta'sir ko`rsatishi sezilarli o`rin egallaydi.
Masalan, ota-onalarning, ayniqsa, onalarning ishlab chiqarishda bandligi sezilarli o`zgarishlarni vujudga keltirmoqda. Bundan tashqari, ko`pchilik bolalarning bolalar muassasalarida tarbiyalanishi ota-onalar psixologiyasida ma'lum ma'noda o`z izini

qoldiradi. Ota-onalar o`zlarining funksiyalarini bog`chalarga, keyinchalik maktablarga ag`darib qo`ymoqdalar. Ota-onalarning ajralishi bola psixikasiga katta ta'sir ko`rsatadi. Mutaxassislarning fikricha, oilaning buzilishi bolaning ahvolini qiyinlashtirib qo`yadigan kuchli psixologik omil bo`lib, unga ko`nikish uchun bolaga kamida 2 yil kerak. Tarbiyaviy xavfli guruhga yolg`iz bolali oilalarda tarbiyalanuvchi bolalar ham kiradi.
Xilma-xil psixologik muammolar manbalari ichida maktab ham muhim o`rin egallaydi. Misol uchun tibbiyot mezonlariga qaraganda maktab yoshidagi bolalarniing 15-20 foizi qisqa muddatli yoki doimiy psixoterapiyaga muhtojlar.
Maktabda keng tarqalgan psixologik muammolar juda ko`p: ichki o`quv motivatsiyasining sustligi, past o`zlashtirish, o`qituvchilar va tengdoshlari bilan nizoli munosabatlar, o`z-o`zini past baholash, jamiyatga qarama-qarshi guruhlarda ishtirok etishga layoqatlilik va boshqalar.
Yuqorida sanab ko`rsatilgan muammolarning ko`pchiligiga shaxs rivojlanish bosqichlarida ehtiyojlarni va chuqur qonuniyatlarni yetarlicha hisobga olmaslik, barcha bolalarga bir xil talab qo`yish, ularning individual-psixologik va psixofiziologik xususiyatlarini e'tiborga olmaslik sabab bo`lmoqda.
Bolaning ko`pgina ijobiy xususiyatlari, masalan, she'riyatga, matematikaga, musiqaga va boshqalarga nisbatan erta ko`ringan layoqatlilik yoki umumiy psixik taraqqiyotining juda oldindaligi ko`pgina psixologik va pedagogik muammolarning manbai bo`lishi mumkin.
Amaliyotchi psixologga o`quvchilar ham kattalar va tengdoshlari bilan o`zaro munosabatni yaxshilash masalalari, o`z-o`zini tarbiyalash, kasbiy va shaxsiy o`zo` zini bilish, aqliy mehnat va xulq-atvor madaniyati va boshqa muammolar bo`yicha murojaat qiladilar.
Psixolog o`quvchilar bilan bevosita aloqada ularda vujudga kelgan muammolarni hal qiladilar. Bu to`g`ridan-to`g`ri maslahat berish deb ataladi. Ba'zan o`quvchilarga va ota-onalarga o`qituvchilarning u yoki bu muammolari bo`yicha maslahat beradi, bu bavosita maslahat berishdir, bunda ma'lum qoidalarga amal qilishga to`g`ri keladi.
Maslahat berish markazida har doim psixolog va maslahat berilayotgan shaxsning

o`zaro ta'sir jarayoni, ular orasida ishonchli o`zaro munosabatni o`rnatish yotadi. Bunda psixolog − maslahat beruvchi; o`qituvchi, ota-ona − maslahat beriluvchi; o`quvchi − mijoz rolida bo`ladi.
Maslahat berish ishini quyidagicha sxematik tasvirlash mumkin.
maslahat

muammolar
Sabablarni bola bilan
aniqlash ishlash
Yuqoridagi usulda ish olib borganda psixolog va o`qituvchi o`z sohasini yaxshi biluvchi mutaxassislar sifatida namoyon bo`ladi.
1. O`quvchi muammolari bo`yicha ularning hamkorligi bilimlarining birikuviga imkon beradi va muammolarni hal qilish uchun keng ijodiy imkoniyatlar yaratadi. Maslahat berishning asosiy ahamiyati ana shunda.
2. Psixolog o`quvchilar va talabalarning psixologik xususiyatlari, ularning qiziqishi, mayli, ilk iqtidori kabilarni o`rganadi, mutaxassis va yyetuk shaxs sifatida shakllanishiga yordam ko`rsatadi.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalar, o`quvchilar, kollej o`quvchilari yangi tipdagi maktab, oliy o`quv yurti talabalarida uchraydigan o`quv malakalari va ko`nikmalarini egallashdagi nuqsonlar xulq-atvordagi kamchiliklar, intellektual taraqqiyot va shaxs fazilatlaridagi buzilishlarni diagnostika qiladi.
4. Boshqa sohaning mutaxassislari bilan birgalikda psixik rivojlanishdagi nuqsonlar xilma-xilligini hisobga olgan holda differentsial diagnostikani amalga oshiradi. Nuqsonlarning tibbiy va defektologik tabiatini aniqlaydi. Assotsial xulqatvor sabablarini va shakllarini belgilaydi. Giyohvandlik va taksikomanlik,
Psixolog O'qituvchi
O'quvchi

alkogolizm, o`g`rilik, daydilikning ijtimoiy psixologik ildizlarini tekshiradi, omillarni tahlil qiladi.
5. Iqtidorli talabalar, yosh mutaxassislarni tanlashda qatnashish, ilmiy psixologik tavsiyalar ishlab chiqish va ularga nafaqalar belgilashda ishtirok etadi.
Psixolog ta'lim-tarbiya ish rejasini tuzishda, tarbiyaviy tadbirlar ishlab chiqishda, o`quv dasturi va qo`llanmasini yaratishda faol ishtirok etishi, bosh maqsad bo`lgan shaxsning intellektual qobiliyati, umuminsoniy fazilati, bilim olish ko`nikmalari va malakalari, mutaxassislik fazilatlarini shakllantirishdek muqaddas ishga o`ziniig munosib ulushini qo`shishdan iborat sharafli vazifani bajaradi.
Yangi tipdagi maktablarga, o`rta maxsus va kasb-hunar hamda oliy o`quv yurtlariga o`quvchilar, talabalar tanlash mohiyati, vazifasi, monandligi, ularning imkoniyati, istiqboli to`g`risida ilmiy-amaliy xususiyatga molik konsultativ ishlarni olib borishi yoshlarni saralash, tanlash, ixtisosga yaroqlilik va layoqatlilik darajasini aniqlash, tanlov jarayonida maslahatchi sifatida qatnashish va boshqalardan iborat.
Psixologning maslahat berish ishlari asosan shaxs bilan birgalikdagi kelishuvi asosida shakllanadi. Psixolog maktabda, litsey, universitetda yoki tashkilotda faoliyat yuritmasin shaxs bilan ish olib boradi. Ishlash jarayonida ularga maslahat yoki yo`llanma beradi.
Maslahatni mijozga berishdan avval uni yaxshilab eshitadi va suhbat olib boradi. Mijoz psixolog oldida muammo bilan keladi, psixolog uni har tomonlama o`rganishi lozim. Shunda kutilgan natijaga erishishi mumkin. Psixolog maslahatni asosan hayotiy misollar bilan, shaxslarga bog`lab, obrazlar orqali mijozlar ongiga singdirishi va uning tanlash huquqi erkinligini eslatib o`ziga qo`yib berilsa, kutilgan natijaga erishish mumkin.
Individual psixologik maslahat berish psixolog amaliy faoliyatining eng

ma'suliyatli turlaridan biridir. Maslahatchining fikri, psixik taraqqiyoti bo`yicha har bir bahosi bolaning keyingi taraqqiyotiga, o`qituvchilarning, ota-onalarning bolaga nisbatan munosabatiga katta ta'sir ko`rsatishi mumkin. Shuning uchun individual psixologik maslahat berish bola taraqqiyotini boshidan diqqat bilan tahlil qilishni, har xil manbaalardan olingan ma'lumotlarga asoslanadi. Ma'lumot manbaasi sifatida ota88 onalar bilan suhbat, o`qituvchilar bilan, bolaning o`zi bilan suhbat, bolani uyda, maktabda va boshqa hollarda kuzatish, psixologik tajriba orqali kuzatuv, ota-onalar bilan tanishish, tibbiy hujjatlar bilan tanishish va boshqalardan foydalanish mumkin. Ko`pchilik mualliflar aniqhodisani o`rganishda quyidagi ketma-ketlikni afzal ko`rishadi:

1) ota-onalar bilan dastlabki suhbatda olingan ma'lumotlarni tahlil qilish hamda vrachlardan, pedagoglardan olingan ma'lumotlarni ham e'tiborga olish;
2) bolaning ilgarigi rivojlanish bosqichlari, sog`ligi, oilasidagi o`zaro munosabat haqida ma'lumot olish uchun ota-onalar bilan suhbat;
3) boshqa muassasalardan ma'lumot yig`ish;
4) sog`ligi haqida ma'lumot (tekshiruv vaqtida);
5) bolani maktabda, uyda, boshqa hollarda kuzatish. Tekshiruvga muhim qo`shimcha sifatida bola faoliyatini (rasmlarini, daftarlarini, qiziqadigan narsalarini) tahlil qilish ham kiradi. Psixolog-maslahatchi ana shu olingan ma'lumotlar asosida bola rivojlanishining umumiy darajasiga baho berishi, bola qiyinchiliklarining mohiyatini tavsiflashi, ana shu qiyinchiliklarni keltirib chiqaradigan omillarni aniqlashi va psixologik tuzatish dasturlarini ishlab chiqishi kerak.

Maslahat berish amaliyotida juda ko`p metodlar mavjud: kuzatish va test metodlari. Psixolog oldida turgan birinchi vazifa bola bilan yaxshi munosabat va o`zaro tushunishni o`rnatishdan iborat. Suhbatni maqsadli ravishda olib borsangiz ijobiy natija beradi.

Ob'ektni o`rganish va baho berish − bunga biz suhbatdoshimizning yuz mimikasi, xatti-harakatlariga qarab uning umumiy emotsional holatini baholaymiz, bizni ijobiy yoki salbiy tan olishini aniqlaymiz.Hamkorlik darajasiga erishish - hamkorlikka asosan ob'ektning sizga va siz ko`tarayotgan masalaga qiziqishini uyg`otish yo`li bilan erishiladi.

Amaliy muammoni muhokama etish − bu holatda biz ko`tarilayotgan muammoga ob'ektning munosabatini belgilab olamiz.

89

Ma'lumotga ega bo`lish − ob'ektnig suhbat chog`idagi xatti - harakatlariga, ovozining tempi, baland- pastligiga chuqur e'tibor bera turib, uning asl fikri munosabatini aniqlash.

Samarali suhbat qilishning muhim jihati bu moslashuvdir. Har qanday insonning fikr yuritish, his-tuyg`ulari va harakatlari o`zaro bog`langan bo`ladi. Miyamizdagi har qanday paytda bo`layotgan fikr ma'lum bir emotsional turtkiga, mushaklardagi o`ziga xos o`zgarishlarga, ya'ni jismoniy harakatlarga olib keladi. Jismoniy harakatlar ma'lum bir emotsional o`zgarishlarga va fikr paydo bo`lishga sabab bo`ladi. Suhbatdoshni his qilish, fikrlarini tushunish uchun eng avvalo biz uning xattiharakatlariga, mimikasiga moslashishimiz kerak. Pedagog psixolog, vrach, huquqshunos va istalgan boshqalarning proffesional mahorati o`z ovozi uning tebranish ohangini boshqara olish qobiliyatiga bog`liq bo`ladi. Ovoz ham suhbatdoshingizni ongiga kirishga imkon beruvchi muhim vositadir. Ovozning

eshitilishi tananing holatiga bog`liq va oyoq mushaklari, tovonlar joylashishi bunda muhim rol o`ynaydi.
-Ovoz jalb qilishi, ishontirishi, madh etishi, uxlatishi mumkin.
-Ovoz odamni uzoqlashtirishi, zo`riqtirishi, to`xtatishi va falaj qilib qo`yishi mumkin.
-O`z nutqingizda artistlik va sun'iylikdan qochib, samimiy bo`lishga harakat qiling.
Har kuni ovozingizni tebranuvchan, tinch, ishonchli, iliq, g`amxo`r, ma'noli bo`lishi uchun mashq qiling. Ovozingizda mavjud ishonchsizlik, qo`pollik, qo`rqoqlik, qaltirash, nafrat va qasos ohangidan saqlaning. Shaxslararo muloqotda savol berish katta o`rin tutadi. Shu bilan suhbatdoshlar bir-birlarini chuqurroq anglaydilar. Savol berayotgan shaxs savol yordamida kerakli ma'lumotni aniqlashtiradi. Savol berish suhbatning asosiy qismi hisoblanadi. Savol berish ham san'atdir, uni mashaqqatli san'at sirlarini o`rgangandek o`rganish, bilish talab etiladi.
Inson ongi, xulq-atvoriga ta'sir etuvchi bir necha yo`nalishlar mavjud bo`lib, ularning bir turi suhbat davomida mutaxassislardan maxsus usullarni qo`llashni talab etsa,

ikkinchisi maxsus texnik vositalar va dori-darmonlarni qo`llashni taqazo etadi.
Maxsus usullar quyidagilar:
- ishontirish
- ko`ndirish
- gipnoz
- NLP.
Uslublar shaxs psixologiyasini yaxshi bilgan holda unga ta'sir etishni ko`zda tutadi. Odamga ta'sir etishning negizida asosan shaxslarda mavjud psixokomplekslar mavjud bo`lib, ular odamda etakchi rol o`ynaydigan quyidagi 3ta instinktdan kelib chiqadi:
- O`z-o`zini va zotini saqlash;
- avlodni davom ettirish;
- tajavvuzkorlik(agressiya).
Psixokomplekslar yuqorida sanab o`tilgan 3ta instinktdan kelib chiqib, har birimizning turmush tarzimizni, xulq-atvorimizni, xatti-harakatlarimizni, ko`z ilg`amas to`rday o`rab chirmab turadi. Insonga ta'sir etmoqchi bo`lgan mutaxassis xuddi musiqachi cholg`u asbobining kerakli pardalarini bosib, o`zi istagan tovushni chiqargani kabi, shaxsni boshqarishi mumkin.
Psixokomplekslar miqdori ko`p bo`lib, psixologlar asosiy deb belgilaganlari quyidagilardir:

Psixologik maslahat chog`ida test metodini o`tkazish qoidalarini qarab chiqamiz. Psixodiagnostika bu masalaga katta ahamiyat beradi, chunki tekshiriluvchi harakatlarining natijasi testni o`tkazish qoidalariga to`liq amal qilishga bog`liq. Ko`pgina metodlar yordamida tekshiruvning bir necha majburiy qoidalari ishlab chiqilgan.
1. Qo`llanmani, unga ajratilgan vaqtni o`zgartirish mumkin emas. Barcha tekshiruvchilarga topshiriqlar bir xilda ko`rsatilishi, xatto qo`llanma ham bir ohangda aytishni talab qiladi. Savollarni bir necha marta qaytarmaslik kerak.
2. Testni bajarayotgan vaqtida bolaga o`rgatish, tanqid qilish, xatto maqtash ham

mumkin emas. Tanqid bolani chalg`itadi va ranjitadi, ko`pincha bolaning topshiriqqa bo`lgan qiziqishini pasaytiradi. Tanbeh, bolaning keyingi testlariga bo`lgan munosabatini kuchli o`zgartirishi mumkin, bolaning diqqati, qiziqishi yo`qoladi. Bolaning javoblari qanday bo`lishidan qat'iy nazar bir xilda qo`llab-quvvatlash kerak. Bolani javoblari uchun emas, intilishi uchun maqtash mumkin. Shunday qilish kerakki, bola qilgan xatolari haqida tasavvurga ega bo`lmasin. Agar bola javoblari bahosini aytishni talab qilsa, tekshiruv so`ngida aytishga va'da berish kerak.
3. Tekshiruvni bola o`zini yaxshi his qilayotganda, charchash belgilari, qaysarlik ko`rinishlari va ortiqcha xayajonlanish bo`lmaganda o`tkazish kerak.
92

5.Psixodiagnostika−psixologik xizmat vazifalaridan biri sifatida

Psixologik ishlar majmuasi o`quvchilarni maktab, kollej va litseylarda o`qitish davomida psixologik-pedagogik jihatdan chuqurroq o`rganishga yo`naltirilgan bo`lib, ularning individual xususiyatlarini, ta'lim va tarbiyasidagi nuqsonlarning sababini aniqlashga mo`ljallangandir. Diagnostik ishlar guruhiy yoki yakka tartibda (individual tarzda) o`tkaziladi. Bu asnoda amaliy psixolog quyidagi yaqqol vazifalarni bajaradi:

-yosh davr taraqqiyotining muayyan mezonlariga muvofiqligini aniqlash maqsadida psixolog bolalar, o`quvchilar, maxsus maktab va bilim yurti tinglovchilarini, oliy o`quv yurti talabalarini psixologik tekshiruvdan o`tkazib, ularning kamolot darajalarini belgilash; o`qituvchilarning kasbiy yaroqliligi va layoqatini diagnostika qiladi, ularning shaxs xislatlari, irodaviy sifatlari, histuyg` ulari, o`z-o`zini boshqarish imkoniyati, intellektual (aqliy) darajasi va pedagogik qobiliyatini tekshirish;

-psixolog o`quvchilar va talabalarning psixologik xususiyatlari, ularning qiziqish, mayl, ilk iqtidorligi kabilarni o`rganadi, ularga yakkahol (individual) munosabat va yondashishni yo`lga qo`yadi, mutaxassis va yetuk shaxs sifatida shakllanishiga muayyan yordam ko`rsatadi, trening (maxsus mashq) o`tkazish;

-maktabgacha yoshdagi bolalar, o`quvchilar, kasb-hunar kolleji o`quvchilari, oliy o`quv yurti talabalarida uchraydigan o`quv malakalari va ko`nikmalarini egallashdagi nuqsonlar, xulq-atvordagi kamchiliklar, aqliy taraqqiyot va shaxs fazilatlaridagi buzilishlar sabablarini diagnostika qilish;

-bolalarning voyaga etgan odamlar va o`z teshdoshlari bilan muomalasi xususiyatini tekshirish, ularning etnoqiyofasi va etnomadaniyati xususiyatini hisobga olgan holda psixofiziologik metodikalarni muayyan sharoitga moslashtirish;

-boshqa sohaning mutaxassislari bilan birgalikda ruhiy rivojlanishdagi nuqsonlar xilma-xilligini hisobga olib, tabaqalashgan, differentsial diagnostikani amalga oshirish;

- nuqsonlarning tibbiy va defektologik tabiatini aniqlash;
93
- deviant (qonunbuzarlik) aksil ijtimoiy hulq-atvor sabablari va ularning shakllarini belgilash;

- giyohvandlik, taksikomanlik, alkogolizm, o`g`irlik, daydilikning ijtimoiypsixologik ildizlarini tekshirish, ularning omillarini tahlil qilish;

-rahbar kadrlar va o`qituvchilarning kasbga yaroqliligini ilmiy asosda tekshirish va aniq tavsiyanomalar ishlab chiqish;

- oliy maktab xodimlari sinov (adaptatsiya) muddatini mutaxassis, o`qituvchi,

aspirant va boshqalarni) o`rganish va amaliy ko`rsatmalar berish;
- ish yuritish, saylov, saralash, tanlov, qabul bo`yicha ilmiy-psixologik prognoz qilish, sodir bo`lishi mumkin bo`lgan xavfdan ma'muriyatni ogoh etish. Attestatsiya, ijtimoiy talab va buyurtmalar yuzasidan ijtimoiy-psixologik axborotlar to`plash va ularni umumlashtirib, yaqqol tavsiyalar yaratish;
- chet el muassasalari bilan aloqa qilish, kadrlarning malakasini oshirish, ularning intellektual potentsialini aniqlash, fan va texnikani rivojlantirish imkoniyati, oliy maktabning nufuzi to`g`risida, materiallar yig`ish, ularni psixologik jihatdan tahlil qilish va maslahatlar berish;
- o`quv qo`llanmalarining sifati, kitobxonlik muammosi, xodimlar, talabalarning davlat mulkiga munosabati haqida ma'lumotlar to`plash va ularni umumlashtirish, ma'muriyatga va kasaba uyushmasiga axborot tayyorlash;
- yotoqxonalarda o`quvchilar va talabalarning talabi, ehtiyoji, qiziqish, ijtimoiy qarashlari nuqtai nazari (pozitsiyasi), turmushga nisbatan munosabati to`g`risida ma'lumotlar to`plash va ularning faolligini oshirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;
- maktab xodimlari, o`qituvchilar va talabalarning ekologik, iqtisodiy, siyosiy, etnopsixologax bilimlari saviyasini tekshirish va mustaqillikni mustahkamlash imkoniyatini o`rganish, vatanparvarlik his-tuyg`ularini shakllantirish maqsadida tadbirlar tizimini ishlab chiqish;
- an'anaviy ta'lim va tarbiya metodlarining yutug`i hamda kamchiliklarini tadqiqot qilish, innovatsion, faol uslublar samaradorligini amaliyotda sinab ko`rish, o`quvchilarning ularga nisbatan munosabatini aniqlash va ana shularga asosan

o`qitishni individuallashtirish, tabaqalashtirish bo`yicha o`quv-uslubiy ko`rsatmalar tavsiya qilish;
- iqtidorli o`quvchilar, talabalar, yosh mutaxassislar, aspirantlarni tanlashda ishtirok etish, ilmiy-psixologik tavsiyalar ishlab chiqish;
- o`quvchilar, o`qituvchilar, xodimlar, talabalar ijodiy faoliyati mahsuldorligi, to`garaklar faolligini ko`tarishning tadbirlarini ishlab chiqish, ularning imkoniyatlarini tekshirish, kasb mahoratini egallash bo`yicha musobaqalar, munozaralar tashkil qilish va ularning mahsuli to`g`risida bashorat (prognoz) qilish;
- o`quvchilar, o`qituvchilar, xodimlar, talabalar o`rtasida bo`sh vaqtni taqsimlash va undan omilkorlik bilan foydalanish muammosini ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan tekshirish va bo`sh vaqtni maqsadga muvofiq tashkil qilish yo`llari hamda ulardan etnopsixologik bilimlar, ma'naviy qadriyatlarni egallashda foydalanish imkoniyatini psixologik jihatdan tahlil qilish;
- maktab o`quvchilari, o`qituvchilari, xodimlari va talabalarida davlat mablag`ini tejash tuyg`usini aniqlash, tejamkorlik, mol-mulkni asrash hissini, noxush kechinmalarni jamoa orasida yoppasiga tekshirish, ularda mehnatni qadrlash burchini shakllantirish bo`yicha tadbirlar ishlab chiqish, milliy g`urur, millatlararo munosabat madaniyatini tarkib toptirish majmuasini ishlab chiqish;
- o`quvchilar, o`qituvchilar va maktab xodimlari, talabalarda ishbilarmonlik qobiliyatini rivojlantirish yuzasidan ilmiy-psixologik dastur yaratish hamda uning moddiy boylik ishlab chiqarishdagi ulushini tahlil qilish.
Psixologik-pedagogik diagnostika bugungi kunda maktab, bog`cha va boshqa turli tipdagi o`quv bilim yurtlari psixologlari va pedagoglari oldida turgan muhim

vazifalardan, ularning real ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda shakllanmoqda va rivojlanmoqda.
Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, biz psixologik-pedagogik diagnostikaning metodlariga batafsil to`xtalib o`tmaymiz, faqat ularning ba'zilari nomlarini ko`rsatib o`tish bilan cheklanamiz. Ularga quyidagilar kiradi:
 turli reja, dastur, maqsad va mezonlarga ega bo`lgan kuzatish metodlari guruhi;

 diagnostik suhbatlar;
 dianostik so`rovnomalar;
 diagnostik intervyu;
 barcha tipdagi anketalar;
 turli psixodiagnostik testlar;
 o`quv guruhining xususiyatlarini o`rganish metodlari;
 pedagogik testlar, shu jumladan, didaktik testlar;
 o`quv hujjatlarini tahlil qilish, shu jumladan, kontent-analiz metodi;
 turli xildagi jamoatchilik fikrini o`rganishga mo`ljallangan metodlar va h.k.
Hayotiy va pedagogik tajribalar shuni ko`rsatadiki, diagnostik faoliyat bilan shug`ullanmoqchi bo`lgan pedagog, ba'zi hollarda amaliyotchi-psixolog ishni o`zida mavjud metodikalardan kelib chiqib, shu metodika yordamida tadqiqot, tekshirish o`tkazish, ma'lumot yig`ishdan boshlaydi. Keyin esa olingan natijalarni hayotga moslashtirishga harakat qilib, o`z ishining amaliy ahamiyatini ko`rsatishga harakat qiladi. Bunda ish uslubining asosiy kamchiligi shundaki, ba'zida juda mukammal, o`ta ilmiy amaliy asoslangan metodikalar aniq pedagogik faoliyatning maqsad va vazifalariga mos kelmasligi, ulardan yiroqligi sababli kutilgan natija bermaydi. Shuning uchun ham har qanday diagnostik faoliyat nimani yoki kimni, qaysi maqsadlarda o`rganish, olingan natijalardan qanday foydalanishni anglashdan boshlanishi shart.

6.Diagnostik-korreksion ishning o`tkazish bosqichlari

Psixologik xizmat doirasida alohida diagnostik ish, alohida korreksion ish haqida gapirish mumkin emas. Psixologik xizmatda diagnostik-rivojlantiruvchi yo`nalishlar ishning yagona yo`nalishlardir. D.B. Elkoninning ta'kidlashicha, bolalarni tanlash uchun, aniqlangan chetlashishlarni tuzatish maqsadida psixik taraqqiyotni nazorat qilishga yo`naltirilgan maxsus diagnostika zarur. Uning fikricha, taraqqiyotda bo`lishi mumkin bo`lgan chetlashishlarni ertaroq tuzatish uchun psixik taraqqiyotni nazorat qilish zarur. Amaliyotchi psixolog faqatgina diagnoz qo`yish bilan cheklanmasdan, keyingi rivojlanish dasturini ishlab chiqadi, o`zi bergan

tavsiyalarning bajarilishini nazorat qiladi, korreksion va rivojlantiruvchi ishlarni o`zi ham olib beradi.
Amaliyotchi psixologning diagnostik-korreksion ishi murakkab faoliyat turlaridan biri bo`lib, maxsus psixologik tayyorgarlikni talab qiladi. Amaliyotchi psixologning diagnostik-korreksion faoliyati murakkab, javobgarlikni talab qilishi bilan birga, kam o`rganilgandir. Bu jarayon birinchi bo`lib, tarbiyasi qiyin va normal bolalarni o`rganishga bag`ishlangan pedagogik tadqiqotlarda L.S. Vigotskiy tomonidan qo`llangan. I. Shvantsara shaxs taraqqiyotini diagnostika qilishning bosqichli eksperimental-psixologik nuqtai nazarini taklif etadi.

Bu bosqichlar quyidagilar:
1. Psixologga rasmiy iltimos.
2. Psixologik muammoni aniqlash.
3. Tadqiqot metodini tanlash.
4. Psixologik diagnoz qo`yish.
5. Amaliy tavsiyalar.
Psixologning rasmiy iltimosga javob tarzidagi ishini birinchi nuqtai nazar sifatida psixologning yoki o`qituvchining tarbiyasi qiyin o`quvchiga nisbatan ma'lum ijtimoiy talabiga javobini ko`rsatish mumkin. Bu holda o`quvchiga «tarbiyasi qiyin» tashxisi o`qituvchilar, tibbiyot xodimlari, voyaga etmaganlar ishi bo`yicha nazorat xodimlari tomonidan qo`yilgan bo`ladi. Psixologning vazifasi - qiyinchiliklarning sabablarini aniqlash va ularga mos tuzatish (korreksiya) metodlarini topishdan iborat. Eksperimental-psixologik tadqiqot o`tkazishdan oldin pedagog- tadqiqotchi bola bilan suhbatlashadi. Bunda u bola bilan ijobiy hissiy aloqa o`rnatib bajariladigan topshiriqning maqsad va vazifalarni tushuntirib beradi. Suhbat psixologik tadqiqot metodi sifatida bola haqida ma'lumot olishga imkon beradi. Suhbat oldindan tayyorlangan savollar asosida o`tkazilishi yoki ixtiyorsiz xarakter kasb etishi mumkin. Bunda tadqiqotchi suhbat jarayonida bolaga, uning oilasiga yoki tengqurlariga tegishli bo`lgan, bolaga yoqmaydigan savollarni bermasligi kerak. Suhbatda bola shaxsining xususiyatlari, o`zining jismoniy va psixik holatiga, ishchanligiga baho berishi aniqlanadi, tekshiruvchining ijtimoiy-madaniy darajasi,

ma'lumoti, qiziqishlari, ehtiyojlari, o`zaro fikrlashuv qobiliyatlari aniqlanadi. Ba'zi hollarda suhbat psixoprofilaktik va psixoterapevtik maqsadlarda o`tkaziladi, bunda bola boshidan kechirayotgan qo`rqinch, xavotirlanish, o`ziga ishonmaslik kabi holatlar yo`qotiladi. Shunday qilib, tarbiyachi suhbat jarayonida tadqiqot oldiga qo`ygan vazifaga bog`liq ravishda bola hayoti haqida muhim ma'lumot olishi kerak.
Eksperimental psixologik tadqiqot o`zining quyidagi shartli chizmasiga ega:
Bolani eksperimental-psixologik o`rganish chizmasi
Eksperimental vaziyatda bola beriladigan yo`l-yo`riq, ko`rsatmani tushunishi muhim rol o`ynaydi. Ko`rsatma tushunarli, bolaning yoshi va aqliy rivojlanish darajasiga mos bo`lishi kerak. Bola topshiriqni bajarishni boshlaganidan so`ng ko`rsatmani misollar bilan yoki qo`llab-quvvatlash bilan mustahkamlash zarur, bu esa sinaluvchida faoliyatga ijobiy munosabatni shakllantiradi.
Tadqiqotga tayyorlanish, tadqiqot maqsad va
vazifalarini aniqlash
Bola bilan suhbatlashish, ijobiy-hissiy aloqa
o’rnatish, topshiriqlarni bajarish
motivatsiyasini o’rganish
EKSPERIMENT
Ko’rsatma
berish
Kuzatish
Psixik faoliyat
mahsullarini
tahlil qilish
Eksperiment

vazifalarini
bajarish
Xotima qismini
tayyorlash,
xulosalar
Tadqiqot
qarorini yozib
borish

Tajriba jarayonida tadqiqotchi bola nimada qiynalayotganini aniqlaydi va unga yordamlashadi. Ko`rsatmaga kiritilgan barcha qo`shimcha va o`zgartirishlar haqidagi barcha ma'lumotlar oldindan tayyorlangan tadqiqot qaroriga yozib qo`yiladi. Eksperiment jarayonida olingan natijalarni puxta yozib borish keyingi sifatiy tahlilni yoritib beradi. A.Binening (1910) ta'kidlashicha, eksperimental-psixologik tadqiqotni o`tkazish uchun ruchka, ozgina qog`oz va ko`p chidam zarur. Tadqiqotchi u yoki bu olingan ma'lumotni iloji boricha tezroq qarorga yozib olishi kerak. Har bir tajriba qarori alohida qog`ozda bo`lishi lozim.

O`quvchini eksperimental-psixologik tekshiruv qarori

Topshiriq va
uning
xususiyatlari
Ko`rsatmani
tushunishi
Topshiriqni
bajarish
(muvaffaqiyatli,
muvaffaqiyatsiz
ketkazilgan vaqt)
Sinaluvchi xulqatvori
(hissiy,
nutqiy
reaksiyalar)

Tekshiruv qog`ozlari har xil bo`lishi mumkin. Ular alohida psixodiagnostik tadqiqot natijalarini yozib olish uchun maxsus shaklga ega bo`ladi.Unda qator metodikalar majmui ham aks etishi mumkin. Tekshiruv qog`ozlarini to`g`ri to`ldirish, qarorlarini yozib borish har xil metodikalar bo`yicha olingan natijalarni umumlashtirish, tekshirilayotgan bolalarni bir yosh guruhida taqqoslash imkonini beradi. Tajriba davomida pedagog-psixolog bola faoliyatini iloji boricha tabiiy sharoitlarga yaqinlashtirishi kerak. Masalan, o`rta guruh bolalari uchun shunday topshiriqlarni tanlash kerakki, ular o`yin vaziyatida bajarilsin. Katta maktabgacha ta'lim muassasasi bolalari va boshlang`ich sinf o`quvchilari uchun bu topshiriqlar o`quv faoliyati elementlari bilan birga qo`shilishi mumkin.

Eksperimental psixologik tadqiqot bir necha bosqichda o`tkazilishi zarur. Bu bolaning yangi sharoitga yaxshi moslashishiga, u bilan ijobiy aloqa o`rnatishga imkon beradi. Birinchi bosqichda tadqiqotchi bola bilan aloqa o`rnatadi, uning

qiziqish va ehtiyojlarini aniqlaydi. Bola ba'zi topshiriqlarni tadqiqotchi oldida

bajaradi. Ikkinchi bosqichda olingan ma'lumotlarga aniqlik kiritiladi, boshqa metodikalarda olingan natijalar bilan o`zaro bog`liqlik aniqlanadi. Uchinchi bosqichda tajribada olingan natijalar tahlil qilinadi, ular umumlashtirilib, xulosa chiqariladi.
Olingan ma'lumotlarni bir joyga to`plab, tadqiqotchi sinaluvchi shaxsining xarakteri, aqli, xotirasi, hissiyoti, psixik buzilishlar mavjudligi yoki yo`qligi haqida xulosa chiqariladi.
Tadqiqotning so`nggi qismidagi xulosalar shaxsga psixologik diagnoz qo`yish, sinaluvchi psixikasidagi o`zgarishlarni oldindan aytib berish, olingan ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatlari bilan bog`liq ravishda hamda pedagog amaliy faoliyatida tavsiyalar berish maqsadida qiziqarlidir. Shuni esda tutish zarurki, eksperimental vaziyat bola uchun odatdagidan boshqacha bo`ladi. Shuning uchun olingan natijalar har doim ham haqiqiy ko`rsatkichlarga mos tushmasligi mumkin.
Eksperimental tadqiqot xarakteriga bog`liq ravishda undan olingan natijalarni o`quv tarbiya jarayonida foydalanish mumkin.
Bolalarning eksperimental-psixologik o`rganish natijalaridan o`quv mashg`ulotlari vaqtida psixik jarayonlarining ixtiyoriyligini rivojlantirishda ham foydalanish mumkin.
Bolalar ustida psixologik tadqiqotlar o`tkazish tajribasi shundan dalolat beradiki, qo`llanilayotgan psixodiagnostika metodikalarini shartli ravishda u yoki bu psixik jarayonlarni o`rganish metodikalariga ajratish mumkin. (L. I. Poperechnaya 1978; L.L.Venger, V.V.Xolmovskaya 1978; Z.I.Kalmikova, 1982; V.M.Bleyxer, I.V.Kruk, 1986). Masalan, o`quvchi xotirasi haqida faqat bir metod asosida xulosa chiqarish mumkin emas, buning uchun metodikalar majmuini qo`llash kerak. Shu bilan bir vaqtda, har bir eksperimental metodikalar o`zining asosiy yo`nalishidan tashqari (ya'ni shaxsning ma'lum xususiyatini o`rganishdan tashqari) psixikani boshqa xususiyatlarining holati haqida ba'zi ma'lumotlar beradi. Masalan: bolaga berilgan 10 ta so`zni qanday yodlashiga qarab, faqat uning xotirasi haqidagina emas, balki

ixtiyoriy diqqati, harakatlarining maqsadga yo`naltirilganligi, ularning sabablari haqida ham bilsa bo`ladi.
Tarbiyachi-tadqiqotchi tadqiqot uchun u yoki bu metodikani tanlaganida ko`rsatmani salgina o`zgartirish metodikaning yo`nalishi o`zgarib ketishiga sabab bo`lishini hisobga olishi kerak. Topshiriqni bajarishga kirishishdan oldin bola unga bo`lgan ko`rsatmani to`g`ri tushunganligiga ishonch hosil qilish lozim.
Bajarilayotgan toshiriqning muvaffaqiyati ko`p hollarda shunga bog`liq bo`ladi.
Psixologik-pedagogik tadqiqotning sifati eksperimentda qo`llaniladigan metodikalar soniga bog`liq bo`ladi. Lekin maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab yoshidagi bolalarda tadqiqot o`tkazganda, ularning tez charchashini hisobga olish zarur. Shuning uchun bir tadqiqot o`tkazganda, tadqiqot vazifalariga bog`liq ravishda tanlangan 5-7 metodikadan foydalanish tavsiya etiladi. Bir necha bosqichda o`tkaziladigan tadqiqotlarda ko`proq metodikalardan ham foydalanish mumkin.
Eksperimental tadqiqot usullarini yaxshi egallash ham muhimdir. Tadqiqotchi tajriba vaqtida bola bilan qanchalik yaxshi munosabatda bo`lsa, bola toshpiriqni shunchalik yaxshi bajaradi.
Tadqiqot o`tkazish uchun eksperimental metodikalarni tanlashda quyidagilarni e'tiborga olish zarur:

a) tadqiqot maqsadi — psixik taraqqiyot darajasini aniqlash, uning yoshiga, ma'lumotiga mosligi, shaxs xususiyatlarini aniqlash;
b) sinaluvchining yoshi va uning hayot tajribasi, o`tgan ta'lim va tarbiyasi amalga oshrilayotgan sharoit;
v) bolaning eksperimental tadqiqotga moslashishi, muloqotga kirishishi, verbal aloqa o`rnatish xususiyatlari.
Tanlangan eksperimental psixologik metodikalarning qiyinlik darajasi o`sib borish tartibida bo`lishi kerak.
Tarbiyachi qanchalik ko`p eksperimental psixologik tadqiqotlarni o`tkazsa, uning tajribasi shunchalik ortib boradi. U quyidagilarni o`z ichiga oladi: bola faoliyatining xususiyatlarini o`yin va o`quv vaziyatlarida tahlil qilish; uni maktabgacha ta'lim va umumiy o`rta ta'lim muassasalari, shuningdek, oila sharoitiga

moslashtirish, moslasha olmaslik darajasini aniqlash; bolaning ichki hayotini tushunib olish istagi; shaxsning xususiyatlarini har tomonlama rivojlantirishda unga har qanday yordam ko`rsatish.
Psixologik tadqiqot natijalaridan bolalar bilan individual ish olib borishdagina emas, balki guruhiy o`quv tarbiya tadbirlarini o`tkazishda ham foydalanish mumkin. Bunda tarbiyachi o`quv tarbiya jarayonida har bir guruh a'zosining rolini to`g`ri aniqlashi mumkin. Shunga asosan ta'sirning u yoki bu shaklini ishlatish mumkin. Psixodiagnostik tadqiqotlar tarbiyachiga guruhning, har bir shaxsning u yoki bu psixik funksiyalari rivojlanish tamoyillarini hisobga olgan holda o`quv tarbiya jarayonini tashkil etish imkonini beradi.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

1. Ta'lim tizimidagi psixologik xizmat ishlarini tashkil etishda psixologik tashviqotning ahamiyati nimalardan iborat?
2. Psixologik profilaktikaning psixologik xizmat faoliyatidagi roli qanday?
3. Psixologik maslahat qanday bosqichlarni o`z ichiga oladi?
4.Psixologik-pedagogik konsiliumning mohiyati nimadan iborat?
5.Diagnostik-korreksion ishlar qanday tashkil etiladi?

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. “Diagnostika” so`zi qanday ma’noni bildiradi?
A. Tuzatish, to`g`rilash.
B. Reklama qilish, musodara qilish.
*S. Belgilash, aniqlash.
D. Musodara qilish, xulosa chiqarish.
E. Barcha javob to`g`ri.
2. “Korreksiya” so`zining ma’nosi nima?
A. Yamash.
B. Buzish.
*S.Tuzatish.
D. Olib kelish.
E. To`g`ri javob yo`q.

3.Dastlabki profilaktikada psixolog qanday bolalar bilan ishlaydi?
A. Tarbiyasi og`ir bolalar bilan.
B. O`qituvchi aytgan bolalar bilan.
*S. Barcha bolalar bilan.
D. Direktor rasmiy iltimos qilgan bolalar bilan.
E. O`zlashtirmovchi bolalar bilan.
4.2-profilaktikada psixologlar kimlar bilan ishlaydi?

A. To`polonchi bolalar bilan.
B. O`zlashtirmovchi bolalar bilan.
S. O`qituvchi aytgan bolalar bilan.
D. Barcha bolalar bilan.
*E. Muammolari mavjud bolalar bilan.
5. Profilaktikaning 3-bosqichida psixolog qaysi bolalar bilan ishlaydi?
A. Hamma bolalar bilan.
*B. Tarbiyasi qiyin bolalar bilan.
S. Darsga kelmaydigan bolalar bilan.
D. O`zlashtirmovchi o`quvchilar, ota-onalar, o`qituvchilar.
E. Barcha javoblar to`g`ri.
6. Konsiliumning funksiyalari nechta?
A. 1 ta.
B. 2 ta.
S. 3 ta.
*D. 4 ta.
E. 5 ta.
7. Psixologik xizmatning asosiy vazifasi nimadan iborat?
A.Tadqiqot ishlari.
B. Amaliy ishlar.
S.Tashviqot ishlari.
*D. A, B, S.
E. To`g`ri javob yo`q.
103
8. Psixoprofilaktika so`zining ma'nosi nima?
A.Tuzatish.
B. To`g`rilash.
*S. Oldini olish.
D. Jazolash.
E. Rag`batlantirish.
9.Konsilium ishtirokchilari kimlar?
A.Tarbiyasi og`ir bolalar, o`qituvchilar, direktor, o`zlashtirmovchi bolalar.
B.O`qituvchi aytgan bolalar, o`zlashtirmovchi bolalar, psixolog, vrach.
S.Barcha bolalar, psixolog, direktor, sinf rahbari.
D.Direktor rasmiy iltimos qilgan bolalar, maxsus maslahatchi, inspektor.
*E.Psixolog, maktab vrachi, moderator, maxsus maslahatchi, inspektor.
10.Konsiliumning ijtimoiy qo`llab-quvvatlash funksiyasi nimadan iborat?
A.O`quvchining ijobiy tomonini o`rganib, uni o`quvchining o`ziga, ota-onalarga pedagoglarga ko`rsatishi, unga bo`lgan ishonchni uyg`otishi.
B.Ish qobiliyatini oshirish, ular orasida nizolarni kamaytirish, o`quvchilarda paydo bo`lgan ijtimoiy psixologik muammolarni hal qilish kabi ishlar olib borish.
S.Tibbiy xizmat xodimlari, psixolog yoki boshqa mutaxassislar ishtirokida o`quvchilarning jismoniy va ruhiy sog`lig`ini saqlash.
*D.Shaxs o`zi mustaqil ravishda yengib o`tolmaydigan, shaxs taraqqiyotiga salbiy ta'sir qiluvchi sharoitlarni yengib o`tishda yordam berish.
E.O`quvchining obro`sini o`qituvchilar, ota-onalar, do`stlari orasida ko`tarishdir.
104

5-BOB.PSIXOLOGIK MASLAHAT VA KORREKSIYANING MAQSADI, VAZIFALARI, TAMOYILLARI VA ULARNING AMALIY PSIXOLOGIYA STRUKTURASIDAGI O`RNI

Reja:
1.Psixologik maslahat va psixologik korreksiya haqida tushuncha.
2.Psixologik maslahatning maqsad va vazifalari.
3.Psixokorreksiya−psixologik yordam ko`rinishi sifatida.

4.Zamonaviy maktab sharoitida psixologik maslahat va psixologik korreksiyani tashkil etish bilan bog`liq muammolar.
5. Korreksion faoliyat shakl va metodlarini tanlashda yosh xususiyatlarini inobatga olish.
6.Psixik taraqqiyot darajasini tahlil qilish.

**Mavzuning o`quv maqsadi:** talabalarni psixologik maslahat va korreksiyaning maqsad, vazifalari, tamoyillari va ularning amaliy psixologiya strukturasidagi o`rni bilan tanishtirish.

Darsning vazifasi: Talabalarga zamonaviy maktab sharoitida psixologik maslahat va psixologik korreksiyani tashkil etish bilan bog`liq muammolar haqida ma’lumot berish,bo`lajak mutaxassislarda korreksion faoliyat shakl va metodlarini tanlashda yosh xususiyatlarini inobatga olish to`g`risidagi bilimlarni rivojlantirish.

Tayanch tushunchalar:
Psixologik maslahat, psixokorreksiya, psixik taraqqiyot, psixoterapevtik ta'sir.

1.Psixologik maslahat va psixologik korreksiya haqida tushuncha

Psixologik maslahat deb bunga muhtoj bo`lganlarga maslahat va tavsiyalar sifatida mutaxassis psixolog tomonidan bevosita ko`rsatiladigan psixologik yordam ko`rsatish bilan bog`liq bo`lgan amaliy psixologiyaning alohida sohasiga aytiladi. Ular psixolog tomonidan mijoz hayotida duch kelgan muammoni dastlab o`rganib chiqish va shaxsiy suhbat asosida beriladi. Ko`pincha psixologik maslahat oldindan belgilangan soatda, buning uchun maxsus jihozlangan xonada, odatda begona odamlardan holi va yakkama-yakka, yuzma-yuz o`tkaziladi.

Psixologik maslahat o`rtacha bir necha o`n minutdan yarim soatgacha, ikki va undan ortiq soat davom etadigan psixologning mijoz bilan shaxsiy suhbati shaklida o`tkaziladi. Mana shu suhbat davomida mijoz o`z muammolari, o`zi to`g`risida gapirib beradi. Psixolog o`z navbatida muammoning mohiyatini tushunib etish, bu

muammoni o`zi uchun ham, mijoz uchun ham oydinlashtirishga harakat qilib diqqat bilan tinglaydi, maslahatlar davomida mijozning shaxsi baholanadi, uning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olib mijozga uning muammosini qanday qilib amaliy hal etish bo`yicha ilmiy, asosli tavsiyalar beriladi.

Psixolog-maslahatchi tomonidan mijozga beriladigan maslahat va takliflar ko`p hollarda ulardan mustaqil foydalanib, mijoz o`z muammosini o`zi to`la hal eta olishiga qaratilgan bo`ladi.

Psixologik maslahat – bu deyarli barcha imkoniyat va psixik sog`lom odam uning hayotida yuzaga keladigan barcha psixologik muammolarni hal eta olishiga, ishonchiga asoslangan odamlarga amaliy psixologik yordam ko`rsatish asosida yuzaga kelgan amaliyotdir. Lekin mijoz har doim ham uning muammosi mohiyati nimadan iborat ekanligini va o`zining kuchi va imkoniyatlariga tayanib, uni qanday qilib hal etishni aniq bilmaydi va tushunmaydi.

Professional tayyorlangan psixolog-maslahatchi mana shu bo`yicha unga yordam ko`rsatishi kerak. Psixologik maslahatning asosiy vazifasi mana shundan iborat. Maslahat berish davomida psixolog odatda qisqa vaqt ichida mijoz muammosini amaliy hal etish usulini topish va aniq ifoda etish uchun qaratilgan mijoz bilan maxsus ish uslublari va unga ta'sir ko`rsatish metodlarini qo`llaydi, shu bilan birga ushbu yechim mijoz amalga oshirishi uchun tushunarli va mumkin bo`ladigan qilib amalga oshiriladi.

Psixolog-maslahatchining mijoz bilan uchrashuvi ko`pincha bir-ikki uchrashuv bilan cheklanmaydi. Ko`pchilik hollarda mijoz bilan uch marta va undan ko`p uchrashib ancha uzoq muddat davomida maslahat berib borish talab etiladi. Bunday uzoq muddatli maslahatlarning zarurligi quyidagi odatiy hollarda yuzaga keladi:

Mijozning muammosi shunday murakkab bo`ladi-ki, bir- ikki soat davomida uni tushunib olish deyarli mumkin emas. Mijozning bir emas, balki bir necha muammolari mavjud, ularning har birini hal etish alohida maslahatni talab etadi. Taklif etilayotgan muammoning echimi mijoz tomonidan darhol va to`la mustaqil amalga oshirilishi mumkin emas va maslahatchi tomonidan qo`shimcha yordam ko`rsatishni talab etadi.

Psixolog-maslahatchida mijoz uning individual xususiyatlari sababli o`z muammosini darhol va qo`shimcha yordamsiz hal eta olishiga to`la ishonmaydi. Agarda mijoz o`ziga yetarlicha ishonmasa,o`z hayajonlari va xulqini boshqara olmasa, agarda uning intellektual rivojlanish darajasi qiyin vaziyatlarda oqilona, to`g`ri yechimni mustaqil qabul qilish uchun yetarli bo`lmaganda bunday hollar uchrab turadi.

Psixologik xizmatning psixokorreksiya yo`nalishi psixologdan inson shaxsi va individualligini tarkib toptirish jarayoniga faol ta'sir o`tkazishni taqozo qiladi. Xalq ta'limi tizimidagi psixologning vazifasi psixologik xizmatni muayyan qoida, mezonga asoslanib tashkil qilishdan iborat bo`lib, yosh davr xususiyatlariga binoan (bolalar, o`quvchilar, talabalar) psixikaning rivojlanishi, shaxsning shakllanishi qonuniyatlarini amaliyotda hisobga olgan holda faoliyat olib borish, o`qituvchilar jamoasiga bolalar, o`quvchilar va talabalar ta'lim-tarbiyasini individuallashtirishda yordamlashish, ularning qobiliyati, maylining darajasiga qarab o`qituvchilarga korreksion ishlarni amalga oshirishda ko`rsatmalar berishdan iborat. Psixologik xizmatning ushbu yo`nalishida alohida ahamiyat kasb etadigan narsa - bu bolalar, o`quvchilar, talabalar o`sishida (rivojlanishida) kechikish (orqada qolish), ularda xulqning buzilishi, ta'limda o`zlashtirishning yomonlashuvi hisoblanadi.

Psixik taraqqiyotni tuzatishlar "korreksiya qilish" atamasi dastlab deffektologiyada kasal bolalarga nisbatan ishlatilgan bo`lsa, amaliy yosh psixologiyasining rivojlanishi bilan "tuzatish" tushunchasi normal psixik taraqqiyot uchun ham qo`llanila boshladi.D.B. Elkonin tuzatishning yo`nalganligi korreksiya xarakteriga bog`liq ravishda tuzatishning ikki usulini ajratishni taklif qiladi: 1. Taraqqiyotdan chetlashish belgilariga qaratilgan simptomatik tuzatish. 2. Taraqqiyotdan chetlashish sabablari va manbalariga qaratilgan tuzatish hisoblanadi.

Psixologik maslahat berish amaliyotida normal taraqqiyot korreksiyasi nonormal taraqqiyot korreksiyasidan farqlanadi. Normal taraqqiyotda tuzatishning mazmuniga ko`ra quyidagi turlari ajratiladi: aqliy taraqqiyot korreksiyasi, shaxs taraqqiyoti korreksiyasi, salbiy holatlarning oldini olish korreksiyasidir. Psixolog ishida korreksion vazifalarni yechish maqsadida psixologik yordamni tashkil etishga bog`liq

ravishda uning turini ko`rsatish mumkin: madaniy oqartuv ishlari, maslahat-tavsiyalar berish, individual va guruhiy korreksiya.

Madaniy oqartuv ishlari − ota-onalar, tarbiyachilar, o`qituvchilarga mo`ljallangan bo`ladi. Bunda bola taraqqiyoti asosiy qonuniyatlari, yosh psixologik xususiyatlari, har bir yoshning qiyinchiliklari, muammolari va ularni bartaraf etish bo`yicha umumiy tavsiyalar beriladi.

Maslahat va tavsiyalar berish ishi – bola boshidan kechirgan qiyinchiliklar sabablarini aniqlash asosida olib boriladi. Bunda psixolog ota-onalar, o`qituvchilar, tarbiyachilar hamda bolaning bajaradigan ishlarini tavsiyanomada bildiradi.

Mehnatni ko`p talab etadigan psixologning tuzatish ishi – ota-onalar, o`qituvchilar, tarbiyachilar va bolalar guruhi yoki individual tarzda bir bola bilan hamkorlikda olib boriladi. Ishning ana shu turi mehnat, vaqt, ko`p metod va metodikalarni qo`llashni talab etsa ham ancha natijali hisoblanadi.

2.Psixologik maslahatning maqsad va vazifalari

Maslahat berish psixologik amaliyotning asosiy turi sifatida quyidagi maqsadlarni ko`zlaydi:

-Munozarada yuzaga kelgan muammoni zudlik bilan hal etishda unga yordam ko`rsatish. Odamlarda ko`pincha darhol aralashish, kechiktirilmaydigan, mijoz hal etish uchun ko`p vaqt, kuch va vositalarni sarflash imkoniyatiga ega bo`lmagan yechimlarni talab etuvchi muammolar yuzaga keladi. Bunday muammolarni odatda operativ deb ataydilar va kerakli yechimlar ham shunday deb ataladi. Operativ muammolarni hal etishda og`zaki maslahat shaklida zudlik bilan psixologik yordam olish juda muhim hisoblanadi. Bolaning ota-onasi bilan o`zaro munosabatlarda jiddiy nizolar yuzaga kelishi, ularni vaqtida hal etilmasligi bola jismoniy va psixik sog`lig`iga juda katta salbiy ta'sir etishi mumkin. Biror bir tashkilot ishchisida ham keskin, darhol hal etilishi kerak bo`lgan muammo paydo bo`lishi mumkin. Masalan, yaqin kunlarga belgilangan o`zining bevosita boshlig`i bilan qisqa vaqtli uchrashuv vaqtida ular o`rtasidagi munosabatlardagi muammoni hal etish zarur bo`ladi. Misol: oilada eri yoki xotinida kutilmaganda oralaridagi munosabat yoki qarindoshlardan

biri bilan munosabati keskin yomonlashadi. Mana shu sababli oilada og`ir oqibatlarga olib kelishi mumkin bo`lgan keskin vaziyat yuzaga keladi.

- Mijozga psixologning doimiy aralashishisiz o`zi mustaqil hal eta oladigan masalalarni yechishda, ya'ni odatda maxsus professional psixologik bilimlar kerak bo`lmagan, faqatgina muloqot, sog`lom mazmunga asoslangan hayotiy maslahat kerak bo`lgan masalalarni hal etishda yordam ko`rsatish. Masalan, mijoz uchun mehnat va dam olish, qulay kun tartibini tanlab olishi, turli faoliyatlar o`rtasida vaqtni to`g`ri taqsimlashi shunday muammo hisoblanishi mumkin.

- Mijozga aslida uzoq vaqt davomida ozmi ko`pmi doimiy psixoterapevtik ta'sir ko`rsatish kerak bo`lgan, lekin u yoki bu sabablar oqibatida ushbu vaziyatda bunday imkoniyati bo`lmagan holatida vaqtinchalik yordam ko`rsatish mumkin. Mijozda kutilmaganda depressiya holati yuzaga kelishi shunday muammoga misol bo`lishi mumkin.

-Mijoz o`z muammosini to`g`ri tushunib, umuman uni o`zi hal etishga tayyor bo`lgan, lekin biror narsadan shubhalangan, o`zining to`g`ri yo`l tutayotganiga to`la ishonchi bo`lmagan hollarda mijoz psixolog-maslahatchi bilan muloqot natijasida ular tomonidan professional va ruhiy qo`llab quvvatlanadi, bu esa unda o`ziga ishonchini kuchaytiradi.

-Maslahat olishdan boshqa hech qanday imkoniyati bo`lmaganda mijozga yordam ko`rsatish. Bunday holatda psixologik maslahat berar ekan, psixologmutaxassis mijozga aslida u ancha to`la va uzoq vaqtli psixokorreksion yoki psixoterapevtik yordamga muhtojligini tushuntirishga harakat qiladi.

Psixologik maslahat mijozga psixologik yordam ko`rsatish boshqa turlari o`rniga emas, balki faqat psixolog emas, uning o`zi ham yuzaga kelgan muammoni hal etish bilan shug`ullanishini ko`zda tutib ular bilan birgalikda, qo`shimcha mashg`ulot sifatida olib boriladi.

Psixolog-maslahatchida tayyor yechim bo`lmagan, chunki vaziyat uning imkoniyati doirasidan chiqqan, mijozga juda oz va samarasi yetarli bo`lmagan yordam ko`rsatish kerak bo`lgan hollarda, psixologik maslahat quyidagi asosiy vazifalarni hal etadi:
109
Aytib o`tilgan vazifalarni har birini ko`rib chiqamiz.
Muammoni aniqlashtirish − mijozni diqqat bilan tinglab, uni bir qancha vaqt kuzatib, uning muammosi mohiyati aslida nimadan iborat ekanligi to`g`risidagi xulosaga kelishdan iborat bo`ladi. Ba'zida psixologning xulosalari mijozning fikri bilan to`liq mos keladi, ba'zan esa mos kelmaydi.
Xulosalar mos kelmagan holda psixolog-maslahatchi mijozga u maslahatni nima uchun dastavval mijozning o`zi o`ylagan, undan farq qiluvchi aynan mana shu xulosaga kelganligini tushuntiradi.
Mijozga muammoni tushuntirish – bunda psixolog-maslahatchi mijozning muammosi nimadan iborat ekanligini dalil, asoslar bilan birga nima uchun ushbu muammo yuzaga kelganligini va uni qanday qilib amaliy hal etish mumkinligini ko`rsatib beradi. Mantiqiy zarur va odatda avvalgisi bilan birga amalga oshiriladigan qadam − bu mijoz shaxsini psixologik o`rganish hisoblanadi. Buni o`rganmay turib, birinchidan, mijozning o`z muammosini to`la, chuqur tushunib yetishga, ikkinchidan – uni hal etishda mijozning faol ishtirok etishiga tayanib bo`lmaydi. Maslahat olib borishda mana shu ishni bajarib psixolog mijozga uning muammosini tushuntirish,
110
shu bilan birga uning individual xususiyatlarini hisobga olish imkoniyatiga ega bo`ladi.
Shundan keyin psixolog-maslahatchi muammoning mohiyatini o`zi tushunishi va mijoz individualligini hisobga olib,uni hal etish bo`yicha tavsiyalarni ifoda etib beradi. Bunday tavsiyalar qisqacha, oddiy va mijoz tushunadigan bo`lishi hamda mijoz tomonidan kerakli ongli nazorat bilan mavjud hayotiy sharoitlarda amaliy belgilanishi mumkin.
Har doim ham mijoz psixolog-maslahatchidan olgan maslahat va tavsiyalarini amalga oshirishga kirisha olmaydi. Ko`pincha o`zining tajribasizligi yoki bilmasligi sababli xatoga yo`l qo`yadi va psixolog-maslahatchi tomonidan kundalik yordamga muhtoj bo`ladi. Psixolog-maslahatchi esa mijozni tinglab, o`zi va u uchun muammoni aniqlashtirib, uni to`g`ri hal etish bo`yicha tavsiyalar taklif etib, o`zining professional burchini to`la bajardi deb o`ylashi kerak emas. Mijozning olgan maslahat va tavsiyalarini xatosiz amalga oshirishni ta'minlash ham psixologmaslahatchining
vazifasi hisoblanadi. To`g`ri mijoz psixolog-maslahatchidan olgan tavsiyalarni bajarishni xohlamasligi ham mumkin. Odamlar hayotlarida duch keladigan muammolar shunday bo`ladi-ki, ular takroran yuzaga keladi, ularni bir marotaba hal qilinishi ular kelajakda yana bir bor yuzaga kelmasligiga to`la kafolat bo`la olmaydi. Shuning uchun mijoz bilan maslahat berish ishlarini olib borganda kelajakda bunday muammolar yuzaga kelmasligiga harakat qilish kerak. Xususan mana shu psixoprofilaktikaning vazifalaridan biri hisoblanadi. Uni hal etib psixologmaslahatchi
mijozning o`zi-o`z harakatlari bilan hayotida, kelajakda shunga o`xshash muammo takror yuzaga kelishining oldini olish va hal qila olishga erishadi.

Mijoz psixoprofilaktik masalani mustaqil hal qilishga qodir bo`lishi hamda o`ziga o`zi zarur yordamni ko`rsata oladigan bo`lishi uchun maslahatchi-psixolog ba'zida ixtiyoriy ravishda uning uchun kasbiy zarur bo`lmagan vazifani oladi: mijozga foydali bo`lgan oddiy psixologik bilimlar beradi.

3.Psixokorreksiya psixologik yordam ko`rinishi sifatida

111

Psixokorreksion tadbirlar rivojlanishdagi og`ishlarni to`g`rilashga yo`naltirilgan. Shu tufayli bir qator dolzarb savollar paydo bo`ladi:

- Rivojlanishdagi og`ishlar deganda nimani tushunish kerak?
- Psixologik korreksiyani amalga oshirishga doir qanday ko`rsatmalar mavjud?
- Korreksion masalalarning maqsadga muvofiqligini belgilash mas'uliyatini kim o`z bo`yniga oladi va qaror qabul qiladi?
- Korreksiya samaradorligini kim va nimaga asoslanib baholaydi?

Psixokorreksion faoliyatni amalga oshirish quyidagi jarayonlardan iborat:

1. Psixolog bolalar, o`quvchilar, talabalarning yosh xususiyatlarini hamda jadal rivojlanishini hisobga oluvchi, ular psixikasining barcha jabhalarini qamrab oluvchi dinamik taraqqiyotga kafolat beruvchi dastur ishlab chiqarishga butun faoliyatini yo`naltiradi, ijtimoiy o`sish talabiga javob beruvchi, umuminsoniy, etnopsixologik qonuniyatlar muhitida kamolotga intiluvchi shaxsni tarkib toptirishni bosh maqsad deb tanlaydi.
2. Amaliy psixolog bolalar, o`quvchilar, talabalarning psixik taraqqiyotidagi, xulqi va muomalasidagi nuqsonlar hamda kamchiliklarni asta-sekin tuzatish, korreksiya qilish dasturini ishlab chiqadi va amaliyotga uni tatbiq etadi. Buning uchun ular bilan maxsus mashg`ulotlar, buzilishni kamaytirish mashqlarini o`tkazadi, ijodiy (kreativ) qobiliyatlarni o`stirish maqsadida treninglar olib boradi.
3. Rivojlantiruvchi va psixokorreksion ishlar dasturi o`z ichiga psixologik va pedagogik muammolarni qamrab oladi. Korreksion faoliyatning psixologik qismi mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur ishning pedagogik jihati esa psixologning pedagoglar, ota-onalar bilan hamkorligida o`tkaziladi va butun mas'uliyat uning zimmasiga tushadi.
4. Rivojlantiruvchi va psixokorreksion ishlar psixolog tomonidan har xil shakllarda, vaziyatlarda va holatlarda tashkil qilinadi:

a) amaliy psixologning maxsus ishi, mashg`uloti ayrim bolalar, o`quvchilar va talabalar bilan alohida o`tkazilishi rejalashtiriladi;

112

b) psixologlarning boshqa bir faoliyati maxsus ravishda amalga oshirilib, bolalar, o`quvchilar, talabalar guruhlariga tarbiyaviy ta'sir o`tkazishga yo`naltirilgan bo`ladi;

v) ota-onalar, pedagogik jamoa ishtirokida tarbiyaviy tadbirlar tarzida mashg`ulotlar olib borish nazarda tutiladi.

5. Rivojlantiruvchi va psixokorreksion ishlar dasturini shunday tuzish kerakki, unda korreksion ishga jalb qilinuvchilar guruhining qadriyatga yo`nalganligi, etnopsixologik va etnomadaniyat xususiyatlari o`z aksini topsin: dasturni xalq, etnos, millat, elat tarixi, an'analari, rasm-rusumlari, udumi, odati, stereotipi kabilarni hisobga olgan holda tuzish maqsadga muvofiq.
6. Kollej o`quvchilari bilan murabbiylar o`rtasidagi nomutanosiblikni yo`qotish maqsadida maxsus mashg`ulotlar o`tkazish: ulardagi o`qishdan, ijtimoiy

muhitdan, egallagan o`rnidan, mavqeidan qoniqmaslik hissini kamaytirish uchun trening, ishchanlik o`yinlari, psixodramadan foydalanish.
7. Emotsional zo`riqishning oldini olish va uni kamaytirish niyatida maxsus xonalar jihozlash (xona jahon standartlariga javob berishi, boshqaruv pulti, ekran vositalari, autotrening, sotsial trening, texnik vositalariga, ilmiy-amaliy metodikalarga ega bo`lishi lozim).
8. Korreksion ishlar ma'lum tartibda, ilmiy tanlov asosida, muayyan seans bo`yicha o`tkazilishi shart. Bunda emotsional zo`riqishga uchragan shaxs millati, yoshi, jinsi, individual-tipologik xususiyati, ta'sirlanish darajasi hisobga olinishi kerak; tuzatish ishlari mashg`ulot, faoliyat, kasb xususiyatiga mos, mutanosib bo`lishi ta'sir o`tkazish samaradorligini oshiradi; unda yapon uslublarini qo`llash ham zarur ma'lumotlar to`plash va tanglikni yo`qotish imkonini yaratadi.
Bola psixik taraqqiyotini tuzatishning asosiy vazifalari quyidagilardan: bola shaxsiy va intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratish asosida psixik taraqqiyotdan chetlashishlarni tuzatishdan, shaxsiy va axloqiy taraqqiyotida yoqimsiz salbiy yo`nalishlarning oldini olishdan iboratdir.

4.Zamonaviy maktab sharoitida psixologik maslahat va psixologik korreksiyani tashkil etish bilan bog`liq muammolar

Hozirgi vaqtda psixologlar kam bo`lganligi uchun maktab psixologi universal mutaxassis bo`lishi va barcha ishlarni bajara olishi kerak. Har bir psixolog o`zining qobiliyatlari va individual psixologik xususiyatlari negizida o`zini kasbiy va shaxsiy aniqlashi, individual tanlash muammosini hal qilishi mumkin.
Tabiat va taqdir har bir insonga va har bir psixologga yuz, tana, ovoz, ruh, aql, temperament, xarakter, energiyani sovg`a qilganki, ularning bari konkret insonning «rang, tovush, ta'm va hid»ini, uning psixoenergetik atmosferasini tashkil qiladi.
30 yoshlardagi maktab psixologi o`qituvchilar va o`quvchilar bilan guruhiy treninglar o`tkazadi. Umuman treninglar muvaffaqiyatli o`tadi, lekin mashg`ulotlardan so`ng kuchli charchoq sezadi, kasal bo`lib qoladi. Uning fikricha, o`zini yomon his qilishi ishi bilan bog`liq. Nima uchun?
Haqiqatdan ham ayol psixologning fikri to`g`ri bo`lib, unda hayotiy tonusning pasayib ketishi u ko`p shug`ullanadigan psixologik ish usuli bilan bog`liq. Kuzatishlardan ma'lum bo`lishicha, «inson-inson» sohasida ishlaydigan mutaxassislarda, psixologiya ham ana shu fanlar sohasiga kiradi, individual yoki guruhiy ish usuliga layoqat mavjud bo`ladi.
Agar siz tabiatan guruhiy ishlarni yoqtirsangiz, charchamasdan a'lo darajada ma'ruzalar o`qiysiz, uzoq davom etadigan seminar va treninglar o`tkazasiz, individual konsultatsiyalar bo`lsa, sizda bir muncha qiyin kechadi, u ko`p energiya,kuch talab qiladi. Agar siz individual ishga layoqatli bo`lsangiz, faoliyatning guruhiy turlarini uncha yoqtirmaysiz. Mijozingiz bilan individual munosabatda bo`lishni afzal ko`rasiz.
Psixolog maktabda o`zini qanday tutishi kerak: qattiq qo`lmi yoki yumshoqmi? Vaziyatga bog`liq ravishda, o`zining va sherigining maqsadiga ko`ra psixolog qattiq qo`l va yumshoq bo`lgan turli uslublarni egallashi lozim.
Psixolog tanlash imkoniyatiga ega bo`lganda, o`z individualligidan kelib chiqib, ish tutishi kerak.

Ish texnikasini tanlash haqidagi savol bir muncha murakkab bo`lib, har qanday psixoterapevtik texnikada o`z uslubini aniqlash mumkin va o`z kasbiy qobiliyatlari, qiziqishlarini ifodalash mumkin.
«O`z ish texnikasini tanlash haqida gap ketganda, ikki omilni hisobga olish darkor. Birinchidan, g`arb psixoterapevtik texnikalari Vatanimiz psixopraktikasida endi tarqala boshladi, shuning uchun u yoki bu yo`nalishdagi amaliyotchi psixologlarning yuqori kasbiy mahorati haqida gapirish erta.
Ikkinchidan, psixopraktika shunchalik ko`p qirrali va har xilki yosh psixoterapevt mijozning muammolaridan kelib chiqib, har xil texnikalarni birgalikda qo`llaydi.
O`z ishida psixoanalizni yoqtiradigan psixologlar transakt analiz bo`yicha unchalik yaxshi ishlamaydi, psixodrammaga qiziqadiganlar muloqot treningi guruhlarini zo`r bazo`r o`tkazadilar. Urinib ko`rish va xato orqali «o`z texnikasini» topish mumkin. O`zingizni kuchli va bo`sh jihatlaringizni o`rganing, imkoni bo`lsa, psixologik seminarlarga qatnashing, «bu meniki» deb his qiladigan vaqt keldi.
Maktabda asosan qaysi yoshdagilar bilan ishlashni tanlash ham muammo.
Maktab psixologi maktabda o`qituvchilar bilan ham, barcha yoshdagi o`quvchilar bilan ham ishlaydi. Lekin kuzatishlardan ma'lum bo`lishicha, ba'zi psixologlar boshlang`ich sinf o`quvchilari bilan suhbatlashishni yoqtirishadi, boshqa birlari o`spirinlarning «tilini tez topadi», uchinchi birlari yuqori sinflarga kirib «yo`qolib ketadilar», to`rtinchilari o`qituvchilar bilan suhbatlashishni qoyillatadilar.
Psixolog o`zining ichki psixologik yoshiga mos bolalar bilan muloqot qilishga intiladi. Psixologiyada insonning haqiqiy yoshi (pasport yoshi) farqlanadi. Insondagi bu ikki yosh ko`pincha bir- biriga mos kelmaydi.
Psixologlarga maktabda turli muammolar bilan shug`ullanishga to`g`ri keladi. Lekin har bir psixologning maktabda sevimli mavzusi yoki muammosi bo`ladi. Uni tanlash ko`p sabablarga bog`liq: amaliy psixologning qiziqishlariga, mutaxassislik bo`yicha o`qilgan kitobga, kasbiy muloqat darajasiga, psixolog ishlaydigan maktab ehtiyojlariga, ma'muriyat, o`qituvchilarning buyurtmasiga bog`liq.

«O`z muammosini» tanlashning ko`p omillarga bog`liqligiga qaramasdan, umumiy qonuniyatlar kuzatiladi. Psixologlar «o`z mavzularini» tanlashda ikki asosiy shartga amal qiladilar.
Ko`pincha ular xarakterida va individual - psixologik portretida ortiqcha bo`lgan psixologik fenomenni o`rganishga intiladilar.
- To`g`ri fikrlaydigan universitet bitiruvchisi tadqiqot predmeti sifatida o`quvchilarning tafakkur faoliyatini tanlaydi (m: kichik maktab yoshidagi o`quvchilarda iste'dodni shakllantirish, o`smirlarning aqliy faoliyatini faollashtirish va boshqalar).
Shu bilan birga ko`pchilik psixologlar shaxsiy individualligini, xarakterini, shaxsini qiziqtiradigan muammolar bilan shug`ullanishga intiladilar.

5. Korreksion faoliyat shakl va metodlarini tanlashda yosh xususiyatlarini inobatga olish

Inson shaxsining psixik rivojlanishi va uning shakllanishi murakkab tadqiqot jarayonidir. Zero, uning o`ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini asosli ilmiy bilish, o`quvchi shaxsiga psixologik jihatdan ta'sir ko`rsatishning zarur shartidir. Psixologik korreksiya, yuqorida ta'kidlaganimizdek, mijozning qabul qilingan

me'yorlarga mos kelmaydigan psixologik rivojlanish xususiyatlarini «to`g`rilashga» qaratilgan mutaxassis faoliyatini aks ettiradi.
G.S.Abramova fikricha, shaxsiy psixologik korreksiya − odamning ichki dunyosini diskret tavsifiga (psixologning) asosli tasir qilishidir.
Odam – «Yerdagi jonli evolyutsiyaning so`nggi pog`onasidir», ijtimoiy- tarixiy faoliyat sub'ektidir.
Shaxs − ijtimoiy rivojlanish fenomeni, ong va tushunchaga ega aniq tirik odam.
Shaxsga doir rivojlanish − ijtimoiylashuv va tarbiya natijasida odamzotning ijtimoiy xususiyati sifatidagi shaxsning shakllanish jarayonidir.
Tabiatan berilgan anatomik-fiziologik negizga ega bo`lgan bola ijtimoiylashuv jarayonida shaxs sifatida shakllanar ekan, insoniyatning yutuqlarini o`zlashtirib
116
olam bilan o`zaro ta'sirga kirishadi. Ushbu jarayonda yuzaga kelgan qobiliyat va vazifalar shaxs sifatlari kabi shakllangan odam sifatlarini takror ishlab chiqaradi.
Individ − (individuum) inson zotiga taalluqli alohida birlikdir; qurol, ramzlardan foydalanuvchi va ular orqali shaxsiy fe'l-atvori va psixik jarayonlarga ega bo`luvchi, tabiiy (biologik) chegaradan tashqariga chiquvchi ijtimoiy mavjudot.Ushbu tushuncha bilan individuallik tushunchasi chambarchas bog`liqdir, u boshqa odamlardan ijtimoiy jihatlari bilan ahamiyatli farqlanadigan odamdir. Yosh esa shaxsiy rivojlanishning vaqtinchalik xususiyatlarini belgilash uchun xizmat qiladigan turkum. Psixologiyada yoshning xronologik tushunchalari muhokama qilinadi, xronologik yosh –«pasportda belgilangan» yoshdir, psixologik yosh − xronologik yoshdan farqli ravishda organizm shakllanish qonuniyatlari; yashash, o`qish va tarbiyalanish sharoitlarini asoslaydigan hamda muayyan tarixiy kelib chiqishga ega, ontogenetik rivojlanishning o`ziga xos, aniq sifat tushunchasini bildiradi.
Yosh inqirozi − keskin psixologik o`zgarishlar bilan xarakterlanadigan ontogenezning alohida, nisbatan uzoq davom etmaydigan davrlaridir. Asabiy va jarohatli xarakterga ega tangliklardan farqli ravishda shaxs rivojlanishining izchillik qonuniyatlariga bo`ysunadi.
Stress − turli xil ekstremal ta'sirlar − stressorlarga javoban yuzaga keluvchi, keng doiradagi holatlarni belgilovchi holat.
Frustratsiya – ma'lum maqsad yo`lidagi mavjud mavhum to`siqlarni paydo bo`lishiga nisbatan hosil bo`ladigan muvaffaqiyatsizlikni boshdan kechiruvchi ruhiy holat.
Psixokorreksiyaning asosiy maqsadi mijozning yosh va tur xususiyatlaridan, uning sub'ektiv voqeligidan kelib chiqib shaxsiga doir resurslarini faollashtiruvchi va me'yorga mos keluvchi holatga olib kelishdir.

6.Psixik taraqqiyot darajasini tahlil qilish

Psixokorreksion faoliyatni olib borishdagi asosiy vazifa amaliy psixologning tizimli ish bosqichlarini amalga oshririshga yordam beruvchi psixik taraqqiyot
117
me'yorlarini o`rganishdan iborat. Psixik taraqqiyotning quyidagi bosqichlari ajratib ko`rsatiladi:
1. Neyropsixologik daraja. Bunda amaliy psixolog psixodignostik ma'lumotlarni tahlil qilgan holda tadqiq qilinayotgan hodisaning miya faoliyati bilan bog`liq jihatlari haqida xulosa chiqara oladi. Miyaning funksional tuzilishi, uning mahalliy

shikastlanishi, miya faoliyati lokalizatsiyasining asosiy qonun-qoidalari haqidagi ma'lumot korreksion ish jarayonida kerakli vosita va ta'sir usullarni tanlashga yordam beradi.
2. Umumpsixologik daraja. − Inson ichki olami xususiyatlarining asosiy qonuniyatlari va mexanizmlari haqidagi ma'lumotlardan foydalanadi.
3. Yosh psixologik daraja.−Amaliy psixolog tomonidan umumpsixologik ma'lumotlarni kontkretlashtirish va individuallashtirishga xizmat qiladi.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

1.Psixologik maslahat va psixologik korreksiya tushunchasining mohiyati nimadan iborat?
2.Psixologik maslahat ishlari qanday maqsad va vazifalarni o`z ichiga oladi?
3.Zamonaviy maktab sharoitida psixologik maslahat va psixologik korreksiyani tashkil etish bilan bog`liq muammolar nimalardan iborat?
4.Psixik taraqqiyot darajasini tahlil qilish qanday darajalarda amalga oshiriladi?

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Psixologik xizmat metodlarini aniqlang.
A) individual va guruhiy treninglar o`tkazish.
B) ma'ruzalar turkumi.
S) targ`ibot- tashviqot ishlari.
D) psixologik maslahatlar berish.
*E) barcha javoblar to`g`ri.
2. Maktab psixologdan nimalarni kutadi?
A) sehrgar psixologni kutadi.
B) vazirlikning kuchli vakili sifatida kutadi.
S) sudya sifatida kutadi.
118
D) gigienani saqlaydigan mutaxassis sifatida kutadi.
*E) barcha javoblar to`g`ri.
3. Maktabda ishni nimadan boshlash zarur?
A) bolalarni 1-sinfga qabul qilishdan.
B) kasb tanlash ishlaridan.
S)o`qituvchilar bilan tanishishdan.
*D) maktab kutilmalarini o`rganishdan.
E) o`quvchilar bilan tanishishdan.
4. Bine-Simon testi qachon yaratilgan?
A) 1805.
*B) 1905.
S) 2005.
D) 1904.
E) 1910.
5. Bine-Simon testi yordamida nimani aniqlash mumkin?
A)o`zlashtiromovchi bolalarni.
B) tarbiyasi qiyin o`quvchilarni.
*S) aqliy taraqqiyotda orqada qolgan bolalarni.
D) to`polonchi bolalarni.
E) xulqida og`ishish bo`lgan bolalarni.
6. O`quvchilar individual xususiyatining markaziy tuzilmasi nimadan iborat?
A) sezgi.
B) idrok.
S) xotira.
*D) qobiliyat.
E) xarakter.
7. Yosh inqirozi deganda nima tushuniladi?
A) keskin psixologik o`zgarishlar bilan xarakterlanadigan ontogenezning alohida, nisbatan uzoq davom etmaydigan davrlari.

119
B)Asabiy va jarohatli xarakterga ega bolgan, tangliklardan farqli ravishda shaxs rivojlanishining izchillik qonuniyatlariga bo`ysunadigan jarayon.
S) turli xil ekstremal ta'sirlar, stressorlarga javoban yuzaga keluvchi, keng doiradagi holatlarni belgilovchi holat.
D) ma'lum maqsad yo`lidagi mavjud mavhum to`siqlarni paydo bo`lishiga nisbatan hosil bo`ladigan muvaffaqiyatsizlikni boshdan kechiruvchi ruhiy holat.
*E) A va B javoblar.
8. D.B. Elkonin tuzatishning yo`nalganligi xarakteriga bog`liq ravishda korreksiyaning qanday usulini ajratishni taklif qiladi?
A) Taraqqiyotdan chetlashish belgilariga qaratilgan simptomatik tuzatish.
B) yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda tuzatish.
S) Taraqqiyotdan chetlashish sabablari va manbalariga qaratilgan tuzatish.
*D) A va S javoblar.
E) Barcha javoblar to`g`ri.
9.Psixologik yordamni tashkil etishga bog`liq ravishda psixologik korreksiyaning qanday turini ko`rsatish mumkin?
A) madaniy oqartuv ishlari,
B) maslahat-tavsiyalar berish,
S) individual va guruhiy korreksiya.
D) A va S javoblar.
*E) Barcha javoblar to`g`ri.
10. Psixologik maslahat – bu ...
*A)deyarli barcha imkoniyat va psixik sog`lom odam uning hayotida yuzaga keladigan barcha psixologik muammolarni hal eta olishiga, ishonchiga asoslangan odamlarga amaliy psixologik yordam ko`rsatish asosida yuzaga kelgan amaliyotdir.
B) maktabning pedogogik jamoasini, o`quvchilarni va ota-onalarni psixologik bilimlarini egallashga jalb etish, ularning psixologik madaniyatini oshirishga yo`naltirilgan tadbirlar.
S)shaxs shakllanishi va psixik rivojlanishida sodir bo`ladigan kechikish, salbiy buzilish va nuqsonlarni bartaraf etish, shaxs va jamoaga faol ijobiy ruhiy ta'sir o`tkazish, shaxslararo munosabatlardagi muvofiqlikni ta'minlashga yo`naltirilgan tadbirlar.
120
D) bolalarni maktabgacha ta'lim va maktab yoshi davomida psixologik jihatdan uzluksiz har tomonlama o`rganish, ularning individual - psixologik xususiyatlarini aniqlash, o`qish xulqatvorlaridagi nuqsonlarning sabablarini aniqlab berishga qaratilgan tadbirlar.
E) Barcha javoblar to`g`ri.
121

6-BOB.PSIXOSOTSIAL SALOMATLIK, ASOSIY KO`RSATKICHLAR VA BAHOLASH MEZONLARI

Reja:
1.Psixologik salomatlik, uning strukturasi va buzilish me’yorlari.
2. Psixologik salomatlikka xavf soluvchi omillar.
3.Shaxs psixologik salomatligining psixologik-pedagogik sharoitlari.
**Mavzuning o`quv maqsadi:** talabalarni psixosotsial salomatlik, uning asosiy ko`rsatkichlari va baholash mezonlari bilan tanishtirish.
Darsning vazifasi:Talabalarga psixologik salomatlik, uning strukturasi va buzilish me’yorlari haqida ma’lumot berish,bo`lajak mutaxassislarda psixologik salomatlikka xavf soluvchi omillar to`g`risidagi bilimlarni rivojlantirish.
Tayanch tushunchalar:
Psixologik salomatlik, psixogigiena, psixik taraqqiyot, psixoterapevtik ta'sir, yosh psixogigienasi, mehnat va ta'lim psixogigienasi, turmush psixogigienasi, oila va jinsiy hayot psixogigienasi, kasal psixogigienasi.

1.Psixologik salomatlik, uning strukturasi va buzilish me’yorlari

Psixogigiena – psixik sog`liqni saqlash va mustahkkamlashga yo`naltirilgan

tadbirlarni ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi gigiena sohasidir. Ba'zi mualliflar psixogigienaga ta'rif berishganda uni faqatgina gigiena sohasi emas, balki psixiatriya sohasi deb hisoblashadi. Boshqa mualliflar (M.: Myager V.K., 1976) psixogigiena vazifalariga ruhiy kasalliklarning vujudga kelish va rivojlanishining oldini olish deb qarab, psixogigienani dastlabki psixoprofilaktikaga yaqinlashtiradilar.
N.D.Lakosin va G.K.Ushakovlar (1976) psixogigienani tibbiyot fanlarining mustaqil bo`limi sifatida ajratadilar. V.P.Petlenko va boshqalarning (1997) fikriga ko`ra, psixogigiena faqatgina psixiatriya bilan bog`liq bo`lib qolmay, balki tibbiyot psixologiyasi, tibbiyot sotsiologiyasi, valeologiya fanlari bilan bog`liq komples fan hisoblanadi.
Psixogigienani bir necha bo`limlarga ajratish mumkin:
122
O`rganilayotgan sohaga bog`liq ravishda psixogigiena u yoki bu fanlarga suyanadi. Bolalar psixogigienasi, pedagogika, pediatriya, bolalar va pedagogik psixologiyaga tayanadi. Psixogigienaning asosiy maqsadi psixik salomatlikni ruhiy muvozanatni saqlashdir. Psixogigienaning yo`nalishlari orasida insonning psixik holatiga va psixik salomatligiga ta'sir etuvchi muhit omillarini o`rganish muhim o`rin egallaydi. Bunday omillarga psixik kasalliklarga chalingan bemorlarga noto`g`ri munosabat, dori vositalarini ko`p iste'mol qilish, ba'zi faoliyatlarda sharoitning qiyinligi, noqulay ekologik omillar va boshqalarni kiritish mumkin. Psixogigiena insonga uning psixik sog`lig`i uchun xavfli bo`lgan noqulay ta'sirdan qochishga, tabiiy kuchlardan foydalanib, qiyinchiliklarni yengishga o`rgatadi.
XI asr o`rtalarida yozilgan Abu Ali Ibn Sinoning “Tib Qonunlari” kitobida sog`liqni saqlash uchun 6 ta narsaga e'tibor qaratiladi:
- Yorug`liq va havo.
- Ovqat va suv.
- Harakat va tinchlik.
- Uyqu va tetiklik.
- Moddalar almashinuvi.
- Hissiyot.

123
Ibn Sino ko`rsatgan bu narsalar hozirgi kungacha sog`liq uchun o`z ahamiyatini yo`qotgani yo`q.
Psixogigiena fan sifatida 19-asr oxiri 20-asr boshlarida vujudga keldi. Rossiyada psixogigienaning paydo bo`lishi 1887 yilda bo`lib o`tgan psixiatrlarning 1- s'ezdi bilan bog`lanadi. S'ezdda I.P.Merjaevskiy, S.S.Korsakov, I.A.Sikorskiy psixiatrlarga, shifokorlarga, mamlakatdagi ilg`or kishilarga psixik va ruhiy kasallikning oldini olish bo`yicha dastur va g`oyalar haqida murojaat qiladi.
Horijiy adabiyotlarda psixogigienaning paydo bo`lishi Biers asos solgan harakat bilan bog`lanadi. Bu soliq xizmatchisi 2 yil psixiatrik kasalxonada yotib chiqqanidan so`ng, 1908 yilda butun dunyoda qiziqish uyg`otgan “O`zini topgan aql” nomli kitobini nashr qiladi. Keyinroq u psixogigienik jamiyatni tuzdi. 1917 yilda psixogigienik jamiyat Kanadada, 1918 yilda Frantsiyada paydo bo`ldi. Psixogigiena masalalari bilan Krepelin, Forel, Bleyxer kabi mashhur psixiatrlar shug`ullanishadi. Ikkinchi jahon urushi boshlanishidan oldin Evropa va Amerikaning ko`p mamlakatlarida psixogigienik tashkilotlar va jamiyatlar mavjud edi. Bunday

tashkilotlarda psixik buzilishlarning vujudga kelish sabablari o`rganildi, aholi orasida sanitar ma'rifat ishlarini amalga oshirildi. Urushdan keyingi yillarda psixik sog`liqni saqlashning butun jahon federatsiyasi va butun jahon sog`liq tashkiloti qoshida psixik sog`liq bo`limi tashkil etildi.
Psixofiziologik tadqiqotlarning boshqa eng muhim masalalaridan biri organizmga u yoki bu muhit ta'sirlarini va ularning aniq neyropsixologik ko`rsatkichlarining dinamik o`zgarishlarini hisobga olgan holda me'yorga solinishini o`rganishdir. Bulardan tashqari o`sib kelayotgan avlodning individual psixofiziologik xususiyatlari: xarakter, moyilliklar, shaxs, oliy nerv faoliyati xususiyatlari, bosh miya analizatorlarning funksional imkoniyatlari, psixomotorika, nerv psixik salomatligi, u yoki bu kasbni tanlashdagi qiyinchiliklarga emotsional javob berish shakllarining o`ziga xosligini hisobga olgan holda kasbga yo`naltirishga katta ahamiyat berilmoqda. Kasbiy tanlov u yoki bu kasbning foydaliligini aniqlash masalasi bo`lib, kasbiy yo`nalganlikka yaqindir. Uni yechishda psixofiziologik mezonlar birinchi darajadagi ahamiyatga ega. Bu masalalar doirasidagi bolani

maktabda ta'lim olishga, yana avvalgi bosqichlarida yasli va bolalar bog`chasiga tayyorgarligini aniqlovchi psixofiziologik testlarni kiritish mumkin.
Psixogigienik tadqiqotlar doirasi bolalar va o`smirlarning nerv-psixik salomatligi, shuningdek, uni aniqlovchi omillar tizimini o`rganish, shaxsning shakllanishi qonuniyatlarini aniqlash, bu murakkab psixosotsial jarayonda irsiyat rolini belgilash bilan kengayishi mumkin va lozim. Barcha tibbiy-ijtimoiy va psixogigienik tadbirlar majmuasi ularning izchillik va tadrijiy ontogenetik tamoyiliga asoslanishi lozim. Genetik bog`langan psixopatologiya profilaktikasining samarasini oshirish uchun, xususan, nikohga kirayotgan yoshlar uchun “Baxt uylari”da psixologik maslahat berish xizmatini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Ayollarga maslahat berish joylarida bola rivojlanishining o`ziga xos tomonlari va bola nerv-psixik taraqqiyotida og`ishlarning oldini olish choralarini o`z ichiga olgan parvarish qilish qoidalari haqidagi tibbiyot bilimlarini targ`ib qilish masalasini o`z ichiga olgan ota-onalar maktablarini ochish zarur.
Bu buzilishlarni o`z vaqtida aniqlash maqsadida bolalarning psixik salomatligi ustidan doimiy dinamik nazoratni talab etgan xavf guruhini belgilab, bolalarni 1, 3, 5 va 7 yoshda poliklinika sharoitlarida psixonevrologlar tomonidan ommaviy ko`rikdan o`tkazish tavsiya etiladi. Maktab yoshidagi bolalar va o`smirlarning salomatligi ustidan dinamik nazorat qilish, nerv psixik doiradagi og`ishlarni o`z vaqtida aniqlash, shaxs shakllanishining u yokibu anomaliyalari va maktab o`quvchilarining g`ayri huquqiy xulq-atvor ko`rinishlarini barataraf etish uchun maktablarda shifokor tarbiyachi va psixolog ishini birlashtirib, psixogigienik xizmatni tashkil etish zarur. Buning uchun maktab shifokorlarining ishini, o`qituvchilarining ishini o`quvchilarning psixik salomatligi ustidan doimiy nazorat qilish vazifasi bilan to`ldirish lozim.
Bolalar psixiatriyasi va psixogigiena sohasida maktab shifokorlarining mahoratini oshirish shifokorlar malakasini oshirish institutlarining muvofiq keluvchi kafedralari bilan, kelajakda esa maktab shifokorlarining tibbiyot institutlarida bolalar psixiatriyasi, tibbiyot psixologiyasi va psixogigiena sohalarida kengaytirilgan dastur bo`yicha maxsus tayyorgarligini ta'minlash lozim. Psixogigienik xizmatga o`xshash

tashkilotlar kasbiy texnik ta'lim tizimining o`quv muassasalarida ham ko`zda tutilishi lozim. Bu chora tadbirlar ham sog`liqni saqlash, ham huquqiy profilaktik masalalarni echishiga shubhasiz imkon beradi.
Huquqbuzarlik va jinoyatchilik ob'ektiv jarayonlar bilan bog`liq bo`lganligini va ularning sabablari inson tabiatidagi kamchiliklarga asoslanmaganligi uchun bu jaholatga qarshi kurash jamiyat hayoti, bolalar tarbiyasi, oilada, jamoada munosabatlarining yaxshilanishi, jamiyat jarayonlari boshqaruvini takomillashtirishdagi ma'lum kamchiliklarni bartaraf etishga asoslanishi lozim, degan xulosaga kelish mumkin. Mikroijtimoiy muhitni xususan bolalar va o`smirlar hayoti va tarbiyasining oilaviy-maishiy sharoitini sog`lomlashtirish shaxs shakllanishiga salbiy ijtimoiy ta'sirlarga yo`l qo`ymaslik maqsadida narkologik xizmatning majburiyat va vakolatlarini nafaqat surunkali alkogolizm va boshqa giyohvandlik turlariga, balki maishiy mastlik deb yuritiluvchi illatlarga ham qarshi kurashni yoygan holda kengaytirish zarur. Narkologik xizmat bu tomondan salbiy illatlarga berilgan oilalarni hisobga olishi va ularni ota-onalari bilan da'volash ham ma'rifiy ishlarni olib borishi lozim. Bolalar va o`smirlarning shaxs xususiyatlari to`g`ri va uyg`unlashgan holda shakllanishiga oilaviy va birinchi navbatda onalik ta'sirining yaxshilanishi uchun ularning salomatligi va axloqi ustidan nazoratni o`rnatish, turli ijtimoiy me'yorlardan og`ishning oldini olish uchun mumkin qadar imkoniyat yaratishi, ayol-onalarga imkoni bor joylarda ishning uy xo`jaligiga xos shakllarini taklif etish maqsadga muvofiqdir.
So`nggi yillarda keskin oshib borayotan xarakter anomaliyalari (nevropatiya va psixopatiya) asosan bolalar va o`smirlarning o`tish davrida shakllanib, faqat katta yoshlilarda barqaror tuzulmali ko`rinishlarda namoyon bo`lishini unutmaslik lozim. Bundan bola organizmi rivojlanish bosqichlarining psixofiziologik tahlili va psixik buzulishlarining patogenetik asoslangan korreksion va profilaktik choralari, shuningdek o`sib kelayotgan avlod salomatligini saqlash mumkin bo`lgan roli yaqqol ko`rinib turadi.
Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, psixogigiena psixik buzilishlar profilaktikasi va terapiyasi (korreksiyasi) o`zaro yaqin bo`lishi bilan birga bolalar va

o`smirlar salomatligini saqlash va mustahkamlash borasida o`z masalalariga ega. Teng huquqlilik, tarbiya, ta'lim, kasb tanlash erkinligi, mehnat, dam olish, da'volash va ijtimoiy ta'minotning boshqa shakllarini kafolatlovchi jamiyat hayotini obod qilishning umumdavlat tamoyillari psixogigienaning negizi bo`lib hisoblanadi. Bular barchasi kishilarga kelajakka ishonch bilan boqish imkonini beradi, hayotning barcha sohalarida psixogigienaning bosh masalalarini muvaffaqiyatli yechishni ta'minlovchi emotsional qulaylikni yaratadi. Profilaktika va terapiya asosini xalq salomatligi va farovonligi to`g`risidagi g`amxo`rlikning umumdavlat ijtimoiy tamoyillari bilan uzviy bog`liq bo`lgan o`ziga xos tibbiy tamoyillari tashkil etadi. Ularni inson tug`ilishidan boshlab shaxs sifatida shakllanish va rivojlanishining keyingi bosqichlarida amalga oshirish har bir inson va bir butun jamiyat farovonligi, salomatligi va uzoq umr kechirishi garovidir.

2. Psixologik salomatlikka xavf soluvchi omillar

60- yillarda xavf omili kabi tushuncha paydo bo`ldi. Xavf omillari nimalardan iborat? Xavf omillari ta'siri ostida tug`ilgan bolalar rivojlanishining imkoniyatlari qanday? Qanday tarzda xavf omillariga yo`l qo`ymaslik yoki ularning oqibatlarini

kuchsizlantirish mumkin? Shu kabi savollarga javob topish ham zarur bo`lib qoldi. Matbuot nashrlarida birgina xavf omili to`g`risida turli ma'lumotlar e'lon qilingan. Bu erda natijalarni taqqoslashni qiyinlashtiruvchi metodik yondashuvlarning xilmaxilligini ta'kidlab o`tish zarur. Ko`pgina tekshiruvga taklif qilingan bolalarning barchasi ham ishtirok etmasdi, natijada esa tanlangan tekshiruvlarda sistematik xatolarga yo`l qo`yilgan. Bir guruhda turli yoshdagi bolalar tekshirilgan. Ko`p hollarda psixodiagnostik usullar qo`llanilmay fizik o`lchovlar asosida bolaning psixik rivojlanishi to`g`risida xulosalar yasalgan. Bir-biriga mos kelgan nazorat guruhlari kam bo`lgan. Olimlar ko`pincha birgina tekshiruv bilan cheklanib qolardilar va bola rivojlanishida aniqlangan nuqsonlari asosida ulardagi surunkali kasalliklar miqdori haqida xulosa qilganlar.

2-6 yoshdagi bolalarni qayta tekshirishda davlat perinatologiya ilmiy markazining yordami bilan ularning perinatal davridagi holatlari to`g`risidagi ob'ektiv

ma'lumotlardan foydalanildi. Har bir bola to`g`risida keyingi tekshiruvlar uchun maxsus yagona statistik sxema bo`yicha to`plangan va kodlashtirilgan keng ma'lumotlar mavjud edi.

2-2,5 yoshdagi 100 nafar ro`yxatga olingan bolalardan yasliga boradigan 294 bola tekshirildi. Tekshiruv bolalar odatda bo`ladigan joylarda o`tkazildi. Organik tashxis savollari bilan bir qatorda bizni E.Schmid- Kolmer va Zwiener tomonidan yasli bolalari uchun maxsus ishlab chiqilgan psixometrik usul yordamida aniqlagan bolalar taraqqiyoti darajasi qiziqtirdi. Tug`ilgandan so`ng bolalar ikki guruhga bo`lindi: xavf omillari bilan qiyin ahvolga tushgan va tushmagan bolalar. Birinchi guruh bolalari to`liq tekshirildi, ikkinchi guruhdan esa har bir to`rtinchi bola o`rganildi. Birinchi guruh bolalarining psixik taraqqiyoti ikkinchi guruhnikidan qisman farq qildi xolos (rivojlanishning o`rta koeffitsenti (RK) 94.7 va 97.4). Shunga muvofiq ravishda bilimlar zamonaviy darajasida bolaning tug`ilganidan keyingi psixik taraqqiyoti to`g`risida bashorat qilish mumkinmi? Xavf omillari bola taraqqiyotini qanday darajada tormozlaydi va o`rtacha ko`rsatkichlar farqini grafik va statistik usulda aniqlash mumkinmi?

Biologik katalog 55 nafar xavf omilini o`z ichiga oldi. Xavf omili ta'siriga uchragan har qanday bola ham taraqqiyot kamchiliklariga ega emasdi va aksincha – nazorat guruhidagi bolalar anamnezida biror xavf omili ko`rsatilardi. Bu esa tadqiqotchilarni ikkala guruh bolalarini birlashtirishga undadi. Har bir bola kasalligi tarixida biologik xavf omillari sonini ko`rsatkich sifatida (BXOK) belgilandi. Ko`rsatkichda 14 tagacha xavf omili bo`lishi mumkin. Faqatgina barcha bolalarning 6,5 %i ularning ta'sirisiz rivojlandi. Har bir bola o`rtacha 3,7 xavf omili ta'siriga uchragan. Agarda ulardan salbiy ta'sirlarga berilganlarinigina hisobga olsak, (punktir chiziq) u holda har bir bola o`rtacha 2 xavf omili ta'siriga uchraydi. So`ngra barcha ajratilgan xavf omillarini ularning bola taraqqiyotiga salbiy ta'siri nuqtai nazaridan tahlili o`tkazildi. Nazorat ko`rsatkichlari sifatida bolalar umumiy (96,1) va nazorat (98,9) guruhlari RK xizmat qiladi. Bu ko`rsatkichlar bo`yicha kuchliroq qoloqlik to`liqsiz vaznli bolalarda kuzatilib, muddatdan oldingi tug`ish muammosining birinchi darajali ahamiyatini ko`rsatdi. Umuman olganda 27 ta

psixosotsial xavf omillari tufayli bolaning taraqqiyotdan ortda qolishi aniqlandi. Odatda, birgina emas, bir necha xavf omili bir vaqtning o`zida ta'sir etadi.

Biologik xavf omillariga quyidagilar kiradi:
1. Homila ustidan qon ko`rishlar;
2. Tsianoz;
3. Teri ostidagi yog`qatlamining kamayishi;
4. Infarkt;
5. Nafas qisishi sindromi;
6. Ginekologik operatsiyalar;
7. Muddatidan oldin tug`ilish, bolaning 2,5 kg.dan kam tug`ilishi

Sianozli bolalarda o`rtacha RK 93,3ni tashkil etadi. Bunday orqada qolish, bu guruhdan kichik vaznda tug`ilgan bolalarni chiqarib yuborilsa, darhol tenglashadi. U holda RK 97,2 ga etadi va birinchi qiyosiy ko`rsatkichdan ortadi. Bunga ko`ra, o`zo` zidan sianoz xavf omili hisoblanmaydi, degan xulosa yuzaga keladi. 2,5 kg va undan kichik vaznda tug`ilgan bolalarda RK 80,2ni tashkil etdi. Agar sianoz aniqlangan hamma bolalarni bir guruhga birlashtirsak, o`rtacha RK 75,7ga tushadi. Shunday qilib, hayotning dastlabki 2 soatida sianoz (tekshirilgan bolalarning birortasi umumlashmagan edi) o`rtacha ko`rsatkichlarga sezilarli ta'sir ko`rsatmadi. Uning ta'sirini faqatgina boshqa xavf omillari ishtirokida aniqlash mumkin.

Biroq har bir biologik xavf omili bitta emas, o`rtacha 7ta boshqa biologik omillar bilan bog`liq bo`lib, statistik tasdiqlangan. Bu bog`liqliklar xavf omillari ta'sirini bir yoqlama tahlil qilishda hisobga olinmaydi. Biologik xavf omillari o`zida go`yoki aysbergning qoq cho`qqisini ifoda etadi va ko`p qirrali xususiyatlar kasb etadi. Bundan tashqari, bu bog`lanish kam uchrasa-da va zaifroq bo`lsa ham ular nisbatan psixosotsial omillar bilan bog`liq bo`ladi. So`nggi 10 yillikdagi empirik sotsial tadqiqotlar natijasida ayrim bolalarda jismoniy va psixik rivojlanishda orqada qolish va buzilishlarga olib keluvchi ko`plab omillar ma'lum bo`ldi. Biz ularni psixosotsial xavf omillari deb nomlaymiz. Psixosotsial xavf omillarini haqiqiy tadqiq qilish hech qanday maxsus tanlovlarsiz o`tgan bo`lsa-da, o`rtacha ko`rsatkich bu erda ham kutilganidek yuqori bo`ldi. Psixosotsial xavf omillari ko`rsatkichi (PSXOK) 13 ga

etdi. Bolalarning faqat 12,9 %i muhitning salbiy ta'sirlarisiz rivojlandi. O`rtacha har bir bola 3,1 ta xavf omiliga duch keldi. Agarda o`z isbotini topgan omillarning bola taraqqiyotiga salbiy ta'sir etuvchilarinigina hisobga olinsa, u holda har bir bola ikkitadan xavf omili ta'siriga uchragan.

Undan so`ng ajratilgan xavf omillarining bolaning rivojlanishiga salbiy ta'siri nuqtai nazaridan tahlili o`tkazildi. Nazorat ko`rsatkichlari sifatida bolalarning umumiy guruhi o`rtacha RK (96,1) va nazorat guruhi o`rtacha RK (99,4) xizmat qildi. Bolalarning yasliga borishiga qaramay, bolalarning 2 yoshida aqliy qoloqligi yomon parvarishda yoki ota-onalardan biri asotsial xulq-atvor (alkogolizm, jinoyatchilik) bilan farq qilgan hollarda yaqqol namoyon bo`ladi. Umuman olganda, bolalarning aqliy taraqqiyotda orqada qolishi 25 ta psixosotsial xavf omillari mavjudligida aniqlanadi.

36 ta psixosotsial omillarning har biri o`rtacha 9 ta boshqa psixosotsial omillar bilan bog`liq edi. Yasliga boruvchi va ko`p farzandli oilalardan chiqqan bolalar o`rtacha 86,1 RKga ega. Agarda, shu guruhdagi tug`ilishi kutilgan bolalarni va onalarni yuqori malakali mehnat bilan shug`ullangan bolalarnigina RKlarini hisobga olsak, u holda bu ko`rsatkich 96,2 normani tashkil etadi. Boshqa hollarda bu ko`rsatkich pastroq (80,1 gacha).

Shunday qilib, oilalarning ko`p farzandlilik holati bolaning psixik taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko`rsatmaydi; noto`liq oilalardagi bolalar RK 89,8 ni tashkil etadi. Agarda barcha tekshirilayotgan otasiz bolalarni va ijtimoiy xulq-atvor normalarini buzuvchi bolalarni bir guruhga birlashtirsak, o`rtacha RK yanada pastlab ketadi (79,0 gacha). Yolg`iz - onalar bolalarni, qiyinlashtiruvchi omillar ta'siri hisobga olinmagan guruhlariga kelsak, o`rtacha RK 96,0 (aralash guruhning me'yoriy darajasi)ga ega. Biroq, ko`pgina aqliy taraqqiyotdan orqada qolgan (ijtimoiy xulq-atvor normalaridan og`ishi bor) bolalar va o`smirlarning ko`pchiligi – ko`p bolali va noto`liq oilalardan chiqqanligi to`g`risidagi holatni qanday tushuntirsa bo`ladi?
Agarda ko`p farzandlilik va to`liqsiz oila kabi bola taraqqiyotiga ta'sir etuvchi omillar bir-biriga mos kelsa, u holda o`rtacha RK 72,7 gagina etadi. 4 dan ortiq farzandli yolg`iz ona doimiy o`ta tajanglik holatida bo`ladi. Demak, ko`p farzandli va

to`liqsiz oila kabi omillar, agarda ularga boshqa psixosotsial omillar qo`shilsa, salbiy omillar hisoblanadi. Bu omillar qo`shimcha ravishda vujudga kelayotgan qiyinchiliklar o`rnini to`ldirishga kam moslashgan hisoblanadi. Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, biologik va psixosotsial xavf omillarining qisqarishi bolalar moslashuvining yaxshilanishiga olib keladi.
Bolaning ilk rivojlanishida, psixosotsial xavf omillari qanday mezonlarda biologik xavf omillariga ta'sir qilishi mumkin, degan savollar muhim ahamiyat kasb etadi.
Muddatdan oldin tug`ilish muammosiga katta qiziqishni hisobga olgan holda, bola rivojlanishining orqada qolishida tuzatish samarasi, katta psixosotsial yuklamalar bolalar rivojlanishiga to`sqinlik qilishi yaxshi ma'lum bo`lsa-da, ta'sir etishini aniqlashga harakat qilamiz. Buni tekshirish uchun PSXOK 4 va undan yuqori, RK esa 93,1 ni tashkil etgan, ya'ni nazorat ko`rsatkichlari nisbatan past bo`lgan aralash guruhdagi barcha bolalar o`rtacha RKlari hisoblandi. Bundan, RKni nomaqbul psixosotsial sharoitlarda kamayishi, bolalarning atrof-muhitga ta'sirchanligini sezilarli darajada ko`rsatdi.
Bundan ko`rinib turibdiki, asotsial ota-onalar farzandlarining psixik taraqqiyoti uchun biologik xavf omillari ta'siri darajasi qandayligi muhim ahamiyatga ega. Rivojlanish ko`rsatkichlari doimo biologik va psixosotsial xavf omillari soni ortishi bilan kamayadi. 2 yoshli bolalarni qayta tekshirishda ularning psixik taraqqiyoti xavf omillari miqdoriga funksional bog`liqligi holati asosiy natija bo`ldi. Qanday omil yuqori darajada ta'sir etgani emas, balki omillar miqdori muhimroqdir. Ikki yoshli bolalarda nafaqat psixik, balki, Tonkova – Yampolskaya ma'lumotlariga muvofiq keluvchi, jismoniy o`lchovlar (vazn, bo`y, infeksion kasalliklar) ham bunga bog`liqdir.
Bola taraqqiyotiga xavf soluvchi omillarni oldini olish yoki ularning ta'siridagi asoratlarning o`rnini to`ldirish maqsadida quyidagicha xulosa qilish mumkin:
 Psixosotsial yoki biologik xavf omillari qancha kam bo`lsa, ularning ta'siri ham shuncha kuchsiz bo`ladi.
 Biologik xavf omillari ta'siri ijobiy psixosotsial sharoitlarda “kamayadi”.

 Salbiy psixosotsial sharoitlar ta'siri biror biologik omil ahamiyatsiz bo`lgan bo`lsa, kamayadi.
Shunday xavf omillari mavjudki, ular bola rivojlanishiga qo`shimcha ravishda

boshqa omillar ta'sir etgandagina salbiy xususiyatga ega.

3.Shaxs psixologik salomatligining psixologik-pedagogik sharoitlari

Odatda bola taraqqiyotidan orqada qolish darajasi ma'lum xavf omillarida kutilganidan yuqori bo`ladi, bu esa bolalarning atrof-muhitga yuqori ta'sirlanuvchanligi to`g`risida guvohlik beradi.

Psixosotsial va biologik xavf omillarida adaptatsiya jarayonlari bir xil, chunki ular ham bular ham bosh miya funksiyalarini buzadi va uning ta'sirini o`zaro kuchaytirishi mumkin.

Biz hisobga olgan psixosotsial sharoitlarni etiopatogenetik nuqtai nazardan 3 guruhga bo`lish mumkin:

1. Bevosita ta'sir etuvchi yuklamalar (bolaga haddan ortiq talab yoki yaqin kishilaridan kutilmagan ayriliq) nerv tizimining kuchli qo`zg`alishiga olib keladi.
2. Kuchsiz yuklama, qo`zg`atuvchi va axborotning tanqisligi shaxs taraqqiyoti jarayonida uning bosh miya morfologik o`zgarishlariga qadar noto`liq differentsiatsiyalashuviga olib keladi.
3.Nizoli vaziyatlar bosh miya funksiyalari buzilishiga ta'sir etmaydi, lekin bolaning noadekvat xulq ko`rinishlarini o`zgartirishiga yordam beradi.

Eksperimental neyrobiologik va psixologik tadqiqotlar natijalari markaziy nerv tizimining buzilgan yoki jarohatlangan funksiyalari ajoyib jamlash (kompensatorlik) qobiliyatini namoyon etadi. (Prechtl H.F.R). Bundan ma'lum bo`ldiki, kompensator layoqati darajasi bolaning yoshi va atrofdagilar ta'siriga bog`liq ekan. Qadim zamonlardan terapiya inson organizmida jamlash uchun qobiliyatlarni faollashtirish va kuchaytirishga yo`naltirilgan. Bu esa yuklamalarni oshirish yo`li bilan o`tishi mumkin, chunki odamning mehnatga layoqati uning qo`shimcha yuklamaga chidamlilik layoqati ortishi bilan bir vaqtda kechadi. Ebbinghaus va Meumann o`zlarining trening nazariyasida ta'lim jarayonlarini tadqiq etish asosida, psixik

funksiyalarni ham jismoniy (fizik) funksiyalar kabi mashq qildirish mumkin, bunda birgalikda ishtirok etish fenomeni katta ahamiyat kasb etadi, degan xulosaga kelishdi. Pedagogika, terapiya va reabilitatsiya uchun birday muhim bo`lgan, odamning jamlash layoqati, xususan, fizik va psixik funksiyalarga teng miqdorda yuklamani oshirish yo`li bilan mashqlantirish mumkin, ayniqsa, bu tarzda erishilgan yuklamaga chidamlilik va kompensatorlik layoqatlari orasida ma'lum bog`lanish mavjud, degan xulosa o`z-o`zidan kelib chiqadi. Bola tomonidan atrof-muhitga faol va muvaffaqiyatli moslashuv vositasida amalga oshiriladigan sog`lom o`z-o`ziga ishonch, undagi kompensatsiyaga ichki intilishning rivojlanishi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun bolani tarbiyalashda uning individualligiga mos keluvchi va muvaffaqiyatga yordam beruvchi chidamlilikni namoyon etish zarur.

Shunday qilib, alohida xavf omillarini tahlil qilish bioijtimoiy adaptatsiyaning umumiy qonuniyatlarini bilishga olib keladi. Salbiy sharoitlar va kompensatsiyalanuvchi omillarni to`g`ri baholash tufayli bolaning keyingi taraqqiyotini bashorat qilish mumkin. Bioijtimoiy adaptatsiya qonuniyatlarini bilish natijasidagina yuklamalarning nomuvofiqligi va ularni ko`tara olish layoqatida hayotiy jarayonlarning buzilish mexanizmlari tushunarli bo`lib qoladi, bu esa bolaning ham ichki boshqaruvini ham ijtimoiy xulq-atvor buzilishlariga olib kelishi mumkin.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

1.Psixologik salomatlik tushunchasi nimani anglatadi?
2. Psixologik salomatlikning strukturasi va buzilish me’yorlari nimalardan iborat?
3. Psixologik salomatlikka qanday omillar xavf soladi?
4.Shaxs psixologik salomatligining psixologik-pedagogik sharoitlarini nima tashkil etadi?

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Abu Ali Ibn Sino o`zining “Tib Qonunlari” kitobida sog`liqni saqlash uchun qaysi omillarga e’tibor qaratadi?

1)Yorug`liq va havo. 2) Ovqat va suv. 3) Harakat va tinchlik. 4) Namlik. 5) Uyqu va tetiklik. 6) Moddalar almashinuvi. 7) Ob-havo. 8) Hissiyot.
A. 1,2,3,5,7,8.
B. 1,2,3,4,5,6
133
*S. 1,2,3,5,6,8.
D. 1,2,3,4,5,6.
E. Barcha javob to`g`ri.
2. Psixogigiena – bu ...
*A. Psixik sog`liqni saqlash va mustahkkamlashga yo`naltirilgan tadbirlarni ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi gigiena sohasidir.
B.Maktabning pedogogik jamoasini, o`quvchilarni va ota-onalarni psixologik bilimlarini egallashga jalb etish, ularning psixologik madaniyatini oshirishga yo`naltirilgan tadbirlar.
S.Shaxs shakllanishi va psixik rivojlanishida sodir bo`ladigan kechikish, salbiy buzilish va nuqsonlarni bartaraf etish, shaxs va jamoaga faol ijobiy ruhiy ta'sir o`tkazish, shaxslararo munosabatlardagi muvofiqlikni ta'minlashga yo`naltirilgan tadbirlar.
D.Bolalarni maktabgacha ta'lim va maktab yoshi davomida psixologik jihatdan uzluksiz har tomonlama o`rganish, ularning individual-psixologik xususiyatlarini aniqlash, o`qish xulqatvorlaridagi nuqsonlarning sabablarini aniqlab berishga qaratilgan tadbirlar.
E. Barcha javoblar to`g`ri.
3.Psixogigienaning qanday bo`limlari mavjud?
A. yosh psixogigienasi, kasal psixogigienasi.
B. mehnat va ta'lim psixogigienasi.
S. turmush psixogigienasi,oila va jinsiy hayot psixogigienasi.
D. oila va jinsiy hayot psixogigienasi, mehnat va ta'lim psixogigienasi.
*E. Barcha javob to`g`ri.
4.Bola shakllanishidagi biologik xavf omillariga nimalar kiradi?
1) Homila ustidan qon ko`rishlar;
2) Tsianoz;
3) Daun sindromi.
4) Teri ostidagi yog`qatlamining kamayishi;
5) Infarkt;
6) Nafas qisishi sindromi;
7) Ginekologik operatsiyalar;
8) Muddatidan oldin tug`ilish, bolaning 2,5 kg.dan kam tug`ilishi.
A. 1,2,3,5,7.
B. 1,2,3,4,5,6,7.
134
*S. 1,2,4,5,6,7,8.
D. 1,2,3,4,5.
E. Barcha javob to`g`ri.
5. Bola taraqqiyotiga xavf soluvchi omillar borasida aytilgan ta’kidlardan noto`g`risini belgilang.
A. Psixosotsial yoki biologik xavf omillari qancha kam bo`lsa, ularning ta'siri ham shuncha kuchsiz bo`ladi.
B. Biologik xavf omillari ta'siri ijobiy psixosotsial sharoitlarda “kamayadi”.
*S. Salbiy psixosotsial sharoitlar ta'siri biror biologik omil ahamiyatsiz ta’sir ko`rsatganda ortadi.

D. Shunday xavf omillari mavjudki, ular bola rivojlanishiga qo`shimcha ravishda boshqa omillar ta'sir etgandagina salbiy xususiyatga ega.
E. Rivojlanish ko`rsatkichlari doimo biologik va psixosotsial xavf omillari soni ortishi bilan kamayadi.
6. Qaysi muallif psixogigiena vazifalariga ruhiy kasalliklarning vujudga kelish va rivojlanishining oldini olish deb qaragan?
*A. Myager V.K.
B. N.D.Lakosin.
S. G.K.Ushakov.
D. V.P.Petlenko.
E. Barcha javob to`g`ri.
7.Psixogigienani tibbiyot fanlarining mustaqil bo`limi sifatida ajratgan olimlarni belgilang.
A. Myager V.K. va G.K.Ushakov.
* B. N.D.Lakosin va G.K.Ushakov.
S. G.K.Ushakov va V.P.Petlenko.
D. V.P.Petlenko va Myager V.K.
E. Barcha javob to`g`ri.
8. Psixogigiena faqatgina psixiatriya bilan bog`liq bo`lib qolmay, balki tibbiyot psixologiyasi, tibbiyot sotsiologiyasi, valeologiya fanlari bilan bog`liq komples fan deb hisoblagan olimni belgilang.
A. Myager V.K.
135
B. N.D.Lakosin
S. G.K.Ushakov.
*D. V.P.Petlenko
E. Barcha javob to`g`ri.
9. Psixologik xizmat maxsuldorligining sharoitlari nimalardan iborat?
A. Har bir yoshning imkoniyatlarini namoyon qilish.
B. O`quvchilarning individual xususiyatlarini shakllantirish.
S. Bola rivojlanishi uchun qulay psixologik iqlim yaratish.
D. O`quvchilarning qiziqish, qobiliyati, layoqati, hayotiy rejalari va qadriyatlar tuzilishini shakllantirish.
*E. barcha javoblar to`g`ri.
10. Psixologik xizmatning ilmiy nuqtai nazarini kimlar amalga oshiradi?
*A.Psixolog olimlar.
B.Psixolog amaliyotchilar.
S.Maktab psixologlari.
D.Magistr psixologlar.
E.Bakalavr psixologlar.
136

7-BOB. PSIXOLOGIK MASLAHAT VA PSIXOKORREKSIYANING NAZARIY ASOSLARI

Reja:
1.Psixologik maslahatning nazariy asoslari
2.Psixokorreksiyaning asosiy yo`nalishlari
Mavzuning o`quv maqsadi: talabalarni psixologik maslahatning nazariy asoslari bilan tanishtirish.
Darsning vazifasi: Talabalarga psixokorreksiyaning asosiy yo`nalishlari: psixodinamik yo`nalish, A.Adlerning analitik individual psixokorreksiyasi, K.Rodjersning mijoz-markazlashgan yondashuvi, ekzistensial yo`nalish, kognitiv xulq-atvor yo`nalishi va b. haqida ma’lumot berish.
Tayanch tushunchalar:
Psixotahlil, bixeviorizm, gumanistik konsepsiya, ekzistensial yo`nalish, kognitiv xulq-atvor yo`nalishi, psixodinamik yo`nalish, analitik individual psixokorreksiya, mijoz-markazlashgan yondashuv.

1.Psixologik maslahatning nazariy asoslari

Psixotahlil (Z.Freyd).Psixotahlil ta'limoti ongdan siqib chiqarilgan istak-mayllar yana ong sohasiga o`tkazilib, katarsis yo`li bilan ruhiy jarohat yetkazuvchi kechinmalarni anglatish orqali yordam berishga asoslanadi. Bunda erkin assotsiatsiyalar, tushlar talqini, qarshiliklar, transferlar, yanglish harakatlar tahlili usullaridan foydalaniladi. Quyida ushbu usullarga qisqacha izoh berib o`tamiz:

1. Erkin assotsiatsiyalar metodi. Psixolog mijozga o`z kechinmalari bilan bog`liq xohlagan assotsiativ fikrlarini aytishni taklif etadi. O`zi esa faqatgina aytilayotgan fikrlar mazmuniga emas, balki voqealar ketma-ketligi hamda mijoz tahlil qilishdan qochayotgan jihatlarga e'tiborini qaratadi.

2. Tushlar talqini. Z.Freydning fikricha, tush ongsizlik sohasiga boruvchi eng qisqa yo`ldir. Aynan tush vaqtida “Men”ning himoya mexanizmlari susayib, ongdagi yashirin xohish va kechinmalar namoyon bo`ladi. Amaliy psixologning vazifasi – tushning mazmunini ochish va mijozga aynan shu tush vujudga kelishiga sabab bo`lgan holatni o`rganishga yordam berishdan iborat;

3. Qarshiliklar tahlili. Bu usulni qo`llashdan maqsad – muammoni real idrok etish uchun aynan qanday psixologik himoya mexanizmi to`sqinlik qilayotganini va qanday vaziyatda himoya funksiyasiga ehtiyoj sezilmasa-da, ushbu mexanizmning ishtirok etayotganini aniqlashdan iborat;

4. Ko`chirish tahlili. Klassik psixotahlilda mijozning avval boshdan kechirgan psixologik jarohatlari bilan bog`liq emotsiyalarini psixologga ko`chirishining tahlili ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu psixologga mijozning psixologik muammolari sababini kuzatish va tahlil qilish hamda mijoz xulqining aynan bu shakli vujudga kelishini yuzaga keltirgan omillarni aniqlashga yordam beradi.

5. Interpretatsiya. Maslahat jarayonida interpretatsiyaning o`rnini baholash qiyin. Bu metod mijozga o`z kechinma va xulq-atvorining yashirin hamda noaniq sabablarini aniqlashga yordam beradi. Ammo bu jarayonni amalga oshirish psixologdan ehtiyotkorlikni talab etadi. Interpretatsiya jarayonida psixolog mijoz qabul qilishi mumkin bo`lgan jihatlarnigina tushuntirishi, unga tushunarli bo`lgan tilda suhbatlashishi lozim.

Yuqorida keltirib o`tilgan tavsif klassik psixotahlilga xos, ammo psixoanalitik terapiyaning boshqa shakllari ham mavjuddir. Psixoanalitik terapiyaning haqiqiy psixotahlilga aloqasi doirasida ikkita nuqtai nazar mavjud:

a) psixoanalitik psixoterapiya psixotahlildan sifat mazmuniga ko`ra farq qiladi;

b) psixoanalitik psixoterapiya psixotahlildan miqdor mazmuniga ko`ra farq qiladi.

Birinchi fikrga muvofiq, analitik bilan mijozning faol ishtiroki ko`zda tutiladigan psixotahlildan farqli o`laroq psixoanalitik psixoterapiyada mijoz uchun davolanishga muhtoj bemor roli ajratiladi.

Ikkinchi nuqtai nazarga ko`ra, psixoanalitik psixoterapiya ruhiy kasalliklarni davolash metodi sifatida psixotahlildan seanslarning davomiyligi va soni bilan farq qiladi. Terapevtik seanslar psixoanalitik seanslarga nisbatan soni va kam davom etish jihati bilan farqlanadi.

Har ikkala fikrni solishtirib shunday xulosaga kelish mumkin: birinchidan, analitik psixoterapiya mijozda namoyon bo`ladigan u yoki bu belgilarning ongsizlik mazmunini ochishga ko`proq e'tibor berib, klassik psixotahlilga o`xshab ketadi;

ikkinchidan, terapiyaning ushbu turi psixoanalitik usullar yordamida shaxsni yoppasiga taftish qilmasligi bilan psixotahlildan farqlanadi. Terapevt ruhiy buzilishning paydo bo`lishi va surunkali kechishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo`lgan mijoz psixikasining qirralarinigina tekshiradi.
Qisqa psixoanalitik terapiyada esa terapevtik faollik darajasi oddiy psixoanalitik terapiyadan, xatto, psixotahlilning o`zidan ham yuqoridir. Qisqa psixoanalitik terapiya diqqatni mijozining qator ziddiyatlariga emas, balki markaziy ziddiyatlarga jamlaydi, fokuslashtiradi. Shuning uchun bu terapiyani ko`p hollarda fokusli (yoki konsentratsiyalashgan) terapiya (Fokal Therapie) deb atashadi. Qisqa terapiya seanslari 10 tadan 30 tagacha bo`lishi mumkin. Ko`rib chiqilayotgan kasallik genezisida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo`lmagan va tahlil jarayonida aniqlanmagan zararli ziddiyatlar hisobga olinmaydi.
Bixeviorizm.Bixeviorizmning asoschisi DJ.Uotson (1878-1938) psixologiya fanining bosh vazifasi xulqni tadqiq etishdan iborat deb tushunadi. U psixik hodisalardan mutlaqo voz kechib, xulqni ikki shaklga, ya'ni ichki va tashqiga ajratadi, ular o`zaro javoblar stimuli bilan uzviy bog`liq ekanligini ta'kidlab o`tadi. Bixeviorizm uchun "xulq" asosiy tushunchaga aylanib, uning psixikasi bilan aloqasi chetlab o`tilgandir. Shunga qaramasdan, ba'zi bixevioristlar, jumladan E.Torndayk, E.Tolmen, K.Xall, D.Xebb kabilar xulq motivasiyasiga muayyan darajada e'tibor qilganlar.
Ular o`zlarining izlanishlarida xulq motivasiyasining "quyi darajalari"ni o`rganib, kalamushlarda tajriba ishlarini olib borib, jonivorda ochlik, tashnalik va ularning turlicha darajalarini reaksiya tezligiga nisbatan namoyon bo`lish xususiyati, har xil sharoitda motivatsiyaning kuchi to`g`risida muayyan qonuniyatlar ochishga intilganlar. Hozirgi zamon bixevioristlari stimulni tashqi qo`zg`atuvchi sifatida talqin qiladilar va organizmning ichki energiyasini faollashtiruvchi deb hisoblaydilar. Neobixevioristik nazariyalar yangi qo`zg`atuvchilar paydo bo`lishiga asoslangan bo`lib, ular insonning organik eshtiyojlarini qoniqtirish bilan stimul natijasining uyg`unlashuvi tariqasida tashlil etiladi. Ularning ta'kidlashiga ko`ra, ikkilamchi qo`zg`ovchilar organik qo`zg`atuvchilarning go`yoki qobig`iga o`xshaydi, xolos.
139
Vilyam Makdugall (1871-1938) motivatsiyaning irsiy (tabiatdan beriladigan) xususiyatga ega degan holatni asoslash uchun tug`ma instinktlar masalalari bilan mazkur voqelikni bog`lab tushuntirishga harakat qilgan.
Uning fikricha, tug`ma instinktlar ham insonlarga, ham hayvonlarga bir tekis taalluqli bo`lib, ular odamlarning motivida oldin 14 ta, keyinchalik esa 18 tagacha "asosiy instinktlar" sifatida hukm surishi mumkin. Umuman olib qaraganda, bixevioristlar uchun bir qator holatlar o`ziga xoslikka ega:
140
***Gumanistik yo`nalish.*** Mazkur yo`nalish ekzistensializmning falsafiy g`oyalariga asoslangan bo`lib, vaqt, hayot, o`lim, ozodlik, masuliyat, tanlov huquqi, muloqot, sevgi, hayot mazmunini anglash muammolarini o`rganishga qaratilgan (M.Xaydegger, P.Sartr, A.Kamyu). Inson mehribon, ozod bo`lishi belgilangan deb qabul qilinib, individuallik integrativ yahlitlik hisoblanadi.
Gumanistik yo`nalishning asosiy tamoyillari:
1. Psixolog va mijoz uchrashuvi ikki har xil kishilarning uchrashuvi.
2. Agarda psixolog mijozga o`zining asl his-tuyg`ularini anglashga, qabul

qilishga va namoyon qilishga imkon yaratib bera olsa, mijoz muammolari o`zo`zidan hal bo`ladi.
3. O`z hayot tarzi, fikr-mulohazalari, xulq-atvorini tanlashga mijoz o`zi mas'ul.
Inson tomonidan ruhiy uyg`unlikka erishish, yani hayot mazmunini anglash, ma'naviy qadriyat, estetik his-tuyg`ularni sifatiy o`zgarishiga asos bo`ladi. Men - konsepsiyasini adekvat shakllantirish o`z-o`zini anglash va shu asosida o`zini faollashtirish uchun muhim omil hisoblanadi.
Psixokorreksion yordam ko`rsatishda mijozni o`z-o`zini anglashi, shaxsiy uyg`unlik, "men"ni adekvat integratsiyasi, borliq chegaralarini kengaytirib berish psixologning asosiy vazifasi hisoblanadi.
Ushbu yo`nalishning asosiy metodi ekzistensial tahlil hisoblanib, unda "inson - biladi - his etadi - istaydi" formulasi inson ozod mavjudot tushunchasi asosida tahlil qilinadi. Agarda individ kelajakni tasavvur qila olmasa, o`zini salbiy his etib, ichki olami torayadi, rivojlanish imkoniyatlari sustlashib, oqibatda nevrozlar yuzaga kela boshlaydi. Demak, yordam ko`rsatish vaqtida shaxsning ruhiy olamini tahlil qilish asosida o`zini erkin his qilishga imkon yaratib berib, mijozni uni bog`lab turgan, bezovta qilayotgan oqibatlardan xalos qilinadi.

2.Psixokorreksiyaning asosiy yo`nalishlari

***Psixodinamik yo`nalish.***Psixodinamik yo`nalishga psixoanalitik nazariyaga yo`naltirilgan psixoterapiya turlari kiradi: klassik psixotahlil (Freyd), Adlerning

individual psixologiyasi, Yungning analitik psixologiyasi, Rankning irodaviy terapiyasi, Shtekelning faol analitik terapiyasi, Fromm-Rayxmannning interpersonal psixoterapiyasi, Xornining xarakterologik tahlili (tahlili), gumanistik psixotahlil (Fromm), Klyaynning ego-tahlili, Sallivanning interpersonal psixoterapiyasi va boshqalar. Mazkur yo`nalish asosi Z.Freydning ishlaridir. Freyd birinchi bo`lib psixikani instinkt, aql va ongning urish maydoni sifatida tasvirlagan. «Psixodinamik» atamasi shaxsni tashkil qiluvchi tuzilmalar orasidagi tugallanmas tortishuvlarni aks ettiradi.
Psixodinamik yo`nalish ta'limoticha, determenizm ongsiz psixik jarayonlar bilan ta'riflanadi. Shunga binoan shaxsda anglanmagan qarama-qarshi motivlarni, intrapsixik mojarolarni asl sabablarini hamda mijoz muammolarini hal qiluvchi muhim yechimlarni mijoz tomonidan anglanilishi muhimligiga etibor beriladi.
Z.Freyd o`z asarlarida instinktiv hayot talabi va unga qarshilik ko`rsatish natijasida yuzaga keladigan intrapsixik mojarolar oqibatida insonda turli kasalliklar namoyon bo`la boshlashini ma'lum qiladi.
Psixodinamik yo`nalishning asosiy maqsadi anglanmagan holatlarni anglanilishidir. Psixodinamik yo`nalish asosida faoliyat ko`rsatayotgan psixolog shaxsni chegaralangan, bosilgan impulslari ularga ko`rsatilgan qarshiliklarini topishga qaratilgan. Ularning fikricha, anglanish hosil bo`lishi bilan shaxsda o`zgarishlar yuz bera boshlaydi.
Psixodinamik yo`nalishning asosiy jarayonlari:
1. Konfrontatsiya − mijoz tomonidan tadqiqot uchun zarur bo`lgan psixik jarayonlarning aniqlanishi.
2. Aniqlik kiritish − aniqlangan jarayonlarning asosiylarini qo`shimchalaridan ajratish.

3. Interpretatsiya(izohlash) − voqealarni asosiy mazmuni yoki sababini aniqlash.
4. Qayta ishlash − qaytarish yordamida berilgan materialni mijoz tushunchasida integratsiya qilish.
Psixodinamik yo`nalishda asosan mustaqil assotsiatsialar, ko`chirish va qarshilik reaksiyalarini tahlili, tush ko`rish tahlili hamda kutilmagan xatti-harakatlar
142
tahlilini o`z ichiga olgan verbal usullardan iborat metodlardan foydalaniladi. Masalan, Freyd asosan "katarsis" metodidan, Yung "faol tasavvur" metodidan, Xorni "hayot yo`llarini birgalikdagi tahlili" metodlaridan foydalangan bo`lsa, Sallivan psixiatrik intervyu metodlarini qo`llagan.
A.Adlerning analitik individual psixokorreksiyasi. Uning bosh g`oyasi quyidagicha: inson mukammallikka intiladi, chunki unda o`zidan qoniqmaslik hissi va uni tugatish istagi bo`ladi. Bola atrofidagi olam undan katta, kuchli ekanligini ko`rgani bois unda o`zidan qoniqmaslik hissi paydo bo`ladi. Ota-onaning nodemokratik munosabati bu hisni yanada chuqurlashtirib yuborishi mumkin. O`zidan qoniqmaslik hissi – to`liqsizlik kompleksini tugatish uchun inson o`z-o`ziga o`zining kuchini ko`rsatishga harakat qiladi. Bu jarayon konstruktiv (bunda boshqalarga yaxshilik qilish hisobiga insonning o`ziga bo`lgan hurmati oshadi) yoki destruktiv (bunda boshqalarni kamsitish evaziga insonning o`ziga bo`lgan hurmati oshadi) yo`l bilan amalga oshishi mumkin. To`liqsizlik kompleksining paydo bo`lishiga yo`l qo`ymaslik uchun bola o`zini xavfsiz his etishi kerak. A.Adlerning mashhur asari "A'zolarning to`liqsizligi haqida" deb nomlanadi.
***Shaxsga yo`naltirilgan terapiya.***1951 yilda K.Rodjers o`zining shaxs va xulqatvor nazariyasini "Mijozga yo`naltirilgan terapiya" kitobida keltirib o`tadi. Ushbu nazariyaga ko`ra xavotirlanish bu organizmning idrok oldi vaziyatga noqulaylik va qo`zg`alish ko`rinishidagi reaksiyasidir. Xavotirlanish holatida idrok va tushunishda "Men"-kontsepsiyasi yoki malaka o`rtasida nomuvofiqlik yoki nokongruentlikning vujudga kelishi kuzatiladi. Natijada "Men"-kontsepsiyasining hozirgi holatida yetakchi bo`lgan o`zgarishlar vujudga keladi. Ushbu nazariyaga ko`ra, inson o`zini tushunish va o`zgartirish uchun cheksiz katta imkoniyatlarga ega. Biroq bu imkoniyatlarni kashf etish va ro`yobga chiqarish uchun odamga maxsus sharoit kerak. Bu sharoit uch shartga asoslanadi:
143
Ushbu terapevtik yo`nalishda asosiy e'tibor terapevtik metodga emas, balki psixolog va mijoz o`rtasidagi munosabatga qaratiladi. Bunda psixolog mijozni boshqarmaydi, unga ko`rsatma bermaydi, faqat o`zaro munosabatda ochiqlik, samimiylik, hamdardlik muhitini yaratadi. Mijoz o`z muammosining yechimini o`zi topadi. Shaxsga yo`naltirilgan terapiyada quyidagi mashqlar qo`llaniladi:
A. "O`zlik ideal o`zlikka qarshi". Mijozga o`zidan norozi bo`lgan jihatlarni yozib berish taklif etiladi. Bunda real va ideal "Men" haqidagi tasavvurlarning o`rtasidagi tafovutni aks ettirish so`raladi. Masalan, inson o`zidagi biror kamchilikni bayon etgach, shu vaziyatdagi ideal «Men"ning holatini ham ifodalashi lozim bo`ladi.
B. "Mijozga yo`naltirilgan terapevt". Bu mashq guruhiy holatda alohida juftliklarda amalga oshiriladi. Sherik tanlash ixtiyoriydir. Bunda mijozdan sherigiga aytib berish qiyin kechadigan, masalan, yolg`on gapirgan, nohaq bo`lgan vaziyatlarni so`zlab berish so`raladi. Terapevt rolini bajaruvchi sherik esa uni diqqat bilan tinglab, maksimal darajada tushunishi va hikoyani qayta so`zlab berishi lozim bo`ladi. Ammo

bunda sherigining haq yoki nohaqligini baholamagan holda sherikka teng munosabatda bo`lish talab etiladi. So`ng rollar almashilgan holda mashq davom ettiriladi.
V. “Qarshiliklar tahlili”. Bu mashq juftliklarda, shaxsiy qarshilikni anglash maqsadida o`tkaziladi. Juftlikning har bir a'zosidan o`zi uchun qadrli bo`lgan biror sir
144
haqida o`ylash so`raladi. So`ng bu sirni sherigiga aytsa, u qanday javob reaksiyasi ko`rsatishi mumkinligini tasavvur etish taklif etiladi. Ammo muhokama jarayonida o`zining siri haqida emas, balki faqatgina sherigining namoyon etishi mumkin bo`lgan javob reaksiyasi haqida so`zlash taklif etiladi.
Ekzistensial terapiya.Ushbu terapevtik yo`nalish asoschilari R.Mey va I.Yalom hisoblanadi. Bu nazariya dinamik xarakterda bo`lib, unda terapiya mijozning universal ekzistensial notinchligiga qarama-qarshi ravishda olib boriladi.
Bu terapevtik yo`nalishning asosiy mohiyati “inson sub'ektivligi uning hayotiy tajribasi natijasidir” degan fikrga tayanadi. Bu yo`nalishning asosiy vazifasi – insonga hayotning fundamental savollariga javob topishga ko`maklashishdan iborat.
D.Bujental ekzistensial yondashuvning nazariyotchisi sifatida quyidagi fikrlarni bildiradi:
1) inson qismlarning birlashmasi emas, balki yaxlitlikdir;
2) shaxs – odam sifatida shaxsiy insoniy muammolarni mujassam etadi;
3) inson anglashga va aqlan biror xatti-harakatni amalga oshirishga qodirdir;
4) inson doimo tanlash imkoniyatiga ega;
5) inson xulq-atvori doimo intensionaldir, ya'ni sababga ega va u doimo ongli ravishda qaror qabul qila oladi.
Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ekzistensial terapiyaning asosiy negizini quyidagilar deb hisoblash mumkin:
A. Psixoterapevtik jarayonda to`liq ishtirok etishni ta'minlash. Bunda mijoz bu jarayonga qiziqishi, chuqur kirishishi, o`zi va o`z hayotiga e'tiborli bo`lishi lozim. Shunda sub'ektivlikning chuqur mohiyati namoyon bo`ladi.
B. Mijozni o`ziga nisbatan mavjud bo`lgan chuqur qiziqishlariga yo`naltirish. Ba'zan bunday qiziqish susaygan bo`lib, shu tufayli mijoz terapiyaga muhtojlik sezadi.
V. Mijozning o`z qiziqishini izohlashi sub'ektiv kechinmalarga diqqatining qaratilishida muammoni hal etish imkoniyatini kengaytiradi. Bu jarayonda o`ziga to`liq e'tibor qaratiladi, ayniqsa, tana sezgilari, emotsiyalar, fikrlar alohida e'tiborga olinadi.
145
G. Qarshilikning paydo bo`lish ehtimoli. Bu vaziyat inson “Men va tashqi olam” tuzilmasini shakllantirgani tufayli o`z ichki imkoniyatlariga kirib borishining chegaralanganligida aks etadi.
D. Ekzistensial psixoterapiya jarayoni “Men va tashqi olam” tizimini, idrokning shaxsiy tuzilmasini o`zgartiruvchi ichki o`zini o`zi anglash jarayonidan tashkil topadi;
E. Psixoterapiyaning samarasi shaxs hayotiy hislarining kengaygani va yashash qobiliyatining oshganligida aks etadi.
***Kognitiv xulq-atvor yo`nalishi.***Mazkur yo`nalish tamoyillarini D.Uotson, B.Skinner o`z ishlarida asoslab berishgan. Bu yo`nalish namoyondalari mijoz

muammolarini atrof-muhit ta’siriga javoban yuzaga keladigan noadaptiv xulq-atvor shaklida ko`rib chiqadilar. Demak, noadaptiv xulq-atvorni maqsadga yo`nalgan ta’sir asosida ijobiy tomonga o`zgartirish mumkin, degan fikrni ilgari surishadi.
Kognitiv xulq-atvorning asosiy tomonlari:
1. Talim-tarbiya jarayonidagi muammolar xulq-atvordagi muammolarni keltirib chiqaradi.
2. Xulq-atvor reaksiyalari organizmni tashqi muhit ta’siriga javobidir.
3. Xulq-atvorni modellashtirish psixoterapevtik jarayon bo`lib, unda kognitiv jihat hal qiluvchi hisoblanadi.
Shunday qilib, xulq-atvor ta’sir ko`rsatish ob’ekti bo`lib namoyon bo`ladi, ya’ni salbiy xulq-atvor noto`g`ri o`zlashtirilgan xulq-atvor ko`nikmalarining mahsulidir.
Mutaxasis psixologik yordam berish jarayonida u muammoli deb hisoblagan vaziyatdagi shaxsning xulq-atvori haqidagi ma’lumotlarga asoslanadi, chunki xulqatvor kuzatuv natijasida ham o`zgarishi mumkin, deb hisoblanadi.
Kognitiv xulq-atvor yo`nalishida quyidagi metodlar qo`llanadi:
1. O`z-o`zini nazorat qilish(chuqur relaksatsiyaga o`rgatish, qo`rquv bosqichlarini aniqlash, relaksatsiya mashqlari yordamida xavotirlik va qo`rquv orasidagi bog`liqliklarni aniqlash, xulq-atvorni modellashtirish va istalgan xattiharakatlarni qo`llab-quvvatlash);

2. O`z-o`zini kuzatish(kundalik tutish);
3. Shartnomalar tuzish(mijoz-mutaxasis, mijoz-yaqinlari, mijoz-o`z-o`zi bilan);
4. Uyga vazifalar(uyda bajarish uchun berilgan topshiriqlar).
Psixologik yordamni samaradorligi mijoz nuqtai nazarini faollashtirishga asoslanadi. Kognitiv xulq-atvor yo`nalishida faoliyat ko`rsatayotgan psixologning asosiy vazifasi diagnostik-o`qituv hisoblanadi.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

1.Psixologik maslahatning nazariy asoslarini qaysi yo`nalishlar tashkil etadi?
2.Psixotahlil ta’limotining mohiyati nimadan iborat?
3. Bixeviorizm yo`nalishiga kim asos solgan?
4. Gumanistik konsepsiyadan psixologik maslahat jarayonida qanday foydalaniladi?
5.Psixokorreksiyaning asosiy yo`nalishlari: psixodinamik yo`nalish, A.Adlerning analitik individual psixokorreksiyasi, K.Rodjersning mijoz-markazlashgan yondashuvi,ekzistensial yo`nalish, xulq-atvor yo`nalishi, kognitiv yo`nalish haqida ma’lumot bering.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1.Ongdan siqib chiqarilgan istak-mayllar yana ong sohasiga o`tkazilib, katarsis yo`li bilan ruhiy jarohat yetkazuvchi kechinmalarni anglatish orqali yordam berishga asoslanadigan psixoterapevtik yo`nalishni belgilang.
*A. Psixotahlil ta'limoti.
B. Bixevioral terapiya.
S.Geshtaltterapiya.
D.Psixodrama.
E.NLP.
2.Psixotahlilda qo`llaniluvchi metodlar qaysi qatorda to`g`ri berilgan?
A. Erkin assotsiatsiyalar metodi, qarshiliklar tahlili
B. Qarshiliklar tahlili.
S. Ko`chirish tahlili.
D. Tushlar talqini, interpretatsiya.

*E. Barcha javob to`g`ri.
3. Bixeviorizmning asoschisi kim?
147
*A. DJ.Uotson.
B. Z.Freyd.
S. E.Bern.
D.R.Mey
E. I.Yalom
4.Mijozning o`tmishda boshqa muhim ob’ektlarga (odatda ota-onadan biriga) nisbatan his qilgan hissiyotlarini terapevtga ko`chirishini anglatuvchi psixoanalitik terapiyaning muhim hodisasi to`gri ko`rsatilgan javobni belgilang.
A. Proeksiya.
*B. Transfer.
S. Attityud.
D. Regressiya.
E. Sublimatsiya.
5. Geshtaltterapiyaning asoschisi Fridrix Salomon Perlz qanday usullarni inson shaxsiga va uning individualligiga ziyon etkazadi deb hisoblagan?
A. Introektsiya, proeksiya.
B. Defleksiya, proeksiya.
S. Refleksiya, konfluensiya.
D. Defleksiya, konfluensiya.
*E. Barcha javob to`g`ri.
6. Ekzistensial terapiyaning asoschilarini aniqlang.
*A. DJ.Uotson, Z.Freyd.
B. DJ.Uotson, E.Bern.
S. E.Bern.
D. R.Mey, I.Yalom.
E. to`g`ri javob yo`q.
7. Quyidagi usullardan qaysi biri geshtaltterapiyada qo`llanilmaydi?
A.Monodrama.
*B. Imploziv terapiya.
S. Bo`rttirish va kuchaytirish.
D. Integratsion anglash.
148
E. Bevosita murojaat.
8. Viktor Frankl tomonidan ishlab chiqilgan insonga o`z hayotining mazmunini topishga yordam beruvchi texnikalar qaysi qatorda noto`g`ri ko`rsatilgan?
A.Derefleksiya
B. Parodaksal intensiya metodikasi.
S. Sokrat dialogi.
*D. Desensibilizatsiya metodikasi.
E. Hayotning personal mazmunini anglash.
9. 1951 yilda chop etilgan “Mijozga yo`naltirilgan terapiya” asarining muallifini toping.
*A. K.Rodjers
B. Z.Freyd.
S. E.Bern.
D. R.Mey
E. I.Yalom
10. “A'zolarning to`liqsizligi haqida” deb nomlangan asar muallifi kim?
*A. A.Adler.
B. Z.Freyd.
S. E.Bern.
D. R.Mey
E. I.Yalom

8-BOB. PSIXOLOGIK MASLAHAT TAMOYILLARI

Reja:

1.Psixologik yordamning axloqiy mezonlari va tamoyillari.
2.Tamoyillar: mijozga xushmuomilalik va baholamaslik munosabati.
3.Psixologning mijoz me’yorlari va qadriyatlariga yo`nalganligi.
4.Maslahat berishni ta’qiqlash.
5.Anonimlik. Shaxsiy va kasbiy munosabatlarni cheklash.

Mavzuning o`quv maqsadi: talabalarni psixologik yordamning axloqiy mezonlari va tamoyillari bilan tanishtirish.

Darsning vazifasi:Talabalarga zamonaviy maktab sharoitida psixologik maslahat va psixologik korreksiyani tashkil etish bilan bog`liq muammolar haqida ma’lumot berish.

Tayanch tushunchalar:

Psixologik maslahat, psixokorreksiya, psixik taraqqiyot, psixoterapevtik ta'sir, anonimlik, konfidensiallik.

1.Psixologik yordamning axloqiy mezonlari va tamoyillari

Psixologik maslahatga va psixolog-maslahatchi amaliy ishiga qo`yiladigan umumiy, kasbiy va ma'naviy-axloqiy talablar tizimi Nizomlarda juda yaxshi aks ettirilgan. Mana shu Nizomning ko`pchilik qoidalari psixolog-maslahatchi ishiga bevosita qo`llanilgan. Ularning «psixolog» iborasi o`rniga «psixolog-maslahatchi» so`z birligini kiritib, ushbu qoidalarni eslatib o`tamiz:

 Psixolog-maslahatchining kasbiy faoliyati u mijozga taklif etgan tavsiyalari uchun mijoz oldida uning mas'uliyati bilan ifodalanadi.

 Psixolog-maslahatchining kasbiy faoliyati ma'naviy-axloqiy va yuridik asoslarga muvofiqlikka tayanishi kerak.

 Psixolog-maslahatchining faoliyati mijozning intellektual va shaxsiy rivojlanishi yo`lida har qanday cheklanishlarni olib tashlashni ko`zda tutuvchi insonparvarlik maqsadlariga erishishga qaratilgan.

 Psixolog-maslahatchi o`z ishini mijoz shaxsini qadr qimmatini so`zsiz hurmat qilish va daxlsizligi asosida tashkil etadi. Psixolog-maslahatchi inson huquqlari deklaratsiyasi bilan belgilangan inson huquqi asoslarini hurmat qiladi.

 Mijozlar bilan ishlashda psixolog-maslahatchi halollik va ochiqlik tamoyillariga amal qiladi. Shu bilan birga u mijozga maslahat va tavsiyalarni berganda puxta o`ylashi va extiyot bo`lishi kerak.

 Psixolog-maslahatchi mijoz xuquqlari buzilishini sezganda o`z kasbiy birlashmalari a'zolari, hamkasblariga xabar berish, mijozlar bilan insonparvarlik munosabatlari buzilayotgani holatlarini aytishi kerak.

 Psixolog-maslahatchi mijozlarga kerakli ma'lumoti, malakasi, bilimlari va ixtisosi mavjud bo`lgan xizmatlarni ko`rsatishi mumkin.

 O`z ishida psixolog-maslahatchi faqat zamonaviy umumfan standartlariga javob beradigan sinovdan o`tgan metodikalarni qo`llashi kerak.

 O`zining bilimlari va malakalarini doimiy ravishda yuksak darajasini ta'minlab turish psixolog-maslahatchining majburiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

 Ilmiy tajribalarga to`la javob bermaydigan yetarlicha sinovdan o`tmagan psixologik metodlar va tavsiyalarni qo`llashga majbur bo`lganida psixologmaslahatchi bu haqida o`z mijozlarini ogohlantirishi va o`z xulosalarida juda ehtiyot bo`lishlari kerak.

Quyida keltirilgan jadvalda tajribali va tajribasiz psixolog-maslahatchi

xulqining 10 ta xususiyatlarini solishtirib ko`rsatib o`tilgan.

Maslahat berish davomida tajribali va tajribasiz psixolog-maslahatchi xulqining xususiyatlarini taqqoslash

Xulqining solishtirilayotgan xususiyatlari	**Tajribali psixologmaslahatchi**	**Tajribasiz psixologmaslahatchi**
1. Maslahat maqsadini qo`yish	Mijozga uning o`zi ma'lum maqsadlarga erishishiga yordam berishga urinadi.	Mijozning istagini e'tiborga olmay, o`zining shaxsiy maqsadlarini bajarilishga majburlamoqchi bo`ladi.
2. Mijozga taklif etilayotgan tavsiyalarda namoyon bo`ladigan maslahat berish strategiyasi	Mijozga xulqi turli uslublarini taklif etadi va bu zarur bo`lsa, mijoz amalga oshirishi kerak bo`lgan aniq harakatlarni aytadi.	Mijozga faqat xulqi turli uslublarni taklif etadi, hatto mijoz so`raganda ham deyarli unga aniq maslahatlar va tavsiyalar berishdan bosh tortadi.
3. Maslahat berish davomida sodir bo`layotganlarni idrok etish	Har qanday nuqtainazarni tushunadi va to`g`ri deb qabul qilish va tan olishga hamda	

unga mos ravishda
amaliy harakatlarni
amalga oshirishga qodir.
Faqatgina bir o`zi
muammo haqida fikrlay
oladi, boshqalar
fikrlarini tushunish va
tan olishga qodir emas.
4. Mijozning
ko`nglidagi gaplarini
aytganida nazariy va
psixologik yo`nalish
Turli nazariyalarni
tushunadi, qabul qiladi
va ular ustida nazariy
ishlay oladi, ko`plab
muqobil psixoterapevtik
yondoshishlarning
foydasini yaxshi
tushunadi va yuqori
baholaydi
Faqatgina yagona-bir
nazariya yoki bir
psixoterapevtik
yondoshish ustida
amaliy ishlay oladi,
boshqa nazariya va
yondoshishlarni
noto`g`ri deb tushunadi
5. Shaxsiy imkoniyatlari
va chegaralarini
yaxshi tushunadi
O`zining imkoniyatlari
chegaralanganligini
tushunadi, o`zidan
tajribali psixologmaslahatchi
nazorati
ostida ishlashga rozi, o`z
tajribalari bilan boshqa
O`zining imkoniyatlari
chegaralanganligini
tushunib yetmaslikka
harakat qiladi. Boshqa
psixolog-maslahatchilar
nazoratida ishlashdan
bosh tortadi, sirlari va

psixolog-maslahatchilar
bilan o`rtoqlashadi va
ularning ish
tajribalaridan
foydalanishga tayyor.
kasbiy tajribalarini
boshqa psixologmaslahatchilar
bilan
o`rtoqlashishni
yoqtirmaydi, ularning
tajribalaridan o`z ishida
foydalanmaydi
6. Mijozga
ko`rsatilayotgan ta'sir
ko`rsatishni va
mijozning psixologmaslahatchiga
qayta
ta'sirini anglab etish
O`zining shaxsiy
harakatlari mijozga
qanday ta'sir
ko`rsatayotganini va
mijozning xulqi o`z
navbatida unga ta'sirini
anglab yetadi
O`zining mijozga va
mijozning uning o`ziga
qayta ta'sirini anglab
yetmaydi
7. Suhbat davomida
mijozning shaxsiga va
uning muammosiga
yo`nalish
Mijozning hissiyotlari
va fikrlarini tushunib
boradi, unga ortiqcha
savol bermaydi.
Mijoz ishiga to`g`ridanto`
g`ri aloqasi
bo`lmagan masalalarga
katta e'tibor qaratadi.
O`z navbatida mijozning
o`zini tashvishlartiradigan
masalalarga e'tibor
bermaydi
8. Mijozning
harakatlariga va

maslahat berish
vaziyatiga qarab
harakat qilish
Maslahat o`tkazish
jarayonida yuzaga
keladigan turli
vaziyatlar va
muammolarga qarab
to`g`ri harakat qiladi
Bir xil vaziyatlarda
psixolog maslahatchi
to`g`ri yo`l topa olmaydi
yoki bunday hollarda bir
xilda, bir-biriga
o`xshash harakat qiladi
9. Mijozning insoniy Mijozga katta hurmat Mijozni hurmat

qadriyatlarini hurmat
qilish
bilan munosabatda
bo`lish.
qilmaydi, unga
behurmat muomala
qilishi mumkin.
10. Maslahatlarning
maxfiyligi
Mijozga, uning
muammosiga va shaxsiy
hayotiga taalluqli barcha
ma'lumotlarni sir
saqlaydi, mijoz
to`g`risida biror kimga
qandaydir ma'lumotni
xabar qilish zaruriyati
yuzaga kelganida albatta
ruxsat so`raydi
Mijozning ruxsatisiz
uning muammosini va
faqatgina unga taalluqli
bo`lgan muammoni
boshqalar bilan
muhokama qiladi

2.Tamoyillar: mijozga xushmuomilalik va baholamaslik munosabati

Psixolog-maslahatchi ega bo`lishi va mijoz bilan muloqotda u namoyon etishi kerak bo`lgan sifatlar to`g`risida to`xtalib o`tamiz.

 Empatiya, hamdardlik, tashvishlanishga qodirligi. Bu qobiliyat boshqa odamning – mijozning ichki dunyosiga chuqur psixologik kirib bora

olishi, uni tushunishi, sodir bo`layotganlarni uning shaxsiy nuqtainazariyasini ko`ra bilishi, dunyoni uning ko`zi bilan ko`rishi, uning nuqtai-nazaridan to`g`ri qabul qila olishi tushuniladi.

- Ochiqlik, mijozni tushunishga, uning ichki dunyosiga kirishga intilib psixolog-maslahatchi unga o`zining shaxsiy his-tuyg`ularini ochiq aytadi, u tomondan empatik javob uyg`otadi va shu bilan uni o`zi uchun ochiq bo`lishini ta'minlaydi.
- Mijozga hamdardlik, rahmi kelishi hamda mimika, ishoralar yordamida shaxsan g`amxo`rligini ifoda etish.
- Do`stonalik, mijozga mehribonlik, emotsional ijobiy munosabatda bo`lish, uning muammosini hal qilishdan manfaatdorlik va ishtirok etish.

- Mijozga baho bermay munosabatda bo`lish, maslahatchining hatto o`ziga bu xulq yoqmaydigan bo`lsa ham o`z xulqida odob, axloq qoidalariga amal qilish.
- Huquqini o`rgatish, mijozga o`z maslahatlariga amal qilishni majburlashdan voz kechish.
- Mijozga ishonish, uning o`z muammolarini mustaqil hal qila olishi mumkinligiga ishonch bildirish.
- Mijozni faqat o`z tashvishlaridan qutilishiga, balki uning kechinmalarini to`g`ri yo`lga yo`naltirishga tayyorligi va intilishi.
- O`zi va mijoz o`rtasida to`g`ri psixologik masofani saqlashni bilish.
- Mijozning o`zini o`zgartira olishiga ishonchi va qat'iyligini uyg`otishni bilish.

Empatiya – bu psixolog-maslahatchi ega bo`lishi kerak bo`lgan asosiy shaxsiy sifatdir. Bu sifatda odamning boshqa odamni psixologik his etishga va tushunishga, o`z dunyoqarashini vaqtincha esdan chiqarib uning ko`zi bilan dunyoga qarashga tayyorligidir. Bu sifatni psixolog-maslahatchi butun maslahat berish jarayoni davomida namoyon etadi va shuning hisobiga mijozni yaxshiroq va chuqurroq tushunadi,unga samarali yordam bera oladi.

Ochiqlik – shaxs sifati bo`lib, bir necha ko`rinishlarga ega bo`ladi. Birinchidan, psixolog-maslahatchining shaxs sifatida mijoz uchun ochiq bo`lishga tayyorligi (lekin mijoz bilan maslahatchi o`rni almashib va mijoz maslahatchining muammolari to`g`risida bilib olib, uning o`ziga rahmi keladigan, hamdardlik qiladigan darajada emas). Rollarni almashish odatda psixolog-maslahatchi mijozga o`z muammolarini gapira boshlab, unda maslahatchiga yordam berish istagi paydo bo`lganida sodir bo`ladi. Ochiqlik me'yori mijozning sezgisi bilan belgilanadi: agarda u psixologmaslahatchini ochiq inson deb hisoblasa va uning oldida ochiqlikdan qo`rqmasa – demak, maslahatchining mijoz oldidagi ochiqlik masalasida hammasi joyida hisoblanadi.

Ikkinchidan, ochiqlik – bu psixolog-maslahatchining mijoz bilan muloqotda faqat o`z ustunliklarini emas, balki imkoniyatlarini va kamchiliklarini mijozga tabiiy

namoyon etib, qanday bo`lsa shundayligicha qolishga intilishidir. Ochiq inson bo`lib psixolog-maslahatchi o`zining kamchiliklarini mijozga namoyon etib, uni o`ziga tortish yoki hayron qoldirishni, uning tomonidan hamdardlik yuzaga keltirishni

xohlamaydi, balki maslahatchining o`zi ham oddiy tirik odam, barcha kabi ekanligini ko`rsatishni, kamchiliklari ham borligini va maslahat berish jarayonida hayotda unga xos bo`lmagan rolni o`ynashga harakat qilmasligini ko`rsatishga harakat qiladi. Uchinchidan, ochiqlik maslahatchining mijozga u bilan har qanday masalalarni muhokama etishga tayyorligini ko`rsatishida namoyon bo`ladi. Empatiya ochiqlikni keltirib chiqaradi, biri ikkinchisisiz deyarli mavjud bo`lishi mumkin emas. Maslahatchining mijoz to`g`risida chin ko`ngildan qayg`urishi, psixologmaslahatchining mijoz to`g`risidagi shaxsiy g`amxo`rligi ifodasi deb tushuniladi.
Bunday g`amxo`rlik ham haddan tashqari bo`lishi kerak emas.
Mijozning psixologik holatiga hayajonlanuvchi ta'sir ko`rsatmaslik uchun psixolog-maslahatchi mijoz bilan muloqotda haddan tashqari ta'sirchan odam bo`lmasligi tavsiya etiladi.
Do`stonalik – bu ham maslahatchining muhim psixologik sifati hisoblanadi. Ushbu sifat deyarli yuqorida aytib o`tilgan barcha shaxs xislatlari bilan aloqador bo`lsa ham, u o`zining shaxsiy individual ko`rinishiga ega. Ularga masalan har qanday vaziyatlarda, nima bo`lsa ham va mijoz o`zini qanday tutishiga qaramay psixolog-maslahatchining u bilan do`stona muloqot usulini saqlab qolishini bildiradi.
Psixologik maslahat amaliyotida psixolog-maslahatchining mijozga baho bermaslik deb ataluvchi munosabati alohida o`rin egallaydi. Bu nimani anglatishini tushuntirib o`tamiz. Eng avval – bu psixolog-maslahatchining mijoz bilan muloqot davomida uning harakatlari va shaxsini to`g`ridan-to`g`ri baholamasligi zarur. Uning muammolarini iloji boricha chuqurroq tushunishi va ushbu muammoni hal etishda unga yordam berishdan iborat hisoblanadi.

3.Psixologning mijoz me’yorlari va qadriyatlariga yo`nalganligi

Psixolog-maslahatchining mijozni tashvishlardan qutilishiga yordam berishga intilish kabi R. Mey belgilab bergan sakkizinchi sifati alohida e'tiborga loyiq.

Tashvishlanish – bu mijozning o`z muammosiga va o`ziga befarq bo`lmagan munosabatning belgisidir. Agarda mijoz muammosini to`g`ri tushunmasa yoki uni hal qilishni to`g`ri yo`lini bilmasa, unda tashvishlari destruktiv rol o`ynashi mumkin. Hayajonlar, emotsional energiyasi muammoning yechimini to`g`ri tanlash va amalga oshirish uchun zarurdir. Demak, psixolog-maslahatchining vazifasi mana shu energiyani saqlab qolish, balki uni konstruktiv, to`g`ri yo`naltirish, bu energiyani kuchaytirish kerakdir.
O`z muammosini hal qila olishiga mijozda ishonch va qat'iylikni uyg`otish mahorati – bu alohida sifat hisoblanadi. U psixolog-maslahatchining odamni ishontira olish, uqtirish, qo`llab quvvatlashini bilish qobiliyatiga bog`liq bo`ladi.
Buning uchun mijozga ta'sir ko`rsatish kerakli verbal va noverbal vositalardan oqilona va mohirona foydalanishni o`rganib olish kerak.
Ushbu yo`nalishda fikr yuritishini davom ettirib, shaxs o`zining borliqdagi istalgan paytida nafaqat yagona balki ob'ektiv olamga nisbatan ko`p qirrali va ma'nodosh bo`lmagan sub'ektiv kechinmalar iskanjasidagi cheksiz yolg`iz zotdir, deb ta'kidlashimiz mumkin. Biroq borliq va berilgan borliqni anglash jarayoniga nasbatan shaxsning yolg`izligini tan olgan holda biz, shuningdek, anglash natijasida, turgan gapki, yolg`iz emaslikni tan olishimiz kerak. Biz dalil sifatida «turli xil» kechinmalar «bir xil kashfiyotlar natijasi sifatida yuzaga chiquvchi mohiyati bo`yicha, allaqanday farqlanuvchi voqelikni eks ettiradigan fan va san'atni mavjudligini esga olishimiz

mumkin. Farqlanuvchi voqelik, birinchi navbatda ular tashkil qilgan belgi va qiyofalar hamda ularni anglatuvchi tushunchalar yakdilligi bilan aniqlanadi. Farqlanuvchi voqelikning mavjudligi, shuningdek, ko`rinuvchi farqlanuvchi voqelikning ham mavjudligini tahmin qiladi.
Ko`rinishning yuzaga chiqishi quyidagilar bilan tushuntirilishi (asoslanishi) mumkin:
 bir xildagi qiyofa va belgilar, biroq ularga turlicha ma'no berilishi – ko`rinuvchi farqlanuvchi voqelik;

 farqlanmaydigan boshqacha voqelikni ko`rinishi – bir xil tushuntiriluvchi yuzani turli xil belgi va qiyofalar. Binobarin, eklektik tanlovni biz taklif qilayotgan ruhiy falsafiy nuqtai-nazardan noaniqlikni qabul qilish orqali tasavvur qilish mumkin. Aynan berilgan noaniqlik, mijoz murojaat qilayotgan xavotirli lahzani aks ettiradi. Boshqacha aytganda: berilgan xavotirli lahza «xushchaqchaq va javobgar bo`lish yoki qurbon bo`lishi orasidagi tanlov muammosini aks ettiradi.
Yuqorida aytilganlarning barchasi psixolog-maslahatchining mijozga nisbatan ichki qarashlari, munosabati va tashqi xulqiga taalluqlidir. Biroq psixologik-maslahat o`tkaziladigan vaziyatga, sharoitga maxsus talablar ham bor.

4.Maslahat berishni ta’qiqlash

Maslahat berish – bu psixolog-maslahatchi va mijozlarning ikkala tomonning shaxs sifatida tengliklari jarayonidir. Ushbu tenglik doimiy hisoblanadi va maslahat berishning barcha bosqichlari uchun taalluqlidir.
Agarda psixolog-maslahatchi haq bo`lsa, unda maslahatchi uni ishontirishda davom etishi kerak va faqatgina psixologning urinishlariga yengib bo`lmas qarshilik ko`rsatgan holdagina to`xtatish kerak bo`ladi. Shundan keyin maslahatchi mijoz o`zi qanday to`g`ri deb hisoblasa, shunday harakat qilishga imkon berishi kerak.
Mijozga ishonch – bu insonparvarlik g`oyasiga asoslangan bo`lib, psixologik maslahat ko`riladigan asosdir. Maslahatchining mijozga ishonchi agarda mijozni anglab yetishiga va muammoni hal etish usulini u bilan birga topishga yordam berilsa, o`z muammosini hal etish usulini u bilan birga topishga yordam berilsa, o`z muammosini mijoz mustaqil hal qila olishiga ishonchni ko`zda tutadi. Ishonish psixolog-maslahatchining mijoz fikriga qo`shilishi, agarda albatta mijoz haq bo`lsa, o`z fikridan voz kechib, uning fikrini qabul qilishini ham anglatadi.
Mijozning muammosini tadqiq qilish chog`ida, bizning fikrimizcha, mazkur paytga emas, anglash jarayonining kechish xususiyatiga urg`u berish kerak, chunki anglash jarayonining yo`nalishi va xususiyatlari shaxsiy xususiyatlar majmuasiga bog`liqdir. Ushbu xususiyatlar o`z ichiga quyidagilarni oladi: hayot yo`lining takrorlanmasligi; bu yo`lni bosib o`tish natijasida shakllangan dunyoqarash; o`tmish

hozirgi zamon va hayolan shakllangan kelajak aks ettirilgan o`z-o`zini anglash va o`z fikrlari, kechinmalarini hayoldan kechirib analiz qilib chiqish natijasidagi yo`lning shaxsiy uydirmalari. Aynan shaxsiy xayolot vaqtinchalik o`zgarishlarga ta'sir qilishga mutaxassis mijozga yordam berishi mumkin.
Yanchuk V.A. o`zining “Ijtimoiy psixologiyada ekzistentsial fenomenologik yondashuvning xususiyatlari” muhokamasida quyidagilarni yozadi: «Hech qaysi biologik, neyropsixologik, ba'zan esa ruhiy cheklanishlar chetda qoldirilishi yoki yengib o`tishi mumkin emas va ular bizning olam yoki o`zimiz haqimizdagi turli xil

reflektiv tasdiqda doimo mavjud bo`ladi. Bizning tajribalarimizda ushbu ma'lumotlarni (yoki interpritatsiya cheklanishlarini) yechish va tushuntirish, ijtimoiymadaniy
va ruhiy asoslangan xato fikr va xulosalarni yengishga urinishlarni namoyon qiluvchi ekzistent fenomenologik yondashuvning eng asosiy qirralaridan birini shakllantiradi.

5.Anonimlik. Shaxsiy va kasbiy munosabatlarni cheklash

Psixolog-maslahatchi o`z mijozi to`g`risida ma'lumotni oshkor qilishga yoki maslahatlar natijasi to`g`risida ma'lumotni oshkor qilishga yoki uchinchi shaxsga aytishga haqqi yo`q.

Psixolog-maslahatchi huquqi bo`lmagan, kasbiy tayyorgarlikka ega bo`lmagan shaxslarning psixologik maslahatlar va psixologik ta'sir ko`rsatish metodlaridan foydalanishlariga to`sqinlik qilishi hamda shunday «mutaxassislarning» xizmatlaridan foydalanayotganlarni bu haqda ogohlantirishi kerak.

Psixolog-maslahatchi huquqi bo`lmagan odamlarga mijozlar bilan psixologik ishlar metodlarini o`rgatishi mumkin emas.

Psixolog-maslahatchi mijoz tomonidan noo`rin ishonch va umid yuzaga keltirmaslik uchun, ehtiyot bo`lishi kerak, unga bajarib bo`lmaydigan va'dalar, maslahatlar va tavsiyalar bermasligi kerak.

Psixolog-maslahatchi mijozlarga taalluqli axborotlarni sir saqlash uchun shaxsiy javobgarlikni bo`yniga oladi.

Sir saqlashni mutloq asosga ko`tarish mumkin emas, chunki bu tushuncha nisbiydir, bir tomondan taqdim etilayotgan ma'lumotlar xarakteriga bog`liq bo`lsa, ikkinchi tomondan mijozga ziyon keltirmaydigan materiallar ushbu qoidaga bo`ysunmaydi. Quyidagi holatlarda kasb siriga rioya qilinmaydi:

- mijoz hayotiga katta xavf solinganda;
- mijozning jismoniy harakatlari;
- mijozni kasalxonaga yotqizish zarur bo`lganda;
- uchinchi kishilar manfaatdorligi (qarindoshlar, yaqinlari, mijozning tanishlari).

Mijoz bilan munosabatda ma'qul bo`lgan psixologik masofani tanlashni va saqlashni bilishni quyidagicha tushunish kerak. Maslahatchi ishonch va ochiqlikni saqlab qolgan holatda mijoz bilan muloqot qilishni bilishi kerak. Shu bilan birga psixolog-maslahatchining mijoz bilan munosabatlari yaqin munosabatlarga aylanib ketishi kerak emas. Mijoz shu vaziyatda maslahatchi psixologik jihatdan bir yaqinlashayotganini, bir uzoqlashayotganini his etishi kerak emas. Maslahatchining mijoz bilan psixologik yaqinlashishi strategiyasi quyidagicha bo`lishi kerak: maslahatchi asta-sekinlik bilan mijozga sezdirmagan holda uning uchun yaqin odamga aylanib borishi kerak. Lekin psixolog-maslahatchi keyingi qadam yaqin o`zaro aloqalarga olib kelishini sezib qolishi bilan darhol to`xtashi kerak va keyinchalik mijoz bilan hozirgi vaziyatda mavjud bo`lgan masofani saqlashi kerak. Mana shu barcha qoidalarga yoki odob normalariga amal qilish psixologmaslahatchi amaliy ishida majburiy hisoblanadi. Bundan tashqari kasbiy tayyorlangan yaxshi psixolog-maslahatchining kasbiy to`la tayyorlanmagan psixolog maslahatchidan ajratib turadigan yana bir qator muhim farqlar bor. Bu farq psixologmaslahatchining

mijozga bo`lgan munosabati, psixologik maslahatlar davomida uchrab turadigan qiyin vaziyatlardan u qanday chiqa olishiga bog`liq.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

1.Psixologik yordamning axloqiy mezonlari va tamoyillariga nimalar kiradi?
2.Mijozga xushmuomilalik va baholamaslik munosabati o`z ichiga nimalarni oladi?
160
3.Psixologning mijoz me'yorlari va qadriyatlariga yo`nalganligining psixologik maslahat chogídagi ahamiyati nimadan iborat?
4.Maslahat berishni ta'qiqlash deganda nimani tushunasiz?
5.Anonimlik. Shaxsiy va kasbiy munosabatlarni cheklash haqida ma'lumot bering.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Qaysi holatlarda kasb siriga rioya qilinmaydi?
A. Mijoz hayotiga katta xavf solinganda;
B. Mijozning jismoniy harakatlari;
S. Mijozni kasalxonaga yotqizish zarur bo`lganda;
D. Uchinchi kishilar manfaatdorligi (qarindoshlar, yaqinlari, mijozning tanishlari).
* E. Barch javoblar to`g`ri.
2. Psixolog-maslahatchi ega bo`lishi va mijoz bilan muloqotda namoyon etishi kerak bo`lgan sifatlar qaysi qatorda to`g`ri berilgan?
A. Empatiya, hamdardlik, tashvishlanishga qodirligi.
B. Ochiqlik, hamdardlik.
S. Do`stonalik, mijozga mehribonlik, emotsional ijobiy munosabatda bo`lish.
D. Mijozga ishonish, uning o`z muammolarini mustaqil hal qila olishi mumkinligiga ishonch bildirish.
* E. Barch javoblar to`g`ri.
3. Psixolog-maslahatchi ega bo`lishi va mijoz bilan muloqotda namoyon etishi kerak bo`lgan sifatlar qaysi qatorda noto`g`ri berilgan?
*A. Huquqini o`rgatish, mijozga o`z maslahatlariga amal qilishni majburlash.
B.Mijozga ishonish, uning o`z muammolarini mustaqil hal qila olishi mumkinligiga ishonch bildirish.
S.Mijozni faqat o`z tashvishlaridan qutilishiga, balki uning kechinmalarini to`g`ri yo`lga yo`naltirishga tayyorligi va intilishi.
D.O`zi va mijoz o`rtasida to`g`ri psixologik masofani saqlashni bilish.
E.Mijozning o`zini o`zgartira olishiga ishonchi va qat'iyligini uyg`otishni bilish.
4. Quyida berilgan ta'kidlardan qaysi biri noto`g`ri?
A. Psixolog-maslahatchining kasbiy faoliyati u mijozga taklif etgan tavsiyalari uchun mijoz oldida uning mas'uliyati bilan ifodalanadi.
161
*B.Psixolog-maslahatchining kasbiy faoliyati ma'naviy-axloqiy va yuridik asoslarga nomuvofiqlikka tayanishi kerak.
S.Psixolog-maslahatchi mijoz xuquqlari buzilishini sezganda o`z kasbiy birlashmalari a'zolari, hamkasblariga xabar berish, mijozlar bilan insonparvarlik munosabatlari buzilayotgani holatlarini aytishi kerak.
D.Psixolog-maslahatchi o`z ishini mijoz shaxsini qadr-qimmatini so`zsiz hurmat qilish va daxlsizligi asosida tashkil etadi.
E.Mijozlar bilan ishlashda psixolog-maslahatchi halollik va ochiqlik tamoyillariga amal qiladi.
5. Empatiya – bu ...
*A. odamning boshqa odamni psixologik his etishga va tushunishga, o`z dunyoqarashini vaqtincha esdan chiqarib uning ko`zi bilan dunyoga qarashga tayyorligidir.
B) maktabning pedagogik jamoasini, o`quvchilarni va ota-onalarni psixologik bilimlarini egallashga jalb etish, ularning psixologik madaniyatini oshirish.
S)shaxs shakllanishi va psixik rivojlanishida sodir bo`ladigan kechikish, salbiy buzilish va nuqsonlarni bartaraf etish, shaxs va jamoaga faol ijobiy ruhiy ta'sir o`tkazish, shaxslararo munosabatlardagi muvofiqlikni ta'minlash.

D) bolalarni maktabgacha ta'lim va maktab yoshi davomida psixologik jihatdan uzluksiz har tomonlama o`rganish, ularning individual - psixologik xususiyatlarini aniqlash, o`qish xulqatvorlaridagi nuqsonlarning sabablarini aniqlab berish.
E) Barcha javoblar to`g`ri.
6. Psixologik xizmatning asosiy bo`g`inlari sonini aniqlang.
A. 1 bo`g`in.
B. 2 bo`g`in.
*S.3 bo`g`in.
D. 4 bo`g`in.
E. 5 bo`g`in.
7.Rossiyadagi psixologik xizmat bo`yicha ilmiy tadqiqot olib borgan va maktab yaratgan psixolog kim?
A. Prixojan.
B. Kozlova.
S. Samoukina.
162
*D. Dubrovina.
E. Rubinshteyn.
8. Psixologik xizmatning tashviqot bosqichini kimlar amalga oshiradi?
A.O`qituvchi, oshpaz, direktor.
B.Ilmiy bo`lim mudiri, nevropotolog, psixolog.
S.Vrach, metodist, psixolog.
D.Sinf rahbari ota-ona, psixolog.
*E.Pedagoglar, metodistlar, didaktlar.
9. Psixologik xizmatning amaliy bosqichini kim amalga oshiradi?
A. Nevropotolog.
B.Psixonevrolog.
*S. Psixolog.
D. Psixiatr.
E. Psixoterapevt.
10. Kasb tanlash muammolarini hal qilishda qanday testlardan foydalaniladi?
A.“DDS”
B.“Qiziqishlar xaritasi”
S. Xolland metodikasi.
*D.Barcha javoblar to`g`ri.
E.“Kasbiy motivatsiyani aniqlash” metodikasi.
163

9-BOB. PSIXOLOGIK KORREKSIYANING TAMOYILLARI VA UNI TASHKIL ETISH

Reja:
1.Psixokorreksion faoliyat tamoyillari.
2. Diagnostika va korreksiyaning birligi tamoyili.
3.Taraqqiyotning normalligi tamoyili.
4.Korreksiyaning “yuqoridan pastga” tamoyili.
5.Korreksiyaning “pastdan yuqoriga” tamoyili.
6.Psixik faoliyat taraqqiyotining tizimlilik tamoyili.
7.Korreksiyaning faoliyatli tamoyili.
Mavzuning o`quv maqsadi: talabalarni psixologik korreksiyaning tamoyillari va uni tashkil etish bilan tanishtirish.
Darsning vazifasi: Talabalarga psixokorreksion faoliyat tamoyillari: diagnostika va korreksiyaning birligi tamoyili, taraqqiyotning normalligi tamoyili, korreksiyaning “yuqoridan pastga” tamoyili, korreksiyaning “pastdan yuqoriga” tamoyili, psixik faoliyat taraqqiyotining tizimlilik tamoyili, korreksiyaning faoliyatli tamoyili haqida ma’lumot berish.
Tayanch tushunchalar:psixokorreksion faoliyat, psixik taraqqiyot, umumiy «kontinual» yondashuv, shaxsiy tayyorlik.

1.Psixokorreksion faoliyat tamoyillari

Bolalar psixik taraqqiyotini tuzatish, psixologik xizmatni tashkil etish muammosi bo`yicha chet el psixologiyasiga murojaat qilishimiz quyidagilar bilan bog`liq:

1) Chet - el psixologiyasida tuzatish ishlarining texnikasi, uni o`tkazish tartiblari, metodlari, juda yaxshi ishlangan bo`lib, amaliy psixologik vazifalariga moslashtirilgandir;

2) so`nggi vaqtlarda tuzatish metodlari va texnikalarini, ularning nazariy manbalari va asoslarini tahlil qilmasdan to`g`ridan-to`g`ri notanqidiy o`zlashtirish kuchaymoqda.

Chet el psixologiyasidagi bola psixik taraqqiyotini tuzatish muammosidagi barcha nuqtai nazarlarni 2 guruhga ajratamiz:

164

a) psixodinamik nuqtai nazar bo`yicha terapevtik kuch ongni, uning tuzilishini rivojlantirishga qaratiladi;

b) xulqiy nuqtai nazar bo`yicha individning tashqi muhitda faolligini aniqlaydigan stimul-reaksiya bog`lanishining ko`rinishini o`zgartirishdan iborat.

Sobiq Sovet psixologiyasida tuzatish uch asosiy tamoyilda amalga oshiriladi.

1. Taraqqiyotning normativligi tamoyili.
2. "Yuqoridan pastga" tuzatish tamoyili.
3. Psixik taraqqiyotning sistemaligi tamoyilidir.

Psixokorreksion tadbirlar rivojlanishdagi og`ishlarni to`g`rilashga yo`naltirilgan. Shu tufayli bir qator dolzarb savollar paydo bo`ladi:

- Rivojlanishdagi og`ishlar deganda nimani tushunish kerak?
- Psixologik korreksiyani amalga oshirishga doir qanday ko`rsatmalar mavjud?
- Korreksion masalalarning maqsadga muvofiqligini belgilash mas'uliyatini kim o`z bo`yniga oladi va qaror qabul qiladi?
- Korreksiya samaradorligini kim va nimaga asoslanib baholaydi?

Korreksion ish amaliyotida rivojlanishdagi qiyinchiliklar sabablarini tushuntiruvchi turli modellar mavjud.

Biologik model − og`ishlarning kelib chiqishini organik yetilish tempining sekinlashuvi bilan izohlaydi.

Tibbiy model – rivojlanishdagi og`ish, qiyinchiliklar va muammolarni anomal rivojlanish sohasiga olib chiqadi.

Interaksionistik model – taraqqiyot muammolarini vujudga kelishida shaxs va muhit o`rtasidagi o`zaro ta'sirlarning buzilishi, xususan, bolaning sensor va ijtimoiy deprivatsiyasi oqibatlarini alohida qayd etib o`tadi.

Pedagogik model − og`ishlarning sababini pedagogik va ijtimoiy qarovsizlikda ko`radi.

Faoliyatga doir model – yetakchi faoliyat ko`rinishi va mazkur yosh bosqichi uchun odatiy faoliyat turlarini shakllanmaganligini diqqat markaziga qo`yadi.

Korreksion ish maqsadlarining qo`yilishi psixik rivojlanishning nazariy modeli bilan uzviy bog`liq.

165

Korreksion maqsadlarni qo`yish sohasida uchta asosiy yo`nalish farqlanadi:

Chet el psixologiyasida bola rivojlanishidagi qiyinchiliklar shaxsning ichki strukturasi buzilganda (Z.Freyd, M.Klayn va h.k.) yoki muhit buzilganligida, yoki

ikkala sabab birlashganda yuzaga keladi, deb hisoblashadi.
Pirovardida, ta'sir ko`rsatishning maqsadi shaxs uyg`unligi va psixodinamik kuchlar balansini tiklashdan iborat, deb tushuniladi. Korreksion ishning texnikasi va usullarining tanlanishi uning maqsadlari bilan belgilanadi.
Maqsadlarni konkretlashtirishda quyidagi qoidalarni hisobga olish lozim:
1.Korreksiya maqsadlari negativ emas, pozitiv shaklda tuzilishi kerak. Maqsadlar inkor so`zlari bilan tuzilmasligi shart, ularning ta'qiqlovchi harakterga ega bo`lishi mijozning rivojlanish imkoniyatlarini, tashabbuslarini chegaralab qo`yishi mumkin. Korreksiya maqsadlarini aniqlashning negativ shakli bartaraf etilishi lozim bo`lgan xulq-atvor xususiyatlar tavsifidan iborat.
Korreksion muddaolarning pozitiv shakli mijozda shakllanishi kerak bo`lgan xususiyatlarni o`z ichiga oladi.
2. Korreksiya maqsadlari real tuzilishi kerak. Agar maqsadlar real holatdan uzoq bo`lsa, unda psixokorreksion dastur foydadan ko`ra ko`proq zarar keltirishi mumkin.
3. Umumiy maqsadlar qo`yilganda, shaxs taraqqiyotining yaqin va olis istiqbolini hisobga olinishi kerak. Shaxsning, nafaqat korreksiya tugagan vaqtidagi
166
ko`rsatkichlarini, balki keyinroq ro`y beradigan rivojlanish bosqichlaridagi o`zgarishlarni ham qamrab olishi kerak.
4. Korreksion ishning samarasi ancha uzoq vaqt davomida namoyon bo`lishini yodda tutish lozim. Korreksion ish jarayonida, uning yakunlanishida va nihoyat, tahminan yarim yil o`tgandan keyin, korreksion ishning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsizligi haqida gapirish mumkin.

2. Diagnostika va korreksiyaning birligi tamoyili

Korreksiya va psixologik diagnostika birligi tamoyili psixologik amaliyotning o`ziga xos fenomeni sifatida psixologik yordam ko`rsatish jarayoni yaxlitligi, mujassamlashganligini aks ettiradi. I.V. Dubrovina, D.B. Elkonin va boshqalarning asarlarida batafsil yoritib berilgan mazkur tamoyil butun korreksion faoliyatning negizi deb e'tirof etiladi, zotan korreksion faoliyat samaradorligining to`qson foizi avval amalga oshirilgan psixologik diagnostika jarayonining chuqurligi, jiddiyligi bilan belgilanadi.
Yuqorida zikr etilgan tamoyil ikki yo`nalishda amalga oshiriladi.
Birinchidan, korreksion muolajalarni psixologik diagnostika izlanishlari bilan uyg`unligini ta'minlash, uning asosida birlamchi xulosa tuzish va korreksionrivojlantiruv ishning maqsad va vazifalarini aniqlash zarur.
Korreksion ish samarasi faqatgina dastlabki puxta psixologik diagnostika ishlari bilan belgilanadi. Shu bilan birga «..eng aniq, chuqur tashhis ma'lumotlari agar ular jiddiy o`ylangan psixologik-pedagogik korreksion tadbirlar tizimi bilan uyg`unlashtirilmasa ma'nisiz bo`lib qolishi mumkin» (D.B. Elkonin, 1989).
Ikkinchidan, psixologning korreksion-rivojlantiruv faoliyati mijozning korreksion ishlar jarayonidagi kechinmalari va his-tuyg`ulari, emotsional holati dinamikasi, faoliyati, fe'l-atvori, shaxs o`zgarishi dinamikasining doimiy nazoratini talab etadi. Ushbu nazorat programmasi vazifalarga zaruriy o`zgartirishlar kiritishni, mijozga psixologik ta'sir ko`rsatish uslublari va vositalarini vaqtida yangilash imkonini beradi.
167

3.Taraqqiyotning normalligi tamoyili

Taraqqiyotning "normativligi" tamoyili psixik taraqqiyotning asosiy qonuniyatlarini hisobga olishni, bola shaxsi rivojlanishi uchun taraqqiyot bosqichlari ketma-ketligini ta'minlaydi. Masalan: bog`cha yoshidagi bolalarga nisbatan bunday yuqori talabchanlikka misol sifatida ota - onalarning diqqatini bir joyga to`play olmaslik, qaysarlik, aytgan ishini bajarmaslik kabi bolalar ustidan qilgan shikoyatlarini keltirish mumkin. Taraqqiyotning normativligi tamoyili bilan "yuqoridan pastga" tuzatish tamoyili uzviy bog`langan. Bu tamoyilda bola psixik taraqqiyoti uchun ta'limning yetakchi roli e'tiborga olinadi. "Pastdan -yuqoriga" tuzatish tarafdorlari tuzatish ishlarining asosiy mazmuni sifatida boladan mavjud psixologik qobiliyatlarni mashq qildirishni ko`rsatadi. Bu yerda ta'lim taraqqiyotdan keyin keladi.

Rivojlanish normativligi deganda ontogenetik taraqqiyotning yosh bosqichlari, ularning bir birlarining o`rnini izchil egallashlari jarayoni nazarda tutiladi. «Psixologik yosh» L.S.Vi`gotskiy tomonidan kiritilgan tushunchadir. Bu shaxs tuzilishini, uning faoliyatini shunday yangi toifasiki, u bolaning ongini, muhitga bo`lgan munosabati, uning ichki va tashqi olamini, ayni vaqtdagi rivojlanishini asoslab, aniqlab beradigan psixik va ijtimoiy o`zgarishlardir.

Shunday qilib, bolaning rivojlanish darajasini yosh me'yorlariga mos kelishini baholashda va korreksion maqsadlarni belgilashda quyidagi harakteristikalarni inobatga olish zarur:

168

4.Korreksiyaning “yuqoridan pastga” tamoyili

L.S.Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan ushbu tamoyil korreksion ish yo`nalishini ochib beradi. Psixologning diqqat markazida rivojlanishning ertangi kuni turadi, korreksion faoliyatning asosiy mazmuni: mijoz «taraqqiyotining istiqbolli hududi»ni yaratishdir (bunday mijozlar L.S.Vigotskiyda bolalar edi). «Yuqoridan quyiga» tamoyiliga binoan korreksiya ilgarilab boruvchi harakterga ega bo`lib, u yangi psixologik hosilalarni o`z vaqtida shakllantirishga yo`naltirilgan psixologik faoliyat sifatida tuziladi.

5.Korreksiyaning “pastdan yuqoriga” tamoyili

Ushbu tamoyil amalga oshirilayotganda korreksion ishning asosiy mazmuni sifatida mavjud psixologik qobiliyatlar zahirasini ishga solish nazarda tutiladi. Bu

“Yuqoridan pastga” tamoyilining asosiy mazmuni

mijoz «taraqqiyotining istiqbolli hududi»ni yaratish

169

tamoyil, asosan, bixevioristik yondashuv tarafdorlari tomonidan amalga oshiriladi. Ularning nuqtai-nazariga ko`ra xulq-atvor korreksiyasi, ijtimoiy ma'qullangan xulqni mustahkamlash va ijtimoiy noma'qul fe'l-atvorni tormozlash maqsadida, avvaldan mavjud bo`lgan xulqiy andozalarni (xoh ijobiy bo`lsin, xoh salbiy) kuchaytirish orqali amalga oshirilishi lozim.

Korreksiya markazida xulqning murakkablashuvi va modifikatsiyalashuvi, xulqiy repertuarda mujassam reaksiyalar kombinatsiyasi sifatida tushuniladigan psixik rivojlanishning mavjud darajasi turadi.

6.Psixik faoliyat taraqqiyotining tizimlilik tamoyili

Bu tamoyil korreksion ishda rivojlantiruv va profilaktik vazifalarni hisobga olish zaruriyatini tug`diradi. Mazkur vazifalar tizimliligi shaxs turli jihatlarining o`zaro bog`liqligini va ularning rivojlanishi geteroxronligini (birday emasligi) aks

ettiradi. Shaxs rivojlanishining hamma jihatlari psixika tuzilishining tizimliligi tufayli o`zaro bog`liq. Korreksion rivojlantiruv faoliyatning maqsad va vazifalarini belgilashda faqatgina bugungi kunda dolzarb bo`lgan muammolar bilan cheklanmasdan keyingi rivojlanishni ham hisobga olish kerak. Vaqtida ko`rilgan choralar rivojlanishdagi turli og`ishlarning oldini oladi.

Korreksion ishning strategiyasini aniqlashda rivojlanishning tizimlilik tamoyili «yuqoridan quyiga» korreksion tamoyil bilan uzviy bog`liq ekanligini ko`ramiz: tekshiruv paytiga bola erishgan taraqqiyot darajasining tizimli tahlili taraqqiyotning istiqbolli hududini belgilovchi, alohida rivojlanish bosqichlarida shakllangan psixik faoliyat ko`rinishlarining mavjud ierarxiyasini aks ettiruvchi taraqqiyotning markaziy chegarasi nuqtai nazaridan amalga oshiriladi.

«Quyidan yuqoriga» korreksion
tamoyilining asosiy vazifasi
xulq-atvorning berilgan modelini turli yo’llar bilan
aniqlash va zudlik bilan mustahkamlash

170

7.Korreksiyaning faoliyatli tamoyili

Ushbu tamoyil korreksion urinishlarning tatbiq predmetini, maqsadga erishish usullari va vositalarini tanlashni, korreksion ishni o`tkazish taktikasini, qo`yilgan maqsadlarni amalga oshirish yo`llari va usullarini belgilaydi.

Korreksion-rivojlantiruv ta'sirning asosiy usuli sifatida mijozning aktiv faoliyatini tashkillashtirish nazarda tutiladi. Shaxs rivojlanishida ijobiy o`zgarishlar uchun zarur bo`lgan asos yaratiladi.

Mazkur tamoyilga ko`ra korreksion ishning asosiy yo`nalishi bo`lib mijozda predmetli faoliyatning turli jabhalariga: shaxslararo munosabatlar, pirovardida, taraqqiyotning ijtimoiy vaziyatiga doir, xususiy yo`nalishning umumlashgan uslublarini maqsadga muvofiq ravishda shakllantirish ilgari suriladi.

Bolalar bilan bo`lgan korreksion ishda «yetakchi faoliyat» tushunchasi ishlatiladi. Maktabgacha va boshlang`ich maktab yoshida bunday faoliyat o`yin, o`smirlik yoshida muloqot va hamkorlikdagi faoliyatdir.

Korreksiyaning faoliyatga doir tamoyili: birinchidan, korreksion urinishlarning tadbiq predmetini aniqlab bersa, ikkinchidan, xususiy yo`nalishlarning umumlashgan usullarini shakllantirish yo`li bilan yoshga xos faoliyat ko`rinishlarini uyushtirish orqali korreksion metodlarni belgilaydi.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

1.Psixokorreksion faoliyat tamoyillariga nimalar kiradi?
2. Diagnostika va korreksiyaning birligi tamoyilining mohiyati nimadan iborat?
3.Taraqqiyotning normalligi tamoyili nimani anglatadi?
4.Korreksiyaning “yuqoridan pastga” tamoyilining mazmuni qanday?
5.Korreksiyaning “pastdan yuqoriga” tamoyili haqida tushuncha bering.
6.Psixik faoliyat taraqqiyotining tizimlilik tamoyilining mohiyati nimadan iborat?
7.Korreksiyaning faoliyatli tamoyili nimani anglatadi?

Mavzu yuzasidan test savollari:

1.Korreksion ta'sir ko`rsatishda kasbiy tayyorlikning asosiy mezonlari nimalardan iborat?
A.Nazariy mezon.
B.Amaliy mezon.

171

S.Shaxsiy tayyorlik.
D. A,B javoblar.

*E. Barcha javoblar to`g`ri.
2.Professional tayyorlikga qanday yondashuvlar mavjud?
A.Bir nazariyaga tayanib ishlash, bir hil yondashuv.
B.Eklektizm – turli nazariyalarga yondashish.
S.Umumiy yondashuv.
D. A,B javoblar.
*E. Barcha javoblar to`g`ri.
3.Korreksion ish amaliyotida rivojlanishdagi qiyinchiliklar sabablarini tushuntiruvchi qanday modellar mavjud?
A.Biologik model, tibbiy model.
B.Tibbiy model, interaksionistik model.
S.Interaksionistik model,pedagogik model.
D. Pedagogik model, biologik model.
*E. Barcha javoblar to`g`ri.
4.Korreksion ish amaliyotida og`ishlarning kelib chiqishini organik yetilish tempining sekinlashuvi bilan izohlaydigan modelni aniqlang.
*A.Biologik model.
B.Tibbiy model.
S.Interaksionistik model.
D. Pedagogik model.
E. Barcha javoblar to`g`ri.
5.Korreksion ish amaliyotida tibbiy modelning mohiyati nimadan iborat?.
A.Og`ishlarning kelib chiqishini organik yetilish tempining sekinlashuvi bilan izohlaydi.
*B. rivojlanishdagi og`ish, qiyinchiliklar va muammolarni anomal rivojlanish sohasiga olib chiqadi.
S. taraqqiyot muammolarini vujudga kelishida shaxs va muhit o`rtasidagi o`zaro ta'sirlarning buzilishi, xususan, bolaning sensor va ijtimoiy deprivatsiyasi oqibatlarini alohida qayd etib o`tadi.
D. og`ishlarning sababini pedagogik va ijtimoiy qarovsizlikda ko`radi.
E. Barcha javoblar to`g`ri.
172
6.Korreksion ish amaliyotida taraqqiyot muammolarini vujudga kelishida shaxs va muhit o`rtasidagi o`zaro ta'sirlarning buzilishi, xususan, bolaning sensor va ijtimoiy deprivatsiyasi oqibatlarini alohida qayd etib o`tuvchi modelni aniqlang.
A.Biologik model.
B.Tibbiy model.
*S.Interaksionistik model.
D. Pedagogik model.
E. Barcha javoblar to`g`ri.
7. Fransuz maktab psixologiyasining otasi kim?
A. Ayzenk.
B. Zazzo.
S. K.Levin.
*D. A.Bine.
E. Simon.
8. A.Bine psixologik xizmat sohasida nechanchi yili ish boshlagan?
A. 1960.
B. 1970.
S. 1870.
D. 1884.
*E. 1894.
9. Fransiyada psixologik-pedagogik yordam guruhlari qachon tashkil etildi?
A. 1960.
B. 1950.
*S. 1970.
D. 1980.

E. 1990.
10. Maktabgacha tarbiya muassasasidagi psixologga ota-onalarning birinchi guruh murojaati nimadan iborat?
A.Oilaviy sharoitini qanday qilib yaxshilash bo`yicha murojaat.
B.Oilaviy munosabatlarni qanday qilib yaxshilash bo`yicha murojaat.
*S.Bolalarning psixik va aqliy rivojlanishini aniqlash uchun murojaat.
D.Guruhdagi shaxslararo munosabatni aniqlash uchun murojaat.
E.Farzandlariga qanday munosabatda bo`lish kerakligi bo`yicha murojaat
173

10-BOB. PSIXOKORREKSION DASTUR TUZILISHIGA QO`YILADIGAN TALABLAR VA ULARNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Reja:
1.Psixokorreksion dastur tuzishning asosiy tamoyillari.
2.Korreksion, profilaktik va rivojlantiruvchi topshiriqlarning tizimlilik tamoyili.
3.Korreksiya va diagnostikaning birligi tamoyili.
4.Kauzal tipdagi korreksiyaning qarama-qarshilik tamoyili.
5.Korreksiyaning faoliyatli tamoyili.
6.Mijozning yosh-psixologik, individual xususiyatlarini inobatga olish tamoyili.
7.Psixologik ta’sir metodlarining komplekslilik tamoyili.
8.Korreksion dasturda ijtimoiy muhitdagi yaqin kishilarning faol ishtirokini ta’minlash tamoyili.
9.Psixik jarayonlarning notekislik darajasi tamoyili.
10.Ta’limni dasturlashtirish tamoyili.
11.Yoshga oid qiyinchiliklar tamoyili. Ma’lumotlarning hajmi va murakkablik darajasini inobatga olish tamoyili.
12.Ma’lumotlarning emotsional qiyinlik darajasini inobatga olish tamoyili.
**Mavzuning o`quv maqsadi:** talabalarni psixokorreksion dastur tuzilishiga qo`yiladigan talablar va ularning o`ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish.
Darsning vazifasi:Talabalarning psixokorreksion dastur tuzishning asosiy tamoyillari to`g`risidagi bilimlarini rivojlantirish.
Tayanch tushunchalar:
Psixologik xizmat, psixokorreksion dastur, psixologik korreksiya, psixologik korreksiya tamoyillari, Kauzal tipdagi korreksiya.

1.Psixokorreksion dastur tuzishning asosiy tamoyillari

Mehnatni ko`p talab etadigan psixologning tuzatish ishi – ota-onalar, o`qituvchilar, tarbiyachilar va bolalar guruhi yoki individual bir bola bilan hamkorlikda olib boriladi. Ishning ana shu turi ancha mehnat, vaqt, ko`p metod va metodikalarni qo`llashni talab etsa ham ancha natijali hisoblanadi.
Psixokorreksion dasturlarni tuzishda quyidagi holatlarni hisobga olish zarur:
- Korreksion ishning aniq maqsadini belgilash.
174
- Korreksion ishning konkret maqsadini aniqlovchi vazifalarni aniqlash.
- Ishning formasini aniqlash (individual, guruhiy yoki aralash).
- Metodika va texnikani ishlab chiqish.
- Korreksion ishga ketadigan umumiy vaqtni aniqlash.
- Uchrashuv kunlarini belgilab olish.
- Vaqtini aniqlash (boshida 10-15 minut, oxirida 1,5-2 soat)
- Korreksion dasturni ishlab chiqish va mazmun mohiyatini belgilab olish.
- Korreksion ishda yaqin qarindoshlarining qatnashuvini belgilash.
- Korreksion dasturni boshlashda dinamika va o`zgartirishlar bo`lishi yoki bo`lmasligini belgilash.

Korreksion tadbir so`ngida korreksion dasturning samaraliligi, maqsad va vazifalarining bajarilganligiga baho beruvchi xulosa hisobot tayyorlanadi. Psixokorreksion tadbirlarning samaraliligini baholash quyidagicha mezonda aniqlanadi:
A) rivojlanishdagi qiyinchilikning yechilishi, barham topishi.
B) maqsad va vazifalarning belgilanishi korreksion mahsuldorligi uzoq muddatdan so`ng ish davom etayotganda, oxirida aniqlanadi.
Korreksion dastur muammoning butunlay hal bo`lishini oldiga maqsad qilib qo`ymaydi, balki samarali ish olib borishda muammolarning yo`qolishi va yechilishiga har tomondan baho berilayotganiga ham qaraladi.
Masalan: mijoz uchun dasturda ishtirok etayotgan vaqtda uning emotsional holatining yaxshilanishi, ijobiy his qilishi bilan belgilanadi.
Psixolog uchun korreksion dastur tashkil etilishi, majburiyatni his etishi oldiga qo`yilgan vazifani bajarilishi bilan aniqlanadi.
Mijozning yaqinlari uchun esa, mijozda paydo bo`lgan muammoning qay tarzda ijobiy hal etilganligi bilan aniqlanadi. Korreksion dasturlarning ijobiy ta'sir doirasi uning intensivligidadir.
Korreksion mashg`ulotlar 1-1,5 soatdan oshmasligi, olib borilayotgan o`yinning ma'no jihatdan o`ylanganligi bilan ham bog`liq. Mashg`ulotlar tugagandan keyin ham iloji boricha mijozning taraqqiy etishi bilan qiziqib borish, muloqotni yo`qotmaslik

bir, ikki oyda bir marotaba uchrashi lozim. Korreksion dasturlar qancha erta aniqlanib ish boshlansa shuncha tez samara beradi.
Psixologik korreksiya dasturlarini tuzishda quyidagi asosiy tamoyillarga tayanish zarur:
1. Korreksion, profilaktik va rivojlantiruvchi masalalar tizimliligi tamoyili.
2. Korreksiya va psixologik diagnostikaning birligi tamoyili.
3. Kauzal ko`rinishdagi korreksiyaning ustivorligi.
4. Korreksiyaning faoliyatga doirligi tamoyili.
5. Mijozning yoshga doir psixologik va individual xususiyatlarini inobatga olish tamoyili.
6. Psixologik ta'sir ko`rsatish metodlarining kompleksliligi tamoyili.
7. Korreksiyaga mijozning ijtimoiy muhitidagi yaqin kishilarni jalb etish tamoyili.
8. Psixik jarayonlar tuzilmasining turli darajalariga tayanish tamoyili.
9. Dasturlashtirilgan ta'lim berish tamoyili.
10. Murakkablikka tadrijiy o`tish tamoyili.
11. Berilayotgan materialning hajmi va murakkablilik darajasini hisobga olish tamoyili.
12. Materialning emotsional murakkabligini inobatga olish tamoyili.

2.Korreksion, profilaktik va rivojlantiruvchi topshiriqlarning tizimlilik tamoyili

Bu tamoyil har qanday korreksion ishda 3 ko`rinishdagi masala mavjudligini ta'kidlaydi, ya'ni korreksion, profilaktik va rivojlantiruvchi. Bunda bola shaxsining har tomonlama rivojlanishidagi bog`liqlik va notekislik borligini anglatadi. Tushunarliroq aytadigan bo`lsak, har qaysi bola rivojlanishning turli bosqichlarida bo`ladi, ya'ni: juda yuqori pog`ona − rivojlanish normada, past pog`ona – rivojlanishda psixik qiyinchiliklar borligini anglatadi. Bunda notekis rivojlanish

qonuniyati kelib chiqadi. Shaxsga doir taraqqiyotning ayrim jihatlarini sustlashuvi bola intellekti rivojini ortda qolishi yoki boshqa qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Masalan: bilish va o`qish motivlarining sust rivojlanganligini pirovard natijasida boladagi mantiqiy operatsional intellekt ortda qoladi. Shuning uchun korreksion
176
rivojlantiruvchi programmalar masala va maqsadini aniqlaganda hozirgi kundagi aktual muammolar bilan cheklanmay rivojlanishning yaqin prognozlaridan ham foydalanish kerak.
Bolaga o`tkaziladigan har qanday psixologik ta'sir faqatgina ortda qolgan bosqichni korreksiya qilishgagina qaratilgan bo`lmay, ortda qolishni oldini olishga, uyg`un rivojlanishga yo`l ochishga qaratilgan bo`lishi lozim.
Xulosa qilib aytganda, korreksion rivojlantiruvchi dastur 3 ta vazifani bajarishi lozim:
- Korreksion buzilish va ortda qolishni tuzatish.
- Profilaktik – buzilish va ortda qolishni oldindan aniqlash.
- Rivojlantiruvchi – taraqqiyot mazmunini boyitish, optimallashtirishga qaratilganlik.

Shu 3 ta dasturlarning birgalikda olib borilishi kutilgan natijalarni berishi mumkin.

3.Korreksiya va diagnostikaning birligi tamoyili

Bu tamoyil amaliy psixolog ishi sifatidagi mijozni rivojlantirish va unga psixologik yordam berish alohida, yaxlit jarayon ekanini aks ettiradi.
Korreksiya va psixologik diagnostika birligi tamoyili psixologik amaliyotning o`ziga xos fenomeni sifatida psixologik yordam ko`rsatish jarayoni yaxlitligi, mujassamlashganligini aks ettiradi. Korreksion faoliyat samaradorligining to`qson foizi avval amalga oshirilgan psixologik diagnostika jarayonining chuqurligi, jiddiyligi bilan belgilanadi. Ushbu tamoyil mohiyati I.V. Dubrovina, D.B. Elkonin va boshqalarning asarlarida batafsil yoritib berilgan.
Psixodiagnostika psixologik diagnoz qo`yish haqidagi fandir. Bunda diagnoz ko`rsatkich va tavsifnomalarni birgalikda tahlil qilish asosida sinaluvchining holati va xususiyatlari haqidagi xulosalardan iborat. Psixologik diagnoz (diagnosis - grekcha, aniqlash, bilish degan ma'nolarni anglatadi) shaxs individual-psixologik xususiyatlarining hozirgi holatiga baho berish, rivojlanishini oldindan aytib berish (prognoz qilish) va psixodiagnostik tekshiruv vazifalardan kelib chiqib, tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan psixolog faoliyatining so`nggi natijasidir.
177
Bolalarni psixodiagnostik tadqiq qilish yosh xususiyatlariga, u yoki bu yosh davri uchun yetakchi faoliyat turining ta'siriga, individual tipologik tavsifnomalarning taraqqiyot darajasiga bog`liq ravishda ba'zi xususiyatlarga ega. Bola taraqqiyotining har bir yosh davri bolalar bilan ishlashning usullari va metodlarini, eksperimental tadqiqotning o`z maqsadlari va vazifalarini talab qiladi.
Kichik yoshdagi bolalarni psixodiagnostik tekshiruv yosh va pedagogik psixologiyaning sohasi hisoblanadi. Olingan natijalar yordamchi xarakterga ega bo`lib, pedagog tomonidan bola psixik taraqqiyoti xususiyatlarini aniqlashda qo`llaniladi. Bunda ta'lim va tarbiya dasturi, turli hayotiy sharoitlarda (faoliyatda, muloqotda va boshqalarda) shaxs xulq-atvori xarakteristikalarini tuzishda hisobga olinadi. Eksperimental tadqiqotdan olingan natijalar oilada, bog`chada, maktab va

boshqa jamoat joylarida individual va guruhiy tarbiyaviy-pedagogik tadbirlar sxemasi tuzishda qo`llanilishi mumkin. O`qituvchi o`z ishida doimo bolalar psixofiziologik masalalari bilan to`qnashadi. Uni vaqtinchalik natijalargina emas (masalan, chorakning oxiriga kelib o`quvchilarning o`zlashtirishi kabi), balki u yoki bu jismoniy va ruhiy sifatlarning rivojlanish istiqbollarini aytib beradigan natijalar qiziqtiradi.

Psixologik korreksiya, yuqorida ta'kidlaganimizdek, mijozning qabul qilingan me'yorlarga mos kelmaydigan psixologik rivojlanish xususiyatlarini «to`g`rilashga» qaratilgan mutaxassis faoliyatini aks ettiradi.

G.S.Abramova fikricha, shaxsiy psixologik korreksiya odamning ichki dunyosini diskret tavsifiga (psixologning) asosli tasir qilishidir.

Psixokorreksiyaning asosiy maqsadi mijozning yosh va tur xususiyatlaridan, uning sub'ektiv voqeligidan kelib chiqib shaxsiga doir resurslarini faollashtiruvchi va me'yorga mos keluvchi holatga olib kelishdir.

Psixokorreksiyalovchi ta'sirning asosiy quroli sifatida psixolog ilgari suriladi, korreksion jarayon psixolog - mijoz juftligida kechadi. Mazkur jarayonni aks ettiruvchi to`rtta asosiy strategiya mavjud:

178

Psixokorreksiyaning so`ngi vazifalari uchta asosiy sohalardagi istalgan o`zgarishlarga erishishdir:

- kognitiv;
- emotsional (his- tuyg`u);
- o`zini tuta bilish.

Shaxsiy psixokorreksiyaning hususiyatlarini hisobga olib mazkur uchta alohida sohalarning har birida aniq vazifalarni qo`yish mumkin.

Kognitiv soha:

1) o`z xulq-atvori, munosabati, reaksiyasi sababini anglash;
2) his-tuyg`u va xulq-atvor stereotiplarni anglash;
3) psixologik omillar va somatik buzilishlar orasidagi bog`liqlikni anglash;
4) mojarolar va ruhiy jarohatlovchi vaziyatlarni kelib chiqishida o`zining roli va javobgarligini his qilishi;
5) munosabat usullarini, o`zining munosabati shakllanishi sharoitlarini anglashi.

Emotsional sohada:

1) mijozning mutaxassis tomonidan emotsional qo`llab-quvvatlanishi;
2) mijoz o`z tuyg`ularini anglashi va yuzaga chiqarishi;
3) o`ziga nisbatan yanada samimiy munosabatni shakllantirish;

179

4) boshdan o`tkazish va emotsional munosabatlar usullarini o`zgartirish;

O`zini tuta bilish, xulq- atvor- sohasi:

1) mijozdagi noadekvat reaksiyalarni korreksiyalash;
2) xulq- atvorning effektiv usullarini o`zlashtirishdan iborat.

4.Kauzal tipdagi korreksiyaning qarama-qarshilik tamoyili

Yo`nalishiga qarab korreksiyaning ikki toifasi farqlanadi: simptomatik va kauzal. Simptomatik korreksiya mazkur taraqqiyot qiyinchiliklarining tashqi alomatlarini bartaraf etishga qaratilsa, kauzal toifadagi korreksiya mazkur muammolarni vujudga keltirayotgan sabablarni yo`q qilishga qaratiladi. Ikkinchi toifadagi korreksiya o`z ustivorligini yo`qotmasligi lozim.

Kauzal korreksiya (lot. Causa − sabab) quyagilarga asoslanadi:
1) Insonga o`zini va o`zgalar xulq-atvorini asoslashda tizimli farqlash;
2) sub'ekt tomonidan o`zgarlar xulq-atvori motivlari va sabablarini tahlil qilinishini bartaraf etish;
3) muvaffaqiyatsiz natijalarni inson faoliyatining tashqi omillari, muvaffaqiyatlilari ichki omillari natijasida yuzaga kelishiga undagan holda motivatsiya va faoliyatga ta'sir o`tkazish.
Hozirgi kunda sabab-oqibat aloqadorligi qonuniyatlariga asoslangan holda insonning emotsional holati, motivatsion va faoliyat sohasiga ta'sir ko`rsatuvchi kauzal korreksiyaning amaliy tadbiqi natijasida yangi yo`nalishlar vujudga kelmoqda.

5.Korreksiyaning faoliyatli tamoyili

Korreksiyaning faoliyatga doir tamoyili: birinchidan, korreksion urinishlarning tadbiq predmetini aniqlab bersa, ikkinchidan, xususiy yo`nalishlarning umumlashgan usullarini shakllantirish yo`li bilan yoshga xos faoliyat ko`rinishlarini uyushtirish orqali korreksion metodlarni belgilaydi.
Mazkur tamoyilning nazariy asoslari A.N.Leontev, D.B.Elkonin asarlarida ishlab chiqilgan. Uning diqqat markazida bolaning psixik taraqqiyotida faoliyatning alohida o`rni mavjudligi turadi.
A.N.Leontev faoliyatning psixologik nazariyasini yaratib, uning asosiy tushunchasi sifatida "predmetli faoliyat" so`z birikmasini fanga olib kirdi. Muallif

tomonidan "odamning hissiy amaliy faoliyati" so`z birikmasi "ijtimoiy inson" sifatida talqin etiladi. Uning asarlarida "faoliyat", "xulq" tushunchalari har xil mazmunda ishlatiladi, jumladan, "teskari aloqalar vositasida xulqni boshqarish", "faoliyatning halqali tuzilishi", "faoliyatni boshqarish", "qo`lning tuyush faoliyati", "perseptiv faoliyat", "retseptor va effektor apparatlarning hamkorlik faoliyati" kabilar.
Ushbu tamoyil korreksion urinishlarning tatbiq predmetini, maqsadga erishish usullari va vositalarini tanlashni, korreksion ishni o`tkazish taktikasini, qo`yilgan maqsadlarni amalga oshirish yo`llari va usullarini belgilaydi.

6.Mijozning yosh-psixologik, individual xususiyatlarini inobatga olish tamoyili

Mijozning yosh-psixologik va individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili mijozning psixik va shaxs rivojlanishining normativ taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mijoz xususiyatlarini hisobga olish, uni o`z yo`lini o`zi belgilashiga yo`l ochadi.
Psixokorreksiyaning asosiy maqsadi mijozning yosh va tur xususiyatlaridan, uning sub'ektiv voqeligidan kelib chiqib shaxsiga doir resurslarini faollashtiruvchi va me'yorga mos keluvchi holatga olib kelishdir.
Fransuz psixologi E.Dyurkgeym, ulg`ayish – kishilarning his-tuygularni o`zlashtirishi ekanligini, shu bois, idrok qilingan tasavvurlar bolaning ruhiy faoliyatini ifodalashini, bolaning tajriba, an'ana, urf-odatlarni taqlid orqali egallashini, biologiyada irsiyat qanchalik ahamiyatli bo`lsa, taqlid ham jamiyatda shunday o`rin tutishini uqtiradi.
Shaxs tarkib topish jarayonining psixologik qonuniyatlarini, uning ilmiy asoslarini mukammal bilmay turib, psixokorreksiyon faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirib bo`lmaydi.

7.Psixologik ta’sir metodlarining komplekslilik tamoyili

Metodlardan kompleks ta'sir etish tamoyili korreksion ta'sir ko`rsatish programmalarini tuzishda amaliyotchi-psixolog turli metodlar va texnikalardan foydalanishi lozimligini e'tirof etadi. Ko`pgina chet el psixologlari tomonidan tadbiq
181
etilgan metodlar psixoanaliz, bixeviorizm, gumanistik psixologiya, geshtaltpsixologiya kabi ilmiy maktablarning nazariy negizlarini ochib beradi. Lekin hech qaysi metodika va texnika bittagina nazariyaga bog`langan emas.
Psixodinamik yo`nalishda asosan mustaqil asotsiatsialar, ko`chirish va qarshilik reaksiyalarini tahlili, tush ko`rish tahlili hamda kutilmagan xattiharakatlar tahlilini o`z ichiga olgan verbal usullardan iborat metodlardan foydalaniladi.
Kognitiv xulq-atvor yo`nalishida faoliyat ko`rsatayotgan psixologning asosiy vazifasi diagnostik-o`qituv hisoblanadi.
Transakt analiz esa quyidagilarni o`z ichiga oladi:
− Tizimli tahlil – shaxs tizimi taxlili.
− Transaksiyalar analizi – odamlar orasidagi verbal va noverbal o`zaro ta'sir (munosabat)lar.
− Yutuqqa – hoxlangan natijaga olib keluvchi yashirin transaksiyalar, psixologik o`yinlar analizi.
− Inson o`zi hoxlamagan holda rioya qiluvchi stenariy − individual xayotiy stenariy analizi (skript - analiz).
Geshtaltkorreksiyada psixousullarga katta etibor qaratiladi. Ular o`yin va eksperimentlar deb nomlanib, geshtaltkorreksiyaning keng tarqalishida o`yinlar katta ahamiyatga ega.
Mijoz bilan ishlashda amaliyotchi-psixolog turli metodlar va texnikalardan foydalanishi korreksion ishning muvaffaqiyatini taminlaydi.

8.Korreksion dasturda ijtimoiy muhitdagi yaqin kishilarning faol ishtirokini ta’minlash tamoyili

Bu tamoyilda mijozning psixik taraqqiyoti uning atrofidagilarning roli bilan belgilanishi mumkinligini e'tirof etadi. Bola o`z yonidagi kattalar bilan aloqador holda, birgalikdagi faoliyati orqali baholanadi. Zotan bola tevarak-atrofdagilardan ajralgan holda emas, balki ular bilan birgalikda rivojlanadi.
182
Shaxs jamiyatning a’zosi, ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning sub’ekti bo`lmish individdir. Shaxsning boyligi, uning hayotga faol munosabati, boshqa kishilar bilan bo`ladigan aloqalarining turli-tumanligiga bogliq bo`ladi.
Har-bir bola yashaydigan ijtimoiy muhit bir emas, balki bir necha qavatdan (zonadan) iborat. Eng yaqin va birinchi qavat oilaviy muhitdir.Oilaga qaraganda kengroq qavatni bolanig qarindoshlari tashkil etadi. Va nihoyat, eng keng qavatijtimoiy muhit hisoblanadi. Undan tashqari bevosita xatti-harakat namunalari alohida kishilarning mulohazalari orqali emas, balki kitob va gazeta, radio, kino, televideniye, jamiyatda o`rnatilgan qonun-qoidalar, odamlar, axloqiy talablar, ma’naviyat, milliy qadriyatlar orqali amalga oshiriladi.
Korreksion dasturda ijtimoiy muhitdagi yaqin kishilarning faol ishtirokini ta’minlash bolaning o`zini xotirjam his qilishiga yordam beradi.

9.Psixik jarayonlarning notekislik darajasi tamoyili

Psixik jarayonlar tuzilmasining turli darajalariga tayanish tamoyili korreksion dasturlarni tuzishda yaxshi taraqqiy etgan psixik jarayonlarga suyanish va ularni aktivlashtiruvchi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqligini ko`rsatadi.
Psixokorreksion ishlarda mijoz psixologik ta'siridan so`ng quyidagilarga qarab baholanadi:
Psixologik ta'sir samarasini belgilashda psixofiziologik metodlardan foydalanish mumkin. Ular insonning vegetativ-somatik fiziologik va psixik funksiyalarini baholaydi. Psixokorreksion ta'sirning samaraliligi kriteriysi har bir shaxsdagi salbiy o`zgarishlarni aynan uni o`ziga xos ekanligini hamda tanlangan psixokorreksion metodlar ta'siri shu o`zgarishlarga qaratilganligini hisobga olish bilan bog`liqdir.
183

10.Ta’limni dasturlashtirish tamoyili

Avval psixolog bilan birgalikda, keyinchalik mustaqil ravishda bajarish orqali zaruriy malakalarni shakllantiruvchi bir qator izchil muolajalardan iborat dasturlar yaxshi samara beradi.
Korreksion ta'sir etishdan avval aniq korreksion ta'sir etish modelini tuzish lozim: umumiy, tipik (odatiy), individual.
Korreksiyaning umumiy modeli – bu har bir shaxs taraqqiyoti bir butun olingan shartlar tarmog`idir, deydi. U insonning tevarak-atrof, uni o`rab turuvchi dunyo haqidagi farazlarini chuqurroq, haqqoniy, kengroq bo`lishiga, insonlar haqida, ular orasidagi munosabat, jamiyatdagi o`zgarishlar, ularning faoliyatlarini analiz qila olish, kuzata olishiga sharoit yaratadi. Korreksiyaning bu modelida mijozning sog`lig`i, mashg`ulotning vaqti aniq belgilab olinadi.
Korreksiyaning tipik (odatiy) modeli – amaliy harakatlarni uyushtirishning turli negizlariga asoslanadi; harakatlarning turli komponentlarini o`zlashtirishga va turli harakatlarni tadrijiy ravishda shakllantirishga qaratilgan.
Korreksiyaning individual formasi o`z ichiga mijozning o`ziga xos bo`lgan individual tomonlarini hisobga oladi – uning qiziqishlari, psixik taraqqiyoti, o`rgana olish qobiliyatlari kabi.
Standartlashtirilgan va erkin korreksion dasturlar mavjud:
1) Standartlashtirilgan dasturda korreksiyaning har bir bosqichida materiallar, qatnashchilarga qo`yiladigan talablar aniq belgilangan bo`ladi.Korreksion ishni boshlashdan avval psixolog material berilishida mijozning kuchi va idrokini hisobga olgan bo`lishi kerak.
2) Erkin dastur – bunda psixolog dasturni o`zi tuzadi. Maqsad va vazifalarining bosqichlarini, bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o`tishini o`zi belgilaydi.
Markazlashtirilgan ta'sir kompleks psixokorreksion bloklardan iborat. Har bir blok aniq metod va usullardan tashkil topgan.
Bular:
1) Diagnostik blok. Maqsadi: shaxs rivojlanishining differensial diagnostikasi, havfli faktorlarni aniqlash, psixokorreksion dasturlarning umumiy shakli.
184
2) Belgilovchi blok. Maqsad: o`ziga bo`lgan ishonchni, muloqotga kirishishga ishtiyoqni uyg`otish, qo`rquvni kamaytirish va o`z hayotiga o`zgarishlar kiritishga xohish uyg`otish.
3) Korreksion blok. Maqsad: mijoz taraqqiyotini optimallashtirish va garmonizatsiyalash, salbiy taraqqiyot fazasidan ijobiysiga o`tish, o`zi va dunyo bilan

hamohang faoliyat o`rnata olishga o`rganish.
4) Korreksion ta'sirning effektivliligini baholovchi blok.Maqsad: reaksiyalarning dinamikasi va psixologik mazmuniga baho bera olish,o`z-o`ziga bergan bahoni barqarorlashtirish.

11.Yoshga oid qiyinchiliklar tamoyili. Ma'lumotlarning hajmi va murakkablik darajasini inobatga olish tamoyili

Bu tamoyilda korreksion ishlar tadrijiyligi nazarda tutilgan. Mazkur tamoyil mijozning o`zi bajarayotgan ishidan zavqlana olishiga va korreksion ishga uning qiziqishini orttirishga yordam beradi.
Korreksion dasturni amalga oshirishda ya'ni materialning yangi hajmini berishdan oldin u yoki bu ko`nikma va malakalarni nisbatan shakllanganligiga e'tibor berish lozim.
Psixokorreksiya samaraliligini aniqlovchi omillar quyidagilardan iborat:
185
Psixokorreksiyaning samarasi konkret metod va ta'sir etuvchi xususiyatdan aniqlanadi.

12.Ma'lumotlarning emotsional qiyinlik darajasini inobatga olish tamoyili

O`tkazilayotgan o`yinlar, mashg`ulotlar, taklif etilayotgan material yaxshi emotsional fonni vujudga kelishiga yordam berishi kerak. Korreksion mashqlar ijobiy emotsional fon bilan yakun topishi maqsadga muvofiqdir.
Psixokorreksion yordamning samaraliligiga baho berish borgan sari aktuallashmoqda. Bu psixologning ta'sir eta olishi va korreksion ishning sifatliligidandir.
Ishning samaraliligini baholashda aniq metodni belgilab olish zarur. Korreksion ishda ma'lum bir metodni oldindan tanlash qiyin, chunki ish faoliyatida psixologlar turli metodlardan foydalanadilar. Hatto bir metod har xil mutaxassisda har xil natija beradi.Ishning bahosini bu metoddan xabari bo`lmagan ekspert berishi zarur.Psixologning tarbiyaviy-ta'limiy sifatini, kasbiga bo`lgan qiziqishini hisobga olish kerak.
Guruhiy korreksion ishda psixologning professional bo`lishi katta ahamiyatga ega.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

1.Psixokorreksion dastur tuzishning asosiy tamoyillariga nimalar kiradi?
2.Korreksion, profilaktik va rivojlantiruvchi topshiriqlarning tizimlilik tamoyilining mohiyati nimadan iborat?
3.Korreksiya va diagnostikaning birligi tamoyili nimani anglatadi?
4.Kauzal tipdagi korreksiyaning qarama-qarshilik tamoyili mazmunan qanday?
5.Korreksiyaning faoliyatli tamoyili haqida tushuncha bering.
6.Mijozning yosh-psixologik, individual xususiyatlarini inobatga olish tamoyili nimani anglatadi?
7.Psixologik ta'sir metodlarining komplekslilik tamoyili mohiyatan nimadan iborat?
8.Korreksion dasturda ijtimoiy muhitdagi yaqin kishilarning faol ishtirokini ta'minlash tamoyiliga nimalar kiradi?
9.Psixik jarayonlarning notekislik darajasi tamoyilining mazmuni qanday?
10.Ta'limni dasturlashtirish tamoyili haqida tushuncha bering.
11.Yoshga oid qiyinchiliklar tamoyili va ma'lumotlarning hajmi hamda murakkablik darajasini inobatga olish tamoyili deganda nima tushunasiz?
186
12.Ma'lumotlarning emotsional qiyinlik darajasini inobatga olish tamoyilio`z ichiga nimalarni oladi?

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Psixokorreksiya samaraliligini aniqlovchi omillar nimalardan iborat?
1) Mijozning kutgan natijasi.
2) Mijozni mavjud bo`lgan muammolaridan xalos bo`lishi.
3) Mijoz muammosining harakteri.
4) Mijozning birgalikdagi faoliyatga tayyorgarligi.
5) Korreksion tadbirni o`tkazayotgan psixologning kutgan natijasi.
6) Psixologning shaxsiy va professional tayyorligi.
A.1,3,5,6.
B.1,2,3,4.
S.2,4,5,6.
D. 3,4,5,6.
*E. Barcha javoblar to`g`ri.
2.Ta’limni dasturlashtirish tamoyilining mohiyati nimadan iborat?
*A. Avval psixolog bilan birgalikda, keyinchalik mustaqil ravishda bajarish orqali zaruriy malakalarni shakllantiruvchi bir qator izchil muolajalardan iborat dasturlar
B. Amaliy harakatlarni uyushtirishning turli negizlariga asoslanadi.
S. Harakatlarning turli komponentlarini o`zlashtirishga va turli harakatlarni tadrijiy ravishda shakllantirishga qaratilgan.
D. Korreksion dasturlarni tuzishda yaxshi taraqqiy etgan psixik jarayonlarga suyanish va ularni aktivlashtiruvchi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqligini ko`rsatadi.
E. Mijozning o`ziga xos bo`lgan individual tomonlarini hisobga oladi.
3. Psixokorreksion ishlarda mijoz psixologik ta'sirdan so`ng nimalarga asosan baholanadi?
A.Ichki kechinmalarning sub'ektiv mohiyatining o`zgarganligi.
B.Ta'sir etgandan so`ng mijozning ijobiy tomonga o`zgarishi.
S.Psixologning shaxsiy va professional tayyorligi.
D. Korreksion tadbirni o`tkazayotgan psixologning kutgan natijasi.
*E. A va B javoblar to`g`ri.
187
4. Taraqqiyot qiyinchiliklarining tashqi alomatlarini bartaraf etishga qaratilgan korreksiya turini belgilang.
A.Kauzal korreksiya.
B. Psixoanalitik terapiya
*S. Simptomatik korreksiya.
D. individual korreksiya.
E. A va B javoblar to`g`ri.
5. Mavjud muammolarni vujudga keltirayotgan sabablarni yo`q qilishga qaratilgan korreksiya turi qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?
*A.Kauzal korreksiya.
B. Psixoanalitik terapiya
S. Simptomatik korreksiya.
D. Individual korreksiya.
E. A va B javoblar to`g`ri.
6.Psixik jarayonlar tuzilmasining turli darajalariga tayanish tamoyilining mohiyati nimadan iborat?
A. Avval psixolog bilan birgalikda, keyinchalik mustaqil ravishda bajarish orqali zaruriy malakalarni shakllantiruvchi bir qator izchil muolajalardan iborat dasturlar
B. Amaliy harakatlarni uyushtirishning turli negizlariga asoslanadi.
S. Harakatlarning turli komponentlarini o`zlashtirishga va turli harakatlarni tadrijiy ravishda shakllantirishga qaratilgan.
*D. Korreksion dasturlarni tuzishda yaxshi taraqqiy etgan psixik jarayonlarga suyanish va ularni aktivlashtiruvchi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqligini ko`rsatadi.
E. Mijozning o`ziga xos bo`lgan individual tomonlarini hisobga oladi.
7.Korreksion ta'sir etish modeli to`g`ri ko`rsatilgan javobni belgilang.
A.Korreksiyaning umumiy modeli.
B.Korreksiyaning tipik (odatiy) modeli.

S. Korreksiyaning individual modeli.
D. Ava S javoblar to`g`ri.
*E. A,B,S javoblar to`g`ri.
188
8.Amaliy harakatlarni uyushtirishning turli negizlariga asoslanadigan, harakatlarning turli komponentlarini o`zlashtirishga va turli harakatlarni tadrijiy ravishda shakllantirishga qaratilgan korreksion model qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?
A.Korreksiyaning umumiy modeli.
*B.Korreksiyaning tipik (odatiy) modeli.
S. Korreksiyaning individual modeli.
D. Ava S javoblar to`g`ri.
E. A,B,S javoblar to`g`ri.
9. O`z ichiga mijozning o`ziga xos bo`lgan individual tomonlarini – uning qiziqishlari, psixik taraqqiyoti, o`rgana olish qobiliyatlari kabi − hisobga oladigan korreksion modelni aniqlang?
A.Korreksiyaning umumiy modeli.
B.Korreksiyaning tipik (odatiy) modeli.
*S. Korreksiyaning individual modeli.
D. Ava S javoblar to`g`ri.
E. A,B,S javoblar to`g`ri.
10. Korreksion dasturlarning qanday turlari mavjud?
A.Standartlashtirilgan dastur.
B.Erkin dastur.
S. Simptomatik korreksiya.
D. individual korreksiya.
E. A,B javoblar to`g`ri.
189

11 BOB. KORREKSION TADBIRLAR OLIB BORADIGAN PSIXOLOGGA QO`YILADIGAN TALABLAR

Reja:

1.Psixolog-konsultant shaxsiga qo`yiladigan talablar (axloqiy kodeks tamoyili):
- Kachyunas varianti
- Psixolog-konsultant faoliyatini nazorat qiluvchi AQSH milliy assotsiatsiyasi varianti
- AQSH mutaxassislar komiteti varianti
- Ingliz mualliflari tomonidan taklif etilgan variant (“ideal” xususiyatlar – “zararli” xususiyatlar)

2.Psixokorreksion tadbirlarni amalga oshiradigan psixologlarga qo`yiladigan talablar.
3.Korreksion ta’sirga kasbiy tayyorgarlikning uch komponentli strukturasi.

**Mavzuning o`quv maqsadi:** talabalarni korreksion tadbirlar olib boradigan psixologga qo`yiladigan talablar bilan tanishtirish.

Darsning vazifasi: Talabalarga psixokorreksion tadbirlarni amalga oshiradigan psixologlarga qo`yiladigan talablar hamda korreksion ta’sirga kasbiy tayyorgarlikning uch komponentli strukturasi haqida ma’lumot berish.

Tayanch tushunchalar:

Psixolog-konsultant shaxsi, axloqiy kodeks tamoyili, psixologik maslahat, psixokorreksiya, psixik taraqqiyot, kasbiy tayyorlik, nazariy tayyorlik, amaliy tayyorlik, shaxsiy tayyorlik.

1.Psixolog-konsultant shaxsiga qo`yiladigan talablar (axloqiy kodeks tamoyili)

Kochyunas varianti.

Psixologik konsultatsiya jarayonida mijoz maksimal darajada muloqotga jalb qilinganlikni sezishi, psixolog bilan hal qilinayotgan masalalarni emotsional jihatdan to`liq va aniq his eta olishi lozim. Buning uchun psixolog-konsultant shaxsiga bir qancha talablar qo`yiladi.

R.Kochyunas xorijiy adabiyotlarni tahlil qilar ekan, psixolog-maslahatchi rioya

etishi lozim bo`lgan quyidagi axloqiy tamoyillarni keltirib o`tadi:
1. Psixolog-maslahatchi quyidagi vaziyatlarda o`z ishiga mas'uliyatli bo`lishi lozim:
-mijoz oldida;
190
- mijoz oilasi oldida;
-mijoz faoliyat olib boradigan tashkilot oldida;
-umuman, jamiyat oldida;
-o`z kasbi oldida.
2. Mijoz psixologik maslahat jarayoniga kirishish haqida ongli ravishda qaror qabul qilishi lozim. Shu tufayli konsultatsiya boshlanmasidanoq psixolog mijozga quyidagilar haqida imkon qadar ko`proq ma'lumot berishi lozim:
-maslahat jarayonining maqsadi haqida;
-o`z malakasi haqida;
-maslahat uchun to`lanadigan haq haqida;
-maslahat jarayonining taxminiy davomiyligi, muddati haqida;
-ayni vaziyatda konsultatsiyaning o`rni haqida;
-konsultatsiya chog`ida mijoz holatida vaqtinchalik yomonlashuv bo`lishi mumkinligi haqida;
-sir saqlanish me'yorlari haqida.

Psixolog-konsultant faoliyatini nazorat qiluvchi AQSH milliy assotsiatsiyasi varianti.

Psixolog-konsultantning shaxsiy va kasbiy xususiyatlarini o`rganish borasida juda ham ko`p tadqiqotlar olib borilgan bo`lsa-da, bu borada aniq bir to`xtamga kelish qiyin. AQSh milliy assotsiatsiyasi tomonidan quyidagi shaxsiy sifatlar psixolog-maslahatchida bo`lishi lozimligi keltiriladi:
-insonlarga nisbatan chuqur qiziqishning hosil bo`lishi va ular bilan muloqotdagi sabrlilik (M. Buber (1961) ushbu omilni insonlardagi ba'zi noodatiy og`ishish belgilariga emas, balki ularinng turmush tarziga qiziqish sifatida izohlaydi).
-o`zga insonlarning xulq-atvori va ustanovkalariga ta'sirchanlik.
-emotsional turg`unlik va ob'ektivlik.
-boshqa insonlarning ishonchini uyg`ota olish qobiliyati.
-o`zga kishilar xuquqini hurmat qilish.

AQSH mutaxassislar komiteti varianti.

191

AQSH mutaxassislar komiteti psixolog-maslahatchi shaxsida mavjud bo`lishi lozim bo`lgan quyidagi 6 xususiyatni keltirib o`tadi:
-odamlarga nisbatan ishonch;
-boshqa shaxs qadriyatlarini hurmat qilish;
-sezgirlik, ziyraklik;
-oldindan xulosa chiqarmaslik;
-o`z-o`zini tushunish;
-kasbiy burchning shakllanganligi.

Ingliz mualliflari tomonidan taklif etilgan variant (“ideal” xususiyatlar – “zararli” xususiyatlar).

L.Wolberg (1954) psixolog uchun lozim bo`lgan quyidagi xususiyatlarni taklif etadi:

Xushyorlik, xolislik (o`zini mijoz bilan bir deb bilmaslik), moslashuvchanlik, empatiya va shaxsiy jiddiy muammolarning mavjud emasligi. Konsultant uchun zararli bo`lgan xususiyatlarga avtoritarlik, passivlik va tobelik, odamovilik, mijozdan o`z ehtiyojlarini qondirishda foydalanishga moyillik, mijozning turli istaklariga sabrli bo`lmaslik, moddiy masaladagi nevrotik ustanovka.
A.Gombs boshqa olimlar bilan hamkorlikda olib borgan tadqiqotlari natijasida psixolog-maslahatchi boshqalarni biror predmetga emas, balki mas'uliyatni o`z bo`yniga olib o`z muammosini hal qila oladigan insonga tenglashtiradi, deb ta'kidlaydi.
N.Strupp mijozlar tomonidan bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, “Yaxshi psixolog-maslahatchi” diqqat-e'tiborli, tinglashni biladigan, iliqlik, ko`ngilchanlik, do`stona maslahatlarda donolik sifatlariga ega bo`lishi lozimligini ta'kidlaydi.

2.Psixokorreksion tadbirlarni amalga oshiradigan psixologlarga qo`yiladigan talablar

Proffesional va shaxs sifatida ta'lim tizimida ishlovchi amaliy psixologlar juda ko`p. Kunlar kelib ular yana ham ko`payadilar. Ular o`z faoliyatlarini ta'lim tizimining barcha muassasalarida: bolalar uylarida va bolalar bog`chasida,
192
umumta'lim maktab va internatlarda, litseylar va maxsus maktablarda, gimnaziyalar va kollejlarda va xususiy maktablarda, reabilitatsiya, korreksiya rivojlanish, tibbiy psixologik-pedagogik yordam ko`rsatish markazlarida faoliyat ko`rsatmoqdalar.
Amaliy psixolog qayerda ishlamasin doim ta'kidlab kelganimizdek, jamiyatda turli haq-huquqli, turli yoshdagi,har biri alohida individual, noyob shaxs xususiyatlariga ega va o`ziga xos fe`l-atvorli insonlar bilan ish olib boradilar. Biroq psixolog ham – inson. U qanchalik yorqin kamolga ega bo`lsa, u shunchalik o`z sohasining o`tkir mutaxassisi bo`ladi, chunki amaliy psixolog qaysidir darajada o`z atrofidagi insonlarning eng yaqin rivojlanish zonalariga ta'sir ko`rsata oladi. Bu ta'sir doiralarining kengligi turlicha bo`lishi mumkin. Shu tufayli amaliy psixologning ish faoliyatini tushunish va baholash ancha qiyindir. Uning kamchiligi yana shundaki, ko`pchilik bu faoliyatni uni ayrim mavjud tashqi ko`rsatkichlari bo`yicha baholaydilar.
Amaliy psixolog ta'limotining ajoyib inson sifatidagi professional farqlari quyidagilardan iborat:
- Qiziqishlarining cheksizligi va mustaqil o`z fikriga ega bo`lishi;
- Turli aloqalarni o`rnatishi va uni aqlan qo`llab- quvvatlay olishi;
- Odamlarni o`ziga jalb qila olishi;
- Muloqot jarayonida o`z his- tuyg`ularini jilovlay olishi;
- O`zini va boshqalarni anglashga bo`lgan intilishlari.
- O`z sohasidagi professional kompetensiya chegarasini bilishi;
- O`zini sa’y-harakati va o`ziga nibatan javobgarlik hissini anglashi;
- O`zining xulq-atvori va qilayotgan ishi nimaga olib kelishini anglab etishi.
Psixologik xizmat xodimlarining mas'uliyati. Mazkur xizmat xodimi:
193
Rivojlantiruvchi va psixokorreksion ishlar psixolog tomonidan har xil shakllarda, vaziyatlarda va holatlarda tashkil qilinadi:
a) amaliy psixologning maxsus ishi, mashg`uloti ayrim bolalar, o`quvchilar va talabalar bilan alohida o`tkazilishi rejalashtiriladi;

b) psixologlarning boshqa bir faoliyati maxsus ravishda amalga oshirilib, bolalar, o`quvchilar, talabalar guruhlariga tarbiyaviy ta'sir o`tkazishga yo`naltirilgan bo`ladi;
v) ota-onalar, pedagogik jamoa ishtirokida tarbiyaviy tadbirlar tarzida mashg`ulotlar olib borish nazarda tutiladi.
Rivojlantiruvchi va psixokorreksion ishlar dasturini shunday tuzish kerakki, unda korreksion ishga jalb qilinuvchilar guruhining qadriyatga yo`nalganligi, etnopsixologik va etnomadaniyat xususiyatlari o`z aksini topsin: dasturni xalq, etnos, millat, elat tarixi, an'analari, rasm-rusumlari, udumi, odati, stereotipi kabilarni hisobga olgan holda tuzish maqsadga muvofiq, hunar-texnika bilim yurtlari o`quvchilari bilan murabbiylar o`rtasidagi nomutanosiblikni yo`qotish maqsadida maxsus mashg`ulotlar o`tkazish: ulardagi o`qishdan, ijtimoiy muhitdan, egallagan o`rnidan, mavqeidan qoniqmaslik hissini kamaytirish uchun trening, ishchanlik o`yinlari, psixodramadan foydalaniladi, emotsional zo`riqishning oldini olish va uni kamaytirish niyatida maxsus xonalar jihozlash (xona jahon standartlariga javob berishi, boshqaruv pulti, ekran vositalari, audiotrening, sotsial trening, texnik vositalariga, ilmiy-amaliy metodikalarga ega bo`lishi lozim).
194

3.Korreksion ta’sirga kasbiy tayyorgarlikning uch komponentli strukturasi

Korreksion ta'sir ko`rsatishda kasbiy tayyorlikning asosiy mezonlari:
 Nazariy mezon – korreksion ishlarning nazariy asosini bilish.
 Amaliy mezon – aniq korrektiv metod va metodikalarni bilish.
 Shaxsiy tayyorlik – psixolog o`zining shaxsiga doir muammolarini hal qilganligi, ayniqsa, mijozning muammolariga o`xshash muammolar.
Alohida korreksion ishlarni yurituvchi psixolog, tayanch fundamental tayyorlikka ega bo`lib, korreksion ta'sir eta olish metodlarini bilishi kerak.
Nazariy mezon deganda quyidagilar nazarda tutiladi: psixologik taraqqiyotning ontogenezdagi umumiy qonuniyatlarini bilish, psixologik taraqqiyot davrlari xususidagi bilimlarga ega bo`lish, ta'lim va taraqqiyot, ular o`rtasidagi qiyosiy o`xshashlik va tafovutlarni bilish, shaxs nazariyasi, modellari va tiplari xususidagi tasavvurlar, guruhlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari to`g`risidagi zaruriy bilimlar.
Professional tayyorlikga nisbatan 3 ta asosiy yondashuv mavjud:
1) Bir nazariyaga tayanib ishlash, bir hil yondashuv;
2) eklektizm – turli nazariyalarga yondashish;
3) umumiy yondashuv.
Bir yondashuvga tayanish predmetga chuqurroq kirishga, amaliy va nazariy bilimlarga mukammal ega bo`lish imkonini berish bilan birga aynan o`sha yondashuvga xos ba'zi bir cheklovlarni qo`yishi mumkin.
Eklektizm – bunda psixolog turli nazariy va amaliy bilimlardan foydalanadi. Bunday mutaxassisning ishi samarali bo`lishi mumkin (ayniqsa boshlang`ich bosqichda), lekin vaqt o`tib tayanch bilimlari kamlik qilgani bois qiyinchiliklarga duch keladi.
Umumiy «kontinual» yondashuv – bu professional yondashuv bo`lib, bunda mutaxassis bir nazariyaga yondashib uni mukammal o`rganadi, professional fundamentga ega bo`lgach, tayanch nazariya chegarasidan tashqariga chiqa boshlaydi, bunday professional biron bir nazariyaning konseptual tasavvurlaridan

foydalangan holda, texnika va amaliy yondashuvni boshqa nazariyalardan olishi mumkin.
Tayyorlikning amaliy komponenti. Tayyorlikning amaliy komponentining mohiyati aniq korreksion metod va metodikalarni egallashdan iborat. Konkret metod va metodikalarni chuqur o`zlashtirish shaxsning kasbga doir deformatsiyasini oldini olishga yordam beradi.
Har bir psixologda kasbiy salohiyatini tiklash va rivojlantirishda goho ongli, goho ongsiz qo`llaydigan, umumiy va maxsus usullar turkumi bo`lishi mumkin. Umumiylariga:
 o`z his-tuyg`ularini erkin ifoda etish imkoniyati kiradi. Zotan psixologlar o`z mijozlaridan salbiy hissiyotlarni o`zlashtirishlari mumkin, “dard bosishi”, ular esa yig`ilib qolish xususiyatiga egadirlar. Aynan shuning uchun ham psixologlar o`z hissiyotlarini ba'zi-ba'zida tashqariga erkin chiqarib turishlari muhimdir.
 faqatgina o`z xohish-istaklarini bajarish imkoniyati. Zero, ko`plab psixologlar “bo`lishi kerak”, “shart” degan tushunchalar olamida yashaydilar. Bunday istaklarning asosiy qismini yolg`iz qolish xohishi tashkil qiladi.
Shaxsiy tayyorlikning mavjud emasligi korreksion ishlarda psixologik to`siqqa aylanishi mumkin. Agar psixologni yoshlikda qattiq urishgan yoki jazolashgan bo`lsa, u shaxsiyatga tegish kabi kamsitilishni boshidan kechirgan bo`lsa – unda mijozni kamsitmaslik kabi korreksion qoidaga bo`ysunmasligi mumkin. Kattalar bu qoidani noto`g`ri deb bilmasliklari mumkin. Masalan: meni ham yoshlikda urishishgan, jazolashgan, lekin men yaxshi inson bo`ldim deb hisoblashishlari mumkin. Bu holatda psixolog va mijoz o`rtasida psixologik rezonans paydo bo`ladi.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

1.Psixolog-konsultant shaxsiga qanday talablar qo`yiladi?
2. Psixolog-konsultant faoliyatini nazorat qiluvchi AQSH milliy assotsiatsiyasi variantining mohiyati nimadan iborat?

3. Korreksion ta’sirga kasbiy tayyorgarlikning uch komponentli strukturasi o`z ichiga nimalarni oladi?
4. R.Kochyunas varianti bo`yicha psixokorreksion tadbirlarni amalga oshiradigan psixologlarga qo`yiladigan talablar nimadan iborat?

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. R.Kochyunas psixolog-maslahatchi mas'uliyatli bo`lishi lozim bo`lgan qanday vaziyatlarni ko`rsatib o`tgan?
1.Mijoz oldida.
2.Mijoz oilasi oldida.
3.Mijoz faoliyat olib boradigan tashkilot oldida.
4.Jamiyat oldida.
5.O`z kasbi oldida.
A.1,2,5.
B.3,4,5.
S.2,4,5.
D. 1,3,5.
*E. Barcha javoblar to`g`ri.
2. Korreksion ta’sirga amaliy tayyorlik deganda nima tushuniladi?
*A. Aniq korreksion metod va metodikalarni egallash.
B. Psixologning turli nazariy va amaliy bilimlardan foydalanishi.

S.Psixolog o`zining shaxsiga doir muammolarini hal qilganligi, ayniqsa, mijozning muammolariga o`xshash muammolar.
D. Korreksion ishlarning nazariy asosini bilish.
E. Barcha javoblar to`g`ri.
3. Professional tayyorlikga nisbatan qanday yondashuvlar mavjud?
A. Bir nazariyaga tayanib ishlash, bir hil yondashuv.
B. Eklektizm.
S.Umumiy yondashuv.
D. A va B javob to`g`ri.
197
*E. Barcha javoblar to`g`ri.
4.Psixologning turli nazariy va amaliy bilimlardan foydalanib ish ko`rishiga asoslangan yondashuv qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?
A. Bir nazariyaga tayanib ishlash, bir hil yondashuv.
*B. Eklektizm.
S.Umumiy yondashuv.
D. A va B javob to`g`ri.
E. Barcha javoblar to`g`ri.
5. Umumiy «kontinual» yondashuvning mohiyati nimadan iborat?
A. Aniq korreksion metod va metodikalarni egallash.
B. Psixologning turli nazariy va amaliy bilimlardan foydalanishi.
S.Psixolog o`zining shaxsiga doir muammolarini hal qilganligi, ayniqsa, mijozning muammolariga o`xshash muammolar.
D. korreksion ishlarning nazariy asosini bilish.
*E. mutaxassis bir nazariyaga yondashib uni mukammal o`rganib, professional fundamentga ega bo`lgach, tayanch nazariya chegarasidan tashqariga chiqa boshlashi.
6. Korreksion ta'sir ko`rsatishda kasbiy tayyorlikning qanday mezonlari mavjud?
A. Nazariy mezon.
B. Amaliy mezon.
S.Shaxsiy tayyorlik.
D. A va B javob to`g`ri.
*E. Barcha javoblar to`g`ri.
7. Korreksion ta'sir ko`rsatishda kasbiy tayyorlikning nazariy mezoni nimani anglatadi?
A. Aniq korreksion metod va metodikalarni egallash.
B. Psixologning turli nazariy va amaliy bilimlardan foydalanishi.
S.Psixolog o`zining shaxsiga doir muammolarini hal qilganligi, ayniqsa, mijozning muammolariga o`xshash muammolar.
*D. Korreksion ishlarning nazariy asosini bilish.
E. Barcha javoblar to`g`ri.
8. Korreksion ta'sir ko`rsatishda shaxsiy tayyorlikning mohiyati nimadan iborat?
198
A. Aniq korreksion metod va metodikalarni egallash.
B. Psixologning turli nazariy va amaliy bilimlardan foydalanishi.
*S.Psixolog o`zining shaxsiga doir muammolarini hal qilganligi (ayniqsa, mijozning muammolariga o`xshash muammolar bo`lganda).
D. Korreksion ishlarning nazariy asosini bilish.
E. Barcha javoblar to`g`ri.
9. Konsultant uchun zararli bo`lgan xususiyatlarga nimalarni kiritish mumkin?
A. Avtoritarlik, passivlik va tobelik.
B.Odamovilik, mijozdan o`z ehtiyojlarini qondirishda foydalanishga moyillik.
S.Mijozning turli istaklariga sabrli bo`lmaslik.
D. Moddiy masaladagi nevrotik ustanovka.
*E. Barcha javoblar to`g`ri.
10. Psixolog-konsultant uchun zarur bo`lgan xususiyatlarga nimalar kiradi?
1.Xushyorlik.

2.Xolislik (o`zini mijoz bilan bir deb bilmaslik).
3.Moslashuvchanlik.
4.Moddiy masaladagi nevrotik ustanovka.
5. Empatiya va shaxsiy jiddiy muammolarning mavjud emasligi.
*A. 1,2,3,5.
B. 2,3,4,5.
S.1,3,4,5.
D. 1,2,3,4.
E. Barcha javoblar to`g`ri.
199

12-BOB. PSIXOLOG-KONSULTANTNING SHAXS XUSUSIYALARI VA KASBIY DEFORMATSIYASI

Reja:
1.Psixokorreksiyani amalga oshiradigan psixolog-konsultant va psixologning kasbiy deformatsiyasi va kasbiy "portlashi"ning alohida jihatlari.
2. Deformatsiya sabablari va ularning dinamikasi.
3.Kasbiy deformatsiya turlari.
Mavzuning o`quv maqsadi: talabalarni psixolog-konsultantning shaxs xususiyalari va kasbiy deformatsiyasi masalalari bilan tanishtirish.
Darsning vazifasi:Talabalarga psixokorreksiyani amalga oshiradigan psixolog-konsultant va psixologning kasbiy deformatsiyasi va kasbiy "portlashi"ning alohida jihatlari haqida ma'lumot berish.
Tayanch tushunchalar:
Psixolog-konsultant shaxsi, psixologik maslahat, psixokorreksiya, psixik taraqqiyot, kasbiy "portlash", umumkasbiy deformatsiya, maxsus kasbiy deformatsiya, kasbiy tipologik deformatsiya, individuallashgan deformatsiya.

1.Psixokorreksiyani amalga oshiradigan psixolog-konsultant va psixologning kasbiy deformatsiyasi va kasbiy "portlashi"ning alohida jihatlari

Mehnatga moslashish (ko`nikish) − bu shaxsning yangi mehnat vaziyatini o`zlashtirishining ijtimoiy jarayoni bo`lib, unda shaxs va mehnat muhiti bir-biriga faol ta'sir ko`rsatadi va moslashuvchi-moslashtiruvchi tizimlar hisoblanadi.
Inson ishga kirar ekan, muayyan mehnat tashkilotining kasbiy va ijtimoiypsixologik munosabatlari tizimiga faol kirishib ketadi, o`zi uchun yangi bo`lgan ijtimoiy vazifalarni, qadriyatlar va normalarni o`zlashtirib oladi, o`zining alohida tutgan yo`lini tashkilot (mehnat jamoasi)ning maqsad va vazifalari bilan moslashtiradi, bu bilan o`zining xulqini mazkur korxona yoki muassasaning xizmat yo`l-yo`riqlariga bo`ysundiradi.
Biroq inson ishga kirishda avvaldan qaror topgan muayyan maqsadlar, qadriyatli muomala yo`nalishiga ega bo`ladi, shularga muvofiq korxonaga bo`lgan o`z talablarini shakllantiradi, korxona esa o`z maqsadlari va vazifalaridan kelib
200
chiqib, xodimga, uning xulq-atvoriga o`z talablarini qo`yadi. Xodim va korxona o`z talablarini amalga oshira borib, o`zaro bir-birlariga ta'sir ko`rsatadilar, bir-birlariga moslashadilar, buning natijasida mehnatga moslashuv jarayoni amalga oshiriladi. Shunday qilib, mehnatga moslashuv − shaxs va uning uchun yangi bo`lgan ijtimoiy muhit o`rtasidagi ikki tomonlama jarayondir.
Psixologiya tarixidan ma'lumki, kasbiy deformatsiya masalasi o`tgan asrning 20-30-yillaridanoq o`rganila boshlangan. Bu borada kasbiy intilish, mehnat ishonchliligini ta'minlash, mehnat qobiliyatini oshirish muammolari, shuningdek, kasbiy faoliyatdagi noqulay sharoit bilan bog`liq vaziyatlar tadqiq etilgan ilmiy izlanishlarni ko`rish mumkin. Ammo shaxsning professional deformatsiyasi

masalalariga birmuncha kam e'tibor qaratilgan. Holbuki 1930 yillarda psixotexnik S.G.Gellershteynning yozishicha, kasbiy faoliyatning mazmuni xodimlarning u yoki bu vazifani bajarishlari bilan emas, balki organizmni kasbning ma'lum jihatlariga moslashishi bilan bog`liqdir. Ishchi xodim organizmi va tashqi ta'sirlar o`rtasida to`xtovsiz o`zaro ta'sirlashuv sodir bo`ladi. Shu tufayli xodimning faqat tanasida emas, balki psixikasida ham deformatsiya kuzatiladi. Deformatsiya tushunchasi, odatda, organizmga ta'sir etuvchi va unda muhim xarakter xususiyatini hosil qiluvchi o`zgarish sifatida talqin qilinadi.

Ko`pgina tadqiqotchilar “Inson-inson” tipidagi kasblarda kasbiy deformatsiyaning paydo bo`lishi va shakllanishini ta'kidlaydilar.

Konkret metod va metodikalarni chuqur o`zlashtirish shaxsning kasbga doir deformatsiyasini oldini olishga yordam beradi. Bunday shaxsga doir deformatsiyalarga “kuyib ado bo`lish” sindromini kiritish mumkin.

“Kuyib ado bo`lish” sindromi o`z ishida xususiy, shaxsga doir zahiralardan foydalanuvchi turli toifalardagi mutaxassislarda uchraydi. U kasbdagi zo`riqish sababli yuzaga kelib, emotsional, jismoniy va kognitiv holsizlik bilan harakterlidir. Bunday sindromni vujudga kelishiga: mutaxassisning shaxsiy yechilmay qolgan muammolari; hamkasblari tomonidan kam qo`llab-quvvatlangan holda ular tomonidan yuqori talablar qo`yilishi; motivatsiyasi past guruhlar bilan ishlash oqibatlari; ish samaradorligining pastligi; turg`unlik; professional bilimlarining

oshkor bo`lishidan qo`rqish; ish tajribasini o`rgatish va targ`ib etishga yo`l qo`yilmasligi kabilar sababchi bo`lishi mumkin.

2. Deformatsiya sabablari va ularning dinamikasi

Insonning muayyan mehnat muhitiga moslashuvi uning real muomalasida, mehnat faoliyatining aniq ko`rsatkichlarida: mehnat samaradorligida, ijtimoiy axborot va uning amalda ro`yobga chiqarilishida, faollikda namoyon bo`ladi. Mehnatga moslashish birlamchi bo`lishi (xodimning mehnat muhitiga kirishida) va ikkilamchi (kasbni almashtirgan va almashtirmagan holda ish o`rnini almashtirishida yoki muhitning jiddiy ravishda o`zgarishida) bo`lishi mumkin. Ular murakkab tuzilishga ega bo`lib, kasbiy, ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy-tashkiliy, madaniy-maishiy va psixofizik moslashuvdan iboratdir.

Kasbiy moslashuv shaxsning kasbiy ko`nikmalar va malakalarni muayyan darajada egallashida, unda ayrim kasbiy jihatdan zarur xislatlarning shakllanishida, xodimning o`z kasbiga nisbatan barqaror ijobiy munosabatda bo`lishining rivojlanishida ifodalanadi. Kasb sohasidagi ish bilan tanishuvida, kasb mahorati ko`nikmalarini, mahoratini egallashda, funksional vazifalarni sifatli bajarishida va mehnat sohasidagi ijodkorlikda namoyon bo`ladi.

Ijtimoiy-psixologik moslashuv mehnat tashkiloti (jamoasi) ning ijtimoiypsixologik xususiyatlarini o`zlashtirishda, unda qaror topgan o`zaro munosabatlar tizimiga kirishda, uning a'zolari bilan o`zaro ijobiy hamjihat bo`lishda o`z ifodasini topadi.

Ijtimoiy-tashkiliy moslashuv korxona (jamoa)ning tashkiliy tuzilishi, boshqaruv tizimi va ishlab chiqarish jarayoniga, hizmat ko`rsatish tizimini, mehnat va dam olish rejimini o`zlashtirishni bildiradi.

Madaniy-maishiy moslashuv − bu mehnat tashkilotidagi turmush xususiyatlari va bo`sh vaqtni o`tkazish an'analarini o`zlashtirishdir. Bu moslashuv

xususiyati ishlab chiqarish madaniyati darajasi, tashkilot a'zolarining umumiy rivojlanishi, ishdan bo`sh vaqtdan foydalanish xususiyatlari bilan belgilanadi. Psixofiziologik moslashuv − bu xodimlar uchun mehnat vaqtida zarur bo`ladigan shart-sharoitlarni o`zlashtirish jarayonidir. Zamonaviy ishlab chiqarishda

faqat texnika va texnologiya emas, balki ishlab chiqarish sharoitidagi sanitariyagigiena normalari ham ma'naviy jihatdan eskirib boradi. Mehnatning sanitariyagigiena sharoitlarini, xodimlar turmushini yaxshilash, tobora ko`proq miqdorda qulay va zamonaviy uy-joylar, kiyim-boshlar, pardoz-andoz ashyolarining paydo bo`lishi ishlab chiqarish faoliyatiga ta'sir qilmasdan qolmaydi. Hozirgi zamon xodimi sub'ektiv ravishda qabul qilinadigan sanitariya-gigiena shinamligidan, mehnat maromidan, ish o`rnidagi qulayliklar va hokazolardan ozgina bo`lsa ham chetga chiqilishiga juda sezgirlik bilan qaraydi. Ko`pgina tadqiqotlarning ko`rsatishicha, ishchilar uchun sanitariya-gigiena shinamligi shart-sharoitlari keskin bo`lib turadi va ular buni og`rinib qabul qiladilar.

Psixolog kasbida boshqa kasb egalariga nisbatan deformatsiya ertaroq namoyon bo`ladi. Psixolog kasbiy deformatsiyasining ko`rinishlaridan biri – o`z xulq-atvori ustidan qattiq nazoratning shakllanishidir. Psixologik maslahat, guruhiy mashg`ulotlar, psixoterapevtik seanslar treninglar, eksperimentlar chog`ida o`z xulqatvorini
– so`zini, jest va tana holatlarini nazorat qilishi lozim. Ammo bu ko`nikma noformal va odatiy munosabatlarda ham avtomatik ravishda namoyon bo`ladi. Psixolog doimo suhbatdoshining tana harakatlariga, ko`z qarashlariga, xatto nafas olishning chuqurligi va chastotasidagi o`zgarishlarga ham e'tiborli bo`ladi. Kasbiy “instinkt”ga muvofiq bunga ehtiyoj sezilmasada, doimo qarshisidagi insonning holatini baholab, psixologik diagnoz qo`yadi.Bu holat ba’zan bir qancha muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

3.Kasbiy deformatsiya turlari

E.F.Zeer va E.E.So`manyuklarning tadqiqotlariga ko`ra kasbiy deformatsiya 4 ko`rinishda amalga oshadi:

1. Umumkasbiy deformatsiya – “odam-odam” tipidagi kasblarga xosdir. Ushbu shaxs xususiyati va kasbiy faoliyat bilan bog`liq holat ish stajiga ham aloqador bo`lishiga qaramay deformatsiyaning darajasi turlicha kechadi. Masalan, shifokorlarda bemor shikoyatlariga nisbatan emotsional indefferentlikni aks ettiruvchi “qayg`urishdan charchash” sindromi namoyon bo`ladi. Umumkasbiy deformatsiya xususiyatlarining jamlangan holda namoyon bo`lishi ma'lum kasb egalarining birbiriga o`xshashiga va tanishning osonlashuviga olib keladi.

2. Maxsus kasbiy deformatsiya – kasbning ma'lum mutaxassisliklariga moslashish jarayonida sodir bo`ladi. Har qanday kasb bir qancha mutaxassisliklarni o`z ichiga oladi. Har bir mutaxassislik o`zining deformatsiyalari yig`indisiga ega. Masalan, tergovchida shubhalanuvchanlik, operativ ishchida faol agressivlik va h. Turli mutaxassisliklarga ega shifokorlarda ham o`ziga xos deformatsiya hosil bo`ladi.

3.Kasbiy tipologik deformatsiya – shaxsning individual psixologik xususiyatlari (temperament, xarakter, qobiliyat) hamda faoliyatlarining psixologik tuzilishi o`rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Buning oqibatida quyidagi xususiyatlar namoyon bo`lishi mumkin:

- shaxsning kasbiy yo`nalganlik deformatsiyasi: faoliyat motivatsiyasining o`zgarishi (motivning maqsadga yo`naltirilganligi), qadriyatlar tizimining qayta tuzilishi, pessimizm, yangiliklarga ishonchsiz munosabat.
204
- ma'lum bir qobiliyat asosida shakllangan deformatsiya (tashkilotchilik, kommunikativlik, intellektuallik va b.). Masalan, talabgorlik darajasining oshishi, o`ziga-o`zi yuqori baho berish, narsissizm.
- xarakter xususiyatlariga asoslangan deformatsiya: indefferentlik, lavozimga intilish, rolli ekspansiya, dominantlik. Deformatsiyaning ushbu guruhi turli kasb egalarida shakllanadi va ma'lum bir kasbiy yo`nalishga ega emas.
4. Individuallashgan deformatsiya – uzoq yillar davomida olib borilgan kasbiy faoliyat natijasida ma'lum bir kasbiy muhim, ba'zan nomuhim xususiyatlar ham shakllanishi mumkin. Bu holatlar haddan ziyod mas'uliyatlilik, o`ta vijdonlilik, giperaktivlik, kasbiy fanatizm va entuziazm ko`rinishida namoyon bo`lishi mumkin.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

1.Psixokorreksiyani amalga oshiradigan psixolog-konsultant va psixologning kasbiy deformatsiyasi deganda nima tushuniladi?
2. Kasbiy “portlashi”ning alohida jihatlari nimadan iborat?
3. Deformatsiya qanday sabablar tufayli yuzaga keladi?
4.Kasbiy deformatsiyaning qanday turlari mavjud?
5.Kasbiy deformatsiyaning kechish dinamikasini bayon eting.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Deformatsiya tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?
*A. organizmga ta'sir etuvchi va unda muhim xarakter xususiyatini hosil qiluvchi o`zgarish.
B.shaxsning kasbiy ko`nikmalar va malakalarni muayyan darajada egallashi.
S. korxona (jamoa)ning tashkiliy tuzilishi, boshqaruv tizimi va ishlab chiqarish jarayoniga, hizmat ko`rsatish tizimini, mehnat va dam olish rejimini o`zlashtirish.
D. mehnat tashkilotidagi turmush xususiyatlari va bo`sh vaqtni o`tkazish an'analarini o`zlashtirish.
E. xodimlar uchun mehnat vaqtida zarur bo`ladigan shart-sharoitlarni o`zlashtirish jarayoni.
2. Shaxsning kasbiy moslashuvi nimalarda ifodalanadi?
A. Shaxsning kasbiy ko`nikmalar va malakalarni muayyan darajada egallashida.
B. Ayrim kasbiy jihatdan zarur xislatlarning shakllanishida.
S. Xodimning o`z kasbiga nisbatan barqaror ijobiy munosabatda bo`lishining rivojlanishida.
205
D. Mehnat tashkilotidagi turmush xususiyatlari va bo`sh vaqtni o`tkazish an'analarini o`zlashtirishda.
*E. A,B,S javoblar to`g`ri.
3.Shaxsning kasbga ijtimoiy-psixologik moslashuvi deganda nima tushuniladi?
*A. mehnat tashkiloti (jamoasi)ning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o`zlashtirish, unda qaror topgan o`zaro munosabatlar tizimiga kirishda uning a'zolari bilan o`zaro ijobiy hamjihat bo`lish.
B. Ayrim kasbiy jihatdan zarur xislatlarning shakllanishi.
S. Xodimning o`z kasbiga nisbatan barqaror ijobiy munosabatda bo`lishining rivojlanishi.
D. Mehnat tashkilotidagi turmush xususiyatlari va bo`sh vaqtni o`tkazish an'analarini o`zlashtirish.
E. A,B,S javoblar to`g`ri.
4. Ijtimoiy-tashkiliy moslashuv nima?
A. mehnat tashkiloti (jamoasi)ning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o`zlashtirish, unda qaror topgan o`zaro munosabatlar tizimiga kirishda uning a'zolari bilan o`zaro ijobiy hamjihat bo`lish.
*B. korxona (jamoa)ning tashkiliy tuzilishi, boshqaruv tizimi va ishlab chiqarish jarayonida hizmat ko`rsatish tizimini, mehnat va dam olish rejimini o`zlashtirish.

S. Xodimning o`z kasbiga nisbatan barqaror ijobiy munosabatda bo`lishining rivojlanishi.
D. Mehnat tashkilotidagi turmush xususiyatlari va bo`sh vaqtni o`tkazish an'analarini o`zlashtirish.
E. A, S javoblar to`g`ri.
5. Shaxsning kasbga psixofiziologik moslashuvi deganda nima tushuniladi?
A. mehnat tashkiloti (jamoasi) ning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o`zlashtirish, unda qaror topgan o`zaro munosabatlar tizimiga kirishda uning a'zolari bilan o`zaro ijobiy hamjihat bo`lish.
B. korxona (jamoa)ning tashkiliy tuzilishi, boshqaruv tizimi va ishlab chiqarish jarayonida hizmat ko`rsatish tizimini, mehnat va dam olish rejimini o`zlashtirish.
S. Xodimning o`z kasbiga nisbatan barqaror ijobiy munosabatda bo`lishining rivojlanishi.
D. Mehnat tashkilotidagi turmush xususiyatlari va bo`sh vaqtni o`tkazish an'analarini o`zlashtirish.
*E. mehnat vaqtida zarur bo`ladigan shart-sharoitlarni o`zlashtirish jarayoni.
206
6. Kasbiy deformatsiyaning qanday turlari mavjud?
A. Umumkasbiy deformatsiya.
B. Maxsus kasbiy deformatsiya.
S. Kasbiy tipologik deformatsiya.
D. Individuallashgan deformatsiya.
*E. Barcha javoblar to`g`ri.
7. Kasbiy deformatsiyani 4 turga bo`lgan olimni belgilang.
A. E.F.Zeer.
B. E.E.So`manyuk.
S. S.G.Gellershteyn.
D. Z.Freyd.
*E. A, B javoblar to`g`ri.
8. Kasbiy faoliyatning mazmuni xodimlarning u yoki bu vazifani bajarishlari bilan emas, balki organizmni kasbning ma'lum jihatlariga moslashishi bilan bog`liqligini o`rgangan olimni belgilang.
A. E.F.Zeer.
B. E.E.So`manyuk.
*S. S.G.Gellershteyn.
D. Z.Freyd.
E. A, B javoblar to`g`ri.
9. Individuallashgan deformatsiya nima?
A. Kasbning ma'lum mutaxassisliklariga moslashish jarayonida sodir bo`luvchi deformatsiya turi.
B. Shaxsning individual psixologik xususiyatlari (temperament, xarakter, qobiliyat) hamda faoliyatlarining psixologik tuzilishi o`rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi.
*S. Uzoq yillar davomida olib borilgan kasbiy faoliyat natijasida ma'lum bir kasbiy muhim, ba'zan nomuhim xususiyatlar ham shakllanishi.
D.Faoliyat motivatsiyasining o`zgarishi (motivning maqsadga yo`naltirilganligi), qadriyatlar tizimining qayta tuzilishi, pessimizm, yangiliklarga ishonchsiz munosabat.
E. A, B javoblar to`g`ri.
207
10. Maxsus kasbiy deformatsiya deganda nima tushuniladi?
*A. Kasbning ma'lum mutaxassisliklariga moslashish jarayonida sodir bo`luvchi deformatsiya turi.
B. Shaxsning individual psixologik xususiyatlari (temperament, xarakter, qobiliyat) hamda faoliyatlarining psixologik tuzilishi o`rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi.
S. Uzoq yillar davomida olib borilgan kasbiy faoliyat natijasida ma'lum bir kasbiy muhim, ba'zan nomuhim xususiyatlar ham shakllanishi.
D.Faoliyat motivatsiyasining o`zgarishi (motivning maqsadga yo`naltirilganligi), qadriyatlar tizimining qayta tuzilishi, pessimizm, yangiliklarga ishonchsiz munosabat.

E. Barcha javoblar to`g`ri.
208

13- BOB. “MIJOZ-KONSULTANT” TIZIMIDAGI O`ZARO TA’SIR, MULOQOT

Reja:

1.Psixologik maslahatda “mijoz” va “konsultant” tushunchasining o`ziga xos jihatlari.
2. O`zaro ta’sir pozitsiyasi: konsultant – “past”, konsultant – “yuqori”, ularning dinamikasi.
3.O`zaro refleksiya o`zaro ta’sir asosi sifatida.
4. Muloqot o`zaro ta’sir usuli sifatida, muloqot darajasi.

**Mavzuning o`quv maqsadi:** talabalarni psixologik maslahatda “mijoz” va “konsultant” tushunchasining o`ziga xos jihatlari bilan tanishtirish.

Darsning vazifasi: Talabalarga “Mijoz-konsultant” tizimidagi o`zaro ta’sir va unda muloqotning o`rni haqida ma’lumot berish.

Tayanch tushunchalar:

Mijoz, konsultant, o’zaro ta’sir, muloqot, refleksiya, avtonom nutq, verbal nutq, identifikasiya, kommunkasiya, nizo, nutq madaniyati, pantomimika, empatiya, retsipient.

1.Psixologik maslahatda “mijoz” va “konsultant” tushunchasining o`ziga xos jihatlari

Psixologik maslahat deb bunga muhtoj bo`lganlarga maslahat va tavsiyalar sifatida mutaxassis psixolog tomonidan bevosita ko`rsatiladigan psixologik yordam ko`rsatish bilan bog`liq bo`lgan amaliy psixologiyaning alohida sohasiga aytiladi. Ular psixolog tomonidan mijoz hayotida duch kelgan muammoni dastlab o`rganib chiqish va shaxsiy suhbat asosida beriladi. Ko`pincha psixologik maslahat oldindan belgilangan soatda, buning uchun maxsus jihozlangan xonada, odatda begona odamlardan holi va yakkama-yakka, yuzma-yuz o`tkaziladi.

Psixolog-maslahatchi tomonidan mijozga beriladigan maslahat va takliflar ko`p hollarda ulardan mustaqil foydalanib, mijoz psixolog-maslahatchi yordamisiz o`z muammosini o`zi to`la hal eta olishiga qaratilgan bo`ladi.

Psixologik maslahat – bu psixik sog`lom odam o`zining hayotida yuzaga keladigan barcha psixologik muammolarni hal eta olishiga asoslangan odamlarga amaliy psixologik yordam ko`rsatish amaliyotidir. Lekin mijoz har doim ham uning muammosi mohiyati nimadan iborat ekanligini,o`zining kuchi va imkoniyatlariga
209
tayanib, uni qanday qilib hal etishni aniq bilmaydi va tushunmaydi. Professional tayyorlangan psixolog-maslahatchi mana shu bo`yicha unga yordam ko`rsatishi kerak. Psixologik maslahatning asosiy vazifasi shundan iborat. Maslahat berish davomida psixolog odatda qisqa vaqt ichida mijoz muammosini amaliy hal etish usulini topish va aniq ifoda etish uchun qaratilgan mijoz bilan maxsus ish uslublari va unga ta'sir ko`rsatish metodlarini qo`llaydi, shu bilan birga ushbu yechim mijoz amalga oshirishi uchun tushunarli va mumkin bo`ladigan qilib amalga oshiriladi.

Psixolog-maslahatchining mijoz bilan uchrashuvi ko`pincha bir-ikki uchrashuv bilan cheklanmaydi. Ko`pchilik hollarda mijoz bilan uch marta va undan ko`p uchrashib ancha uzoq muddat davomida maslahat berib borish talab etiladi. Bunday uzoq muddatli maslahatlarning zarurligi quyidagi odatiy hollarda yuzaga keladi: Mijozning muammosi shunday murakkab bo`ladi-ki, bir-ikki soat davomida uni tushunib olish deyarli mumkin emas. Mijozning bir emas, balki bir necha muammolari mavjud, ularning har birini hal etish alohida maslahatni talab etadi. Taklif etilayotgan muammoning yechimi mijoz tomonidan darhol va to`la mustaqil amalga oshirilishi mumkin emas va maslahatchi tomonidan qo`shimcha

yordam ko`rsatishni talab etadi.
Psixolog-maslahatchida mijoz, masalan, uning individual xususiyatlari sababli o`z muammosini darhol va qo`shimcha yordamsiz hal eta olishiga to`la ishonmaydi. Agarda mijoz o`ziga yetarlicha ishonmasa,o`z hayajonlari va xulqini boshqara olmasa, agarda uning intellektual rivojlanish darajasi qiyin vaziyatlarda oqilona, to`g`ri yechimni mustaqil qabul qilish uchun yetarli bo`lmaganda bunday hollar uchrab turadi.

2. O`zaro ta'sir pozitsiyasi: konsultant – "past", konsultant – "yuqori", ularning dinamikasi

Psixologik maslahatga murojaat etuvchilar – bu odatda hayotga yetarlicha yaxshi moslashib olmagan va o`z ishida unchalik band bo`lmagan odamlar bo`ladi, chunki psixologning to`la, batafsil maslahatini olish uchun vaqt talab etiladi.
210
Psixolog-maslahatchiga hayotda hammadan ham ko`p yordam so`rab murojaat etuvchilar orasida ko`plab omadsiz odamlar bor, aynan omadsizlik mana shu odamlarni psixolog tomonidan yordam kutishga majbur etadi. Psixologmaslahatchiga murojaat etuvchilar orasida u yoki bu emotsional chetlanishga ega odamlar uchraydi, bu chetlanishlar o`z navbatida ko`plab ko`ngli qolish va umidsizligi oqibati hisoblanadi. Bu odamlar qachon psixologdan faol yordam izlashni boshlaydilar? Bu odatda ularda muammo paydo bo`lishi bilan darhol sodir bo`lmaydi, balki ularning hayotida eng og`ir damlar boshlanganida murojaat etadilar.
Odam nima qilishni bilmaganida, yoki o`z muammosini mustaqil hal etish uchun uning imkoniyatlari qolmaganda psixolog-maslahatchiga yordam so`rab keladi. Ruhiy holati yomon bo`lganida, uning xayolida u bilan yoki unga yaqin odamlar bilan qandaydir qo`rqinchli holat sodir bo`layotgandek, yomon oqibatlarga olib kelishi mumkindek tuyulganda odam yordam so`rab psixologga murojaat etishi mumkin.
Odamlar psixolog-maslahatchidan nimani kutishadi? Nima uchun unga murojaat etishadi? Bu savollarga quyidagicha javob berish mumkin. Ba'zi mijozlar o`z muammolarini umuman qanday hal etishni biladilar va psixolog-maslahatchidan faqat ruhiy madad izlab boradilar. Boshqalari muammoni qanday qilib hal etishni bilmaydilar va maslahat so`rab boradilar. Uchinchilari, o`zlariga to`la ishonmaydilar yoki o`z muammolarini hal etish uchun mavjud imkoniyatlaridan qaysi birini tanlashni bilmaydilar. Ularni ishontirish va ularning faolliklarini kerakli tomonga yo`naltirish kerak. To`rtinchidan, bu ko`pincha bir o`zi yakka bo`lgan odamlar – shunchaki kim bilandir yurakdan gaplashib olishi kerak, ularda odatda jiddiy psixologik muammolar bo`lmaydi, lekin vaqti-vaqti bilan diqqat bilan eshitadigan va mehribon suhbatdoshga juda muhtoj bo`ladilar. Psixologik maslahat mijozlari orasida shunchaki qiziquvchanlik yoki shunchaki u bilan bahslashish istagi bilan keladiganlari ham uchrab turadi. Ba'zilar haqiqatan ham psixolog-maslahatchi nima ekanligini va u nima bilan shug`ullanishini bilishni xohlaydilar, boshqalar oldindan ular bekorchi ish bilan shug`ullanadi deb ishonadilar va psixolog maslahatchini noqulay holatga solib, uni bunga ishontirishga harakat qiladilar.
211
Psixolog-maslahatchining pozitsiyasi u barcha mijozlarni qabul qilishi, ular nima uchun kelganliklari, kayfiyatlari qandayligi va maqsadlari qandayligidan qat'iy nazar ularga diqqat bilan, mehribonlik bilan munosabatda bo`lishlaridan iborat. Bu

professional psixolog uchun faqat o`z obro`si va mavqeini saqlab qolish uchungina emas, balki u vrach kabi o`zining professional odob qoidalari bo`yicha unga murojaat etishlar va yordamga muhtojlarga, shu jumladan, maslahatlar davomida o`zini aytarli odobsiz tutganlarga ham, barchaga yordam ko`rsatishga majbur.
11 psixologik III- sinf o`quvchisi
yoshdagi
psixolog
1-sxema. Teng psixologik yoshga asoslangan o`quvchi va o`qituvchining
teng munosabati
55 psixologik yoshga
ega bo`lgan psixolog
10-sinf o`quvchisi
2-sxema. Psixologning o`smirga nisbatan «translir» munosabati
212
yuqori sinf o`quvchisi yoki
11psixologik katta psixologik yoshdagi ota- ona
yoshdagi psixolog
3-sxema. Maktab psixologining manipulyativ uslubi
Psixologik maslahat odamlarga amaliy psixologik yordam ko`rsatishning turlaridan quyidagi asosiy xususiyatlari bilan farq qiladi. Masalan, individual va guruhiy psixoterapiyadan farqli ravishda u psixolog-maslahatchining mijoz bilan shaxsiy aloqalari nisbatan qisqa vaqtligi va epizodik xususiyatini nazarda tutadi. Individual va guruhiy psixoterapiyaning har xil turlari odatda psixologning mijoz bilan ancha uzoq muddatli – bir necha haftalardan, to bir necha oylargacha va hatto bir necha yillargacha muntazam aloqasini ta’minlaydi.
Psixoterapiyada (psixologik-maslahat amaliyotidan farqli ravishda) mijozni psixologik muammolardan xalos etishda psixolog faol rol o`ynaydi. Aynan u muammoni hal etishga qaratilgan faol harakatlarni amalga oshiradi. Mijozning o`zi esa asosan passiv rol o`ynaydi, ya'ni shunchaki psixoterapevt ta'sir ko`rsatishini qabul qiladi va ularga javoban harakat qiladi. Psixologik maslahatda vaziyat boshqacha bo`ladi: bu yerda psixolog-maslahatchi asosan faqat maslahat beradi, ularni amalga oshirish esa mijozning ishi bo`lib qoladi, faollik rolini u o`zida saqlab qoladi.
Amaliy psixologik ishlar boshqa turlarida maslahat berishdan farqli ravishda olib boriladigan psixoterapevtik amaliyot bevosita shaxsiy aloqalarni, psixolog va mijozning o`zaro munosabatlarini, hatto mijoz o`z muammosini hal etayotgan davrda ham o`zaro aloqalarni ko`zda tutadi. Psixologik maslahatda mijoz bilan ish boshlanishida psixodiagnostika iloji boricha kam bo`lishi va asosan maslahatchi psixologik maslahat davomida mijoz xulqini kuzatish natijalariga tayanishi kerak.
213
Psixodiagnostika maxsus psixologik testlardan foydalanmay bevosita mijozdan olinadigan ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilishni o`z ichiga oladi. Psixokorreksion ishlarda psixodiagnostika ancha katta rol o`ynaydi. Odatda maslahatlar eng boshida o`tkaziladi va unga ancha ko`p vaqt ajratiladi. Mijoz bilan ishlash yakuniy natijalari uchun psixolog maslahatchi to`g`ridan-to`g`ri professional javobgar hisoblanmaydi. (Mijoz uning maslahatlaridan foydalanishi yoki foydalanmasligi uchun maslahatchi javobgar emas). Maslahatchi faqat mijozning muammosi to`g`risidagi o`zining xulosasini to`g`riligi va mijozga berilayotgan

amaliy maslahatning samaraliligi uchun javob beradi.
Psixoterapevtik amaliyotni boshqa turlarida psixolog o`z ishlari yakuniy natijalari uchun shaxsan javobgar, chunki uning o`zi mijozning psixologiyasi va xulqini tuzatish bilan shug`ullanadi, uning o`zi xulosa va tavsiyalarni amalga oshiradi.
Amaliy korreksiya (tuzatish) bilan shug`ullanuvchi psixoterapevt esa uning metodlarini professional egallagan bo`lishi kerak, chunki ishning asosiy qismi shu metodlarni qo`llashdan iborat bo`ladi.

3.O`zaro refleksiya o`zaro ta'sir asosi sifatida

Refleksiya – muloqot jarayonida suhbatdoshning pozitsiyasida turib, o`zini tasavvur qilishdir, o`ziga birovning ko`zi bilan qarashga intilishdir.
Psixologik ta'sir − bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va xatti-harakatlariga ta'sir ko`rsata olishdir.
214
Verbal ta'sir − bu so`z va nutqimiz orqali ko`rsatadigan ta'sirimizdir. Bundagi asosiy vositalar so`zlardir.
Paralingvistik ta'sir − bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar: tovushlar, to`xtashlar, duduqlanish, yo`tal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar kiradi.
Noverbal ta'sir − Bunga suhbatdoshlarning fazoda bir-birlariga nisbatan tutgan o`rinlari, holatlari (yaqin, uzoq, intim), qiliqlari, mimika, pantomimika, qarashlar, bir-birini bevosita his qilishlar, tashqi qiyofa va signallar kiradi.
Psixologlar turli muloqot vaziyatlariga duch keladilar va har bir vaziyatda ulardan o`tkir didlik, odob, kishilarning psixologiyasini bilgan holda ularni to`g`ri tushunish malakasi talab qilinadi.
Aktiv holat. Bu agar kreslo yoki divan kabi mebel bo`lsa, unga bemalol yastanib yoki yotib olmaslik, suhbatdoshning yuzidan tashqari joylariga qaramaslik, mimika, bosh chayqash kabi harakatlar bilan uning har bir so`ziga qiziqishni bildiradi.
Samimiy qiziqish bildirish. Bu nafaqat suhbatdoshni o`ziga jalb qilib, balki keyin navbat kelganda o`zining har bir so`ziga uni ham ko`ndirishning samarali yo`lidir.
O`ychan jimlik. Bu suhbatdosh gapirayotgan paytda yuzda mas'uliyat bilan tinglayotganday tasavvur qoldirish orqali o`zingizning suhbatdan manfaatdorligingizni bildirish.
215

4. Muloqot o`zaro ta'sir usuli sifatida, muloqot darajasi

Shaxslararo muloqot jarayoni juda murakkabdir. B.F.Pariginning yozishicha, «muloqot shunchalik ko`p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o`zida quyidagilar kiradi»:
Individlarning o`zaro ta'sir jarayoni.
Individlar o`rtasidagi axborot almashinuvi jarayoni.
Bir shaxsning boshqa bir shaxsga munosabati jarayoni.
Bir kishining boshqalarga ta'sir ko`rsatish jarayoni.
Bir-birlariga hamdardlik bildirish imkoniyati.
Shaxslarning bir-birlarini tushinish jarayoni.
Muloqotning turli shakllari va bosqichlari mavjud:

Dastlabki bosqich–odamning o`z-o`zi bilan muloqotidir. T.Shibutani «Ijtimoiy psixologiya» kitobida «Agar odam ozgina bo`lsa ham o`zini anglasa, demak, o`zo` ziga ko`rsatmalar bera oladi», − deb yozgan edi.
Ikkinchi bosqichi boshqalar bilan muloqotdir. Odamning o`z-o`zi bilan muloqoti aslida uning boshqalar bilan muloqotining xarakterini va hajmini belgilaydi. Agar odam o`z-o`zi bilan muloqot qilishni odat qilib olib, doimo jamiyatdan o`zini chetga tortib yursa, demak, u boshqalar bilan suhbatlashishda jiddiy qiyinchilikni boshidan kechiradi deyish mumkin.
Uchinchi bosqich avlodlar o`rtasidagi muloqot. Bu muloqot tufayli har bir jamiyatning o`z madaniyati, madaniy boyliklari, qadriyatlari mavjud bo`ladiki, buning ahamiyatini tushungan insoniyatning eng ilg`or vakillari uni doimo keyingi avlodlar uchun saqlab keladilar hamda ta’lim-tarbiya va kundalik muloqot jarayonida uni avloddan-avlodga uzatadilar.
216
Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bo`lg`usi pedagog-psixologlardan psixolik bilimdonlik talab etiladi.Muloqotga o`rgatish hozirgi zamon kishisining turli ishlab chiqarish va muomala sharoitlarida to`g`ri moslashishga yordam beradi.
Buning uchun maxsus tayyorgarlik guruhlari yoki trening guruhlari tashkil etishni psixologlar taklif etishgan.
G`arbda shu maqsadda T-guruhlar tashkil qilinib, muloqot jarayonida qiyinchilik his etayotgan kishilar taklif etilgan. Ijtimoiy pisixologik treningning asosiy usullari − guruhiy munozaralar, rolli o`yinlar, psixologik sezgirlikni oshiruvchi treninglardir. Trening guruh a’zolari 7-15 kishigacha bo`lib, mashg`ulotlar bir necha kundan bir necha oylargacha davom etadi.
Ularning muloqot manbaida o`zini «o`zgalar» o`rniga qo`yish, ularning ichki olamini to`g`ri tushinish qobiliyati va istagi tarbiyalanadi.
Ijtimoiy psixologik treninglarga quyidagi metodik talablar qo`yiladi:
1. Munozara yoki o`yinlar jarayonida har bir ishtirokchi vaziyatni yoki rolni faol o`zlashtirib, har bir holatdan o`zi uchun xulosa chiqarishga olib kelish zarur.
2. T-guruhlarda muloqotning nutq shakllaridan tashqari, nutqsiz-noverbal shakllari ham keng qo`llanishi, ya’ni har bir ishtirokchi (o`rganuvchi) har bir harakat, ritmning mohiyatini ham tushunib uni hayotda ishlatishga ham erishish zarur.
3. Har bir ishtirokchi kundalik yuritib, uni har galgi mashg`ulotlardan so`ng o`ziga his-kechinmalari, muammolarni yechishdagi shaxsiy ishtiroki, tasavvurlarini odilona yozib borishi muhimdir.
4. T-guruhga qatnashish ixtiyoriy bo`lganligi uchun, har bir a’zo mashg`ulotlarni qoldirmaslikka harakat qilishi zarur, chunki bu a’zolarning o`zaro munosabatlariga, guruhning muhitiga bevosita ta’sir qiladi.
1. Mashg`ulotlar maxsus xonalarda, shovqin surondan holi yerda tashkil etilishi, shinam bo`lishi kerak.
2. Mashg`ulot o`tkazuvchi trener − maxsus tayyorgarlikdan o`tgan, xushmuomala, did bilan kiyingan, o`z kayfiyati yoki o`yinga shaxsiy munosabat bilan mashg`ulotlarning tabiiy kechishiga xalaqit bermasligi, sabr-toqatli, madaniyatli bo`lishi zarur.
217
Mashg`ulotlarni «yumaloq stol» yoki «to`rtburchak» stol atrofida gilam ustida, ba’zan tik turgan holda ham o`tkazish mumkin.

Hozirgi davrda T-guruhlar rahbarlarni muloqotga tayyorlash, mas'ul shaxslarni qayta tayyorlash kurslarida, psixologlar davrasidagina o`tkazilmoqda. Muloqotdagi bilimdonlik barcha mutaxassislarga zarur.

Amaliy psixolog xoh maktabda bo`lsin, xoh sanoat korxonasida yoki boshqa o`quv yurtida bo`lmasin, mahalliy sharoitni chuqur o`rgangan holda, u yerdagi rahbariyat bilan kelishib, T-guruhlar tashkil etmog`i va ham o`zining, ham atrofdagilarning bilimdonligini oshirib bormog`i zarur.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

1.Psixologik maslahatda "mijoz" va "konsultant" tushunchasining o`ziga xos jihatlari nimadan iborat?

2. O`zaro ta'sirda konsultant – "past" pozitsiyasi qanday namoyon bo`ladi?

3. Konsultant – "yuqori" pozitsiyasi va ularning dinamikasi haqida bayon eting.

3.Refleksiya tushunchasining mazmuni nima?

4. Muloqot o`zaro ta'sir usuli sifatida qanday namoyon bo`ladi?

5. Noverbal vositalar muloqotda qanday ahamiyatga ega.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Refleksiya tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?

*A. muloqot jarayonida suhbatdoshning pozitsiyasida turib, o`zini tasavvur qilishdir, o`ziga birovning ko`zi bilan qarashga intilishdir.

B.bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va hatti-harakatlariga ta'sir ko`rsata olishdir.

S. korxona (jamoa)ning tashkiliy tuzilishi, boshqaruv tizimi va ishlab chiqarish jarayoniga, hizmat ko`rsatish tizimini, mehnat va dam olish rejimini o`zlashtirish.

D. mehnat tashkilotidagi turmush xususiyatlari va bo`sh vaqtni o`tkazish an'analarini o`zlashtirish.

E. xodimlar uchun mehnat vaqtida zarur bo`ladigan shart-sharoitlarni o`zlashtirish jarayoni.

2.Psixologik ta'sir deganda nima tushuniladi?

218

A. muloqot jarayonida suhbatdoshning pozitsiyasida turib, o`zini tasavvur qilishdir, o`ziga birovning ko`zi bilan qarashga intilishdir.

*B.bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va hatti-harakatlariga ta'sir ko`rsata olishdir.

S. korxona (jamoa)ning tashkiliy tuzilishi, boshqaruv tizimi va ishlab chiqarish jarayoniga, hizmat ko`rsatish tizimini, mehnat va dam olish rejimini o`zlashtirish.

D. mehnat tashkilotidagi turmush xususiyatlari va bo`sh vaqtni o`tkazish an'analarini o`zlashtirish.

E. xodimlar uchun mehnat vaqtida zarur bo`ladigan shart-sharoitlarni o`zlashtirish jarayoni.

3.Ikki yoki undan ortiq kishilar o`rtasidagi axborot ayriboshlash,o`zaro ta'sir va bir-birini tushunishdan iborat jarayon bu ……

A. Afaziya.

*B. Muloqot.

S. Refleksiya.

D. Kommunikasiya.

E. Stereotiplashtirish.

4.O`zini boshqa kishi o`rniga qo`yish orqali unga o`zini tenglashtirish bu….

A.Kommunikasiya.

B. Muloqot.

*S.Identifikasiya.

D.Refleksiya.

E. Stereotiplashtirish.

5. Boshqa kishiga axborot beruvchi kishi bu …

A.Retsipient.

B.Axborot uzatuvchi.

*S.Kommunikator.

D.Afferent.
E.Efferent.
6. Berilgan axborotni qabul qiluvchi inson ……
*A.Retsipient.
B.Axborot uzatuvchi.
219
S.Kommunikator.
D.Afferent.
E.Efferent.
7. So`zlovchining nutqi qanday nutq hisoblanadi?
*A. Faol nutq.
B. Passiv nutq.
S. Monologik nutq.
D. Ichki nutq.
E. Tashqi nutq.
8.Tinglovchining nutqi …… hisoblanadi.
A. Faol.
*B. Passiv.
S. Monolog.
D. Ichki.
E. Tashqi.
9. Muloqotning qanday bosqichlari mavjud?
A.O`z-o`zi bilan muloqot.
B.Boshqalar bilan muloqot.
S.Ajdodlar bilan muloqot.
D. Tengdoshlar bilan muloqot.
*E.A,B,S javoblar to`g`ri.
10. ……ijtimoiy mavqeini egallab turuvchi har bir kishidan atrofdagilar kutadigan, ma'qullangan xulq- atvor namunasi tushuniladi.
A. Indentifikasiya.
*B. Rol.
S. Refleksiya.
D. Stereotipizatsiya.
E. Kommunikativ.
220

14- BOB. PSIXOLOGIK MASLAHAT VA PSIXOKORREKSIYANING TEXNOLOGIK ASOSLARI, O`ZARO TA’SIR USULLARI, DIREKTIVA, PARATEXNOLOGIYA

Reja:
1.Psixologik maslahat texnologiyalari: verbal texnologiya, emotsional texnologiya.
2.Texnologik ta’sir: direktiva va ularning turli tumanligi.
3.Interpritatsiya texnologiyasi.
4.Muloqot paratexnologik usul sifatida, muloqot turlari.

Mavzuning o`quv maqsadi: talabalarni psixologik maslahat va psixokorreksiyaning texnologik asoslari bilan tanishtirish.

Darsning vazifasi: Talabalarga psixologik maslahat texnologiyalari: verbal texnologiya, emotsional texnologiya; texnologik ta’sir: derektiva va ularning turli tumanligi haqida ma’lumot berish.

Tayanch tushunchalar:
Interpritatsiya, verbal texnologiya, emotsional texnologiya, muloqot,texnologik ta’sirda direktiv usul.

1.Psixologik maslahat texnologiyalari: verbal texnologiya, emotsional texnologiya

*Psixologik maslahatda mijozni kutib olish.*Mijozni kutib olish umumiy amali

doirasida (psixologik maslahatning birinchi bosqichi) psixolog-maslahatchiga quyidagi texnik uslub tavsiya etiladi: mijozni kutib olishda u bilan yuzma-yuz duch keladigan vaziyatni egallab, uni o`z o`rniga kuzatib qo`yiladi. Bu yerda o`zini boshqacha tutish kerak bo`ladigan qator alohida holatlar uchrab turishi mumkin. Mana shu vaziyatlarni ko`rib chiqamiz.
Agarda mijoz psixologik maslahat xonasiga kirib kelganida, u yerda hech kimni uchratmasa dovdirab qolishi mumkin. Mana shu holat maslahatlar paytidagi keyingi xulqiga ta'sir ko`rsatishi mumkin. Agarda mijoz xonaga kirganida unga hech qanday e'tibor bermaydigan insonlarni ko`rsa, nafaqat dovdirab, balki hafa ham bo`lishi mumkin. Ayniqsa, keyinchalik mana shu insonlar orasida psixolog-maslahatchi va uning yoramchisi bo`lganligi ma'lum bo`lib chiqsa, mijozning o`z o`rniga borib

o`tirishi yo`lida kutilmagan to`siqlar yuzaga kelganda ham uning psixologik kayfiyatini yomon tomonga o`zgartirishi mumkin. Mijozning o`zi maslahat o`tkazish joyiga kelib o`tirishi ham mumkin. Lekin bunday hollarda maslahatda o`z joyini izlashda, mijozda hech qanday muammolar yuzaga kelmasligi kafolatlanishi kerak. Agarda mijoz maslahat o`tkaziladigan xonaga kirib bo`lgan bo`lsa, insonlar, ayniqsa psixolog maslahatchi yoki uning yordamchisi o`tirib kutib olsalar, mijoz bu holni e'tiborsizlik yoki hurmatsizlik kabi qabul qilishi mumkin. Bunday mijoz bilan yaxshi psixologik aloqa o`rnatish qiyin bo`ladi. Bu tavsiyalar faqatgina psixolog-maslahatchi va uning yordamchisiga emas, balki shu vaqtda psixologik maslahatchi xonasida bo`lishi mumkin bo`lgan insonlarga ham taalluqli. Masalan, agarda mijoz kirib kelganida psixolog-maslahatchi va uning yordamchisi o`rnidan turib, boshqalar o`rnilaridan turmasalar, bu hol ham mijozda yaxshi kayfiyat uyg`otmaydi. Gap shundaki, boshqa holatlarda odob-axloq qoidalari bo`yicha katta yoshdagi insonlar yoki yuqori mansab vakillari o`tirishlari mumkin. Bularning ikkalasi ham psixologik maslahat o`tkazish uchun yaxshi emas, chunki mavjud qoidalar bo`yicha psixologik maslahatda mijoz uchun eng obro`li odam maslahatchi-psixolog bo`lishi kerak. Psixolog-maslahatchi yoki uning yordamchisi imkon qadar maslahat o`tkaziladigan joyni mijozga ko`rsatib uni oldinga o`tkazib yuborishlari va birinchi bo`lib o`z o`rnini egallashga unga imkon berishlari kerak. Mijozdagi tortinish kuchi yuzaga kelishini oldini olish va uni noqulay holatga solib qo`ymaslik, unga o`zini erkin va mustaqil tutishi, vaziyatni psixologik belgilab berishi uchun shunday harakat qilishi kerak. Bundan tashqari mana shu paytda mijoz o`z joyiga qanday borayotganligini, qanday holatda o`tirishini kuzatib psixolog-maslahatchi maslahatlarni muvaffaqiyatli olib borishi uchun ko`plab foydali xulosalar chiqara oladi. Agarda psixolog-maslahatchi joyiga birinchi bo`lib o`tirsa, unda mijoz buni maslahatchining undagi o`zini ustunligini namoyish etish kabi tushunishi mumkin, psixologik maslahatning yaxshi o`tishi uchun esa bu umuman kerak emas. Agarda mijozning o`zi obro`li va o`zini hurmat qiladigan inson bo`lsa, psixologmaslahatchining bunday noo`rin harakatlari psixologik maslahat o`tkazishga katta ta'sir ko`rsatadi. Har qanday sharoitda ham psixologik maslahatda psixolog

maslahatchi o`z o`rnini mijozdan keyin yoki bir vaqtda egallashi kerak. Mijozning joyiga borib qulay joylashib olmagunicha, u bilan hech qanday maxsus suhbat boshlash tavsiya etilmaydi. Birinchidan, odam harakatlanayotganida, ayniqsa joyiga borib o`tirayotganida gaplashish odobdan emas. Ikkinchidan, odam to o`z joyini

topib o`tirmagunicha, butun diqqatini bajarayotgan ishiga jalb etadi va natijada psixolog-maslahatchining gaplarini diqqat bilan tinglay olmaydi, uchinchidan, psixologik maslahatga birinchi bor kelgan har qanday inson o`zining muammosi to`g`risida psixolog-maslahatchi bilan jiddiy va mazmunli suhbatga tayyor bo`lmaydi. Mijoz yoki hayajonlanadi yoki qanchadir vaqt o`zining ilgarigi ishlari bilan bog`liq tashvishlar, fikrlar ta'siri ostida bo`ladi. Har qanday holda ham mijoz tinchlanishi va maslahatchi bilan jiddiy suhbatga psixologik tayyor bo`lishi uchun vaqt talab etiladi.

Mijozning psixologik maslahat xonasiga kirib kelganida, shu yer tinch bo`lishi, iloji bo`lsa xonada psixolog-maslahatchi va uning yordamchisidan boshqa hech kim bo`lmagani ma'qul. Agarda mijoz psixologik maslahat xonasiga kirib kelganida u erda tartib bo`lmasa, xona betartib bo`lsa bu albatta, unda salbiy emotsional ta'sirlanishni uyg`otadi. Betartib va iflos xonada psixologik maslahat o`tkazishdan foyda yo`q. Bunday holatlarda psixolog-maslahatchi qanchalik tartibli bo`lmasin, baribir yaxshi natijaga erishish mumkin bo`lmaydi, chunki noqulay vaziyat ta'siri ostida mijozning kayfiyati doim yomon bo`ladi. Agarda xonada maslahatlar o`tkazilayotgan paytda ko`plab keraksiz narsalar, nima uchun bu erda turganligini tushunib bo`lmaydigan buyumlar turgan bo`lsa, mijozni hayron qoldirishi va qattiq xavotirlanish holatini yuzaga keltirishi mumkin. Ayniqsa bu buyumlar unda xafv uyg`otadigan bo`lsa (masalan, magnitofon, mikrofon, videokamera va boshqa), bunday holatda mijozdan ayniqsa, dardini aytayotganda ochiqlik va samimiylikni kutish qiyin bo`ladi.

Psixolog-maslahatchining kiyimi qanday bo`lishi to`g`risida ikki og`iz so`z. Iloji boricha u oddiyroq, lekin did bilan, bayramona emas, lekin juda ham sodda bo`lmagan kiyimda bo`lgani ma'qul. Psixolog-maslahatchi maxsus ishchi kiyimlari kiyishi tavsiya etilmaydi. Masalan, shifokor xalatini kiyib qabul qilish mijozni

xavotirga soladi, u psixologik maslahat xonasini xayolan tibbiyot muassasasiga o`xshatadi, bu umuman kerak emas. Agarda mijoz jismoniy va psixologik sog`lom inson bo`lsa, u o`z-o`zidan bemorga qilinadigandek munosabatda bo`lishdan xafa bo`ladi. U agarda haqiqatdan ham bemor bo`lsa, lekin yanglishib shifokorga emas, balki psixolog-maslahatchiga murojaat qilsa (masalan, u xohlagan yordamni tibbiyot muassasalari ko`rsata olmagan bo`lsa) unda xalat kiyib kutib olgan kishini mijoz avvalgi muvaffaqiyatsiz tajribasini eslab, yana qattiq tashvishlanadi. Buning natijasida mijozda psixolog-maslahatchiga ishonchsizlik yuzaga keladi va unga haqiqatda yordam bera olishiga ishonmaydi. Boshqa tomondan bayramona kiyinib olgan psixolog-maslahatchining oldida odmigina kiyimda bo`lgan mijoz g`alati ko`rinishi mumkin, bunday holatdan ham mijoz o`zini noqulay his qiladi. Masalan, bunday hollarda mijozning fikr yuritishicha, psixolog-maslahatchida qandaydir muhim bir uchrashuv yoki bayram bo`lmoqda, hozir mijozning tashvishlari uni qiziqtirmaydi degan, fikr paydo bo`lishi mumkin. Bu albatta, mijozni maslahatchiga ishonch bilan ochiq munosabatda bo`lish, tashvishga solayotgan muammosini u bilan keng muhokama qilish imkonini bermaydi. Nihoyat juda ham oddiy, tartibsiz, deyarli uy kiyimida bo`lsa psixolog-maslahatchini ko`rib, mijoz uni shaxsan hurmat qilmaydi, degan fikrga kelishi mumkin.

Mijozni emotsional qo`llab-quvvatlash − psixolog-maslahatchi mijozni diqqat bilan tinglab, uning fikrini kuzatib borib, gaplari orasida muhim paytda va mijoz

unga e'tibor berganida, mijoz aytgan gaplarni ma'qullashini namoyon etib, mijozning so`zlari va harakatini ijobiy qabul qilayotganini namoyish qilganida sodir bo`ladi. Bu mijozga hamdardlik, mehribonlik, u gapirayotgan gaplardan qoniqayotganligini ifoda etishdan iborat.

2.Texnologik ta’sir: direktiva va ularning turli tumanligi

Psixoterapevt tashkilotchi va boshqaruvchilik rolini bajaruvchi har qanday terapevtik jarayonda psixoterapevtik maqsadlarga erishish uchun konsultant mas'uliyatni o`z zimmasiga oladi. Psixoterapiyada psixologning direktiv pozitsiyasi avtoritarlik yoki hamkorlikda namoyon bo`ladi.

224

Direktiv metodda psixoterapevt yuqori aniqlik bilan mijozda yuz berishi mumkin bo`lgan terapevtik o`zgarishlar muddati va sifatini oldindan aytib, uni rejali ravishda nazorat qiladi.

E.H.Porterning aniqlashicha, direktiv suhbatda mijoz konsultantga nisbatan kamroq so`zlar ekan. Direktiv va nodirektiv usullardagi suhbatlarda so`zlangan so`zlar miqdori hisoblanganda, direktiv suhbatda konsultant mijozga nisbatan to`rt marotaba ko`p gapirgani, nodirektiv suhbatda esa mijoz konsultantga nisbatan yetti marotaba ko`p so`zlagani aniqlangan.

Biz quyida direktiv va nodirektiv usullar o`rtasidagi farqni keltirib o`tamiz. Har bir xususiyatdan so`ng qavs ichida raqam keltirilgan bo`lib, bu raqamlar bir suhbat davomida uning qo`llanilish chastotasini anglatadi.

Suhbat davomida qo`llaniladigan usullar

(Qo`llanilish chastotasining kamayib borish tartibi bo`yicha)

Direktiv konsultantlar guruhi Nodirektiv konsultantlar guruhi

1. Mijozga “ha” yoki “yo`q” deb javob qaytariluvchi maxsus tor yo`nalishli savollar bilan murojaat qiladi − (34,1).

1. Mijoz namoyon qilgan hissiyot va munosabatni tan olib, buni u yoki bu usul bilan ifodalaydi − (10,3).

2. Vaziyat bo`yicha informatsiya beradi, tushuntiradi va tahlil qiladi − (20,3).

2. Xulq-atvorda maxsus harakatlar orqali yoki navbatdagi mulohazada ifodalangan hissiyot, munosabatni tan oladi va tahlil qiladi− (9,3).

3. Suhbat mavzusini taqdim etadi, ammo uning kechishini mijozga qo`yib beradi − (13,3).

3. Suhbat mavzusini taqdim etadi, ammo uning kechishini mijozga qo`yib beradi − (6,3).

4. Mijozni faollikka undaydi − (9,4). 4. Mijoz tomonidan bildirilgan fikrning mantiqiy mazmunini tan oladi− (6,0).

5. Mijoz tomonidan bildirilgan fikrning mantiqiy mazmunini tan oladi − (6,1).

5. Mijozga “ha” yoki “yo`q” deb javob

qaytariluvchi maxsus tor yo`nalishli

savollar bilan murojaat qiladi − (4,6).
6. Dalillarni tartibga keltirib, mijozni
taklif etilgan faoliyatni bajarishga
ko`ndiradi− (5,3).
6. Muammoning o`ziga yoki uni
davolashga tegishli bo`lgan biror
ma'lumot beradi, tushuntiradi,
muhokama qiladi− (3,9).
7. Korreksiyani taqozo etuvchi
muammo va shartni ko`rsatadi − (3,7).
7. Mijoz bajara olishi uchun unga
mas'uliyatni yuklagan holda suhbat
vaziyatini belgilaydi − (1,9).
Direktiv metoddan mey'ordan og`ishgan, aqli zaif insonlar yoki bolalar bilan ishlashda foydalanish mumkin.

3.Interpritatsiya texnologiyasi

Interpretatsiya(izohlash) voqealarni asosiy mazmuni yoki sababini aniqlash demakdir.

Mijozning gaplaridan to`g`ri xulosa chiqarish, uning muammosini baholashda xatoga yo`l qo`ymaslik hamda mijozning arzini to`g`riligiga uning o`zini ishontirish uchun psixolog-maslahatchi tushuntirish jarayonida quyidagi qoidalarga amal qilishi kerak:

Xulosa chiqarishga shoshmaslik kerak. Iloji boricha mijoz dardini aytib bo`lganidan keyin u bilan muloqotda 10-15 minut tanaffus qilish kerak, bu tanaffus paytida tinglashdan chalg`itishga, o`ylab ko`rishga, xulosa chiqarishga imkon beruvchi biror bir ish bilan shug`ullanish kerak. Bunday tanaffus faqat psixologmaslahatchiga
emas, mijoz uchun ham zarur. Tanaffus paytida u dardlarini uzoqlashishi, tinchlanishi, maslahatchini tinglashga va u bilan amaliy suhbatga psixologik tayyorlanishi mumkin bo`ladi. Bunday tanaffus paytida, masalan, choy ichishni tashkil etib, mijozni taklif etishi, uning muammosini muhokama qilishni choy ichish paytida davom ettirishini aytish mumkin.

Maslahatchi mijozning muammosini tinglayotgan paytda ular asosida xulosa chiqarishi mumkin bo`ladigan faktlarni e'tibordan chetda qoldirmasligi va uni hal

qilish usuli bir-biriga qarama-qarshi, bir-biriga mos kelmaydigan bo`lib qolmasligi uchun diqqat bilan tinglab borishi zarur. Agarda dardini bayon qilayotgan paytda bu muhim qoidaga amal qilinmasa,unda faktlardagi qarama-qarshiliklar albatta, mana shu faktlardan kelib chiqqan xulosalardagi qarama-qarshilikka olib keladi. Bu fikrlash mantiqi qonunidir.

Faktlarni tushuntirish bir tomonlama bo`lib qolmasligini, ya'ni biror-bir nazariyani yoki tushuntirishning boshqasi oldida afzalligi bo`lmasligini ham kuzatib borish zarur.

Yuqorida aytib o`tilganlardan quyidagi muhim xulosa kelib chiqadi: hech bir izohlash mazmuni bo`yicha qanday bo`lmasin yagona mumkin bo`lgan tushuntirish

usuliga ega bo`lishi mumkin emas. Shu bilan birga taklif etilayotgan tushuntirishlar haddan tashqari ko`p bo`lmasligi kerak, aks holda ularni bir-biriga moslashtirish qiyin bo`ladi va umuman, ular chalkashib, yanglishib ketishi mumkin. Mijozga uning muammosini tushuntirib berar ekan, psixolog-maslahatchi oxir oqibat umumiy, lekin ushbu muammoni yagona (nazariy mazmunda) talqinini berishi kerak. Ushbu talab yuqorida aytilganlarga zid hisoblanmaydi. Gap shundaki, avvalgi punktlarda ifoda etilgan qoidalar muammo mohiyatini mijozning o`zi tushunishiga emas, balki asosan, psixolog-maslahatchining fikrlashiga taalluqlidir. U xulosalar asoslangan nazariyalarni emas, balki tushunarli shaklda xulosalarning o`zini aytishi kerak, ya'ni o`zining fikrlashi, shu jumladan, nazariy mulohazalari natijasida kelgan xulosasini aytishi kerak. Bundan tashqari bu ishni ilmiy shaklda emas, balki oddiy, tushunarli usulda bajarishi kerak. Yuqorida aytilganlardan mijozning dardini bayon etishini nazariy to`g`ri, har tomonlama va bog`liqlikda amalga oshirish uchun psixologmaslahatchining
o`zi har tomonlama nazariy tayyorlangan bo`lishi kerak, degan
xulosa kelib chiqadi. Psixolog-maslahatchini yaxshi umumnazariy tayyorlash odamlar psixologik maslahatga murojaat etishlari mumkin bo`lgan muammolar doirasini qamrab oluvchi turli psixologik nazariyalar bilan uni chuqur tanishtirishni ko`zda tutadi. Lekin bu yetarli emas, mijoz muammolarini tushuntirishda yana psixolog-maslahatchini har tomonlama amaliy tayyorlash ham kerak. Bu tayyorgarlik, xususan, mijoz dardini bayon etishda faqat tushuntirishni bilish emas,

balki turli nazariyalardan foydalanib o`z xulosalarini to`g`ri ifoda etishni bilishini ko`zda tutadi. Bundan amaliy malakalar turli psixolog-maslahatchilar jamoasida – turli psixologik nazariyalarni yuksak kasbiy darajada egallagan mutaxassislar jamoasida ishlaganida yaxshi yuzaga keladi. Bir muammo bo`yicha o`zining kasbiy yo`nalishi bo`yicha turli mutaxassislarning hamkorliklarida amalga oshiriladigan psixologik konsilium deb ataluvchi ishlarni tez-tez o`tkazib turish ham tavsiya etiladi. Bunday konsiliumlar ayniqsa, psixolog-maslahatchining mustaqil amaliy faoliyati boshlanishida foydali bo`ladi.

4.Muloqot paratexnologik usul sifatida, muloqot turlari

Mijoz bilan suhbatni boshlash bo`yicha texnika psixolog-maslahatchi mijoz bilan shaxsan tanishayotganida va uning muammosini batafsil aniqlashga kirishayotganda foydalanishi mumkin bo`lgan uslublarni o`z ichiga oladi. Mijoz bilan yuzma-yuz uchrashib, o`z joyiga joylashib o`tirib olganidan keyin, psixologmaslahatchi diqqat va do`stona munosabat, yuzida tabassum va shirin so`zlar bilan munosabatda bo`lishi kerak. Masalan «men sizni bu yerda ko`rganimdan judayam xursandman, siz bu erga murojaat etib, to`g`ri qilgansiz. Ishonamanki, bizning uchrashuvimiz va suhbatimiz hamda hamkorlikdagi ishlarimiz siz uchun va men uchun ham yoqimli va foydali bo`ladi. Avvalo, keling yaxshilab tanishib olaylik». Shundan keyin psixolog-maslahatchi ismi familiyasini aytib o`zini tanishtiradi va mijozdan o`zi to`g`risida gapirib berishini iltimos qiladi. Keyin mijozga shunday savol bilan murojaat etish mumkin: «ismi sharifingiz», (agarda psixolog-maslahatchi mijozning ismi sharifini oldindan bilmasa?), «qanday muammolar sizni tashvishlantirmoqda», «nima masala yuzasidan keldingiz». Shundan keyin odatda mijozga fikrini jamlab olishi va unga beriladigan savollarga aniq va tez javob berishi uchun zarur bo`lgan kichik tanaffus qilinadi. Agarda tanaffus uzayib ketsa va mijoz

unga berilgan savollarga javob berishda qiynalsa, hayajonlansa yoki gapni boshlab birdaniga to`xtab qolsa, psixolog-maslahatchi yuzaga kelgan vaziyatga darhol aralashishi tavsiya etilmaydi. Psixolog-maslahatchi mijozning o`zi gapni davom ettirishini sabr va toqat bilan kutishi ma'qul hisoblanadi. Agarda tanaffus juda cho`zilib ketsa va mijoz qiyin ahvolga tushib qolgani tushunarli bo`lib, gapni
228
nimadan boshlashni bilmay qiynalsa, unda psixolog-maslahatchining o`zi mijozga murojaat etib, quyidagi gaplarni aytishi tavsiya etiladi:«gapiravering, sizni diqqat bilan eshitaman», «sizning har bir aytgan gapingiz men uchun juda muhim, marhamat davom ettiravering». Agarda shundan keyin ham mijoz gapirmasa, unda psixolog maslahatchi undan so`rashi mumkin «aytingchi, nima sababdan gapirmayapsiz? Gapirishingizga nimadir halaqit qilayaptimi? Keling, buni birgalikda muhokama qilaylik, sizga yordam berishga harakat qilaman».
Shundan keyin mijozning o`zi suhbatni davom ettirsa, psixolog-maslahatchi uning gapini bo`lmasdan sabr, chidam bilan va bir do`stining dardini tinglayotgandek tinglashi kerak. Agarda mijoz qiynalib, hayajonlanib gapirmasa, gapni nimadan boshlashni bilmay to`xtab qoladigan bo`lsa, psixolog-maslahatchi mijozga berilgan savollar mazmuni yoki mijoz javob bergan savollar mazmuni asosida oson javob berishi mumkin bo`lgan qo`shimcha savollar beradi. Agarda psixolog maslahatchi ancha tajribali bo`lsa qo`shimcha va yo`naltiruvchi savollar yordamida tezda mijozni gapirtirishga erisha oladi, psixologik to`siqni yo`qotadi va kerakli ma'lumotlarni oladi. Psixolog-maslahatchining savollariga javob qaytarishda mijoz jiddiy qiyinchilikka duch kelgan hollarda mijozning ortiqcha psixologik asabiylashishini yo`qotishga uni ancha ochiq gaplashishiga yordam beruvchi quyidagi uslublardan foydalanish tavsiya etiladi:
Mijozga sezdirmasdan xonadan barcha begonalarni, masalan, sekretar – laborant, yordamchini chiqarib yuborib mijoz bilan yakkama-yakka qolish. Har doim bu ishni muloyimlik bilan amalga oshirish mumkin.
Bu holatda aksincha yo`l tutish ham mumkin. Maslahatlar xonasiga mijozga ancha yaqin bo`lgan,uni tinchlantira oladigan va psixolog maslahati bilan suhbatni osonlashtiradigan biror kishini taklif qilish mumkin. U kishini mijozning yoniga yoki psixolog-maslahatchi va mijozning o`rtasiga o`tqazish mumkin.
Mijoz bilan suhbat boshlaganda psixolog-maslahatchining o`zi mijoz bilan qiyinchiliksiz oson va erkin gaplasha olishi muhim. Aks holda uning shaxsiy hayajonlanishi, asabiyligi va ishonchsizligi mijozga ham o`tishi mumkin.
229
Hayotda, har bir insonda, shu jumladan tajribali psixolog-maslahatchida ham odamlar bilan munosabatlarda qiyinchiliklar uchrab turishi mumkinligi sababli endi boshlayotgan psixolog-maslahatchiga o`zi ham muloqatlar treningidan o`tishi, iloji boricha o`zidan mana shunday muammoni yo`qotishi yoki kamaytirishi tavsiya etiladi. Mijoz bilan uchrashuv oldidan u bilan bo`ladigan suhbatni, ayniqsa boshlanish qismini mashqqilib olish foydali bo`ladi.
O`zini kommunikativ malaka va ko`nikmalarini takomillashtirishi uchun psixolog-maslahatchiga mijoz bilan psixologik maslahatda uchrashganda unga foydali bo`ladigan nutqiy odob qisqa shakllarini o`zlashtirib olishi tavsiya etiladi.
Mijozni tinchlantirish, undagi mavjud komplekslar ta'sirini va munosabatlardagi psixologik to`siqlarni yo`qotish, mijozning psixologik

xafvsizligini ta'minlovchi jismoniy va psixologik qulaylik muhitini yaratib beruvchi texnik uslublarni o`z ichiga olishi mumkin. Bu uslublarga quyidagilar kiradi:
 bir necha vaqt mijozni bir o`zi bo`lishiga imkon berish. Masalan, bir necha daqiqa hech kim bilan gaplashmay yakka o`tirishi. Bu vaqtda psixolog maslahatchi o`z xonasida biror ish bilan mashg`ul bo`lishi yoki bir necha daqiqaga chiqib ketishi mumkin;
 mijoz xonada o`tirib maslahatchi bilan bo`ladigan suhbatga o`zini tayyorlayotganda, maslahat xonasida yoqimli musiqa qo`yish mumkin.
− suhbat paytida mijozning qo`liga biror bir katta bo`lmagan yoqimli predmetni, masalan o`yinchoqni berib qo`yish;
 Psixolog maslahatchi bilan suhbat paytida, biror bahona o`ylab topish, masalan, psixolog-maslahatchiga kichik bir iltifot ko`rsatish, yordam qilish asosida mijoz o`z qo`llari bilan qandaydir harakatlarni bajarishini taklif etish.
Yuqorida aytib o`tilgan harakatlarni amalda, turli kombinatsiyalarda, alohida bir-biri bilan turli birliklarda qo`llash mumkin. Mijozda psixologik keskinlikni yo`qotish va dardini ifoda etish bosqichida uning hikoyasini faollashtirish. Psixologmaslahatchiga
yo`naltirilgan mijozning o`zi va o`z muammolari haqidagi to`la, ochiq, samimiy, emotsional mazmunli hikoyasini psixologik maslahatda dardini izhor etish deb ataladi.

Mijozning dardini aytishi uchun, asosan, psixologik maslahat o`tkazish boshida qo`llaniladigan yuqorida aytib o`tilgan uslublardan tashqari, dardini aytish davomida qo`llaniladigan psixolog-maslahatchining quyidagi amaliy harakatlari yordamida qulay psixologik muhitni yaratish mumkin.
1. «Oydinlashtirish». Takrorlash – bu uslub mijozga sezdirmay, uning gap va harakatlarini takrorlashdan iborat bo`ladi. Xususan, ishoralari, mimikasi, pantomimika, gapi, ohangi, mijoz gapidagi tanaffuslarni takrorlash mumkin. Mijoz uning muammolari to`g`risida, o`zi haqida gapirib turib, maslahatchiga ko`z tashlaganda takrorlash ayniqsa muhimdir.
2. «Perifraza». Mijoz dardlarini aytayotganida psixolog-maslahatchi tomonidan mijozning gapi mazmunini tushunish, aniqlash uchun aytiladigan sekin, gap davomidagi replika, luqma. Perifrazadan foydalanganida psixolog-maslahatchi mijozni tinglab turib mijoz gapi orasidagi tabiiy yuzaga keladigan tanaffuslarda qisqacha, o`z so`zlari bilan, tasdiqlash yoki savol tariqasida mijoz aytgan gaplarni takrorlaydi. O`z navbatida uni tushunayotganlarini to`g`riligini tasdiqlashini yoki rad etilishini kutadi. Perifrazani masalan quyidagi so`zlar bilan boshlash mumkin: «Shunday qilib...», «Siz aytdingiz-ki...», «Men sizni to`g`ri tushundimmi, siz aytdingiz-ki...». Mijoz aytgan oxirgi so`zlarni shunchaki savol shaklida takrorlash va undan aytilgan gaplar to`g`riligini tasdiqlashni yoki rad qilishni kutish mumkin.
3. «Umumlashtirish» − bir tomondan perifrizani eslatuvchi uslub, lekin mijoz aytgan oxirgi so`zga taalluqli emas, balki bir necha fikrlar va gaplardan tashkil topgan butun bir fikr-mulohazaga taalluqli. Mijozning oxirgi fikrini qanday bo`lsa shundayligicha takrorlaydigan perifrazadan farqli ravishda umumlashtirish uning fikrini erkin, lekin juda aniq umumlashtirilgan shaklda berishdan iborat bo`ladi. Umumlashtirishni, masalan, quyidagi so`zlar bilan boshlash mumkin: «Shunday qilib, siz aytgan gaplarni umumlashtirgan va qisqa shaklda ifoda etadigan bo`lsak, unda

buni shunday bajarsak bo`ladimi...?», «Agarda aytilganlarga qisqacha yakun yasasak, unda buni shunday tushuntirish mumkin...».
4. Mijozning fikrini rag`batlantirib turuvchi «nima», «qanday», «qanday qilib», «nima uchun» kabi savollarni uning oldiga qo`yish uslubi. Bu uslub odatda,

psixolog-maslahatchi uchun mijoz fikrida o`zi uchun biror holatni oydinlashtirib olish zarur bo`lganida hamda mijozning gapirishda qanday davom etishni bilmay qiynalib turgan paytida foydalaniladi.
5. Mijoz bilan suhbatda uning tili xususiyatlarini egallab olish va foydalanish. Maslahatchi diqqat bilan mijozni tinglab uning nutqi uslubini xususiyatlarini anglab olishga harakat qiladi, uning so`zlari, iboralari, ifoda etishini diqqat bilan kuzatadi. Uni aniqlab va o`zlashtirib olib, psixolog-maslahatchi bir oz vaqtdan keyin mijoz bilan muammo paytida mana shu nutqiy uslublardan ongli ravishda foydalana boshlaydi, ya'ni mijozga sezdirmay uning nutqi xususiyatlarini takrorlay boshlaydi. Natijada, mijoz va psixolog-maslahatchi o`rtasida psixologik umumiylik va avvalgidan ham ko`ra kuchliroq bir-birini tushunish yuzaga keladi. Mijoz o`zi bilmagan holda psixolog-maslahatchini unga psixologik jihatdan yaqin odam sifatida qabul qiladi va unga o`zini yaqin tuta boshlaydi. Biroq psixolog-maslahatchi uni mazax qilayapti degan fikr yuzaga kelmasligi uchun bu usuldan foydalanishni juda ham oshirib yuborishi kerak emas.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

1.Psixologik maslahat texnologiyalari: verbal texnologiya, emotsional texnologiya haqida bayon eting.
2.Texnologik ta’sir: direktiva va ularning turli tumanligi nimalarda namoyon bo`ladi?
3.Interpritatsiya texnologiyasi nimadan iborat?
4.Muloqot paratexnologik usul sifatida qanday namoyon bo`ladi?
5. Psixologik maslahatda qo`llaniluvchi muloqot turlari haqida bayon eting.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Interpretatsiya tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?
*A. Voqealarni asosiy mazmuni yoki sababini aniqlash.
B.Turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va xatti-harakatlariga ta'sir ko`rsata olish.
S. Mijozga sezdirmay, uning gap va harakatlarini takrorlash.
D. Mijozning individual xususiyatlarini o`rganish.
E. Mijoz bilan suhbatda uning tili xususiyatlarini egallab olish va foydalanish.

2. Psixologning tashqi ko`rinishi va kiyimi qanday bo`lishi lozim?
A. Oxirgi modada bo`lishi.
B.Sodda, odmi bo`lishi.
*S.Auditoriyaga mos bo`lishi.
D. Kostyum yubkada bo`lishi.
E. Barcha taqinchoqlarni taqishi.
3. Psixologning mijoz bilan muloqot jarayonidagi «Oydinlashtirish» uslubi nimani anglatadi?
A. Mijoz aytgan oxirgi so`zlarni shunchaki savol shaklida takrorlash va undan aytilgan gaplar to`g`riligini tasdiqlashni yoki rad qilishni kutish.
B.Mijozning fikrini erkin, lekin juda aniq umumlashtirilgan shaklda berish.
S.Mijozning fikrini rag`batlantirib turuvchi «nima», «qanday», «qanday qilib», «nima uchun» kabi savollarni uning oldiga qo`yish.
*D. Mijozga sezdirmay, uning gap va harakatlarini takrorlash.
E. Mijoz bilan suhbatda uning tili xususiyatlarini egallab olish va foydalanish.
4. Pedagogik reabilitatsiya funktsiyasining mazmuni nima?

A. O`quvchilarni nazorat qilish.
B.O`quvchilarni boshqarish.
*S.O`quvchilarning obro`sini ko`tarish.
D. O`quvchilarga ishonish.
E. Tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlash.
5. Psixolog o`zini maktabda reklama qilishi necha bosqichdan tashkil topadi?
A. 1.
B.2.
S.3.
*D. 4.
E. 5.
6. Psixologning mijoz bilan muloqot jarayonidagi «Perifraza» uslubining mohiyati nimadan iborat?
*A. Mijoz dardlarini aytayotganida psixolog-maslahatchi tomonidan mijozning gapi mazmunini tushunish, aniqlash uchun aytiladigan sekin, gap davomidagi replika, luqma.
233
B.Mijozning fikrini erkin, lekin juda aniq umumlashtirilgan shaklda berish.
S.Mijozning fikrini rag`batlantirib turuvchi «nima», «qanday», «qanday qilib», «nima uchun» kabi savollarni uning oldiga qo`yish.
D. Mijozga sezdirmay, uning gap va harakatlarini takrorlash.
E. Mijoz bilan suhbatda uning tili xususiyatlarini egallab olish va foydalanish.
7. Psixologning mijoz bilan muloqot jarayonidagi «Umumlashtirish» uslubi nimani anglatadi?
A. Mijoz dardlarini aytayotganida psixolog-maslahatchi tomonidan mijozning gapi mazmunini tushunish, aniqlash uchun aytiladigan sekin, gap davomidagi replika, luqma.
*B.Mijozning fikrini erkin, lekin juda aniq umumlashtirilgan shaklda berish.
S.Mijozning fikrini rag`batlantirib turuvchi «nima», «qanday», «qanday qilib», «nima uchun» kabi savollarni uning oldiga qo`yish.
D. Mijozga sezdirmay, uning gap va harakatlarini takrorlash.
E. Mijoz bilan suhbatda uning tili xususiyatlarini egallab olish va foydalanish.
8. Maktabga bolalarni qabul qilishda asosan qaysi testdan foydalaniladi?
A. Kettel.
B. Ayzenk.
S. Klimov.
D. Dembo-Rubinshteyn.
*E. Kern-Yirasek.
9. Kasbiy qiziqishlarni aniqlashda asosan qaysi testdan foydalaniladi?
A. Kettel.
B. Ayzenk.
*S. Klimov.
D. Dembo-Rubinshteyn.
E. Kern-Yirasek.
10. Kasb tanlash muammolarini hal qilishda qanday testlardan foydalaniladi?
A. DDS.
B. Qiziqishlar xaritasi.
S. Xolland metodikasi.
*D. Barcha javoblar to`g`ri.
E. Kasbiy motivatsiyani aniqlash metodikasi.
234

15-BOB. PSIXOLOGIK MASLAHAT VA PSIXOKORREKSIYANING ASOSIY TEXNIKA VA METODLARI

Reja:

1.Intervyu psixologik maslahatning asosiy metodlaridan biri sifatida.
2.Intervyuning besh qadamlik modeli.
3.Psixologik maslahat texnikasi. Shartnoma tuzish, ma’lumotlarni qayd etish, psixologik maslahatni

“joyi”, xronometraj psixologik maslahat, psixologik maslahatni texnik asoslari va bosqichlari.
4.Psixlogik maslahatdagi xatolar: xato turlari, uning sabablari va ularni bartaraf etish usullari.
5.Psixokorreksiya metodlari: o`yinterapiyasi, artterapiya, psixogimnastika, xulq-atvor psixokorreksiyasi metodlari, psixodramma.
Mavzuning o`quv maqsadi: talabalarni psixologik maslahat va psixokorreksiyaning asosiy texnika va metodlari bilan tanishtirish.
Darsning vazifasi: Talabalarga psixologik maslahat texnikasi va psixlogik maslahatdagi xatolar, shuningdek,psixokorreksiya metodlari haqida ma’lumot berish.
Tayanch tushunchalar: Intervyu, psixologik maslahat texnikasi, o`yinterapiyasi, artterapiya, psixogimnastika, xulq-atvor psixokorreksiyasi, psixodramma, psixokorreksiya.

1.Intervyu psixologik maslahatning asosiy metodlaridan biri sifatida

Mijoz muammosini tadqiq qilish mutaxassis tomonidan quyidagi usullardan foydalanish natijasida olib boriladi: suhbat, intervyu, psixologik testlar.
Suhbat, mutaxassis tomonidan maqsadga yo`naltirilgan holda tashkil qilinganda, butun psixokorreksiya jarayonini olib borishni asosiy usuli hisoblanadi. Bunda «mijoz-mutaxassis» muloqoti jarayonida olingan aniq ma'lumotlar asosida tadqiqotchini qiziqtirayotgan bog`liqlik aniqlanadi. Psixologik (ruhiy) maslahatlashuv turli bosqichlarda qo`llaniladi. Suhbatning spetsifik turi sifatida intervyu farqlanadi.
Intervyu – og’zaki so’rov yordamida ijtimoiy ruhiy
ma'lumotlar olish usulidir.
235
Erkin intervyu suhbat mavzusi va shakliga bog`liq emas va zarur ma'lumot olishda mijoz bilan hamkorlik qilishga mo`ljallangan. Uning yutuqlariga mijoz va uning muammolari haqida to`liq ma'lumot olish imkoniyatini berishida, mijozning bevosita o`zini tutishi ish doirasidagi reaksiyalarini mutaxassis kuzatish imkoniga ega bo`lishi, kamchiligiga ega – juda katta vaqt oralig`ini kiritish mumkin.
Standartlashgan intervyu shaklan anketaga yaqin, biroq javob shakllantirishda mijozning imkoniyatlari kengroqdir.
Muammoni tushunish uchun maslahatlashuv jarayonining boshidayoq ushbu metoddan foydalanish juda foydalidir.
Intervyu o`tkazishga odam maxsus ravishda tayyorgarlik ko`rishi kerak, chunki u odamdan qator muhim sifatlarning bo`lishini talab qiladi. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiyada "rolli o`yinlar" metodi yordamida psixolog yoki sotsiologlar maxsus tayyorgarlik kursidan o`tadilar.

2.Intervyuning besh qadamlik modeli

Intervyu (interview − suhbat) − bu ijtimoiy psixologiya metodi bo`lib, qo`yilgan savollarga berilgan javob tariqasida axborotlarni to`plash usuli.
Suhbat metodidan to`g`ri foydalanish va undan kutiladigan natijaga erishish suhbat o`tkazish uchun puxta tayyorlanishga bog`liqdir.
236
Suhbat metodining yuqorida ta'kidlangan ijobiy jihatlari bilan birga ayrim zaif tomonlari ham mavjud. Takrorlangan so`zlar, "g`aliz" iboralar nutqning tezligi, fikrning mavhumligi, zerikarliligi, muvaffaqiyatsizlikka sabab bo`ladi. Shuningdek, savol-javobning bir xil shaklda emasligi sinaluvchida oshkoralikning yetishmasligi, iymanish, uyalish holatlarini yuzaga chiqarib, atroflicha ma'lumotlar olishni qiyinlashtiradi va shu sababli boshqa metodlarga murojaat qilishga to`g`ri keladi.
Shunday qilib, so`roq metodlari tadqiqotchi bilan tekshiriluvchining bevosita (suhbat, intervyu) yoki bilvosita (anketa) muloqoti tufayli birlamchi ma'lumotlar to`plash usulidir. Odamlar tilidan yozma yoki og`zaki tarzda olingan fikrlar

ma'lumotlarning manbai bo`lib xizmat qiladi. Eng yaxshi suhbat yoki intervyu bu bevosita, erkin fikr almashinuvi sharoitida o`zaro fikr almashinuviga qaratilgan muloqotdir. Chunki suhbatdan farqli, intervyu aniq muammo doirasida, qat'iy bir yo`nalishda olib boriladi. Intervyu oluvchi suhbatdoshga nisbatan neytral mavqeda bo`lib, uning fikrlashiga xalaqit bermasligi, ayniqsa, unga taz'yiq o`tkazmasligi lozim. Intervyu jarayonining samarali kechishi uchun suhbatdoshda o`ziga nisbatan ijobiy munosabat shakllantirib, birinchi so`zlarni aniq, ravon, ifodali bayon qilish muhimdir.

Turli manbalarda odatda intervyuning besh qadamlik modeli keltirib o`tiladi.

237

Intervyuning birinchi bosqichi – o`zaro ishonch va tushunishni shakllantirish. Bunda psixolog mijoz bilan o`zaro ta'sirdagi mavzuni belgilashga vaziyat hozirlaydi, u bilan emotsional kontakt o`rnatadi. Ushbu bosqich psixolog mijozni tushuna olganida, mijozning esa psixologga to`la ishona olganida yakunlanadi.

Intervyuning ikkinchi bosqichi. Bu bosqichda psixolog quyidagi savollarga javob izlaydi: mijoz nima uchun keldi? U o`z muammosini qanday ko`radi? Ushbu muammoni hal qilishda uning imkoniyatlari qanday? Mijozning maqsadi aniq bo`lganidan so`ng, psixolog mavzuni belgilashga qaytadi.

Intervyuning uchinchi bosqichi. Psixolog bu bosqichda mijoz xohlayotgan natijani aniqlaydi. Psixolog mijozga o`zining ideali va qanday bo`lishni xohlayotganini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, xohlangan natijaga erishilganda qanday o`zgarishlar sodir bo`lishi muhokama qilinadi.

*Intervyuning to`rtinchi bosqichi.* Bu bosqichda alternativ qarorlar ishlab chiqiladi. Psixolog va mijoz muammo yechimining turli variantlarini ishlab chiqadilar. Alternativlarni qidirish rigidlikdan qochish va qarama-qarshilik o`rtasida javob izlash maqsadida amalga oshiriladi. Ular birgalikda mijozning shaxsiy dinamikasini tadqiq etadilar. Bu bosqich uzoq vaqt davom etishi mumkin. Psixolog shuni unutmasligi lozimki, u uchun ma'qul bo`lgan javob varianti mijozni qoniqtirmasligi mumkin. Ammo ba'zi mijozlarga aniq direktiv tavsiyalar berishga to`g`ri keladi.

Intervyuning beshinchi bosqichi − avvalgi bosqich xulosalarini umumlashtirish, o`rganishdan harakat bosqichiga o`tiladi.

3.Psixologik maslahat texnikasi.

Psixologik-maslahat butun jarayoni boshidan-oxirigacha maslahatlar asosiy bosqichlari ketma-ketligidan iborat bo`lishi mumkin. Maslahatlar davomida ulardan har biri o`ziga zarur, alohida bir masalani hal qiladi va o`ziga xos xususiyatga ega. Psixologik maslahat o`tkazishning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

1.Tayyorgarlik bosqichi. Bu bosqichda psixolog-maslahatchi qayd etish jurnalidagi dastlabki yozuvlar hamda uchinchi shaxslardan, masalan, maslahat

238

o`tkazishga mijozdan buyurtma qabul qilgan psixologik maslahat xodimidan mijoz to`g`risidagi ma'lumotlar bilan tanishib chiqadi. Ishning bu bosqichida psixologmaslahatchi

o`zi ham psixologik maslahat o`tkazishga tayyorlanadi.

2.Yo`naltirish bosqichi. Bu bosqichda psixolog maslahatchi mijoz bilan tanishadi va mijoz bilan birgalikda ishlashga tayyorlanadi. Mijoz ham o`zi tomonidan shunday qiladi. Agarda maslahat o`tkazish uchun boshqa barcha tayyorgarliklar

amalga oshirilgan bo`lsa, bu bosqich o`rtacha 5-7 daqiqa vaqt talab etadi.
3. Diagnostik bosqich. Ushbu bosqichda psixolog-maslahatchi mijozning muammolarini tinglaydi va uni tahlil qilish asosida mijozning muammosini tushunib, aniqlab oladi. Ushbu bosqichning asosiy mazmuni mijozning o`zi va o`z muammosi to`g`risidagi ma'lumotlari hamda mijozning muammosini aniqlash va uni hal etishning to`g`ri yo`lini topish uchun mijozni psixodiagnostik tekshiruvdan o`tkazishdan iborat bo`ladi. Psixologik maslahat o`tkazish uchun aniq vaqtni belgilash ancha qiyin, chunki vaqtni belgilashda ko`p narsa mijozning muammosi va uning individual xususiyatlariga bog`liq bo`ladi. Aslida bu vaqt psixologik testlar o`tkazishdan tashqari, kamida bir soatni tashkil etadi. Ba'zida psixologikmaslahatning bu bosqichi to`rt soatdan 6-8 soatgacha vaqt talab etishi mumkin bo`ladi.
4. Tavsiyalar berish bosqichi. Psixolog-maslahatchi avvalgi bosqichlarda mijoz va uning muammosi to`g`risida yetarli ma'lumotlar to`plab, ushbu bosqichda mijoz bilan birgalikda uning muammosini hal etish bo`yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqadi. Bu yerda tavsiyalar aniqlashtiriladi, oydinlashtiriladi, har taraflama puxta ishlab chiqiladi. Psixologik maslahatning bu bosqichini o`tkazishga sarflanadigan o`rtacha vaqt odatda, 40 daqiqadan bir soatgacha vaqtni sarflaydi.
5. Nazorat bosqichi. Ushbu bosqichda psixolog-maslahatchi va mijoz bir-biri bilan mijoz olgan tavsiyalar va amaliy maslahatlarning qanday amalga oshirilishi, qanday nazorat qilib borilishi va baholanishi to`g`risida kelishib oladilar. Shu yerning o`zida ishlab chiqilgan tavsiyalarning bajarilishi davomida yuzaga kelishi mumkin bo`lgan qo`shimcha masalalarni psixolog-maslahatchi va mijoz, keyinchalik qayerda va qanday qilib muhokama qilishlari to`g`risidagi masala ham hal qilinadi. Ushbu

bosqich oxirida, agarda zarurat yuzaga kelsa, psixolog-maslahatchi va mijoz birbirlari bilan keyingi gal qachon uchrashishlari to`g`risida kelishib olishlari mumkin. Psixolog-maslahatchining ushbu yakunlovchi bosqichi 20-30 daqiqa davom etadi. Agarda yuqorida aytilgan barcha fikrlarni xulosa qilib aytmoqchi bo`lsak, psixologik-maslahatning beshta bosqichini ham o`tkazish uchun (psixologik testlar uchun vaqtni hisobga olmaganda) ikki soatdan 10- 12 soatgacha vaqt kerak bo`lishini aniqlash mumkin.
Psixologik maslahatlar texnikasi deganda, psixolog maslahatchi maslahatning u yoki bu amallari doirasida harakat qilib, psixologik maslahat har bir bosqichlarida mana shu amallarni bajarish uchun foydalanadigan maxsus uslublari tushuniladi. Bu texnika psixologik maslahatlar barcha bosqichlarida bir hilda muvaffaqiyat bilan qo`llaniladigan universal, psixologik maslahatning u yoki bu, xususan bir bosqichi uchun mos keladigan o`ziga xos texnikasi bo`lishi mumkin.
Psixolog-maslahatchi taklif etayotgan maslahat va tavsiyalari mijozga to`la tushunarli bo`lishi hamda mijoz ulardan muvaffaqiyatli foydalanishi, istalgan natijaga erishishi uchun maslahat va tavsiyalarni ifoda etishda psixolog-maslahatchi quyidagi qoidalarga amal qilishi kerak:
1-qoida. Mijozning muammosini amaliy hal etish bo`yicha maslahat va tavsiyalarni ifoda etishda dardini tushuntirishda bo`lgani kabi unga yagona bir emas, balki iloji boricha turli maslahat va tavsiyalar berishi kerak. Bu bir muammoni hal etish turli usullari, shartlarni bajarish va har xil harakatlarni amalga oshirishni talab etishi bilan bog`liqdir. Ulardan ba'zilari turli sabablarga ko`ra mijoz bajara

olmaydigan bo`lishi mumkin. Bu esa kerakli tavsiyalarning amaliy ta'siri samarasini ancha pasaytiradi. Misol uchun psixolog-maslahatchi mijozga katta iroda kuchi va boshqa qator shaxsiy sifatlarni talab etuvchi xulq usulini tavsiya etishi mumkin. Bu sifatlar esa ushbu mijozda nisbatan bo`sh rivojlangan bo`lishi mumkin. Shunday holatda unga berilgan maslahat tavsiyalar amaliy foyda keltirishi va yetarlicha samara keltirishi qiyin bo`ladi. Yoki boshqa bir misol. Psixolog-maslahatchining mijozga bergan maslahati unda ko`p bo`sh vaqt bo`lishini talab etadi. Mijozda esa bo`sh vaqt bo`lmaydi. Umumiy holatda mijozga taklif etilayotgan, uning muammosini hal etish

turli usullari soni ikki yoki uchta bo`lishi va bu barcha usullar mijozning mavjud hayot sharoitlarini, uning imkoniyatlarini hamda individual psixologik xususiyatlarini hisobga olishi kerak. Muammoni hal etish taklif etilayotgan usullari soni mijoz ulardan o`zini qoniqtirmaydigan va unga to`la mos keladiganini tanlay oladigan bo`lishi kerak. Mana shu sababli psixolog-maslahatchi mijozga tavsiyalarni taklif etishni boshlashidan oldin, shaxs sifatida mijozni yaxshi bilib olishi lozim. Mana shu holatlar uchun ham mijoz bilan amaliy ishlar olib borish jarayonida psixolog-maslahatchiga mijoz shaxsini umumiy psixologik diagnostika qilishga yordam beradigan qo`shimcha maslahatlarni berib o`tamiz. Mijozning shaxsi va uning psixologik holati to`g`risida quyidagi belgilari bo`yicha fikr yuritish mumkin:

 qo`lni belga qo`yib turish qat'iy irodali odamga xos xislat;

 stulda o`tirganda gavdasi bilan oldinga egilib o`tirish, bu odamning suhbatlashish yakunlanishi bilan darhol harakatga tayyor ekanligini bildiradi;

 oyoqlarini bir-biri ustiga qo`yib chalkashtirib va ularni qo`llari bilan ushlab o`tirgan odam ko`pincha tez reaksiyaga ega bo`ladi va tortishuvda uni ishontirish qiyin.

 Kaftlarini bir-biri bilan birlashtirib o`tirish mana shu paytda bu inson, salbiy, yomon fikr va hissiyotlarda ekanligini anglatadi.

 Kiyimidan muhim bo`lmagan kichik iplar, tuklarni terib o`tirish unga aytilayotgan gaplardan to`la qoniqmayotganligini ifoda etadi.

 Tinglash paytida boshini yoniga egib o`tirish suhbat bu insonda qiziqish uyg`otganligini bildiradi.

 Agarda boshini oldinga egilib o`tirgan bo`lsa bu ko`pincha eshitilayotgan gapiga salbiy munosabatini belgisi hisoblanadi.

 qo`lni ko`kragiga chalkashtirib olish – tanqidiy munosabati va himoyalanish reaksiyasi hisoblanadi.

 Ba'zida qo`lini chalkashtirib olish – bu odamlarda qo`rqinch hissi yuzaga kelganligini bildiradi.

 Oyoqlarini chalkashtirib o`tirish − salbiy yoki himoyalanish munosabati belgisi.

 «dahanini silab o`tirish» harakati – bu inson unga hozir aytilgan gaplar bo`yicha qaror qabul qilayotganligini anglatadi.

 Stul yoki kursiga suyanib o`tirish harakati − bu odamning kayfiyati salbiy ekanligini bildiradi;

 Agarda odamdan o`z qarorini aytishi so`ralganda, u ko`pincha biror-bir predmetni oladigan bo`lsa, bu u o`z qarori qat'iy emasligi, uning to`g`riligidan shubhalanayotganligi, yana bir bora o`ylab ko`rishi kerakligini anglatadi.

 Tinglovchi odam boshini qo`liga tiralib olsa, hozir gapirilayotgan gaplarga uning qiziqishi so`nayotganligini anglatadi.
 Agarda odam kafti bilan boshi orqasini ishqalasa va ko`zini olib qochsa, demak u yolg`on gapirayotgan bo`ladi.
 Barmog`ini og`ziga solish – bu odam shu payt qo`llab-quvvatlashga, rag`batlantirishga muhtojligini bildiradi.
 Qo`li bilan stolni yoki boshqa bir buyumni taqillatib o`tirish, odamning sabrsizligini bildiradi.
 Kaftini ochib o`tirish uning samimiy, ishonuvchan va halolligini bildiradi.
 Kaftini yopib o`tirish, aksincha, samimiy emasligini bildiradi.
Agarda odam sekin, so`zlarni tanlashga harakat qilib va o`zining nutqini nazorat qilib borsa u ichki psixologik keskinlikni his qilayotgan bo`ladi. Mijozning psixolog-maslahatchiga qattiq e'tirozi mijoz o`ziga va o`zi aytgan gaplar haqiqat ekanligiga to`la ishonmasligini bildiradi.
2-qoida. Psixolog maslahatchi mijozga tayyor maslahatlarni emas, balki yuzaga kelgan muammoni hal etishda ularga amal qilish osonligi yoki qiyinligi nuqtai-nazaridan shaxsiy baholarni ham berishi kerak. Yakuniy mustaqil qaror qabul qilar ekan, mijoz usullardan birini tanlaganida qandaydir foydaga ega bo`lishi va deyarli albatta, qo`ldan boy berishi mumkinligini o`zi tushunib olishi kerak.
3-qoida. Mijozga o`zi uchun eng mos keladigan deb hisoblagan xulqi usulini o`zi tanlashiga imkon berish zarur. Hech kim mijozning shaxsiy xususiyatlarini va hayot sharoitini o`zichalik bila olmaydi. Shuning uchun eng to`g`ri yechimni topa

olmaydi. To`g`ri, mijozning o`zi ham xatoga yo`l qo`yishi mumkin. Shuning uchun psixolog-maslahatchi mijozga mustaqil qaror qabul qilish imkonini berish bilan birga baribir o`zining nuqtai nazarini ham aytishi kerak. Unday hollarda maslahatchi va mijoz bir oz vaqtga go`yo nomlarini almashtirishlari, psixolog-maslahatchi tomonidan unga amaliy yordam ko`rsatishning eng ma'qul shakllaridan hisoblanadi. Psixolog-maslahatchi mijozdan muammoni yechimini asoslab tushuntirib berishini so`raydi. O`zi esa uni diqqat bilan tinglab, savollar beradi.
4-qoida. Psixologik maslahat yakunida muammoni hal etish bo`yicha qo`llaniladigan amaliy harakatlarni mustaqil nazorat qilish amaliy vositalari bilan mijozni ta'minlash juda muhimdir. Xususan, ushbu holatda amalda o`zini qanday qilib nazorat qila olishi va uning xulqi to`g`riligini qaysi belgilariga qarab bilib olishi, amalga oshirayotgan harakatlari haqiqatda ham ijobiy natijalar berayotganini baholashi mumkinligini mijozga tushuntirib berish to`g`risida gap boradi.
5-qoida. Muammoni amaliy hal etish paytida mijozga psixolog-maslahatchi tomonidan kerakli maslahat va tavsiyalar olish qo`shimcha imkoniyatini berish. Bunga sabab har doim ham mijozga barchasi tushunarli bo`lmasligi va barchasini to`la amalga oshira omasligidir. Ko`pincha mijoz go`yo barchasini yaxshi tushunib olgandek, psixolog-maslahatchining tavsiyalarini qabul qilgandek bo`lib, ularni amaliy bajarishga kirishganida esa to`satdan ko`plab ko`zda tutilmagan vaziyatlar va darhol javobini talab etuvchi qo`shimcha savollar paydo bo`ladi. Bu savollar tez hal etilishi uchun mijoz psixolog-maslahatchi bilan doimiy aloqada bo`lishi, shu jumladan, maslahat olib bo`lganidan keyin ham aloqada bo`lib turish imkoniyatiga ega bo`lishi kerak. Buning uchun esa maslahatlar yakunlangandan keyin mijoz bilan

xayrlashayotganda unga qachon va qayerda zarur bo`lganda kerakli maslahatlar olishi mumkinligini aytishi kerak.
6-qoida. Ishni yakunlab mijozga mustaqil harakat qilish imkonini berishdan avval psixolog-maslahatchi mijoz haqiqatda barchasini tushunib olganligi va ishonch bilan shubhalanmay, kerakli yo`nalishda harakat qilishga tayyor ekanligiga ishonch hosil qilishi kerak. Bunga ishonch hosil qilish uchun maslahatlar yakunida yana

mijozga so`z berib va masalan, quyidagi savollarga javob berishini iltimos qilish zarur:Siz uchun hammasi aniq tushunarlimi? Aytingchi, siz endi nima qilmoqchisiz? Ba'zida mijozga qator aniq savollar berish foydali bo`ladi. Bu savollarga javoblaridan mijozning tushunganligi darajasi va psixolog-maslahatchidan olgan maslahatlarini qabul qilganligi aniqlanadi. Psixologik maslahatning yakunlovchi bosqichi quyidagi vaziyatlardan iborat: maslahatlarga yakun yasash va mijoz bilan xayrlashish. Yakun yasash o`z navbatida maslahat natijalarini, muammo mohiyatini qisqacha qaytarib o`tishi uni tushunishini va ishlab chiqilgan muammoni hal qilish bo`yicha tavsiyalarni takrorlashdan iborat. Mijozning istagi bo`yicha bu tavsiyalar faqat og`zaki emas, balki yozma ravishda ham berilishi mumkin. O`tkazilgan psixologik-maslahatga yakun yasashda mijoz bilan birgalikda qanday bajarilishi va qaysi muddatlarda bajarilishi zarurligini belgilab olish ham muhim. Iloji boricha mijoz ishlar qanday borayotganligini va uning muammosi qanday hal etilayotganligini psixolog-maslahatchiga vaqti-vaqti bilan xabar qilib tursa yaxshi bo`ladi. Bularning barchasi psixolog-maslahatchi tomonidan hatto mijozning olgan tavsiyalarini amalga oshirishi jarayonida uning o`zida ham biror-bir alohida muammolar yuzaga kelmagan va u psixolog maslahatchiga qo`shimcha murojaat etmaganida ham mijoz shaxsiy kartochkasiga yozib boriladi. Mijoz bilan xayrlashayotganida odatda, u olgan tavsiyalarini qanday amalga oshirayotganligini va ularni amaliy qo`llash natijalari qanday bo`layotganligini psixolog-maslahatchiga doim xabar qilib turishini so`raladi. Agarda u axborot berib borish iltimosini bajarsa, u bilan qo`shimcha bepul maslahat o`tkazishga va'da berib rag`batlantirish mumkin. Psixologik-maslahatni muvaffaqiyatli o`tkazish uchun amaliy ishlar davomida faqat mijozni to`g`ri tashkil etilgan holda kutib olish va u bilan yaxshi, samarali, professional ish olib borish balki maslahat yakunlangandan keyin yaxshi o`ylab chiqilgan xayrlashish amallari ham muhimdir. Mijoz psixologik-maslahatni yaxshi kayfiyat bilan va u olgan maslahatlarni amalga oshirishi natijasida muammosi muvaffaqiyatli hal etiladi, degan to`la ishonch bilan tark etishi juda muhim. Mijoz bilan xayrlashayotganda birinchi navbatda psixolog-maslahatchining o`zi so`zsiz ishonishini namoyish etishi kerak. U mijozni psixologik maslahat xonasidan

chiqishida koridorgacha kuzatib qo`yishi zarur. Psixolog-maslahatchi xayrlashayotganida mijozga esdalik uchun biron narsa sovg`a qilsa, masalan, psixologik maslahatda hamkorlikdagi ishlari to`g`risida eslatib turuvchi o`z vizitkasini yoki yodgorlik sovg`a qilsa mijozda yaxshi yakunlovchi taassurot uyg`otadi. Psixolog-maslahatchi mijoz bilan xayrlashayotganda aytadigan oxirgi so`zlari juda muhim. Buning uchun mos keladigan gaplarni boshlashda odob qoidalarida qabul qilingan so`zlar quyidagilardan iborat:
- bu uchrashuvdan men juda xursandman;
- siz bilan vaqtimizni juda maroqli o`tkazdik;

 siz bilan suhbatlashganimdan xursandman;
 hammasini kelishib olganimiz yaxshi bo`ldi;
 mening maslahatlarimga quloq solganingiz uchun sizga katta rahmat;
 men bilan uchrashib suhbatlashishga rozi bo`lganingiz uchun rahmat;
 sizni boshqa vaqtingizni olmayman;
 xayr;
 keyingi uchrashuvgacha;
 yaxshi boring;
 salomat bo`ling;
 siz bilan yana uchrashamiz;
 bizni esdan chiqarib qo`ymang;
 kelib turing.

Psixolog-maslahatchining mijoz bilan keyingi uchrashuvlari, agarda u kerak bo`lsa xuddi shu kabi oldindan o`ylab chiqilgan, rejalashtirilgan, psixologmaslahatchi va mijoz tomonidan kelishib olingan holda tashkil etiladi. Shu mazmunda odatda psixolog-maslahatchining maslahatlari yakunlangandan keyin qayerda va qachon uchrashishlari hamda mumkin bo`lgan suhbat mavzulari (masalalari) belgilab olinadi. Bu suhbat albatta, yuzma-yuz bo`lishi shart emas. Ba'zida mijoz bilan telefon orqali suhbatlashish yoki uning savollariga yozma shaklda javob yo`llash ham yetarli bo`ladi. Maslahatlardan keyingi uchrashuvga va mijozning mumkin bo`lgan suhbatlari rejasini psixolog-maslahatchi u bilan

birgalikda belgilaydi. Ba'zida bu reja yozma ravishda ikki nusxada tayyorlanadi. Bir nusxasi psixolog-maslahatchida qoladi, ikkinchi nusxasi esa mijozga beriladi.

4.Psixlogik maslahatdagi xatolar: xato turlari, uning sabablari va ularni bartaraf etish usullari

Turli sabablarga ko`ra psixologik maslahat davomida uning samarasini pasaytiradigan, ko`zda tutilmagan va tuzatish qiyin bo`lgan xatolar yuzaga kelishi mumkin. Mana shu xatolar mohiyati va manbalarini, ularni oldini olish va tuzatish usullarini bilish psixologik maslahatlar o`tkazish amaliyotida ularni umuman yo`qotish mumkin bo`lmasa ham ancha kamaytirishga imkon beradi. Maslahatlar jarayonida paydo bo`ladigan xatolar quyidagi asosiy turlarda bo`lishi mumkin (ko`rsatib o`tiladigan xatolar har bir turida ularning mumkin bo`lgan sabablari ham keltirib o`tiladi):

 Muammo mohiyati to`g`risida psixolog-maslahatchining noto`g`ri xulosasi: bu psixolog maslahatchi yoki mijozning haqiqiy muammosini ko`ra bilmaydi yoki unda haqiqatda bo`lmagan muammo bilan adashtiradi.

 Psixolog-maslahatchining mijozga taklif etadigan noto`g`ri tavsiyalari. Ushbu holatda psixolog-maslahatchi umuman mijoz muammosini to`g`ri tushunadi va to`g`ri baholaydi. Lekin uni hal etish bo`yicha noto`g`ri tavsiyalar beradi. Bunday tavsiyalarni bajarish mijozga aslida hech narsa yoki deyarli hech qanday foyda keltirmaydi.

 Psixolog-maslahatchidan olgan tavsiyalarini bajarishda mijozning noto`g`ri harakatlari. Psixologik maslahatdagi bu turdagi xatolar muammolari psixologik maslahat davomida to`g`ri tushunilgan va muammoni hal etish bo`yicha to`g`ri tavsiyalar berilgan mijoz o`z muammosini amaliy hal qilishga kirishganida noaniqliklarga yo`l qo`yishida yuzaga keladi.

Shuni eslatib o`tish kerakki, yuqorida aytib o`tilgan xatolar asosiy turlari har biri alohida hamda birgalikda uchrashi ham mumkin. Shuning uchun psixologik maslahatda yuzaga keladigan muvaffaqiyatsizlikni amaliy tahlil qilishda faqat bir ikkitasini topib qoniqmasdan barcha turdagi xatolarni izlash kerak. Bu psixolog246 maslahatchida uning faoliyatida shu kabi va boshqa xatolar yuzaga kelishining oldini oladi. Psixologik-maslahatdagi yuqorida aytib o`tilgan xatolar har bir turini guruhlarga ajratish mumkin. Xususan birinchi turdagi xatolar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1. a) Psixolog maslahatchining mijozdan diagnostika va dardini aytish bosqichida olgan ma'lumotlari yetarlicha aniq bo`lmagani sababli yo`l qo`yiladigan xatolar. Ushbu holatda psixolog-maslahatchi mijozga to`la ishonib (mijoz esa psixologga ma'lumotlarni aytib berayotganida turli sabablarga ko`ra, shu jumladan esga ololmaganligi sababli ham xato qilish mumkin). Mijoz muammosi mohiyatiga qarab yoki unga yetkazilgan noto`g`ri axborotlar asosida uning amaliy yechimi bo`yicha xulosalarga kelishga majbur. Xatolarning ushbu turini psixologik maslahat amaliyotidan to`la yo`qotib ham bo`lmaydi yoki oldini olib ham bo`lmaydi. Bu yerda faqatgina mijozga bu har doim psixolog-maslahatchiga «haqiqatni va faqat haqiqatni» aytishi zarurligini eslatib turish mumkin, ya'ni o`z muammolari to`g`risidagi ma'lumotlar ishonchliligiga to`la ishongan ma'lumotlar va faktlarni aytishi zarur. Maslahatchi esa o`z navbatida mijoz bu haqida ilgari gapirganligi va psixolog-maslahatchida ba'zi sabablarga ko`ra gumonlar paydo bo`lganligini aytib yana takrorlashini so`rab uni vaqti-vaqti bilan tekshirib turishi kerak.

1. b) psixolog-maslahatchi mijozdan olgan ma'lumotlari to`la bo`lmaganligi sababli yo`l qo`yiladigan xatolar. Bu juda ko`p yo`l qo`yiladigan xato. Chunki mijoz xohlaydimi yoki xohlamaydimi biron gapni esidan chiqarib qoldirishi mumkin. Psixolog-maslahatchi esa mijoz o`z muammosi to`g`risida unga to`la ma'lumot bermaganligini xatto bilmaydi. Ushbu xatoni ham esdan chiqarib qoldirishi ixtiyoriy bo`lmaganligi sababli psixolog-maslahatchi amaliyotidan to`la yo`qotib bo`lmaydi. Biroq bu xatolarni quyidagi, masalan, texnik uslub yordamida, dardini aytib berayotganida mijozdan vaqti-vaqti bilan o`zi va o`z muammosi to`g`risida gapirib berayotib biror-bir muhim narsani esidan chiqarib qoldirmaganligini so`rab kamaytirishga harakat qilsa bo`ladi.

1. v) Mijoz to`g`risida va mijozdan barcha kerakli ma'lumotlarni olmay turib psixolog-maslahatchining vaqtdan ilgari xulosa chiqarishga odatlanganligi sababli

247

uning o`zi yo`l qo`yadigan xatolar. Psixolog-maslahatchi – u ham oddiy inson. Ko`pchilik kabi har doim ham xarakteri ijobiy bo`lmagan xususiyatlarga ega. Ular orasida, masalan, o`zi to`g`risida yuqori fikrda bo`lish, chidamsizlik, shoshqaloqlik va shunday xatolarni yuzaga kelishiga sabab bo`luvchi boshqa kamchiliklari bo`lishi mumkin. Ularni mijozning holatiga qarab sezish va oldini olish mumkin. Agarda u psixolog-maslahatchi taklif etgan xulosalar va echimlar to`g`riligiga shubhalansa, demak maslahatchi mijoz aytgan, balki hali aytishga ulgurmagan gaplarini barchasini e'tiborga olmay shoshilgan bo`ladi. Agarda mijoz barcha gapini aytib ulgurmagan va psixolog-maslahatchi ma'lum yechimga kelib bo`lganidan keyin o`z gapini davom ettirsa, bu psixolog-maslahatchi shoshilganini va u o`z qarorini qabul qilishni to`xtatib turishi hamda mijozni tinglashni davom ettirish kerakligini anglatadi.

1. g) psixolog-maslahatchiga aytilgan faktlarni u noto`g`ri tushunishi sababli

yo`l qo`yiladigan xatolar. Bu xatolarning asosiy sababi psixolog-maslahatchining maslahat o`tkazishda amaliy tajribasining yetishmasligi hamda mijoz dardini aytishi paytida uning e'tiborsizligi yoki tushunmasligi(ba'zan shunchaki esdan chiqarib qo`yish)dan iborat bo`ladi. Psixolog-maslahatchining unga aytilgan hech bir gapni esdan chiqarmay mijozni diqqat bilan tinglash odatini o`zida ishlab chiqishi shunday xatolar yuzaga kelishi oldini olishning yagona usuli hisoblanadi. Muhokama qilinayotgan xatolar guruhiga kiruvchi ba'zi odatiy xatolar turlari mavjud. Ular quyidagilar:

- psixolog-maslahatchining umumiy-nazariy tayyorgarligi yetishmasligi oqibatida kelib chiqadigan xatolar;
- psixolog-maslahatchi o`z shaxsini mijoz shaxsiga o`xshatib,o`zi sezmagan holda mijoz to`g`risida fikr yurita boshlashi oqibatida yo`l qo`yiladigan xatolar;
- psixolog-maslahatchining mijozga nisbatan yanglish, sub'ektiv, juda ham ijobiy yoki, aksincha, yaqqol ifodalangan salbiy munosabati sababli kelib chiqadigan xatolar.

Ikkinchi turdagi xatolar quyidagi guruhlarga bo`linadi:

2. a) psixolog-maslahatchining mijozga noto`g`ri tavsiyalar berishi. Bu xatoning kelib chiqishiga sabablar juda ko`p bo`lishi mumkin. Uning asosida psixologmaslahatchi yo`l qo`ygan har qanday xato yotishi mumkin. Bu xatoning oqibatida mijoz olgan tavsiyalar unga hech qanday foyda keltirmasligi va hatto zarar keltirishi ham mumkin. Bunday xatoga yo`l qo`ymaslik uchun psixolog-maslahatchi bir oz vaqt, ayniqsa, o`zining mustaqil amaliyoti dastlabki bosqichida supervizorlik deb ataluvchi sharoitlarda ishlashi hamda vaqti-vaqti bilan boshqa psixologmaslahatchilar bilan hamkorlikda va birga ishlashga taklif etishi, o`zining tavsiyalari va xulosalarini to`g`riligini ularning xulosalari bilan solishtirib borishi tavsiya etiladi.

2. b) psixolog-maslahatchining mijozga bir tomonlama tavsiya berishi. Bu xato quyidagi sabablarning biri bo`yicha sodir bo`lishi mumkin:

Yuqorida aytib o`tilgan barcha mumkin bo`lgan sabablari o`z vaqtida yo`qotilsa shu holatdagina psixologik amaliyotdan bu xatoni to`la yo`qotish mumkin bo`ladi. Ularni e'tiborga olmaslik xato takrorlanishiga olib keladi.

2. v) Psixolog-maslahatchi mijozga bergan tavsiyalari umuman to`g`ri, lekin deyarli to`la bajarib bo`lmaydigan yoki umuman bajarib bo`lmaydi. Bunday xatoga yo`l qo`yishga sabab ko`pincha mijozga tavsiyalar taklif etayotib psixologmaslahatchi mijozning individual xususiyatlarini hisobga olmasligi yoki uning bergan maslahatlarini amaliy bajarish yo`lida jiddiy to`siq bo`lishi mumkin bo`lgan

mijozning hayot sharoitlarini hisobga olmasligidan iborat bo`ladi. Bunday xatoga yo`l qo`ymaslik uchun mijozga amaliy tavsiyalar berishdan avval uni shaxs sifatida bilib olish va uning hayot sharoitlarini aniqlab olish zarur.

Nihoyat uchinchi turdagi xatolarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

3. a) Psixolog-maslahatchi nima qilish kerakligini maslahat berganida noto`g`ri tushunishi yoki tushuna olmasligi oqibatida kelib chiqadigan mijozning noto`g`ri harakatlari. Mijozning muammosini hal etish bo`yicha unga amaliy tavsiyalar taklif etayotib, psixolog-maslahatchi mijozning individual xususiyatlarini, xususan, uning madaniyati va intellektual rivojlanishi umumiy darajasini yetarlicha hisobga

olmasligi yoki mijoz bilan xayrlashishdan oldin psixolog-maslahatchi bergan maslahatlarni u to`g`ri tushunib olganligiga ishonch hosil qilishiga intilmaganligi shunday xatoga sabab bo`ladi. Ushbu xatoni quyidagicha yo`l bilan yo`qotish mumkin: mijoz bilan ishlaganda psixologik maslahat har bir bosqichida psixologmaslahatchi
gaplarini mijoz to`g`ri tushunganligini tekshirib borish kerak. Bunga mijozga puxta o`ylangan va to`g`ri ifodalangan savollar berish hisobiga erishish mumkin.

3. b) Mijozning aynan, psixolog-maslahatchi unga tavsiya etgan gaplarga harakat qilishni xohlamasligi oqibatida mijozning noto`g`ri harakatlari. Bunday xatolarni quyidagi yo`l bilan yo`qotish mumkin. Mijoz o`z muammolarini hal etish bo`yicha amaliy tavsiyalar olayotganida uni diqqat bilan kuzatib, kuzatish natijalari asosida mijoz aslida bu tavsiyalarga qanday munosabatda bo`layotganligini aniqlash. Agarda mijozning munosabati salbiy bo`lsa yaxshisi bu tavsiyalarni bermaslik va mijoz nima uchun ularni qabul qilmayotganligini aniqlashi, oxir-oqibatda unga boshqa o`ziga mos keladigan maslahatni taklif etish kerak.

3. v) Psixolog-maslahatchi unga buni qanday tushunishini maslahat bergani kabi, masalan, o`zgargan hayot sharoitlari yoki biron bir boshqa ob'ektiv hayotiy vaziyatlar sababli mijozning noto`g`ri harakatlari, ushbu xato agarda maslahatchi mijozga maslahat berishidan avval uning hayotiy sharoitlari va bu sharoitlar olgan tavsiyalarini bajarishga qanchalik imkon berishi to`g`risida shaxsiy fikri bilan qiziqsa, psixologik maslahat amaliyotidan ushbu xato yo`qotilishi mumkin.

Aytib o`tilgan xatolarning har biri psixologik maslahatning samaraliligini ancha pasaytirib yuborishi mumkin, shuning uchun ularga yo`l qo`ymaslikka harakat qilish kerak. Keltirib o`tilgan xatolarni bartaraf etish yoki kamaytirish uchun psixolog maslahatchiga psixologik maslahatni olib borishda quyidagi umumiy qoidalarga amal qilish tavsiya etiladi:

Psixolog-maslahatchi mijozning shaxsi va hayoti to`g`risida ancha to`la bilib olmagunicha, uning muammosi mohiyati to`g`risida hech qanday farazlar qo`ymasligi kerak.

Psixolog-maslahatchi mijozning individual xulq xususiyatlari baholanmagunicha va maslahatchi tavsiyalarini mijoz amaliy bajarishi mumkinligi aniqlanmagunicha unga hech qanday amaliy tavsiyalar bermasligi kerak.

Psixologik maslahat o`tkazar ekan mijozga hamda uning muammosiga psixologik tashhis qo`yar ekan, psixolog-maslahatchi mijozni xolisona o`rganish ob'ekti deb qaramasligi yoki undan foydalanishga, tajribalar o`tkazishga harakat qilmasligi kerak.

Psixolog-maslahatchi mijozni, masalan, tergovchi o`z qo`li ostidagi ayblanuvchiga qaragandek qaramasligi, ya'ni ayyorlik qilmasligi kerak.

Psixologik-maslahatda juda kam holatlardan tashqari mijoz oldida psixolog-maslahatchining shaxsiy xotiralari va shaxsiy o`tmishlariga o`rin bo`lmasligi kerak, ya'ni psixolog-maslahatchi va mijoz maslahatlar paytida o`z o`rinlarini almashmasliklari kerak.

Psixolog-maslahatchi mijozning faqat o`ziga o`xshatib tushunishiga intilishi kerak emas. Uning vazifasi umuman boshqacha − mijozni undan o`ziga xos, undan farq qiluvchi ajoyib shaxs sifatida tushunishga harakat qilishi kerak.

Mijozning dardini talqin qilish bilan shug`ullanib psixolog-maslahatchi mijoz va uning muammosi to`g`risida so`zsiz tasdiqlash shaklida emas, taxminiy shaklda o`z mulohazalarini ifoda etadi. Ularni mijozga faraz ko`rinishida ifoda etishi kerak, uni o`z tomonidan mijoz tasdiqlashi yoki rad etishi mumkin.
Psixolog-maslahatchi tomonidan taklif etilgan mijoz dardining rad etilishi har doim ham maslahatchi bunday talqin qilishdan to`la voz kechishi uchun asos bo`la
251
olmaydi. Ko`pincha maslahatchining xulosasi bo`yicha mijoz tomonidan rad etilishi yoki noroziligi, himoyalanishga harakati va psixolog-maslahatchi to`g`ri o`ylayotgani, u taklif etgan talqin qilish to`g`ri ekanligidan boshqa narsani bildirmaydi.
Psixolog-maslahatchining kasbiy tajribasi qanchalik kam bo`lsa u mijozi dardini diqqat bilan eshitishga shunchalik ko`p vaqt sarflashi va o`z xulosalarini shoshilmay ehtiyot bo`lib ifoda etishi kerak.
Hatto ancha tajribali psixolog-maslahatchi uchun ham mijoz bilan suhbat davomida kerakli ma'lumotlarni yozib borish, keyin ularni xotirlash, shoshilmay o`ylab chiqish foydali bo`ladi.
Maslahatchining vazifasi – mijozga o`zining haqiqiy «men»ini egallashga va mana shu «men» bo`lishga o`zida jasorat topishga yordam berishdan iborat.
Ba'zida psixologik maslahatning borishini videoga yozib olish keyin tahlil qilish juda foydali bo`ladi. Videoning zarurligini mijozga uning o`zi ham o`zini yaxshiroq tushunib olishga va o`zini ekranda go`yo chetdan ko`radigan bo`lsa o`z muammosini muvaffaqiyatliroq hal eta olishini aytib tushuntirish mumkin.
Dardini aytish bosqichida psixolog-maslahatchining vazifasi mijozni aql bilan majburlamay, faqat tushunib yetishga emas, balki o`z muammosini to`g`ri hal etishga olib kelishdan iborat bo`ladi.
Maslahatchining vazifasi –mijozning o`z harakatlari va o`z hayoti yakuniy natijasiga mas'uliyatni o`ziga olishga olib kelishdir. Psixolog-maslahatchi kasbi «o`z shaxsini boshqa odamda bir necha bor boyitilgan holda topmoq» uchun ma'lum hamma narsadan voz kechishni talab etadi (maslahat berish jarayoni borayotganda).Dardini aytish paytida maslahatchi kam gapirishi va o`zining har bir gapini puxta o`ylashi kerak.
Maslahatchining vazifasi –mijozga ijtimoiy mas'uliyatni o’z bo’yniga olishga tayyorlikka, nuqsonlari borligi hissidan ozod bo’lishga yordam berish, uning intilishini ijtimoiy foydali tomonga yo’naltirishdan iborat.
252
Psixolog-maslahatchi – bu o`rgatuvchi emas, uning asosiy vazifasi mijozga mas'uliyatli qarorni mustaqil qabul qilishga o`rganib olishiga yordam berishdan iborat.

5.Psixokorreksiya metodlari: artterapiya, o`yinterapiyasi, psixogimnastika, xulq-atvor psixokorreksiyasi metodlari, psixodrama

Artterapiya dastlab Z.Freyd va K.Yungning egodagi himoya mexanizmlarining namoyon bo`lishi sifatidagi nazariy g`oyalari asosida vujudga keldi (sublimatsiya, proeksiya). Dastlab psixotahlilda paydo bo`lgan artterapiya hozirda barcha yo`nalish vakillari tomonidan keng qo`llanilmoqda. Artterapiyaning yutug`i shundaki, u tarapevtik aloqani o`rnatishni chuqurlashtirishga yordam beradi. Bir vaqtning o`zida ham terapevtik va diagnostik metod hisoblanadi, psixoterapiyaning har qanday shakli va vaziyatlarida qo`llash mumkin. Turli vositalardan foydalanish imkoniyati mavjud

– qalamcha bilan qumga chizishdan, oddiy qalam bilan san'at asari yaratish va haykal yasash ham mumkin, turli muammolarni hal qilishda foydalanish mumkin.
Artterapiya bolalarda xavfsizlik hissini rivojlantiradi.
Artterapiyaning mahsuldorligi shundaki, birinchidan, nizoli vaziyatlar simvolik shaklda qayta paydo bo`ladi, rasmlar yordamida tashqariga chiqariladi, shu tariqa uni muhokama qilish va qaror qabul qilish mumkin. Ikkinchi tomondan ijod jarayonining o`zi shaxsning o`sishiga, o`zini o`zi namoyon qilishga, o`zini o`zi rivojlantirishga imkoniyat yaratadi, hayotiy qiyinchiliklarni yengish uchun ichki imkoniyatlarni topish imkonini beradi.
Artterapevtik metodning afzalliklaridan biri juda kuchli qarshilik bo`lganda ham bola bilan aloqa o`rnatish oson bo`ladi. Psixolog oldiga kelganda bola har doim ham o`z muammosi haqida gapirgisi kelmaydi, lekin nimanidir chizib berish so`ralganda, hech qachon qarshilik qilmaydi. Bola kuchli hayajonlanganda, uning nafaqat gapirgisi balki o`z muammolarini chizgisi ham kelmaydi. Bunday holda o`z muammolarini boshqa tilda ifodalash imkonini beradigan majoziy rasmdan foydalanish mumkin.
253
Artterapiyada diagnostik va terapevtik jarayonlar bir vaqtda ro`y beradi.Artterapiya mahsullari qimmatbaho diagnostik material hisoblanadi. Bu esa artterapiyani proektiv testlarga yaqinlashtiradi. Ba'zi mualliflar uni ekspressiv proektiv metodlarga kiritadi. Artterapevtik tahlil asosiy emas, balki rasm muallifi o`zini qanday tushunishi, ko`rishi muhim.
O`z ijodi mahsullarini tasvirlash va muhokama qilish jarayonida mijozning o`z ichki his-tuyg`ularini anglashi ro`y beradi. O`z muammo va nizolarini asta-sekin bayon etish, ularni bartaraf etish va hal qilishga olib keladi.
Artterapiya uchun maxsus xona yoki sinfdan foydalanish mumkin. Xonada umivalnik bo`lishi maqsadga muvofiq. Maxsus fartuk yoki xalatdan foydalanish mumkin. Artterapiya materiallari har xil bo`lishi mumkin: kraska, qalamlar, flamasterlar, rangli qog`ozlar, kley, qaychi, karton, ip, tayoqcha, mel, qum, tuproq, plastilin, gullar, materaillar, tuxumning po`chog`i.
Artterapevtik mashg`ulotlarni asosiy to`rt bosqichga bo`lish mumkin. Dastlabki bosqichda ishtirokchilar tasodifiy ijodiy faoliyatga tayyorlanadi. Buning uchun turli o`yinlar va maxsus mashqlardan foydalaniladi: “Erkin bo`ling va nimani kerak deb hisoblasangiz, shuni amalga oshiring”,– degan qo`llanma aytiladi.
Ikkinchi bosqich asarni yaratish jarayonidir.
Uchinchi bosqich – o`z ishini muhokama qilish jarayoni.
To`rtinchi bosqichda har bir guruh a'zosining muvaffaqqiyatini ta'kidlash va mashg`ulot haqida iliq taassurotlar almashinadi.
“Kollaj”. Artterapevtik metodlarning bir varianti kollaj texnikasi hisoblanib, birbiridan ko`rinishi va rangi jihatidan farq qiluvchi materiallarni asosga tanlab yopishtirish bilan belgilanadi. Bolalarga jurnallardan qirqib olingan rasmlar, tasviriy fragmentlar, turli tasviriy ifodalardan muayyan obraz yaratish taklif etiladi. Kollaj texnikasi shaxsiy yozuvlar, kichik jumlalar bilan to`ldirilishi mumkin. Odatda jurnallardan qirqib olingan rasmlar turli hajmdagi qog`ozlarga yopishtirilishi mumkin.
Kollaj texnikasi psixologiyada xuddi rasm chizdirish singari proyektiv metod sifatida qo`llanilishi ham mumkin. Proeksiya keng ma'noda shaxsiy ichki dunyosini

yuzaga chiqarish bilan belgilanadi. Kollajda insonning kechinmalari, tassavvurlari, intilishlari, his-tuyg`ulari, qadriyatlari ifodalanadi. Inson uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi narsalar uning ishida o`z ifodasini topadi, ikkinchi darajali narsalarga esa kamroq e'tibor qaratiladi.
Boshqa artterapevtik texnikalar singari kollaj bir vaqtning o`zida ham terapevtik, ham psixodiagnostik vazifalarni bajaradi. Kollaj axborotga boy bo`lib, uning yaratilishi va tahlilida insonning ongli ustanovkalari bilan birga uning anglanilmagan kechinmalari, ehtiyojlari, munosabatlari ham o`z aksini topadi. Kollajni yaratishda turli mavzularni taklif etish mumkin. Masalan “Men kimman?”, “Men qandayman?”, “Biz va boshqalar”, “Mening o`tmishim”, “Bugunim va kelajagim”. Kollaj obrazi terapiya maqsadiga ko`ra belgilanadi. Masalan, kollaj texnikasini o`smirlar guruhida ularni birlashtirish maqsadida o`tkazish mumkin. U holda “Biz kimmiz”, “Biz qandaymiz” mavzulari tanlanadi, yoki oilaviy konsultatsiyalarda ota-onalardan bolalari bilan “Bizning oila” mavzusida kollaj yaratishini so`rash mumkin.
Kollaj yakka tartibda yoki kichik guruhlarda (2-4 kishi) amalga oshiriladi.
Uning bajarilish mudati qat'iy vaqt chegaralaridan to vaqtning umuman chegaralanmaganligigacha belgilanishi mumkin.
Psixolog kollajni yaratishda kuzatuvchi yoki guruh a'zosi sifatida ishtirok etishi mumkin, yoki vazifa kattalar ishtirokisiz mustaqil xuddi uy vazifasi sifatida bajarilishi mumkin.
Kollajni ayniqsa, 9-11 sinflarning psixologik mashg`ulotlarda qo`llanilishi juda qiziqarli. Yuqori sinf o`quvchilarining ijodiy yondoshuvi psixoterapevtik vazifalar bilan birga ijtimoiy-psixologik vazifalarni ham yechish imkonini beradi. Bundan tashqari ularga ijobiy hamkorlik tajribasini, bir-birini eshitish va tushunishga o`rgatishga kelishmovchiliklarni hal etishga yordam beradi.
Kollaj texnikasini qo`llash bosqichlari.
1. Tayyorlov bosqichi. Bu bosqich o`z ichiga kollaj texnikasi bilan tanishuv, uning yaratilishi uchun materiallarni tayyorlash (vatman, jurnallardan, kesib olingan materiallar, kley, qaychi, flomaster)ni oladi. Maskur bosqichning asosiy maqsadi – ishni tashkil etish va ijodiy ustanovkani yaratishdir.

2. Instruktiv bosqich − kollaj yaratishning boshlang`ich qismi bo`lib bir tomondan vazifa mavzusining tushunarli va aniq tushuntirishni taqozo etsa, ikkinchi tomondan, xavfsizlik, ishonch hissini bag`ishlovchi ijodiy muhitni yaratish bilan belgilanadi. Ijobiy munosabatlar ish jarayonidagi tanqidiy tanbehlarning bo`lmasligi, ishning boshlang`ich bosqichida ijobiy baholash, jurnal, rasm, tasvir va yozuvlarni tanlashdagi ixtiyoriylik ushbu bosqichidagi muhim qadamlardir. Psixologning asosiy ustanovkasi: Siz xohlagan ishingizni bajarishingiz “mumkin”, noqulayliklarni yuzaga kelmasligi uchun psixolog guruh a'zolaridan tartiblikni, tozalikka roiya qilish, tinchlikni saqlash kabi buyruqlardan o`zini tiyishi, aksincha, ochiqlik va ijodiy tartibsizlikni qo`llab turishi lozim. Bu ishtirokchilarga o`zlarini tinch va erkin his etishlariga hamda ishga bajonidil kirishish imkonini beradi.
3. Vazifani bajarilish bosqichida psixolog guruh ishini kuzatib borishi mumkin. Shu o`rinda u yo passiv kuzatuvchi sifatida namoyon bo`lib, o`zining jarayonga bo`lgan ta'sirini kamaytirishga harakat qiladi. Kerak bo`lgandagina, ba'zi hisobot yoki bayonnomalarni amalga oshirish mumkin yoki faol kuzatuvchi bo`lib, guruhlar bilan

o`zaro aloqaga kirishadi, o`z fikrlarini bildiradi, o`z g`oyalari bilan qo`llab quvvatlab turadi. Ba'zi hollarda, agar psixolog oldida faqatgina guruh a'zosi bo`libgina hal etishi mumkin bo`lgan vazifa tursa, masalan, psixologik jamoani jipslashtirish, u qo`yilgan vazifani ijodiy jarayonni bevosita ishtirokchisi sifatida hamma bilan birga bajarishi mumkin.
4. Muzokara va tahlil bosqichi o`z ichiga quyidagilarni kiritadi: birinchidan, ishchi guruh bilan birga ifoda etish, bunda ular kollajning asosiy g`oyalarini ta'riflab, o`zlarini uning yaratilishdagi fikrlari va kechinmalarini guruh ishining hususiyatlari (guruhli qarorni qabul qilinishi, guruhdagi munosabatlar, munozarali masalalarni hal etilishini) so`zlab beradilar. Ikkinchidan, boshqa guruh ishtirokchilarining qayta aloqasi, ularning kollajni yaxlit holda yoki alohida qismlarini tushunish. Pedagogpsixolog bu bosqichda ishtirokchilarni muzokaraga chorlaydi, ularni o`z fikrlarini bayon etishga yo`naltiradi, guruhiy muzokarani tashkil etib, u o`z oldiga qo`ygan vazifalardan kelib chiqqan holda suhbatni kerakli maqsad tomon yo`naltiradi. Masalan, agar asosiy vazifa jamoaning jipslashuvi bilan belgilansa, psixolog

savollari hamkorlikdagi faoliyatga ko`maklashuvchi mexanizmlar, strategiya va tantanalar masalasiga qaratiladi.
5. Kollaj interpritatsiyasi, tahlilning muhim qismi bo`lib, u psixologik tomondan qayta aloqa sifatida beriladi hamda psixoterapevtik vazifani bajaradi. U bir kishi yoki guruh muammosini hal etishga yo`naltiriladi. U yumshoq shaklda, ijobiy baho, qo`llab-quvvatlash ruhida bo`lishi kerak.
Psixolog kollaj texnikasidan psixodiagnostik maqsadlarda ya'ni shaxs va guruh haqida axborot olish uchun foydalanishi mumkin.
***O`yin terapiyasi***.Ta'limiy o`yinlar kichik guruhlarda quyidagi xilda o`tkaziladi:
O`yinchoqlar bilan o`ynaladigan o`yinlar − "Ayiqlarga nima kerak?", "Jajji oyoqchalarimiz", "Zumrad uchun ko`ylaklar" .
Stol ustiga qo`yib o`ynaladigan o`yinlar − "Nima qayerda yuradi?", "Men aytgan narsani ko`rsat", "Kimning qo`lida nima bor?".
Og`zaki usuldagi ta'limiy o`yinlar- "Qo`g`irchoq Lolaxonni cho`miltiramiz", "Qo`g`irchoq Lolaxon mehmonga keldi", "Ajoyib xaltacha", "Shaklini top", "Rangini top" kabi o`yinlar kiradi.
Eshitish va ko`rish a'zolarini faollashtirish uchun "Xilini top", "Qaysi daraxtning mevasi?", "Nimaning pati", "Mevasini top", "Onasini top", "Mevalar va barglar", "Domino", "Yovvoyi va uy hayvonlari", "Ishlash uchun nima zarur", "Bu uychada qanday hayvon yashaydi", "Bu kim yoki nima?" singari o`yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo`ladi. Bu o`yinlar orqali bolalarda meva va sabzavotlar, hayvonlar va parrandalar, yil fasllari, kiyim-kechak va boshqalar kabi tasavvurlar boyitilib, kengaytirilib, qurish va eshitish, esda saqlab qolish xususiyatlari rivojlantirilib boriladi. Katta guruhlarda o`ynaladigan "Ayting biz topamiz", "Topgan topag`on", "Oshqovoq pishdi", "Loy o`yini", "Bog`bonlar" o`yinlari orqali mehnatga muhabbat ruhi tarbiyalanib boradi.
Bolalar qalbida musiqaga bo`lgan muhabbat hissini oshirishda musiqiy- ta'limiy o`yinlarning roli beqiyosdir. Tarbiyachi bolalarga turli xil musiqa asboblarini ko`rsatib, chalib berish orqali, cholg`u asboblarining ovozi va tuzilishi va turlari bilan tanishtirib boradi. "Ovozidan top", "Nimada chalyapman", "Qo`ng`iroq qanday

jaranglayapti" kabi o`yinlar orqali tarbiyachi bolalarga ovoz va cholg`u asboblarining tovush xususiyatlarini farqlashga o`rgatadi. "Tapur-tupur qayrag`och", "Tomga tosh otdim", "O`ynab ber", "Sanamalar", "Mushtum va kaftchalar", "Yomg`ir" kabi milliy o`yinlar orqali bolalarni musiqa ritmiga mos harakat, o`yinli ashulani ijro etish, qarsaklar va mimik harakatlarni to`g`ri bajarishga o`rgatib boriladi.
O`yin bir necha muhim funksiyalarni bajaradi:
1. Biologik o’yin. Go`daklik davridan boshlab o`yin bolaning qo`l motorikasini, tana va ko`z harakatlarini rivojlantiradi, shuningdek, energiyani sarflashiga hamda o`zini erkin tutishiga imkoniyat yaratadi.
2.Shaxsiy o’yin. O`yin faoliyati bolaga tashqi olamni anglashga, o`z tanasi hamda ruhining qanday imkoniyatlarga ega ekanini bilishga yordam beradi. Demak, o`yin bolaning bevosita kognitiv sohasiga ta'sir qilar ekan. O`yin bolaga fantaziya va simvolizatsiya yordamida “orzularining amalga oshishiga”, o`z “men”i bilan bog`liq nizolarni hal qilishga imkon yaratadi.
3.Shaxslararo o’yin. Bola asosiy ijtimoiy malakalarni o`yin jarayonida egallaydi: o`yinchoqlarni bo`lishishdan tortib, fikr almashinishgacha. Bu funksiyalardan asosan guruhiy va oilaviy terapiyada foydalaniladi.
4.Ijtimoiy –madaniy o’yin Har bir tarixiy davrda bolalar kattalar rolini o`zlashtirib, o`z repertuarini kengaytirganlar. O`yin orqali bolalar ushbu rol egasi jamiyatda nima ish bilan shug`ullanishi, uning g`oyalari, xulqi va qadriyatlarini tushuna boshlaydi.
Birinchi bo`lib o`yin terapiyasi psixoanalitiklar ishlarida namoyon bo`lgan (M.Klayn, A.Freyd, G.Xag-Xelmut). Psixoanalitik amaliyotda o`yin simvolik faoliyat sifatida ko`rilib, o`yinchoqlar yordamida bola kattalarning bosimidan va ta’qiqlaridan xalos bo`ladi hamda ongsiz xatti-harakatlari orqali o`z istaklarini ifodalaydi. 1982 yilda O`yin Terapiyasi Xalqaro Hamjamiyati tashkil qilinib, uning maqsadi butun dunyoda o`yin terapiyasini qo`llovchi psixologlarni yig`ish edi.
Hozirgi davrda o`yin psixoterapiyasiga 3 xil yondashuvni ko`rishimiz mumkin:
- Psixoanalitik

- Gumanistik
- Qayta shakllantirish o`yin terapiyasi.

Psixoanalitik yo`nalishda psixoterapevt tarjimon sifatida namoyon bo`ladi. U bolaning o`yin jarayonidagi xatti-harakatlariga e'tibor berib, harakatlarning mazmunini aniqlashi kerak.
O`yinning gumanistik modeli K.Rodjers va V.Ekslayn tomonidan yaratilgan. Ularning fikricha, o`yin terapiyasining maqsadi – bolaning shaxsiy o`sishi va rivojlanishi uchun kattalar bilan munosabatini qayta tiklashdir. Bola hech qanday qo`rquvsiz o`z xohishlarini, istaklarini bayon qiladi.
3 yo`nalish D.Levi tomonidan taklif qilingan bo`lib, qo`rqinchli voqealarni boshdan kechirgan bolalarda o`tkaziladi. Bunda psixoterapevt maxsus o`yinchoqlar yordamida bolani dahshatga solgan voqeani qayta tiklaydi. Endi bu “o`yinning” tuzuvchisi bola bo`lganligi sababli, u o`z xohishicha voqealar rivojini o`zgartirishi mumkin.
O`yin mashqlaridan misollar.
Qo`rquvni yengish bilan bog`liqo`yin.

Tish doktori (itdan qo`rqqan holatlarda ham foydalanish mumkin). O`yin uchun o`yinchoq kuchukcha va boshqa hayvonchalar zarur. Psixolog bolaga: “qara, qanday shirin kuchukcha. Uning ismi Bobik. Uning quloqlari katta, og`zi ham katta, tishlari o`tkir. Lekin kuchukchaning tishlari og`riyapti, u yig`layapti. Yordam berish kerak. Kel, sen hayvonlarni davolovchi shifokor bo`lasan.” Bola itga ukol qiladi, tishlarini tozalaydi, plastilindan plomba yasaydi va hk. Boshqa hayvonlarni ham da'volashni taklif qilish mumkin.

Psixogimnastika – bu guruh a'zolarining o`zini namoyon qila oladigan va nutqsiz munosabatga kirisha olishini ta'minlovchi metoddir. Bu samarali vosita yordamida shaxsning ijtimoiy hodisalarni idrok qilishi uchun eng qulay sharoit yaratiladi, “tana tili”ga e'tibor beriladi, atrof-hayot munosabatlarini ifodalashga imkoniyat yaratiladi. “Psixogimnastika” termini keng va tor ma'noda qo`llaniladi. Guruh a'zolarining asosiy kommunikatsiya vositasi imo-ishorali harakatlar bilan ta'sir o`tkazish hisoblanadi.

259

Tor ma'nodagi psixogimnastika o`yinlar, etyudlar ko`rinishida bo`lib, guruh a'zolari aloqa vositasi sifatida nutqsiz harakatni qo`llaydilar. Psixogimnastikaning bu turi guruhiy korreksiya vazifalarini bajarishga yo`naltirilgan, ya'ni o`zaro aloqa o`rnatish, tarang vaziyatni ko`tarib tashlash, qarama-qarshi tomon aloqalarini ishlabchiqish va x.

Keng ma'nodagi psixogimnastika – bu maxsus mashg`ulotlar kursi bo`lib, uning yo`nalishi bilishga oid va shaxsiy emotsional tomondan rivojlantirishga va korreksiya qilishga qaratilgandir.

Guruh bilan ishlashning nutqsiz usuli sifatida psixogimnastika hissiy kechinmalarning paydo bo`lishi, emotsional holatlarning kechishi, harakatlarni bajarishdagi muammolar, yuz mushaklarining ma'noli harakatlari, imo-ishoralar bilan qilinadigan harakatlarni nazarda tutadi, mijozga o`zini namoyon qilishga va so`z yordamisiz muloqot o`rnata olishga imkon yaratadi. Bu qayta tiklovchi psixokorreksiya metodi bo`lib, maqsadi – mijoz shaxsini o`rganish, tushunish va o`zgartirishdir.

Psixogimnastika 3 qismdan iborat bo`lib, har bir qism o`zining mustaqil vazifalari va shaxsiy metodik vositalari bilan xarakterlanadi.

1. Tayyorgarlik qismi.
2. Pantomimika (imo-ishorali harakatlar) qismi
3. Yakuniy qism.

Psixogimnastika mashg`ulotining tayyorgarlik qismi. Vazifalari:

- guruh a'zolaridagi tarang, hayajonli holatni pasaytirish;
-qo`rquv va «mumkin emas» degan tushunchalarni olib tashlash;
- diqqatni rivojlantirish;
- o`zi va boshqa odamlarning harakat faolligini seza olishni shakllantirish;
- guruh a'zolari o`rtasidagi emotsional masofani qisqartirish;
- o`zi va boshqalarning his-tuyg`ularini, hissiy holatini, muammolarini nutqsiz ifodalash va tushunishni shakllantirish.

Tayyorgarlik qismi qoidaga asosan diqqatni rivojlantirishga qaratilgan mashqlardan boshlanadi. Bu turdagi mashqlarga quyidagilar kiradi:

260

- kechikish (orqada qolish) mashqi. Guruh a'zolari oddiy gimnastika mashqini

boshlovchidan bir harakatga ortda qolib ketma-ket ravishda qaytaradilar. Mashq tezligi sekin-asta ortib boradi.
-ritmni doira bo`ylab uzatish. Guruh a'zolarining hammasi bir-birining ortidan doira bo`ylab berilgan ritmni chapak chalib takrorlaydilar.
- harakatni doira bo`ylab uzatish. Guruh a'zolaridan biri tasavvuridagi predmet bilan shunday harakat bajara boshlaydiki, bu harakatni keyingi ishtirokchi davom ettira olishi kerak. Keyingi ishtirokchi ham tasvirlangan predmet bilan bog`liq boshqa biron harakatni bajarishi va bu predmet doira bo`ylab turli harakatlar bilan aylanib chiqishi lozim.
Psixogimnastik mashg`ulotning pantomimik qismi.
Psixogimnastikaning pantomimika qismiga korreksiyalash guruhida asosiy vaqt ajratiladi. Mijoz taklif qilgan mavzular so`zsiz tanlanadi. Mavzular psixolog tomonidan ham tavsiya qilinishi mumkin. Pantomimika uchun mavzular mazmuni chegaralanmagan va alohida bir mijozning muammolariga, butun guruh a'zolarining muammolariga, shaxslararo harakatlarga mo`ljallangan bo`lishi mumkin.
Pantomimika qismida quyidagi mavzular tez-tez qo`llaniladi.
1. Qiyinchiliklarni yengib o`tish.
Bu mavzu umuminsoniy muammolar va munozaralarni aks ettirib, timsol ko`rinishida tasavvur qilinishi mumkin. («Qiyinchiliklarni engib o`tish», «Ta'qiqlangan meva», «Chorraxa», «Kasallik», «Sog`lik», «Baxt», «Xavf» va boshqalar). Barcha mijozlar navbatma-navbat hayotiy qiyinchiliklarni qanday bartaraf etishni tasvirlaydilar, qiyinchilik timsoli sifatida qandaydir predmetdan foydalanish, masalan, stul yoli skameyka to`siq bo`lib uni engib o`tish kerak.
2. Ta'qiqlangan meva.
Hamma mijozlar navbatma-navbat o`z xohish istaklari tashqi va ichki me'yorlar bilan mos tushgan holatlarda o`zlarini qanday tutishlari haqida gapirib beradilar. Ta'qiqlangan meva sifatida qandaydir predmetdan foydalanish mumkin.

3. Mening oilam. Mijoz guruh a'zolaridan bir nechtasini tanlab oladi. Ularni davrada shunday joylashtiradiki, ular o`rtasidagi masofa oila a'zolari o`rtasidagi emotsional yaqinlik bilan mos kelsin.
4. Xaykaltarosh. Guruh a'zolaridan biri xaykaltarosh rolini ijro etadi. Guruh a'zolarining o`ziga xos xususiyatlari va munosabatlarini aks ettiruvchi holatlarni; ularning gavda tuzilishi, tashqi qiyofasini shunday holatga keltiradiki, uning fikricha bu ko`rinish shu odam shaxsiga xos xususiyatlarni va nizolarini (janjalkashliklari) aks ettirsin.
Psixogimnastika mashg`ulotining yakuniy qismi.
Psixogimnastikaning yakuniy qismi guruh a'zolarida pantomima qismi davomida paydo bo`lgan, muhim ahamiyatga ega bo`lgan, kuchli emotsiyalar, guruh jipslashuvining ortishi, ishonch va qat’iylikning ortishi natijasida hosil bo`lgan tarang holatni olib tashlashni nazarda tutadi.
Bu yerda mijozlarga boshlangich qismdagi jipslashish hissini boshdan o`tkazishga yordam bergan mashqlardan foydalaniladi.
Korreksiya ishining mustaqil metodi sifatida psixogimnastikani qo`llash 1979 yili G.Yunova tomonidan taklif qilindi. G.Yunovaning psixogimnastikasi D.Morenoning o`smirlar uchun psixodrammasining o`zgargan shaklidir. G.Yunova metodikasidagi har bir mashg`ulot, ritmika, pantomima, guruhiy o`yin va raqslarni

o`z ichiga olib 3 davrdan iborat:
1. Tarang holatni chiqarib tashlash − sotsiometriya ahamiyatiga ega bo`lgan yugurish va yurishning turli variantlari orqali erishiladi; kimni sheriklikka tanlash, kim bilan bir komandada birga bo`lish va hokazo.
2. Pantomimika davri. Bu davrda guruh a'zolari turli holatlarda, masalan, derazadan o`g`ri tushgandagi, ko`lmakka (botqoqqa) qadam qo`yishga qo`rqqandagi holatni nutqsiz tasvirlab berishlari lozim.
3. Yakuniy davr. Guruh a'zolari bilan bir tan bir jon ekanlik hissini mustahkamlash. Unda turli ko`rinishdagi jamoaviy o`yin va raqslardan foydalaniladi.
262
Biblioterapiya. V.M.Myasishevning yozishi bo`yicha – "Biblioterapiya uslubi o`zida kitobshunoslik, psixologiya, psixoterapiya, psixokorreksiyaning murakkab qo`shilmasini mujassam etadi".
Biblioterapiya − mijozga maxsus yo`nalish berish, yo`naltiruvchi ta'sir etib, maxsus tanlangan adabiyotni o`qitib, ruhiy holatini normallashtirish yoki optimizatsiyalashga qaratiladi.
Korreksiya (yo`naltirilgan) o`qishning oddiy o`qishdan farqi uning u yoki bu ruhiy jarayon, holat, shaxs xususiyatlariga yo`naltirilganligi: o`zgargan − ularning normallashuvi; normal − ularni bosiqlik, vazminlashtirish uchun.
Korreksiya (yo`naltirilgan) o`qishning ta'siri shundaki, u yoki bu obrazlar va ular bilan bog`liq hissiyotlar, qiziqish, xohish-istak, fikrlar kitob orqali qabul qilinib, o`z obraz va fikrlarining kamchiligini to`ldiradi, xavotirli fikr va hissiyotlarni o`zgartiradi yoki yangi oqim, yangi maqsad sari yo`naltiradi. Shunday qilib, mijozning hissiyot ta'sirini kuchaytirish yoki bo`shashtirishga ta'sir etib, ruhiy muvozanatni tiklashga qaratiladi.
Biblioterapiya uslubini bir necha bosqichga bo`lish mumkin:
1. Psixokorrektorning o`z-o`zini tayyorlash.Uning ichiga o`zining shaxsiy biblioterapevtik retsepturasini tayyorlash, ya'ni adabiyotlar ro`yxati va kitoblar bilan maxsus korreksion nuqtai nazar bilan tanishuv. Boshlanishda 2-3 ta nom bilan bir necha janr olinadi.
Vaqt o`tishi bilan janr va kitoblar miqdorini oshirish bilan retsepturani kengaytirish tavsiya etiladi.O`zi uchun ba'zi boblar, bo`limlar va umuman kitob uchun ko`chirmalar bilan qo`shib, taqriz yozib borish zarur, hamda unda, ayniqsa, ko`zga tashlangan, yorqin mavzular, fikrlar, bobning o`y va tashvishlari, muallifning shaxsiy xususiyatlari qisqacha yozib boriladi.
Boshlanishda bu biblioterapevtga tegishli matnlarga e'tibor qaratishga yordam beradi. Buning uchun alohida kutubxonalarda ko`proq kitoblar bo`lishi zarur va mijozning o`zida bu kitob bo`lmaganda uni oson topsin. Bundan tashqari mijozga kitob betlarining chetlarida belgilar qo`yishga ruhsat berilishi kerak, bu mijozga tashhis qo`yishni osonlashtiradi.
263
2. Biblioterapiya va uning janrlarining imkoniyatlarini bilish.
Mijoz bilan navbatdagi suhbatda unga qator savollar beriladi. Masalan "O`zingizga yoqqan 5 ta kitob nomini ayting.", " Qaysi kitoblar hayotingizda ko`proq taassurot qoldiradi? Nima uchun?", "Qaysilari sizga ko`proq ta'sir qiladi?", "Qaysi mualliflar sizga ko`proq o`xshaydi?", "Qaysi asar personajlari sizga ko`proq o`xshaydi?".

3. Ro`yxat tuzish.
Keyingi bosqichda adabiyotlar ro`yxati tuziladi: katta va kichik ro`yxatlar. Biblioterapiya uslubi qo`shimcha uslub sifatida qo`llansa ham, bunday ro`yxatlarning mavjudligi boshqa ta'sir uslublarini yo`naltirish imkoniyatini beradi.
4.O`qish tizimini ishlab chiqish.
Kitoblar miqdori, ustuvor yo`nalishlar va janrlar aniqlanadi. Mijozga biblioterapiya maqsadida kitob tavsiya qilinganida A.M.Millerning ko`rsatishi bo`yicha uchta quyidagi prinsipni hisobga olish kerak:
 bayon etilayotgan asarning tushunarliligi (taklif qilingan kitob murakkabligi darajasi);
 kitob qahramoni mijozga mos(tushunarli) bo`lishi;
 kitobning mazmun holati mijozning hozirgi holatiga maksimal o`xshashligi.
Oxirgi prinsipni hisobga olish shaxsiy va odamlararo psixologik qaramaqarshiliklar mavjudligida zarur.
Biblioterapiya jarayonida mijoz o`quvchilik kundaligini yozib boradi. Kundalikdagi yozuvlarni tahlil qilish, ko`pincha badiiy asarning sub'ektiv qabul qilinish jarayonini ochib beradi, bu aktiv bir tomonlama faoliyatni qabul qilinishi va samarali korreksiya jarayoniga baho berish va tashhis qo`yishga ishlatilishi mumkin. Biblioterapiyani asosiy uslub sifatida ishlatilsa, o`qish ma'lum ketmaketlikda, mavzuda, o`qib chiqilganlar tahlil etilib boriladi. Ko`proq diqqat va e'tibor biografik, dunyoqarashlar va maxsus adabiyotga qaratiladi.
Raqs terapiyasi. Raqs terapiyasi, emotsional nomutanosibligi mavjud bo`lgan, muomala qilmaslik, o`zaro muomala muammosi bo`lgan odamlar uchun qo`llaniladi.

Bu uslubni qo`llash psixologdan chuqur tayyorgarlikni talab qiladi, chunki bunday ta'sirda kuchli emotsiyalar uyg`onishi mumkin, bu esa hal etilishni talab etadi. Raqs harakatlari jismoniy kontakt va shiddatli o`zaro muomala bilan kuchli hissiyot uyg`otishi mumkin.
Raqs terapiyasining maqsadi o`z tanasini sezishni rivojlantirish, tana pozitiv obrazini yaratish, muomala odatlarini rivojlantirish, sezgilarni tadqiq etish va guruh tajribasini orttirishdan iborat.
Raqs terapiyasining asosiy vazifasi tartibsiz harakatlarni amalga oshirishdir. Raqs terapiyasida harakatning ma'no aks ettirishi erkinlikka chorlaydi, Harakatchanlikni rivojlantiradi, jismoniy va ruhiy darajada kuchni mustahkamlaydi. Tana va ong yagona butunlikni tashkil etadi.
Ertak terapiyasi. Pedagog- psixolog ishida keng foydalaniladigan konsultativ – terapevtik faoliyatlarning yana bir turi ertak terapiyasi hisoblanadi. Ertak terapiyaning asosiy xususiyati metaforik va o`zgacha bayon etish uslubiga, tilga ega ekanligidir. Ertakda bayon etiladigan hodisaning haqiqati to`g`ridan-to`g`ri va tinglovchilar uchun tanish bo`lgan shaklda emas, balki o`zgacha namoyon bo`ladi. Ertak sehri shu bilan belgilanadiki, u bir vaqtning o`zida ham ongga (u holda ertak yorqin xarakterdagi qahramonlariga ega bo`lgan muayyan syujet asosida ifodalanadi), ham shaxsning chuqur, yetarli darajada anglanilmagan qurilmalariga (qo`rquv, kechinma, kompleks, ehtiros) qaratilgan bo`ladi. Kattalar ko`pincha qo`rquv va moyilliklarini oshkor etishga qiynaladilar, ko`p bolalar esa o`z harakatlari, kechinmalari uchun aybdorlik va uyalish hissini sezadilar. Ertakda qat'iy axloq qoidalari va aniq o`gitlar berilmaydi. Bu esa kattalarning bolalar bilan o`zaro

munosabatidagi xatosi hisoblanadi. Ertakda kattalar va bolalar munosabati uchun umumiy bo`lgan til tug`iladi. Ertak bolalar uchun shunday himoya muhitini yaratib beradiki, u orqali bola o`zi va olam haqidagi biror-bir yangilikni o`z ichki dunyosining aralashuvidan qo`rqmagan holda bilib olish imkoniga ega bo`ladi. Ertakni eshitar ekan bola o`zini qahramonlar bilan solishtiradi (u o`ziga o`xshash qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan qahramonlarni tanlab oladi). U o`z qo`rquv va kechinmalari orasida o`zini yolg`iz his etmaydi. Hamda eng asosiysi,

ertak qahramonlari qiyinchiliklarni engayotganini ko`rib, bolada muammolarni hal etish tajribasi va o`z kuchiga ishonch paydo bo`ladi.
Ertakning muhim belgisi bo`lib o`zgarish mexanizmi hisoblanadi, kichkina, kuchsiz, axmoq yoki omadsiz qahramon, ertak so`ngida kuchli, aqlli, botir va omadli g`olibga aylanadi. Bu o`zgarishlar bolaga yaxshilanishga bo`lgan umidni yuzaga keltiradi. U doim “Isqirt o`rdakcha” qachondir albatta go`zal oqqushga aylanishini biladi.
Ertak bilan ishlashning 3 ta asosiy yo`nalishi mavjud.
I. Turli adabiy manbalardagi tanish bo`lgan xalq og`zaki ijodidan olingan, sehrli, afsonaviy ertaklardan foydalanish. Terapevtik ta'sir jarayoni ertakning bola bilan birga o`qilishi va tahlil qilinishi bilan belgilanadi. Bunda asosiy e'tibor qahramonlar kechinmalari qiyinchiliklarni engishi va muvaffaqiyatga erishishga qaratiladi. Bu holda terapevtik samara psixologning bola kechinmalarini qay darajada tushunib yetganligi va tanlangan ertakning bola muammolariga qay darajada mos kelishi bilan belgilanadi.
II. Terapevt tomonidan har bir konkret vaziyat uchun ertak yoki terapevtik metaforaning yaratilishi. Bu yo`nalish psixologdan ertak to`qish jarayoniga to`liq kirishishni talab etadi. Terapevtik maqsadlarda ertakning yaratilish va qo`llanilish jarayoni quyidagi tartibda amalga oshiriladi:
1. Bolani qiynayotgan muammoni o`ylab chiqing. Uning his-tuyg`u va kechinmalari “to`lqiniga moslashing”. Mazkur vaziyat bola nuqtai nazarida qanday qabul qilinishini tushunishga harakat qiling.
2. Hikoyaning asosiy g`oyasini shakllantiring. Bola ongiga qanday fikrlarni yetkazib bermoqchisiz? Hikoya orqali qanday yechimlarni taklif etmoqchisiz? Bu yechimlar juda murakkab bo`lmasligi lozim. Bu yechimlar yangi amaliy va ijtimoiy malakalarni egallashni nazarda tutish lozim. (do`stlar va oila a'zolarini qo`llash haqiqatni so`zlash, vaqt hamma narsaga davo ekanligi haqida).
3. Hikoyani bolaning qo`rquv, xavotiri va nizolariga o`xshash jihatlarga ega bo`lgan qahramonni tanishtirishdan boshlang. Bu bolaga o`zini hikoya qahramoniga qiyoslash imkonini beradi va uni o`sha holatga jalb etib, hikoya ishtirokchisiga

aylantiradi. Masalan, hikoya shunday boshlanishi mumkin: “bir bor ekan, bir yo`q ekan, bir joyda senga o`xshagan qizcha (bola) yashar ekan...”.
4. Hikoya qahramonining bolaga o`xshash bo`lgan kuchli va ijobiy sifatlarini eslatib o`ting. Bolalar o`z muammosiga bog`lanib qolishsa, ular faqat yomon narsalarni o`ylab, o`zlarining kuchli tomonlari va sifatlarini unutib qo`yadilar.
5. Shunday syujet chizig`ini ishlab chiqish kerakki, u o`z ichiga quyidagi asosiy elementlarni kiritishi lozim:
 Bola muammosiga mutanosib metaforik nizo;

 Bola imkoniyatlari va qobiliyatlarini ifodalovchi timsollar, ular bosh qahramonning do`stlari va yordamchilari obrazida bo`lishi kerak, qo`rquv va ishonchsizliklari dushmanlar va turli xil to`siqlar obrazida bo`lishi kerak.
 Metaforik inqiroz, uning natijasida bosh qahramon barcha to`siqlarni engib g`olib bo`lishi kerak.
 Qo`lga kiritilgan g`alaba natijasida qahramon o`zidagi yangi sifatlarini anglashi;
 G`alaba tantanasi, unda qahramon harakatiga yarasha taqdirlanadi.
6. Hikoyada sirli, kutilmagan va kulguli elementlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.
7. Oddiylikka intiling. Siz tomondan qo`llanilayotgan til va lug`at bola tili darajasiga moslashtirilishi, hikoya hajmi (davomiyligi) esa bola diqqatining turg`unlik darajasiga mos bo`lishi lozim.
8. Bolaning hikoyaga to`liq berilgan hamda uning uchun zerikarli vaqtga e'tibor bering. Uning yuz ifodasiga qarab, tinglayotgan hikoyasiga bo`lgan munosabatni aniqlash mumkin.
9. Agar bola hikoya parchalarini ta'riflab, uning mazmuni bo`yicha savollar bersa, buni e'tibordan chetda qoldirmang. Bular bolaning ichki dunyosiga,fikrlar ummoniga nazar tashlash imkonini beradi.
10. Agar bola siz taklif etgan yechimga kelib, u esa hech qanday natija bermasa, hechqisi yo`q. U nima qilganini, nima o`xshamaganligi hamda bu aslida qanday bo`lishi kerakligini o`ylab ko`ring. Shundan so`ng bolaga, harakati samara

bermagan qahramon haqida so`zlab bering, qahramonning irodasini e'tirof etib, uning yana harakat qilganligini va oxir oqibat u o`z qiyin holatidan chiqib ketish yo`lini topganini aytib bering.
11. Siz hikoyachi sifatida ham, sizning hikoyangiz ham mukammal bo`lmasligi mumkin. Nutqingizdagi kamchiliklardan uyalmang, hikoya davomida o`z xato yoki kamchiligingizni yozib qolsangiz, shoshilmasdan uni taxminan quyidagicha to`g`rilab keting: “O, sal qolsa esimdan chiqib qolay dedi, u bir o`zi emas, dugonasi bilan ketayotgan edi” va h.k.
III. Bolani ertakni yaratish va ijro etishga yo`naltirish. Ba'zida bola turli bahonalar bilan hikoya to`qishdan bosh tortadi (men bilmayman, qilolmayman, yaxshi bajara olmayman, buni hech qachon qilmaganman). Bu holatda boladan taniqli ertakni so`zlab berishni so`rash mumkin (M: Bo`g`irsoq, Zolushka, Qizil qalpoqcha va h.k.) So`ng uning syujeti, voqea joyi, vaqti, qahramonlar xarakterini o`zgartirib, boshqa shaxs nomidan so`zlab berishni so`rash kerak. Bola ertakni to`qish yoki ijro etish vaqtida u faqatgina ertak voqealarini boshidan kechiribgina qolmay, balki his-tuyg`ularni ham namoyon etadi.
O`smirlar bilan ishlashda ertak terapiyasidan foydalanishda ularga faqatgina ertaklargina emas, balki fantastik voqealar, stenariylar, reklama roliklari, multfilmlar, komplekslar va h.k.larni o`ylab topishni taklif etish mumkin.
Psixodrama. Y.L.Moreno tomonidan ishlab chiqilgan bo`lib, guruhiy psixoterapiyaning turlaridan biridir. Psixodrama sahnalashtirilgan tomosha shaklida o`tkaziladi. Mijozlar uchun og`riqli va muammoli bo`lgan vaziyatlar sahnalashtiriladi. Qatnashchilar bu vaziyatlarda o`zining yoki boshqa kimsaning rolini ijro etadilar. Ba'zida sahnalashtirilgan muammoli vaziyatni tomoshabin sifatida

kuzatadilar. Rolli o`yindan keyin mijozlar ruhan yengil tortib, o`zlarini yaxshiroq anglay boshlashadi, muloqot ko`nikma va malakalarini egallab borishadi.
Psixodramada qo`llaniluvchi asosiy texnikalar quyidagilardan iborat:
A. Rol almashtirish texnikasi. Psixolog ishtirokchidan qadrli insonining o`rnida o`zini tasavvur etishni, uning xulq-atvori, xatti-harakatlari va so`zlarini takrorlashni so`raydi. Bu vaziyat insonning atrofidagi odamlarni yanada chuqurroq tushunishiga

yordam beradi, uning empatiya qobiliyati kuchayib, odam o`zini real idrok qilishga erishadi.
B. Nusxa olish. Bunda psixolog yoki boshqa ishtirokchilardan tayinlangan yordamchi «Men» ishtirokchining ayta olmaydigan ichki hissiyotlarini chiqarib beradi.
V. “Oyna” texnikasi. Ishtirokchi o`z tuyg`ularini so`z yoki xatti-harakat orqali namoyon eta olmaganida, yordamchi “Men” sahnada uning rolini ijro etadi. Uning tuyg`ularini va xatti-harakatlarini xuddi unikidek tasvirlashi kerakki, ishtirokchi o`zini oynada ko`rayotgandek tasavvur qilishi lozim.
G. “Kelajakni loyihalash”. Bunda ishtirokchiga kelajakdagi o`z xulq-atvorini tasvirlash imkoniyati beriladi.
D. Tushlarning psixodramatik taqdimoti. Bu texnikada tushlar, fantaziyalar, gallyutsinatsiyalar aks ettirilib, insonning ichki realligini anglash sohasi kengaytiriladi.
Bundan tashqari, psixodramada yana ko`pgina usullar qo`llaniladi. Biz yuqorida eng ko`p foydalaniladigan, amaliyotda ko`p ishlatiladigan usullarni keltirib o`tdik.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

1.Psixologik maslahatda intervyu metodidan qanday foydalaniladi?
2.Intervyuning besh qadamlik modelining mohiyati nimadan iborat?
3.Psixologik maslahat texnikasiva uning bosqichlari haqida bayon eting.
4.Psixlogik maslahatdagi xatolar deganda nima tushuniladi?
5.Psixokorreksiya metodlari: o`yinterapiyasi, artterapiya, psixogimnastika, xulq-atvor psixokorreksiyasi metodlari, psixodrama haqida ma’lumot bering.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Kollaj –bu....
A. Proektiv metod.
B. Sotsiometrik metod.
*S. Artterapevtik metod.
D.Proforientatsion metod.

E. O`qituvchilarni o`rganuvchi metod.
2.Artterapiya.....
*A. Sanat bilan da'volash.
B. Ertak bilan da'volash.
S. O`yin bilan da'volash.
D. Ukol bilan da'volash.
E. So`z bilan da'volash.
3. Artterapiya dastlab qaysi yo`nalishda paydo bo`lgan?
A. Bixeviorizmda.
B. Assotsiativ psixologiyada.
S. Geshtalt psixologiyada.
D. Kognitiv psixologiyada.
*E. Psixoanalizda.

4. Rossiyadagi psixologik xizmat bo`yicha ilmiy tadqiqot olib borgan va maktab yaratgan psixolog kim?
A. Prixojan.
B. Nemov.
S. Samoukina.
*D. Dubrovina.
E. Rogov.
5. Kollaj texnikasidan foydalanish bosqichlari nechta?
A. 1.
B. 2.
S. 3.
D. 4.
*E. 5.
6. 2-profilaktikaning maqsadi nimadan iborat?
A. Ota-onalarga yordam berish.
B.O`qituvchiga va direktorga yordam berish.
*S. Qiyinchiliklarni erta aniqlab uni yo`qotish.
D. Barcha javoblar to`g`ri.
270
E.O`quvchilar va o`qituvchilar orasida qulay psixologik iqlim yaratish.
7. Artterapiyaning bosqichlari nechta?
A. 1.
B. 2.
S. 3.
*D. 4.
E. 5.
8. Qaysi davlatda birinchi marta psixologik xizmat paydo bo`ldi?
A. Germaniyada.
B. Angliyada.
*S. Amerikada.
D. Frantsiyada.
E. Rossiya.
9. Psixodramaning asoschisini belgilang.
A. F.Perlz.
B.R.Bendler.
S.Dj.Grinder.
*D. Y.L.Moreno.
E. Z.Freyd.
10.Artterapiyaga kiruvchi terapevtik usullar qaysi javobda noto`g`ri ko`rsatilgan?
A. Rasm terapiyasi.
B.Biblioterapiya.
S.Musiqa terapiya.
*D. Autogen mashqlar.
E. Kollaj.
.
271

16-BOB. GURUHIY PSIXOLOGIK MASLAHAT. INDIVIDUAL VA GURUHIY PSIXOKORREKSIYA

Reja:
1.Guruhiy psixologik maslahatning o`ziga xos jihatlari.
2.O`zaro ta’sir jarayonida konsultantning funksiyasi, assistentning funksiyasi.
3.Guruhiy psixologik maslahatning samaradorligi va uning samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar.
4. Psixolog-konsultantlarni tayyorlash jarayonida guruhiy psixologik maslahatni qo`llash.
5.Individual ish ko`rsatmalari va individual psixokorreksiya bosqichlari.

6.Guruhiy psixokorreksiyaning o`ziga xosligi va psixokorreksion guruh bilan ishlash.
7.Korreksion guruh turlari.

Mavzuning o`quv maqsadi: talabalarni guruhiy psixologik maslahat, individual va guruhiy psixokorreksiya bilan tanishtirish.

Darsning vazifasi: Talabalarga o’zaro ta’sir jarayonida konsultantning va assistentning funksiyasi haqida ma’lumot berish.

Tayanch tushunchalar:

Psixolog-konsultant shaxsi, psixologik maslahat, psixokorreksiya, individual va guruhiy psixokorreksiya, korreksion guruh.

1.Guruhiy psixologik maslahatning o`ziga xos jihatlari

Guruh bu ijtimoiy yaxlitlikdan ma’lum belgilariga ko`ra (faoliyat xarakteri, ijtimoiy mavqei, rivojlanish darajasi va b.q.) ajratib olingan, chegaralangan hajmga ega kishilar jamoasidir.

Guruhlar ko`pincha quyidagicha klassifikatsiyalanadi:

- Hajmiga ko`ra(katta, kichik, mikroguruhlar);
- Ijtimoiy mavqeiga ko`ra: formal – noformal(rasmiy - norasmiy);
- O`zaro bog`liqlik hususiyatlariga ko`ra(real, kontaktli va shartli);
- Rivojlanish darajasiga ko`ra(past daraja: assotsiatsiyalar, korporatsiyalar, diffuz; yuqori darajali: jamoalar);
- Ahamiyatligiga ko`ra(referent, a’zolik guruhlar);

Ajratilgan belgilar har bir konkret guruhni faoliyatdagi maqsad va vazifalarining o`ziga xosligini belgilab beradi.

272

Psixokorreksion guruh −o`z-o`zini tahlil qilish, shaxsiy ko`nikmalarni hosil qilish, shaxslararo munosabatlarni tahlil qilish maqsadida sun'iy birlashgan kichik guruhlarga aytiladi. Bu o`zaro tasir shu yerda va hozir tamoyili asosida guruh a’zolari o`zlari bilan yuz berayotgan jarayonlarni o`rganadilar.

Guruhiy psixokorreksiya ochiq va yopiq guruhlarda o`tkaziladi. Katta guruhlar − 25-30 kishi va kichik guruhlar – 5-8-12 kishidan iborat bo`ladi. Yopiq guruhlarda guruh azolari soni doimiy bo`lsa, ochiq guruhlarda o`zgarib turishi mumkin. Guruhga og`ir jismoniy nuqsonlarga ega bo`lgan, ruhiy sog`lig`i buzilgan, guruhda ishlashni istamagan, yaqin qarindoshlarni, xizmat doirasida birbiriga tobe bo`lganlarni, bir-biriga o`ta adovatli kishilarni qabul qilish mumkin emas.

Guruh qisqa muddatli(1-6 oygacha) yoki uzoq muddatli (bir necha yilgacha) bo`lishi mumkin.

Mashg`ulotlarning qisqa yoki uzunligi korreksion ta'sirning maqsad va shakliga ko`ra har xil bo`ladi. Bir haftada uchrashuv soni 2-4 ta, vaqt davomiyligi 20-90 minutgacha bo`lgan holda belgilanadi. Marafon psixokorreksion mashg`ulotlar o`z maqsadlaridan kelib chiqgan holda 9-16-18 soat davom etishi mumkin.

273

Psixokorreksion guruh rahbari oliy psixologik ma’lumotga, ushbu yo`nalishda mutaxasislikka, shuningdek, individual-guruhiy ishlarda mijoz sifatida tajribaga ega bo`lishi zarur. Har bir guruh yuqori kasbiy malakalarga ega bo`lishi lozim.

2.O`zaro ta’sir jarayonida konsultantning funksiyasi, assistentning funksiyasi

Psixologik maslahat unda xizmat qiladigan mutaxassislarning soniga ko`ra turlicha bo`lishi mumkin. Nisbatan tor ma'nodagi muammo ustida xususiy amaliyot ishini yurituvchi kichik maslahat xizmatlari mavjud. Shunday bir holatni tasavvur

etish mumkin. Bir psixolog mutaxassisning o`zi turli muammolar yuzasidan barcha ishlarni, hatto yordamchi xodimlarsiz bajaradi. Bu xususiy psixologik xizmat amaliyoti bilan shug`ullanuvchi mutaxassislardir. Shuningdek, katta bir muassasada o`nlab yoki undan ham ortiq turli soha bo`yicha ish yurituvchi psixologlar xizmatining yaxlit bir tashkiloti bo`lishi ham mumkin. Eng ko`p uchraydigani psixologik maslahatlarni to`rttadan oltitagacha bo`lgan psixolog maslahatchilar bo`lsa, qolganlari yordamchi xodimlar xizmat qiluvchi maslahat xonalaridir. Majburiyatlarni taqsimlash muammosi faqatgina maslahatxonalarda bir necha mutaxassis xizmat qilgan chog`dagina yuzaga keladi. Bunday holatda majburiyatlarni go`yo tibbiy masalalardagi (masalan, kasalxona, poliklinika) kabi taqsimlash lozim, ya'ni psixologik maslahatlarning ayrim turlarini chuqurlashtirib, ixtisoslar tomonidan o`rganilishini ta'minlash kerak.
Psixolog maslahatlari qanchalik ko`p bo`lsa, taqsimot shunchalik aniq bo`lmog`i zarur. Bunday tavsiya shunisi bilan afzalki, mutaxassislikning biror tor sohasi bilan shug`ullanadigan psixolog umumiy maslahat beruvchi psixologga nisbatan yuqori darajada kasbiy mutaxassislik mahoratiga erishadi. Biroq maslahatxonada faqat ikki psixolog maslahatchi xizmat qilsa, ular o`rtasida majburiyatlarni taqsimlash va ularni ixtisoslashtirish shart emas, bu agar psixolog ish joyida bo`lmay qolsa, mijozlar bilan ishlashda qiyinchilik tug`diradi. Bunday holda: ishning asosiy qismini ikki psixolog uchun ham umumiy qilib, qolgan qismini ixtisoslashtirish zarur.

Umumiy ish sifatida tezkor chora ko`rilishi zarur bo`lgan hodisalar, psixologlar amaliyotida ko`p uchraydigan holatlar uchun maslahatlar ko`zda tutadi. Ixtisoslashganlariga nisbatan kamdan-kam uchraydigan, tezkor qaror qabul qilishni talab etmaydigan hodisalar uchun maslahatlar kiritiladi. Bundan tashqari, psixologlar o`z xizmatlarini ado etishda o`zaro bir-birlarining o`rinlarini bosa oladigan, o`z mijozlarini qabul qilishning iloji bo`lmagan holda boshqasi uning o`rniga ishlay olishi nazarda tutilmog`i lozim. Bunday majburiyat taqsimoti psixologik maslahatxona yordamchi xodimlariga ham taalluqlidir. Ular o`rtasida ham psixologik jihatdan o`zaro kelishish va psixolog maslahatchilar ish sharoitlariga moslashish uyushgan holda amalga oshirishlari zarur.
Psixologik maslahatlar yordamchi xodimlari asosan, kotiba-referentlar va yordamchi laborantlar kabi mutaxassislardan tashkil topadi. Kotiba-referentlarning asosiy vazifalari birinchi bo`lib mijozlarni qabul qilib olishlari, ijtimoiy-turmush xususiyatidan dastlabki ma'lumotlarni olish, maslahatga yozib qo`yish, maslahatlar o`tkazish shartlari to`g`risida ma'lumotlar berish hamda mijozlar bilan doimiy aloqalar olib borish kiradi. Psixolog-maslahatchi maslahatlar to`g`risida barcha kerakli ma'lumotlarni maslahat paytida mijozga kerak bo`ladigan shaklda hamda mijozdan psixolog maslahati uchun kerak bo`ladigan ma'lumotlarni o`z vaqtida yetkazib berish bilan kotiba-referent o`rtasidagi aloqalar olib boriladi.
Laborant yordamchi psixologik maslahat o`tkazish uchun barcha zarur sharoitlar, shu jumladan, uskunalar, ma'lumotlar, maslahat bilan bog`liq hujjatlarni o`z vaqtida tayyorlash bilan shug`ullanadi. Ba'zida laborantga, agarda u yetarlicha tajribaga ega bo`lsa, mijoz bilan mustaqil testlar o`tkazish, test ma'lumotlarini ishlab chiqish, maslahat o`tkazish paytida psixolog-maslahatchiga kasbiy masalalarda yordam ko`rsatish topshiriladi. O`z navbatida yordamchi laborant bilan o`zaro

aloqalarda psixolog-maslahatchining vazifasi, birinchidan, yordamchini maslahat paytida u bajarishi kerak bo`lgan barcha ishlarga o`rgatish, ikkinchidan, uning ishiga bevosita rahbarlik qilishdan iborat hisoblanadi.
Ba'zida psixologik maslahat unda ishlayotgan mutaxassislar soni ancha katta bo`lsa, yoki maslahat o`tkazish paytida ancha katta hajmdagi ma'lumotlarni ishlab
275
chiqish talab etilganda, ko`pchilik turli nusxa olish va hisoblash texnikasidan foydalaniladi. Mana shunday hollarda psixologik maslahat xizmatiga yordamchi xodimlar, jumladan, hisoblash va nusxa olish texnikasi bilan ishlaydigan mutaxassislar kiritiladi. Yordamchilar vazifalarini to`g`ri ifoda etish bilan birga kerakli apparaturalardan foydalanishni bilish uchun psixolog-maslahatchining o`zi ham qay darajada mana shu texnikalardan foydalanishni bilishi kerak. Boshqa soha mutaxassislari to`g`risida gapirsak, ularni psixologik maslahat tarkibiga zarurligiga qarab kiritiladi.

3.Guruhiy psixologik maslahatning samaradorligi va uning samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar

Ijtimoiy psixologik trening ta’sir ko`rsatish metodi sifatida jahon amaliyotida keng qo`llanilib kelinmoqda. Ijtimoiy psixologik trening shaxslararo bir-birini tushunish, muloqotning empativ potentsiallarini oshirish, ichki muammolarni hal etishga imkon tug`diradi. Kundalik hayot vaziyatlaridagi reaksiyalar jiddiy yashirin tarzda bo`lsa, guruhlardagi bu jarayon ochiq tarzda vujudga keladi. Guruhlarda «Yashashni qayta boshlash» mumkin. Moslanish va taraqqiy etishga halaqit beruvchi hulqdagi stereotiplarni bardosh bilan yengish, tevarak atrofdagilar bilan o`zaro munosabatlardagi yangi malakalarni o`zlashtirish mumkin.
Ijtimoiy psixologik trening − psixoterapiyaning murakkab hamda eng samarali metodlaridan biri bo`lib, uning muvaffaqiyatli o`tishi guruh a’zolarining istaklari, shu muammolarini tan olishi, nimanidir o`zlashtirishga intilishiga bog`liq bo`ladi. Ijtimoiy psixologik treningni muvaffaqiyatli o`tishi kuzatuvchi yoki bajaruvchigagina emas, balki barcha guruh a`zolarining hamkorlikdagi faol harakatlarini talab etadi. Buni barcha qatnashuvchilar bilimi, salbiy emotsiyalarni qabul qilishga tayyorligi, bu esa o`z navbatida psixologik himoya va yangi xulq-atvorni shakllantirishning shakli ekanligini bilish zarur.
Amerikalik psixolog T. Mitchellning fikricha, o`zaro ta'sir guruh sharoitida quyidagi omillar vositasida ro`y beradi:
1) ayrim a'zolar boshqalariga nisbatan ko`proq gapirishga moyil bo`ladilar;
276
2) yuqoriroq mavqega ega bo`lgan shaxslar qarorlar chiqarish jarayonida ham boshqalarga taz’yiq o`tkazishadi;
3) guruhda ko`p vaqt o`zaro fikrlardagi kelishmovchiliklarning oldini olishga ketib qoladi;
4) guruhda ayrim odamlar ta'sirida asosiy maqsaddan chetlashish va maqsadga nomuvofiq qarorlar qabul qilish hollari kuzatiladi;
5) barcha a'zolar o`zlari sezmagan holda konformlilikka berilishlari va guruh ta'siriga tushib qoladilar.
Hozirgi ijtimoiy hulqni yangi bozor munosabatlariga mos tarzda tashkillashtirish, boshqarishga o`rgatish dolzarb bo`lib turgan sharoitda ijtimoiy psixologik trening nafaqat mutaxassis psixologlarga, balki barcha ijtimoiy boshqaruv

soha hodimlari uchun ham foydalidir.

4. Psixolog-konsultantlarni tayyorlash jarayonida guruhiy psixologik maslahatni qo`llash

Psixolog-maslahatchini kasbiy tayyorlash har qanday psixolog uchun majburiy bo`lgan umumta'lim ilmiy tayyorgarlikdan tashqari (unga har qanday ixtisosdagi professional psixolog uchun zarur bo`lgan ilmiy bilimlar minimumi kiradi) kerakli kasbiy sohasida, maslahat berish sohasida ixtisoslashishni ko`zda tutuvchi psixologiyaning qator bo`limlarini o`zlashtirishni ham o`z ichiga oladi.

Psixolog-maslahatchini kasbiy tayyorlash maxsus yo`nalishlari quyidagilar:

 Psixologik maslahatning tayyorgarlik bosqichini o`rganish.

 Psixolog-maslahatchi ishlari mazmuni to`g`risidagi ma'lumotlarni o`zlashtirish.

 Psixolog-maslahatchining mijozlar bilan ishlash metodlarini egallab olish.

 Quyidagi maxsus sohalarda psixologik maslahat o`tkazish xususiyatlari bilan tanishish: oilaviy maslahatlar, amaliy maslahatlar, psixologopedagogik maslahatlar, intim-shaxsiy maslahat o`tkazish.

 Psixolog-maslahatchining ancha tajribali psixolog-maslahatchi – supervizor rahbarligi ostida ishlashi.

Psixologik maslahat ishlariga tayyorgarlik jarayonini o`rganish tashkiliy masalalar to`plami, shu jumladan maslahat berish sohasi, maslahat ishlari boshlanish vaqtini tanlashdan iborat masalalarni diqqat bilan o`rganib chiqishni o`z ichiga oladi.

Psixolog-maslahatchi amaliy mazmunda muammoni hal qilishni bilishi kerak bo`lgan aniq masalalar qatorida quyidagilarni ko`rsatishi mumkin:

 Mijozlar aniq doirasini – psixologik maslahat olishga keluvchilarni, psixologik maslahat ishlari mazmuniga ularning mumkin bo`lgan muammolarining bog`liqligini va maslahatchi bo`lib ishlovchi psixologlarga qo`yilishi mumkin bo`lgan kasbiy talablarga bog`liqligini aniqlash.

 Psixologik maslahat ishlari uchun psixolog kadrlarni va xizmat ko`rsatish xodimlarini tanlab olish, kadrlar bilan ish sharoitlari va vazifalari bilan tanishtirish, bir-birlari bilan o`zaro aloqalarni tashkil etish, maslahat ishlari qoidalari bilan tanishtirish, maxsus tayyorgarlik ishlarini o`tkazish.

 Maslahatlar amaliy ishlarni boshlash uchun moddiy baza va hujjatlarni tayyorlash.

 Mumkin bo`lgan mijozlar orasida maslahat ishlari to`g`risida ma'lumotlarni tayyorlash va tarqatish.

Psixolog-maslahatchi ishini tashkil qilish bilan tanishish psixologik maslahat qanday tashkil qilinishi, buning uchun kerak bo`lgan uskunalar minimumiga nimalar kirishi, psixologik maslahat va psixolog-maslahatchi uchun qulay ish tartibi qanday bo`lishini, psixologik maslahat ishlari davomida sharoit qanday bo`lishi kerakligi va qator boshqa masalalarni o`z ichiga oladi.

Endi boshlayotgan mutaxassisning psixolog-maslahatchi ishi mazmuni bilan tanishishi o`z navbatida quyidagilarni ko`zda tutadi:

Birinchidan, psixologik maslahat nima ekanligi, psixolog amaliy faoliyati boshqa turidan uning farqi nimadan iboratligi bilan tanishish.

Ikkinchidan, o`z kasbiy vazifalarini yuksak darajada bajara olishi uchun psixolog-maslahatchi nimalarni bilishi va bajarishni bilishi kerakligini aniqlash.
Uchinchidan, psixologik maslahat asosiy turlari bilan ularga qo`yiladigan asosiy talablar bilan tanishish.
To`rtinchidan, psixolog-maslahatchi ish sharoitlarini bilish, psixologmaslahatchi ish metodlarini o`zlashtirish ish boshlayotgan psixolog-maslahatchining mijozlar bilan muloqot olib borish uslublarini, psixologik maslahat amaliyotida foydalaniladigan psixodiagnostika metodlarini egallashni ko`zda tutadi. Ushbu uslub va metodlar bo`lajak psixolog-maslahatchi tomonidan amaliy, mos ravishdagi maxsus mashg`ulotlar davomida o`zlashtirilishi kerak. Shunday uslublar va metodlar qatoriga, xususan, psixolog-maslahatchining mijozga to`g`ridan-to`g`ri psixoterapevtik ta'sir ko`rsatish metodi kiradi.
Turli sohalarda psixologik maslahatlar o`tkazish xususiyatlarini o`rganish zarurligi, birinchidan intim-shaxsiy, oilaviy, amaliy va psixologo-pedagogik maslahatlar – bular turli narsalar ekanligi, ikkinchidan, psixolog-maslahatchi maslahatlarning ushbu turlari bilan bir xil darajada shug`ullanmasligi va ularga vaqtivaqti bilan murojaat etib, shunga qaramay barcha ko`rsatilgan sohalarda o`z kasbiy malakasini saqlab qolishi kerakligi bilan bog`liqdir.
Shu bilan birga psixologik maslahatlar ushbu sohalarida ko`plab xususiy ancha nozik va murakkab o`ziga xos masalalar mavjud. Bu masalalarni bilish uzoq vaqtni, amaliy muvaffaqiyatni hal etish esa mustahkam malaka va ko`nikmalarni talab etadi.
Tajribali mutaxassis rahbarligi ostida amaliyot o`tayotgan psixologmaslahatchi rolida ishlash psixolog-maslahatchiga kasbiy tajriba orttirish va amalda kerakli malaka va ko`nikmalarni egallab olish uchun zarurdir.
Bularning barchasiga ma'ruzalar tinglash va kitob o`qishdan ko`ra boshqalar tajribalarini o`rganib olish ancha osondir. Bundan tashqari psixolog-maslahatchi amaliy ishida oldindan bilib bo`lmaydigan va o`quv faoliyati davomida qoniqarli javob olib bo`lmaydigan ko`plab kutilmagan masalalar yuzaga keladi. Malaka boshqalar kasbiy ishlariga taqlid qilish davomida amaliy ishlab chiqiladi.

Psixolog-maslahatchini tayyorlash qanday boshlanadi, olib boriladi va nimalarga asoslanadi?
Psixolog-maslahatchini kasbiy tayyorlash odatda uning umumiy oliy pedagogik ma'lumot olishidan boshlanadi. Bunday ta'lim umumiy psixologiyani, ijtimoiy psixologiyani, yosh davrlari psixologiyasini, pedagogik psixologiyani, maxsus psixologiyani, psixofiziologiyani, psixologiya tarixini bilishni o`z ichiga oladi.
Shundan keyin psixologga maslahatlar olib borish kerak bo`ladigan faoliyat turlari psixologik jihatlari bilan bog`liq qator fanlar keladi. Bular, xususan, tibbiyot psixologiyasi, boshqaruv psixologiyasi, bolalar psixologiyasi, iqtisodiy psixologiya va qator boshqa maxsus fanlar.
Shulardan keyin psixolog-maslahatchi maslahat o`tkazish bo`yicha amaliy malakalar va ko`nikmalar ishlab chiqish uchun zarur bo`lgan bilimlarni oladi. Bu bilimlar psixologik testlardan foydalanish (psixodiagnostika), psixologik maslahatning o`zi bilan va nihoyat psixokorreksiya bilan bog`liq malakalardir.
Bularning barchasi bilan bog`liq o`quv fanlari odatda ancha katta hajmda o`qitiladi va

ularni o`rganish faqat ma'ruza shaklida emas, balki seminar va amaliy mashg`ulotlarni ham o`z ichiga oladi.
Shularning hammasi psixolog-maslahatchini umumiy fundamental yoki tayanch kasbiy tayyorlashni tashkil etadi va o`qitishning boshlang`ich bosqichi mazmuniga kiradi. Uning yakunlanishi bilan bo`lajak psixolog-maslahatchi psixologik maslahat amaliyotini o`zlashtirish bilan bog`liq mustaqil amaliy ishlarga kirishishi mumkin bo`ladi. Biroq avvaliga bundan ishning darajasi (saviyasi) unchalik yuqori bo`lmaydi, chunki umumiy va maxsus bilimlardan tashqari ishda professionalizmga erishish uchun tajriba orttirish zarur.
Hayot psixolog-maslahatchi yaxshi mutaxassis bo`lishi uchun zarur bo`lgan malakalarga erishish o`quv yurtida emas, balki faqat amaliy faoliyati davomida egallashini ko`rsatadi. Bunga bo`lajak psixolog oliy o`quv yurtida bilim olgan vaqt talab etiladi. Shuning uchun haqiqatda vaqt o`tishi bilan yuksak darajali mutaxassis bo`lish uchun psixolog maslahatchi supervizor rahbarligi ostida ancha ko`p vaqt

ishlashi kerak. Bu ish uchun odatda oliy o`quv yurtini tugatgandan so`ng bir - ikki yil sarflanadi.
Maslahatchi-psixologni kasbiy tayyorlash uning bilim, malakalar, ko`nikmalar to`plamlarini o`zlashtirishidan iborat bo`ladi.
U quyidagilarni bilishi zarur:
* Psixologik maslahatni yuksak darajada o`tkazish uchun o`rganishi zarur bo`lgan psixologiya sohasidagi u bilan yaqin bo`lgan fanlar zarur nazariy bilimlarni egallashi kerak.
* Psixologik maslahat ishlarini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun zarur bo`lgan bilimlar: mijozlar bilan amaliy mashg`ulot sohasidagi rivojlangan malakaga ega bo`lish kerak.
* Turli masalalar va turli odamlar bilan psixologik maslahat o`tkazish uchun ancha katta tajribaga ega bo`lishi kerak.
Psixolog-maslahatchi ishi olim-psixolog va psixologiya o`qituvchisi faoliyatidan iborat. Psixolog-maslahatchi uchun hozirgi kunda fanda hatto u psixologik maslahat o`tkazadigan sohalarda to`plangan barcha bilimlarni bilishi shart emas, biroq psixologik maslahatda odamlar bilan amaliy ishlarda foydali bo`lishi mumkin bo`lgan barcha axborotlarni u bilishi maqsadga muvofiq bo`ladi.
Psixolog maslahatchi ilmiy tushunchalarni to`g`ri aniqlashni bilishi majburiy emas, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish va o`tkazishni bilishi shart emas. Lekin u odamlar murojaat etadigan amaliy muammolarni nazariy bilimlar bilan bog`lashga va ushbu bilimlarini mavjud qiyinchiliklarni samarali hal etishda foydalanishga o`rganib olishi kerak. Maslahatchi-psixolog yuksak ilmiy va metodik darajada psixologiyani o`qitishni bilishi shart emas, lekin u mijozlarga foydali psixologik bilimlar berishni o`rganib olishi kerak. Psixolog-maslahatchi faqat amaliyotchi emas, balki ishning tashkilotchisi hamdir. Shuning uchun u psixologik maslahat ishlarini tashkil etishga taalluqli barcha ishlarga o`rganib olgani maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunga, xususan, ma'lum ijtimoiy, xuquqiy, moliyaviy masalalar va yangi tashkilotni yaratuvchi va tashkil etuvchi boshlayotgan ishbilarmon uchun zarur

bo`lgan bilimlar kiradi.Bunga yana kadrlarni tanlab olish va joyiga qo`yish, ular o`rtasida vazifalarini taqsimlash, ularning o`zaro aloqalarini tashkil etish ham kiradi.

Mijozlar bilan muloqot amaliyotida psixolog-maslahatidan odamlarni to`g`ri baholashni bilish, bir-birini tushinishga erishish, yaxshi munosabatlar o`rnatish va ishontirishni bilish talab etiladi.
Psixologik-maslahat o`tkazish shaxsiy tajribani psixologik maslahatga bunday tajribasiz xususiyat masalalarini bila olmasligi, asosiysi esa unga kerak bo`lgan amaliy malaka va ko`nikmalarni egallab olishi uchun zarurdir.
Gap shundaki kasbiy oliy o`quv yurti tayyorgarligi jarayonida barcha vaziyatlarni ko`zda tutish mumkin emas, bunday tayyorgarlik malaka va ko`nikmalarni ishlab chiqishdan ko`ra ko`proq bilimlar olishga yo`naltirilgan. Malaka ko`nikmalar esa psixologik maslahat o`tkazish amaliy tajribasida ishlab chiqiladi.
Psixolog-maslahatchining kasbiy malakasini qanday qilib oshiriladi?
Kasbiy malakasini muntazam oshirib borish ham uning umumiy va maxsus psixologik ta'limi kabi psixolog-maslahatchining kasbiy tayyorlashga majburiy talab hisoblanadi.Birinchidan: oliy o`quv yurtida olgan bilimlari vaqt o`tishi bilan eskirib boradi va ularni yangilash zaruriyati yuzaga keladi. Ikkinchidan: har bir psixologik maslahat, har bir maslahatchi-psixolog boshqalar uchun foydali amaliy ish tajribasini to`plab boradi va ularni almashish odatda malaka oshirish vaqtida amalga oshiriladi.
Psixolog maslahatchilarni kasbiy tayyorlash asosiy soha va yo`nalishlari psixolog-maslahatchi ishiga qo`yiladigan talablarga binoan uning kasbiy malakasini oshirish quyidagi asosiy yo`nalishlarini ko`rsatib o`tish mumkin:
1.Psixolog-maslahatchi faoliyati asosini tashkil etuvchi zamonaviy psixologiya sohalarida yangi ilmiy va amaliy foydali bilimlarni olish, bu bilimlarni turli yo`llar bilan egallash mumkin: malaka oshirish maxsus fakultetlarida, kurslar, seminarlarda hamda yangi ilmiy va ilmiy-amaliy nashrlar bilan doimiy tanishib borish hisobiga mustaqil ravishda egallab borish;
2. Yanada yuksak kasbiy razryad olish uchun dissertatsiya tayyorlash va himoya qilish, imtihon topshirish, bu yo`nalish odatda ma'lum huquqlarga ega bo`lgan davlat yoki jamoat tashkilotlari tomonidan nazorat qilinadi.

3. Psixolog-maslahatchining psixoterapiya yoki psixokorreksiya yangi metodlarini o`zlashtirishi, mijozga psixoterapevtik yoki psixokorreksion ta'sir ko`rsatishi odatda psixolog – maslahatchi vazifasiga kirmasa ham u kerak bo`lgan vaqtda zarur metodlardan foydalanishni bilishi kerak. Bu metodlarni psixolog – maslahatchi qanchalik yaxshi bilsa, uning kasbiy mahorati darajasi shunchalik yuqori bo`ladi.
4. Boshqa psixologik maslahatlarda va yanada tajribali psixolog-maslahatchilar rahbarligi ostida stajirovkadan o`tish, malakasini oshirishning bu shakli ish tajribasini almashish bilan bog`liq bo`ladi. Bunday doimiy tajriba almashish esa har qanday psixolog-maslahatchining kasbiy mahoratini ta'minlash va rivojlantirish uchun zarurdir.
5. Mijoz sifatida psixologik maslahatdan o`tish, maslahat berish, psixokorreksiya va psixoterapiya metodlari bilan tanishish, malakasini oshirish psixolog-maslahatchi ishida ikki barobar ijobiy rol o`ynaydi. Birinchidan, uning yordamida har qanday odamda bo`lgani kabi unda ham bo`lishi mumkin bo`lgan muammolarini hal etish imkonini beradi. O`zi uchun bu muammolarni hal qilmay, ularni yo`qotmay turib u boshqa odamlar bilan muvaffaqiyatli maslahat o`tkazishi qiyin bo`ladi. Ikkinchidan, mijoz rolida ishtirok etib psixolog-maslahatchi bo`lajak

mijozlarni chuqurroq tushunishga va his etishga o`rganib olishi, psixokorreksiya va psixoterapiya kerakli metodlarini yaxshiroq egallab olishi mumkin bo`ladi.

5.Individual ish ko`rsatmalari va individual psixokorreksiya bosqichlari

Psixokorreksiyaning asosiy maqsadi mijozning yosh va tur xususiyatlaridan, uning sub'ektiv voqeligidan kelib chiqib shaxsiga doir resurslarini faollashtiruvchi va me'yorga mos keluvchi holatga olib kelishdir.

Psixokorreksiyalovchi ta'sirning asosiy quroli sifatida psixolog ilgari suriladi, korreksion jarayon psixolog - mijoz juftligida kechadi.

283

Individual psixokorreksiyaga ko`rsatma:

1) mijozning xohishi;
2) mijozning muammoli xarakteri (shaxsiy muammosi);
3) mijozni guruhda ishlashdan bosh tortishi yoki ba'zi sabablarga ko`ra guruhda qatnasha olmasligi (jismoniy holati, kasallik);
4) mijoz xavotirining yuqori darajasi;
5) keskin qayg`uli holat.

Individual psixokorreksiyaga qarshi ko`rsatma:

1) yaqqol ifodalangan qo`zgaluvchanlik;
2) ongining pastligi;
3) axloq-odob me'yorlarining pastligi.

Individual psixokorreksiyaning samaradorligi quyidagilar bilan aniqlanadi:

1) psixologning shaxs sifatidagi xususiyatlari (ijtimoiy kelib chiqishi, jozibadorligi, intellektual rivojlanishi, iroda, xarakter xususiyatlari);
2) mijoz va psixolog o`rtasida shakllangan munosabat (ishonch, mutaxassisning obro` qozongani, mijozni mutaxassisga tobeligi);
3) mijozga nisbatan psixolog tanlagan vaziyatning mosligi (psixologning tutgan yo`li, psixologni mijozga bo`lgan munosabatida qabul qilgan boshqarish strategiyasi; ushbu tanlov psixolog tomonidan mijozning shaxsiy xususiyatlarini va vaziyat xususiyatlari inobatga olgan holda amalga oshiriladi.
4) mutaxassis tomonidan ma'lumotlarni shakllantirish usullari (isbotlash darajasi, mantiq, his-tuyg`ularga qayta yondashuv). Shaxsiy psixokorreksiyada texnika tanlovi mutaxassisning afzal ko`rgan, mijozni shaxs sifatidagi va uning

284

muammosi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda olib boriladi. Shaxsiy psixokorreksiyada verbal ta'sirning asosiy usullari ishontirish va ta'sir etish hisoblanadi.

6.Guruhiy psixokorreksiyaning o`ziga xosligi va psixokorreksion guruh bilan ishlash

Guruhiy mashg`ulot o`zining qonun-qoidalariga ega, trening davomida ishtirokchilarning qoidalarga amal qilishlari ta'minlab boriladi. Trening dasturini ishlab chiqish o`yin faoliyatining ma'lum bir dinamikasini tashkillashtirish hisobiga amalga oshiriladi.

Treningda qo`llanilgan metodlarning asosiy vazifalari quyidagilar bilan izohlanadi:

1) o`quvchilarni o`z hissiyot va emotsional reaksiyalarini boshqara olishga o`rgatish;
2) shaxslararo munosabatlar jarayonida namoyon bo`ladigan muloqot

ko`nikmalari va malakalarini hosil qilish;
3) shaxsning ijtimoiy-psixologik bilimdonligini kuchaytirish;
4) samarali muloqotda namoyon bo`ladigan zarur sifatlar, ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish, noadekvat jihatlarni korreksiya qilish;
5) o`z-o`zini to`laroq anglash, bilish hamda o`zgalarga nisbatan to`g`ri munosabatlarni shakllantirish qobiliyatini o`stirish;
6) umuman, shaxsning ijtimoiy munosabatlarining ijtimoiy-psixologik vaziyatlarga mosligini ta'minlash va muvofiqlashtirish.
Psixologik treningning afzalliklari quyidagilarni tashkil qiladi:
1. Guruhda insonni kerakli tarzda o`z xulq-atvorini o`zgartirishga majbur qiladigan qo`shimcha stimullar ta'sir qiladi.
2. Guruhda inson o`zini psixologik himoyalangandek his qiladi. Chunki odatda guruh bilan ishlashda insoniy munosabatlarning ijobiy muhiti yaratiladi.
3. Guruh insonga yanada chuqurroq ochilishga yordam beradi va bu esa unga yengillashish hissini beradi.

4. Guruh individda shaxslararo xulq-atvorning yangi adaptiv shakllarini paydo qiladi.
5. Guruh o`z-o`zini tushunishga ko`proq yordam beradi, chunki mijoz o`zini boshqalar bilan qiyoslab ko`radi. Natijada esa inson o`zi haqida yanada to`g`riroq tasavvurni shakllantiradi.

7.Korreksion guruh turlari

Korreksion mashg`ulot davomida psixologik treningning quyidagi ko`rinishlaridan foydalaniladi:
1. Guruhiy ko`nikmalar treningi – bunda qatnashuvchilar o`zini odamlar orasida yaxshiroq tushunishlari va xulq-atvorini baholay olishlari shakllantiriladi. Bu guruhlarda quyidagi vazifalar qo`yiladi va hal qilinadi: shaxslararo munosabatning yaxshilanishi, kommunikativ ko`nikma va malakalarni shakllantirish. Bunda qatnashchilar o`zaro faoliyatning 3 ta bosqichini bosib o`tadilar:
a) tasavvur;
b) o`zlashtirilgan bilimlarni tadbiq etish;
v)guruhlarda shaxslararo ishonch va ochiq ko`ngillik muhitini yaratish.
Tadbiq etish bosqichida har bir ishtirokchi shaxslararo xulq-atvorning yangi – moslashuvchan shakllarini o`ylab topadi.
2. Uchrashuv guruhlari. Insonlarning o`z ijtimoiy tajribalari bilan mustaqil shug`ullana olishlariga yordam beradi. Bunday guruhlarda maxsus usullar yordamida shaxslararo ishonch, fikrlar va hissiyotlarni erkin ifodalash muhiti keltirib chiqariladi. Guruh qatnashchilari shaxslararo faoliyatning bir qator bosqichlarini qayta ko`rib chiqadi. Bu jarayon quyidagi tarzda amalga oshiriladi: Qatnashchilar juftlikka bo`linadilar va birinchi tasavvurlari bilan o`rtoqlashadilar. Ular o`rtasida ishonch munosabatlari paydo bo`la boshlaydi. Keyingi bosqichda esa guruh a'zolari ularni muloqotga kirishishiga qiyinchilik tug`dirayotgan muammolarni diqqat bilan o`rganadilar.
3. Geshtalt guruh treningi. Bunda ishtirokchilar, avvalo, o`z hissiyotlarini anglab va tahlil qilishni o`rganadilar. Bu guruhlarda qatnashchilar shaxslararo

munosabatlardagi muammoli vaziyatlarda qanday pozitsiyada ekanliklarini

tushunishlariga yordam beriladi.
4. Psixodrama guruhi. Bunda mijozga ta'sir ko`rsatadigan hayotiy haqiqiy spektakllar yoki ba'zi bir vaziyatlar ifodalanadi. Psixodrama boshqa usullarga qaraganda noan'anaviy yo`nalishda olib boriladi. Dastlab guruhda tayyorgarlik mashqlari amalga oshiriladi. Bunda guruh a'zolari psixodramada bajariladigan ma'lum bir rolni bajarib ko`radilar.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

1.Guruhiy psixologik maslahatning o`ziga xos jihatlari nimadan iborat?
2.O`zaro ta’sir jarayonida konsultantning va assistentning funksiyasi qanday namoyon bo`ladi?
3.Guruhiy psixologik maslahatning samaradorligi va uning samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar haqida bayon eting.
4. Psixolog-konsultantlarni tayyorlash jarayonida guruhiy psixologik maslahatni qo`llash qanday samara beradi?
5.Individual ish ko`rsatmalari va individual psixokorreksiya bosqichlari nimalardan iborat?
6.Guruhiy psixokorreksiyaning o`ziga xosligi nimalarda namoyon bo`ladi?
7.Korreksion guruhning qanday turlari mavjud?

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Korreksion guruhning qanday turlari mavjud?
A. Guruhiy ko`nikmalar treningi.
B.Uchrashuv guruhlari.
S. Geshtalt guruh treningi.
D. Psixodrama guruhi.
*E. Barcha javoblar to`g`ri.
2. Guruhiy ko`nikmalar treningining mohiyati nimadan iborat?
*A. Bunda qatnashuvchilar o`zini odamlar orasida yaxshiroq tushunishlari va xulq-atvorini baholay olishlari shakllantiriladi.
B.Insonlarning o`z ijtimoiy tajribalari bilan mustaqil shug`ullana olishlariga yordam beradi.
S. Bunda ishtirokchilar, avvalo, o`z hissiyotlarini anglab va tahlil qilishni o`rganadilar.
D. Bunda mijozga ta'sir ko`rsatadigan hayotiy haqiqiy spektakllar yoki ba'zi bir vaziyatlar ifodalanadi.
E. Barcha javoblar to`g`ri.
3. Korreksion mashg`ulot davomida qo`llaniladigan “Uchrashuv guruhlari” treningining mazmuni qaysi javobda to`g`ri berilgan?
287
A. Bunda qatnashuvchilar o`zini odamlar orasida yaxshiroq tushunishlari va xulq-atvorini baholay olishlari shakllantiriladi.
*B.Insonlarning o`z ijtimoiy tajribalari bilan mustaqil shug`ullana olishlariga yordam beradi.
S. Bunda ishtirokchilar, avvalo, o`z hissiyotlarini anglab va tahlil qilishni o`rganadilar.
D. Bunda mijozga ta'sir ko`rsatadigan hayotiy haqiqiy spektakllar yoki ba'zi bir vaziyatlar ifodalanadi.
E. Barcha javoblar to`g`ri.
4. Qaysi qatorda geshtalt guruh treningiga xos xususiyat to`g`ri keltirilgan?
A. Bunda qatnashuvchilar o`zini odamlar orasida yaxshiroq tushunishlari va xulq-atvorini baholay olishlari shakllantiriladi.
B.Insonlarning o`z ijtimoiy tajribalari bilan mustaqil shug`ullana olishlariga yordam beradi.
*S. Bunda ishtirokchilar, avvalo, o`z hissiyotlarini anglab, tahlil qilishni o`rganadilar.
D. Bunda mijozga ta'sir ko`rsatadigan hayotiy haqiqiy spektakllar yoki ba'zi bir vaziyatlar ifodalanadi.
E. Barcha javoblar to`g`ri.
5. Psixodrama guruhi to`g`ri ta’riflangan javobni belgilang.
A. Bunda qatnashuvchilar o`zini odamlar orasida yaxshiroq tushunishlari va xulq-atvorini baholay olishlari shakllantiriladi.
B.Insonlarning o`z ijtimoiy tajribalari bilan mustaqil shug`ullana olishlariga yordam beradi.
S. Bunda ishtirokchilar, avvalo, o`z hissiyotlarini anglab, tahlil qilishni o`rganadilar.

*D. Bunda mijozga ta'sir ko`rsatadigan hayotiy haqiqiy spektakllar yoki ba'zi bir vaziyatlar ifodalanadi.
E. Barcha javoblar to`g`ri.
6. Individual psixokorreksiyani o`tkazish shartlari qaysi javobda to`g`ri berilgan?
A. Mijozning psixologik yordam olish uchun ixtiyoriy roziligi.
B.Mijozni mutaxassisga ishonchi.
S. Mijozni tadqiq qilish jarayonida, korreksion dasturni shakllantirish va uni amalga oshirilishida mijoz faolligi.
D. Psixologning shaxs sifatidagi xususiyatlari.
*E. A,B,S javoblar to`g`ri.
7. Individual psixokorreksiyaning samaradorligiga qanday omillar ta’sir ko`rsatadi?
A. Psixologning shaxs sifatidagi xususiyatlari.
B.Mijoz va psixolog o`rtasida shakllangan munosabat.
S. Mijozga nisbatan psixolog tanlagan vaziyatning mosligi.
D. Mutaxassis tomonidan ma'lumotlarni shakllantirish usullari.
288
*E. Barcha javoblar to`g`ri.
8. Psixokorreksion guruh faoliyatining asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
A. Masuliyatlilik tamoyili.
B.Yaqinlik.
S. Qo`llab-quvvatlash tamoyili.
D. Kongruentlik tamoyili.
*E. Barcha javoblar to`g`ri.
9. Individual psixokorreksiya qanday vaziyatlarda qo`llaniladi?
1) mijozning xohishi;
2) mijozning muammoli xarakteri (shaxsiy muammosi);
3) axloq-odob me'yorlarining pastligi.
4) mijozni guruhda ishlashdan bosh tortishi yoki ba'zi sabablarga ko`ra guruhda qatnasha olmasligi (jismoniy holati, kasallik);
5) mijoz xavotirining yuqori darajasi;
6) keskin qayg`uli holat.
7) yaqqol ifodalangan qo`zgaluvchanlik;
8) ongining pastligi;
A. 1,2,3,4,5.
*B.1,2,4,5,6.
S. 2,3,4,5,8.
D. 3,4,5,6,7.
E. 1,3,5,6,8.
10. Individual psixokorreksiya qanday vaziyatlarda qo`llanilmaydi?
1) mijozning xohishi;
2) mijozning muammoli xarakteri (shaxsiy muammosi);
3) axloq-odob me'yorlarining pastligi.
4) mijozni guruhda ishlashdan bosh tortishi yoki ba'zi sabablarga ko`ra guruhda qatnasha olmasligi (jismoniy holati, kasallik);
5) mijoz xavotirining yuqori darajasi;
6) keskin qayg`uli holat.
7) yaqqol ifodalangan qo`zgaluvchanlik;
8) ongining pastligi;
A. 1,2,3.
B.1,2,4.
S. 2,3,4. *D. 3,7,8. E. 1,3,5.
289

17-BOB. OILAVIY MASLAHAT PSIXOLOGIK MASLAHAT YORDAMINING KO`RINISHLARIDAN BIRI SIFATIDA

Reja:

1.Oilaviy maslahat turi: “ota-ona-bola”. Er xotinga maslahat, “katta bolalar-keksa ota-onalar”.
2. Oilaviy psixologik maslahatning turli ko`rinishlarida psixolog-konsultant faoliyatining algoritmi.
3.Ota-ona va bola hamda oilaviy munosabatlar psixokorreksiyasi.
4. Ota-ona va bola hamda oilaviy munosabatlarni korreksiyalash metodikasi.
**Mavzuning o`quv maqsadi:** talabalarni oilaviy psixologik maslahatning turli ko`rinishlarida psixolog-konsultant faoliyatining algoritmi bilan tanishtirish.
Darsning vazifasi: Talabalarga oilaviy munosabatlar psixokorreksiyasi haqida ma’lumot berish.
Tayanch tushunchalar: Oiladagi o`zaro munosabatlar, nikoh shartnomasi, nuklear oilalar, demokratik, liberal, aralash tipdagi oilalar.

1.Oilaviy maslahat turi: “ota-ona-bola”. Er xotinga maslahat, “katta bolalarkeksa ota-onalar”

Oilaning hayotiy tarzi uning hayotiy sikli bilan bog`liq. Ayrim olimlar, masalan, V.Satir zamonaviy oilaning bola tarbiyasi va uning manfaatlariga bog`liq ekanligidan kelib chiqib, bu maskandagi hayot maromini bola rivojlanishining bosqichlari bilan bog`laydi. Shunga ko`ra, quyidagi bosqichlar farqlanadi:

1-bosqich. Aksariyat olimlar oiladagi hayot sikli ikki yoshning uzoq muddatga ahdu-paymon qilib nikohga kirishga qaror qilgan onlaridanoq boshlanishini ta'kidlaydilar. Boshqa mualliflarning fikricha, oilaning boshlang`ich nuqtasi ikki shaxs rasman nikohga kirgan vaqt, ko`pchilikning guvohligida o`tkazilgan tantanalar bilan izohlanadi.

2-bosqich. Ikki yoshning intim qovushishi oqibatida zurriyodning paydo bo`lishi. Satirning fikricha, zurriyodning paydo bo`lishi, tug`ilishi er va xotinning asl munosabatlarini sinovdan o`tkazadi va ular o`ziga xos yangicha munosabatlar davrini boshdan kechira boshlaydilar. Bu davrga asosiy mazmun va ma'no beruvchi voqea – bu er va xotinga yangi rollarning berilishi, anchagina katta ijtimoiy mas'uliyatni o`ziga qamrab olgan ota-onalik rollarining boshlanishidir. Ko`plab xalqlarda, ayniqsa, o`zbeklarda bolaning dunyoga kelishi juda katta quvonchli marosimlar bilan

boshlanib, ular qadriyat sifatida asrlar osha saqlab kelinmoqda. Shunga qaramay, ayrim xalqlarda, masalan, evropa xalqlarida oilada farzandning tug`ilishi muayyan tashvishlar, ruhiy tarangliklar, ayniqsa, ona boshidan kechiradigan emotsional hayajonlar, yaqinlariga ijtimoiy va moliyaviy tashvishlarni keltirib chiqaradiki, bu ham ba'zan oilaviy munosabatlardagi tarangliklarda aks etadi. Oila va farzand oldidagi bunday mas'uliyatlar ayrim hollarda er-xotin munosabatlarining darz ketishiga, ba'zan ajrimlarga, bizning sharoitimizda quda-andachilik munosabatlaridagi kelishmovchiliklarga ham sabab bo`ladi.

3-bosqich. Bola oiladan tashqaridagi ijtimoiy institutlar – maktabgacha ta'lim muassasalari, ayniqsa, uzluksiz ta'limning boshlang`ich o`chog`i hisoblangan maktabga bora boshlaydi. Maktab shunday maskanki, u yerda har bir bolaning qay darajada va qanday ijtimoiylashgani sinovdan o`tadi. Chunki u endi nafaqat o`zi tengqur bolalar bilan, balki kattalar, begonalar, ko`chadagi turli toifali insonlar bilan muomalaga kirisha boshlaydi. Bu muomala jarayonida uning qanchalik hayotga tayyorligi, oilasida qanday ahloqiy va ma'naviy o`gitlarni olganligi, kimning bolasi ekanligi, oilaviy muhiti qandayligi bilina boshlaydi. Eng muhimi – maktabga kelgach, bolaning aqliy va intellektual salohiyati, intizomi tekshiruvdan o`tadi. Ya'ni, bolasini maktabga berar ekanlar, ota-onalar ham jamoatchilik oldida o`ziga xos sinov va tekshiruvdan o`tayotganday his qiladilar o`zlarini. Yaxshi yoki yomon ota-onalik rollari maktab yillarining dastlabki oy va yillarida bilingani sababli, ko`pgina otaonalar

ayni shu davrlarda kuchli stressni boshidan kechiradilar.
4-bosqich. Bola o`smirlik davriga qadam bosganda, u ota-onasidan mustaqillikni, hadeb ta'qib qilavermaslikni da'vo qila boshlaydi. Ota-onaning farzand oldidagi obro`si, kerakligi darajasi pastlay boshlaydi. Bu davrga kelib ota ham, ona ham o`zining farzandiga nisbatan munosabatlarini o`zgartirishga majbur bo`ladi, chunki bolada yangicha talab va istaklar, yangicha fikrlash, urf-odatlar, musiqaga havas, turli xil guruhlar bilan muloqotda bo`lishga intilishlar paydo bo`ladi. Bu davr ota-onaning bolasida paydo bo`layotgan o`zgarishlarga, yoshga oid yangiliklarga qanchalik fahm va farosat bilan, sabr-qanoat bilan turib berishlarini sinovdan o`tkazadi. Sinovdan yaxshi o`tgan ota-onaning bolasi keyingi bosqichga eson-omon

yaxshilik bilan, ochiq ziddiyatlarsiz o`tib oladi, aks holda o`smirlik davrining o`ziga xos ziddiyatlari girdobida ota-ona – bola munosabatlari jiddiy yomonlashadi, ayrim bolalar uydan ketib qolish holatlarigacha boradi.
5-bosqich. Bolalar katta bo`lib, balog`at yoshiga yetadilar, o`qishlarni tugatib, mustaqil kasb-hunar egallash bosqichiga qadam bosganda, ayrim yoshlar mustaqil oilaviy hayot qurishga ham ulguradilar. Shu davrga kelib, “Bola – ota-ona” munosabatlari deyarli tugaydi. Ayniqsa, bu holat yevropa xalqlariga mos, balog`at yoshiga yetgach, deyarli barcha hayotiy masalalarni yoshlar o`zlaricha, o`z bilganlaricha hal qila boshlaydilar.
Shuni ham ta'kidlash joizki, ayrim hollarda ota-onaning yoshlar hayotiga aralashuvi shu qadar bevosita xarakterli bo`ladiki, bu yoshlar bilan ota-onalar o`rtasidagi nizolarga ham sabab bo`ladi, qaynona va kelin, qaynota va kuyov o`rtasida nizolar ham ana shunday aralashuvning ko`pligidan kelib chiqadi. Ya'ni, ota-onaning farzandi balog`at yoshiga etib, mustaqil hayotga qadam qo`ygandagi aralashuvlari, g`amxo`rliklari ham ijobiy, ham salbiy oqibatlarni olib kelishi mumkin. Farzandlarning mustaqil iqtisodiy maqomga ega bo`lishlari, o`z oilasiga ega bo`lishi ota va onaga boshqa yana qo`shimcha rollarni bajarishni taqozo etadi – kelin, kuyov, qaynona, qaynota va boshqalar. Bundan tashqari, yangi paydo bo`lgan yosh oilaning qarindosh-urug`lari o`rtasidagi munosabatlar, masalan, quda-andachilik munosabatlari ham yosh oila va uning ota-onalari maqomlarining o`zgarishiga olib keladi.
6-bosqich. Keksalikning dastlabki belgilari – tanada keksalik alomatlari, klimakterik holatlarning kelib chiqishi bosqichida inson qalbi qarimasada, ayrim jismoniy quvvatsizliklar paydo bo`ladi. Odam nafaqaga chiqadi, suygan kasbi, mashg`ulotidan uzoqlashadi, do`stlari davrasi torayadi va h-zo. Lekin keksalikni tan olish va unga ruhan tayyor bo`lish, etnik madaniyat va uning qadriyatlariga bog`liq. Xalq ma'naviyati va madaniyati qanchalik yuqori bo`lsa, keksalikka munosabat ham shunchalik yuqori bo`ladi.
7-bosqich. Oilaviy siklning tugashi odatda turmush o`rtoqlardan birining o`limi bilan boshlanadi. Er-xotinlarning tirik qolgani beva bo`lib qolishi munosabati bilan u

ham yangicha rollar tizimiga kiradi.
Ya.Gozman, K.Xorni va boshqalarning yozishlaricha, faqat emotsional hissiyotlarga tayangan er va xotin munosabatlari tobora vaqt o`tishi bilan oqilona hamkorlik va do`stlik, qon-qarindoshlik munosabatlariga aylanib boradi.
Yu.Dubrovinning (2004) ta'kidlashicha, “Ko`pchilik nikohlarni baxtli ham baxtsiz

ham deb atash mushkul, chunki ularda er-xotinlarning bir-birlarini sekin-asta tarbiyalab borishlari va taqdir taqozosi bilan bora-bora munosabatlar chuqurlashib, tushunish hissi va do`stona munosabatlar sayqal topib, u hattoki, romantik muhabbat darajasiga ko`tariladi”.

Nikoh modeli. Oila va nikoh bo`yicha ko`plab mutaxassislar Z.Freyd va A.Adlerning g`oyalarini ma'qullagan holda shuni ta'kidlaydilarki, oila qurayotgan yosh kelin-kuyovlar o`zlari anglamagan ravishda o`zlari tarbiya topgan oilalarining modelini yangi oilaga tadbiq eta boshlaydilar.

Ota-ona oilasi Z.Freydning psixoanalitik nazariyasi mos keladi. Unga muvofiq, bola o`zi katta bo`lgan oilasidagi o`z jinsiga mos ota yoki ona obraziga o`zini identifikatsiya qilib, hayoti mobaynida ko`rgan-kechirganlarini xatti-harakatlarida takrorlaydi, qarama-qarshi jins vakili bo`lmish ota-onaning obrazi esa turmush o`rtog`ini tanlashni belgilaydi. Agar ushbu obraz ijobiy bo`lgan bo`lsa, masalan, qiz bola uchun otasi ideal, namunali tuyulsa, kelajakda shu qiz o`z turmush o`rtog`i bilan kelishib yashashga moyil bo`ladi. Mobodo obraz salbiy bo`lsa (ota ichuvchi yoki bevafolik qilib tashlab ketgan), unga o`xshamagan insonni qidiradiyu, aslida topgan taqdirda ham u bilan kelishib yashashiga o`zi ham ishonmaydi, ruhiy iztirobda bo`ladi, ko`p ikkilanadi. Agar o`zi o`sib ulg`aygan oila kichik bo`lsa, istiqbolda u ham aynan detotsentrik, kichik oila qurishga intiladi.

Opa-singil, aka-ukalik munosabatlariga asoslangan oila modeli A.Adler g`oyalari ta'sirida ishlab chiqilgan. Unga ko`ra, er-xotin aloqalari mustahkam va barqaror bo`lishi uchun ikkisi o`z munosabatlari jarayonida akalari yoki opa-singillari bilan bo`ladigan hamkorlik, liderlik, hukmronlik, mas'uliyat, g`amxo`rlik, tobelik kabi qator munosabatlarini ro`yobga chiqarishlari lozim (sibling yondashuv). Bu aloqalarning bir ko`rinishi shundayki, unda er va xotin bir-biriga akaday, singilday u

yoki bu munosabatlardagi kemtikliklarni to`ldirib borishlari mumkin (komplementar nikoh). Bu bizdagi munosabatlarga ham xos bo`lib, ko`pgina o`zbek oilalarida xotin erini “aka” deb atasa, er birinchi farzand tug`ilgach, xotiniga to`ng`ich farzandning ismini aytib murojaat qiladi. Bu holat ayniqsa, er o`z oilasida singillarining akasi bo`lgan bo`lsa, yoki xotin ham o`z navbatida ota-onasining uyida akalarning singlisi bo`lgan bo`lsa komplementar tarzda uyg`unlik kashf etadi, ular oilaviy munosabatlarda kim ustun, kim tobe kabi muammolarga duch kelmaydilar. Agar xotin o`z oilasida biriga singil, biriga opa bo`lib katta bo`lgan bo`lsa, u yoki bu tajriba eri bilan bo`lgan munosabatlarda qisman komplementar vazifani bajaradi. Nihoyat, agar er o`z oilasida to`ng`ich farzand va xotin ham o`z oilasida to`ng`ich bo`lgan bo`lsa, unda er-xotin munosabatlari nokomplementar nikohga to`g`ri keladi, ya'ni, ular teng mavqeli bo`lgani uchun odatda o`zaro munosabatlarida liderlik va o`zaro adaptatsiya holatlari muayyan qiyinchiliklar va muammolar bilan kechadi, teztez bir-biriga nimalarnidir da'vo qiladigan, o`z fikrini uqtirish va amalga oshirishga moyillik kuzatiladi. Odatda bunday nikoh ikki ziyoli inson o`rtasida tuzilgan bo`lsa, ular baxtli bo`lishlari mumkin, ayniqsa, hozirgi davrda, lekin o`zaro til topishib, ko`nikib ketishlariga anchagina vaqt, sabr-toqat kerak bo`ladi.

Ijtimoiy va oilaviy munosabatlar. Bola tajribasining asoslaridan biri undagi otaona oilasi ta'sirida shakllanadigan ijtimoiy fe'l-atvordir. Ya'ni, o`zaro ishonch, o`zinio` zi baholash, Men-konseptsiyasi ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari ta'sirida bola ongida shakllanadigan hislatlardir. Bola ota-onasining o`zaro muloqotlariga qarab,

umri mobaynida kuzatib, bilib-bilmay ularga taqlid qilib, tinchlik-xotirjamlikda, o`zaro hamjihatlikda yashashga o`rgansa, aka-uka, opa-singillariga qarab, jamiyatdagi murakkab o`zaro muomala holatlarida o`zini qanday tutishga o`rganadi, hayotning ma'nosini tushunib boradi, dunyoqarashi, dunyoviy hamda diniy e'tiqodlarining shakllanishi ham ayni shu munosabatlar ta'sirida ro`y beradi. Oilaviy muammolarni hal qilishda psixolog ushbu jihatlarga e’tibor qaratishi lozim.

294

2. Oilaviy psixologik maslahatning turli ko`rinishlarida psixolog-konsultant faoliyatining algoritmi

Psixologik amaliyotda oilaviy muammolar juda keng tarqalgan. Bunday holatda psixolog-maslahatchining mijozga berishi mumkin bo`lgan maslahatlarini qisqacha ko`rib chiqamiz:

1-holat. Mijoz odatda u uchun muhim odamlar bilan shaxsiy munosabatlari jarayonida, ko`pincha ular o`rtasida nizolar yuzaga kelishiga, lekin uning o`zi bu holat nima uchun sodir bo`layotganligini va bunday nizolardan qay yo`sinda qutilishni bilmasligini aytib shikoyat qiladi. Agarda mijozdan mana shu nizolar kelib chiqishi mumkin bo`lgan sabablarini aytib berishini so`ralganida u ko`pincha ob'ektiv hayotiy vaziyatlarni ko`rsatadi va deyarli, hech qachon nizolar kelib chiqishida odamlarni ayblamaydi. Umuman olganda, mana shu yuzaga kelgan nizolar uchun aybni o`z bo`yniga olishga tayyor. Agarda psixolog-maslahatchi yuzaga kelgan nizolarda balki boshqa odamlarning aybi bor, deb o`z fikrlarini aytganda, odatda, mijozning o`zi buni rad etadi. Psixolog-maslahatchi nizoda ishtirok etgan odamlarni mijozidan tariflab berishni so`rasa, u ko`pincha ularni ijobiy tariflab beradi. Nihoyat, psixolog-maslahatchi yuzaga kelgan nizoli vaziyatlarda balki mijozning o`zi aybdor bo`lishi mumkinligini aytganida, u odatda shunday bo`lishi mumkinligini tan oladi. Bunday holatda psixolog-maslahatchi mijoz munosabatlarda bo`ladigan odamlar uning harakatlari va gaplariga qanday javob qaytarishlarini diqqat bilan kuzatishni unga taklif qiladi. Mana shunda boshqa odamlarning nizo keltirib chiqaruvchi harakatlari ko`pincha mijozning o`z xulqiga javob sifatida kelib chiqishi aniqlansa, unda nizoli vaziyatlar kelib chiqishida ma'lum darajada mijozning o`zi aybdor, degan xulosaga kelish mumkin bo`ladi.

Bunday holatda psixolog-maslahatchi mijoz bilan birgalikda u munosabatda bo`ladigan odamlarda mijozning o`zi xulqida nima salbiy javob (reaksiya) keltirib chiqarishini aniq bilib olishi kerak. Shundan keyin mijozga nizolarni yo`qotish uchun boshqalarni nizolarga nima majbur qilayotganligini bilish, boshqa odamlar bilan munosabatlarda o`z xulqini diqqat bilan nazorat qilishni taklif etish kerak.

295

2-holat. Psixolog-maslahatchining asosiy vazifalaridan biri, mijoz balki odamlar o`rtasida yuzaga kelayotgan nizolarning sababi o`zi ekanligiga uni ishontirishdan iborat hisoblanadi. Bu ishni bajarish oson bo`lmaydi, chunki atrofdagi odamlar bilan nizolar keltirib chiqaradigan odamlar ko`pincha ularni nizolar aybdori deb aytishlariga katta qarshilik ko`rsatadilar. Tan olishga ularning qarshiliklari odatda himoyalanishi psixologik reaksiyalari hisobiga kuchayadi. Odamning o`zi shaxslararo nizolarning asosiy aybdori hisoblanishini tan olishi, uning o`ziga baho berishini, o`zini hurmat qilishini va atrofdagi odamlar ko`zi oldida obro`sini pasayishi bunga sabab bo`ladi. Mana shu sababli psixolog-maslahatchining ehtiyotsizlik bilan aytgan

gapi, mijoz va atrofdagi odamlar o`rtasidagi yuzaga kelgan nizolarda uning aybdorligini ochiq aytish, odatda foyda keltirmaydi, balki uning himoyalanish reaksiyasini yanada kuchaytiradi. Bunday hollarda psixolog-maslahatchi ustalik bilan, odob doirasida yo`l tutishi kerak. Misol uchun, mijoz psixolog-maslahatchiga murojaat etgan shaxslararo nizolarini to`laroq, kengroq gapirib berishini, ularning kelib chiqish manbalari va sabablarini ta'riflab berish taklif etiladi. Agarda psixologmaslahatchi
mijozning mana shu gaplarini tinglab, nizoning boshqa ishtirokchilariga yomon baholar berishini hamda ular nizoni keltirib chiqarganliklari xususida to`g`ridan-to`g`ri ayblashlarni aniqlasa, demak mijozning o`zi ham nizo kelib chiqishida aybdor bo`lishi mumkin. Bundan tashqari, agarda mijoz shaxslararo nizolar to`g`risida gapira turib, o`zi haqida, o`zining roli haqida hech narsa demasa yoki faqat o`zi haqida ijobiy gaplar aytsa, unda bu ham mijozning o`zi nizolar kelib chiqishida aybdorligini anglatuvchi belgilardan biri hisoblanadi. Hatto mijoz o`zini oqlab va nizoning boshqa ishtirokchilarini qoralab, ularga tuhmat qilayotganligiga maslahatchi ishongan holatida ham unga qarshi gapirish tavsiya etilmaydi. Shu bilan birga psixolog-maslahatchi mijoz unga aytgan gaplarni barchasi to`g`ri deb, hisoblashi kerak emas. Uning asosiy vazifasi − mijozni diqqat bilan tinglab, unda o`ziga nisbatan ishonch uyg`otishi kerak. Mijoz bilan ishlashning keyingi bosqichida psixolog-maslahatchi shaxslararo nizolar yuzaga kelishida aybdor deb hisoblash, odamlarning xulqida nimalarni o`zgartirish, yaxshilash kerakligini mijozning o`zi gapirib berishini taklif qiladi. Bu mijozga odamlar bilan munosabatlarda o`zining
296
kamchiliklarini ham tushunib olishiga yordam beradi. Shundan keyin psixologmaslahatchi mijozdan boshqa odamlarga, ulardagi mavjud kamchiliklarini yo`qotish uchun nima qilish kerakligi hamda munosabatlar bo`yicha o`z sheriklari yana nizo keltirib chiqarishiga urinsalar bunga qarshi mijozning o`zi nima qilishi kerakligi to`g`risida o`ylab ko`rishni taklif etadi. Bunday holatda mijoz o`zini nizoning aybdori deb tan olmay, uni oldini olish uchun nima qila olishi mumkinligi, ya'ni boshqa odamlar uning ishtirokida nizoli vaziyat keltirib chiqara olmasliklari uchun nimalar qilishi kerakligi to`g`risida gap boradi. Buning uchun mijozga beixtiyor nizoli vaziyatda o`zining xulqi ustida o`ylab ko`rishi, uni yaxshi konstruktiv tomonga o`zgartirishga urinib ko`rishiga to`g`ri keladi. Mana shunday harakatlar natijasida psixologik maslahatning asosiy maqsadiga erishiladi: mijozning atrofdagi odamlar bilan o`zaro munosabatlaridagi nizolari hatto mijoz ularning yuzaga kelishida o`zini ochiqdan-ochiq aybdor deb hisoblamasa ham yo`qotiladi. Bundan tashqari mijozni boshqa odamlar bilan munosabatlarda ular yuzaga keltirishlari mumkin bo`lgan nizolarni oldini olish aniq usullariga o`rgatilsa yaxshi bo`ladi. Bu usullar masalasi quyidagilar bo`lishi mumkin (ularni yaxshilab o`zlashtirib olish va munosabatlar bo`yicha sherigi nizo keltirib chiqarishga harakat qilganida ularni qo`llash tavsiya etiladi):
297
3-holat. Mijoz odatda o`ziga yaqin va ahamiyatli odamlar o`rtasida ko`pincha nizolar kelib chiqishiga shikoyat qiladi va shu xususda tashvishlanadi yoki uning o`zi ko`pincha xohlamasa ham mana shu nizolarga aralashib qoladi. Mijoz bilan birga ko`pincha agarda u bo`lmaganida unga yaqin odamlar orasidagi nizolar ancha kam bo`lar edi, deb o`ylaydi. Bu yerda psixolog-maslahatchi tomonidan turli kuzatish

harakatlarini talab etuvchi ikkita har xil vaziyat mavjud bo`lishi mumkin. Birinchi vaziyatda, haqiqatdan ham, mijozning o`zi nizolar sababchisi bo`lishi (tomonlar uning e'tiborini o`zlariga qaratish uchun o`zaro kurashishlari) mumkin. Ikkinchi vaziyatda mijoz shaxsan nizolarda ishtirok etmaydi, lekin janjallashuvchi tomonlarni kelishtirish istagi va nizoli munosabatlarni yo`qotish maqsadida uning aralashuvi kerakli natijaga olib kelmaydi yoki, aksincha, qarama-qarshi natijaga, nizoga mijozning aralashishi uni faqat kuchayishiga olib keladi. Tasvirlangan birinchi vaziyatda mijozga quyidagilarni maslahat berish mumkin:

298

Birinchidan, janjallashayotganlarning faqat bittasini himoya qilmaslik, ya'ni bir tomonga yon bosib, ikkinchi tomonni ayblash kerak emas. Bunday holat bilan nizoni yo`qotish emas, aksincha, kuchaytirish mumkin;

ikkinchidan, janjallashayotganlar faqat bir tomon bo`lib, qandaydir ijobiy yoki salbiy fikr bildirishga iloji boricha yo`l qo`ymaslik kerak;

uchinchidan, ular va mijoz o`rtasidagi yaxshi munosabatlarni saqlab qolishning asosiy sharti nizolarga barham berish ekanligini janjallashayotgan ikki tomonga tushuntirishga harakat qilish kerak.

Ikkinchi holatda yuzaga kelgan nizoni yo`qotish yoki yumshatish uchun birinchi navbatda mijoz uchun ahamiyatli odamlar o`rtasidagi nizolarga uning shaxsan aralashishi nima uchun istalgan natijaga olib kelmayotganligini diqqat bilan o`ylab ko`rish kerak. Ushbu savolga aniq va tushunarli javob olish uchun nizolarga muvaffaqiyatsiz aralashish, urinishlarni umuman to`xtatish kerak. Yuqorida ifoda etilgan savolga qoniqarli javob topilganidan avvalgi muvaffaqiyatsizliklarni hisobga olib, bu gal ijobiy natijaga olib kelishi kerak bo`lgan harakatlarni puxta o`ylab va rejalashtirib olinadi hamda tajriba sifatida amalda mana shu harakatlar sinab ko`riladi.

3.Ota-ona va bola hamda oilaviy munosabatlar psixokorreksiyasi

Ota-onalik ustanovkalari va ularning farzand tarbiyalash uslublari muammosi rossiyalik qator izlanuvchilarning asarlarida qayd etilgan (A.E. Lichko, 1979; A.A. Bodalev, A.A. Stolin, 1989; E.G. Eydemiller, V.V. Yustitskiy, 1999).

Ota-onalikning eng muhim sifatlariga avvalo – proteksiya yoki farzandlarini tarbiyalash uchun sarflanadigan kuch, vaqt va e'tiborning mezoni, bolaning turli ehtiyojlarini qondirish darajasi, intizomga chaqirish bilan bog`liq talablar darajasi, ta'qiqlovlar yoki bolaning xulqini jilovlash uchun ishlatiladigan sanksiyalar tizimi kiradi.

Ota-onalik xulq-atvoriga ko`ra oilada bola tarbiyasining uslublari

299

Tarbiya uslubi Proteksiya Ehtiyojlarni
qondirish
Talabchanlik Ta'qiqlash Sanksiya
Haddan ziyod g`amxo`
rlik ko`rsatish
giperproteksiya
+ + - - -
G`amxo`rlikdan
ustun keluvchi
giperproteksiya

+ ± ± + +
Ortiqcha axloqiy
mas'uliyat
+ - + ± ±
Emotsional raddiya - - ± ± ±
O`ta qattiqqo`llik - - ± ± +
Gipoprotektsiya - - - - ±
Ushbu mezonlar asosida turli oilalarda ota-onalarning o`z farzandlarini tarbiyalash uslublarini farqlash mumkin.
Giperproteksiya – ota-onalarning farzandlariga nisbatan haddan ziyod e'tibori bo`lib, bu ularning bola tarbiyasi uchun kuch, vaqt va e'tiborni ayamasliklarida namoyon bo`ladi. Ota-ona bu ishni hayot tarziga aylantiradi, ya'ni ona uchun ham, ota uchun ham bola tarbiyasi hayotining mazmun-muddaosiga aylanadi.Giperproteksiya – ota-ona tomonidan bolaning barcha istak, tilak va ehtiyojlarini ko`r-ko`rona, tanqid va mulohazasiz qondirishga intilish; bolani har qanday qiyinchiliklar va to`siqlardan himoya qilish, uning barcha istaklarini joyida bajo keltirish, erkalatish, oddiy yutuqlaridan quvonish, xatolarini sezmaslikka qaratilgan harakatlar. Bolasi uchun "jonini jabborga beruvchilar" odatda o`zlari bilmagan holda farzandlariga yomonlik qilayotganliklarini sezmaydilar, natijada bola kelajakda ishga toqati yo`q, ko`pchilikning ichida o`zini tuta olmaydigan, hayotning past-balandliklarida o`zini nochor his etadigan, tantiq, erka bo`lib qoladi. Ayniqsa, bola o`smirlik yoshiga etganda, erka, tantiq bo`lgani uchun do`stlari va tengqurlari davrasida ham hamma aytganlari bo`lishini istaydigan, liderlikka intiluvchanligini namoyon etgisi keladi, lekin ikkinchi tomondan, aslida unda bunday sifatlar bo`lmaydi. Gap shundaki, bunday holatlarda ota-ona zurriyodi timsolida ilgari o`z hayot tajribasida erisholmagan armonlarini ro`yobga chiqargisi keladi, ularning tarbiya uslublari aynan shunga qaratilgan bo`ladi, lekin bola ko`p jihatdan nochor ekanligini keyinchalik

ijtimoiy muhitning turli vaziyatlariga tushganida his eta boshlaydi.
G`amxo`rlikdan ustun keladigan giperproteksiya – bunda erkalatishdan ko`ra ota-ona tomonidan bolasining har bir yurgan qadami va xatti-harakatini nazoratga olish orqali unga e'tibor berish nazarda tutiladi. Shuning uchun bu tarbiya uslubida turli xil ta'qiqlar, chegaralashlar ("u mumkin emas", "bu mumkin emas" qabilida) bisyor bo`ladi. Bunday sharoitda katta bo`lgan bola odatda mustaqil fikrli, mustaqil qarorlar chiqaruvchi bo`lolmaydi, lekin salga jahli chiqadigan, ko`p narsalardan norozi holda katta bo`ladi, chunki u doimiy nazoratga, birovlarning hamma yo`lyo` riqlarni ko`rsatib, aytib berishlariga o`rganib qoladi: onasisiz dars tayyorlay olmaydigan, otasisiz ko`chaga chiqmaydigan bo`ladi, barcha ishlarida kattalarning aralashuviga ko`nikib ketadi.
O`ta kuchli axloqiy mas'uliyat – bunda ota-ona tomonidan bolaga nisbatan talablar darajasi yuqori bo`ladi, lekin uning asl xohish-istaklari, ehtiyojlari unchalik e'tiborga olinmaydi. Ota-ona bolasining kelajagini puxta qilishni o`ylab, uning yurish-turishi uchun o`zlarini mas'ul deb his qilgan holda shaxsiy tasavvuridagi insonni yaratishga, shaxsni shakllantirishga urinadilar, ba'zan nazorat ostida bolaning yoshi, aqliy yoki jismoniy imkoniyatlariga zid talablar, topshiriqlar ham berilaveradi. Masalan, "sen to`ng`ichimizsan, ukalaringga sen qarashing kerak", degan ma'noda unga oiladagi kichik a'zolarga yoki kasallikka chalingan oila a'zosini parvarish qilish

kabi mas'uliyatli va og`ir ishlar ham yuklanadi.
Emotsional raddiya – bunda ota-ona bolasini shunday tarbiyalaydiki, uning otaona hayotida u o`ziga yarasha tashvish, ortiqcha yuk ekanligi, u bo`lmaganida otaonaning hayoti boshqachi bo`lishi muntazam ravishda eslatib turiladi. Agar bu farzand oilada yagona bo`lmasa, boshqa arzandaroq, suyukliroq inson bo`lsa, vaziyat yanada og`irlashadi, “sen bo`lmaganingda…” yoki qiz bolaga qarab: “Sening o`rningda o`g`il bo`lganda edi ” qabilidagi kesatiqlar tez-tez aytib turiladi.
Ayrim ota-onalar bu kabi emotsional jihatdan bolasini rad etayotganligini yashirishga urinadi, “nega bolani yoqtirmaysan?” kabi savollarga aslida uni sevishi kerakligini ta'kidlagan bilan baribir bola ota-onasi uchun ortiqcha tashvish ekanligini his qilib yashaydi va tezroq mustaqil bo`lib olib, ularni tashlab ketishni, alohida
301
yashashni ixtiyor qilib qoladi. Ona qanchalik o`z mehribonligini sun'iy ravishda namoyon etishga urinmasin, bola baribir ularning samimiy emasligini qalbi bilan his etadi. Ayniqsa, otasi bilan ajralishgan yoki ota tashlab ketgan holatlarda onaning bunday munosabati bolaga juda og`ir botadi.
Qattiqqo`llik – bir qarashda emotsional rad etishga o`xshaydi, lekin undan ochiqroq va og`irroqdir. Qattiqqo`llik to`g`ridan-to`g`ri bolani yoshligidan kaltaklash, haqorat qilish, kamsitish shaklida yoki bola ehtiyojlariga to`la befarqlik, uning boryo` qligini go`yoki sezmaslik kabi ko`rinishlarda bo`lishi mumkin. Ikkala holatda ham bola yoshligidan nima qilib bo`lsa-da, tezroq katta bo`lish, o`zi amallab tirikchiligini qilish, ota-ona tazyiqidan qutulishni o`ylab yashaydi. Bunday oilada bolani u yoki bu xulqi uchun jazolash odat tusiga kirib qoladi, bola qo`rqqanidan ota-ona hukmiga itoat etayotganligi, buning istiqbolda yomon asoratlari borligini kattalar bilmaydilar, bilsalar ham bu usul ular uchun samarali tuyuladi. Aybdorlik, aybga yarasha jazo kabi usullar bola xulq-atvorini boshqaruvchi psixologik omilga aylanadi, u ham kelajakda doimo aybdorlarni qidirishga o`rganib boradi.
A. Freyd nazariyasiga ko`ra, ana shunday jazoga hukm etilgan bola tobora agressiv bo`lib borib, o`zida alamni qaysidir bir ob'ektdan (o`zidan kichiklardan, begonalardan, hayvonlardan) olishga qasd qiladigan, qasoskor bo`lib o`sadi.
Ma'lumotlarga ko`ra, Amerikada ko`cha bolalarining kamida 1%i oilada ayni shunday tarbiyaning qurbonidirlar. Amerikalik olim S.D.Sherrits (2003) oiladagi ana shu kabi qattiqqo`lliklarning bola va ota-ona xulq-atvoriga salbiy ta'sirini o`rganib, ularning xarakterida ro`y beradigan o`zgarishlarga to`xtalib o`tgan. Jismoniy jihatdan bolaga zug`um qilib, uni kaltaklash holatlari deyarli barcha ijtimoiy qatlam vakillariga xosdir. Hayotda, ish-faoliyatida omadi kelmagan yoki baxtsiz muhabbat qurboni bo`lgan, lekin farzand ko`rgan ayollarning aksariyati achchig`ini bolasidan olishga moyillik tarkib topadi, bu tobora hayotiy ko`nikmaga aylanib boradi.
Ayniqsa, stress omillar ta'sirida ota-ona (masalan, ishsizlar, uyi yo`qlar, ish qidirib boshqa yerlarga ketib qolgan migrantlar, etnik yoki moliyaviy ziddiyatlarning qurbonlari, kambag`allar) o`z ijtimoiy muammolarini hal qilaolmay, tug`ilgan bolasidan o`ch ola boshlaydi.
302
Turmushdagi muammolar qanchalik ota yoki ona uchun murakkab tuyulsa, ularning bolasini kaltaklashi, undan o`ch olish ehtimoli shuncha yuqori bo`lishini olimlar o`rganishgan. Shunisi xarakterliki, bolasini tez-tez do`pposlaydigan ota-ona ayrim holatlarga unga qattiqqo`lliklarining sababini aytib, bu kabi harakatlarni nima

uchun, nima sababdan amalga oshirayotganligini tushuntirishga ham jazm qiladi, bolani ularni tushunishga, hattoki, ko`mak berishga chaqiradi. Masalan, topganini o`zi ko`chada yeb, alkogolga almashtirib kelib, achchig`ini yana boladan oladi-da, puli asli kam ekanligini, ichmasa turolmasligini bolaga tushuntiradi. Bunda bolaning yoshi unchalik ahamiyatli ham emas, 2 yoshdan o`tgan bolaga nisbatan jazo choralari ko`rilganligini ayrim holatlarda OAVda aks ettiriladi.

Gipoproteksiya – shunday holatki, unda ota-onaning bola bilan shug`ullanishga yo vaqti yetishmaydi, yoki bu ishni boshqalarga yuklab qo`yadi. Ayrim ota-onalar shu tarzda hayot kechirib, farzandlarini umuman nazorat ham qilmaydi, uning taqdiriga befarq bo`ladi, g`amxo`rlik ko`rsatmaydi, bolasining kelajagiga qayg`urmaydi. Gipopreteksiyaning yashirin shaklida ota-ona bola ustidan nomiga nimalardir qilganday bo`ladi. Lekin aslida ularni faqat o`zlarining kundalik muammolari qiziqtiradi. Bola bu holatlarni tahlil etib, o`zining kerak emasligini, oilada ortiqcha ekanligini anglab boradi.

Tashlab qo`yilgan bolalar yoki tashlandiq bolalar – odatda yoshligidan na moddiy, na ma'naviy ehtiyojlari qondirilmagan bolalardir. Ular masalan, qorni to`ymaganidan jismoniy taraqqiyotdan orqada qolsa, nazorat va e'tiborning yo`qligidan turli jinoyat yo`llariga kirib qoladi, yaxshi, samimiy e'tibor va mehrning yo`qligidan jamiyatda, odamlar orasida o`z o`rnini topishga qiynaladigan, odamovi, savodsiz bo`lib o`sadi. Bularning barchasi ularning kelajakda jinoyat yo`llariga kirib qolishiga yoki zararli odatlarga o`rganishi (giyohvand moddalar iste'mol qilish)ga sabab bo`ladi. Gipoproteksiyaning ham haddan ziyod shakli borki, unda bola ota-ona nazoratidan ataylab tashlab qoldirilgani sababli, uning noto`g`ri yo`llarga kirib ketayotganligiga ham kattalar befarq bo`ladilar. A.E. Lichko, A.A. Vdovichenkolarning Rossiyada o`tkazgan tadqiqotlarida yomon yo`lga kirib ketgan, voyaga yetmagan jinoyatchilarning ota-onalarida jiddiy xatoliklar aniqlangan. Ular

bolasining noto`g`ri xatti-harakatini oqlamoqchi ham bo`ladi, yoki aybni boshqalarga, masalan, ko`cha bolalariga, maktabdagi intizomsizlikka, o`qituvchilarning befarqligiga to`nkamoqchi bo`ladi, faqat o`zlarining aybini sezmaydi yoki tan olmaydi.

Oilaviy tarbiyaning yana bir shakli – ziddiyatli tarbiya. Bunda oila a'zolarining har biri bitta bolaga nisbatan turlicha tarbiya uslublarini qo`llaydi, masalan, otasi o`ta qattiqqo`l, ona o`ta mehribon, yoki ota-ona bolaning xulqini juda nazorat qilib, mas'uliyat bilan uning axloqiy tarbiyasi bilan shug`ullalanadi, buvilari esa aksincha, uni erkalatib, izdan chiqib ketishini – “hali yosh, katta bo`lganda o`zi yaxshi bo`lib ketadi”, qabilida ma'qullayveradi. Bunday beqaror tarbiya uslublarini E.Eydemiller, V.Yustitskiy, N.Lengardlar o`rganib, uning oqibatida bolada salbiy xarakter xususiyatlari, masalan, qaysarlik, obro`li shaxslarning tazyiqini noto`g`ri baholash kabilar shakllanishini isbotlaganlar. Ota-ona tarbiyadagi beqarorlikning oqibatlarini tasavvur qilsalarda, uning oldini olishni bilmaydi. Ko`pincha bu bolalikka xos sifatlar ekanligi fikri ularni tinchlantiradi. Aksariyat ota-onalar bolasini yo`qotib qo`yish yoki uning ko`ngli qolishidan qo`rqib ham noto`g`ri tarbiya yo`llarini tutadi. Shuning uchun oilaviy tarbiya o`ta murakkab jarayon bo`lib, unda ota-onalar oldindan psixologik jihatdan tayyor bo`lishlari kerak.

Yolg`iz ota-onalar. Ota yoki onadan biri mavjud bo`lgan oilalarning paydo bo`lishiga turli sabablar bor: ajrim tufayli bittasi qoladi, nikohsiz paydo bo`lgan oila

sharoiti, bunda onaning yoshi katta bo`lishi ham (yoshi o`tib borayotganligidan nikohsiz bo`lsa ham bitta farzand tug`ib, uni yolg`iz o`zi katta qiladi), juda yosh bo`lishi (tasodifan yoshlik qilib qiz maktab yoshidayoq ona bo`lib qolgan holatlar) ham mumkin.

Odatda turli sabablarga ko`ra yolg`izlanib qolgan noto`liq oila a'zolari jamiyatdan ancha ayrilib yashashga, yolg`izlikka mahkum bo`ladi, bunday oilalar moliyaviy inqirozlarga ham uchraydi. Ayrim shunday oila farzandlari juda yoshlikdan ota qilishi lozim bo`lgan yumushlarning bir qismini o`z elkasiga olishga majbur bo`ladi. Tengqurlari orasida odamovi, gapga ham, ayrim ishlarga ham no`noq bo`lgani uchun uning do`stlari kam bo`ladi. Asosiy muloqot ob'ekti ona bo`lib, u ham

ko`pincha turmush tashvishlari bilan bolasiga yetarli e'tibor berolmaydi. Ayniqsa, o`smirlik va ilk o`spirinlik yoshidagi bolalar ota-onaning ayrilig`ini juda ko`ngillariga yaqin oladi, asabiylashadigan, salga janjal ko`taradigan, onasi bilan ham, boshqa yaqinlari bilan ham kelisholmaydigan, agressiv bo`lib qoladi.

Injiq bolani yolg`iz o`zi tarbiyalashga majbur bo`lgan onalarda odatda depressiya holati kuzatiladi. Ko`pincha bunday ona o`zini omadsiz, turmush vaziyatlarining qurboniday his qiladi, ko`pincha xafa bo`lib yuradi va ich-ichidan o`zini bolalari oldida gunohkor his etadi, istiqbolda uni va farzandlarini nima kutayotganligini bilmay tashvishlanadi. M.Nistal(2003)ning yozishicha, yolg`iz otaonalarning

shaxsiga qo`yilgan talablar ularning real imkoniyatlaridan ortiq bo`lib, undan katta emotsional yukni va nihoyatda ishchanlikni talab etadi. Bunga afsuski, hamma ham chidayvermaydi.

4. Ota-ona va bola hamda oilaviy munosabatlarni korreksiyalash metodikasi

Oilaviy munosabatlar tizimi – V.Satir ta'rifida, oila a'zolarining muayyan rollar doirasida u yoki bu holatlarda o`zligini namoyon etishi yoki ijrosi emas, balki, bu har bir oilaga xos bo`lgan o`zaro munosabatlar “xaritasi”dir. Masalan, biror oilaga yordam bermoqchi bo`lgan terapevtga ayni shu xarita kerak, chunki u real a'zolarning real o`zaro munosabatlarini boshqachasiga tasavvur etishi mushkul. Bu xaritaga ayni shu oila a'zolaridan tashqari, ularning yaqinlarining ta'siri ham kiradi. Masalan, agar erkak kishi oilada qandaydir ajralib qolgan bo`lib, xotini va farzandlari bilan yashagan taqdirda ham uning xotiniga bo`lgan real munosabatlariga boshqa uyda yashaydigan onasining ta'siri bo`lsa, demak, oilaviy munosabatlar xaritasida qaynonaning ta'siri ham albatta nazarda tutilishi shart. Yoki birinchi nikohidan ajralgan ayol sobiq erining farzandi bilan birga yashayotganligi bois, hamisha uni eslab turishi, bolasining istagiga ko`ra, sobiq eri bilan ko`rishib turishi, hattoki, moliyaviy jihatdan unga tobe ham bo`lishi mumkin. Bu, tabiiy, ayni paytda real oilaviy munosabatlarga ta'sir etmay qolmaydi.

Ota-onasining oilasida ko`rgan-kechirganlari bolaning bo`lg`usi oilasi, undagi er-xotin munosabatlari, farzandlar tarbiyasi, qarindosh-urug`lar bilan bo`ladigan

murakkab o`zaro aloqalarning qanday kechishini belgilovchi muhim omildir. Ushbu omilning ta'sirini batafsil o`rgangan olimlardan biri N.Pezeshkian (1993) bo`lib, u bunday ta'sirchanlikning 3 jihatini alohida ajratadi:

- turli stresslarga nisbatan munosabat;
- hissiyotlarga beriluvchanlik va uning oqibatlari – ijtimoiy xatti-harakat

me'yorlari;
 oilaviy munosabatlar.
N.Pezeshkian ota-ona oilasida ko`rgan-kechirganlari ta'sirida turlicha stresslarga hozirjavoblikning to`rt xil tipik usullarini, yo`llarini ajratadi: Avvalo, bu – tana reaksiyalari yoki vujud bilan javob berish bo`lib, u turli psixosomatik kasalliklar yoki holatlarga nisbatan inson vujudining javobi (masalan, uyqu, kayf bo`lish, ochlik yoki to`qlik kabi) sifatida namoyon bo`ladi. Bunda, masalan, ota-ona oilasida urf bo`lgan hazil-xuzul, aytishuvlar orqali u yoki bu zarar yetkazuvchi tangliklarning oldini olish tajribasi nazarda tutiladi.
Faoliyat ham stressning oldini olish vositasi sifatida muallif tomonidan ikki yo`nalishda bo`lishi mumkinligi qayd etiladi. Masalan, birinchisi – ishga mukkadan ketish orqali stressni yechish bo`lsa, ikkinchisi – u yoki bu sohadagi yutuqlar va qo`lga kiritilgan natijalar orqali o`zini-o`zi tinchlantirish, tangliklardan “qochish”ni anglatadi.
Muloqot yoki bevosita muomala shaklida odam ko`proq turli suhbatdoshlarni topib, ular bilan kirishib ketish orqali yoki, aksincha, o`zini yolg`izlikka mahkum etish orqali stressni engillatish usuli bo`lsa, oxirgi yo`l – xayolga berilish, ya'ni, real harakatlarni ramziy taassurotdagi obrazlar bilan almashtirish hisobiga tangliklardan uzoqlashishdir.
Hissiyotlarga berilish hamda uni ijtimoiy xatti-harakat normalariga muvofiqlashtirish – bu ko`rgan-kechirgan hissiyotlar va xulq namunalari to`g`risidagi tasavvurlar. Pezeshkian bevosita hissiy-emotsional normalarga sevgi-muhabbatni, ishonch, umid, sabr-qanoat, o`zgalarga e'tiborli bo`lish, o`zgalar bilan yaqin samimiy munosabatlarga kirisha olish, e'tiqodlilik, diniy hissiyotlarni kiritadi. Bunday hissiyotlar odatda ota-onasi, yaqinlari, aka, opalar, uka-singillar bilan o`zini

identifikatsiya qilish, o`zini ular bilan solishtirish, o`xshashlikka intilish jarayonida shakllanadi. Aynan shu sababli inson kimgadir ishonishga, samimiy muruvvat ko`rsatishga o`rganadi. Oila muhitida boshdan kechirgan hissiyotlar oqibati bo`lmish xatti-harakatlar normalariga esa bir so`zlilik, saranjom-sarishtalik, ozodalik, samimiyat, adolatlilik, intiluvchanlik, tejamkorlik, sadoqat, ishonch, xalollik kabilar kiradi. Pezeshkian, ayni emotsional sohalarda er-xotin o`zaro munosabatlarining o`xshamasligini er-xotin nizolarida asosiy nizo keltirib chiqaruvchi sabab, deb hisoblaydi. Xatti-harakat normalaridagi kelishmovchiliklar ham muhim, lekin ular psixoterapevtik amaliyotda biroz yumshoqroq hisoblanadi.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

1.Oilaviy maslahatning qanday turlari mavjud?
2. Oilaviy psixologik maslahatning turli ko`rinishlarida psixolog-konsultant faoliyatining algoritmi nimadan iborat?
3.Ota-ona va bola hamda oilaviy munosabatlar psixokorreksiyasining mazmuni haqida bayon eting.
4. Oilaviy nizolar deganda nima tushuniladi?

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. V.Satir oilaviy munosabatlar tizimini qanday ta’riflaydi?
A. oila a'zolarining muayyan rollar doirasida u yoki bu holatlarda o`zligini namoyon etishi.
*B.Har bir oilaga xos bo`lgan o`zaro munosabatlar “xaritasi”.
S. Ota-onasining oilasida ko`rgan-kechirganlari bolaning bo`lg`usi oilasiga ta’siri.
D. Ota-onalik ustanovkalari va ularning farzand tarbiyalashga ta’siri.
E. Barcha javoblar to’g’ri.
2.Ota-onalik ustanovkalari va ularning farzand tarbiyalash uslublari muammosini tadqiq etgan

olimlarni belgilang.
A. A.E. Lichko, A.A. Bodalev.
B.A.A. Stolin, E.G. Eydemiller.
S. E.G. Eydemiller, V.V. Yustitskiy.
D. A.E. Lichko, E.G. Eydemiller.
*E. Barcha javoblar to’g’ri.
3. Tarbiya uslubidagi gipoproteksiyaning mohiyati qanday?
307
*A. Unda ota-onaning bola bilan shug`ullanishga yo vaqti yetishmaydi, yoki bu ishni boshqalarga yuklab qo`yadi.
B. To`g`ridan-to`g`ri bolani yoshligidan kaltaklash, haqorat qilish, kamsitish shaklida yoki bola ehtiyojlariga to`la befarqlik, uning bor-yo`qligini go`yoki sezmaslik kabi ko`rinishlarda namoyon bo`ladi.
S. Ota-ona hayotida bola o`ziga yarasha tashvish, ortiqcha yuk ekanligi, u bo`lmaganida otaonaning hayoti boshqachi bo`lishi muntazam ravishda eslatib turiladi.
D. bunda ota-ona tomonidan bolaga nisbatan talablar darajasi yuqori bo`ladi, lekin uning asl xohish-istaklari, ehtiyojlari unchalik e'tiborga olinmaydi.
E. bunda erkalatishdan ko`ra ota-ona tomonidan bolasining har bir yurgan qadami va xattiharakatini nazoratga olish orqali unga e'tibor berish nazarda tutiladi.
4. Faqat emotsional hissiyotlarga tayangan er va xotin munosabatlari tobora vaqt o`tishi bilan oqilona hamkorlik va do`stlik, qon-qarindoshlik munosabatlariga aylanib borishini ta’kidlagan olimlarni belgilang.
*A. Ya.Gozman, K.Xorni.
B.A.A. Stolin, E.G. Eydemiller.
S. E.G. Eydemiller, V.V. Yustitskiy.
D. A.E. Lichko, E.G. Eydemiller.
E. Barcha javoblar to’g’ri.
5. “Ko`pchilik nikohlarni baxtli ham baxtsiz ham deb atash mushkul, chunki ularda erxotinlarning bir-birlarini sekin-asta tarbiyalab borishlari va taqdir taqozosi bilan bora-bora munosabatlar chuqurlashib, tushunish hissi va do`stona munosabatlar sayqal topib, u hattoki, romantik muhabbat darajasiga ko`tariladi”. Ushbu fikr muallifini aniqlang.
A. Ya.Gozman.
B.A.A. Stolin.
S. E.G. Eydemiller.
D. A.E. Lichko.
*E. Yu.Dubrovin.
6. Qattiqqo`llik asosidagi tarbiya uslubi qaysi javobda to’g’ri ta’riflangan?
A. Unda ota-onaning bola bilan shug`ullanishga yo vaqti yetishmaydi, yoki bu ishni boshqalarga yuklab qo`yadi.
308
*B. To`g`ridan-to`g`ri bolani yoshligidan kaltaklash, haqorat qilish, kamsitish shaklida yoki bola ehtiyojlariga to`la befarqlik, uning bor-yo`qligini go`yoki sezmaslik kabi ko`rinishlarda namoyon bo`ladi.
S. Ota-ona hayotida bola o`ziga yarasha tashvish, ortiqcha yuk ekanligi, u bo`lmaganida otaonaning hayoti boshqachi bo`lishi muntazam ravishda eslatib turiladi.
D. bunda ota-ona tomonidan bolaga nisbatan talablar darajasi yuqori bo`ladi, lekin uning asl xohish-istaklari, ehtiyojlari unchalik e'tiborga olinmaydi.
E. bunda erkalatishdan ko`ra ota-ona tomonidan bolasining har bir yurgan qadami va xattiharakatini nazoratga olish orqali unga e'tibor berish nazarda tutiladi.
7. Ota-ona tarbiya uslubidagi emotsional raddiyaning mazmuni qanday?
A. Unda ota-onaning bola bilan shug`ullanishga yo vaqti yetishmaydi, yoki bu ishni boshqalarga yuklab qo`yadi.
B. To`g`ridan-to`g`ri bolani yoshligidan kaltaklash, haqorat qilish, kamsitish shaklida yoki bola ehtiyojlariga to`la befarqlik, uning bor-yo`qligini go`yoki sezmaslik kabi ko`rinishlarda namoyon bo`ladi.

*S. Ota-ona hayotida bola o`ziga yarasha tashvish, ortiqcha yuk ekanligi, u bo`lmaganida ota-onaning hayoti boshqacha bo`lishi muntazam ravishda eslatib turiladi.
D. bunda ota-ona tomonidan bolaga nisbatan talablar darajasi yuqori bo`ladi, lekin uning asl xohish-istaklari, ehtiyojlari unchalik e'tiborga olinmaydi.
E. bunda erkalatishdan ko`ra ota-ona tomonidan bolasining har bir yurgan qadami va xattiharakatini nazoratga olish orqali unga e'tibor berish nazarda tutiladi.
8. Farzand tarbiyasida qo’llaniladigan o`ta kuchli axloqiy mas'uliyat uslubining mazmuni qaysi javobda to’g’ri ta’riflangan?
A. Unda ota-onaning bola bilan shug`ullanishga yo vaqti yetishmaydi, yoki bu ishni boshqalarga yuklab qo`yadi.
B. To`g`ridan-to`g`ri bolani yoshligidan kaltaklash, haqorat qilish, kamsitish shaklida yoki bola ehtiyojlariga to`la befarqlik, uning bor-yo`qligini go`yoki sezmaslik kabi ko`rinishlarda namoyon bo`ladi.
S. Ota-ona hayotida bola o`ziga yarasha tashvish, ortiqcha yuk ekanligi, u bo`lmaganida otaonaning hayoti boshqacha bo`lishi muntazam ravishda eslatib turiladi.
*D. bunda ota-ona tomonidan bolaga nisbatan talablar darajasi yuqori bo`ladi, lekin uning asl xohish-istaklari, ehtiyojlari unchalik e'tiborga olinmaydi.
309
E. bunda erkalatishdan ko`ra ota-ona tomonidan bolasining har bir yurgan qadami va xattiharakatini nazoratga olish orqali unga e'tibor berish nazarda tutiladi.
9. G`amxo`rlikdan ustun keladigan giperproteksiyaning ma’nosi nima?
A. Unda ota-onaning bola bilan shug`ullanishga yo vaqti yetishmaydi, yoki bu ishni boshqalarga yuklab qo`yadi.
B. To`g`ridan-to`g`ri bolani yoshligidan kaltaklash, haqorat qilish, kamsitish shaklida yoki bola ehtiyojlariga to`la befarqlik, uning bor-yo`qligini go`yoki sezmaslik kabi ko`rinishlarda namoyon bo`ladi.
S. Ota-ona hayotida bola o`ziga yarasha tashvish, ortiqcha yuk ekanligi, u bo`lmaganida otaonaning hayoti boshqacha bo`lishi muntazam ravishda eslatib turiladi.
D. bunda ota-ona tomonidan bolaga nisbatan talablar darajasi yuqori bo`ladi, lekin uning asl xohish-istaklari, ehtiyojlari unchalik e'tiborga olinmaydi.
*E. bunda erkalatishdan ko`ra ota-ona tomonidan bolasining har bir yurgan qadami va xattiharakatini nazoratga olish orqali unga e'tibor berish nazarda tutiladi.
10. Qaysi javobda giperproteksiya tushunchasiga to’g’ri ta’rif berilgan?
*A. ota-ona tomonidan bolaning barcha istak, tilak va ehtiyojlarini ko`r-ko`rona, tanqid va mulohazasiz qondirishga intilish; bolani har qanday qiyinchiliklar va to`siqlardan himoya qilish, uning barcha istaklarini joyida bajo keltirish, erkalatish, oddiy yutuqlaridan quvonish, xatolarini sezmaslikka qaratilgan harakatlar.
B. To`g`ridan-to`g`ri bolani yoshligidan kaltaklash, haqorat qilish, kamsitish shaklida yoki bola ehtiyojlariga to`la befarqlik, uning bor-yo`qligini go`yoki sezmaslik kabi ko`rinishlarda namoyon bo`ladi.
S. Ota-ona hayotida bola o`ziga yarasha tashvish, ortiqcha yuk ekanligi, u bo`lmaganida otaonaning hayoti boshqacha bo`lishi muntazam ravishda eslatib turiladi.
D. bunda ota-ona tomonidan bolaga nisbatan talablar darajasi yuqori bo`ladi, lekin uning asl xohish-istaklari, ehtiyojlari unchalik e'tiborga olinmaydi.
E. bunda erkalatishdan ko`ra ota-ona tomonidan bolasining har bir yurgan qadami va xattiharakatini nazoratga olish orqali unga e'tibor berish nazarda tutiladi.
310

18-BOB. ONTOGENETIK TARAQQIYOT INQIROZLARI PSIXOKORREKSIYASI VA PSIXOPROFILAKTIKASI

Reja:

1.Maktabgacha tarbiya yoshida psixologik korreksiyaning asosiy vazifalari va ularni amalga oshirish shakllari.
2.Kichik maktab yoshida psixologik korreksiyaning asosiy vazifalari va ularni amalga oshirish shakllari.
3.Aksentuatsiyalashgan o`smirlar psixokorreksiyasi.

4.Ilk o`spirinlik davrida psixoprofilaktika va psixokorreksiya bosqichlari.
5.Yetuklik davridagi psixokorreksiyaning o`ziga xos tomonlari.
Mavzuning o`quv maqsadi: talabalarni ontogenetik taraqqiyot inqirozlari psixokorreksiyasi va psixoprofilaktikasi bilan tanishtirish.
Darsning vazifasi: Talabalarga maktabgacha, kichik maktab yoshida, aksentuatsiyalashgan o`smirlarda, ilk o`spirinlik davrida, yetuklik davrida psixologik korreksiyaning asosiy vazifalari va ularni amalga oshirish shakllari haqida ma’lumot berish.
Tayanch tushunchalar: maktabgacha tarbiya yoshi, kichik maktab yoshi, o`smir, ilk o`spirinlik davri, yetuklik davri, xarakter aksentuatsiyasi.

1.Maktabgacha tarbiya yoshida psixologik korreksiyaning asosiy vazifalari va ularni amalga oshirish shakllari

Bog’cha bilan maktab o’rtasida o’rnatilgan izchil aloqaning har tomonlamaligi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash vazifasini muvafaqqiyatli amalga oshirishning asosiy shartidir. Ta'limga psixologik tayyorgarlik, deganda bolaning ob'ektiv va sub'ektiv jihatdan maktab talabiga munosibligi nazarda tutiladi. U maktab ta'limiga avval psixologik jihatdan tayyorlanadi. Uning tayyorgarlik darajasi bolalar bog'chasi psixologi tomonidan psixologik diagnostika qilinadi. Ushbu jarayonda lozim bo’lsa psixologik korreksiya ishlari amalga oshiriladi. Binobarin, bolaning psixikasi bu davrda ilm olishga yetarli darajada rivojlangan bo’ladi. Psixolog bu yoshdagi bola idrokining o’tkirligi, rivojlanganligi, sezgisining aniqligi, qiziquvchanligi, dilkashligi, xayrixohligi, ishonuvchanligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchligigi, tafakkurining yaqqolligi darajasini psixologik jihatdan diagnostika qiladi. Maktab

ta'limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli, shartli, barqaror bo’ladi. Psixologik diagnostika ishlarini olib borayotgan psixolog bu narsani nazardan chetda qoldirmasligi lozim. Chunonchi, bola diqqatining xususiyati rolli va syujetli o’yinlarda, rasm chizish, qurish, yasash mashg’ulotlarida, loy, plastilindan o’yinchoqlar tayyorlashda, o`zgalar nutqini idrok qilish va tushunishda, matematik amallarni yechishda, hikoya tinglash va tuzishda ko`rinadi. Psixologik diagnostika ishlari mobaynida bola diqqatining muayyan ob'ektga yo`naltirilganligi, to`planganligi, taqsimlanishi bo`yicha ma'lum darajada ko`nikmaga ega yoki ega emasligini, o`z diqqatini boshqara olish yoki kerakli paytda to`plashga intila olishni o`rganishi lozim. Shuningdek, psixolog bolaning xotirasini qay darajada qiziqarli, kishini taajjubga soladigan ma'lumot va hodisalarni puxta esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish imkoniyatlari darajasini ham diagnostika qiladi. Psixolog bolani maktab ta'limiga psixologik tayyorlashning sub'ektiv tomonini ham psixologik jihatdan diagnostika qiladi. Bolaning maktabda o’qishga xohish, intilishi, katta odamlar bilan muloqotga kirishish istagi mazkur tayyorgarlik bilan uzviy bogliq ekanligini esdan chiqarmasligi lozim. Bolada shu davrga kelib o’qish, bilim olish haqida to’g’ri tasavvur shakllanganligi darajasi diagnostika qilinadi. Bolani maktab jamoasi a'zolarining mas'uliyatli vazifalarini anglab yetishi, ularga itoat qilishga, ularning ko’rsatmalarini qay darajada bajarishga moyilligi psixolog tomonidan diagnostika qilinadi. Ushbu jarayonda psixolog bolaning hammasi bir xil emasligi sababli ular o’rtasida muhim farqlar vujudga kelishini hisobga olishi zarur. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik diagnostika ishlari mobaynida quyidagi sistema ko’zga tashlanadi, ya'ni ba'zi bola maktabga butun vujudi bilan talpinadi, o’qishga qancha vaqt qolganini uzluksiz sanaydi, o’quv ashyolarini oldinroq tayyorlab,harakat qiladi. Boshqa bir bola esa

maktabdan qat'iy voz kechishga boradi. Ushbu jarayonlarni psixologik jihatdan diagnostika qilishda o’qishga nisbatan salbiy munosabat ko’pincha kattalarning qo’rqitishlari oqibatida vujudga kelganligi aniqlanadi. Maktab bilan bog’cha o’rtasidagi uzviy aloqa ko’p tomonlama tuzilishga ega. Unda ta'lim-tarbiyaviy ishlarning mazmuni, metod va usullari tashkiliy shakllari, shuningdek, bolalarni

tarbiyalash shart-sharoitlari va psixik talab kabi yetakchi tomonlari psixologik jihatdan talab qilinadi. Bunda psixolog quyidagilarga alohida e'tibor berishi kerak:
 Maktab talabi nuqtai nazaridan bilimlarni qay darajada chuqurroq egallab olishlari diagnostika qilinadi. Lozim bo’lsa korreksion ishlar amalga oshiriladi.
 Bog’cha nuqtai nazaridan bolani maktab talabi darajasidagi bilim, malaka, ko’nikmalar bilan qay darajada qurollantirilganligi diagnostika qilinadi.
 Bolalarning maktabga qay darajada ruhiy tayyorgarligi darajasi diagnostika qilinadi. Shuningdek, asosiy vazifa bolalar mehnatining qay turiga tayyor turishlari, ularda aqliy mehnat bilimga qiziqishni o’stirish, ularni kelajakdagi mustaqil faoliyatiga qay darajada tayyor ekanligi diagnostika qilinadi.
 Bolalar bog’chasidagi beriladigan ta'lim qay darajada rivojlantiruvchi ekanligi diagnostika qilinadi.
 Psixolog bolalar bog’chasi bilan maktab o’rtasida izchil aloqa bor yoki yo’qligini diagnostika qiladi.
 Psixolog bog’cha yoshidagi bolalar egallashlari lozim bo’lgan bilim va tushunchalar mazmunini, tevarak atrofdagi xayot to’g’risidagi tasavvurlar va ayrim oddiy tushunchalar mavjudligini psixologik jihatdan diagnostika qiladi. Bolalar tomonidan tasavvur va tushunchalarning egallab olinishi ya'ni bolalarda har xil sohalar bo’yicha o’zlashtirgan umumiy tasavvurlar sistemasi ularning kelajakda umumiy – rivojlanishi uchun nihoyatda zarur bo’lib, busiz ular hozirgi zamon Davlat ta'lim standartlari asosida kerakli bilim, ko’nikma, malakalarni egallay olmaydilar.
Bog’cha yoshidagi bolalarning keng tarqalgan muammolari quyidagilardir.
1. Bola psixik taraqqiyoti darajasining yosh normasiga mosligi, ya'ni rivojlanishdagi qiyinchiliklar: xotira, diqqatning yomonligi va boshqalar.
2. Maktabda o’qishga tayyorgarlik. Bu yerda muammo ota-onaning bolani 6 yoshdan o’qitishga qaror qilinganligi va bu bilan bog’liq bola maktabda yaxshi o’qib, keta oladimi yoki yo’qmi.
3. Shaxsiy rivojlanishning salbiy ko’rinishlari va odamlarga kirishib ketishlik muammolari.

4. Bolaning o’z harakatlarini rejalashtira, boshqara va baholay olmasligi. Ota - onaning bola bilan nizolashishi.
5. Bolaning bolalar muassasasiga ko’nikishi.
Yuqoridagi keng tarqalgan muammolarni tuzatish masalalariga to’xtalsak, unda bog’cha yoshidagi shaxsni mukammal o’rganishimiz kerak. Chunki bog’cha yoshidagi bolalarning aqliy taraqqiyotini korreksiya qilish sezgi va idrok qobiliyatlarini rivojlantirish vazifalarini o’z ichiga oladi. Barcha bolalar uchun rasm chizish, plastilindan har xil narsalar yasash, aplikatsiya va qurilish faoliyatlari keng qo’llaniladi. Bog’cha yoshidagi bolalarning tafakkurini tuzatishda bilish motivlarini rivojlantirish, obrazli tafakkurini rivojlantirishda esa syujetli va rolli o’yinlar, qoidali

o’yinlar muhim rol o’ynaydi.
Bolaning maktabda yetuklik darajasini aniqlash, ya'ni ta'lim olishga tayyormi yoki yo’qmi, bilish lozim. Buning uchun alohida metodikalar mavjud. Bolalar bilan dastlabki tanishish uchun Kern Yirasek testi , " Uycha ", "Grafik diktant", "Torens" metodikalari va boshqa testlar qulaydir. Masalan, Kern Yirasek testiga to’xtalib o’tamiz. Bu test 3 ta topshiriqdan iborat.
1. Erkak kishining rasmini chizish.
2.Gapni ko’chirish.
3. Nuqtalarni ko’chirish.
Har bir topshiriq 5 baholi sistema bilan baholanadi. Topshiriq natijalari qo’shilib, umumiy baho 13-15 ballgacha to’plagan bolalarning taraqqiyoti yuqori hisoblanadi.10-13 ballgacha o’rtacha, 9-6 ballgacha normadan past deb hisoblanadi. 5 ball olgan bolalarni chuqur o’rganish, tekshirish zarur. Ular orasida nosog’lom bolalar bo’lishi mumkin. Shu bilan bir vaqtda shuni nazarda tutish kerakki ushbu guruhdagi bolalarni keyinchalik chuqur tekshirmasdan turib, ularni past, quyi rivojlangan, maktabga tayyormas guruhga qo’shish kerak emas. Yirasekning fikri bo’yicha, yaxshi natija olish bu maktabda yaxshi o’zlashtirishning nisbatan ishonchli asosidir, lekin yomon natija maktabga tayyor emaslik, yomon o’zlashtirish haqida xulosa chiqarishga ishonchli asos bo’lmaydi.
314

“O’yinchoqlar bilan berkinmachoq”

O’yin vazifasi. Bolalarda diqqatning turg`unligini rivojlantirish.
O’yinning tavsifi. Katta odam stolga bir necha yangi o’yinchoqlarni qo’yadi, oldiga 3 ta bolani chaqiradi va ularga navbatma-navbat o’ziga ko’proq yoqayotgan o’yinchoqni tanlashni taklif qiladi.Bolalar o’z o’yinchoqlarini diqqat bilan ko’rib olishlari lozim.Keyin bolalar devorga yuzi bilan turishadi hamda ko’zlarini yumishadi.Ular ko’zlarini yumib turishgunicha katta odam har bir o’yinchoqni bilinmaydigan joyga berkitadi.O’yinchoqlar bolalarga tanish bo’lgan predmetlar orasida bo’lishi kerak(qo’g`irchoqlar qo’g`irchoqlar orasida, mashinalar mashinalar orasida). Boshqa bolalarga ular o’yinchoqlar qaerdaligini aytib bermasliklari kerakligi tushuntiriladi. Har bir bola o’z o’yinchog`ini o’zi topishi lozim.Katta odam va bolalar xor bo’lib “ Bo’ldi” deyishadi , bolalar o’z o’yinchoqlarini qidirishni boshlaydilar ( buni yana takrorlash lozim).Ular o’z o’yinchog`i bilan qaytganlarida katta odam boshqa bolalardan so’raydi: “ Kim birinchi o’z o’yinchog`ini topdi?”. G`olib bo’lgan bola qandaydir sovg`a bilan rag`batlantiriladi.O’yin boshidan boshlanadi, endi o’yinchoqni bolalarning o’zi berkitadi.
O’yinning qoidalari:
1.Boshqa o’yinchoqlarga chalg`imasdan faqat o’zinikini topish.
2. Qidirayotganda aytib bermaslik. O’yin qoidasini buzgan bola qidirishdan to’xtatiladi.
3.O’yinchoq berkitilayotganida ko’zni ochish mumkin emas.

“Esnamasdan, javob ber!”

O’yin vazifasi.Bolalarda diqqatning turg`unligini rivojlantirish
O’yinning tavsifi. Bolalar bir-biriga qarama-qarshi bo’lgan 2 ta qatorga o’tirishadi. Katta odam hayvonlar, bolalar, qushlar tasviri tushirilgan rasmlarni bolalarga tarqatadi. Har bir tarqatilgan rasmning jufti ikkinchi qatordagi bolarda ham bo’lishi

kerak. Katta odam bolarga har bir hayvonning, bolaning yoki qushning do'sti borligini, ya`ni xuddi shunday rasm borligini tushuntiradi.Har bir personaj o'zining do'stini tegishli ovoz bilan chaqirishi lozim(agar rasmda sigir bo'lsa unda mo'lashi,
315
agar it bo'lsa vovullashi, agar qiz yoki bolaning rasmi bo'lsa ismi bilan chaqirishi kerak).Har bir qoida ko'rsatib tushuntiriladi.Kim chaqirilgan bo'lsa o'sha tezda javob qaytarshi kerak.Do'stlar katta odam oldiga kelib, bir-birlariga rasmlarini ko'rsatishlari va ular haqiqatan ham bir xil ekanliklarini bilishlari lozim. Shundan so'ng o'yinni qolgan bolalar davom ettirishadi.

O'yinning qoidalari:

1.Faqat katta odam aytgan bolalar ovoz chiqarishadi va o'zining juftini chaqiradi.

2.E`tiborli bo'lish zarur va o'zining sherigiga vaqtida javob qaytarish kerak.

3.Olingan rasmni vaqtidan avval ko'rsatish ta`qiqlanadi.Ma`lum vaqtgacha bu har bir bolaning siri bo'lishi kerak.

Bolalarning o'yin va o'yinchoqlari yoshga mansubligi juda nisbiy hodisa: ularning deyarli barchasini kichik bola imkoniyatlariga moslashtirish «jonli», «haqiqiy», rivojlantiruvchi va qiziqarli qilish mumkin. 2 yoshli bolaning imkoniyatlari ancha cheklangan diqqat beqaror, xotirasi hajmi katta emas, fikrlashi ko'rgazmali amaliy tarzda cheklangan, nutq ko'pincha yaxshi rivojlanmagan, harakatlar chaqqon emas, ixtiyoriy xulq shakllanmagan.

2 yoshli bolalar bilan shug`ullanish uchun o'yinlar repertuari katta emas va asoson predmetli manipulyativ faoliyat doirasida cheklangan. L.S.Vigotskiy ongning sistemaliligi haqida gapirar ekan, ilk va maktabgacha bolalikdagi psixik funktsiyalarning o'zaro bog`liqligiga yorqin tavsif beradi. Ilk bolalikning asosiy funksiyasi u idrokni biladi, xotira, diqqat, tafakkur, idrok aktining ma`lum momenti, uning davomi va rivojlanishi sifatida namoyon bo'ladi. Bola o'zi ko'rayotgan yo eshitayotgani haqidagina gapiradi va u bilan shu haqida gaplashishadi. Bunda xotira faol tanib olish sifatida namoyon bo'ladi, tafakkur esa ko'rgazmali maydondagi harakat bilan cheklangan, nutq idrok strukturasini umumlashtirish sababli o'zgartiradi.

O'yinlar bolada maqsadga yo'naltirilgan eshitish idroki, xotira, diqqatni rivojlantirishga ko'maklashmog`i kerak. Uch yoshgacha bo'lgan bolalar uchun rivojlantiruvchi o'yinlar ko'rgazmali amaliy reja bilan cheklanishi lozim. Ular ko'rish obraziga tayanish talab etiladigan o'yinlarga tayyor emas (masalan, bola murakkab
316
qirqma rasmni bir elementini boshqasiga moslab yig`ishi mumkin, biroq buni namuna asosida qilishga qodir emas) shuningdek, u namuna bo'yicha mozaikadan naqshni yig`olmaydi, biroq o'zining naqshini bajonidil yig`ib beradi.

To'rt yoshga kirib ko'pchilik bolalar bu kabi o'yinlarni, avval oson, keyin qiyinroqlarini eplay oladi.

3-4 yoshli bolalar uchun etakchi faoliyat va muloqot turlari:

- emotsional-bevosita muloqot bolaning kattalar, tengdoshlari bilan muloqoti;
- predmetli manipulyativ faoliyat ilk yoshdagi boladan 3-4 yoshgacha bolaning turli o'yinchoqlar va buyumlar bilan faoliyati ularning ijtimoiy - madaniy vazifasiga to'liq mos va kattalar bilan faol hamkorlik mavjud emas.

Bu yoshda bola xatti-harakatlari bevosita predmetlarga bog`liq bo'ladi, uning istaklari esa uning uchun shaxsiy istaklar sifatida mavjud emas. Kattalar bolani o'ziga

tortadigan bir buyumni boshqasi bilan almashtirib uning istaklari va harakatlarini boshqaradi.
Aynan ota-onalar ilk yoshidagi bolani to’laqonli rivojlantirishning qulay imkoniyatlariga ega bola unga onasi tushuntirgan narsani, butun guruhga xatto juda tajribali va malakali tarbiyachi aytib berganidan ko’ra osonroq tushunib etadi.
3-4 yoshli bolalar uchun o’yin va mashg`ulotlarni tanlash qiziqarlilik, soddalik, tashkil etish qulayligi tamoyillari asosiga quriladi.
2-3 yoshli bolalar bilan o’yinlar ota-onalar yoki tarbiyachilardan qandaydir alohida bilim yoki kuch talab etmaydi; material vazifasini istalgan uydagi mavjud narsalar, odatda har bir bolaga sotib olinadigan oddiy o’yinchoqlar bajara oladi. Bu yoshdagi bolalar uchun maxsus rivojlantiruvchi o’yinchoqlar ko’p emas: kubiklar, mozaikalar, hisob tayoqchalari, magnitli alifbo, qirqma rasmlar. Ularning ko’pchiligi polifunktsional bo’lib, bir yo’la bir necha psixik fuknsiyalar rivojiga ko’maklashadi.

2.Kichik maktab yoshida psixologik korreksiyaning asosiy vazifalari va ularni amalga oshirish shakllari

Birinchi marta maktabga qadam qo’yadigan birinchi sinf o’quvchilarining maktab talablariga, sharoitlariga moslashishi uchun ma'lum vaqt kerak bo’ladi.
317
Amalda moslashish vaqti hamma bolalarda ham bir xilda samarali o’tmasligi mumkin. Bolaning maktabda moslashishdagi qiyinchiliklar faqat ota-onalar arzlardagina emas, balki o’qituvchilarning o’quvchilarga berayotgan xarakteristikalarida ham qayd etilmoqda. Masalan, ota-onalar bolaning maktabga borishi, uy vazifasini bajarishni xohlamayotganini, juda asabiy bo’lib qolganini aytishsa, o’qituvchilar bu bolalarning darsda diqqatsizligi, tartibsizligi, tengdoshlari bilan tez-tez aytishib qolishlariga e'tibor berishmoqda. Bunday bolalarda asabiy ruhiy buzilish, psixik rivojlanishda orqada qolish vujudga keladi. Bolalar maktabda o’qishga qanchalik tayyor bo’lmasalar, maktabda moslashish davri shunchalik qiyin va uzoq o’tadi. Psixologlar bolaning maktabda o’qishga tayyor deganlarida uning jismoniy, psixologik va shaxsiy tayyorgarligini nazarda tutadilar. O’qishning dastlabki oylarida maktab psixologining birinchi sinf o’quvchilari bilan olib boradigan asosiy ishlari quyidagilardan iborat:
a) maktabga moslashishga qiynalayotgan bolalarni aniqlash;
b) bu bolalarga psixologik yordam ko’rsatish.
Bu vazifani bajarish uchun bolani maktabga moslashishdagi qiyinchilik ko’rsatkichlarini aniqlash lozim. Ko’rsatkichlar quyidagicha bo’lishi mumkin:
1) O’quv materialini o’zlashtirishda;
2) O’qituvchi talablarini bajarishda qiynalish, o’quvi vazifalarini bajarishda ixtiyoriylik xususiyatlari, harakat aktivligining o’zgarishi, bolaning emotsional xususiyatlari, o’qishga, maktab xayotiga qiziqishlari, o’qituvchi va tengdoshlari bilan muloqotga urishishlaridagi qiyinchiliklaridir.
Bolani har tomonlama psixologik tekshirib, keyin u bilan olib boriladigan tuzatish ishlarini ko’rsatish mumkin. Psixolog tuzatish metodlarini rejalashtirayotganda bolani maktabga moslashishga ijobiy ta'sir etadigan omillarni, ya'ni o’quvichini o’zini to’g’ri baholashi, oilada to’g’ri tarbiyalanishi, oiladagi kelishmovchiliklarning bartaraf etilishi, tengdoshlar orasida bolani hurmat qozonishini hisobga olish lozim. Maktab psixologining o’zlashtira olmovchi boshlangich sinf o’quvichilari bilan olib boradigan ishlari uning faoliyatidagi amaliy

yo’nalishi tashkil etadi. Psixolog bunday o’quvichilar bilan olib boradigan ishning
318
asosiy yo’nalishlari haqida gapirishdan oldin o’zlashtira olmaslik sabablarini ko’rib chiqamiz. Maktabgacha yosh davridan maktab yoshi davriga o’tish ancha qiyin kechadigan davrdir. Odatda maktabga borish bilan bog’liq bo’lgan qiyinchiliklar va muammolar quyidagilardan iborat:
1. Yangi o’quv tartibi bilan bog’liq bo’lgan qiyinchiliklar. Bunday qiyinchilik ko’proq maktabgacha tarbiya muassasalariga bormagan bolalar uchun xosdir.
2.Bolaning sinf jamoasiga moslashuvidagi qiyinchilik.Bu holat bolalar jamoalariga yetarli darajada ishtirok etmaganlarda ko’proq uchraydi.
3. O’qituvchi bilan o’quvichi munosabatlarida yuzaga keladigan qiyinchiliklar.
4. Bolaning oilaviy sharoiti o’zgarishi bilan bog’liq bo’lgan qiyinchiliklar.
Bu qiyinchiliklar bola rivojlanishining yangi ijtimoiy sharoitlarida asta - sekin o’z ifodasini topadi. Psixologlar maktabdagi psixogen buzilish bolalarning sinfda o’qishidagi qiyinchiliklarning asosiy xususiyatlaridan biri deb ko’rsatadilar. Ruxiy omillar ta'siri ostida kelib chiqadigan kasallik psixogen kasallikdir. Mazkur kasallik bolaning maktabda, oilada ob'ektiv va sub'ektiv mavqeining buzilishida, ta'lim-tarbiya jarayonining qiyinlashuvi hamda uning shaxsda psixogen tarkib topishida namoyon bo’ladi. Ta'limdagi qiyinchiliklarning alohida olingan sabablaridan kelib chiqib ularni tahlil qilish "Uddalanilmayotgan" materiallarni, masalan, yozuv yoki o’qishni bosh asos qilib olish, keyin esa ularni keltirib chiqarayotgan omillarni ko’rib chiqish mumkin. O’qituvchi bolalarda uchraydigan har qanday qiyinchilikni uning o’zlashtirishi bilan bog’laydi. Bunda bolani baholash odatdagidek o’ziga xos shaklda bo’ladi, a'lochi, demak, yaxshi o’quvichi, yomon baho olsa yomon o’quvichi. Mazkur shaklga xos choralar ko’rilgan. Masalan, maktabda yomon o’zlashtirgan o’quvichining ota-onasi chaqirtiriladi, g’azablangan o’qituvchi ularga o’z farzandlariga yomon qarayotganliklarini, yomon tarbiya berayotganliklarini, ular bilan kam shug’ullanayotganliklarini aytib noliydi. Yana ham achinarlisi o’qituvchi sinf oldida yuqori ovoz bilan bolani kamsitadi. Ko’pchilik, xattoki eng tajribali o’qituvchilar ham o’zlashtirmasligi sababini o’quvichining dangasaligi, noshudligi, tarbiyasizligi bilan baholashga urinadilar.
319
O’qituvchi o’zlashtirmaslikning haqiqiy sabablari to’g’risida kamdan kam o’ylaydi va tabiiyki, uni bartaraf qilishning o’ziga xos chora tadbirlarini izlaydi. Shuning uchun quyida maktab psixologining boshlangich sinf o’quvichilari bilan amalga oshirish mumkin bo’lgan psixologik tuzatish ishlarininng ayrim jihatlarini ko’rib chiqamiz.
Misol tariqasida E.L.Yakovleva tomonidan taklif etilgan tuzatish dasturini xavola qilamiz. Yozilgan so’zlarni tahlil qilish, ulardagi harflarni ko’rish uchun bolalarga diqqat qilish o’yinlari taklif qilinadi. Bu o’yin asosida sinash, tuzatish testi yotadi. Buning uchun katta shrift harflarida bosilgan eski ertak kitoblari olinadi. Bolalarga 5 minut davomida uchragan a harfini chizish taklif etiladi. Bunda bola 4 va undan ortiq a harfini qoldirsa yutqazadilar, agar kam qoldirsa yutadilar, degan shart qo’yiladi. Yutganlar ragbatlantiriladi. O’yinni har kuni o’ynagan ma'qul, yutuqlar natijasi esa, bir haftada bir marta e'lon qilinadi va g’olib taqdirlanadi. Topshiriqni birbiriga qo’shni bolalarning o’zlari tekshiradilar. Chunki bu yoshdagi bolalar o’z

ishlaridan ko’ra o’zgalar ishiga juda qiziqadilar. Shunga ko’ra ular sezmay qoldirgan xatolarga ko’ra ularning bir necha minut davomida diqqat e'tiborlarini to’plagan holatlari juda ahamiyatlidir.

3.Aksentuatsiyalashgan o`smirlar psixokorreksiyasi

O’smirlar deviant xulq-atvorining ko’plab determinantalari orasida eng muhimlaridan biri shaxsning patoxaraktereologik rivojlanishi va xarakter aksentuatsiyasidir.

A.Lichko va L.Rubina aniqlashicha, psixonevrologik dispanserlarda ro’yxatga olingan 78% o’smirlar voyaga yetmagan bolalar ishlari bo’yicha inspeksiyada ham ro’yxatda turadi. Shu bois xarakter aksentuatsiyasini erta tashhis qilish amaliy psixolog ishida juda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xarakter aksentuatsiyasi – bu ba'zi xarakter xususiyatlarining o’ta kuchayib ketishi va, oqibatda, ayrim turdagi psixogen omillar ta'siriga berilishning ortishi va aksincha, boshqa ba'zi omillar ta'sirida beriluvchanlikning susayishidir. O’smirlik davrida xarakter aksentuatsiyasi xususiyatlari ayniqsa kuchayib, tashqi tomondan psixopatiyani eslatib yuboradi. Bordi-yu, o’smirni qurshab turgan ijtimoiy voqelikda aksentuatsiya tufayli paydo

bo’lgan, A.E.Lichko so’zlari bilan aytganda, «qarshiligi eng ojiz bo’lgan joyga yo’naltirilgan» psixogen omillar bo’lsa, ijtimoiylashuvchanlikning buzilishi va shaxsning tegishli psixopatik tipga muvofiq shakllanishi kuzatiladi.

O’smirning xarakter aksentuatsiyasi tipini aniqlash katta amaliy ahamiyatga ega. Aniqlangan tip xarakterdagi zaif nuqtalarni ko’rsatadi, bu esa moslashuvchanlikning buzilishiga qanday omillar sababchi bo’lishi mumkinligini oldindin ko’ra bilish imkoniyatini beradi. Bularning barchasi psixoprofilaktika ishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

1970 yilda A.E.Lichko tomonidan o’smirlar uchun mo’ljallangan patoxarakterologik so’rovnoma ishlab chiqilgan va sinovdan o’tkazilgan. So’rovnoma o’smirlik yoshida psixopatiya, psixopatik rivojlanish hamda xarakter aksentuatsiyasida kuzatiladigan xarakter tiplarini aniqlashga mo’ljallangan. Hozirgi ko’rinishda PTS (patoxarakterologik tashhis so’rovnomasi) psixopatiya diagnozini qo’yishda yordamchi vosita bo’lib xizmat qilolmaydi.

So’rovnoma 25 ta mavzuga oid jumlalardan iborat. Mavzular qatoriga shaxsiy vital funksiyalarni (kayfiyat, uyqu, jinsiy muammolar va h.k.) baholash, yaqinlar va atrofdagi insonlarga (ota-ona, do’stlar va h.k.) munosabat va ayrim mavhum kategoriyalarga (tanqid, qonun-qoidalar va h.k.) munosabat kabilar kiritilgan. Jumlalar turli xarakterologik tiplarning xilma-xil hayotiy muammolarga munosabatini aks ettiradi. Shuningdek, ular orasida indifferent, ya'ni diagnostik ma'noga ega bo’lmagan jumlalar mavjud. So’rovnoma mualliflari fikricha, sinaluvchilarga o’z munosabatini baholash imkoniyatini berish ularga u yoki bu xarakter xususiyati o’ziga qanchalik tegishli ekanini qayd ettirishdan ko’ra ishonchliroq.

Tarbiyasi qiyin o’smirlaring xatti-harakatlarini ijobiy yo’nalishga burib yuborish uchun ularda mas'uliyat, g’urur, javobgarlik, ishonch kabi yuksak hislarni tarkib toptirish lozim. Buning uchun ularga yoshi, kuchi, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olib, topshiriqlar berish ayni muddaodir. Ularga kichik jamoani, sport seksiyasini, «tirik burchak»ni boshqarish vazifasini ishonib topshirish natijasida salbiy fe'latvorlarni kamaytirish mumkin.

Ularni o’zlari qiziqqan to’garaklarga jalb qilish orqali o’qishga salbiy munosabatlari asta-sekin yo’qolib boradi. Yana eng muhimi shundaki, tarbiyalanuvchilarga ishonish kerak. Ularni qo’lidan keladigan ishlarga e'tiborni berib, uni bajarganidan keyin rag’batlantirish, uni ishni yana ham yaxshi bajarishda o’z fikrlarini bayon qilishi ham muhimdir.
Tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlashda tarbiya berishning maxsus sharoitlarini aniqlash muhim. Ular bilan duch kelgan vaqtda yoki har doim emas, balki, qulay sharoit kelib qolganda ish olib borilsa, ya'ni tarbiyaviy ta'sir ko’rsatilsa, u ko’proq natija beradi.

4.Ilk o`spirinlik davrida psixoprofilaktika va psixokorreksiya bosqichlari

Ilk o’spirinlik davrini ikkinchi o’tish davri deb hisoblash mumkin. Agar birinchi o’tish davri ko’proq bolalikka yaqin bo’lsa, ikkinchi o’tish davrida bo’lgan o’spirin ko’proq yoshlik davriga yaqindir va shu jihatidan o’rganiladi hamda tadqiq etiladi. Ilk o’spirinlik davri, asosan, unda mustaqil hayotning boshlanishi (o’rta maktabni tamomlab, litsey, kollejlarga kirishi)bilan xarakterlanadi. Hayotdagi bu o’zgarishlar ilk o’spirinning shaxsiga, o’z-o’zini anglashiga ta'sir ko’rsatadi. O’smirlardan farqli o’laroq ilk o’spirinlar katta hayotni tasavvur etmaydilar, balki unda ishtirok etadilar.
Ilk o’spirinlarning mustaqilligi ortishi bilan kattalarning unga munosabatlari ham o’zgaradi. Kattalar o’smirga ko’proq bola deb qarasalar, ilk o’spirin yoshdagilarga katta odamdek munosabatda bo’ladilar. Ilk o’spirinlar hayotda o’z o’rnini topishga nisbatan intilishi anglangan holatda bo’ladi. U o’z hayotiy rejalarini amalga oshirish uchun harakat qila boshlaydi va ma'lum bir kasbni egallay boshlaydi yoki shu soha bo’yicha akademik litseylarda o’qishini davom ettiradi.
O’spirinlar tanlagan sohalari yoki kasblarida juda katta yangiliklar, kashfiyotlar qilgilari keladi, lekin asta-sekinlik bilan yangilik va kashfiyotlar qilish uchun ularda bilim va tajriba yetishmayotganligini, buning uchun ko’proq o’qish va o’rganishlari kerakligini anglay boshlaydilar. Hayot faoliyati kengaygan sari o’spirinlarda ijtimoiy

rollar kengligi faqat miqdor tomondangina kengayib qolmay, balki sifat tomonidan ham o’zgarib boradi.
Ma'lum bir kasbda faoliyat ko’rsatishni boshlayotgan o’spirin unga intellektual, ijtimoiy-psixologik hamda axloqiy jihatdan tayyor bo’lishi kerak. O’smirlik davrining oxirlari va o’spirinlik yoshiga kelib, ularda mehnat ko’nikma va malakalari rivojlanadi. Bu ko’nikma va malakalari ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatlari bilan to’g’ridan-to’g’ri bog’liq. Har qanday kasbiy ko’nikma va malakalarning o’sishi, avvalo, o’spirin intellektining umumiy rivojlanganlik darajasiga bog’liq. Shuning uchun ham bu davrdagi o’spirinlar intellektining rivojlanishiga alohida e'tibor berishi lozim. Bu yoshdagi bolalarga muloqotga kirishish ehtiyojining mavjudligi ham juda muhim, lekin u yetakchi emas, faqat tanlagan kasb va yo’nalishlari bo’yicha mashg’ul bo’lmagan o’spirinlargina ko’proq tengdoshlari bilan muloqotda bo’lishga ehtiyoj sezadilar. Bu yoshdagi bolalar mehnat faoliyati bilan xuddi kattalardek shug’ullana oladilar. Ilk o’spirinlik davrini kasbiy bilim, ko’nikma va malakalarning shakllanishi uchun senzitiv davr deb hisoblash mumkin. O’zining kasbiy taqdirini tasodifan yoki noto’g’ri hal etilishi murakkab ichki kechinmalarga, ikkilanishlarga, ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Bu esa yigit va qiz hayoti uchun ham, jamiyat uchun ham katta zarar keltiradi. Kasb tanlash vaqtida ilk o’spirinlar o’z moyilligi va

qobiliyatlarini shaxsiy sifatlar, xususan, nerv sistemasining tipi, analizatorlar xususiyati emosional-irodaviy sifatlarini ham hisobga olishlari zarur.
O’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirish tizimining asosiy tarkibiy qismlari quyidagi faoliyatlardan iborat:
- o’z ichiga kasbiy targ’ibot va tashviqotni olgan kasbiy ma'rifat (kasbiy axborot) ;
- u yoki bu soha, kasbga bo’lgan shaxsiy qiziqish va qobiliyatlarining birlamchi kasbiy diagnostikasi ;
- kasb tanlashda mutaxassislar tomonidan individual, guruhiy yordam ko’rsatishga qaratilgan kasbiy konsultatsiya;
- ko’proq muvaffaqiyatga erishishi mumkin bo’lgan kasbni tanlab olishga qaratilgan kasbiy tanlov;
323
- ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida amalga oshiriluvchi ijtimoiy-kasbiy adaptatsiya (moslashuv);
- tanlangan kasbni o’rganish jarayonida burch, mas'uliyat, kasbiy or-nomus, oriyat hislarini o’quvchilarda shakllantirishga qaratilgan kasbiy tarbiya.
Ular ichidan kasbiy ma'rifat (kasbiy axborot) o’quvchilarga kasblar olami, kasblarning belgi va xususiyatlari, kasb klassifikatsiyasi, kasblar professiogrmmasi, hududning qaysi kasblarga ehtiyoji borligi to’g’risidagi axborotlarni berishdan iborat bo’lib, ular asosida o’quvchi o’zini qiziqtirgan, jamiyat uchun zarur bo’lgan kasbni tanlaydi.

5.Yetuklik davridagi psixokorreksiyaning o`ziga xos tomonlari

Birinchi bosqich. Kamol topishning bu bosqichiga 28 – 35 yoshlardagi erkak va ayollar kiradilar. Yetuklik davrida odamni o’zining barcha kuch - quvvati, qobilyati, aql zakovati, ichki imkoniyatlarini o’z kasbiga, ijtimoiy faoliyatiga, jamoat ishlariga to’la safarbar qila oladi. Erkak va ayollarning bu davrda mehnat va ijtimoiy faoliyatda muayyan tajribaga egaligi ularni istiqbol sari yetaklaydi. Yetuk shaxsning boshqalarga munosabati, ularning baholashi dinamik stereotipida sezilarli o’zgarishlar bo’ladi. U endi faqat o’zining xatti-harakati uchun emas, balki boshqa odamlarning qilmishlari uchun ham javobgarligini anglay boshlaydi, ayniqsa, xayot tajribasiga ega bo’lmagan yoshlarning o’z farzandlarining xulq- atvori, yurish-turishi uchun ham jon kuydiradi, ularga imkoniyati boricha yordam berishga intiladi.
Yetuklik kattalik, donishmandlik, g’amxo’rlik, rahnamolik davridir. Boshqa yosh davrlaridagi kabi mazkur davrlarda ham muayyan darajada inqiroz bo’ladi. Bu davrda inson qanday ishlarni amalga oshirishda qaysi imkoniyatlardan foydalanmagani, ayrim xatolar va tushumovchiliklar sababli ko’ngilsizliklar vujudga kelganligini anglay boshlaydi. O’ziga-o’zi hisob berish shu davrning muhim xususiyatilaridan biridir.
Ayrim orzu istaklarni amalga oshirish uchun jismoniy va ruhiy imkoniyatlar yetishmasligini anglash uning psixikasida «turg’unlik» tuyg’usini vujudga keltiradi. Buning asosiy sababi 33 – 35 yoshlarda mnemologik – atension majmua tubidan
324
qayta qurilishidir. Yaxlit mnemologik markazning mantiiqiy qismlarga ajralishi ro’y beradi. Attensional holatning omillari saqlanib qoladi, narsa va hodisalarga loqaydlik tuyg’usini vujudga keltiradi. Lekin har ikkala ko’rinishga ega bo’lgan ruhiy holat ham oila a'zolariga tengqurlari mehnat jamoasi ta'siri orqali asta-sekin muayyan

ko’rinishga tushib qoladi.
Umuman, kamolot bosqichidagi odamlar istiqboli rejasi bilan yashashga harakat qiladilar. Voqelikka, turmush ikr-chikirlariga, tabiat, jamiat, koinot hodisalariga befarq qaramaydilar, imkoni boricha xotirjamlik, tinchlik totuvlik tuyg’usi bilan yashaydilar.
Ikkinchi bosqichi. Yetuklik davri 36 – 60 yoshlardagi erkak va ayollarni o’z ichiga oladi. Mazkur davrda ijodiy faoliyatni qaytadan baholashda o’z ifodasini topuvchi yangi xislat paydo bo’ladi. Ular shu kungacha mehnat faoliyatini miqdor ketidan quvib yurgan bo’lsalar, endi mehnat mahsuli sifati ustida bosh qotira boshlaydilar. Oilaviy turmushga, ijtimoiy xayotga, yashashning maqsadiga, inson qadr qimmatiga, tevarak atrofga va o’zlariga yangi mezon bilan qaray boshlaydilar. Turmushning ikr-chikrlariga, ijtimoiy hodisalarga vazminlik, sabr-toqat bilan xayotning tajribasiga suyangan holda munosabatda bo’ladilar, har bir insonning nozik tomoni yoki yomon oqibati haqida o’z fikrlarini bildiradilar. Xayotda qo’ldan boy bergan imkoniyatlari, kamchiliklari ularda “yetti o’lchab bir kes” qabilida ish tutishga undaydi.
Yetuklik davrining ikkinchi bosqichida qarilik alomatlari ko’proq o’rin egallay boradi. Uning boshlanish nuqtasi 45 – 50 yoshlardir. Lekin odamning o’ziga xos xususiyatlariga ko’ra bu chegara turlichadir. Shu sababli yosh davrning chegaralari turlicha belgilanadi. Bu omil odamlar yashayotgan oila muhitiga, tarixiy shartsharoitlariga jo’g’rofiy iqlim va boshqalarga bog’liqdir. Mazkur yosh davrning o’zgaruvchanligini insonning biologik ijtimoiy va tarbiyaviy omillari belgilaydi.
Yetuklik davridagi erkak va ayollarning o’zligini anglashdagi «Men», uch xil ko’rinishida ifodalanadi: «Men» ko’pincha «Men – obrazi» shaklida o’z tomonidan talqin qilinadi. Shaxsning men obrazi, 1-Reprospektiv «Men» dan iborat bo’lib, o’tmishdagi o’zligini aks ettiradi. 2-Aktual «Men» sifatida tasavvur etilib, o’zining

hozirgi davrini ifodalaydi. 3-Ideal «Men» obrazi esa yaqin kelajakda o’zining qanday tasavvur qilish tuyg’usi bilan bog’liq holda yaratiladi.
Umuman yetuklik javrining ikkinchi bosqichiga mansub kishilar bir tomondan, butun imkoniyatni mehnat va ijtimoiy faoliyatlarga bag’ishlagani bilan, ikkinchi tomondan ijtimoiy faolliklari susayib borishi bilan farqlanadi. Chunki insonning keksayishi ham quvonchli, ham o’kinchli damlarga, kechinmalarga, his- tuyg’ularga serobligi bilan boshqa davradagi odamlardan ajiralib turadi.
Psixologning yetuklik davridagi insonlar bilan ishlashda ularning yoshlariga xos psixologik xususiyatlarini hisobga olishi psixologik maslahat ishlarini samarali yo’lga qoýishiga yordam beradi.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

1.Maktabgacha tarbiya yoshida psixologik korreksiyaning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2.Kichik maktab yoshida psixologik korreksiyaning asosiy vazifalari va ularni amalga oshirish shakllari haqida bayon eting.
3.Aksentuatsiyalashgan o`smirlar xulq-atvorini korreksiyalashda qanday usullardan foydalaniladi?
4.Ilk o`spirinlik davrida psixokorreksiyon ishlar qanday amalga oshiriladi?
5.Yetuklik davridagi psixokorreksiyaning o`ziga xos tomonlari nimadan iborat?

Mavzu yuzasidan test savollari:

1.Inson qarishini 3 ta siklini ko’rsatib bergan olimni aniqlang.
*A. I.V.Davidovskiy.
B. P.P.Lazerev.

S. S.Xoll.
D. D.Birron.
E. Z.Freyd.
2. Yetuklik davrida erkak va ayollarning o’zligini anglashdagi “Men” necha xil ko’rinishda namoyon bo’ladi?
A. Men – obraz, ideal men.
*B. Retrospektiv, aktual, ideal.
S. Men – obraz, retrospektiv, dolzarb.
D. Retrospektiv, aktual.
326
E. Barcha javoblar to’g’ri.
3. Ilk o’spirinning psixologik rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuchlar qaysi qatorda to’g’ri berilgan?
*A. Jamoat tashkilotlari, maktab jamoasi ta'lim jarayoni qo’yadigan talablar darajasining oshishi bilan u erishgan psixik kamolot o’rtasidagi ziddiyatdan iborat.
B. Ijtimoiy hayotda maktab jamoasida tengqurlari bilan munosabatlarda egallagan mutlaqo yangicha mavqei ta'sirida.
S. Turli qarama-qarshiliklar ziddiyatlar, shuningdek ahloqiy, aqliy, nafosat jihatdan tez o’sishi.
D. Hayotda o’z o’rnini topishga intilish, kasb-hunar egallash ixtisoslikni tanlash, istiqbol rejasini tuzish.
E. Barcha javoblar to’g’ri.
4. Qaysi olim tomonidan o’smirlik davrida do’stlik tuyg’ularini tadqiq qilib, uni nechta shaklga bo’ladi?
A. I.V.Straxov; birodarlik, do’stlik, urishqoqlik.
B. D.B.Elkonin; tengdoshlik, mardonaviylik, boshqaruvchilik.
S. V.A.Krutetskiy; mardonavor o’rtoqlik va talabchan do’stlikdir.
*D. I.V.Straxov; ulfatchilik, o’rtoqlik va do’stlikka.
E. P.P.Lazerev; birodarlik, do’stlik.
5. O’smirlik davri psixik o’sishni harakatga keltiruvchi kuchlarni aniqlang.
*A. Uning faoliyatini vujudga keltirgan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o’rtasidagi qarama-qarshiliklar tizimining namoyon bo’lishi.
B. Jamoat tashkilotlari, maktab jamoasi, ta'lim jarayoni qo’yadigan talablar darajasining oshishi bilan u erishgan psixik kamolot o’rtasidagi ziddiyat.
S. Ijtimoiy hayotda maktab jamoasida tengqurlari bilan munosabatlarda egallagan mutlaqo yangicha mavqei ta'sirida.
D. Turli qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar, shuningdek, ahloqiy aqliy nafosat jihatdan tez o’sishi.
E. To’g’ri javob yo’q.
6. Maktabgacha tarbiya yoshida yuzaga keladigan inqirozning xarakterli belgilari nimalardan iborat?
327
A. Bir yosh davridan boshqa davrga o’tishdagi qiyinchilikdan.
B. Bolaning hoxish-istaklarining qondirilmasligi.
S. Kattalar ta'siridan qutilish.
*D. Bolaning xohishi bilan bu hohishning harakatda ifodalanishi o’zaro mos tuzilmasligi jihatdan tez o’sishi.
E. Barcha javoblar to’g’ri.
7. Bola shaxsini ta'limga psixologik tayyorgarligi deganda nimalar nazarda tutiladi?
*A. Bolaning ob'ektiv va sub'ektiv jihatdan maktab talabiga tayyorligi.
B. Bola idrokining o’tkirligi, ravshanligi diqqat xususiyatlarini rivojlanishi.
S. Muayyan reja asosida tartibli ko’p qirrali maqsadga yo’naltirilgan o’zaro mantiqiy bog’liqlik.
D. Maktabda o’qish hohishi, intilishi, katta yoshdagi odamlar bilan muloqotga kirishishi.
E. Barcha javoblar to’g’ri.

8. O’spirin psixikasidagi jiddiy kamchiliklar nimalardan iborat?
A. Adabiy qahramon qiyofasini ifodalay olmasligi.
*B. Barcha faoliyat bosqichida mustaqil fikr yurita olmasligi.
S. Nazariy tafakkurni shakllanmaganligi.
D. O’qituvchi o’quvchida mustaqil fikrlashini rivojlantirmaganligi.
E. Barcha javoblar to’g’ri.
9. O’smirlarda xarakter aksentuatsiyalarining namoyon bo’lishi muammosi quyidagi olimlarning qaysi biri tomonidan chuqur o’rganilgan?
*A. A.E.Lichko.
B. D.B.Elkonin.
C. L.I.Bojovich.
D. M.I.Lisina.
E.P.P.Lazerev.
10. Namoyishkorona xulq-atvor xarakter aksentuatsiyasining qaysi turiga xos asosiy xususiyat hisoblanadi?
A.Shizoid.
*B.Isteroid.
C.Epileptoid.
D.Gipertim.
E. Pedant.

19- BOB. BOSHLANGʻICH SINFLARDA KORREKSION ISHNING OʻZIGA XOSLIGI

Reja:
1.Maktabga psixologik tayyorgarlik muammosi va maktabga motivatsion tayyorgarlikni korreksiyalash.
2.Boshlangʻich sinfda psixologik xizmat: asosiy funksiyalar, faoliyat vazifalari va yoʻnalishlari.
3.Maktabgacha tarbiya yoshidan kichik maktab yoshiga oʻtishda bola psixik taraqqiyotining tipologiyasi.
4.Kichik maktab yoshidagi psixologik korreksiyaning oʻziga xos xususiyati.
5.Bolani maktabga moslashishining oʻziga xos xususiyati.
6.Maktabda oʻzlashtirmaslikning psixologik omillari.
7.Maktabga psixologik tayyorgarlikni diagnostika qilish.
8.Kichik maktab yoshidagi bolalarning psixik taraqqiyotini diagnostika qilish.
Mavzuning oʻquv maqsadi: talabalarni boshlangʻich sinflarda korreksion ishning oʻziga xosligi bilan tanishtirish.
Darsning vazifasi: Talabalarga boshlangʻich sinfda psixologik xizmat: asosiy funksiyalar, faoliyat vazifalari va yoʻnalishlari; maktabgacha tarbiya yoshidan kichik maktab yoshiga oʻtishda bola psixik taraqqiyotining tipologiyasi; kichik maktab yoshidagi psixologik korreksiyaning oʻziga xos xususiyati; bolani maktabga moslashishini oʻziga xos jihati haqida ma’lumot berish.
Tayanch tushunchalar: maktabgacha tarbiya yoshi, kichik maktab yoshi, maktabga psixologik tayyorgarlik, maktabga emotsional tayyorgarlik, oʻzlashtirmaslik, maktabga motivatsion tayyorgarlik.

1.Maktabga psixologik tayyorgarlik muammosi va maktabga motivatsion tayyorgarlikni korreksiyalash

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli oʻqishi koʻp jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bogʻliq. Bola avvalo maktabga jismoniy jihatdan tayyor boʻlishi kerak. 6 yoshli bolalarning anatomik-fiziologik rivojlanishi oʻziga xos tarzda kechadi. Bu yoshda bola organizmi jadal rivojlanadi.
6-7 yoshli bolalar nerv sistemasini mustahkamlash, ularni surunkali kasalliklardan xalos etish, koʻrish va eshitish qobiliyatiga alohida e'tibor berish, shuningdek, umurtqa pogʻonasining toʻgʻri rivojlanishiga ahamiyat berish nihoyatda

muhim. Kattalar shu yoshdagi bolalar bilan ish olib borar ekanlar, bu yoshdagi bolalar organizmi hali oʻsishda davom etayotganligini doimo hisobga olishlari lozim. Masalan, bolani majburan yozishga oʻrgatish hali barmoq muskullari toʻliq rivojlanmaganligi sababli ularga ma'lum darajada zarar keltirishi, bolaning chiroyli yoza olmasligi esa, oʻz-oʻzidan bolani oʻziga nisbatan ishonchini yoki oʻqishga nisbatan qiziqishini kamayishiga olib kelishi mumkin.
Aqliy tayyorgarlik. Koʻpincha aqliy tayyorgarlik deyilganda bolaning dunyoqarashi, jonli tabiat, insonlar va ularning mehnatlari haqidagi bilimlari tushuniladi. Ushbu bilimlar maktab beradigan ta'limga asos boʻlishi mumkin, lekin soʻz boyligi, ma'lum xatti-harakatlarni bajara olish layoqati bolaning maktabga aqliy tayyorgarligining asosiy koʻrsatkichi boʻla olmaydi. Maktab dasturi bolalardan taqqoslay olish, tahlil eta olish, umumlashtira olish, ma'lum bir xulosa chiqara olish, shuningdek, yetarli darajada rivojlangan boshqa bilish jarayonlarini ham talab etadi. Masalan, 6-7 yoshli bola tabiat haqida ayrim hodisalarnigina emas, balki organizmning tabiat bilan bogʻliqligini va oʻzaro ta'sirini ham tushunishi va oʻzlashtirishi mumkin. 6-7 yoshli bolalarda yuqori darajada rivojlangan koʻrgazmali obrazli tafakkur bilan bola atrof olamdagi predmetlarning asosiy xususiyatlarini va predmetlar orasidagi bogʻliqlikni ajrata olishi aqliy rivojlanishning natijasi hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlab oʻtish lozimki, koʻrgazmali-harakatli va koʻrgazmali-obrazli tafakkur nafaqat 6-7 yoshli bolalar, balki kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarning ham aqliy rivojlanishida asosiy vazifani bajaradi.
Bolaning maktabda muvaffaqiyatli oʻqishi nafaqat uning aqliy va jismoniy tayyorgarligi, balki shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyogarligiga ham bogʻliq. Maktabga oʻqish uchun kelayotgan bola yangi ijtimoiy mavqeini turli majburiyatlari va xuquqlari boʻlgan va unga turli talablar qoʻyiladigan −oʻquvchi mavqeini olish uchun tayyor boʻlmogʻi lozim. Katta bogʻcha yoshdagi bolalar asosan, maktabda oʻqish uchun ehtiyoj sezadilar, lekin bu xohish va ehtiyoj motivi turlicha boʻlishi mumkin: "Menga chiroyli forma, daftar, qalam va ruchkalar sotib olib berishadi'", "Maktabda oʻrtoqlarim koʻp boʻladi va men ular bilan mazza qilib oʻynayman", "Maktabda uxlatishmaydi". Maktabning tashqi ramzlari, shubhasiz, maktabdagi

bolalarni juda qiziqtiradi, lekin bu maktabda muvaffaqiyatli oʻqish uchun asosiy sabab boʻla olmaydi. "Men otamga oʻxshagan boʻlishim uchun oʻqishim kerak", "Yozishni juda yaxshi koʻraman", "Oʻqishni oʻrganaman", "Maktabda qiyin misollarni yechishni oʻrganaman" − ushbu xohish va harakat bolaning maktabda muvaffaqiyatli oʻqishi uchun tabiiy ravishda asos boʻla oladi. Bolaning endi oʻzini katta boʻlganini, bogʻcha bolasi emas, balki ma'lum bir majburiyatlari bor oʻquvchi boʻlishini anglashi, jiddiy faoliyat bilan shugʻullanayotganligini bilishi nihoyatda muhim. Bolaning maktabga borishini istamasligi ham salbiy holat hisoblanadi. Maktabga tayyor boʻlmagan bolalar bilan ishlayotib, pedagog ota-onalar va bolalar bogʻchasi tarbiyachisi majburiyatlari sirasiga kiradigan vazifalarni oʻz zimmasiga oladi. Zero, bolani maktabga tayyorlash, oʻquv faoliyatini egallashga tayyorlash uning maktabgacha yosh davridagi toʻlaqonli rivojlanishi natijasi boʻlishi lozim. Shu maqsadli rivojlantirishning oʻrni va ahamiyati haqida tushuntirish ishlari olib borish juda muhim.
Psixolog maktabgacha yoshdagi bolalar bilan shugʻullanar ekan, ularning

rivojlanishi istiqbolini ularda maktab ta'limiga toʻlaqonli psixologik tayyorgarlikda koʻradi.Psixolog goʻyo bolaning kelajagiga qarab, uning bir yosh davridan boshqasiga − maktab yoshiga qanchalik omadli qadam qoʻyishini aniqlaydi, bolaning psixik va shaxsiy rivojlanishi, uyda, maktabda qoʻyiladigan yangi talablarga muvofiq boʻlishi uchun yana nimalar qilish kerakligini belgilaydi.
Eng ishonchli psixologik profilaktika bolaning oʻz vaqtida normal oila va ijtimoiy tarbiya va ta'lim sharoitlaridagi rivojlanishidir.
Ayni vaqtda, maktabgacha yakshanba kungi muassasalar (maktablar) tarmogʻi yuzaga kelishi amaliy psixologlar oldiga yana bir vazifani: maktabgacha yoshdagi bolalar bilan rivojlantiruvchi mashgʻulotlar deb nom olgan mashgʻulotlarni psixologik ta'minlash va ota-onalarga bolaning yosh va individual xususiyatlariga mos oʻyin va mashgʻulotlarni tanlashda maslahat yordami koʻrsatish vazifasini qoʻydi, zero yuqorida aytilgan yakshanba kungi maktablar va boshqa shu kabi muassasalar bolalar bogʻchalari bazasida faoliyat yuritadi.
331
Shuni ta'kidlash joizki, koʻpincha 1-mashgʻulotda ertakterapiya, oʻyinterapiya va artterapiya qoʻllaniladi. Bunda mashgʻulot oʻtkazish rejasi turlicha boʻlib, seans qoʻshiq yoki oʻyin bilan boshlanishi qulay. Avvalgi mashgʻulotlardan biri boʻlgan qiziq voqealar, psixoterapevtik oʻyinlar oʻynab, soʻng bolalar ertak eshitib, rasm chizishadi.

2.Boshlangʻich sinfda psixologik xizmat: asosiy funksiyalar, faoliyat vazifalari va yoʻnalishlari

Birinchi marta maktabga qadam qoʻyadigan birinchi sinf oʻquvchilarining maktabga borganda maktab talablariga sharoitlariga moslashish uchun ma'lum vaqt kerak boʻladi. Amalda moslashish vaqti hamma bolalarda ham bir xilda samarali oʻtmasligi mumkin. Bolaning maktabga moslashishdagi qiyinchiliklar faqat ota - onalar arzlaridagina emas, balki oʻqituvchilarning oʻquvchilarga berayotgan xarakteristikalarida ham qayd etilmoqda. Masalan, ota-onalar bolaning maktabga borishi, uy vazifasini bajarishni xohlamayotganini, uning tutqich bermasligi, juda asabiy boʻlib qolganini aytishsa, oʻqituvchilar bu bolalarning darsda diqqatsizligi tartibsizligi, tengdoshlari bilan tez-tez aytishib qolishlariga e'tibor berishmoqda. Bunday bolalarda asabiy ruhiy buzilish, psixik rivojlanishda orqada qolish vujudga keladi. Bolalar maktabda oʻqishga qanchalik tayyor boʻlmasalar, maktabga moslashish davri shunchalik qiyin va uzoq oʻtadi. Psixologlar bolani maktabda oʻqishga tayyor deganlarida uning jismoniy, psixologik va shaxsiy tayyorgarligini nazarda tutadilar.
Hozirgi vaqtda bogʻcha maktab va boshqa ta'lim muassasalarida rivojlanishda nuqsoni boʻlgan bolalar aniqlanadi. Maktabgacha va boshlangʻich maktab tizimi shu muammolarni bartaraf qilishga ham mas'ul boʻlib hisoblanadi. Rivojlanishida ba'zi yengil (nutqiy, eshituv va boshqa) nuqsoni boʻlgan bolalar bogʻcha va umumta'lim maktab muassasalarida tarbiyalanadilar. Ogʻir nuqsonlari boʻlgan bolalar esa maxsus turdagi bolalar bogʻchasi yoki maktabga qabul qilinadi, bu muassasalar zarur davolash-sogʻlomlashtirish va korreksion, psixologik-pedagogik yordamni bera olish imkoniyatiga ega.
332
Albatta, ta'lim jarayonida har bir holatga alohida yondoshuv zarur. Chunonchi, ogʻir nutqiy nuqsonli bolalar alohida xususiyatlarga ega boʻladilar. Shu sababli

ularda, umumta'limiy tayyorgarlikdan tashqari, korreksion (tuzatish) yoʻnalishdagi ta'limga ehtiyoj bor.
Ma'lumki, maktab oʻquv fanlari integratsiyasi asosida tashkil etilgan darslar qatorida bolalarning badiiy-estetik madaniyatini shakllantirish boʻyicha fanlar alohida oʻrin tutadi. Asosiy maqsad ta'limning yoʻnalishini umumiy kuchaytirgan holda yaxlit nutqiy yondoshuv asosida olib borish va dunyoning ilmiy yagona manzarasini shakllantirish(axloqiy, estetik, ekologik va mehnat orqali)dan iborat. Yuqorida koʻrsatilgan kamchiliklar qaysi toifada koʻproq uchrashini bilish maqsadida ogʻir nutqiy nuqsonli bolalar bilan bir necha yoʻnalishda kuzatish ishlari olib boriladi.Bu jarayonda ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarga ham alohida e'tibor berish lozim.
Ma'lumki, hozirgi vaqtda bolani va uning rivojlanishini kuzatish masalalari: organik jihatdan tashxis muammolari va uni hal etishning sub'ektiv jihati muammoni hal etish imkoniyatini axborotlar orqali izlash, faoliyat rejalarini loyihalashtirish va rejani amalga oshirishda boshlangʻich yordam koʻrsatish kabi yaxlit masalalarni oladi.
Biz bola rivojlanishidagi negativ omillar, ya'ni «rivojlanmaganlik», «yetishmovchilik» va boshqalarni tadqiq etishni hal qilishga intilayapmiz. Biroq, u yoki bu darajadagi nuqsonlarni bolaning shu davrdagi ahvoliga koʻra baholash oʻzo ʻzidan muammoni hal qilish yoʻllari, imkoniyati haqidagi axborotning kichik bir qismini beradi, xolos.
Xullas, bola holatini oʻrganishda koʻp bosqichli psixologik tashxis tizimi nihoyatda qoʻl keladi. U faqatgina bola holatining eng dolzarb fenomenlarini koʻrsatibgina qolmay, balki ishonchli istiqbol tashxisini ham ta'minlaydi, bolaning keyingi rivoji va oʻqishi, korreksion (tuzatish) ishlarining yanada samarali dasturlarini ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Bolalar bilan ishlashning zamonaviy tajribalari shuni koʻrsatadiki, ayrim hollarda bola holati faqatgina yaxshi tomonga emas, balki u yoki bu sabablari, oʻqitish va sharoit rivojiga bogʻliq tarzda yomon tomonga oʻzgarishi mumkin. Shunday qilib, biz faqatgina «yaqin rivojlanish

zonasi»ni emas, balki rivojlanishning ogʻish deviatsiyasi sohasini ham nazardan qochirmasligimiz zarur.
Ta'kidlash joizki, oʻquv jarayonini tashkil etishning mavjud xususiyatlari oʻquvchilar, ayniqsa kichik yoshdagi oʻquvchilarning toʻlaqonli rivojlanishiga koʻp jihatdan toʻsqinlik qiladi. Zamonaviy maktab metodikasining oʻziga xosligi shundaki, oʻquvchi oʻquv topshiriqlarini bajarish jarayoniga emas, balki eng avvalo oʻqituvchi, keyin ota-onalar tomonidan kam baho beriladigan oxirgi natijaga yoʻnaltirilgan. Oʻquvchilarning faqat toʻgʻri javob olish, ularning darslikdagi javoblarga formal mos kelishiga intilishlariga sabab ham aynan shu. Oʻqituvchilar esa oraliq amallarni toʻgʻri bajarish ustidan nazoratga deyarli e'tibor bermaydilar, xatolar esa ayni shu amallarda koʻproq kuzatiladi. Shu bois psixolog va tarbiyachi, pedagog va psixologning hamkorlikdagi profilaktik va tushuntirish faoliyati bolalarni maktabgacha yoshdan maktab oʻquvchisi yoshiga oʻtishi sharoitlarini tobora yengillatishga qaratilishi lozim.
Maqsadli profilaktik, korreksion va rivojlantirish ishlari kompleks ravishda olib borilishi kerak. Faqat shundagina u bola shaxsining rivojlanishi, uning qobiliyatlari namoyon boʻlishi, ijodiy imkoniyatlari ixtiyoriylashuviga xizmat qiladi.

3.Maktabgacha tarbiya yoshidan kichik maktab yoshiga oʻtishda bola psixik taraqqiyotining tipologiyasi

Maktabgacha yosh davrda ijodkorlik jarayoni boshlanadi. Ijodkorlik layoqati, asosan, bolalarning konstruktorlik oʻyinlarida, texnik va badiiy ijodlarida namoyon boʻladi. Bu davrda maxsus layoqatlar kurtaklarining birlamchi rivojlanishi koʻzga tashlana boshlaydi. Maktabgacha davrda tasavvur, tafakkur va nutq umumlashadi. Bu esa bu yoshdagi bolalarda tafakkur qilish omili sifatida ichki nutq yuzaga kelayotganligidan dalolat beradi. Bilish jarayonlarining sintezi bolaning oʻz ona tilini toʻliq egallashi asosida yotadi. Bu davrda nutqning shakllanish jarayoni yakunlana boshlaydi. Nutq asosidagi tarbiya jarayonida bolada sodda axloq me'yorlari va qoidalar egallaniladi. Bu me'yor va qoidalar bola axloqini boshqaradi.
334
Kichik maktab davri 6-7 yoshdan 9-10 yoshgacha davom etadi. Bu davrda bola, fan asoslarini oʻrganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyor boʻladi. Uning psixikasi bilim olishga yetadigan darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idrokining oʻtkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqqolligi oʻzining qiziquvchanligi, ishonuvchanligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror boʻladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati oʻqish xisoblanadi.
Bolaning maktabga borishi, uning psixologik rivojlanishi va shaxsning shakllanishidagi oʻrni nihoyatda katta. Bola oʻquv faoliyatida oʻqituvchi rahbarligida inson ongining turli funksiyalari mazmunini egallaydi, insoniy an'analar asosida harakat qilishni oʻrganadi, oʻz irodasini oʻquv maqsadlariga erishish uchun mashq qildiradi. Oʻquv faoliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada rivojlanishini talab etgan holda, bola shaxsi rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi.
Birinchi bor maktabga kelgan bola oʻz atrofdagilari bilan psixologik jihatdan yangi munosabat tizimiga oʻtadi. U xayotining tubdan oʻzgarganini, unga yangi majburiyatlar, nafaqat, har kuni maktabga borish, balki oʻquv faoliyati talablariga boʻysunish ham yuklatilganligini his eta boshlaydi. Oila a'zolarining bola oʻquv faoliyati, yutuqlari bilan qiziqayotganligi, shuningdek, uni nazorat qilayotganligi, unga qilinayotgan yangi muomala, munosabat uning ijtimoiy mavqei oʻzgarganligini toʻla his etishiga, oʻziga nisbatan munosabatining oʻzgarishiga asos boʻladi. Kattalar bolalarni amaliy jihatdan oʻz vaqtlarini toʻgʻri taqsimlash borasida yaxshi oʻqish, oʻynash, sayr qilish va boshqa narsalar bilan shugʻullanishga oʻrgatadilar. Demak, oilada bola u bilan hisoblashadigan, maslahatlashadigan yangi bir oʻrinni egallaydi. Oʻquvchining maktabdagi muvaffaqiyati uning keyingi psixik rivoji va shaxsining shakllanishida toʻliq ijobiy asos boʻladi.
Bola insoniy munosabatlar tizimida ham alohida oʻrin egallayotganini, ota-onasi, yaqinlari, atrofdagilari unga yosh boladek emas, balki oʻz vazifalari, majburiyatlari
335
bor boʻlgan, oʻz faoliyat natijasiga koʻra hurmatga sazovor boʻlishi mumkin boʻlgan alohida shaxs sifatida munosabatda boʻladilar.
Buning natijasida bolaning oʻz-oʻzidan oilasi, sinfi va boshqa jamoalardagi oʻz oʻrnini anglay boshlaganini koʻrish mumkin. Bu davrda bolaning "Men shuni xohlayman" motividan "Men shuni bajarishim kerak" motivi ustunlik qila boshlaydi. Maktabda birinchi sinfga kelgan har bir oʻquvchida psixik zoʻriqish kuchayadi. Bu nafaqat uning jismoniy salomatligida, balki xatti-harakatida ham, ya'ni ma'lum

darajada qoʻrqoʻvni kuchayishi, irodaviy faollikning susayishida namoyon boʻladi. Bu davrga kelib bola atrofidagilar bilan oʻzaro munosabatda ma'lum bir natijalarga erishgan, oʻzi xohlayotgan narsalarni hamda oʻz oilasida oʻzi egallagan oʻrnini aniq biladigan boʻladi. Shuningdek, u oʻzini-oʻzi boshqarish malakasiga ega boʻladi, vaziyat va holatga qarab ish yurita oladi. Bu yoshdagi bolalar xattiharakatlari va motivlari ularning oʻzlariga beradigan baholariga qarab "Men yaxshi bolaman" emas, balki bu xatti-harakatlar oʻzgalar koʻz oʻngida qanday namoyon boʻlishiga qarab baholanishini tushuna boshlaydilar.

4.Kichik maktab yoshidagi psixologik korreksiyaning oʻziga xos xususiyati

Maktabga qabul qilingan 6 yoshlilarni yangi ijtimoiy muhitga moslashtirish maktab psixologi va boshlangʻich sinf oʻqituvchisi faoliyatida muhim oʻrin tutadi. Tajribalar shuni koʻrsatadiki, maktabdagi oʻzlashtirmaslikning asosiy sabablaridan biri bolalarni ta'limga tayyor emasligi, ularning etilmaganligidir. Ana shu etilmaganlikni oʻz vaqtida aniqlab bartaraf qilish bolani maktabda oʻqishga moslashtirish va psixokorrektsion ishlar mazmunini belgilaydi.

Bolaning psixologik saviyasini koʻtargan holda, oʻyin faoliyatidan oʻquv faoliyatiga oʻtishni ta'minlash zarur.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda bolalarni yangi hayot bosqichiga moslashuviga yordam beradigan, muayyan maqsadga yoʻnaltirilgan rivojlantiruvchi mashgʻulotlarga zarurat tugʻiladi.

Maktab ta'limiga psixologik jihatdan tayyorlik, birinchidan, bilim olish uchun bolada moyillik va oʻquvchining ijtimoiy yoʻnalishi shakllangan boʻlishi,ikkinchidan,

oʻz tengdoshlari bilan aloqa qila bilishi, oʻqituvchining talablarini bajarishi, oʻz xulqini nazorat qila olish kabi jihatlarining shakllanganligiga bogʻliq. Bular bolani oʻquv faoliyatiga «Silliq» oʻtishini ta'minlaydi.

Asosiy mezonlardan biri bolaning sogʻlom, chidamli boʻlishidir, aks holda dars va butun oʻqish kunida unga beriladigan yuklamalariga chidam berishga qiynaladi. Nihoyat, yana bir muhim va balki eng asosiy tomonlardan biri uning aqliy jihatdan yaxshi rivojlanganligi hisoblanadi. Aynan mana shu xususiyat maktabda olinadigan bilimlar va koʻnikmalarning muvaffaqiyatli oʻzlashtirish, intellektual faoliyatni optimal ushlab turish va sinf bilan birga ishlashga ulgurishni belgilaydi. Mashgʻulotlar jarayonida bolaning bilish psixik jarayonlari: diqqati, fikrlashi, idroki, tasavvuri, xotirasi ular uchun mumkin qadar tabiiyroq hisoblangan shakl − oʻyinlar yordamida rivojlantiriladi.

Guruhiy oʻyinlardan foydalanish muloqot koʻnikmalari, bir-birini oʻzaro tushunish, sherikchilik, oʻzaro mas'uliyatni sezish kabi xislatlarni rivojlantirishga ham yordam beradi. Mashgʻulotlar bir haftada ikki marotaba oʻtkaziladi va har bir mashgʻulot 30 daqiqaga moʻljallangan.

Olib boruvchiga tavsiyalar:

- Bolalarga koʻproq mustaqillik bering. Bolalar «ixtiro»ni oʻzlari qilsinlar, tayyor bilimni berishga shoshilmang.
- Har bir bilimning muhimligini koʻrsatishga harakat qiling, misollar keltiring.
- Mashgʻulotlarga oʻta qiziqish bilan qarang, ijodiy koʻtarinkilik muhitini vujudga keltira biling.

 Har bir bola oʻz muvaffaqiyatlari, yutuqlarini koʻra bilsin.Uning «oʻsishi»ni, sabr-toqati va shu kabi harakatini aytib boring.
 Bolaning imkoniyatlari va qobiliyatlarini xolisona baholang. Bir bolani xech qachon boshqa bola bilan taqqoslamang. Masalan: «koʻrdingmi, Alisher topshiriqlarni qanday tez bajardi» , uning oʻrniga: «sen bugun oʻtgan safargi mashgʻulotdagidan koʻra tezroq bajarding!» Bunday muomala bolada oʻz imkoniyatlariga ishonish xissini shakllantirib boradi.
337
Mashgʻulot oʻtish jarayonida taqdim etilayotgan oʻyinlar bolalarga quvonch bagʻishlashi, oʻz kuchiga ishonch uygʻotishga qaratilganini yodda tutmoq zarur. Korreksiya-rivojlantirish mashgúlotlarining samaradorligini aniqlash maqsadida mashgʻulotlar yakunida bolaning bilish jarayoni, nutqi, shaxslararo munosabatlari, ijtimoiy moslashuv malakalari qayta tashxis etiladi.

5.Bolani maktabga moslashishini oʻziga xos xususiyati

Maktabgacha bolalik davrida u yoki bu sababga koʻra yoshiga muvofiq, toʻlaqonli rivojlanmagan koʻplab bolalar uchun maktabga kelish murakkab sinov boʻlishi mumkin va ular qator muammolarga duch keladi. Bu kabi alohida qiyinchiliklarning pedagogik psixologiya fanida toʻrtta guruhi farqlanadi:
Afsuski, koʻpchilik oʻquvchilar uchun bu muammolar hal etilmagancha qoladi. Agar bu holatlarda maktab psixologi, pedagog, ota-onalar tomonidan yordam berilmasa, bolada turli koʻrinishdagi maktab nevrozlari maktabga tayyor emaslikning noadekvat kompensatsiyasi sifatida yuzaga kelishi mumkin.
Shu sababli maktab nevrozlarini erta diagnostikalash, korreksiyalash va profilaktika qilish dolzarb va favqulodda muhim muammo sanaladi.
338
6-9 yoshdagi bolalarda nevrotik holat ichki (ortiqcha xavotir, notinchlik, oʻta senzitivlik kabi) va tashqi ijtimoiy omillar sababli kelib chiqishi mumkin:
- oilada notoʻgʻri tarbiya (haddan tashqari gʻamxoʻrlik, ortiqcha talabchanlik, egotsentrik tarbiya);
- tarbiyasidagi bolaga psixologik savodsiz ta'sir koʻpincha oʻquvchini noadekvat baholashga olib keladi;
- kommunikativ malaka va koʻnikmalar yetishmasligi;
- oʻquvchi pozitsiyasi shakllanmaganligi.
Bu kabi noadaptiv xulqni psixologlar didaktogen yoki maktab nevrozi deb ta'riflaydilar. Bu oʻrinda nevroz tibbiy jihatidagi tor ma'noda emas, balki koʻproq maktab hayotidagi u yoki bu murakkabliklarga noadekvat reaksiya qilish ma'nosida tushuniladi.
Yana bir tez-tez uchraydigan holat "Psixogen maktab dezadaptatsiyasi" muammosidir. Mazkur muammo, fikrimizcha, favqulodda dolzarb boʻlgani bois uning xususiyatlari ustida yana bir bor toʻxtalamiz.
Psixogen maktab dezadaptatsiyasi bola shaxsining maktab va oiladagi ob'ektiv mavqeini buzadigan psixogen reaksiyalar, kasalliklar va tuzilmalarni aks ettiradi. Odatda, maktab nevrozlari besabab agressivlik, maktabga borishdan qoʻrqish, darslarga kirmaslik, sinf taxtasi yonida javob berishdan bosh tortish va shu kabi me'yordan chetlangan dezadaptiv xulqda namoyon boʻladi.
A.M. Prixojanning fikricha,maktab xavotirliligi emotsional beqarorlikning nisbatan yengil shakli boʻlib, hayajon, oʻquv vaziyatlarida, sinfda ortiqcha

notinchlik,oʻziga nisbatan yomon munosabat, pedagoglar, tengdoshlari tomonidan salbiy baho kutishda namoyon boʻladi.
Maktab nevrozlari namoyon boʻlishining diapozoni ancha keng, bu ularni tashxislashda aniq mezonlarni belgilashni qiyinlashtiradi. Shu bois maktab nevrozlarining oldini olish va korreksiyalash uchun kompleks oʻyinlar zarur. Ular kichik oʻquvchi shaxsi rivojlanishini erta tashxislash, uning yosh va individual xususiyatlari va imkoniyatlarini, oʻqituvchilar va ota-onalar bilan doimiy ishlashni talab etadi.
339
Maktab nevrozlarini tadqiq etish uchun bolani uning maktab va maktabdan tashqari hayotida turli vaziyatlarda kuzatish, oʻqituvchilar, ota-onalar,oʻquvchilar bilan suhbatlashish va maxsus psixodiagnostik metodlar zarur. Olingan barcha natijalarni professional talqin qilish psixologga bola muammolarini hal etish imkonini beradi.
Maktab psixologik amaliyotida maktab nevrozi boʻlgan bolalarning bir necha turi farqlanadi:
1. Xulqida aniq chetlanishlar boʻlgan bolalar (darsda oʻzlarini yomon tutadi, dars paytida sinfda turib yuradi, oʻqituvchiga qoʻpollik qiladi, boshqarish qiyin, faqat sinfdoshlari emas, oʻqituvchiga ham agressiv). Odatda, yomon oʻqiydi, oʻz-oʻzini yuqori baholaydi. Ular uchun giperdinamik sindrom, patologik fantaziya sindromi xarakterli. Koʻpincha oʻqituvchilar bunday bolalarni pedagogik “qarovsiz”, yoki xatto aqli zaif deb hisoblaydilar.
2. Shunday holatlar boʻladiki, yaxshi oʻzlashtiradigan, darsda oʻzini yaxshi tutadigan oʻquvchilar ortiqcha yuklama yoki emotsional hayajon natijasida birdan oʻzgarib qoladi. Ularda depressiya, apatiya paydo boʻladi. Oʻqituvchilar oʻquvchini goʻyo almashtirib qoʻyishadi, u oʻqishga qiziqmay qoʻydi deb aytadilar. Bola maktabga borishdan bosh tortadi, qoʻpollik qila boshlaydi. Nevrotik depressiya, bogʻlanishli hodisalar sindromi kabilar kayfiyat tushishi, emotsional labillik, xavotir fonida namoyon boʻladi. Ba'zan bu guruh bolalarida autizm, toʻliq yoki qisman mutizm kuzatiladi.
3. Bu guruh murakkabligi shundaki, tashqi koʻrinishdan muvaffaqiyatli (oʻzlashtirish yaxshi, hulq qoniqarli) bolalarda emotsional nomaqbullik alomatlari (javob berishga qoʻrqish, ogʻzaki javob berganda qoʻl titrashi kuzatiladi, sekin gapiradi, doim bir chekkada yuradi) kuzatiladi. Oʻz-oʻzini baholash odatdapast, koʻngli nozik, senzitivlik, xavotirlilik darajasi baland. Uyatchanligi, ortiqcha xavotirliligi bois oʻz qobiliyatlarini toʻliq namoyon qila olmaydi. Tadqiqotlar koʻrsatishicha, bunday bolalarda noverbal intellekt verbaliga nisbatan ancha yuqori. Ular faqat yakka tartibda ishlaganda ochiladilar. Bu bolalar uchun fobik va qoʻrquv sindromlari xarakterli.
340
Qoʻrquvlarning yana bir alohida guruhini ajratish mumkinki, u biror faoliyatda nomuvofiq boʻlib qolish, atrofdagilarning umidini oqlamaslikdan qoʻrqish bilan bogʻliq. Bunday oʻquvchilarda maktab qoʻrquvi oʻta qadrli qoʻrquvlarning oʻziga xos koʻrinishi sifatida kuzatiladi. Buning sababi maktabda intizomni buzgani uchun jazodan, qattiqqoʻl oʻqituvchidan qoʻrqish kabilar boʻlishi mumkin. Natijada bola maktabga borishdan bosh tortishi mumkin. Turli psixosomatik hodisalar − harorat koʻtarilishi, bosh ogʻrigʻi, qusish va boshqalar yuzaga kelishi mumkin.

Maktab nevrozlarida psixologik himoya xarakteri va namoyon boʻlishi eng avvalo bolaning oliy nerv faoliyati tipi, uning oiladagi tarbiyasi xususiyatlari, psixik jarohatlovchi vaziyatga bogʻliq boʻladi. Maktab nevrozlarini tashxislashda psixolog, avvalo, noadekvat psixologik himoya shakllariga duch keladi. Bu kabi himoya mexanizmlarini ochib berish nevrotik bolalar bilan ishlashda diagnostik bosqichning eng muhim vazifalaridan biridir.

Keng ma'noda psixologik himoya atamasi "Psixologik diskomfortni bartaraf etuvchi istalgan xulqni" ifodalash uchun ishlatiladi. Buning natijasida negativizm kabi xarakter qirralari, "soxta" almashtiruvchi faoliyat paydo boʻlishi, shaxslararo munosabatlar oʻzgarishi mumkin (B.F. Zeygarnik, B.S. Bratus). Shaxsning nevrotik tuzilishida himoya noadekvat xarakterga ega va psixologik diskomfortni keskinlashi mumkin. Psixologik himoya anglashilmagan darajada shakllangani bois uning mexanizmlarini proektiv metodikalar yordamida tadqiq etish mumkin.

E.T Sokolova fikricha, «Proektiv metod motivatsiyaning anglashilmagan yoki toʻliq anglashilmagan shakllarini oʻrganishga qaratilgan va bu jihati bilan inson psixikasining tobora intim sohasiga kirishning deyarli yagona psixologik metodidir». «Proektiv» atamasi ilk bor Lourens Fenk tomonidan 1939 yilda qoʻllangan.

Shuningdek u shaxsni tadqiq etishning proektiv metodlari tasnifini ham keltiradi:

- Strukturalash metodikalari (Rorshaxning siyoh dogʻlari testi, bulutlar testi, uch oʻlchamli proeksiya testi);
- Konstruktsiyalash metodikalari (MAP, olam testi);
- Interpretatsiya metodikalari (SATO, TAT, Rene Jil testi va b.);

- Toʻldirish metodikalari (tugallanmagan gaplar, hikoyalar, Ongning assotsiativ testi);
- Katarsis metodikalari (psixodrama, proektiv oʻyin);
- Ekspressiyani oʻrganish metodikalari (dastxat, nutqiy muloqot tahlili va b.)
- Ijod mahsulini oʻrganish metodikalari (rasmli testlar, yelimlash va sh.k.).

Bunday metodikalarning asosiy farqi ragʻbat materiali aniqmasligi, xayrixohlik muhiti va qadriyatli fikrlar mavjud emasligidadir. Ular avvalo shaxsning munosabatlari sohasini aks ettiradi va maktab nevrozlari uchun xos boʻlgan maxsus reaksiyalarni aniqlash imkonini beradi.

Test yakka tartibda oʻtkaziladi. Bolani erkin boʻlishiga bola qiziqishlariga oid oʻyin yordamida erishish muhim.Tadqiqotlar koʻrsatishicha, maktab nevrozi boʻlgan bolalarda oʻziga xos javoblar koʻpchilikni tashkil etadi. Ularda qoʻrquv aniq ifodalangan.

Proektiv metodikalar bola shaxsining xususiyatlarini:

- Original reaksiyalar darajasi yuqoriligi;
- Qoʻrquv reaksiyasi aniq ifodalanganligi;
- Mavzularning tez-tez perseveratsiyasi, mojaroli vaziyatlardan chetlanish;
- Xavotirlilik, qoʻrquvni aniqlash imkonini beradi.

Demak, maktab nevrozlari bola va kattalarning ahamiyatli munosabatlari, bolaning maktab oʻzaro hamkorligi tizimida oʻz-oʻziga munosabatlari buzilishi sifatida qaralishi mumkin. Bunda nomuvofiqlik va jazodan qoʻrqish dezadaptiv xulqni keltirib chiqaradi. Shu bilan bogʻliq ravishda goʻyo ikkita xulq strategiyasi farqlanadi:

1. «Soʻrovchi» strategiyasi − tobe pozitsiyasi;
2. Negativ, agressiv hulq strategiyasi (mustaqil).
Zamonaviy tarbiya va pedagogik faoliyat oʻz ishining ustalari oʻyin pozitsiyasini albatta qoʻllaydilar, mashgʻulotlar, darslar muhitini quvonch, yoqimli syurprizlar bilan boyitishga harakat qiladilar. Tarbiyachi, pedagog, ota-onalarning oʻyin pozitsiyasi oʻz-oʻzidan psixoterapevtik boʻlib, «Katta odam-bola», «Oʻqituvchi342 oʻquvchi» oʻzaro munosabatlari gumanizatsiyasiga koʻmaklashadi. Maktabgacha muassasa va maktab psixologining asosiy vazifasi ham shu, uni shakllantirishga intilish lozim, zero, u ham kattalar ham bolalarning nerv quvvatini tejash imkonini beradi. Unutmaslik kerakki,oʻyin nafaqat boshqalarni tarbiyalash, balki oʻz-oʻzini boshqarishning ham qudratli quroli, u ijodiy, bilish faoliyatining boshqaruvchisi, tarbiyachi, pedagog, ota-ona hulqi nozikligini ta'minlaydi.

6.Maktabda oʻzlashtirmaslikning psixologik omillari

Ta'limning dastlabki oylarida maktab psixologining birinchi sinf oʻquvchilari bilan olib boradigan asosiy ishlari quyidagilardan iborat:
a) maktabga moslashishga qiynalayotgan bolalarni aniqlash;
b) bu bolalarga psixologik yordam koʻrsatish.
Bu vazifani bajarish uchun bolani maktabga moslashishdagi qiyinchilik koʻrsakichlarini aniqlash lozim. Koʻrsatkichlar quyidagicha boʻlishi mumkin:
1) Oʻquv materialini oʻzlashtirishda;
2) Oʻqituvchi talablarini bajarishda qiynalish, oʻquv vazifalarini bajarishda ixtiyoriylik xususiyatlari, harakat aktivligining oʻzgarishi, bolaning emotsional xususiyatlari, oʻqishga, maktab hayotiga qiziqishlari, oʻqituvchi va tengdoshlari bilan muloqotga erishishlaridagi qiyinchiliklaridir.
Bolani har tomonlama psixologik tayyorlab, keyin u bilan olib boriladigan tuzatish ishlarini koʻrsatish mumkin. Maktablarda "Moslashish" sinflarining ochilishi bu muammoni hal qilishga oz boʻlsada imkon beradi. Psixolog tuzatish metodlarini rejalashtirayotganda bolani maktabga moslashishiga ijobiy ta'sir etadigan omillarni, ya'ni oʻquvchining oʻzini toʻgʻri baholashi, oilada toʻgʻri tarbiyalanishi, oiladagi kelishmovchiliklarning bartaraf etilishi, tengdoshlar orasida bolani hurmat qozonishini hisobga olish lozim. Maktab psixologining oʻzlashtira olmovchi boshlangʻich sinf oʻquvchilari bilan olib boradigan ishlari uning faoliyatidagi amaliy yoʻnalishni tashkil etadi. Psixolog bunday oʻquvchilar bilan olib boradigan ishining asosiy yoʻnalishlari haqida gapirishdan oldin oʻzlashtira olmaslik sabablarini koʻrib chiqamiz. Maktabgacha yosh davridan maktab yoshi davriga oʻtish ancha qiyin
343
kechadigan davrdir. Yetti yoshdagi qiyinchilik bu shunday keskin burilish yoshini tashkil etib, unda maktab yoshining barcha davrlari oʻz ifodasini topadi. Odatda maktabga borish bilan bogʻliq boʻlgan qiyinchiliklar va muammolar quyidagilardan iborat:
Bu qiyinchiliklar bola rivojlanishning yangi ijtimoiy sharoitlarida asta-sekin oʻz ifodasini topadi. Psixologlar maktabdagi psixogen buzilish bolalar sinfda oʻqishdagi qiyinchiliklarning asosiy xususiyatlaridan biri deb koʻrsatadilar. Oʻqituvchi bolalarda uchraydigan har qanday qiyinchilikni uning oʻzlashtirishi bilan bogʻlaydi. Bunda bolani baholash odatdagidek oʻziga xos shaklda boʻladi, a'lochi, demak, yaxshi oʻquvchi, past baho olsa – yomon oʻquvchi. Masalan, maktabda yomon oʻzlashtirgan oʻquvchining ota-onasi chaqirtiriladi, gʻazablangan

oʻqituvchi ularga oʻz farzandlariga yomon qarayotganliklarini, yomon tarbiya berayotganliklarini, ular bilan kam shugʻullanayotganliklarini aytib noliydi. Yana ham achinarlisi oʻqituvchi sinf oldida yuqori ovoz bilan bolani soʻkadi va kamsitadi. Koʻpchilik xatoni eng tajribali oʻqituvchilar ham oʻzlashtirmasligi sababini oʻquvchining dangasaligi, noshudligi, tarbiyasizligi bilan baholashga urinadilar. Oʻqituvchi oʻzlashtirmaslikning haqiqiy sabablari toʻgʻrisida kamdan kam oʻylaydi va tabiiyki, uni bartaraf qilishning oʻziga xos chora-tadbirlarini izlaydi.

7.Maktabga psixologik tayyorgarlikni diagnostika qilish

Maktab ta'limiga tayyorlikni aniqlashdan asosiy maqsad tayyorgarligi yetarli bolalarni ajratib olish emas, balki bilim, malaka va koʻnikmalarini oʻrganish

davomida bolaga individual yondashishni ta'minlash boʻlib, ta'lim jarayonida unga insonparvar munosabatda boʻlishni koʻzlaydi.

Bolaning maktabga psixologik tayyorligini aniqlash tartibi pedagogik va yosh psixologiyasida yetarlicha yaxshi ishlab chiqilgan. Tashxis shartlari tobora maqbul sanaladi, bu bolalarni bogʻchada aprel-may oylarida tekshirish boʻlib, uning natijasida bolaning psixik rivojlanish kartasi tuziladi, u tibbiy karta bilan birga maktab psixologiga beriladi.

Boʻlajak 1-sinf oʻquvchisini bogʻchada tekshirish maqsadga muvofiq, chunki u oʻzi uchun odatiy sharoitda, tekshirish esa guruh bilan yoki yakka tartibdagi mashgʻulotga oʻxshab ketadi. Shunday qilib, bolaning stress holati tugatiladi, yo minimal darajagacha kamaytiriladi. Tekshirishni ikki-uch usulga boʻlish mumkin. Masalan: Kern-Yirasek testini bir necha usulda oʻtkazish mumkin.

Maktabga qabul vaqtidagi tekshirish bolalarni saralash, boshlanish vaqtiga emas, balki ularning sistemali ta'lim psixik rivojlanishi xususiyatlarini oʻrganish maqsadida oʻtkazilar ekan, u boʻlgʻusi oʻquvchilarga individual yondashuv uchun asos boʻlishi mumkin. Uni oʻtkazish paytida ota-onalar ishtirokiga ruxsat beriladi. Topshiriqlarni bajarish tugagach, zarur hollarda tekshiruv natijalari asosida otaonalarga bolani qolgan vaqtda maktabga yanada yaxshiroq tayyorlash borasida tavsiyalar beriladi.

Tekshiruv paytida bolalar bilan erkin doʻstona muloqot oʻrnatish zarur. Barcha topshiriqlar bola tomonidan oʻyin sifatida qabul qilinishi, muhit esa bolaning erkin boʻlishi va oʻzini qulay sezishiga yordamlashishi kerak. Bola xavotirda boʻlib, javob berishga qoʻrqsa, psixolog emotsional quvvatlashni namoyon etishi, xatto bolani quchoqlashi, silab qoʻyishi va u barcha berilgan topshiriqlarni uddalay olishiga ishonch bildirishi lozim. Ta'kidlash joizki, bu kabi taktikani barcha sinalayotgan bolalarga nisbatan qoʻllash tavsiya etiladi, chunki bolalar uchun kattalarning ma'qullashlari juda muhim va ularga oʻzini qulay sezishi uchun imkon beradi.

Bolaning psixik rivojlanishi natijalari psixik rivojlanish kartasiga kiritilishi kerak: birinchi betda bola haqida rasmiy ma'lumotlar: familiyasi, ismi, otasining ismi, tugʻilgan sanasi, oilasi haqida ma'lumot kiritiladi. Keyin «bola bilan ishlash haqida

yigʻma ma'lumotlar» jadval oʻtkazilishga koʻra toʻldiriladi. Yigʻma jadval quyidagi ruknlarga ega:

1. Sana.
2. Tekshirish yoki boshqa ishlarni oʻtkazish sababi.
3. Keyingi ish uchun savollar.

Keyin bola bilan ishlarning muayyan natijalari keltiriladi:
1. Avvalgi bosqichlarda ta'lim, tarbiya, rivojlanishidagi xususiyatlari haqida ma'lumot.
2. Sogʻligʻi haqida ma'lumotlar.
3. Diagnostik ish (qoʻllangan metodlar, natijalar) haqida ma'lumot.
4. Psixokorreksion va rivojlantiruvchi ishlar haqida ma'lumot.
5. Tarbiyachi, ota-onalar bilan hamkorlikdagi ish haqida ma'lumot (suhbatlar yozuvi, ular bolaga bergan tavsifnoma: psixolog tavsiyalari; birgalikda qilingan qarorlar, qaror va tavsiyalarni bajarishning borishi va natijalari tahlili.)
6. Uchinchi tomonlar va instantsiyalar uchun psixolog bola haqida bergan xulosalar nusxasi.
7. Psixologning bola haqida soʻrovlariga mutaxassislardan olingan xulosalar.
8. Qoʻshimcha ma'lumotlar, alohida belgilar.
Kasb etikasi axborotlarning begonalardan holi tutilishini talab etadi. Kartaga faqat psixolog, uning kasbi boʻyicha rahbari haqli. Ma'muriyat, tarbiyachilar kartada mavjud ma'lumotlardan faqat psixolog bilan kelishilgan holda foydalanishi mumkin.
Bolani maktabga qabul qila oladigan psixologik tekshirishning asosiy maqsadi ular bilan maxsus rivojlantiruvchi ish olib borishga muhtoj bolalarni aniqlash. Shu maqsaddan kelib chiqib psixologik kartada bolaning tekshirish davridagi rivojlanishini aks ettirgan barcha ruknlarni (qoʻllanilgan diagnostik metodlar va olingan natijalar bayoni bilan) toʻldirish, bolaning asosiy (aqliy, shaxsiy) muammolarini qayd etish va zarur rivojlantiruvchi ishlar rejasini belgilash zarur.
Bola rivojlanishi ildamlab ketgan holda ham karta toʻldirish haqidagi yuqorida aytilganlar aksincha belgi bilan amal qiladi. Bunda boʻlgʻusi oʻquvchiga (bogʻchada,

uyda, keyinroq maktabda) individual yondoshuvni belgilash lozim, toki oʻrtacha oʻquvchiga moʻljallangan oʻquv dasturi uning rivojlanishi sur'atlarini pasaytirmasin.
Yoshiga nisbatan talablarga psixik rivojlanish darajasi toʻliq mos kelmagan bolalar bilan ishlashning oʻziga xosligi, eng avvalo oʻyin faoliyatidan maqsadli foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi. Yuqorida aytilganidek, oʻyin faoliyati davomida toʻlaqonli oʻyin faoliyatini muvaffaqiyatli egallash uchun zarur omillar shakllanadi. Rivojlantiruvchi ishlar uchun 1-2-3 oyni «bagʻishlashdan» qoʻrqmaslik kerak, uni oʻz vaqtida boshlash va malakali oʻtkazish maktab dezadaptatsiyasi, uning barcha oqibatlarini oldini olish imkonini yaratadi.
Bir qarashda, oʻta sodda mashq va topshiriqlar, xotira, nutq, ixtiyoriy soha va diqqatni rivojlantirishga qaratilib, bola rivojlanishi darajasini dastlabki diagnostikalashda ham qoʻllanishi mumkin.
Mutaxassislar xotiraning bir necha turini − sensor, qisqa muddatli, uzoq muddatli xotirani farqlaydilar. Shuningdek, eslab qolinadigan material xarakteriga koʻra: koʻrish-motor, verbal, mantiqiy xotira farqlanadi. Biroq ularni sof holda ajratish ancha qiyin, zero real voqelikda ular bir butun holda yoki ma'lum birlikda mavjud boʻladi:
A) Koʻrish-motor xotira namuna boʻyicha ishlash uchun zarur (taxtadan kitobdan koʻchirish, xatolar bilan ishlash);
B) Verbal-motor xotira (topshiriqni bajarish tartibi koʻrsatilgan ogʻzaki yoʻriqnoma boʻyicha ishlash: grafik diktant, harf elementlari, geometrik figuralar, naqshlarni aytib turganiga koʻra yozish);

B) Mantiqiy xotira (mazmun guruhlariga birlashtirish mumkin bo‘lgan so‘zlar ketma-ketligini eslab qolish, syujetli hikoyalarda voqealar ketma-ketligini eslab qolish va sh.k).
Bola diagnostik topshiriqlarni bajarganida qandaydir nuqsonlar, chetlanishlar sezilsa, bu uning tegishlicha xotira turi yetarli shakllanmaganidan dalolatdir. Tashxis to‘g‘riligiga ishonch hosil qilish, psixologik metodikalardan mashqlar tanlash va diqqatni shakllanmagan xotira turiga qaratish kerak.
347
Ko‘rish-motor va ko‘rish xotirasi rivojlanishi uchun bolaning namunaga ko‘ra ishlashini tashkil etish zarur, uni bosqichli amalga oshirish lozim: dastlab bola namunaga doimiy tayanib ishlaydi, keyin namunani ko‘rish uchun vaqt, taklif etilgan ish murakkabligiga ko‘ra 15-20 soniyaga qisqartirib boriladi. Bu kabi mashqlarni rasm yopishtirish, sinf taxtasidan ko‘chirish, konstruktor bilan ishlash, kataklar bo‘ylab naqsh chizish kabi faoliyat turlarida qo‘llash maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, bolalar u yoki bu syujetli rasm bo‘yicha hikoya qilishni yaxshi ko‘radilar, uning mazmunini avval o‘rganib, so‘ng xotiraga ko‘ra qayta tiklaydilar.
Xotirani rivojlantirish uchun 8-10 predmet bilan mashqlardan foydalanish mumkin, bola ularni diqqat bilan o‘rganib keyin sanab berishi kerak va sh.k. Bu kabi topshiriqlarni o‘ylab topish oson, buning uchun ko‘rish motor va ko‘rish xotirasini rivojlantirish uchun mashqlar shartlar, materiallar, o‘yin syujetlari variantlanadi.
Verbal-motor xotirani rivojlantirish uchun ko‘rish-motor xotira uchun tavsiya etilgan mashqlarda namuna o‘rniga og‘zaki tavsiya yoki taklif etilgan faoliyat bo‘yicha yo‘riqnomani qo‘llab, foydalanish mumkin.
Mantiqiy xotirani rivojlantirish uchun 10-15 so‘zdan qandaydir predmetlarni turli belgilariga ko‘ra guruhlash (keyin, idish-tovoq, hayvonlar va sh.k)ga oid mashqlardan foydalanish tavsiya etiladi. Qayta tiklash xarakteri bolada umumlashtirish mexanizmlari shakllanganligidan dalolat beradi.
Shakllangan ko‘rgazmali-obrazli tafakkur nima? Ko‘rgazmali-obrazli tafakkur rivojlanishi darajasi yuqori bo‘lgan bola faoliyatning istalgan turini yaxshi bajaradi, ayniqsa, ko‘rgazmali namuna asosida ishlash, predmetlar o‘lchovi va shaklini nisbatlash malakasi talab etiladigan vazifalarni oson bajaradi.
Ko‘rgazmali-obrazli tafakkur uchun, avvalo, tasavvur qilish va keyin konkret predmetli asosda topshiriqni bajara olish xarakterli.
Mantiqiy tafakkur bolada asosiy mantiqiy operatsiyalar: analiz, qiyoslash, tasniflash, umumlashtirish qobiliyati bo‘lishini ko‘zda tutadi.
Ko‘rgazmali-amaliy tafakkurni shakllantirishning eng samarali usuli predmetli faoliyat bo‘lib, konstruksiyalash (loyihalash), shuningdek, syujetli rolli o‘yinlar, mantiqiy topshiriq topishmoqlarini topish, boshqotirma va sh.k. namoyon bo‘ladi.
348
Mantiqiy fikrlash rivojlanishi uchun quyidagi mashqlar yordam beradi:
a) «To‘rtinchisi ortiqcha»: boshqa uchtasi uchun umumiy bo‘lgan ma'lum belgisi bo‘lmagan predmetni topish ko‘zda tutiladi (buning uchun loto kartochkalaridan foydalanish qulay).
b) hikoyaning tushirib qoldirilgan qismini o‘ylab topish. Hikoya o‘ylab topish mantiqiy fikrlash bilan bir qatorda bola nutqi rivojlanishi, uning so‘z boyligi ortishi uchun katta ahamiyat kasb etadi, fantaziya va ko‘z oldiga keltirishni (tasavvurni)

rivojlantiradi.
v) Mantiqiy topshiriqlar va choʻplar, gugurt choʻplari bilan topshiriqlar (ma'lum miqdordagi gugurt choʻpidan figura yasash, boshqa tasvirga ega boʻlish uchun bir yoki bir necha choʻp joyini almashtirish).
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda harakatlar koordinatsiyasi va aniqligi shakllanmaganligi ham tez-tez kuzatiladi, koʻplab bolalar oʻz tanasini boshqara olmaydi. Harakatlar koordinatsiyasi qoʻlning mayda motorikasi shakllanmaganligi bolaning toʻgʻri chiziqni chiza olmasligi, «labirint boʻylab oʻta olmasligi», ozoda qilib qogʻozdan doiracha qirqa bilmasligi, yelimlashni eplay olmasligi va shu kabilarda namoyon boʻladi.
Koʻplab psixologik tadqiqotlar koʻrsatishicha, bu koʻnikmalarning rivojlanganligi va bolaning umumiy psixik rivojlanishi hamda aqliy rivojlanishi oʻrtasida bogʻliqlik mavjud.
Harakatlar koordinatsiyasi va nozik motorika rivojlanmaganligi sabablari quyidagicha boʻlishi mumkin:
- asl grafik koʻnikmalar shakllanmaganligi;
- bolaning umumiy sogʻligʻi holati yomonligi;
- DSP yoki boshqa jarohatlar oqibatlari;
- bolaning namunani, uning ayrim detallarini koʻrish, idrok etishga qodir emasligi;
- koʻrish oʻtkirligining pasayishi.

Tashxisda xulosalarni shoshilib chiqarmaslik uchun avval bolalardan koʻrganini, ichki namunani batafsil tavsiflashni soʻraladi, u bilan tasvir detallari tahlil qilinadi. Tavsiflashda yoʻl qoʻyilgan xatolarga asosiy e'tibor qaratiladi.
Qoʻlning aniq motorikasi rivojlanishi uchun konstruktor, tikish, qirqish (ayniqsa, qaychini qogʻozdan ajratmasdan ohista qirqish), yopishtirish, chizish, mozaika taxlash, applikatsiya kabilardan foydalanish tavsiya qilinadi.
Harakatlar koordinatsiyasi rivojlanishi uchun sport, jismoniy mashqlar, aerobika, raqs bilan shugʻullanish tavsiya qilinadi.
Fonematik eshitishni rivojlantirish bolaning oʻqish va yozishni mukammal egallashi uchun zarur omil boʻlib, umuman savod oʻrgatish uchun zaruriy shartdir. Odatda, diagnostikaning bu funksiyasini logoped bajaradi. Shu sababli bolada bu sohaga oid aniq chetlanishlar koʻzga tashlanganida ota-onalarga logoped mutaxassisga murojaat etish zudlik bilan tavsiya etiladi, toki oʻz vaqtida zarur ishni boshlash imkoni boy berilmasin.
Bolaning maktabga tayyorligining asosiy koʻrsatkichlaridan biri uning ixtiyoriyligi boʻlib, barcha psixik funksiyalar va butun xulq-atvorning toʻlaqonli amalda boʻlishini ta'minlaydi.
Ixtiyoriylik yetarlicha rivojlanmagan bolalar oʻquv jarayoniga sust kirishadi va xatto aqliy rivojlanishi me'yoriy darajada boʻlsa ham «oʻzlashtirmovchilar» guruhiga tushib qolishi mumkin. Shu bois ixtiyoriylik rivojlanishiga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq.
Ixtiyoriylikning rivojlanishi murakkab jarayon, u ongli oʻz-oʻzini boshqarishning yaxlit sistemasi majburiy shakllanishini talab etadi. Bu sistema bajarilayotgan faoliyat maqsadini tutib turish qobiliyatidan iborat ijro harakatlari dasturini tuzadi.

Ixtiyoriylikni rivojlantirish boʻyicha eng samarador faoliyat, avvalo loyihalash boʻlib, uni bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun universal vosita sifatida qarash mumkin. Koʻrgazmali namuna boʻyicha loyihalash − ixtiyoriylikni shakllantirishning birinchi bosqichi. Ixtiyoriy oʻz-oʻzini boshqarishni keyingi takomillashtirish faoliyat

shartlarini maqsadga yoʻnaltirilgan holda murakkablashtirish yoʻli bilan amalga oshiriladi.
Ixtiyoriylikni rivojlantirish maqsadida tanlangan topshiriq va oʻyinlar bolada ixtiyoriy oʻz-oʻzini boshqarish sistemasining barcha boʻgʻinlarini rivojlantirish va takomillashtirishga yordamlashishi kerak.
Loyihalashtirishning keng imkoniyatlari konstruktorlarning murakkablik darajasiga koʻra turli tiplarini bolaning ixtiyoriyligi rivojlanganligining dastlabki darajasiga bogʻliq holda tanlash imkonini beradi. Kubiklar bilan oʻyinlar, turli materiallardan applikatsiyalar yasash yaxshi samara beradi.
Ixtiyoriylikni shakllantirishning birinchi bosqichi namuna asosida ishlashga oʻrgatishdir. Masalan, «namuna asosida oʻyin qurish» topshirigʻini koʻrib oʻtamiz. Qurilish materiali vazifasini kubiklar, konstruktor detallari, applikatsiya fragmentlari oʻtashi mumkin. Ularning soni loyihalash uchun talab etiladigan miqdordan ortiq boʻlishi kerak, toki bola bloklarni toʻgʻri tanlash, ularni shakl va rangiga koʻra nisbatlashga oʻrgansin.
Ishga kirishish oldidan bolaga «qurib bitqazgan» uy namunasini diqqat bilan qurib chiqish tavsiya etiladi.
Bola topshiriqni bajarayotgan vaqtda quyidagi holatlarga e'tibor berish zarur:
1. Bola uyni keltirilgan namunaga qat'iy muvofiqlikda qurishi lozim. Bu bola qoʻyilgan maqsadni aynan shu uyni ya'ni oʻzi oʻylab topgan, yoki tasodifan qurilib qolgan emas, namunadagi uyni qurishi kerak.
2. Topshiriqni qoidaga muvofiqlashtirish uchun bola yigʻishning ma'lum ketmaketligiga amal qilishi, ya'ni ijro harakatlarining aniq dasturi(algoritm)ga ega boʻlishi kerak.
3.Agar bola faoliyat shartlarini: konstruksiya bloklari oʻlchami, shakli va rangini toʻgʻri ajrata olsa, dasturni amalga oshirish mumkin. Demak, bola faoliyatning ahamiyatli shartlarining adekvat modelini shakllantira olsa, dasturni amalga oshira oladi.
4. Agar bola ish jarayonida teskari aloqani amalga oshirmasa, xatolarga yoʻl qoʻygani holda oʻz harakatlarini toʻgʻrilamasashakllangan maqsad shartlar modeli va

ijro harakatlari dasturi mavjudligi toʻgʻri yigʻishga zamin boʻla olmaydi. Buning uchun u ish davomida harakatlari natijasini namuna bilan taqqoslab borishi lozim.
5. Yigʻishni tugatgach, boladan uning natijasi, ya'ni namunaga muvofiqlik aniqligini baholash soʻraladi.
Bola yigʻish bosqichlarida xatolarga yoʻl qoʻygan boʻlsa, u bilan loyihalashtirishda xatolar sabablarini tahlil qilib chiqiladi. Shundan keyin undan zarur oʻzgartirishlarni qilish soʻraladi.
Koʻrgazmali namuna asosida loyihalashtirish ixtiyoriylikni shakllantirishning birinchi bosqichidir. Keyingi bosqichda bolaga shu kabi ishni real sharoitda emas, uy rasmi namunasi asosida bajarishni tavsiya etish mumkin. Bunda tasvirning ikki varianti mavjud;

a) toʻliq − bunda inshootni tashkil etuvchi barcha detallar
sxematik rasmda keltiriladi.
b) kontur tasvir − detallashtirishsiz.
Keyingi topshiriqlar murakkablashtiriladi va ogʻzaki tavsif boʻyicha, keyinroq oʻz gʻoyasi boʻyicha loyihalashtirishni koʻzda tutadi. Soʻnggi holatda bola ish avvalida oʻzi oʻylab qoʻygan qurilish xususiyatlarini batafsil aytib berishi lozim.
Ixtiyoriylikni rivojlantirish boʻyicha keng tarqalgan oʻquv faoliyati sharoitiga maksimal yaqinlashtirilgan mashqlardan biri «grafik diktant» boʻlib, bajarishning ikki sharti: tavsif etilgan namuna asosida va ularning yoʻnalishi koʻrsatilgan holda bajariladigan ishni koʻzda tutadi.
Ixtiyoriylik funksiyasi istalgan produktiv va oʻquv faoliyati turi uchun tayanch funksiya sanaladi, zero u barcha psixik jarayonlar–idrok, xotira, tafakkur, diqqat, hulq-atvor reaksiyalari boshqaruvini ta'minlaydi. Shu bois mashqlarni bajarish oʻquv faoliyatini muvaffaqiyatli egallash asosidir.
Xotira, tafakkur, motorika, ixtiyoriylik rivojlanishidagi birinchi sinfga kelgan va maktab ta'limiga tayyor boʻlmagan bolalar uchun tobora xarakterli boʻlgan tipik nuqsonlarga toʻxtaldik. Biroq bu psixik funksiyalarni ajratish juda shartli ravishda boʻlib, hayotda istalgan faoliyat turini amalga oshirish ularning birgalikdagi oʻzaro bogʻliq ishtirokini talab etadi. Shu bois yuqorida sanab oʻtilgan topshiriqlarning har

biri, aslida, bolaning psixik va aqliy rivojlanishi umumiy darajasi ortishiga koʻmaklashadi.

8.Kichik maktab yoshidagi bolalarning psixik taraqqiyotini diagnostika qilish

Bolalarda maktabga chiqish vaqtida psixologik rivojlanish darajasiga koʻra oʻziga xos xususiyatlar paydo boʻladi. Bu xususiyatlar shundan iboratki, bolalar birbirlaridan
intellektual-axloqiy jihatdan farqlanadilar. Ular bir xil koʻrsatma va psixodiagnostik holatga har xil javob berishlari mumkin. Ba'zi maktabga kelayotgan bolalarga kattalar uchun moʻljallangan psixodiagnostik testlar mos keladi. Ba'zi rivojlanishi past boʻlganlariga bogʻcha yoshidagi bolalar uchun moʻljallangan testlar toʻgʻri keladi. Asosan, oʻz-oʻzini verbal baxolash, tashqi muhitni ongli baholash holatidagi testlarda bu aniq bilinadi. Shuning uchun kichik maktab yoshidagi bolalarda u yoki bu psixodiagnostik testni oʻtkazishdan avval bolaning real psixologik rivojlanishiga mos keluvchi testni tanlab olish kerak. 6-7 yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorgarligiga oid empirik ma'lumotlarga koʻra, 50%dan 80 %gacha bolalar u yoki bu jihatdan boshlangʻich ta'lim dasturini oʻzlashtirishga tayyor emas. Koʻp bolalar maktabga chiqishga tayyor boʻlsalar-da, aqlan 5-6 yosh darajasida rivojlangan boʻladilar. Agar bunday bolaga uning uchun murakkab va qiziqarsiz psixologik testlar berilsa, bu testlar rivojlangan aql, diqqat-e'tibor va xotira talab qilganligi sababli ular testni bajara olmaydilar.
Bu intellektual qobiliyatning yoʻqligi emas, shaxsiy psixologik rivojlanish yetarli boʻlmaganligi sababli sodir boʻladi.
Agar vazifani oʻyin sifatida qiziqarli qilib berilsa, test natijasi yuqori boʻlishi mumkin. Mazkur holatlar bolalar psixodiagnostikasida amaliy psixologlar tomonidan hisobga olinishi kerak.
3-4 sinf oʻquvchilari uchun qiziqarli va kattalarga moʻljallangan testlar toʻgʻri

kelishi ham mumkin. Test oʻtkazishda faollik, ruhiy qiziqish yuqori boʻlsa, natija ham yuqori boʻladi. Agar kattalar test vaqtida ongli ravishda irodasini ishga solib oʻzini boshqara olsalar, kichik yoshdagi maktab bolalari va xatto oʻsmirlar ham buni bajara olmaydilar.

Kattalar uchun moʻljallangan testlarni kichik maktab yoshidagi bolalarga qoʻllashda ma'lum cheklashlar mavjud. Bu cheklanishlar shaxslararo munosabatlar, shaxs va idrokni tahlil qilishga moʻljallangan testlarga tegishlidir. Kattalar uchun qoʻllanilayotgan intellektual (aqliy) testlarning koʻpchiligi soʻz-mantiqiy tafakkurning rivojlanish darajasini aniqlash uchun ishlatiladi. Bu xususiyat kichik yoshdagi maktab oʻquvchilarida taraqqiy etib, oʻsmirlik davriga kelib rivojlanishi tugallanadi. Amaliyot va hayotdagi oʻrniga koʻra kichik yoshdagi maktab oʻquvchilarida koʻrgazmali-harakat va koʻrgazmali-obrazli tafakkur soʻz-mantiqiy tafakkurdan ustun turadi. Bundan tashqari katta odamlar uchun moʻljallangan testlar ularning hayotiy tajribasini hisobga olgan xolda tuziladi.
Shuning uchun bu testlar kichik bolalarda qoʻllanganda jiddiy yondashish va soddalashtirilishi lozim. Ba'zan kichik maktab yoshidagi bolalar uchun yangi variantdagi testlar tuzishga toʻgʻri keladi. Bu holatda yangi muammo tugʻiladi, ya'ni bir psixologik sifatni tuzilishi va ma'nosi har xil testlarning natijasini solishtirish orqali aniqlash lozim boʻladi.
Tavsiya etilayotgan psixodiagnostik metodlar tizimi maktabga kirayotgan kichik yoshli bolalarning va boshlangʻich sinf oʻquvchilarining aqliy jarayonlarini, shaxsiy va shaxslararo munosabatlarini, ulardagi amaliy koʻnikmalarni baholash maqsadida foydalaniladi. Bu tizim asosida bolalarni maktabga psixologik tayyorgarligini, ularning boshlangʻich sinflarda oʻzlashtirish darajasini baholash mumkin. Bunday psixodiagnostik baholash kompleksiga quyidagilar kiradi:
1. Atrof-muhitda umumiy moʻljal olish.
2. Bolalarning maktab ta'limiga munosabati.
3. Diqqat-e'tibor.
4. Xotira.
5. Tafakkur.
6. Nutq.
7. Badiiy-tasviriy qobiliyat.
8. Maktab malakasi va koʻnikmalari.
9. Muvaffaqiyatga erishish motivlari,

10. Shaxs xususiyatlari.
11. Shaxslararo munosabatlar.
Bu toʻplamga kiritilgan metodikalardan foydalanib, bolaning maktabga tayyorligi yoki tayyor emasligini baholash va oʻz rivojlanishidan oldinda borayotganligini aniqlash mumkin. Bu usullar bolaning qobiliyatlarini aniqlash va u bilan maqsadga muvofiq holda mashgʻulot olib borishga yordam beradi. Metodikalar toʻplami maktabdagi ma'lum bir tarbiyaviy ishlarning samaradorligini toʻgʻri baholash imkonini berish bilan birga 6-7 yoshdan 10-11 yoshgacha boʻlgan bolalarni oʻrganishda qoʻllash mumkin boʻlgan usullarni ham oʻz ichiga oladi. Bu usullar yordamida olingan baholar bitta yagona standart tizimga oʻtkaziladi va kichik maktab yoshidagi maktab oʻquvchisining psixologik rivojlanishi individual xaritasiga

yoziladi.
To‘plamga 3 xil tipdagi metodikalar kiritilgan.
1. Bola endi maktabga kirayotganda qo‘llaniladigan uslublar.
2. Maktab ta'limiga tayyorgarligini va ruxiy rivojlanganligini baholovchi testlar.
3. Bolaning ruhiy rivojlanishini aniqlovchi testlar.
Bolalar uchta asosiy sohada − bilish jarayonlari, shaxs xususiyatlari, shaxslararo munosabatlar asosida psixologik jihatdan o‘rganiladi. Agar bolaning ruhiy rivojlanish darajasi baholanishi zarur bo‘lsa, ularning har biri maxsus usullar bilan baholanishi mumkin.
Bu to‘plamdagi metodikalar diqqat, tafakkur, xotira, nutq va idrokning rivojlanish darajasini aniqlaydi. Birinchidan, bola tarbiyasiga ta'sir etuvchi holatlar, ikkinchidan, o‘qitish va tarbiya ta'sirida shakllanadigan xususiyatlar, masalan: diqqate'tibor,
xotira, idrok, tafakkur, nutq, tasavvur, muvaffaqiyat motivasiyasi va shu kabilar. Har bir metodika bitta ko‘rsatkichni baholashga imkon beradi va 5-10 minut vaqt talab qiladi. Har bir bolani har tomonlama tekshirish uchun 3-6 soat vaqt kerak bo‘ladi. Tavsiya etilayotgan uslublar yordamida bolani psixodiagnostika qilish quyidagi vazifalar yechimini beradi:
1. Mazkur bola qanday rivojlanayotganligini aniqlash.
2. Boladagi layoqat va qobiliyatni o‘z vaqtida aniqlash.

3. O‘qishdan ortda qolish yoki noto‘g‘ri tarbiyaning sababini topish.
4.Kelajakda tanlanadigan kasbga tayyorlanish va tanlash uchun bolaga, o‘qituvchiga va ota-onalarga ilmiy asoslangan tavsiyalar berish.
Bu metodikalar yordamida bolani tekshirishda vaqtni tejashning yana bir usuli yakka tartibda emas, balki guruhiy tekshirish olib borishdir. Bu shart-sharoitlar to‘g‘risida har bir uslubdan keyin yozma izohlar beriladi.
Psixodiagnostik tekshirishga kirishishdan oldin quyidagilarni bajarish lozim:
1. Metodika matnini diqqat bilan o‘qib, tanishib chiqish kerak.
2. Izohlar mavjud bo‘lsa, uni o‘qish lozim.
3. Metodikani qo‘llash uchun kerakli narsalarni tayyorlash.
4. Metodika yordamida hech bo‘lmasa 1 ta bolani sinov uchun mukammal tekshirib, natijalarni tahlil qilib ko‘rish lozim.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

1.Maktabga psixologik tayyorgarlik deganda nima tushuniladi?
2.Boshlang‘ich sinfda psixologik xizmat asosiy funksiyalar, faoliyat vazifalari va yo‘nalishlari nimadan iborat?
3.Maktabgacha tarbiya yoshidan kichik maktab yoshiga o‘tishda bola psixik taraqqiyotida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ladi?
4.Kichik maktab yoshidagi psixologik korreksiyaning o‘ziga xos xususiyati nimadan iborat?
5.Bolani maktabga moslashishi qanday omillarga bog‘liq?
6.Maktabda o‘zlashtirmaslikning psixologik sabablarini ko‘rsating.
7.Kichik maktab yoshidagi bolalarning psixik taraqqiyotini diagnostika qilishda qanday metodikalardan foydalaniladi?

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Maktab ta'limiga motivatsion jihatdan tayyor bo‘lmagan bolani maktab avvalo nimasi bilan qiziqtiradi?
A. Yangi narsalarni o‘qib o‘rganib olish imkoniyati bilan.
B.O‘quvchilik asbob-anjomlariga ega bo‘lish imkoniyati bilan.

S. Oʻquvchilarga xos kiyim-bosh kiyish imkoniyati bilan.
*D. b va s javoblar toʻgʻri.
E. Yozishni oʻrganish ishtiyoqi bilan.
356
2.Taxminan necha yoshdan odatda bola muayyan manzilga yetish yoʻlining haritasini bemalol chiza oladi?
A. 6 yosh.
* B.8 yosh.
S.10 yosh.
D.12 yosh.
E. 14 yosh.
3.Kichik maktab yoshidagi bolalarning bilish faoliyatida tafakkurning qaysi turi ustunlik qiladi?
A. Koʻrgazmali-harakat tafakkuri.
*B. Koʻrgazmali-obrazli tafakkur.
S.Soʻz-mantiqiy tafakkur.
D.A va S javoblar toʻgʻri.
E. A va B javoblar toʻgʻri.
4.Quyidagi xususiyatlardan qaysi biri taxminan 6 yoshdan boshlab namoyon boʻladi?
A.Hamdarlik bildira olish.
*B.Muvaffaqiyatga intilish motivi.
S.Ramziy qoʻrquvlar.
D.Shaklning konturini idrok eta olish.
E. Mantiqiy tafakkur.
5.9-10 yoshdan boshlab bolalarning tanqidni avvalgiga nisbatan ogʻirroq qabul qila boshlashiga koʻpincha qanday omil sabab boʻladi?
A.Tanqidning kinoyali tarzda ifodalanishi.
B. Tanqid bir necha kishi tomonidan bir vaqtda ifodalanishi.
*S. Tanqidiy fikr bolaning tengdoshlari guvohligida ifodalanishi.
D. Tanqid bola uchun obroʻli kishi tomonidan ifodalanishi.
E. Tanqidni tez-tez takrorlab turilishi.
6.Kichik maktab yosh davrida biror odamdagi qanday emotsional holatning idrok etilishida adekvatlik ayniqsa yuqori boʻladi?
A. Qoʻrquv.
B. Jahl.
357
S. Quvonch.
*D. A va B javoblar toʻgʻri.
E.Hayratlanish.
7.Turli maxfiy yozuvlar, shifrlar oʻylab topishga, yashirin makonlar, “shtablar” qurishga boʻlgan qiziqish qaysi yosh davrida yaqqol namoyon boʻladi?
A. Maktabgacha yosh davri.
*B. Kichik maktab yoshi.
S.Oʻsmirlik.
D.Oʻspirinlik.
E.Yetuklik.
8.Kichik maktab yosh davrida qanday tana tuzilishiga ega bolalar orasidan koʻpincha doʻstlar kamroq tanlanadi?
*A. Piknik.
B. Atletik.
S. Astenik.
D. Bu yosh davrida doʻstlashishda mazkur omilning ahamiyati koʻzga tashlanmaydi.
E. A va B javoblar toʻgʻri.
9.Kichik maktab yoshida altruizm xususiyatining darajasida avvalgi davrlarga nisbatan

odatda qanday oʻzgarish kuzitiladi?
A. Altruizm darajasi susayadi.
*B. Altruizm darajasi ortadi.
S. Altruizm darajasida oʻzgarish kuzatilmaydi.
D. Altruizm darajasi davr boshida ortib, keyin susayadi.
E. Bu davrda altruizm kuzatilmaydi.
10.Kichik maktab yoshida sinfdan sinfga odatda kuchayib boruvchi bilish ehtiyoji bilan bogʻliq oʻquv motivatsiyasining taxminan nechanchi sinfda biroz pasayishi kuzatiladi?
A. 2-sinfda.
*B. 3-sinfda.
S. 4-sinfda.
D. Bu hodisa dastlab oʻrta maktabga oʻtish davriga toʻgʻri keladi.
E.1-sinfda.
358

20-BOB.
YUQORI SINF OʻSMIRLARIDA KORREKSIYANING OʻZIGA XOSLIGI

Reja:
1.Oʻsmirlik davridagi psixologik inqiroz.
2. Ta’lim motivatsiyasining pasayishi.
3.Oʻsmirlik davridagi qarama-qarshiliklar.
4.Korreksion faoliyatning dolzarb muammolari.

Mavzuning oʻquv maqsadi: talabalarni katta oʻsmirlarda korreksiyaning oʻziga xosligi bilan tanishtirish.

Darsning vazifasi: Talabalarga oʻsmirlik davridagi psixologik inqiroz, ta’lim motivatsiyasining pasayishi, oʻsmirlik davridagi qarama-qarshiliklar haqida ma’lumot berish.

Tayanch tushunchalar: oʻsmirlik davri, psixologik inqiroz, ta’lim motivatsiyasi, xarakter aksentuatsiyasi.

1.Oʻsmirlik davridagi psixologik inqiroz

Oʻsmirlik ontogenetik rivojlanish pogʻonasining bir bosqichi sifatida bologʻatga etish davrining oʻziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, imkoniyatlari, xatti-harakat motivlari ifodalanishi va vujudga kelishining murakkabligi bilan inson kamolotining boshqa yosh davrlaridan keskin farq qiladi. Bu davr taxminan bolalarning 5-8-sinflarida oʻqish paytlariga toʻgʻri keladi va 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha boʻlgan davr oraligʻida kechadi. Ayrim bolalarda bu davr 1-2 yil ertaroq yoki kechroq kuzatilishi ham mumkin.

Oʻsmirlik davri ayrim maxsus psixologik adabiyotlarda «oʻtish davri», «ogʻir davr», «inqiroz davri» kabi nomlar bilan ham ataladi. Bu davrning «ogʻirligi», «keskinligi», «murakkabligi» nimalar bilan asoslanadi?

Oʻsmirlik davrining ogʻir, murakkab davr ekanligi koʻplab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bogʻliq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari: jismoniy, aqliy, ahloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun mohiyati ham oʻzgaradi. Bu davrda oʻsmir hayotida, uning ruhiyati, organizmining fiziologik holatlarida, uning ijtimoiy holatida jiddiy oʻzgarishlar sodir boʻladi. Aksariyat holatlarda ularda bir-biriga qarama-qarshi boʻlgan turli xil an`analar kuzatiladi. Bu
359
davrga kelib bola endi «bola» emas va shu bilan birga hali «katta» ham emas. Uning oʻz-oʻziga va atrofdagilarga nisbatan boʻlgan munosabatlari butunlay boshqacha xarakter kasb etib boradi. Uning qiziqishlari tizimi, ijtimoiy yoʻnalganligi qaytadan shakllanadi, oʻz-oʻzini anglashi, baholashi, qadriyatlari oʻzgaradi. Uning uchun oʻz «men»i va shu «men» ning ahamiyati ortadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, oʻsmirlik qarama-qarshiliklarga boy davrdir. Uni ba'zi olimlar “krizislar, tanazzullar” davri deb ham ataydilar. Sababi, oʻsmir ruhiyatida shunday inqiroziy holatlar koʻp boʻladiki, u bu inqirozni bir tomondan oʻzi hal qilgisi keladi, ikkinchi tomondan, uni hal qilishga imkoniyati, kuchi va aqli etishmaydi. Lekin shularga qaramay, bola oʻzi bilib-bilmay oʻz aqliy salohiyatini oʻstirishga tirishadi, chiroyli fikrlashga tashna boʻladi va bu uning psixik taraqqiyotidagi eng muhim oʻzgarish hisoblanadi.
Demak, oʻsmirlik davri insonni bolalikdan yoshlikka oʻtuvchi va oʻz navbatida boshqa davrlardan oʻzining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi davrdir.

2. Ta’lim motivatsiyasining pasayishi

Oʻsmir shaxsining takomillashuvi va shakllanishiga turtki boʻlgan omillardan biri oʻquv faoliyati motivlaridagi sifat oʻzgarishdir. Kichik maktab yoshidagi boladan farqli, oʻsmir endi faqat bilimlar tizimiga ega boʻlishi, oʻqituvchining maqtovini eshitish va «5» baholarni koʻpaytirish uchun emas, balki tengqurlari orasida ma'lum ijobiy mavqeni egallashi, kelajakda yaxshi odam boʻlishi uchun oʻqish motivlari ustivor boʻla boradi. Lekin I.V.Dubrovinaning bergan ma'lumotlariga koʻra, oʻquv faoliyati motivlari orasida umuman bilish, yangi bilimlarga ega boʻlish motivi kuchsiz boʻlgani sababli, ular maktabga borgisi kelmaydi. Oʻqishga ogʻrinib kelib, salbiy emotsiyalar va xavotirlik hislarini boshdan kechiradilar (oʻrtacha 20% oʻquvchilar). Bu kattalarning oʻsmir bilan ishlashini qiyinlashtiradi.
Oʻsmirlik davrida nutqning rivojlanishi bir tomondan soʻz boyligining oshishi hisobiga boʻlsa, ikkinchi tomondan, tabiat va jamiyatdagi narsa, voqea va hodisalarning mazmun mohiyatini anglashlari hisobiga boʻladi. Bu davrda oʻsmir til yordamida atrof-borliqni aks ettirishi bilan bir qatorda inson dunyoqarashini ham

belgilab berish mumkinligini his qila boshlaydi. Aynan oʻsmirlik davridan boshlab, inson nutq bilish jarayonlarining rivojlanishini belgilab berishini tushuna boshlaydi.Oʻsmirni koʻpincha muomalada soʻzlarni ishlatish qoidalari - "Qanday qilib toʻgʻri yozish kerak?", "Qanday qilib yaxshroq aytish mumkin?" , "Nima deyish kerak?" kabi savollar juda qiziqtiradi. Oʻsmirlar maktabdagi oʻqituvchilar, kattalar, ota-onalar nutqidagi kamchiliklarga, kitob, gazeta, radio va televidenie diktorlari xatolariga tez e'tibor beradilar. Bu holat oʻsmirning bir tomondan oʻz nutqini nazorat etishga oʻrgatsa, ikkinchi tomondan, kattalar ham nutq qoidalarini buzishlari mumkinligini bilishlariga va oʻzida mavjud xatoliklarni birmuncha barham toptirishlariga olib keladi.
Oʻsmir soʻzlarning kelib chiqish tarixiga, ularning aniq mazmuni va mohiyatiga juda qiziqadi. U endi oʻz nutqida yosh bola singari emas, balki katta odamlardek soʻzlarni tanlab ishlatishga harakat qiladi. Nutq madaniyatini egallash borasida oʻsmir uchun oʻqituvchi, albatta, namuna boʻlishi shartdir.
Aynan maktab ta'limi oʻsmir bilish jarayonlarini rivojlanish yoʻnalishini sifat jihatidan oʻzgarishda asosiy omil boʻlib xizmat qiladi. Bilish jarayonlarining rivojlanishida nutq, ogʻzaki, ham yozma mavjud boʻlishi bilan kuchli vosita hisoblanadi. Maktabdagi oʻquv jarayonlarining toʻgʻri tashkil etilishi va amalga oshirilishi bilan oʻsmir nutqining toʻgʻri rivojlanishiga sharoit yaratiladi. Nutqni oʻzlashtirishga harakat bu oʻsmirning muomala, bilish va ijodiy faoliyatga kirilishiga

extiyoj va intilish hisoblanadi.
Oʻsmirning shaxs sifatida taraqqiy etishida ikki holat kuzatiladi: bir tomondan boshqalar tengqurlar bilan yaqinroq aloqada boʻlishga intilish, guruh me'yorlariga boʻysunish, ikkinchi tomondan mustaqillikning oshishi hisobiga bola ichki ruhiy olamida ayrim qiyinchiliklar kuzatiladi. Oʻzgalarni anglash bilan oʻz-oʻzini anglash oʻrtasida qarama-qarshiliklar paydo boʻladi. Koʻpincha oʻsmir oʻz imkoniyatlarini yuqori baholaydi, boshqalar esa uning kuchi, irodasi va salohiyatiga ishonchsizlik bilan qaraydi. Lekin, shunday boʻlsa ham oʻzini nima qilib boʻlsa-da, tengqurlar jamiyati tomonidan tan olinishiga erishishga intiladi va ular bilan muloqot hayotining ma'nosiga aylanib qoladi. Agar oʻsmir shu davrda biror sabab bilan tengqurlari
361
jamiyati tomonidan inkor qilinsa, u bunga juda katta mudhish voqeadek qaraydi, maktabga bormay qoʻyishi, hattoki suitsidal harakatlarni ham sodir etishi mumkin. SHunday qilib, oʻsmirlik davrida oʻquv motivasiyasi birmuncha pasayadi

3.Oʻsmirlik davridagi qarama-qarshiliklar

Oʻsmirlik davriga juda koʻp ziddiyatlar va qarama-qarshiliklar xos. Maktab dasturini oʻzlashtirish va boshqa ishlar bilan bogʻliq turli masalalarni yechishda koʻzga tashlanadigan oʻsmirlarning intellektual rivojlanganligi kattalarni ular bilan birga jiddiy muammolar boʻyicha fikrlashga undaydi, oʻsmirlarning oʻzlari ham bunga harakat qiladilar. Boshqa tomondan esa ayniqsa, kelajak kasb, xulq-atvor etikasi, oʻz majburiyatlariga mas'ullik kabi muammolar muhokamasida infantillik (yosh bolarlarga xos jismoniy va psixologik holat)ni kuzatish mumkin.
5-6 sinf oʻquvchilariga sinfdagi oʻzi egallagan mavqeiga katta e'tibor berish xususiyati xos. Ayniqsa, 6 sinfdan boshlab, oʻquvchilar oʻz tashqi koʻrinishlariga, shuningdek, qarama-qarshi jinsdagi bolalar va ular bilan oʻzaro munosabatlariga e'tibor bera boshlaydilar.7-sinf oʻquvchilarida esa oʻz layoqatlarini rivojlantirishga xos qiziqish yuzaga keladi.
8-sinf oʻquvchilari esa mustaqilik, oʻziga xoslik, doʻstlik va oʻrtoqlik bilan bogʻliq boʻladigan shaxsiy xislatlarni yuqori baholashadi. Oʻsmirlarning ana shu ketma-ket yuzaga keladigan qiziqishlariga asoslangan holda faol ravishda irodaviy ishbilarmonlik va boshqa foydali sifatlarni rivojlantirish mumkin.
Oʻsmirlik davrida oʻquv fanlarini turli oʻqituvchilar oʻqitishlari bilan kattalar shaxsi va faoliyatni baholashning yangi mezonlari ham shakllana boshlaydi.
Oʻsmirlik asosan, bilimli, talabchan, haqqoniy, oʻquv materialini qiziqarli va tushunarli yoʻl bilan yetkaza oladigan, oʻquvchilarni ajratmaydigan oʻqituvchilarni koʻproq hurmat qiladilar va yaxshi koʻradilar. Ular oʻqituvchi bilan munosabatlariga ham katta e'tibor beradilar.
10-15 yoshli bolalarning faoliyat motivlarida ham oʻzgarishlar amalga oshadi.
Ilk oʻsmirlik davrida koʻpchilik oʻsmirlar oʻzlariga salbiy shaxsiy xarakteristika beradilar. Katta boʻlgan sari oʻsmirning oʻz-oʻziga bergan bahosi differensial xarakter
362
(xulq-atvoriga, ijtimoiy vaziyatlarda oʻzini tutishga va ayrim xatti-xarakatlari)da namoyon boʻla boshlaydi.

4.Korreksion faoliyatning dolzarb muammolari

Oʻsmirlar bilan trening mashgʻulotlarini tashkil qilish bir qator qoidalarga binoan amalga oshiriladi. Xususan, bugungi kunda oʻsmirlar bilan tashkil qilinadigan trening mashgʻulotlari quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Guruhiy treningga umumiy va maxsus bilimlarni hamda kasbiy qobiliyatlarni shakllantiruvchi vosita, psixoterapevtik usullar yordamida shaxsning shakllanishi va yuksalishi uchun sharoit yaratib beruvchi omil sifatida qaraladi. Oʻsmir shaxsining yuksalishi uchun oʻtkaziladigan treninglar ta'limiy va terapevtik maqsadlarda qoʻllaniladigan trening mashgʻulotlarining koʻpgina elementlarini oʻzida mujassamlashtirgani bilan ular toifasiga kirmaydi. Oʻsmir shaxsining yuksalishi uchun qoʻllaniladigan treninglarda “nima boʻlishidan qat'iy nazar shakllantirish” maqsadiga erishish uchun qat'iy talabdan voz kechilishi mumkin. Treningni oʻsmirlar bilan olib boriluvchi umumiy shakllantiruvchi va profilaktik faoliyatning bir shakli sifatida ham tushunish mumkin.

Oʻsmirlar bilan olib boriladigan treninglar turli muammo va davrlarga yoʻnalganligi bilan ajralib turadi.Oʻsmir shaxsi yuksalishi uchun olib boriladigan guruhiy treninglarning maxsus yosh davrlariga yoʻnalganligi ularning tub mohiyati bilan chambarchas bogʻliqdir.Shaxsni barkamollashtiruvchi treninglarda turli yoshdagi oʻsmirlarning bir guruhda boʻlishi muhim ahamiyat kasb etadi.Sun'iy ravishda tashkil qilingan yoki trenerning nazorati ostida tabiiy yuzaga keltirilgan vaziyatlar oʻsmir shaxsini barkamollashtiruvchi treninglarning negizi va ajralmas qismi boʻlib xizmat qiladi.

Oʻsmirning shaxs sifatidagi yuksalishi guruh bilan trening boshqaruvchisining munosabatlaridagi demokratizm darajasiga bogʻliq boʻladi. Munosabatlardagi demokratizmni ifodalovchi belgilar quyidagilardir:

363

Oʻsmirlarda oʻzini oʻzi nazorat qilishga qaratilgan treninglar ta'sir etiladigan doirasiga koʻra 6-10ta mashgʻulotdan iborat boʻlib, ularning har biri 2-3 soat davom etadi. Aksariyat hollarda mashgʻulotlar haftasiga bir marotaba tashkil qilinadi, ammo haftasiga 2-3ta mashgʻulot uyushtirilgan holatlar ham boʻladi. Agar mashgʻulotlar har kuni yoki 2-3 haftada bir marta boʻlsa, trening samarasiz natijaga olib kelishi mumkin. Bir kunda 2ta yoki 3ta guruhda trening mashgʻulotini olib borish ham maqsadga muvofiq emas, chunki bu trenerda emotsional zoʻriqishni keltirib chiqaradi.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

1.Oʻsmirlik davridagi psixologik inqiroz deganda nima tushuniladi?

2. Ta’lim motivatsiyasining pasayishi qanday omillar bilan bogʻliq?

3.Oʻsmirlik davridagi qarama-qarshiliklar nimalarda ifodalanadi?

4.Oʻsmirlar bilan olib boriladigan korreksion faoliyat qanday tashkil etiladi?

Mavzu yuzasidan test savollari:

1.Oʻsmirlik davrida yetakchi faoliyat sifatida gavdalanadigan faoliyat turi qaysi?

A. Bevosita emotsional muloqot.

B.Predmetli-manipulyativ faoliyat.

S. Oʻquv faoliyati.

D. Mehnat.

364

*E. Intim-shaxsiy muloqot.

2.Oʻsmirlik davrida shaxs rivojlanishida quyidagi jarayonlardan qaysi biri yoki qaysilari ustunlik qilishi kuzatiladi?

A. Adaptasiya.

*B.Individualizasiya.

S. Integratsiya.

D. A va B javoblar toʻgʻri.

E. A va S javoblar toʻgʻri.
3.Pubertat davri qaysi yosh davriga toʻgʻri keladi va bu davr qanday hodisa bilan tavsiflanadi?
A. Kichik maktab yoshi, oʻquv faoliyatida baho olish motivining ustunligi.
*B.Oʻsmirlik davri, jinsiy yetilishning roʻy berishi.
S. Oʻsmirlik davri, mustaqillikka intilishning kuchayishi.
D. Ilk oʻspirinlik, kasb tanlash muammosining hal qiluvchi bosqichga yetishi.
E. Ilk bolalik davri, predmetli manipulyativ faoliyatning roʻy berishi.
4.L.S.Vigotskiy oʻsmirning hayolini nimaga oʻxshatgan edi?
A. Chaqaloqning kattalar bilan muloqotiga.
*B.Maktabgacha yoshdagi bolaning oʻyiniga.
S. Kichik maktab yoshidagi bolaning tasavvurlariga.
D. Kattalarning mehnat faoliyatiga.
E. Barcha javob toʻgʻri.
5.Nutqning rivojlanishida quyidagi xususiyatlardan qaysi biri oʻsmirlik davri uchun xos?
A. Ona tili fonetikasining toʻliq oʻzlashtirilishi.
B.Yozma nutq malakalari shakllanishi.
S. Noverbal muloqot koʻnikmalari paydo boʻlishi.
*D. Yoddan ifodali oʻqish qobiliyatining rivojlanishi.
E. Barcha javob toʻgʻri.
6.Oʻsmirlarda xarakter aksentuatsiyalarining namoyon boʻlishi muammosi quyidagi olimlarning qaysi biri tomonidan chuqur oʻrganilgan?
*A. A.E.Lichko.
B. D.B.Elkonin.
365
S. L.I.Bojovich.
D. M.I.Lisina.
E. I.V.Dubrovina.
7.Komformlik sifati yuqori boʻlgan oʻsmirlar jinoiy ishga qoʻl urishiga odatda nima sabab boʻladi?
A. Oʻzini ajratib koʻrsatish istagi.
B.Tengdoshlar orasida shaxsiy mavqeni oshirish extiyoji.
*S. Tengdoshlardan ortda qolmaslik istagi.
D. Oʻziga nisbatan oʻzining hurmatini oshirish ehtiyoji.
E. Katta boʻlganini namoyon etish istagi.
8.Oʻsmir shaxsida quyidagi ehtiyojlarning qaysi biri ayniqsa yaqqol namoyon boʻladi?
A. Kattalar bilan muloqotda boʻlishga nisbatan ehtiyoj.
B.Boshqalarning muayyan voqea-hodisalar haqidagi fikrini bilishga boʻlgan ehtiyoj.
S. Oʻquv faoliyatida muvaffaqiyatga erishish ehtiyoji.
*D. Kattalardan avtonomiyaga erishishga boʻlgan ehtiyoj.
E. Barcha javob toʻgʻri.
9.Mazmunsiz muloqotga yoʻnalganlik darajasi yuqori boʻlgan oʻsmirlarning oʻziga-oʻzi beradigan bahosi odatda qanday boʻladi?
A. Noadekvat past.
*B.Noadekvat yuqori.
S. Adekvat.
D. Ushbu alomat oʻsmirning oʻziga baho berish tizimi bilan bogʻliq emas.
E. Kompensatsiyalangan past.
10.Oʻsmirda noadekvatlik affekti mavjudligi nimada namoyon boʻladi?
A. Birovning shaxsiga noadekvat baho berishda.
B.Birovga notoʻgʻri maslahat berishda.
*S. Shaxsiy muvaffaqiyatsizlikni noadekvat qarshi olishda.
D. Shaxsiy imkoniyatlardan yetarlicha foydalana olmaslikda.
E. Barcha javob toʻgʻri.

366

21-BOB. BILISH JARAYONLARI KORREKSIYASI VA TARAQQIYOTI

Reja:

1.Bilish jarayonlari klassifikatsiyasi.Bilish jarayonlarini korreksiyalash va rivojlantirish tamoyillari.
2.Kichik maktab yoshidagi diqqatni rivojlantirish.
3.Xotiraning rivojlanishi.
4.Tafakkur rivojlanishi.
5.Xayolning rivojlanishi.
6. Nutqning rivojlanishi

Mavzuning oʻquv maqsadi: talabalarni bilish jarayonlarini korreksiyalash va rivojlantirish tamoyillari bilan tanishtirish.

Darsning vazifasi: Talabalarga turli yosh davrida bilish jarayonlari korreksiyasi va rivojlantirish usullari haqida ma’lumot berish.

Tayanch tushunchalar: bilish jarayonlari, diqqat, xotira, tafakkur, xayol, nutq.

1.Bilish jarayonlari klassifikatsiyasi. Bilish jarayonlarini korreksiyalash va rivojlantirish tamoyillari

Odatda inson ongi uni qurshab turgan tevarak-atrof haqidagi bilimlar majmuasidan iborat boʻlib, uning tuzilishi tarkibiga shunday bilish jarayonlari kiradiki, ularning bevosita yordami bilan shaxs oʻz axborotlari koʻlamini uzliksiz ravishda boyitib boradi.Insondagi bilimlar sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol singari bilish jarayonlari yordamida asta-sekin anglashinish darajasiga koʻtariladi, keyinchalik esa muayyan turkumlarning tarkibiga kiradi.

Bilish jarayonlarini korreksiyalash va rivojlantirish tamoyillari quyidagilardan iborat:

367

1. Faollik tamoyili.Bu tamoyil koʻproq eksperimental psixologiya asosida quyidagi gʻoyaga boʻysunadi: Inson eshitganlarining 10% ini, koʻrganlarining 50% ini, aytib berganlarining 70% ini va nihoyat oʻzi qilganlarining 90% ini oʻzlashtiradi.
2. Ijodiylik tamoyili.Bu tamoyilning asosiy mohiyati shundan iboratki, trening davomida ishtirokchilar guruhi psixologiyada aniq boʻlgan, kashf etib ulgurilgan gʻoyalar, qonuniyatlarni topadilar, kashf qiladilar, eng asosiysi esa oʻzlarining shaxsiy resurslarini, imkoniyat va sifatlarini anglab yetadilar.
3. Xulq-atvor ob'ektivlashishi (anglab yetilishi) tamoyili.Mashqlar davomida ishtirokchilar xulq-atvori impulsivlikdan ob'ektivlik darajasiga oʻtadi va trening davomida oʻzgarishlar kiritish imkonini beradi. Xulq-atvor obektivligining universal vositasi sifatida aks aloqa hisoblanadi. Guruhdagi aks aloqani yuzaga kelishini ta'minlash trenerning mas'uliyatidir.
4. Sheriklik (Sub'ekt-sub'ektlik) muloqoti tamoyili.Sheriklik, yoki sub'ektsub' ektlik muloqoti boshqalar manfaati, ular hissiyotlari, his-tuygʻulari, qaygʻulari, boshqa insonning shaxsiy qadr qimmati deb tan olinadi. Buning qoʻllanilishi guruhda ishonch, ochiqlik iqlimini yaratadi.

Yuqoridagi tamoyillardan tashqari, treningning samarali boʻlishi ma'lum bir jihatdan trenerning spetsifik printsiplariga ham bogʻliqdir.

Trener har doim trening oʻtkazishga kirishishdan avval oʻziga:

Men qanday maqsadga erishmoqchiman?

Men nima uchun shu maqsadga erishmoqchiman?

368

Men qanday vositalar bilan unga erishmoqchiman? kabi savollarini berishi lozim.

Bu savollarga javobni trenerga guruh bilan ishlash davomida diagnostik tadqiqotlar ochib beradi.

2.Kichik maktab yoshida diqqatni rivojlantirish

Diqqatda shaxsning faoliyati va uning ob'ektiv voqelikdagi predmet va hodisalarga tanlab munosabatda boʻlishi oʻz aksini topadi. Unda inson psixikasining boshqaruvchanlik roli namoyon boʻladi: Diqqatsiz maqsadga muvofiq ish yuritish mumkin emas. Har qanday masalani yoki har qanday hayotiy muammoni yechish kishidan mazkur masalaning mohiyatiga, harakat uslubiga diqqatni toʻplash va qaratishni talab qiladi. Inson psixik faoliyatida diqqat alohida oʻrinni egallaydi. Diqqat oʻzi mustaqil psixik jarayon boʻlmasada, inson psixik faoliyatining barcha sohalarida ishtirok etadi. Diqqat ongning zarur ob'ektga yoʻnaltirilishi va qaratilishida, ayni paytda boshqa narsalarga chalgʻimaslikda ifodalanadi. Diqqat bir qancha xususiyatlarga ega, bular – diqqatning hajmi yoki koʻlami, diqqatning taqsimlanishi, toʻplanishi, barqarorligi va uning bir ob'ektdan boshqa ob'ektga yoki bir faoliyatdan boshqa faoliyatga oʻtkazilishidir. Diqqatning xususiyatlarini oʻrganish va rivojlantirish uchun bir qancha eksperimental metodlardan foydalaniladi. Quyida diqqatni rivojlantirish usullari bilan tanishamiz.

1-mashq. «Kim chaqqon?»

1. Oʻquvchilarga soʻzlarda koʻp uchraydigan bir xil unli harflarni oʻrganish buyuriladi. Bunda xatolari, qoldirilgan harflar hisoblanadi. Shu bilan birga ular ragʻbatlantiriladi.

2. Diqqatni koʻchirish qobiliyatini rivojlantirish uchun soʻzdagi unli harflarning birini gorizontal, ikkinchisini vertikal holda koʻchirish buyuriladi. Astasekin mashqlar murakkablashadi. Maqsad – mashqlarni avtomat tarzda bajarish, berilgan vaqt 15 minutdan 30 minutgachadir.

2-mashq. «Kuzatuvchanlik»

Bunda bolaga uydan maktabgacha boʻlgan yoʻlni batafsil aytib berish soʻraladi. Oʻsmirlar esa yozib berishadi. Bunda koʻrish qobiliyati va diqqati rivojlanadi.

3-mashq. «Korrektura»

Boshlovchi qogʻozga gaplarning joyini oʻzgartirib yozadi. Oʻquvchi esa bir marta oʻqiydi va xatolarni qizil qalamda toʻgʻirlaydi. Soʻng keyingi oʻquvchiga beriladi. U ham xatolarni toʻgʻirlaydi. Ular oʻzaro taqqoslanadi.

4-mashq. «Barmoqlar»

Oʻquvchilar doira shaklidagi stullarga qulay oʻtiradilar.Ular qoʻllarini, barmoqlarini «zanjir» tarzida ushlaydilar. Bosh barmoq «boʻsh» qoladi. Asta-sekin bosh barmoq aylana boshlaydi. «Toʻxtang» komandasi bilan toʻxtaladi. Bu mashq 5-15 daqiqa davom etadi. Undan keyingi qiyinchiliklar boladagi kamchiliklarni koʻrsatadi.

5-mashq.«Pashsha»

Doska olinib, 9 ta katak chiziladi va plastilin yopishtiriladi. Plastilin pashsha rolini oʻynaydi. Pashsha oʻngga-chapga, tepaga-pastga buyruqlari bilan yuradi. Oʻquvchilar uni doskadan tashqariga chiqarmasliklari kerak. Bu oʻyin orqali bolalarda ixtiyoriy diqqat rivojlantiriladi.

6-mashq. «Selektor»

Mashqda bir bola tanlanadi. Unga galma-galdan sonlar aytiladi.U bu sonlarni qaytarishi kerak. Hammasini qaytarib boʻlgach, gal ishtirokchiga oʻtadi. Shu tarzda

oʻquvchilar ishtirok etadi.
7-mashq. «Oʻta diqqatlilik»
Ishtirokchilar 2 xilga ajratiladi: «Xalaqit beruvchilar va diqqatlilar».
«Diqqatlilarga turli xil narsalar beriladi va kimnidir oʻxshatib berish soʻraladi».
«Xalaqit beruvchilar esa ularning diqqatini boshqa narsalarga chalgiʻtishi kerak».

3.Xotirani rivojlanishi

Xotira insonning bilish jarayonlaridan biridir. Alohida psixik jarayon bilish bilan bir qatorda xotira boshqa barcha psixik jarayonlar uchun ham zarur hisoblanadi. Xotira inson xayotida juda katta oʻrin egallaydi. Chunki xotirasiz inson hech qanday

oʻtmish tajribaga ega boʻla olmaydi. Bilimlarni oʻzlashtira olmaydi. Xotirada bir necha jarayonlar farqlanadi. Bular: esda olib qolish, esda saqlash, qayta esga tushirish va unitish. Bu jarayonlar bir-biri bilan uzviy bogʻlangan boʻlib, esda saqlash qanday qilib esda olib qolganligida, tez va puxta esga tushirish qanchalik xotiraga mustahkam saqlanishiga bogʻliq boʻladi. Insonning oʻz oldiga qoʻyadigan maqsadiga qarab, ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira farqlanadi. Esda saqlash muddatiga koʻra xotiraning uzoq muddatli, qisqa muddatli va operativ xotira turlari mavjud. Bulardan tashqari yana harakat xotirasi, soʻz mantiq xotirasi,obrazli xotira va emotsional xotira turlarini ajratib koʻrsatish mumkin. Xotira tomonlari uning oʻziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun bir qancha metodikalar ishlab chiqilgan. Shulardan ba'zilari bilan tanishib chiqamiz. Meyli testi yordamida koʻrish va eshitish xotirasini oʻrganamiz.
R.Meyli testi 1961 yilda ishlab chiqilgan boʻlib, koʻrish va eshitish xotirasini oʻrganishda foydalaniladi. Tadqiqot 2 bosqichda oʻtkaziladi.
1-bosqichda rasmda tasvirlangan predmetlarni xotirada olib qolish va koʻrish xotirasi oʻrganiladi.
2-bosqichda tadqiqotchi oʻqib bergan soʻzlarni, predmetlarning nomlarini eshitib esda olib qolish qobiliyati oʻrganiladi.
Quyida xotirani rivojlantirish usullarini keltirib oʻtamiz.
1-mashq. «Qiyinini eslab qol»
Oʻqituvchi qiyin soʻzlar yozilgan kartonni bolalarga koʻrsatadi. Soʻng diktant tarzida yozdiradi. Hamma soʻzlarni xatosiz yozgan oʻquvchi yutadi.
2-mashq. «Adashib qolgan hikoyachi»
Doira shaklida oʻtiriladi. Boshlovchi mavzu tanlaydi. Ketma-ket shu mavzu davom etib ketadi. Bunda mavzular turli xil boʻlishi mumkin. Hikoyani davom ettirish duch kelgan oʻquvchiga berilishi mumkin. Shuning uchun ham uni diqqat bilan tinglash kerak. U ham hikoyaning mazmunini oʻzgartirib yuborishi kerak.
3-mashq.« Assotsiatsiya»

Ishtirokchilar doira tarzida oʻtiradilar. Boshlovchi duch kelgan ikkita soʻzni aytadi. Bir oʻquvchi shu ikki soʻzni boshlash uchun misollar keltiradi, hamma galmagaldan soʻzlarni bogʻlab chiqadi. Boshlovchi xohlagan odamdan soʻrashi mumkin.
4-mashq. «Domino»
Buning uchun otkritkalar, rasmchalar yoki kesilgan kartochkalar kerak boʻladi. Ishtirokchilar stol atrofida oʻtiradilar. Ularga kartochkalar rasmi koʻrsatilmasdan tarqatiladi. 1-ishtirokchi rasmni ochadi va uni ta'riflaydi. U rasmga suyangan holda ertak, hikoya, latifa sifatida gapiradi. Keyingi ishtirokchi ham rasm ochadi va

hikoyani davom ettirgan holda oʻzinikini boshlab ketadi. Oʻyin aylana tarzida oʻtadi. Oʻyin soʻnggida boshlovchi xohlagan rasmni olib voqeani qayta soʻrashi mumkin.
5-mashq. «Taxistoskop»
Ishtirokchilar aylana bolib oʻtiradilar. Birinchi aylana markazida oʻquvchi turadi, chiroq oʻchiriladi. Ular biror bir shaklga kirib oladilar. Chiroq ozgina vaqtdan keyin oʻchiriladi. Ishtirokchilar joylarida oʻtiradilar. Qolganlar esa ularni batafsil ochib berishga harakat qiladilar. Qanchalik toʻgʻriligini bilish uchun oʻquvchilar yana markazga kelib koʻrsatib beradilar va gumonlar bartaraf etiladi.
6-mashq. «Razvedkachi»
Ishtirokchilardan biri tanlanadi. Boshlovchi «qoting» deb buyuradi va hamma joyida qotadi. Hamma qotgan holatini eslab qolishga harakat qiladi. «Razvedkachi» esa hammani eslab qoladi. Shundan soʻng u tashqariga chiqadi va qolganlar oʻz turishlarini oʻzgartiradilar. Razvedkachi esa oʻzgarishlarni topa olishi kerak.

4.Tafakkur rivojlanishi

Inson bilish faoliyati tarkibiga aks ettira olish shakli boʻlgan tafakkur jarayoni ham kiradi. Ma'lumki, voqelikni bilishning ikki yoʻli mavjud boʻlib, ular bevosita va bavosita bilish yoʻllaridir. Tafakkur – tashqi dunyoni bavosita va umumlashgan holda aks ettirish jarayoni. Insonning aqliy faoliyati bilishga va tajribaga, ijodiy tafakkurga asoslanadi.Ya'ni bu holda tashqi dunyoni analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, mavhumlashtirish usullari orqali bilib olinadi. Yangilikni yaratish insonda ilgari idrok etilgan predmet va hodisalalar haqida tasavvursiz amalga

oshmaydi. Aqliy faoliyat xususiyatlari boshqa oliy psixik funksiyalar – xotira, iroda, hissiyotning hamda shaxsning individual psixologik xususiyatlari,qiziqishlar, ehtiyojlar, bilimlar, koʻnikmalar,odatlar bilan uzviy bogʻlangan.
Insonlarning tafakkur jarayonlarini korreksiyalash va rivojlantirishda quyidagi mashqlardan foydalanish mumkin. Albatta bu jarayonda yosh xususiyatlarini ham inobatga olish lozim.
1-mashq. Quyidagi predmetlarga oʻz vazifasiga koʻra oʻxshash predmetlarni toping.
A. Zambil - ...
B. Igna ...
C. Velosiped
D. Fotoapparat
E. Arqon
2-mashq: Quyidagi soʻzlarni maʼnosiga koʻra oʻzaro bogʻlaydigan predmetlarni toping.
A. Choʻmich_____Ovqat
B. Baho _____Oʻquvchi
S. Oʻt _____It
D. Bulut_____Yer
E. Bolta _____Mikroskop
3-mashq. Quyidagi predmetlarni asosiy vazifasidan tashqari yana qanday maqsadda ishlatish mumkin?
A. Kitob.
B. Dastroʻmol.
S. Shvabra.

4-mashq: Quyidagi fikrlarni boshqa soʻzlar bilan ifodalab koʻring.
A. Bugun kun isib ketdi .
B. Ruchkam yozmayapti-yu!
S. Bolam, sessiyang qachondan boshlanadi?
373
5-mashq: Quyidagi voqea-hodisalarning sabablarini qidirib koʻring.
A. Ariqdagi suv toshib ketdi. Sabablar:_____
B. Trolleybus toʻxtadi. Sabablar:_____
C. Oyna sindi.Sabablar: _____
6-mashq: Tushunchalarni shunday ketma-ketlikda joylashtirish kerakki, bunda umumiylikdan xususiylikka borilsin.
1.Ibodatxona, qadimgi Xitoy ibodatxonasi, bino, osmon ibodatxonasi,diniy bino.
2. San'at asarining muallifi, Mikelandjelo, haykaltarosh, odam, oʻrta asr xaykaltaroshi.
3.Suv qushi, yovvoyi oʻrdak, oʻrdak, qush, umurqali hayvon.
4.Tabiat hodisasi,Yaponiyadagi zilzila,tabiiy ofat, Zilzila,Tokiodagi zilzila.
5.Qishgi bosh kiyim, telpak, bosh kiyim, qora telpak, kiyim.
6.Ommaviy axborot vositasi, axborot uzatish vositasi, radio, vosita, “Grand” radiosi.
7.Bahoriy gul, oʻsimlik, oq gul, sovgʻa qilingan gul, gul.
8.Shahar transporti, yoʻlovchi tashish vositasi, avtobus, "Mersedes" avtobus, tez yurar "Mersedes" avtobus.
9.Kimyoziy modda, "Aspirin", dori, bosh ogʻriq dorisi, Oʻzbekistonda ishlab chiqarilgan dori.
10.Sport anjomi, tʻop, anjom, futbol toʻpi, "Adidas" firmasining futbol toʻpi.

5.Xayolning rivojlanishi

Kishining butun ruhiy hayoti shaxsning bilish faoliyati va emotsional irodaviy holatlari bilan uzviy bogʻliq. Xayol idrok, xotira, tafakkur kabi mantiqiy bilish jarayonlari bilan uzviy bogʻliq holda rivojlanadi. Xayolning mahsuli shundaki, u orqali avvalgi tajribalar qayta ishlanadi. Xayol tafakkur bilan shunday bogʻliq-ki, xayol ham, tafakkur ham muammoli vaziyatlardan kelib chiqadi va shaxs ehtiyojlariga asoslanadi.
374
Bola hayoli uning bilish jarayoniga, emotsional holatiga va ehtihojlariga kuchli taʻsir qiladi. Hayolni psixokorreksiya qilishdan avval bolalarda relaksatsion mashq oʻtkazish lozim.
Quyida hayol jarayononi oʻrganish va rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni keltirib oʻtamiz.
"Nutqiy fantaziya" metodikasi
Bolaga biror jonli mavjudot (odam yoki hayvonlar) haqida (yoki bolaning xohishiga koʻra) hikoya tuzish va uni soʻzlab berish topshirigʻi beriladi. Buning uchun bolaga 5 minut vaqt ajratilib, shundan 1 minuti hikoya yoki ertakni oʻylab olishi uchun beriladi.
Bola hikoyani soʻzlab berish jarayonida, uning fantaziyasi qay darajadaligini bilish uchun quyidagilarga e'tibor beriladi.
1. Xayol jarayonining tezligi.
2. Obrazlarning oʻziga xosligi, originalligi.

3. Fantaziya (tasavvur)ning boyligi.
4. Obrazlarning chuqur ishlanganligi.
5. Obrazlarning hissiy ta'sirchanligi.
"Rasm" metodikasi
Tadqiqotni oʻtkazish uchun qogʻoz va flamasterlar (kamida 6 xil rangda) kerak boʻladi. Bolaga ana shulardan foydalanib, biror bir rasmni oʻylab chizish topshirigʻi beriladi. Buning uchun 5 minut vaqt belgilanadi.
Tadqiqot natijalari tahlili quyidagi jadval yordamida amalga oshiriladi.
№ Bola xayolining baholanayotgan
belgilari
Ushbu belgilarning balldagi bahosi
0 1 2
1 Xayol jarayonining tezligi
2 Obrazning oʻziga xosligi,originalligi
3 Fantaziyaning boyligi.
4 Obrazlarning chuqur ishlanganligi
5 Obrazlarning hissiy ta'sirchanligi
375
Rivojlanish darajasi haqida xulosalar:
 10 ball – juda yuqori;
 8-9 ball – yuqori;
 4-7 ball – oʻrtacha;
 2-3 – quyi;
 0-1 ball – juda past.
Yuqorida keltirilgan metodikalar hayol diagnostikasida foydalanibgina qolmay, ularni korreksion maqsadlarda ham qoʻllash mumkin.
«Tasavvur qilmang» mashqi
Oʻtkazilish tartibi: Ishtirokchilarga hayollariga keltirmasliklari lozim boʻlgan narsalar sanab oʻtiladi.Ularga quyidagicha koʻrsatma beriladi.
Koʻrsatma:Men hozir aytadigan narsani tasavvur qilmang.Aytilgan narsani hayoliga keltirgan ishtirokchi qoʻl koʻtarib bildirishlarini iltimos qilamiz.Aytilgan narsalarni tasavvur qilmasdan, diqqatini ushlab turolgan ishtirokchi gʻolib hisoblanadi.Topshiriq:
-Tasavvur qilmang, qizil shapka kiygan choʻloq maymunni.
-Tasavvur qilmang, yam-yashil katta eman daraxtini.
-Tasavvur qilmang, tomi qizil ikki derazali uyni.
-Tasavvur qilmang, mazali muzqaymoqni.
Oʻyin muhokamasi: Ishtirokchilar bilan oʻyin vaqtidagi holatlar muhokama qilinadi.
«Yil fasllari» mashqi
Mashqning borishi: Olib boruvchi tomonidan yil fasllari aks ettirilgan rasmlar koʻrsatiladi. Har bir fasllar bolalar bilan tahlil qilinib, har bir fasldagi vaziyatni his qilish soʻraladi. Masalan, qishdagi sovuqni, qorboʻron oʻynayotganini, bahorda ochilgan gullarni hidlayotganini, yozda isib ketayotganini, choʻmilayotganini, kuzda toʻkilgan barglar ustidan yurayotganini koʻrsatib berish taklif etiladi.
“Ayyor shakllar” mashqi
Bolaga beshta toʻrt tarafga qaratilgan shakllar berilib, shularni davom ettirgan

holda rasm chizib berish soʻraladi.
376
6. Nutqning rivojlanishi
Bogʻcha yoshi davrida bolaning nutqi ham miqdor, ham sifat jihatidan ancha takomillashadi. Bogʻcha yoshidagi bolalar nutqining oʻsishi oilaning madaniy saviyasiga ham koʻp jihatdan bogʻliq.
Kattalar bolalar nutqini oʻstirish bilan shugʻullanar ekanlar, bogʻcha yoshidagi bolalarning ba'zi hollarda oʻz nutq sifatlarini toʻla idrok eta olmasliklarini unutmasliklari kerak. Bundan tashqari, bolalarda murakkab nutq tovushlarini birbiridan farq qilish qobiliyati ham hali toʻla takomillashmagan boʻladi. Tili chuchuklikni tuzatishning eng muhim shartlaridan biri, bola bilan toʻla va toʻgʻri talaffuz etib, ravon til bilan gaplashishdir.
Maktabga kelish arafasida bolaning soʻz boyligi oʻz fikrini bayon eta oladigan darajada ortadi. 6-7 yoshli bola oʻz jumlalarini murakkab grammatik tizimda tuza oladi. Bola butun bolalik davrida nutqni jadal ravishda egallab borib, nutqni oʻzlashtirishi ma'lum bir faoliyatga aylana boradi. Bu davrda bolaning yozma nutqi ham shakllana boshlaydi. Yozma nutq jumlalarni toʻgʻri tuzish va soʻzlarni toʻgʻri yozishga ma'lum talablar qoʻyilganligi bilan xarakterlanadi. Bola soʻzlarni qanday eshitgan boʻlsa, shundayligicha yozilmasligini bilishi, ularni toʻgʻri talaffuz etishga va yozishga oʻrganishi zarur. Yozma nutqni egallash asosida bolalarda turli matnlar haqida ma'lumotlar yuzaga keladi. Bu davrda yozma nutq endigina shakllana boshlaganligi bois, bolada oʻzi yozgan fikrlarni, soʻz va harflarni nazorat etish malakasi hali rivojlanmagan boʻladi. Lekin unga ijod qilish imkoniyati beriladi. Ushbu mustaqil ijodiy ish maktab yoshidagi oʻquvchilarda berilgan mavzuni anglash, uning mazmunini aniqlash, fikrini bayon etish uchun ma'lumot toʻplash, muhim jihatlarini ajratib olish, reja tuzish, uni ma'lum ketma-ketlikda bayon etish malakasini yuzaga keltiradi. Jumlalarni toʻgʻri tuzish, aynan shu mazmunga mos soʻzlarni topish va ularni toʻgʻri yozish, tinish belgilarini toʻgʻri qoʻyish, oʻz xatolarini topa olish va toʻgʻrilash aqliy rivojlanishning koʻrsatkichlaridan hisoblanadi.
377
Bolada nutqni rivojlantirish va muloqotchanlik koʻnikmalarini shakllantirish maqsadida quyidagi mashqlardan foydalanish mumkin:
“Tanlov” mashqi
Bolalar bilan oʻzi chizgan rasmlarining tanlovi oʻtkaziladi. Rasmlar qator terib chiqilib, bolaga shunday talab qoʻyiladi: “Sen oʻrtogʻingning rasmini shunday maqtaginki, toki boshqalar shu rasmni eng zoʻr rasm deb hisoblasinlar” .
“Gapni tugat” mashqi
Doira boʻlib oʻtirilib, birinchi bola oʻziga yoqadigan narsani aytadi. Keyingi bola esa “Demak, sen buni yoqtirar ekansan-da” deb sherigining yoqtirganini aytib, soʻng oʻzinikini aytadi.
Takrorlash va muhokama uchun savollar:
1.Bilish jarayonlarini korreksiyalash va rivojlantirish tamoyillari nimalardan iborat?
2.Kichik maktab yoshida diqqatni rivojlantirishning oʻziga xos jihatlari nimadan iborat?
3. Bolada xotirani rivojlantirishda qanday mashqlardan foydalaniladi?
4.Tafakkur jarayonini rivojlantirishda qanday mashqlar qoʻllaniladi?
5.Xayolni rivojlantiruvchi mashqlarni oʻtkazishdan avval bola qanday holatda boʻlgani afzal hisoblanadi?

6. Muloqot sohasida muammolarning vujudga kelishi qanday omillar bilan bogʻliq?
378
Mavzu yuzasidan test savollari:
1. Muloqot sohasida korreksiyaga muhtoj boʻlgan bolalarning oilalariga xos boʻlgan xususiyatlar qaysi javobda toʻgʻri koʻrsatilgan?
A. Bolaning muvaffaqiyatsizliklari koʻp tilga olinadi.
B.Oilaning barcha a'zolari bolaga har xil talablar qoʻyishadi.
S. Erkalatish va yupatishlardan birdan tanqidga oʻtish hollari koʻproq uchraydi.
D. Bolaning xatti-harakatlari emas, balki shaxsi koʻp tanqid qilinadi.
*E. Barcha javoblar toʻgʻri.
2. Bola hikoyani soʻzlab berish jarayonida, uning fantaziyasi qay darajadaligini bilish uchun qanday omillarga e'tibor beriladi?
1. Xayol jarayonining tezligi.
2. Obrazlarning oʻziga xosligi, originalligi.
3. Fantaziya (tasavvur)ning boyligi.
4. Obrazlarning chuqur ishlanganligi.
5. Obrazlarning hissiy ta'sirchanligi.
6. Xotiraning kuchliligi.
A. 1,2,3,4,6.
B. 1,2,5,6.
*S. 1,2,3,4,5.
D. 3,4,5,6.
E. 2,3,4,6.
3. Bilish jarayonlarini korreksiyalash va rivojlantirish tamoyillarini belgilang.
A. Faollik tamoyili.
B.Ijodiylik tamoyili.
S. Xulq-atvor ob'ektivlashishi (anglab yetilishi) tamoyili.
D. Sheriklik (Sub'ekt-sub'ektlik) muloqoti tamoyili.
*E. Barcha javoblar toʻgʻri.
4. Qaysi bilish jarayonini rivojlantirishdan avval bolada relaksatsion mashq oʻtkazish lozim?
*A. Xayol.
B.Xotira.
S. Tafakkur.
379
D. Diqqat.
E. Idrok.
5.Bolada nutqning rivojlanishi “soʻ-gap” bosqich, ya'ni bir gap mazmuni bitta soʻda ifodalanadigan davr taxminan qaysi yosh oraligʻga toʻʻi keladi?
A. 6 oy-1 yosh.
*B.1-1,5 yosh.
S. 1,5-2 yosh.
D. 2-2,5 yosh.
E. 3-3,5 yosh.
6.Ikki yoshga yetgan bolaning faol soʻlardan iborat lugʻt boyligi nechta soʻni oʻ ichiga oladi?
A. 10-20 ta.
B.50-100 ta.
*S. 200-300 ta.
D. 500-1000 ta.
E. 1000-1500 ta.
7.Quyidagi hodisalarning qaysi biri taxminan 2 yoshdan boshlab kuzatilishi mumkin?
A. Ovoz ohangini farqlay olish.
B.Onani boshqa odamlardan farqlay bilish.
S. Muloqotda soʻ-gaplardan foydalana boshlash.
*D. Biror narsa-buyumga nisbatan bir necha xil soʻni ishlata olish.

E. Barcha javoblar to‘‘i.
8. Trening davomida ishtirokchilar guruhi psixologiyada aniq bo‘gan, kashf etib ulgurilgan g‘yalar, qonuniyatlarni topishi qaysi tamoyilning mohiyatini tashkil etadi?
A. Faollik tamoyili.
*B.Ijodiylik tamoyili.
S. Xulq-atvor ob'ektivlashishi (anglab yetilishi) tamoyili.
D. Sheriklik (Sub'ekt-sub'ektlik) muloqoti tamoyili.
E. Barcha javoblar to‘‘i.
380
9.Sub'ekt-sub'ektlik muloqoti boshqalar manfaati, ular hissiyotlari, his-tuyg‘lari, qayg‘lari, boshqa insonning shaxsiy qadr qimmati deb tan olinishi qaysi tamoyilga tegishli?
A. Faollik tamoyili.
B.Ijodiylik tamoyili.
S. Xulq-atvor ob'ektivlashishi (anglab yetilishi) tamoyili.
*D. Sheriklik muloqoti tamoyili.
E. Barcha javoblar to‘‘i.
10. Mashqlar davomida ishtirokchilar xulq-atvori impulsivlikdan ob'ektivlik darajasiga o‘ib, trening davomida o‘garishlar kiritish imkonini berihi qaysi tamoyilning mazmunini aks ettiradi?
A. Faollik tamoyili.
B.Ijodiylik tamoyili.
*S. Xulq-atvor ob'ektivlashishi (anglab yetilishi) tamoyili.
D. Sheriklik muloqoti tamoyili.
E. Barcha javoblar to‘‘i.
381

22-BOB. EMOTSIONAL SOHANI KORREKSIYALASH VA RIVOJLANTIRISH

Reja:
1.Shaxs emotsional sohasi va uning rivojlanishi.
2. Shaxs emotsional sohasini rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar.
3.Kichik maktab yoshida emotsional sohaning buzilishi.
4.Kichik maktab yoshida emotsional sohani rivojlantirish va korreksiyalash.

Mavzuning o‘quv maqsadi: talabalarni emotsional sohani korreksiyalash va rivojlantirish usullari bilan tanishtirish.

Darsning vazifasi: Talabalarga shaxs emotsional sohasini rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar, kichik maktab yoshida emotsional sohani rivojlantirish va korreksiyalash haqida ma’lumot berish.

Tayanch tushunchalar: shaxs emotsional sohasi, kichik maktab yoshi, hissiyot, emotsiya, qo‘rquv, xavotirlanish, uyatchanlik, komplekslar.

1.Shaxs emotsional sohasi va uning rivojlanishi

Kishilar idrok qilayotgan, ko‘rayotgan, eshitayotgan, bajarayotgan, o‘ylayotgan, orzu qiladigan narsalarga befarq bo‘lmaydilar. Bir xil predmetlar, shaxslar, xarakterlar, voqealar bizni quvontiradi, boshqalari xafa qiladi, yana boshqalari g‘azab, nafratimizni uyg‘otadi. Biz xavf ostida qolganimizda qo‘rquvni his qilamiz, dushman ustidan g‘alaba qozonish yoki qiyinchilikni yengish zavq uyg‘otadi.

Hissiyotlar o‘zining yuzaga kelishi nuqtai nazaridan odamning ehtiyojlari, qiziqishlari va intilishlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, odamning organik ehtiyojlarini qondirishi bilan bog‘liq bo‘lgan hissiyotlar odamda rohatlanish, qanoatlanish tuyg‘usini yuzaga keltiradi. Organik hissiyotlarni qondira olmaslik odamning ruhini tushirib, kayfiyatini buzib, azoblanish, toqatsizlanish hissiga sabab bo‘ladi.

Emotsiya – shaxsning voqelikka o‘z munosabatini his qilishidan kelib

chiqadigan, uning ehtiyoj va qiziqishlari bilan bogʻliq boʻlgan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalari. Keltirilgan ta'riflardan koʻrinadiki, hissiyot tushunchasi emotsiyaga

nisbatan kengroq tushuncha boʻlib, shaxsning kundalik hayoti, turmush tarzidagi barcha jabhalarni qamrab oladi.
Odamning hissiyotlari uning mazmuni hamda shakllari, ijtimoiy-tarixiy sharoit bilan bogʻliq boʻladi. Ijtimoiy tarixiy taraqqiyot davrida odamning ehtiyojlari oʻzgarib boradi. Natijada odamda borgan sari yangi-yangi hissiyotlar, chunonchi, ma'naviy, intellektual va estetik hissiyotlar paydo boʻladi.
Hissiyot odamda sodir boʻlayotgan hodisa va narsalardan shaxs sifatidagi odam uchun ahamiyatli boʻlganlari haqida darak beruvchi signallar tizimi hisoblanadi. Mazkur holda sezgi a'zolariga ta'sir qiluvchi cheksiz miqdordagi qoʻzgʻovchilardan aniq boʻlib ajraladi, ba'zilari bir-birlari bilan qoʻshilib ketadi va paydo boʻlgan hissiyot bilan birlashib ketadi. Natijada taassurot uygʻotib, biror hissiy nom bilan ifodalangan xotira obrazlari tariqasida saqlanib qoladi. Buni fiziologik jihatdan shunday tushuntirish mumkin: ma'lum qoʻzgʻatuvchilar tirik mavjudotlar uchun xotirjamlik haqida darak beruvchiga aylanadi. Hissiy kechinmalar esa insonning shaxsiy tajribasida tarkib topadigan reflekslar tizimini mustahkamlash sifatida namoyon boʻladi. Hissiyotning mana shu darak beruvchilik vazifasi psixologiyada hissiyotning **impressiv tomoni** deb ataladi. **Impressiv** soʻzi lotincha taassurot degan ma'noni anglatadi.
Har turli qiyinchiliklar va qarshiliklarga duch kelishi natijasida dinamik stereotiplarning "oʻzgarishi" salbiy emotsional holatni yuzaga keltiradi. Emotsiya harakatlari juda koʻp tana oʻzgarishlarda ifodalanadi. Odam organizmidagi oʻzgarishlar kechirilayotgan hissiyotning ob'ektiv koʻrsatkichi hisoblanadi. Moslashish xarakteriga oid boʻlgan, ya'ni ovozning oʻzgarishi, mimika, imo-ishora, organizmda sodir boʻladigan jarayonning qayta oʻzgarishidan iborat ixtiyorsiz va ongli harakatlar psixologiyada emotsional harakatlarning **ekspressiv tomoni** deb ataladi.
Oʻqish jarayonida bolaning yoshi kattalashib, tajribasi orta borgan sari, oqilona urinchoqlik rivoj topa boradi. Bu his odamning ilmiy tadqiqot ishlari bilan samarali shugʻullanishini ragʻbatlantiradi. Bilishga qiziqish maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga xos boʻlgan xususiyatlardandir. Bilishga qiziqish kichik maktab

davrida oʻziga xos yoʻnalishni oladi.Ular har bir oʻrgangan narsalariga taajjublanish bilan qaraydilar.
Taajjublanish hissi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda bunday his ularga qandaydir odatdan tashqari, noma'lum biror narsa ta'sir qilganida tugʻiladi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari kutilmagan voqealar sodir boʻlganida ulardan taajjublanadilar. Bilish jarayonida taajjublanish hissi xursandlik tariqasida oʻtadi. Bu hol samarali bilish faoliyatining doimiy yoʻldoshidir.
Kutilmagan bir narsa sababli tugʻilgan taajjublanish kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarni dastlabki qarashda kam uchraydigan va odatdan tashqari boʻlib koʻringan narsalarni diqqat bilan koʻzdan kechirishga majbur etadi. Shunday qilib, taajjublanish boshlangʻich sinf oʻquvchilarini hodisalarni bilishga gʻoyat darajada ragʻbatlantiradi.
Hayron qolish hissi. Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarda hayron qolish

hissi kuchli boʻlib, tushuntirilayotgan yangi materialni, tadqiq qilinayotgan faktlarning sabablarini topishda qiynalib qolganida, bu faktlarni shu damgacha ma'lum boʻlib turgan hodisalar guruhiga kiritolmay qolganida va shu kabi hollarda tugʻiladi. Bu his ham kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarning bilish faoliyatini yanada kuchaytirishga yoʻllovchi kuchli vositadir.
Ishonch hissi. Narsa va hodisalar oʻrtasidagi bogʻlanishlar va munosabatlarning toʻgʻriligi kichik maktab yoshidagi bolalar tafakkuri jarayonida aniqlanib, mantiqiy ravishda chiqarilgan xulosalar bilan amaliyotning oʻzida yaqqol isbot boʻlganida ularda ishonch hissi tugʻiladi. Shubhalanish hissi kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarda toʻliq rivojlanmagan boʻlib, bu his asta-sekinlik bilan oʻquv jarayonida bolaning oʻzi chiqargan qoidalari yoki nazariyalariga zid boʻlib ular bilan toʻqnashib qolganida tugʻiladigan hissiyotdir. Bu juda muhim his boʻlib, u bolani toʻplangan dalillarni va aytilgan qoidalarni har tomonlama tekshirib koʻrishga ragʻbatlantiradi. “Samarali ilmiy faoliyat uchun doimo shubha bilan qaramoq va oʻz-oʻzingni tekshirib turmoq zarur” – degan edi, I.P. Pavlov. Bu hislar bola qiyinchiliklarni yengib, oʻz ishida ma'lum muvafaqqiyatlarga erishganida ahamiyatli ravishda rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi bola oʻqish va yozishni bilib olganida, oʻzi misol yoki masalani

yechishni oʻrganib olganida juda katta xursandchilik hissini boshidan kechiradi. Oʻquvchilarda oʻz mehnatidan xursand boʻlish hissini iloji boricha koʻproq yuzaga keltirish va uni bola xarakterining emotsional jihatiga aylantirish boshlangʻich sinf oʻqituvchisining asosiy vazifalaridan biridir. Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarning intellektual hislari uning bilish qiziqishlari bilan bogʻliqdir. Boshlangʻich sinf oʻquvchisi nima boʻlganiga, qayerda, qachon va qanday qilib boʻlganiga juda qiziqadi, shuningdek uni ”Nima uchun boʻldi?” savoliga javobga nisbatan shu voqea bilan bogʻliq boʻlgan dalillarning oʻzi qiziqtiradi.

2. Shaxs emotsional sohasini rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar

Hayvonlar va insonlarda olib borilgan turli neyrofiziologik tadqiqotlar emotsiyalarning kechishi miya poʻstlogʻidagi emotsiyalar (qoʻrquv, xavotirlanish, qoniqish hissi va boshqalar) markazi bilan boshqarilishini koʻrsatib oʻtadi. E.D.Xomskaya va N.Ya.Batovalar tomonidan yaratilgan “Miya va emotsiya” nomli kitobda emotsiyalarning muhim xususiyatlaridan biri bu ularning bilish jarayonlari bilan bogʻliq ekanligi bayon etiladi. Shuningdek, emotsional va bilish jarayonlari oʻrtasidagi aloqadorlikni oʻrganish L.S.Vigotskiy va boshqa olimlarning faoliyatlarida koʻzga tashlanishi tahlil etilgan. Ushbu manbada keltirilishicha, emotsiyalarning kognitiv (ing. cognition – bilish) sohaga ta'siri perseptiv (lot. perception – idrok etmoq) jarayonlarda namoyon boʻladi. Bu boradagi eksperimental tadqiqotlarni E.T.Sokolova tomonidan olib borilgan tajribada koʻrish mumkin. Emotsional jarayonlarning perseptiv jarayonlarga ta'sirini oʻrganish borasida olib borilgan tadqiqotlardan koʻrinadiki, verbal yoki noverbal, ijobiy yoki salbiy tusdagi materialni idrok qilish xususiyatlari sinaluvchining emotsional holatiga bogʻliq. Ba'zi manbalarda emotsional holatlarning intellektual jarayonlarga ta'siri keltirib oʻtilgan. Ma'lumotlarning koʻrsatishicha, emotsiyalar fikrlash jarayonining ijodiy koʻrinishlari bilan yonma-yon keladi. Sun'iy hosil qilingan emotsiyalar vazifalarni ijobiy hal qilishga sababchi boʻlishi mumkin: yaxshi kayfiyat sinaluvchilarda neytral vaziyatga nisbatan koʻp sonli masalalarni hal qilishga yordam beradi.

Mashhur fiziolog A.A.Uxtomskiyning fikricha, har qanday tashqi ta'sir (ayniqsa, salbiy) bosh miya katta yarim sharlari poʻstlogʻida “dominant (lot. dominantis – hukmronlik qiluvchi) oʻchoq” paydo qiladi va bu sohaning neyronlari boshqa soha neyronlari faolligini pasaytiradi. Natijada miyaning integrativ (lot. integratio – tiklash, toʻldirish, butun, yaxlit) faoliyati buzilib, funksional tabiatga ega boʻlgan patologik belgilar yuzaga keladi. Ularni yoʻqotish uchun miyaning funksional faoliyatini oshirish va poʻstloqda boshqa, ya'ni ijobiy xususiyatga ega boʻlgan “dominant oʻchoq” paydo qilish kerak.

Psixolog olim F.I.Ivashchenko tomonidan oʻtkazilgan tekshirishlarning koʻrsatishicha, oʻqish sharoitida oʻquvchilarning oʻzlariga ishonmaslik holatlari asosan quyidagi sabablar tufayli yuzaga keladi: a) oʻqishda izchillik prinsipiga rioya qilmaslik tufayli; b) oʻquvchilarga kuchlari yetmaydigan, ya'ni ortiqcha talab qoʻyib yuborish orqali; v) ayrim pedagoglar, ota-onalar va shuning bilan birga sinfdoshlarning oʻquvchilarning kuchi, aqli, qobiliyatlari va faxm-farosatlariga ishonchsizlik bildirishi tufayli; g) ana shunday oʻquvchilarni yomon baho olganliklari uchun qoʻrqitish va jazolashlashlari tufayli.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining faoliyatlari uchun ijobiy baho olishlariga yordam beruvchi asosiy hislardan biri intellektual hislardir. Ma'lumki, bilishga qiziqish, taajjublanish va xayron qolish hislari, ishonch, ishonchsizlik va shubhalanish intellektual hislar qatoriga kiradi.Bunday hissiyotlar har xil nazariy va amaliy savollar tugʻilganida, vazifa va masalalarni hal qilish chogʻida, biror yangilikni oʻzlashtirish va bilish chogʻida paydo boʻladi. Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarning intellektual hislari bilish jarayonida rivojlanadi.Oʻquv faoliyatida bolalar katta hajmdagi bilimlar va dalillarga duch kelib, ular bolalarda taajublanish, ajablanish, ishonchsizlik, quvonch, hislarini yuzaga keltiradi. Bu esa bolalarda qiziquvchanlik, urinchoqlik va shu kabi boshqa hislarning shakllanishiga asos boʻladi.

3.Kichik maktab yoshida emotsional sohaning buzilishi

Kichik maktab oʻquvchilarining hislari oʻzining ancha barqarorligi, anglanganligi, chuqur va kuchliligi bilan maktabgacha yoshdagi bolalarning

hislaridan farq qilib, anchagina osoyishta oʻtishi bilan xarakterlanadi. Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarning umumiy emotsional tonusida xushchaqchaqlik, ruhiy tetiklik kayfiyati ustunlik qiladi. Darslarda va tanaffus vaqtlaridagi oʻyinlarda ular quvnoq va tetik boʻladilar. Bunday holat kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarning emotsional hayotida norma boʻlib hisoblanadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning emotsional hayoti ta'lim va tarbiyaning ta'siri ostida ancha kengayib, hislarning yoʻnalganligida katta tabaqalanish yuzaga keladi. Bu yoshda oliy hislarning barcha turlari rivojlana boshlaydi.

Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarning his-tuygʻulari ularning faoliyatida namoyon boʻladi va rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilar oʻzlarining har bir faoliyat natijalariga baho bera oladilar. Baho kishida qoniqish va qoniqmaslik hislarini yuzaga keltirishi mumkin boʻlib, bu hislar bolani yaxshi oʻqishga ruhlantiradi. Doimiy past baho olish, oʻqituvchining notoʻgʻri reaksiyasi va kattalarning tanbeh va tanqidlari oqibatida yuzaga kelgan salbiy hislar chuqurlashib, bolaning xarakter xislatiga aylanib qolishi mumkin.

Kichik maktab yoshidagi oʻquvchi doskaga chaqirilganda u oʻqib berishga yoki yozib berishga qoʻrqib, uyalib hijolat tortadigan oʻquvchilarni tez-tez doskaga chiqara berish uni shu hisni yengishiga yordam berib, tortinmaydigan boʻlib qoladi. Qayta-qayta doskaga chiqaverish natijasida bolada qoʻrquv hissi susaya boshlaydi va u nihoyat butunlay «soʻnib qolishi» va yoʻq boʻlib ketishi mumkin. Albatta bunday hislarning yoʻqolishida qayta-qayta yuzaga kelgan salbiy hislar, lekin shu bilan bir qatorda bolaning salbiy hislardan qutilish istagi ham muhim rol oʻynaydi. Lekin bu qonuniyat faqat oddiy va tez oʻtib ketadigan hislarga ya'ni, bolaga bir xilda taʻsir qiluvchi va mazmuni chuqur boʻlmagan ob’ektlar sababli tugʻiladigan hislargagina taalluqlidir. Murakkab, chuqur hislar bolada shu hislarni tugʻdirgan ob'ektlar bizga qayta-qayta ta'sir oʻtkaza berganida yoʻq boʻlib ketmaydi, balki, aksincha, yana ham kuchli va barqaror boʻlib qoladi. Masalan, musiqa asarlarini qayta-qayta eshitish natijasida bizning estetik hislarimiz chuqur va kuchli boʻlib qoladi. Oʻzimiz yaxshi koʻrgan, oʻzimiz uchun qadrli boʻlgan joylarga har safar borganimizda bizning shu joylarga boʻlgan hislarimiz, mehrimiz, odatda, kuchaya

boradi. Ayrim emotsional kechinmalarning «soʻnib qolishi»da boshqa qonuniyatlar ham bor. Masalan, qarama-qarshi hislar ba'zi nisbatlarda bir-birini yoʻqotib yuborishi mumkin. Salbiy his paydo boʻlib turganida kuchliroq ijobiy his yuzaga keltiradigan sabab paydo boʻlib qolsa, u holda salbiy his soʻnib qolishi, yoʻqolishi mumkin. Masalan, bola yiqilib tushib, yigʻlab turibdi. Onasi shu paytda kelib qolib uni erkalatdi. Bu erkalash ijobiy hislarning paydo boʻlishiga kuchli sababchi boʻladi, shuning uchun ham bolada koʻz yoshi oʻrniga kulish, xursandlik paydo boʻladi. Oʻquvchidagi choʻchib turish hissini qayta-qayta doskaga chiqarish yoʻli bilangina yoʻq qilib qolmasdan, balki bolada qarama- qarshi hislarni tugʻdirish yoʻli bilan ham bu choʻchishni oldini olish mumkin. Masalan, birinchi sinf oʻquvchisi xavotirligining sababi uni oʻz kuchiga ishonmaganligida boʻlsa, unga oson bajara oladigan vazifalarni berish kerak. Shu vazifalarni bajara olgani uchun kattalar tomonidan ragʻbatlantirilishi, maqtalinishi bolada ijobiy hislarning tugʻilishiga yordam beradi, xavotirlik hissi esa yoʻqoladi. Shu sabab bola doska oldida oʻzini dadilroq his etadi. Ba'zi insonlarda ma'lum bir vaziyat va holatga nisbatan noadekvat (muvofiq kelmaydigan) reaksiyalar bilan ifodalanuvchi yopishqoq qoʻrquvlar va fobiyalar ham uchrab turadi. Fobiya biror vaziyat, hodisa predmetga nisbatan vujudga keladigan birmuncha turgʻun va asossiz qoʻrquvdir. Fobiya qoʻrquvdan kuchli va turgʻun holda namoyon boʻlishi, qoʻrquv uygʻotuvchi ob'ektdan qochish istagining yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Xorij psixologiyasida bolalardagi qoʻrquv muammosini nazariy va empirik jihatdan oʻrganilgan tadqiqotlarni tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, XX asrning boshlaridayoq bir qancha olimlar tadqiqotlari qoʻrquv holatining namoyon boʻlishi masalalarini oʻrganishga yoʻnaltirilgan edi (V.Shtern, K.Byuller, E.Kirkpatrik). Ushbu tadqiqotlarda qoʻrquvning kelib chiqish sabablari, namoyon boʻlish xususiyatlari oʻrganilgan boʻlib, uning instinktiv va orttirilgan turlari ajratilgan. Bu tadqiqotchilarning fikricha, bolalikning boshlangʻich davrlarida instinktiv qoʻrquv mavjud boʻlsa, bola katta boʻlgan sari uning malakalari oshib boradi, natijada shaxsiy malakadan kelib chiqqan holda qoʻrquv vaziyatlari soni ortadi, uni bezovta qilgan ob'ektlar zararsizligi tufayli esa instinktiv qoʻrquvlar yoʻqola boradi.

M.Susulovskayaning tadqiqotlariga koʻra, biror bir yangi predmet yoki hodisaga nisbatan insonda yuzaga keladigan birinchi reaksiya – bu qoʻrquv boʻlgan. D.O.Xebbning konsepsiyasida ham ushbu fikr tasdigʻini koʻrish mumkin, ya'ni bunga koʻra biror bir ma'lum va tanish boʻlgan voqea-hodisa bilan bogʻlab boʻlmaydigan sirli jarayonlar yoki yangi koʻrinishda namoyon boʻlayotgan predmetlar qoʻrquvning shartsiz reaksiyasini yuzaga keltiradi. Qoʻrquv va xavotirlanish tufayli shu ob'ektga nisbatan emotsional aloqa oʻrnatila olinmaydi, chunki bu hissiyotlar repulsiv reaksiyalarni keltirib chiqaradi. Ayni paytda esa emotsional aloqa propulsiv reaksiyalarni, ya'ni shu reaksiyalarni keltirib chiqargan predmetdan uzoqlashtiruvchi emas, balki unga yoʻnaltirilgan reaksiyalarni taqozo etadi.
Dj.Boulbining koʻrsatishicha, qoʻrquvning sababi tahdid soluvchi xavfning mavjudligi yoki xavfsizlikni ta'minlovchi omilning yoʻqligi (masalan, goʻdak uchun shunday ob'ekt boʻlib ona hisoblanadi) boʻlishi mumkin. Olim qoʻrquvning tugʻma asosini ajratib, ularni tabiiy stimullar va ularning hosilalari deb ataydi. Yolgʻizlik, gʻariblik, ta'sirning toʻsatdan oʻzgarishi va hokazolar qoʻrquvning tabiiy stimuli hisoblanadi. Dj.Boulbining fikricha, bu vaziyatlarning barchasida qoʻrquvni boshdan kechirish patologik koʻrinishda boʻlmasligi tabiiy holdir. Shuningdek, bu holat odamda bolaligidan qariguniga qadar ma'lum darajada saqlanib qoladi va boshqa hayvonlar turlariga ham xos. Qoʻrquvning tugʻma asosi xavf-xatar ehtimoli yuqori boʻlgan vaziyatlar bilan bogʻliqdir. Qoʻrquvning orttirilgan stimullariga esa qorongʻulik, hayvonlar, notanish predmetlar va notanish odamlar kiradi.
Dj.Boulbining ta'kidlashicha, qorongʻulikdan qoʻrqish yolgʻizlik va notanishlik kabi tabiiy stimullarning kombinatsiyasi boʻlishi mumkin
Kichik maktab yoshida ko’p uchraydigan holatlardan biri uyatchanlikdir.
Koʻpgina psixologlar, psixiatrlar, sotsiologlar va boshqa mutaxassislar «uyatchanlik» haqida koʻp izlanishlar olib bordilar. Ularning nima uchun uyatchanlik paydo boʻladi degan savolga koʻpgina mulohozalari bor. Shaxsni oʻrganuvchi tadqiqotchilar uyatchanlikni, masalan intellekt singari nasldan-naslga oʻtadigan individual xislat, deya ta'kidlashgan. Bixevioristlar uyatchan odamlarni oddiy sotsiologik bilimlarni egallamagan, muloqat jarayoniga kerak boʻladi,-

degan fikrni ilgari suradilar. Psixoanalitiklar tasdiqlaydilarki, uyatchanlik bu ichki anglanganlikni tashqariga chiqaradigan simptomdir.

4.Kichik maktab yoshida emotsional sohani rivojlantirish va korreksiyalash

Bu sohadagi korreksion ishlarning asosiy yoʻnalishi – emotsiyalarni ixtiyoriy boshqarishga oʻrgatishdan iborat. Bu sohadagi korreksion ishlarni oʻtkazishdan avval bolaning emotsional tonusini koʻtarish maqsadga muvofiq.
Uyatchan bola bilan olib boriladigan korreksion ishlar. Uyatchan bola bilan olib boriladigan korreksiya ishlarining maqsadi ularni tashqi olam bilan, uni oʻrab turgan odamlar toʻlaqonli muloqotga kirishishini ta'minlashdan iborat. Buning uchun bolaning ota-onasidan birini, yaxshi tushuna oladigani tanlanadi. Shuningdek, u qiziqadigan faoliyat va oʻyin turi aniqlanadi. Uyatchan bola yopiq xonaga oʻxshaydi, faqat birinchi kichik oynasi ochiq, xolos. Korreksiyada bu imkoniyatdan foydalanib qolish kerak, agar bu natija bermasa ayrim sabablarga koʻra psixolog bolani yanada yomon tomonga oʻzgarishiga yoʻl qoʻymasligi

zarur. Korreksiyaning bu prinsiplari uyatchan bola bilan olib boriladigan tuzatish ishlarida yordam beradi:
1. Bu holatga olib kelgan sabablar aniqlanadi.
2. Bolada ota-onasi, oʻrtoqlari bilan muloqotga ehtiyoj uygʻotish.
3. Bolani oila, maktab va oʻrtoqlari bilan muloqotda boʻlishini ta'minlash.
4. Bolani muloqatchanlikka oʻrgatish.
Boladagi salbiy holatlarni korreksiya qilish juda nozik ish boʻlib, uni bajarishda oʻta ehtiyotkor boʻlish kerak. Uyatchan, tortinchoq bolani diagnostika qilish quyidagicha boʻladi:
1. Psixolog bola bilan birinchi uchrashuvda unga toʻgʻridan-toʻgʻri savol bermaslik (sening isming nima?), koʻzga tik qaramaslik, qoʻpollik qilmaslik gaplashishda bolaga koʻp savollar berib uni qoʻrqitib yubormasligi kerak. Muloqotga kirishishni yoqtirmaydigan bola uni yana suhbatga tortishayotganini bilmasin.

2. Psixolog yoʻl qoʻyadigan xatti- harakatlar bolaning faoliyatiga mos boʻlishi ortiqcha urinishlar sodir qilmasligi zarur. Bolani kuzatib nima bilan shugʻullanayotganini oʻrganib, shu ish bilan shugʻullanish, oʻyinlarni unga tavsiya qilmaslik kerak. Birinchi muloqatda bolaning qiziqishidan kelib chiqqan holda ish olib boriladi.
3. Bolani kuzatib turib, u oʻynayotgan oʻyin ehtiyojlarini qay darajada qondirayotgani tekshirib boriladi va psixolog ham shu ishlarni amalga oshiradi. Bu paytda bolaning koʻziga emas, oʻyinchoqqa qarash mumkin. Buning natijasida psixolog bolada yoqimli taasurot qoldiradi. Agar bolaga koptokni dumalatish yoqsa, endi bu ishni psixolog bilan bajarishi mumkin.
4. Keyinchalik ijobiy natijalarga erishilsa, bolaning qiziqishlarini kengaytirib borish mumkin. Psixolog oʻqitishdan olgan quvonchini bolaga oʻtkazishi va bir oʻzi oʻynagandan koʻra, birga oʻynagan afzalroqligini bolaga yetkazib bera olishi kerak.
5. Bu bosqichda yaxshi natijalar olingandan soʻng ota-ona korreksiya ishi yakunlanayapti, deb oʻylashadi. Lekin ayni shu vaqtda eng qiyin jarayon oʻtayotgan boʻladi. Bolaning muloqotga boʻlgan ehtiyoji uygʻotilib, boshqa odamlar bilan ham muloqatga kirishishi ta'minlanadi. Agar oxirigacha bola bilan shunday ishlar olib borilmasa, salbiy oqibatlarga olib keladi.
6. Bola boshqa odamlar bilan oʻz xohishiga koʻra muloqotga kirishganda, muloqatga kirishish ehtiyoji tugʻilganda va bolaning oʻzi birinchi qoniqish hosil qilgandagina ish murakkablashtirilib, psixolog tomonidan yangi oʻyin va metodlar kiritiladi.
7. Muloqotga kirishishning murakkablashuvi asta-sekin amalga oshiriladi va oʻzaro birgalikda olib boriladi. Bola muloqotga kirishish yoʻllarini aniq puxta bilib olganini aniqlash zarur.
8. Mashgʻulotning murakkablashuvida yangi elementlarni kiritishga judayam ehtiyotkorona qaraladi.

9. Bolani affektiv muloqatga kiritishni qat'iy nazoratga olinadi. Bu holning davomiyligi u ijobiy boʻlsa ham – bolaning kattalarga boʻlgan muloqatga kirishish ehtiyojini yoʻq qilib yuborishi mumkin.

10. Bola bilan affektiv muloqotni oʻrnatib, u bilan gaplashishda oʻta ehtiyotkor boʻlish kerak. Bu paytda uning boshqalar bilan nizoga kirishishini oldini olish zarur.
11. Bola bilan affektiv muloqotni oʻrnatish korreksiya qilishning asosiy vazifasi emas. Psixologning vazifasi bola bilan suhbatlashish emas, balki atrofidagi olam bilan muloqotga kirishishini ta'minlashdir.
Fobiyalar va ularning korreksiyasi. Ota-onalar bolalardagi qoʻrquvlar fobiyaga aylanib ketmasligi uchun quyidagi maslahatlarga rioya etishlari maqsadga muvofiq: Agar boladagi qoʻrquvlar fobiyaga aylanib ketgan boʻlsa, psixolog yordami talab qilinadi.
Fobiyalarni korreksiyalashning asosiy usullari:
 Bolaning umumiy emotsional tonusini oshirish.
 Qoʻrquv uygʻotuvchi ob'ektning modeli bilan oʻynash.
 Rasm chizish orqali korreksiyalash.
392
 Qoʻrquv uygʻotuvchi ob'ekt bilan ijobiy hissiyot uygʻotuvchi ob'ekt oʻrtasida shartli bogʻlanish hosil qilish.
 Bolani qoʻrquv ob'ektiga bosqichma-bosqich moslashtirib borish.
 Bolani himoya qiladigan ramziy ob'ekt yaratish.
 Emotsional “argʻimchoq”ni tashkil qilish (qoʻrquv ob'ektidan uzoqlashtirish, unga yaqinlashtirish va h.).
 Oʻyin terapiyasi – oʻyinda bolani qoʻrqituchi ob'ekt mavjud boʻladi, lekin bolaning diqqati oʻyinga jalb qilinadi.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

1.Shaxs emotsional sohasi va uning rivojlanishi haqida nimalarni bilasiz?
2. Shaxs emotsional sohasini rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar nimalardan iborat?
3.Kichik maktab yoshida emotsional sohaning buzilishi nimalarda namoyon boʻladi?
4.Kichik maktab yoshida emotsional sohani rivojlantirish va korreksiyalash usullarini soʻzlab bering.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1.Fobiyalarni korreksiyalashning asosiy usullari qaysi javobda toʻgʻri koʻrsatilgan?
1. Bolaning umumiy emotsional tonusini oshirish.
2. Qoʻrquv uygʻotuvchi ob'ektning modeli bilan oʻynash.
3. Rasm chizish orqali korreksiyalash.
4. Qoʻrquv uygʻotuvchi ob'ekt bilan ijobiy hissiyot uygʻotuvchi ob'ekt oʻrtasida shartli bogʻlanish hosil qilish.
5. Bolaning emotsional tonusini pasaytirish.
6. Bolani qoʻrquv ob'ektiga bosqichma-bosqich moslashtirib borish.
7. Bolani himoya qiladigan ramziy ob'ekt yaratish.
8. Emotsional “argʻimchoq”ni tashkil qilish (qoʻrquv ob'ektidan uzoqlashtirish, unga yaqinlashtirish va h.).
9. Oʻyin terapiyasi – oʻyinda bolani qoʻrqituchi ob'ekt mavjud boʻladi, lekin bolaning diqqati oʻyinga jalb qilinadi.
A. 1,2,3,5,7,8.
*B.1,2,3,4,6,7,8,9.
S. 1,3,4,5,6,7,8,9.
D. 1,2,3,4,5,6.
393
E. 4,5,6,7,8,9.
2. Uyatchan bola bilan olib boriladigan tuzatish ishlari qanday amalga oshiriladi?
A. Bu holatga olib kelgan sabablar aniqlanadi.

B.Bolada ota-onasi, oʻrtoqlari bilan muloqotga ehtiyoj uygʻotiladi.
S. Bolani oila, maktab va oʻrtoqlari bilan muloqotda boʻlishini ta'minlanadi.
D. Bolani muloqatchanlikka oʻrgatiladi.
*E. Barcha javoblar toʻgʻri.
3. Emotsional sohadagi korreksion ishlarning asosiy yoʻnalishi nimadan iborat?
*A. Emotsiyalarni ixtiyoriy boshqarishga oʻrgatishdan.
B. Relaksatsion mashqlarni oʻtkazishdan.
S. Bolani muloqatchanlikka oʻrgatishdan.
D. Bolaning intellektual salohiyatini oʻstirishdan.
E. Barcha javoblar toʻgʻri.
4. Emotsional sohadagi korreksion ishlarni oʻtkazishdan avval bolada qanday holatni yuzaga keltirish maqsadga muvofiq sanaladi?
*A. Bolaning emotsional tonusini koʻtarish.
B. Relaksatsion mashqlarni oʻtkazish.
S. Muammoli vaziyatlarni anglab yetishiga koʻmaklashish.
D. Bolani muloqatchanlikka oʻrgatish.
E. Barcha javoblar toʻgʻri.
5. Psixolog F.I.Ivashchenko tadqiqotlariga koʻra, oʻqish sharoitida oʻquvchilarning oʻzlariga ishonmaslik holatlarini qanday sabablar yuzaga keltiradi?
A. Oʻqishda izchillik prinsipiga rioya qilmaslik.
B.Oʻquvchilarga kuchlari yetmaydigan, ya'ni ortiqcha talab qoʻyib yuborish.
S. Ayrim pedagoglar, ota-onalar va shuning bilan birga sinfdoshlarning oʻquvchilarning kuchi, aqli, qobiliyatlari va faxm-farosatlariga ishonchsizlik bildirishi.
D. Oʻquvchilarni yomon baho olganliklari uchun qoʻrqitish va jazolashlashlari.
*E. Barcha javoblar toʻgʻri.
394
6. Tashqi olamdagi narsa va hodisalarga nisbatan bo’lgan munosabatlarimizning va bu munosabatlarimizdan hosil bo’ladigan ichki kechinmalarimizning ongimizda aks ettirilishiga ..... deyiladi.
A. Kayfiyat.
B. Ehtiros.
*S. Hissiyot.
D. Affekt.
E. Stress.
7. Kichik maktab yoshi davri necha yoshlarni oʻz ichiga oladi?
A. 6 – 7 yosh.
B. 9 – 10 yosh.
*S. 6 – 10 yosh.
D. 8 – 11 yosh.
E. 9 – 11 yosh.
8. Kichik maktab yoshi davrida yetakchi faoliyat qaysi?
A. Predmetli faoliyat.
B. Oʻyin faoliyati.
*S. Oʻqish
D. Emotsional muloqot.
E. Mehnat faoliyati.
9. Kichik maktab yoshi davrida biror odamdagi qanday emotsional holatning idrok etilishida adekvatlik ayniqsa yuqori boʻladi?
A. Qoʻrquv
B. Jahl.
S. Quvonch
*D. A va B javoblar toʻgʻri.
E. B va S javoblar toʻgʻri.
10. Kichik maktab yoshida sinfdan sinfga odatda kuchayib boruvchi bilish ehtiyoji bilan bogʻliq

oʻquv motivatsiyasining taxminan nechanchi sinfda biroz pasayishi kuzatiladi?
A. 2-sinfda.
*B. 3-sinfda.
S. 4-sinfda.
D. Bu hodisa dastlab oʻrta maktabga oʻtish davriga toʻgʻri keladi.
E. 1-sinfda.
395

23-BOB. SHAXSLARARO MUNOSABATLARNI KORREKSIYALASH

Reja:
1.Shaxslararo munosabatlar va uning kichik maktab yoshida hamda oʻsmirlik davrida rivojlanishi.
2.Kichik maktab yoshida shaxslararo munosabatlarni korreksiyalash.
3.Oʻsmir va yuqori sinf oʻquvchilari bilan olib boriladigan korreksion-rivojlantiruvchi ishlar.
Mavzuning oʻquv maqsadi: talabalarni shaxslararo munosabatlarni korreksiyalash usullari bilan tanishtirish.
Darsning vazifasi: Talabalarga shaxslararo munosabatlar va uning kichik maktab yoshida hamda oʻsmirlik davrida rivojlanishi, oʻquvchilar bilan olib boriladigan korreksion-rivojlantiruvchi ishlar haqida ma’lumot berish.
Tayanch tushunchalar: maktabgacha tarbiya yoshi, kichik maktab yoshi, oʻsmir, shaxslararo munosabatlar, nizo.

1.Shaxslararo munosabatlar va uning kichik maktab yoshida hamda oʻsmirlik davrida rivojlanishi

Odamlar oʻrtasidagi munosabatlar boʻyicha muammolar psixologik maslahat oʻtkazish amaliyotida juda koʻp uchraydi va mijoz ular borasida toʻgʻridan-toʻgʻri gapirmasa ham, shaxsiy mazmundagi boshqa muammolardan shikoyat qilganida, bu aslida unda shaxslararo munosabatlar boʻyicha uning muammosi yoʻqligini anglatmaydi. Hayotda esa koʻp hollarda buning aksi boʻlib chiqadi: agarda mijozni shaxslararo munosabatlar boʻyicha mavjud holati tashvishlantirsa, shunday holatda har doim unda oʻz xarakteriga taalluqli shaxsiy mazmundagi muammosini ham aniqlash mumkin boʻladi. Bundan tashqari, bu ikkala muammoni amaliy hal etish usullari koʻp jihatdan bir-biriga oʻxshashdir. Shunga qaramay, bu muammolarni alohida koʻrib chiqish kerak, chunki ular har doim shaxsiy mazmundagi muammoga qaraganda, bir muncha boshqacharoq hal qilinadi. Shu odamning boshqa odamlar bilan munosabatlarini boshqarish yoʻli bilan hal etiladi. Bundan farqli ravishda oʻz shaxsiy muammosini har doim odam individual va boshqa odamlar bilan bevosita aloqa qilmay ham hal etishi mumkin. Bundan tashqari shaxsiy va shaxslararo mazmundagi muammolarni hal etish usullarida katta farq mavjud. Agarda shaxsiy muammolar odatda odamning ichki dunyosini tubdan oʻzgartirish zarurligi bilan
396
bogʻliq boʻlsa, shaxslararo muammolar odamning, asosan, xulqi tashqi shakllarini oʻzgartirish zarurligi bilan bogʻliq boʻladi. Odamning atrofdagilar bilan oʻzaro munosabatlariga tegishli psixologik muammolar xususiyati boʻyicha turlicha boʻlishi mumkin. Ular atrofdagilar bilan odamning shaxsiy va amaliy oʻzaro munosabatlari bilan bogʻliq boʻlib, unga yaqin va ancha uzoq boʻlgan, masalan, qarindoshlari hamda begonalar bilan oʻzaro munosabatlariga taalluqli boʻlishi mumkin. Bu muammo yaqqol ifodalangan yosh farqiga ham ega boʻladi. Masalan, mijozning tengdoshlari yoki boshqa avlod, ancha yosh yoinki oʻzidan ancha katta yoshli odamlar bilan oʻzaro munosabatlarda yuzaga kelishi mumkin. Shaxslararo munosabatlar muammolari turli jinsli odamlarga ham taalluqli boʻlishi mumkin. Aytib oʻtilgan muammolarning koʻp jihatliligi odamlar oʻrtasidagi oʻzaro

munosabatlarning murakkabligini koʻrsatadi. Bu muammolarning koʻpchiligini bu yerda biz alohida muhokama qilsak ham, biroq bu muammolar hayotda bir-biriga bogʻliqligini va koʻpchilik hollarda kompleks hal etilishi zarurligini esdan chiqarmaslik kerak. Masalan, odamlar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarda odatiy qiyinchiliklarning yuzaga kelishida ba'zi umumiy sabablar mavjud. Biroq odamlar oʻzaro munosabatlari alohida turlariga xos boʻlgan xususiy, oʻziga xos qiyinchiliklar sabablari ham mavjud.

Kichik maktab davrida bolaning boshqa insonlar bilan munosabatlarida katta oʻzgarishlar roʻy beradi. Bolaning muloqoti endi aniq maqsadga qaratilgan boʻladi. Bunga sabab bir tomondan oʻqituvchining doimiy ravishda unga koʻrsatadigan faol ta'siri boʻlsa, ikkinchi tomondan oʻquv jamoasining koʻrsatadigan ta'siridir. Oʻqituvchining dars jarayonida har bir oʻquvchiga ta'sir koʻrsatishi uchun qulay imkoniyati bor. Oʻquv faoliyatining boshlanishi jarayonida bolaning kattalar va tengdoshlari bilan qiladigan muomala-munosabatlari yangicha tus ola boshlaydi. Bundan tashqari bolaning oilasi va tevarak atrofdagi odamlar bilan ham muloqotida katta oʻzgarishlar boʻladi. Oilada endi bola ma'lum bir majburiyat va huquqlari boʻlgan shaxs sifatida qabul qilinadi va bu oʻz-oʻzidan bola bilan boʻlgan munosabatlarda oʻz aksini topadi. Atrofdagilar bilan munosabatda esa bola oʻz “Men”ini namoyon etishga harakat qiladi.L.S.Vigotskiyning ta'kidlashicha, faqat

jamoaviy hayot va ijtimoiy munosabatlar ta'sirida bolaning individual xulq-atvori shakllanadi. Oʻquv faoliyatining boshlanishi bolada kattalar va tengdoshlari bilan yangicha munosabatni yuzaga keltiradi. Bu munosabatlarni ikki yoʻnalishga:”bolakatta” va “bola-bolalar”ga ajratish mumkin.” Bola- katta” munosabatlarida “bola-otaona” munosabatlaridan tashqari “bola-oʻqituvchi” munosabatlari yuzaga kelib, bu munosabatlar bola xatti-harakatlarini jamoat talablari darajasiga olib chiqadi. "Bolakatta" munosabati "bola-ota-ona" munosabatidan tashqarida yuzaga keladi. Chunki oʻqituvchi bolaga ota-onasiga nisbatan koʻproq normativ talablar qoʻyadi. Faqat oʻqituvchigina oʻquvchisiga turli qat'iy talablar qoʻyib, ularning xatti-harakatlarini baholay olgan holda, bolaning ijtimoiylashuviga sharoit yaratadi.

Oʻqituvchining munosabat uslubi oʻquvchining faolligiga bevosita ta'sir koʻrsatadi. Oʻqituvchining dars jarayonida har bir oʻquvchiga ta'sir koʻrsatishi uchun qulay imkoniyati bor.

Bola uchun oʻqituvchi uning psixologik holatini belgilab beruvchi asosiy figura hisoblanib, bu holat uning nafaqat sinfdagi, balki, umuman tengdoshlari bilan boʻladigan munosabatiga, bu munosabat esa oʻz-oʻzidan oilasidagi munosabatlariga ham ta'sir koʻrsatadi. Shuningdek, bu munosabatlar uning oʻquv faoliyati muvaffaqiyatini ham belgilab beradi.

O’smirlik davrida esa ota-onasi, kattalar bilan qiladigan muloqoti xarakteri ularning katta bo’lganlik hissi asosida tuzilgan bo’ladi. Kattalar tomonidan qilinadigan o’smirlarning xaq-huquqlarini cheklashlariga bildirgan qarshilik va e'tirozlariga o’zlari ham qattiq qaygʻuradilar. Ular muloqotda kattalarning qo’llabquvvatlashlariga ehtiyoj sezadilar. Birgalikdagi faoliyat o’smirga kattalarni yaxshiroq tushunishlari uchun yordam beradi.

Kattalarga nisbatan yomon munosabatning paydo bo’lishi, noxush xulq-atvor alomatlari, o’smir yashaydigan ijtimoiy shart-sharoitlar, uning tengdoshlari va turli

jamoalardagi mavqei, kattalar bilan munosabati, maktab va oilasidagi munosabatlari sababli yuzaga keladigan xarakter belgilaridir. Mana shu ijtimoiy sharoitlarni o’zgartirish yo’li bilan o’smirlarning xulq-atvoriga to’g’ridan-to’g’ri ta'sir ko’rsatish mumkin. O’smirlar nihoyatda taqlidchan bo’lib, ularda hali aniq bir fikr, dunyoqarash
398
shakllanmagan bo’ladi. Ular tashqi ta'sirlarga va hissiyotlarga juda beriluvchan bo’ladilar. Shuningdek, ularga mardlik, jasurlik, tantiqlik ham xosdir.
Tengdoshlari, shuningdek, sinfdoshlari guruhida o’smir o’zining kelishuvchanlik xususiyati bilan namoyon bo’ladi. O’smir o’z guruhiga bog’liq va qaram bo’lgani holda shu guruhning umumiy fikriga qo’shilishiga va uning qarorini doimo bajarishga tayyor bo’ladi. Guruh ko’pincha o’smirda "Biz" hissining shakllanishiga yordam beradi va uning ichki holatini mustahkamlaydi. O’smir yoshdagi bola uchun do’st tanlash juda katta ahamiyatga ega. O’smirlik davrida do’stlik juda qadrli hisoblanadi. Do’stlar doimiy ravishda ruhan, qalban yaqin bo’lishga ehtiyoj sezadilar. Bu ehtiyoj o’smir do’stlarining hol-axvol so’rashishi va ko’rishishlarida (qo’l berib, quchoq ochib ko’rishish) birga o’tirish va birga yurishga harakat qilishlarida ko’rinadi. Ko’pgina ana shunday juda yaqin munosabatlar, o’smirlarning shaxs bo’lib shakllanishida, hamkorlikdagi harakatlarining izi inson qalbi va xotirasida bir umrga saqlanib qoladi.

2.Kichik maktab yoshida shaxslararo munosabatlarni korreksiyalash

Bu sohadagi korreksion ishlar quyidagi maqsadlarni koʻzlaydi:
Bolalar bilan toʻgʻri muloqot koʻnikmalarini shakllantirishda, bolalarda atrofdagi odamlarga nisbatan qiziqishni uygʻotish, kattalar, ya'ni ota-onasi bilan birgalikda oʻqituvchi va tarbiyachilari ham bolaning muloqotiga kirishuvchanligini rivojlantirish uchun hamkorlikda harakat qilishlari ayni muddao boʻladi.
399
Kichik maktab yoshida shaxslararo munosabatlarni korreksiyalash maqsadida quyidagi trening mashqlaridan foydalanish mumkin:
«G’ayritabiiy salomlashish» mashqi
Ishtirokchilarga bir-birlari bilan panja, yelka, oyoq, peshona, tizza, tirnoq orqali va shular kabi «g’ayritabiiy salomlashish» taklif etiladi.
Musiqa yangraydi. Oʻquvchilar xona bo’ylab tartibsiz harakatlanadilar. Trener ishtirokchilardan qanday salomlashish kerakligini so’raydi. Ishtirokchilar bir-biri bilan ixtiyoriy salomlashadilar. Ularga o’z salomlashishlari haqida o’ylab ko’rish tavsiya qilinadi.
“Tugʻilgan kuning bilan” mashqi
Mashq maqsadi: bolalarning bir-biri bilan munosabatlarini yaxshilashga, ochiq samimiy munosabatda boʻlishga oʻrgatadi.
Trening ishtirokchilari tik turib bir-biriga qaragan holatda turishadi.
Boshlovchi: “Bolalar tasavvur qiling bugun sizlarni tugʻilgan kuningiz. Hozir hamma galma-galdan bir-birlarini soʻzlar orqali tugʻilgan kuni bilan tabriklaydi. Qanday xohlasangiz shunday tabriklashingiz mumkin”.
Mashq har bir ishtirokchi tabriklab boʻlmaguncha davom ettiriladi.
“Koʻrinmas sovgʻa ” mashqi
Ishtirokchilar davra qurib olishadi. Boshlovchi qoʻlda hamma narsani yasash mumkin boʻlgan koʻrinmas loy borligini va ishtirokchilar undan sovgʻa yasab, oʻng tomonidagi ishtirokchiga uzatishlari lozimligini aytadi. Sovgʻa yasaladi va qabul qilib

olingach, yana boshqatdan sovgʻa yasalib, navbatdagi ishtirokchiga taqdim etiladi. Shu tariqa barcha “sovgʻa” olmagunicha bu harakatlar takrorlanadi. Oʻyin oxirida kimning nima sovgʻa qilgani va sababi soʻraladi.

3.Oʻsmir va yuqori sinf oʻquvchilari bilan korreksion-rivojlantiruvchi ishlar

Ta'lim tarbiya muassasalaridagi tarbiyaviy ishlarning eng muhim vazifalaridan biri bu oʻquvchilar jamoasini shakllantirish va rivojlantirishdir. Bu nafaqat u yoki bu ta'lim tarbiya muassasinigina emas, balki konkret oʻquv guruhi – sinfga ham taalluqli. Chunki qayerda, qaysi jamoada shaxslararo munosabatlar yaxshi tashkil etilgan

boʻlsa, shu jamoa oʻz oldida turgan ijtimoiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga asos yaratilgan boʻladi. Bunday jamoada oʻz-oʻzini boshqarishni joriy qilish ham yaxshi samaralar berishi mumkin. Shaxslararo munosabatlarni oʻrganish metodlaridan biri sotsiometriya metodidir. Sotsiometriya tushunchasi Amerika olimi J.Moreno tomonidan taklif etilgan boʻlib, guruhdagi oʻzaro munosabatlarni oʻrganish degan ma'noni bildiradi. Sotsiometriya metodi turli guruhlarda, jamoalarda shaxslararo munosabatlar xususiyatlarini oʻrganishning psixologiyada keng qoʻllaniladigan eng samarador vositalaridan hisoblanadi. Sotsiometrik tahlil ma'lumotlari shaxsning guruhda tutgan oʻrni, guruhda shaxslararo munosabatlarning xususiyatlari, guruh yulduzlari, guruh lideri (guruhning tan olingan sardori) guruhning yakkalanib qolgan (izolatsiyaga tushib qolgan) a'zosi, guruhdagi kichik guruxchalar (mikro gruppalar), ularning tarkibi, oʻzaro munosabatlari va yana qator shu kabi ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

Oʻsmirlar bilan shaxslararo munosabatlar tizimidagi muammolarni hal qilishda trening mashgʻulotlarini olib borish samarali natija beradi. Bunda qiyidagi mashqlardan foydalanish mumkin:

Mashq: «Bir–biringizni biling»

Guruhda qoidalar hosil qilish. Guruh a’zolari aylana bo’lib o’tiradilar va guruhiy ish tamoyillarini muhokama qiladilar. Trening davomida ishtirokchilar rioya qilishi shart bo’lgan qoidalar hamda mashg’ulotlar qachon boshlanishi, davomiyligi va yakuni, guruh a’zolarining rituallari (salomlashish va xayrlashuv usullari, chyeklanishlar, kechikkanda va guruh qoidalari buzilganda jazolash) belgilab olinadi. Guruh a’zolarining roziligidan so’nggina, bunga qat’iy amal qilinadi. Bu guruhda ishlashning muhim jihati hisoblanadi.

Mashqni amalga oshirish uchun ishtirokchilar ikki guruhga ajratiladi. Guruh a’zolarining vazifasi bir-birlari haqida ko’proq ma’lumot olish uchun savollar bilan murojaat qilishdan iboratdir.

Mashq: «Assotsiatsiya»

Ushbu mashq yaqin kishilari va oila a’zolari haqida ma’lumotlar yig’ishga yordam beradi. «Assotsitsiya» mashqi o’smirlarning shaxslararo munosabatlari bo’yicha psixodiagnostik xususiyatga ham ega. Mashq ularning yaqin odamlari va ota-onalari bilan assotsitsiyalashuvini ko’rsatadi. Bu mashq ishtirokchilarda ancha jonlanish va qiziqish uyg’otishi kuzatiladi.

“O’yla va ayt, oila a’zolaringdan qaysilari senda assotsitsiya uyg’otadi?”

Navbatdagi mashq o’smirlarni atrofdagilarga munosabati va xohish-istaklarini namoyon qilishga o’rgatadi. Buning uchun «Do’stimga maktub» mashqi taqdim qilinadi.

Mashq: «Do’stimga maktub»
Ko’rsatma. Sizga do’stingizga maktub yozish taklif qilinadi. Bunda siz o’zingiz haqingizda do’stingizga yozishingiz va tilaklar bildirishingiz mumkin. So’ngra siz maktubni xat jildga joylashtiring. Maktub anonim bo’lishi mumkin. Oxirgi mashg’ulotda hamma o’z maktubini oladi, o’qiydi va treningdan sovg’a sifatida olib qo’yadi.
Mashq: «Kundalik daftar yuritishga o’rgatish»
Kundalik daftarni «Mening g’alabam va muvaffaqiyatlarim» mavzusi bo’yicha yuritish trening ishtirokchilarining har kungi ishlarini hamda boshqalarning xattiharakatlarini
tahlil qilishga imkon beradi. Ishtirokchilarga kundalik daftar yuritishni mustaqil boshlashlari taklif etiladi. Ular kundalik daftarda o’z holatlari, kechinmalari, tuyg’ulari haqida o’z taassurotlarini yozib borishlari lozim. Dastlab har bir ishtirokchiga qog’oz berilib, quyidagi gaplarni yakunlash so’raladi:
Men treningga kelganimda...
Menga yoqqan narsa...
Menda aytish xohishi yo’q ...
Men mashg’ulotlarda... ... ...lar haqida ko’proq bilib olaman.
Men hozir ... ...ni his qilyapman.
Treningdan so’ng mening kayfiyatim ... ...
Bu safar men ... ...ga harakat qilaman.
Men navbatdagi uchrashuvda ... ...ni isbot qilaman.
402
Albatta, ushbu psixologik trening natijalarini ishtirokchilarning kayfiyati hamda xohish-istaklari orqali aniqlash mumkin. Buning uchun xayrlashuv rituallariga ham e’tibor qaratish lozim. Guruh a’zolari doira bo’lib tik turadilar. Trener qo’lini oldinga cho’zib, «Hammangizga rahmat!» deb aytadi. So’ngra boshqa ishtirokchi trenerning qo’liga qo’lini qo’yadi va «Bugun zo’r bo’ldi!» deydi, qolganlar ham o’z istaklarini shu tarzda bayon qiladilar. Tilaklar aytib bo’lingach, qo’llar birlashtiriladi, trener ishtirokchilar bilan xayrlashadi va hamma tarqaladi.
Takrorlash va muhokama uchun savollar:
1.Shaxslararo munosabatlar deganda nima tushuniladi?
2. Shaxslararo munosabatlarning kichik maktab yoshida hamda oʻsmirlik davrida rivojlanishi qanday kechadi?
2.Kichik maktab yoshida shaxslararo munosabatlarni korreksiyalash usullari nimalardan iborat?
3.Oʻsmir va yuqori sinf oʻquvchilari bilan shaxslararo munosabatlar tizimini korreksiyalash maqsadida qanday mashqʻulotlar olib boorish mumkin?
Mavzu yuzasidan test savollari:
1.Kichik maktab yoshida shaxslararo munosabatlarni korreksiyalash qanday maqsadlarni koʻzlaydi?
1. Atrofdagi odamlarga nisbatan qiziqish uygʻotish, ularga hamdardlik qilish qobiliyatini rivojlantirish.
2. Zoʻravonlikka asoslanmagan xulq-atvor modeliga tayanib hayotiy muammolarni hal qilish koʻnikmalarini rivojlantirish.
3. Ifodali harakatlardan foydalanish koʻnikmalarini rivojlantirish.
4. Muloqotda oʻz emotsional holatini boshqarishga oʻrgatish.
5. Bilish jarayonlarini rivojlantirish.
6. Boshqa odamlarning fikriga nisbatan sabrli munosabatda boʻlishga oʻrgatish.
7. Ijobiy xarakter xususiyatlarini rivojlantirish.
A. 1,2,3,4,5,6

*B. 1,2,3,4,6,7.
S. 2,3,4,5,6,7.
D. 4,5,6,7.
E. 1,2,3,4,5.
403
2. Oʻsmir shaxsida quyidagi ehtiyojlarning qaysi biri ayniqsa yaqqol namoyon boʻladi?
A. Kattalar bilan muloqotda boʻlishga nisbatan ehtiyoj.
B.Boshqalarning muayyan voqea-hodisalar haqidagi fikrini bilishga boʻlgan ehtiyoj.
S. Oʻquv faoliyatida muvaffaqiyatga erishish ehtiyoji.
*D. Kattalardan avtonomiyaga erishishga boʻlgan ehtiyoj.
E. Kasb tanlash ehtiyoji.
3. Mazmunsiz muloqotga yoʻnalganlik darajasi yuqori boʻlgan oʻsmirlarning oʻziga-oʻzi beradigan bahosi odatda qanday boʻladi?
A. Noadekvat past.
*B.Noadekvat yuqori.
S. Adekvat.
D. Ushbu alomat oʻsmirning oʻziga baho berish tizimi bilan bogʻliq emas.
E. Kompensatsiayalangan past.
4.Oʻsmirda noadekvatlik affekti mavjudligi nimada namoyon boʻladi?
A. Birovning shaxsiga noadekvat baho berishda.
B.Birovga notoʻgʻri maslahat berishda.
*S. Shaxsiy muvaffaqiyatsizlikni noadekvat qarshi olishda.
D. Shaxsiy imkoniyatlardan etarlicha foydalana olmaslikda.
E. Barcha javoblar toʻgʻri.
5.Quyidagi xususiyatlardan qaysi biri odatda oʻsmirlik davri uchun xos emas?
A. Ijtimoiy fobiyalarning kuchayishi.
B.Referent guruhlarning vujudga kelishi.
S. Ota-onaga nisbatan emansipatsiyaning kuchayishi.
*D. Oʻquv faoliyatida yaxshi baho olishga qiziqishning ortishi.
E. Xarakter aksentuatsiyasining kuzatlishi.
6.Hissiyotlar namoyishining boshqarilishida ilk oʻspirinlik va oʻsmirlik davrlari oʻrtasidagi tafovutni aks ettirgan quyidagi qaysi mulohaza toʻg?ri?
A. ilk oʻspirinlikdan farqli ravishda oʻsmirlik davrida shaxs oʻz hissiyotlarini etarlicha yashira olmaydi
*B.ilk oʻspirinlikda oʻsmirlikdan farqli ravishda shaxs oʻz hissiyotlarini nafaqat yashirishga, balki niqoblashga qodir boʻladi
404
S. ilk oʻspirinlik davridan farqli ravishda oʻsmirlik davrida shaxs oʻz hissiyotlarini noverbal vositalar orqali ifodalashga qiynaladi
D. ilk oʻspirinlik davrida oʻsmirlikdan farqli ravishda shaxs ijobiy hissiyotlarni namoyish etishda oʻzini boshqarishga qiynaladi.
E. Barcha javoblar toʻgʻri.
7.Boʻsh vaqtga moʻljallangan xobbi tarzidagi qiziqishlar quyidagi qaysi yosh davri uchun koʻproq xos?
A. Kichik maktab yoshi.
B.Oʻsmirlik.
S. Oʻspirinlik.
*D. B va S javoblar toʻgʻri.
E. Maktabgacha yosh davri.
8.Doʻstlik va doʻstlarni ideallashtirish qaysi yosh davri uchun xos odatdagi xususiyatdir?
A. Maktabgacha yosh davri
B.Kichik maktab yoshi
*S. Oʻspirinlik
D. Toʻgʻri javob yoʻq.

E. Oʻsmirlik.
9. Quyidagi xususiyatlaridan qaysi biri kichik maktab yoshiga xos?
A. Bilimga qiziquvchanlik
B.Ishonuvchanlik
S. Toʻgʻrilik
*D. Taqlidchanlik
E. Barcha javoblar toʻgʻri.
10. Oʻsmirlik davri psixik oʻsishni harakatga keltiruvchi kuchlar nimalardan iborat?
*A. Uning faoliyatini vujudga keltirgan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari oʻrtasidagi qarama-qarshiliklar tizimining namoyon boʻlishidir.
B.Jamoat tashkilotlari maktab jamoasi ta'lim jarayonini qoʻyadigan talablar darajasining oshishi bilan u erishgan psixik kamolot oʻrtasidagi ziddiyatdan iborat.
S. Ijtimoiy hayotda maktab jamoasida tengqurlari bilan munosabatlarda egallagan mutlaqo yangicha mavqei ta'sirida.
D. Turli qarama-qarshiliklar ziddiyatlar shuningdek ahloqiy aqliy nafosat jihatdan tez oʻsishi.
E. Barcha javoblar toʻgʻri
405

24-BOB. KASBIY OʻZLIKNI ANGLASH SOHASINI KORREKSIYALASH

Reja:
1.Kasbiy oʻzlikni anglash sohasini korreksiyalash.
2.Kasbga yoʻnaltirish ishlarini olib borish psixolog ishining muayyan qismi sifatida.
3.Kasbiy oʻzlikni anglashga tayyorlikni shakllantirish.
4. Oʻquvchining layoqatini, yuqori sinf oʻquvchilarini kasbiy qiziqishlarini diagnostika qilish.
5.Yuqori sinflar bilan olib boriladigan kasbga yoʻnaltiruvchi korreksion-rivojlantiruvchi ishlar.
Mavzuning oʻquv maqsadi: talabalarni kasbiy oʻzlikni anglash sohasini korreksiyalash masalalari bilan tanishtirish.
Darsning vazifasi: Talabalarga oʻquvchining layoqatini, yuqori sinf oʻquvchilarini kasbiy qiziqishlarini diagnostika qilish hamda ular bilan olib boriladigan kasbga yoʻnaltiruvchi korreksionrivojlantiruvchi ishlar haqida ma’lumot berish.
Tayanch tushunchalar: Kasbiy oʻzlikni anglash, kasbiy qiziqish, kasbiy layoqat, kasbga yoʻnaltirish.

1.Kasbiy oʻzlikni anglash sohasini korreksiyalash

Klassifikatsiya – bu narsa va hodisalarning anglangan tartibi boʻlib, ularni biror bir muhim belgisi boʻyicha turlarga ajratishdir. Oʻquvchilar turli klassifikatsiyalar bilan botanika, zoologiya, ona tili va boshqa fanlarni oʻrganishda tanishib chiqishgan hamda uning qulayligini baholashgan. Xuddi shunday kasblar olamida ham klassifikatsiyadan toʻgʻri va oʻrinli foydalanish hozirgi kunda yer yuzida mavjud boʻlgan 40 mingdan ziyod kasb va mutaxassisliklar ichidan har yili taxminan 500tasi yoʻqolib va yana xuddi shuncha yangilari paydo boʻlib borayotgan vaziyatda oʻquvchi «aynan oʻzining kasbi» va u haqida avvaldan ma'lumotlar olish, zamonaviy ishlab chiqarish sohalari bilan yaqindan tanishish imkoniga ega boʻladi. Kasb klassifikatsiyasi turlari bilan oʻquvchilarni tanishtirishdan oldin kasb klassifikatsiyasi uchun asos qilib tanlangan belgiga boʻlgan talablarni oʻquvchilarga aytib oʻtilishi lozim, chunki klassifikatsiya uchun kasblarning xohlagan belgilarini olish mumkin emas. Kasb klassifikatsiyasi uchun asos qilib tanlangan belgi quyidagi talablarga javob berishi kerak:
406
Talablardan belgi faqat bitta talabgagina javob bera olmasa ham bu kasb belgini klassifikatsiya qilish uchun asos qila olmaymiz. Oʻquvchilar e'tiboriga kasblarning

beshta belgisi (mehnat nomi; mehnat xarakteri; mehnat mahsuloti; mehnat qilish uchun talab etiladigan bilim, koʻnikma, malaka darajasi; kasblarni mamlakat xoʻjaligining biror sohasiga tegishli boʻlishi) havola etiladi. Ular har bir kasb belgisidagi kamchilik, ya'ni kasb klassifikatsiyasi uchun tanlanayotgan belgilarni toʻrtta talabdan qaysi biriga javob bera olmasligini aniqlashlari lozim.
Bu interfaol oʻyin mashhur «Breyn ring» yoki «Nima, qaerda, qachon?» oʻyinlari koʻrinishida tashkil etilishi va olib borilishi mumkin. Bunda boshlovchi va komandalar ishtirok etishadi hamda oʻyin bir necha raundlardan iborat boʻladi. Hamma raundlar oʻynab boʻlingandan soʻng guruhlar toʻplagan ballari hisoblanadi va gʻoliblar aniqlanadi. Xususan, nechtasi aynan toʻgʻri javobga mos kelganligi va nechtasi toʻgʻri javobga ancha yaqin boʻlganligiga e'tibor beriladi. Ushbu interfaol usul orqali oʻquvchilarniing kasblar olami haqidagi bilimlari tashxis qilish va shu bilan birga oʻyin jarayonida toʻliq va noaniq boʻlgan tasavvurlarini toʻldirish, toʻgʻrilash imkoni paydo boʻladi.
Oʻquvchilarda narsa va hodisalarning muhim va nomuhim, birlamchi va ikkinchi darajali belgilarini aniqlay olish va ajrata olish malakasini shakllantirish, ma'lumotlarni analiz-sintez qilish, mantiqiy fikrlash koʻnikmasini rivojlantirish mumkin boʻladi.

2.Kasbga yoʻnaltirish ishlarini olib borish psixolog ishining muayyan qismi sifatida

Kasbga yoʻnaltirishdan asosiy maqsad oʻsib kelayotgan yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda kasb tanlashga tayyorlashdan iborat boʻlib, bu jarayon shaxsning boʻlgʻusi kasbiy faoliyat sub'ekti sifatida shakllantirishini nazarda tutadi hamda uning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga moslashib borishiga koʻmaklashadi.
Kasbga yoʻnaltirishga yoshlarning kasbni erkin va mustaqil tanlashining ilmiyamaliy tizimi sifatida qaralishi lozim. Bunda har bir shaxsning individual

xususiyatlarini hisobga olish, xalq xoʻjaligi manfaatlari nuqtai nazaridan mehnat zahiralari bilan toʻlaqonli ta'minlash zarurati kabi omillarni e'tiborda tutish joizdir.
Oʻquvchilarni kasb-hunarga yoʻnaltirish tizimining asosiy tarkibiy qismlari quyidagi faoliyatlardan iborat:
- oʻz ichiga kasbiy targʻibot va tashviqotni olgan kasbiy ma'rifat (kasbiy axborot) ;
- u yoki bu soha, kasbga boʻlgan shaxs qiziqish va qobiliyatlarining birlamchi kasbiy diagnostikasi ;
- kasb tanlashda mutaxassislar tomonidan individual, guruhiy yordam koʻrsatishga qaratilgan kasbiy konsultatsiya ;
- koʻproq muvaffaqiyatga erishishi mumkin boʻlgan kasbni tanlab olishga qaratilgan kasbiy tanlov ;
- ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida amalga oshiriluvchi ijtimoiy-kasbiy adaptatsiya (moslashuv);
- tanlangan kasbni oʻrganish jarayonida burch, mas'uliyat, kasbiy or-nomus, oriyat hislarini oʻquvchilarda shakllantirishga qaratilgan kasbiy tarbiya.
Ular ichidan kasbiy ma'rifat (kasbiy axborot) oʻquvchilarga kasblar olami, kasblarning belgi va xususiyatlari, kasb klassifikatsiyasi, kasblar professiogrammasi, hududning qaysi kasblarga ehtiyoji borligi toʻgʻrisidagi axborotlarni berishdan iborat boʻlib, ular asosida oʻquvchi oʻzini qiziqtirgan, jamiyat uchun zarur boʻlgan kasbni

tanlaydi.
Ushbu ma'lumotlar ichidan kasb klassifikatsiyasi alohida ahamiyatga ega boʻlib, uni qanchalik aniq va mukammal oʻzlashtirib olganligi oʻquvchini ulkan kasblar ummonida toʻgʻri moʻljal olishini belgilab beradi.
Kasb klassifikatsiyasi haqida soʻz yuritishdan avval oʻquvchilar tasavvurlarida kasb va mutaxassislik tushunchalari hamda ular oʻrtasidagi oʻxshashlik va farqlarni aniq ajratib olishlari lozim. Bu tushunchalarning ma'no va mazmunlarini ajrata olish keyinchalik kasb klassifikatsiyasi asosida turli interfaol mashqlarni bajarishda oʻquvchilarga yordam beradi. Buning uchun oʻquvchi anglab yetadigan ushbu tushunchalarning ta'riflarini keltirish kerak.
408
Kasb va mutaxassislik nima ekanligi haqida bir qancha ilmiy va ommabop ta'riflar mavjud boʻlib, ular ichidan ushbu atamani keng qamrovli va toʻlaqonli ochib beruvchi ta’rif E.N. Prohitskaya tomonidan keltirilgan. Unga koʻra, kasb – bu jamiyat uchun zarur boʻlgan, ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida chegaralangan, insondan jismoniy, aqliy, ma'naviy kuch talab etuvchi va sarflangan kuch evaziga insonga mavjud boʻlish hamda rivojlanish imkonini beruvchi faoliyat sohasi. Masalan, oʻqituvchi, shifokor, injener, dizayner va h.k.
Mutaxassislik tushunchasiga ham ta'rif berilgan boʻlib, unga koʻra, mutaxassislik – bu bitta kasb ichida tor doiradagi faoliyat turi. Masalan, tarix oʻqituvchisi, matematika oʻqituvchisi, stomatolog, kardiolog, pediator, quruvchiinjener, loyixalovchi-injener, injener-konstruktor, badiiy libos dizayneri, mebel dizayneri, interyer dizayneri va h.k. Bundan tashqari mansab, lavozim hamda ilmiy unvon tushunchalariga ham toʻxtalib oʻtish foydadan holi boʻlmaydi.
Lavozim – bu egallangan kasb va mutaxassislik doirasidagi mehnat jarayonini tashkil etish va unga rahbarlik, boshchilik qilish bilan bogʻliq boʻlgan faoliyat turidir. Masalan, maktab direktori,oʻquv-tarbiya ishlari boʻyicha rahbar oʻrinbosari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar boʻyicha rahbar oʻrinbosari, boʻlim boshligʻi, bosh injener, zavod direktori, bosh shifokor va h.k.
Ilmiy unvon – bu egallangan kasb va mutaxassislik sohasi boʻyicha kiritilgan yangilik va kashfiyotlar uchun beriladigan ilmiy darajadir. Masalan, dotsent, professor va h.k.
Oʻrganilgan adabiyotlarda tadqiqotchilar va amaliyotchilar tomonidan kasbga yoʻnaltirishning usul va uslubiyatlari ishlab chiqilgan boʻlib, bu borada kasb klassifikatsiyasi alohida e'tiborga sazovordir.

3.Kasbiy oʻzlikni anglashga tayyorlikni shakllantirish

Hayotda turli xil kasblar mavjud. Bir odam bir necha xil kasblarni egallashi mumkin, lekin shu bilan birga har bir kasb shu qadar murakkab-ki, inson oʻz hayotini, asosan, ana shu bir kasbga bagʻishlashi mumkin. Shu asosda kasb tanlash muammosi vujudga keladi. Aslida kasb tanlash bogʻcha davrdan boshlab, bolalarning
409
rolli oʻyinlarida koʻrinadi. Demak, bola oʻyin orqali toʻla kasblar va shu faoliyat bilan tanisha boshlaydi. Masalan: «magazin» yoki «bozor» oʻyini orqali bola ham «sotuvchi» ham «xaridor» boʻla oladi, «pul» va «tovar» bilan muomala qilishni oʻrganadi. Bu bosqichni kasb tanlashga tayyorgarlikni boshlanish bosqichi deb atash mumkin. Keyingi yosh davrlarda bu tayyorgarlik turli faoliyatlarda va turlicha koʻrinishlarda davom etadi. «Men kim boʻlaman?» savoliga toʻqnash keladi. Ma'lum

bir kasbda faoliyat koʻrsatishni boshlayotgan oʻspirin unga intellektual, ijtimoiypsixologik hamda axloqiy jihatdan tayyor boʻlishi kerak. Oʻsmirlik davrining oxirlari va oʻspirinlik yoshiga kelib, ularda mehnat koʻnikma va malakalari rivojlanadi. Bu koʻnikma va malakalaridan ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatlari bilan toʻgʻridanto ʻgʻri bogʻliq. Tajribalarning koʻrsatishicha, oʻspirinlik davriga kelib unda kelgusida yaxshi kasbiy layoqatlarni yuzaga kelishiga umid bogʻlash qiyin.

Rus psixologi E.A. Klimov oʻz izlanishlarini mehnat va inson oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar mavzusiga bagʻishlagan. U kasb belgilaridan mehnat xususiyatlari kasblarni klassifikatsiya qilish uchun toʻrtta talabning barchasiga javob bera oladi, deb koʻrsatgan. E.A. Klimov mehnatning toʻrtta asosiy xususiyatini ajratgan va ular yer yuzidagi har qanday kasbga xos ekanligini ta'kidlagan.

E.A. Klimov taklif etgan kasb klassifikatsiyasini quyidagicha ta'riflash mumkin:

- har bir mehnatni predmeti bor, ya'ni inson mehnat jarayonida diqqat-e'tiborini atrof voqelikning biror bir tomoniga yoʻnaltirgan boʻladi – bu predmet boʻlib hisoblanadi. Mehnat predmeti besh xildir: texnika, tabiat, inson, belgili sistema, badiiy obraz ;
- har bir mehnatning maqsadi bor, ya'ni inson predmet bilan biror sa'y va xattiharakatni ma'lum bir maqsadni amalga oshirish niyatida sodir qiladi. Mehnat maqsadi uch xil boʻladi: gnostik, oʻzgartiruvchi, kashf qiluvchi;
- har bir mehnatni quroli bor, ya'ni inson qaysidir predmet bilan ma'lum bir maqsadni koʻzlab sa'y va xatti-harakatni qandaydir qurol yordamida amalga oshiradi. Mehnat quroli toʻrt xil boʻladi: qoʻl mehnat qurollari, mexanizatsiyalashgan mehnat

qurollari, avtomatlashgan mehnat qurollari, inson organizimining funksional vositalari;
- har bir mehnatning sharoiti bor, ya'ni inson qaysidir predmet bilan ma'lum bir maqsadni koʻzlab sa'y va xatti-harakatni qandaydir qurol yordamida amalga oshirish jarayoni qandaydir joy yoki sharoitda kechadi. Mehnat sharoiti toʻrt xil boʻladi:

4. Oʻquvchining layoqatini, yuqori sinf oʻquvchilarini kasbiy qiziqishlarini diagnostika qilish

Ma'lum bir kasbda faoliyat ko’rsatishni boshlayotgan o’spirin unga intellektual, ijtimoiy-psixologik hamda axloqiy jihatdan tayyor bo’lishi kerak. O’smirlik davrining oxirlari va o’spirinlik yoshiga kelib, ularda mehnat ko’nikma va malakalari rivojlanadi. Bu ko’nikma va malakalari ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatlari bilan to’g‘ridan-to’g‘ri bog‘liq. Har qanday kasbiy ko’nikma va malakalarning o’sishi, avvalo, o’spirin intellektining umumiy rivojlanganlik darajasiga bog‘liq. Shuning uchun ham bu davrdagi o’spirinlar intellektining rivojlanishiga alohida e'tibor berish lozim. Bu yoshdagi bolalar uchun muloqotga kirishish ehtiyojining mavjudligi ham juda muhim, lekin u yetakchi emas, faqat tanlagan kasb va yo’nalishlari bo’yicha mashhul bo’lmagan o’spirinlargina ko’proq tengdoshlari bilan muloqotda bo’lishga ehtiyoj sezadilar. Bu yoshdagi bolalar mehnat faoliyati bilan xuddi kattalardek shug‘ullana oladilar. Ilk o’spirinlik davrini kasbiy bilim, ko’nikma va malakalarning shakllanishi uchun senzitiv davr deb hisoblash mumkin. O’zining kasbiy taqdirini tasodifan yoki noto’g‘ri hal etilishi murakkab ichki kechinmalarga, ikkilanishlarga, ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Bu esa yigit va qiz hayoti uchun ham, jamiyat

uchun ham katta zarar keltiradi. Kasb tanlash vaqtida ilk o’spirinlar o’z moyilligi va qobiliyatlarini shaxsiy sifatlar, xususan, nerv sistemasining tipi, analizatorlar xususiyati, emotsional-irodaviy sifatlarini ham hisobga olishlari zarur.
Kasbiy moyillikni diagnostika qilishda Xolland metodikasi, “Kasbiy motivatsiyani aniqlash” metodikasi, Differensial diagnostik soʻrovnoma va shu kabi metodikalardan foydalanish mumkin.
Xolland metodikasi amerikalik psixolog olim Y.Xolland tomonidan taklif etilgan. Unga koʻra odamlar va koʻpchilik kasblarni shartli ravishda 6 guruhga boʻlish mumkin (realistik, ijtimoiy, konvensial (shartli), tadbirkor, artistik tiplar). Bu metodika yuqorida qayd qilingan tiplarni qay biri qay darajada shaxsda namoyon boʻlishini aniqlash imkonini beradi. Kasblarning xususiyati shundaki, shaxs psixologiyasida qaysi bir yoʻnalish koʻproq shakllangan boʻlsa, shu kasb oʻziga koʻproq jalb qiladi.
Kasbiy motivatsiyani aniqlash metodikasi. Kabiy motivatsiya (moyillik) kasb tanlashga sabab boʻladigan aniq ragʻbatlantiruvchi harakatdir.Kasb egallash istagi oʻquvchilarda ijtimoiy muhit omillari va maktabda oʻtkaziladigan kasb-hunarga yoʻnaltiruvchi ishlar orqali shakllanadi. Kasbiy motivatsiya oʻzgaruvchan, uning shakllanishi uzluksiz jarayon boʻlib, ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sirida boradi. Shu tufayli kasbiy motivatsiyani ilk bosqichlarda aniqlash va zarurat boʻlsa, ularni toʻgʻrilash maqsadga muvofiqdir. Kasbiy motivatsiyani guruhlarda va individual oʻrganish mumkin. Ushbu metodikani oʻtkazishda oʻsmirlarga javoblar varaqasi tarqatiladi, qoʻllanma oʻqiladi. Savolnoma tasdiq gaplardan iborat boʻlib, har bittasi 3ta har xil ma'noli gap bilan tugallangan. 3 vapiant javobdan faqat bitta toʻgʻri kelgan javobni topib javoblar varagʻiga belgilash lozim. Kasbiy faoliyat motivlari orasidan 4 asosiy guruhni ajratsa boʻladi:
1. Oʻz mehnatining motivlari – odam uchun mehnat jarayonining muhimligini bildiradi.
2. Mehnatining ijtimoiy ahamiyatli motivlari – jamiyat tomonidan talab qilinayotgan kasbni tanlashga bogʻliqligi haqida guvohlik qiladi.

3. Oʻzini shaxs sifatida tasdiqlash – kasbni tanlashda oʻzining qobiliyatini mehnatda amalga oshirish imkoniyatini koʻrsatadi.
4. Kasbiy mohirlik motivlari – mehnatda yaxshiroq natijaga erishishni koʻrsatadi.
Quyida Xolland metodikasini keltirib oʻtamiz.
Xolland metodikasi
Metodikani oʻtkazish tartibi: Metodika savolnomasini oʻquvchilarga berishdan oldin, ularga quyidagi koʻrsatma beriladi: «Quyidagi juft-juft taklif etilgan kasblardan oʻzingiz uchun har bir juftdan bittasini tanlang va «a» yoki «b» grafalar yonida «+» yoki «— » belgisini qoʻying. Ikkala kasbdan bittasini tanlash shart.
Kasblar roʻyxati
1.Muhandis(1)_____Sotsiolog (2)_____
2.Qandolatchi(1)_____Taqvodor (3)_____
3. Oshpaz(1)_____Statist (4)_____
4. Suratkash(1)_____Savdo zali ma'muri (5)_____
5.Mexanik(1)_____Bezakchi 6)_____

6.Faylasuf(2)_____Shifokor (3)_____
7.Ekolog(2)_____Hisobchi 4)_____
8.Dasturchi(2)_____Advokat (5)_____
9.Kinolog(2)_____Badiiy adabiyot tarjimoni (6)__
10.Sugʻurta agenti (3)_____Arxivshunos (4)_____
11.Murabbiy(3)_____Telereportyor (6)_____
12.Tergovchi(3)_____San'atshunos (6)_____
13.Notarius(4)_____Broker (5)_____
14.EHM operatori(4)_____Manekenshik (6)_____
15.Fotomuxbir(5)_____Ta'mirlovchi (6)_____
16.Koʻkalamzorlashtiruvchi(1)___Biolog-tadqiqotchi (2)____
17.Avtotransport haydovchisi (1)___Bortnazoratchisi (3)____
18.Meteorolog (1)_____Kartograf (3)_____
19.Radiomontajchi (1)_____ Yogʻochga ishlov beruvchi (6)_____
413
20.Geolog(2)_____Gid-tarjimon (3)_____
21.Muxbir(5)_____Rejissyor (6)_____
22. Bibliograf (2)_____Auditor (4)_____ ___
23. Dorishunos (2)_____Huquqshunos maslahatchi (3)____
24. Irsiyatchi (2)_____ Me'mor (6)_____
25.Sotuvchi (3)_____Pochta aloqasi operatori (4)___
26. Ijtimoiy xodim (3)_____Tadbirkor (5)_____
27. Oliy oʻquv yurti oʻqituvchisi (3)__Musiqachi-ijrochi (6)___
28. Iqtisodchi (4)_____Menejer (5)_____
29. Korrektor (4)_____Dirijyor (6)_____
30.Bojxona inspektori (5)____Modeler (2)_____
31.Telefonist (1)_____Ornitolog 2)_____
32.Agronom (1)_____Topograf (4)_____
33.Oʻrmonchi (1)_____Direktor (5)_____
34. Kiyim kechak boʻyicha usta (1)___Xoreograf (6)_____
35. Tarixchi (2)_____DAN inspektori (4)_____
36. Antropolog (2)_____Ekskursovod (3)_____
37. Virusolog (2)_____Aktyor (6)_____ _
38. Ofitsiant (3) _____Tovarshunos (5)_____
39. Bosh hisobchi (4)_____Jinoyat qidiruv inspektori (5)____
40. Sartarosh-modeler (6)_____Psixolog (3)_____
41. Asalarichi (1)_____Savdogar (5)_____
42. Hakam (3)_____Stenografist (4)_____

Metodikaning afzal jihatlaridan biri shundan iboratki, bunda olingan natijalarni osonlik bilan qayta ishlash mumkin. Bu esa olingan natijalar asosida oʻquvchi bilan uning kasbiy maqsadlari va shaxsidagi ustuvor yoʻnalishlar haqida darhol suhbatlashish imkonini beradi.

Metodika natijalarini tahlil qilish uchun har bir oʻquvchining javob varaqasi alohida ishlab chiqiladi. Buning uchun 6 yoʻnalish boʻyicha eng koʻp ball toʻplagan
414
yoʻnalish yetakchi hisoblanadi, bunda shu yoʻnalishdagi ballar yigʻindisi 5 balldan kam boʻlmasligi kerak.

Tiplarning tahlili:
1. Realistik tip. Bunday tipdagi shaxs koʻproq konkret, ya'ni aniq ob'ektlar (narsalar, asbob uskunalar, hayvonlar, mashinalar) bilan shugʻullanishni afzal koʻradilar, konkret ob'ekt bilan shugʻullanish, chaqqonlik va aniqlikni yoqtiradi. Odamlar bilan muloqotda boʻlishni yoqtirmaganligi sababli yuqori lavozimlarda ishlashni xush koʻrmaydi. Injener, mexanik, elektrik, agronom, bogʻbon, haydovchi va shunga oʻxshash kasblarni tanlaydi.
2.Intellektual tip. Bunday odamlar oʻzining sezgir va boy xayolligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Ular amaliy mashgʻulotlarni bajarishdan koʻra, muammolarni nazariy hal qilish ustida oʻylashni yoqtiradilar. Mavhum kasblarni tanlashadi: biolog, botanik, astronom, fizik.
3.Ijtimoiy tip. Bunday odamlar muammoni yechishda koʻproq oʻzlarining intellektual qobiliyatlaridan koʻra shaxsiy hissiyot va tuygʻularga asoslanadilar. Mexanizmlar bilan shugʻullanishni yoqtirmaydilar. Koʻproq ta'lim va sogʻliqni saqlash sohasiga qiziqadilar: shifokor, psixolog, oʻqituvchi kasblarini tanlashlari mumkin, chunki ularda muloqotga kirishish, boshqaruv va san'atga ehtiyoj katta.
4.Konvensial (shartli) tip. Bunday odamlarda moslashish salohiyati juda past. Ularga past faollikni talab qiluvchi mashgʻulotlar va mutaxassisliklar hamda aniq tizimli faoliyatlar koʻproq yoqadi. Chunki bunday faoliyatlarda aniqlik va noaniqlik belgilab berilgan. Boshqaruv faoliyati qoʻl kelmaydi, chunki bunday odamlar masalalarni hal qilishda koʻproq boshqalarning fikriga suyanadilar. Tavsiya etilgan kasblar iqtisod, hisobchi, kotiba va hokazo.
5.Tadbirkorlik tipi. Bunday tiplar yuqori lavozimlarda ishlashni yoqtiradilar, Ularga qoʻl mehnati, diqqatni bir nuqtaga jalb etuvchi faoliyatlar yoqmaydi. Ular quyidagi kasblarni tanlaydilar: direktor, teleoperator, artist, diplomat, jurnalist.
6. Artistik (kreativlik) tip. Bunday insonlarda xayol va intuitsiya yaxshi rivojlangan. Ular hayotni murakkablashgan holda qabul qiladilar. "Erkaklashtirilgan" – sport, avtota'mirlash kabi ishlar qiziqtirmaydi. Ular ijodiy xarakterli

mashgʻulotlarni xush koʻradilar. Ya'ni, musiqa, rassomchilik, adabiyot va shu kabi sohalarda yuqori natijalarga erishishlari mumkin.

5.Yuqori sinflar bilan olib boriladigan kasbga yoʻnaltiruvchi korreksionrivojlantiruvchi ishlar

E.A. Klimovning kasb klassifikatsiyasi asosida turli mashqlar va interfaol oʻyinlarni tashkil etish mumkin. Taklif etilayotgan ushbu oʻyinlar va mashqlar kasblar olamida moʻljal ola olish qobiliyatini rivojlantiradi. 8-9 sinf oʻquvchilariga kasblar xususiyatlarini hamda uning insonga boʻladigan talablarini toʻgʻri aniqlay olish va bu talablarni oʻz xususiyatlariga solishtirib koʻrish imkoniyatini beradi. Bu mashq va oʻyinlarni guruhlarda yoki individual tarzda oʻtkazish mumkin.
Mashq va oʻyinlarni tashkil etishda oʻquvchilarga avvaldan kasb klassifikatsiyasi, formulasi haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtirilgan boʻlishi lozim. Oʻquvchilarda mehnat xususiyatlari haqida ma'lum bir tasavvurlar boʻlishi kerak. Oʻquvchilarda kasbiy mehnat faoliyat bilan bogʻliq atamalar haqidagi tasavvurlarni shakllantirish hamda mustahkamlash maqsadida bir nechta interfaol usullarni taklif etamiz. Ushbu oʻyin va mashqlar oʻquvchilarda tafakkur aqliy operatsiyalarini, analiz-sintez, mantiqiy fikrlash, umumlashtirish, taqqoslash

xususiyatlarini rivojlantirish hamda kasb va mutaxassisliklarni oʻziga xos belgilarini, mehnat xususiyatlarini ajrata olish koʻnikmasini shakllashtirishga yordam beradi.
1-Topshiriq. «Kim ishlamasa ham boʻladi ?»
Koʻrsatma: oʻquvchilar guruhlariga savol bilan murojaat etiladi. 2 minut vaqt beriladi.
Savol: mehnat qilmasalar ham yashash tarzi va darajasiga salbiy ta'sir koʻrsatmaydigan insonlarning toʻrt guruhini ajrating hamda ular nima uchun mehnat qilmasalar ham boʻlaverishini tushuntirib bering.
Toʻgʻri javob: 1-guruh – bolalar, chunki ular ota-ona qaramogʻida (yetim bolalar davlat qaramogʻida) hali mehnat layoqati yoshiga
etmagan;
416
2-guruh – keksalar, chunki ular nafaqada, mehnat layoqati yoshidan
oʻtishgan;
3-guruh – mehnatga yaroqsiz boʻlgan nogironlar, chunki ular oʻzlari xattiharakatlarini boshqarish va nazorat qilish imkoniga ega emaslar, nafaqada va davlat himoyasida;
4-guruh – «marhumlar, chunki ular bu moddiy dunyo ne'matlaridan hech biriga endi muxtojliklari yoʻq».
Baholash tartibi : 1, 2, 3-guruhnigina toʻgʻri topgan guruhga 1 balldan, 4-guruhni koʻrsatgan guruhga yana 1 ball qoʻshib beriladi.
2-Topshiriq. «Paydo boʻlgan va yoʻqolgan kasblarni top».
Koʻrsatma : Qisman yoki umuman yoʻqolib ketgan hamda faqat XXasrga kelib paydo boʻlgan kasb va mutaxassisliklarni toping. (Bu topshiriqning yana bir boshqacha koʻrinishida, tayyor kasb va mutaxassisliklar beriladi, oʻquvchilar esa ular ichidan qisman yoki umuman yoʻqolib ketgan hamda faqat XXasrga kelib paydo boʻlgan kasb va mutaxassisliklarni ajratib olishadi).
Baholash tartibi : Eng koʻp va toʻgʻri topilgan kasblar soni hisobga olinadi.
3- Topshiriq. «Toʻrt guruhga ajrat».
Koʻrsatma : oʻquvchilar bir nechta guruhlarga boʻlinadi. Guruhlarga kasb va mutaxassisliklar, lavozimlar hamda ilmiy unvonlar yozilgan kartochkalar toʻplami beriladi va ikki minut ichida ularni toʻrt guruh: kasblar, mutaxassisliklar, lavozimlar, ilmiy unvonlarga ajratish soʻraladi.
Baholash tartibi: har bir guruhdagi toʻgʻri ajratilgan kasblar, mutaxassisliklar, lavozimlar, ilmiy unvonlar soni va ajratishga ulgurilmay qolganlari soni hamda notoʻgʻri ajratilganlari soni hisoblanadi.
4-Topshiriq. «Juftini top».
Koʻrsatma: oʻquvchilar bir nechta guruhlarga boʻlinadi. Guruhlarga kasb va mutaxassisliklar, lavozimlar hamda ilmiy unvonlar yozilgan kartochkalar toʻplami beriladi va ikki minut ichida ularni har birini juftlari topib berish soʻraladi.
417
Baholash tartibi: har bir guruhdagi toʻgʻri ajratilgan kasblar, mutaxassisliklar, lavozimlar, ilmiy unvonlar juftliklari soni va ajratishga ulgurilmay qolganlari juftliklar soni hamda notoʻgʻri ajratilganlari juftliklar soni hisoblanadi.
5-Topshiriq . «Ishtirokchilarni aniqlang».
Koʻrsatma : Ma'lum bir buyum, maxsulotni yaratishda ishtirok etuvchi yoki xizmat koʻrsatuvchi kasb va mutaxassisliklar roʻyxatini 2 minut ichida tuzing.

Masalan, badiiy kinofilm; non-buxanka; gazeta; transportda biror axoli punkitiga borish; oʻrta ma'lumot olish imkoniyati va h.k.
Baxolash tartibi: eng koʻp hamda toʻgʻri kasb va mutaxasisliklar roʻyxatini tuzgan guruh gʻolib boʻladi.
“Kelgindilar” oʻyini
Oʻyindan koʻzlangan maqsad jamiyat va ayrim inson turmushida mehnatning rolini koʻrsatib berishdan iborat. Oʻyin baxtga erishish yoʻlida mehnatning rolini tushunish muammosi bilan bogʻlangan boʻlishi, uzoq kelajakdagi kasbiy maqsadni aks ettirishi va uning boshqa hayotiy maqsadlarga muvofiq boʻlishini belgilab berishi lozim. Oʻyindan jamiyat turmushida mehnatning roli, mehnat va shaxs mavzularini oʻrgangan holda kasb tanlash kursi doirasida foydalanish mumkin.
Oʻyinni oʻtkazish shartlari: Oʻyin oʻquvchilarning butun bir sinfi bilan (7-8 sinflar) ishlashga moʻljallangan. Oʻyin uchun ajratilgan vaqt 30-40 daqiqa. Oʻquvchilarni ruchka va qogʻozlari boʻlishi kerak.
Oʻyin tartibi: Ushbu oʻyin zoʻr berib tayyorgarlik bosqichisiz oʻtkazilishi mumkin. Jamiyat turmushida mehnatning roli toʻgʻrisidagi ma'ruza materialini maktab oʻquvchilariga oʻyin oldidan ham,oʻyindan keyin ham taklif qilish mumkin. Ana shu materialning tarkibiy qismlaridan oʻyin natijalarini muhokama qilgan chogʻda ham foydalanish mumkin. Oʻyinning oʻzida quyidagi bosqichlar shartli ravishda namoyon boʻladi:
1. Sinf oʻquvchilaridan 2-3 kishi tanlanadi ular “kelgindilar” boʻlishadi. Ularni sinf peshqadamlaridan boʻlishi maqsadga muvofiqdir.

2. Quyidagi mazmundagi umumiy yoʻl-yoʻriq beriladi: boshqa sivilizatsiya namoyondalari sayyoramizga kelganliklari haqidagi xabarni kutilmagan bir paytda oldik. Gʻoyat xilma-xil gazeta, jurnal, dastur uyushtirildi. Texnikaviy jihatdan murakkabligi tufayli “kelgindi” larning boʻlish vaqti 15 daqiqa bilan cheklangan. Shu vaqt ichida bizning sivilizatsiyamiz bir-birlari toʻgʻrisida eng asosiy narsalarni bilib olishi lozim.
3. “Kelgindi”larga ogʻzaki yoki yozma tarzda quyidagi mazmunda darhol yoʻlyo ʻriq beriladi. “Hozir sizlar sinfdan chiqib qanday maqsadda va qayerdan kelganligingizni 3-4 daqiqa ichida oʻylab aytib berasiz. Sayyorangiz haqida kichik hikoya tayyorlang, bunda sizning aholingiz nima bilan shugʻullanayotganligini qanday yashayotgani toʻgʻrisida javob berishga tayyor boʻling. Oʻzingizning “Oʻzga sayyoralik” tashqi koʻrinishingiz toʻgʻrisida oʻylab koʻrishingiz mumkin.
4. “Kelgidi”lar yoʻlakda tayyorgarlik koʻrayotganlarida jurnalistlarga ya'ni sinfda qolganlarga quyidagi mazmunda yoʻriqnoma beriladi. Sizlar u yoki bu agentlik radio yoki teleprogrammalar, jurnallar yoki gazetalarning vakillarisiz.Aynan qaysi organning vakili ekanligingizni oʻylab koʻring. Sizlar savollarni oʻz sayyorasi haqida gapirib boʻlganlaridan keyin berasizlar. Savolni bera turib qoʻlingizni koʻtaring va oldindan oʻzingiz vakil boʻlgan organni aytib bering. Savollar loʻnda va qiziqarli boʻlishi kerak.
5. Olib boruvchi “Oʻzga sayyoralik”larni taklif qiladi, ularni samimiy tabriklaydi va uchrashuv vaqti cheklanganligini eslatib darhol ularga soʻz beradi. “Oʻzga sayyoralik”lar oʻz sayyorasi haqida qisqacha 5-daqiqa gapirib beradi.
6. Oʻyinni olib boruvchi jurnalistlarga savollar berishni “oʻzga

sayyoralik”larga esa bu savollarga qisqacha javob qaytarishni taklif qiladi. Eng qiziqarli savolni berish shu bosqichdagi musobaqaning asosiy jihatidir. Ba'zi savollarni oʻyinini olib boruvchining oʻzi berishi mumkin, lekin buni jurnalistlarga berish yaxshiroq, chunki muhokama chogʻida oʻquvchilarni savollari tahlil qilinishi lozim.
7. Uchrashuv tugashiga 1 daqiqa qolganda ya'ni oʻyin boshlangandan 14 minut oʻtgach oʻyin olib boruvchi oʻyin qatnashchilarini bu haqda ogohlantiradi va oʻyining

15 minutida “kelgindilar” gʻoyib boʻlganliklarini e'lon qiladi. “Gʻoyib boʻlgan” mehmonlarga sinfda oʻz joylarini egallashlari taklif qilinadi.
8. Soʻngra oʻyinning barcha qatnashchilari matbuot konferensiyasidan olgan dastlabki taassurotlari toʻgʻrisida qisqacha axborot yozishlari, bu axborotlarda ikki jihat – sivilizatsiya rivojlanish darajasiga baho berish va ushbu sivilizatsiya bilan aloqa bogʻlashning maqsadga muvofiq jihatlari aks ettirilishi lozim. Jurnalistlar oʻzlari qaysi organ vakili ekanliklarini oʻz varaqalariga yozib qoʻyadilar va imkoni boʻlsa oʻz xabarlariga koʻzga tashlanib turadigan nomlar beradilar, kelgindilar esa boshqa sivilizatsiyaga mansub ekanliklarini qayd qiladilar. Bularning hammasi uchun 5-7 daqiqa vaqt beriladi.
9. Oʻquvchilarning hammasi xabarlarni yozib ulgurganliklari yoki ulgurmaganliklaridan qat'iy nazar 5-7 daqiqadan keyin xabarlar yigʻishtirib olinadi. Birinchi boʻlib yozganlarni jurnalistik operativlik uchun maqtab qoʻyish mumkin. Toʻplangan xabarlar ovoz chiqarib oʻqib beriladi. Oʻqib berishni ikki oʻyin qatnashchisiga “Ayniqsa passivlarga” taklif qilish maqsadga muvofiqdir. Ular xabarlarni navbatma-navbat oʻqib beradilar. Ushbu tartib oʻyini muhokama qilishga tayyorgarlik koʻrishdir. Bu bosqich uchun ajratilgan vaqt 5-7 daqiqa.
“Uyushma” oʻyini
Oʻyindan kuzatiladigan maqsad: maktab oʻquvchilarini turli kasblarga boʻlgan haqiqiy munosabatini aniqlashdan va imkoni boʻlsa ana shu munosabatni toʻgʻrilab qoʻyishdan iborat. Ushbu oʻyinni “professiogramma” mavzusini oʻrganish chogʻida oʻtkazish maqsadga muvofiqdir. Oʻyinning nisbatan oddiyligi va his-tuygʻuga boy boʻlishi “Kasb tanlash kursi” doirasidan tashqarida, masalan, tuman markazlari negizida, zavodlarning kasb tanlashga yoʻllovchi laboratoriyalarida maktab oʻquvchilari bilan uchrashgan chogʻida foydalanish imkonini beradi.
Oʻyinni oʻtkazish shartlari: oʻyinda butun sinf (7-8 sinf) oʻquvchilari, shuningdek, barcha yuqori sinflarning oʻquvchilari qatnashadilar. 1-oʻyin uchun 15 daqiqa, undan keyingi oʻyinlar uchun 5-7 daqiqadan vaqt ajratiladi oʻyin uchun sinf doskasi zarur.

Oʻyin tartibi (bosqichlari): oʻyin zoʻr tayyorgarliksiz boshlanadi (1-2 bosqichlarida oʻyinga kirishiladi).
Oʻyinning nomi e'lon qilinadi va 3 ta asosiy oʻyinchi tanlanadi sinfdagi har qanday oʻquvchi bunga saylanishi mumkin.
Oʻyin shartlari e'lon qilinadi: Hozirgi uch kishi sinfdan chiqadi, sinf esa koʻnglida biron kasbni oʻylab qoʻyadi. Soʻngra uch kishi sinfga kirib uyushmaga oid savollar, masalan, bu kasb qanday rangni, qanday hidni eslatadi, qanday mebeldan foydalaniladi va shu kabi boshqa savollar yordami bilan jumboqni bilib olishga urinadi.

Soʻngra oʻyinni olib boruvchi jumboqni topuvchilarga quyidagi yoʻl-yoʻriq beradi: “Har biringiz ikkitadan ana shunday savol berishingiz mumkin.
Oʻyinni olib boruvchi 3 kishini – jumboqni topadiganlarni, taklif qiladi. Ular navbatma-navbat sinfdagilarga savol beradilar, oʻyinni olib boruvchining oʻzi savollarni, javoblarni loʻnda qilib doskaga yozib qoʻyadi. Savollar butun sinfga emas, balki konkret oʻquvchilarga berilishini kuzatadi va oʻyinni joʻshqin boʻlishini koʻzdan kechiradi.
Barcha savol-javoblar tugab (doskaga ham yozib qoʻyilgandan keyin) oʻyinni olib boruvchi uch nafar topib oluvchiga 1 daqiqa davomida oʻz javoblarini oʻylab koʻrishlarini taklif qiladi, shu paytda oʻyinni olib boruvchi sinfdagilarga kimlarning javoblari unchalik yaxshi boʻlmaganligini oʻylab koʻrishni taklif qiladi.
Jumboqlarni bilib oluvchilar javoblarni – oʻz variantlarini aytadilar, bu javoblar bilib olgan kasb bilan butunlay mos kelmasligi mumkin, masalan, harbiy uchuvchi kasbi topilganda kosmanavt, militsioner, xaydovchi degan javoblar olindi. Koʻrinib turibdiki, harbiy uchuvchi bilan kosmanavt bir-biriga ancha yaqin. Oʻquvchilar kasbni bilib oladilarmi yoki yoʻqligini aniqlash xuquqi sinfdagilarga berilishi kerak. Biroq bu masala muhokama qilingandan keyin uzil-kesil hal etiladi. Bilib olingan kasb tabiiyki aytiladi.
Oʻyinning muhokama qilinishi: uyushmaga doir savolga qaytarilgan har bir javobning toʻgʻriligi alohida-alohida muhokama qilinadi. Basharti sinfdagilar javobga rozi boʻlmasalar, shunday javob qaytargan oʻquvchidan izoh berishni talab qilishlari

mumkin. Koʻpincha bunday izohlar be'mani boʻladi. Masalan, bir oʻyinda militsioner kasbi oʻylab topiladi va kasb qanday rangli savolga qora va oq deb javob qaytariladi, ma'lum boʻlishicha, oʻquvchi militsionerning kalta tayoqchasini nazarda tutgan ekan. Muvaffaqiyatsiz chiqqan javoblarni aniqlagan vaqtda sinfdagilar kasbga bir muncha mos boʻlgan savollar oʻylab topish taklif qilinadi. Bunda oʻyinni olib boruvchi ham qatnashib,oʻquvchilarni kasb toʻgʻrisidagi tasavvurlarini kuzatish mumkin. Bilib oluvchilardan qanday javoblar oʻzlariga hammadan koʻproq yordam bergani va aksincha, qanday javoblar chalgʻitgani soʻrab olinishi mumkin. Javoblarni tuzatgandan keyin kim yutganini aniqlash mumkin (durang natija ham boʻlishi mumkin).
Oʻyinni aniqlash imkoniyatlari: oʻyin turli kasblarga nisbatan bildirilgan histuyg ʻularni aniqlash imkonini beradi. Bunday munosabatning xarakteri kasb tanlashga kuchli ta'sir oʻtkazilganligi sababli oʻyinni olib boruvchi sinf toʻgʻrisida va ayrim oʻquvchilar haqida ancha muhim axborot oladi. Chunki bir dars mobaynida koʻpgina maktab oʻquvchilari faol ishtirok etishlari mumkin.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

1.Kasbiy oʻzlikni anglash deganda nima tushunasiz?
2.Kasbga yoʻnaltirish ishlari qanday olib boriladi?
3.Kasbiy oʻzlikni anglashga tayyorlikni shakllantirish nimalarni oʻz ichiga oladi?
4. Oʻquvchining layoqatini, yuqori sinf oʻquvchilarini kasbiy qiziqishlarini diagnostika qilishda qanday metodikalardan foydalanish mumkin?
5.Yuqori sinflar bilan olib boriladigan kasbga yoʻnaltiruvchi korreksion-rivojlantiruvchi ishlar qanday tashkil etiladi?

Mavzu yuzasidan test savollari:

1.Kasb klassifikatsiyasi uchun asos qilib tanlangan belgi qanday talablarga javob berishi kerak?

A. Tanlangan kasb belgisi oʻzgarmas, muntazam boʻlishi lozim.
B.Tanlangan kasb belgisi barchaga tushunarli boʻlishi kerak.
S. Tanlangan kasb belgisi aniq, yorqin boʻlishi zarur.
D. Tanlangan kasb belgisi bitta belgi boʻyicha faqat bitta guruhga tegishli boʻlishi lozim.
*E. Barcha javoblar toʻgʻri.
2. Kasb belgilariga nimalar kiradi?
422
A. Mehnat nomi; mehnat xarakteri.
B.Mehnat xarakteri; mehnat mahsuloti.
S.Mehnat qilish uchun talab etiladigan bilim, koʻnikma, malaka darajasi.
D. Kasblarni mamlakat xoʻjaligining biror sohasiga tegishli boʻlishi.
*E. Barcha javoblar toʻgʻri.
3. Oʻquvchilarni kasb-hunarga yoʻnaltirish tizimining asosiy tarkibiy qismlari qanday faoliyatlardan iborat?
1) oʻz ichiga kasbiy targʻibot va tashviqotni olgan kasbiy ma'rifat (kasbiy axborot) ;
2) u yoki bu soha, kasbga boʻlgan shaxs qiziqish va qobiliyatlarining birlamchi kasbiy diagnostikasi ;
3) kasb tanlashda mutaxassislar tomonidan individual, guruhiy yordam koʻrsatishga qaratilgan kasbiy konsultatsiya ;
4) koʻproq muvaffaqiyatga erishishi mumkin boʻlgan kasbni tanlab olishga qaratilgan kasbiy tanlov ;
5) ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida amalga oshiriluvchi ijtimoiy-kasbiy adaptatsiya (moslashuv);
6) tanlangan kasbni oʻrganish jarayonida burch, mas'uliyat, kasbiy or-nomus, oriyat hislarini oʻquvchilarda shakllantirishga qaratilgan kasbiy tarbiya.
7) Kasb klassifikatsiyasi,kasblar professiogrammasi.
*A. 1,2,3,4,5,6.
B.2,3,4,5,6,7.
S.3,4,5,6,7.
D. 2,4,6,7.
E. Barcha javoblar toʻgʻri.
4. Oʻquvchilarga kasblar olami, kasblarning belgi va xususiyatlari, kasb klassifikatsiyasi, kasblar professiogrammasi, hududning qaysi kasblarga ehtiyoji borligi toʻgʻrisidagi axborotlarni berish nima deb ataladi?
kasbiy ma'rifat (kasbiy axborot) iborat boʻlib, ular asosida oʻquvchi oʻzini qiziqtirgan, jamiyat uchun zarur boʻlgan kasbni tanlaydi.
A. Kasb klassifikatsiyasi.
*B.Kasbiy ma'rifat.
S.Kasbiy tarbiya.
D. Kasbiy konsultatsiya.
423
E. Kasbiy tanlov.
5. E.N. Prohitskayaka bu tushunchasiga qanday ta’rif beradi?
Unga koʻra, kasb – bu
A. Oʻquvchilarga kasblar olami, kasblarning belgi va xususiyatlari, kasb klassifikatsiyasi, kasblar professiogrammasi, hududning qaysi kasblarga ehtiyoji borligi toʻgʻrisidagi axborotlarni berish.
*B.Bitta kasb ichida tor doiradagi faoliyat turi.
S.Jamiyat uchun zarur boʻlgan, ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida chegaralangan, insondan jismoniy, aqliy, ma'naviy kuch talab etuvchi va sarflangan kuch evaziga insonga mavjud boʻlish hamda rivojlanish imkonini beruvchi faoliyat sohasi.
D. Egallangan kasb va mutaxassislik doirasidagi mehnat jarayonini tashkil etish va unga rahbarlik, boshchilik qilish bilan bogʻliq boʻlgan faoliyat turi.
E. Barcha javoblar toʻgʻri.

6. Mutaxassislik – bu …
A. Oʻquvchilarga kasblar olami, kasblarning belgi va xususiyatlari, kasb klassifikatsiyasi, kasblar professiogrammasi, hududning qaysi kasblarga ehtiyoji borligi toʻgʻrisidagi axborotlarni berish.
B.Bitta kasb ichida tor doiradagi faoliyat turi.
*S.Jamiyat uchun zarur boʻlgan, ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida chegaralangan, insondan jismoniy, aqliy, ma'naviy kuch talab etuvchi va sarflangan kuch evaziga insonga mavjud boʻlish hamda rivojlanish imkonini beruvchi faoliyat sohasi.
D. Egallangan kasb va mutaxassislik doirasidagi mehnat jarayonini tashkil etish va unga rahbarlik, boshchilik qilish bilan bogʻliq boʻlgan faoliyat turi.
E. Egallangan kasb va mutaxassislik sohasi boʻyicha kiritilgan yangilik va kashfiyotlar uchun beriladigan ilmiy daraja.
7. Qaysi javobda lavozim tushunchasiga toʻgʻri taʼrif keltirilgan?
A. Oʻquvchilarga kasblar olami, kasblarning belgi va xususiyatlari, kasb klassifikatsiyasi, kasblar professiogrammasi, hududning qaysi kasblarga ehtiyoji borligi toʻgʻrisidagi axborotlarni berish.
B.Bitta kasb ichida tor doiradagi faoliyat turi.
424
S.Jamiyat uchun zarur boʻlgan, ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida chegaralangan, insondan jismoniy, aqliy, ma'naviy kuch talab etuvchi va sarflangan kuch evaziga insonga mavjud boʻlish hamda rivojlanish imkonini beruvchi faoliyat sohasi.
*D. Egallangan kasb va mutaxassislik doirasidagi mehnat jarayonini tashkil etish va unga rahbarlik, boshchilik qilish bilan bogʻliq boʻlgan faoliyat turi.
E. Egallangan kasb va mutaxassislik sohasi boʻyicha kiritilgan yangilik va kashfiyotlar uchun beriladigan ilmiy daraja.
8. Ilmiy unvon tushunchasining mohiyati nima?
A. Oʻquvchilarga kasblar olami, kasblarning belgi va xususiyatlari, kasb klassifikatsiyasi, kasblar professiogrammasi, hududning qaysi kasblarga ehtiyoji borligi toʻgʻrisidagi axborotlarni berish.
B.Bitta kasb ichida tor doiradagi faoliyat turi.
S.Jamiyat uchun zarur boʻlgan, ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida chegaralangan, insondan jismoniy, aqliy, ma'naviy kuch talab etuvchi va sarflangan kuch evaziga insonga mavjud boʻlish hamda rivojlanish imkonini beruvchi faoliyat sohasi.
D. Egallangan kasb va mutaxassislik doirasidagi mehnat jarayonini tashkil etish va unga rahbarlik, boshchilik qilish bilan bogʻliq boʻlgan faoliyat turi.
*E. Egallangan kasb va mutaxassislik sohasi boʻyicha kiritilgan yangilik va kashfiyotlar uchun beriladigan ilmiy daraja.
9. Taklif etgan kasb klassifikatsiyasi qanday mezonlarga asoslanadi?
A. Mehnat predmeti.
B.Mehnat maqsadi.
S.Mehnat quroli.
D. Mehnat sharoiti.
*E. Barcha javoblar toʻgʻri.
10. E.A. Klimov mehnat predmetini qanday qismlarga ajratgan?
*A. Texnika, tabiat, inson, belgilar tizimi, badiiy obraz.
B.Gnostik, oʻzgartiruvchi, kashf qiluvchi.
S.Qoʻl mehnat qurollari, mexanizatsiyalashgan mehnat qurollari, avtomatlashgan mehnat qurollari, inson organizmining funksional vositalari.
D. Maishiy turmush mehnat sharoiti, ma'naviy javobgarlik mehnat sharoiti, ochiq havodagi mehnat sharoiti, gʻayrioddiy mehnat sharoiti.
E. Barcha javoblar toʻgʻri.
425

25-BOB. OTA-ONA VA OʻQITUVCHILAR BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKSION-PROFILAKTIK ISHLAR

Reja:
1.Maslahat jarayonida ota-ona va oʻqituvchilar bilan ishlashning oʻziga xos jihatlari.
2.Ota-ona va oʻqituvchilarning bola bilan toʻgʻri muloqot uslubini shakllantirish boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqish.
3. Ota-onalar guruhi.
4.Ota-ona va bola orasidagi samarali muloqotning oʻziga xos jihatlari.
Mavzuning oʻquv maqsadi: talabalarni ota-ona va oʻqituvchilar bilan olib boriladigan korreksion-profilaktik ishlar bilan tanishtirish.
Darsning vazifasi: Talabalarga ota-ona va oʻqituvchilarning bola bilan toʻgʻri muloqot uslubini shakllantirish boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqish hamda ota-ona va bola orasidagi samarali muloqotning oʻziga xos jihatlari haqida ma’lumot berish.
Tayanch tushunchalar: Ota-onalar guruhi, muloqot, “Bola” pozitsiyasi, “Katta odam” pozitsiyasi, “Ota-ona” pozitsiyasi.

1.Maslahat jarayonida ota-ona va oʻqituvchilar bilan ishlashning oʻziga xos jihatlari

Psixolog maslahat berish jarayonida ota-onalar bilan bir necha marta aloqada boʻladi: birinchi marta uchrashganda qisqa suhbat tarzda, bolaning rivojlanishi tarixi boʻyicha butun tafsilotlari bilan batafsil suhbatlashilganda va oxirgi marta tekshiruv natijalari boʻyicha yakunlovchi suhbatda. Bu uchrashuvlarning har biri umumiy va maxsus vazifalarga ega boʻlib, ularni oʻtkazishning oʻz xususiyatlari mavjud.
Psixologning ota-onalar bilan, bolaning qarindoshlari, oʻqituvchilari, tarbiyachilari va yaqin kishilari bilan olib boriladigan ishlari ham oʻziga xos xususiyatga egadir.
Psixolog-maslahatchiga bola tarbiyasi boʻyicha murojaat qilgan shaxslar bilan oʻzaro munosabatning ba'zi umumiy tomonlariga toʻxtalib oʻtamiz.
Maslahat berishda muvaffaqiyatning dastlabki majburiy sharti tekshirilayotgan bolaning ota-onasi (yoki oʻqituvchilari) bilan psixolog ishonchli va ochiqchasiga munosabatni yarata olishi kerak. Ishonchli munosabat aslida maslahat bilan murojaat qilgan kishilarning bolaga nisbatan xavotirlanishlarini tan olish va hurmat qilish

yotadi. Maslahatchining ota-onalarga bolaning qiyinchiliklarini yoʻqotishga chin dildan qiziquvchi sifatida, uni tushunuvchi va chuqur biluvchi shaxs sifatida munosabatda boʻlishi ular bilan ishonchli aloqa oʻrnatishda juda ham yordam beradi.
Bunday munosabat ota-onalarning harakatlarini toʻgʻridan-toʻgʻri yoki kinoya bilan tanqid qilish, ularning pedagogik chuqur bilimga egaligi haqida shubhalanishga qarama-qarshidir. Teskari aloqaning bu kabi barcha zarur turlari tekshiruvda ham maxsus shaklda foydalanishni talab qiladi. Dastlabki uchrashuvda harakatini qoʻllabquvvatlamaslik
haqidagi har qanday luqma ham, ularda kuchli himoya reaksiyalarini vujudga keltiradi va muammoni har tomonlama ochiqchasiga muhokama qiladigan yoʻllarni yopib qoʻyadi.
Shu bilan birga ota-onalar bilan birinchi va ikkinchi uchrashuvlarda maslahat berishning maqsad vazifalarini tushuntirishga e'tibor berish zarur. Shuni hisobga olish zarurki, respublikamiz sharoitida, psixologik xizmat endigina tashkil topayapti va aholining amalda psixologik yordam olish tajribasi yoʻq, koʻpchilik ota-onalarda psixologik xizmat haqida notoʻgʻri tasavvurlar paydo boʻlgan (maslahat berish jarayonining murakkabligi va koʻp vaqtni olganligi uchun notoʻgʻri baholash, tayyor tashhis (diagnoz) olishga ehtiyoj va boshqalar). Shuning uchun ota-onalar bilan dastlabki uchrashuvlardagi muhim vazifalardan biri bola muammolarini birgalikda va

har tomonlama tahlil qilishga tayyorlikni (ustanovkani) shakllantirish, tekshiruvning maqsadlarini, maslahat berish ishining vazifalarini tushuntirishdan iborat. Bolaga boshqa mutaxassislarga maslahat uchun yoʻllanma berish ham maxsus tushuntirishni talab qiladi. Maslahat berish ishining har bir bosqichida psixolog muammoni har tomonlama qarab chiqishi va oʻzining qiziqarli munosabati bilan ota-onalarni ogʻir hissiyotlardan ozod qilishga intilishi, muammoning ijobiy tomonlariga e'tiborni qaratishi, uni hal qilish yoʻllarini faol izlashi zarur. Ota-onalar tuzatish dasturini oʻtkazish jarayonida uchraydigan toʻsiqlar, qiyinchiliklar, asoratlar haqida ogohlantirilishi lozim. Ularda qiyinchiliklarni hal qilishning oson, sirli yoʻli haqida tasavvur paydo qilmaslik kerak, chunki bunday tasavvur psixologik yordam imkoniyatlaridan barvaqt koʻngil sovishga olib keladi.

427

Psixolog ota-onalarni (oʻqituvchilarni) tekshiruv natijalari tez tayyor boʻlmasligi haqida ogohlantirishi lozim. Istalgan natijaga erishishda, psixolog oʻylaganday boʻlib chiqishiga ishontirmasligi ham mumkin, ba'zan birovlarning umidi puchga chiqishi ham mumkin. Zaruriyat tugʻilganda ota-onalarga yoki oʻqituvchilarga qayta maslahatlar berish psixologning vazifasiga kiradi. Koʻpincha uzoq psixoterapevtik ishlar va koʻp martalab uchrashuvlar amalda qoʻllaniladi. Psixolog hodisani har tomonlama oʻrganish natijalari haqida oʻtkaziladigan suhbat bir necha maqsadni koʻzlaydi:

1) bola psixik taraqqiyotining umumiy holatini toʻliq muhokama qilib, aniqlangan qiyinchiliklarning sababi, darajasi, xarakteri haqida aytib berish;

2) koʻrsatiladigan yordamning aniq sistemasini yoki maxsus tuzatish dasturini birgalikda ishlab chiqish;

3) ota-ona muammolarini, ularning bola qiyinchiliklariga munosabatini muhokama qilish;

4) keyingi uchrashuvlarni (zaruriyat tugʻilsa) rejalashtirish.

Qator amerikalik olimlar ota-onalar bilan maslahatchining soʻnggi suhbatida 4 asosiy bosqichni koʻrsatadilar va ularni oʻtkazish boʻyicha quyidagicha tavsiflar beriladi:

1) Bir vaqtning oʻzida ham ikkala ota-ona bilan suhbat oʻtkazish maqsadga muvofiq, chunki bu bola hayoti haqida har tomonlama va toʻgʻri ma'lumot olishga yordam beradi, bundan tashqari ota-onalarga bola taqdiri uchun umumiy javobgarlikni his qilish imkonini beradi. Suhbat boshida bola muammosini, ularni qiziqtiruvchi masalalarni erkin, ochiqchasiga muhokama qilishga undash zarur. Bola qiyinchiliklarining sabablari, ularni hal qilish vositalari, qanday yordam koʻrsatish, bola oldiga qanday maqsad qoʻyish mumkinligi, kelajakda nima bilan shugʻullanishi mumkinligi haqida ularning fikrlarini, tasavvurlarini ham aniqlash muhim.

2) Suhbatning ikkinchi bosqichida psixologik tekshiruv natijalari bilan tanishtiriladi. Aniq, olingan malumotlar bola qiyinchiliklarining xarakteri va darajasi haqidagi notoʻgʻri tasavvurlarni yengib chiqishga yordam beradi. Bola qiyinchiliklari haqida toʻgʻri tasavvur hosil qilishga intilish lozim.

428

3)Shundan soʻng (uchinchi bosqich) harakatlarning maxsus dasturi muhokama qilinadi.

4) Suhbat soʻngida ota-onalarning bola muammolariga munosabati muhokama qilinadi va keyingi uchrashuvlar rejalashtiriladi. Suhbat jarayonida ularga nisbatan

hurmat, tushunishni namoyish etish, iliq munosabatda boʻlish muhim. Suhbatning mahsuldorligi, ota-onalarning maslahatchidan olgan tavsiya va ma'lumotlari asosida harakat qilishlari bilan baholanadi. Tajribalarning koʻrsatishicha, ota-onalarning u yoki bu aniq tarbiyaviy harakatlarni psixolog-maslahatchi tomonidan ijobiy baholashi ularning oʻz kuchlariga ishonchini oshiradi. Suhbatgacha ota-onalarda paydo boʻlgan notoʻgʻri tasavvurlarni oʻzgartirishga bir suhbatning oʻzi yetarli emas. Buning uchun bir necha uchrashuvlar talab qilinadi. Gʻarb davlatlarining psixologlari aniq vaziyatlarni, oʻzaro munosabatlarni muhokama qilishi uchun mijozlarning uylariga borib maslahat beradilar. Shu bilan birga ota-onalar bilan mashgʻulotlarning har xil guruhiy turlari koʻproq qoʻllaniladi.

U yoki bu kamchiliklari bor bola bolaligicha qolishini, uning yoshidagi barcha bolalar singari ehtiyojlarga egaligini ota-onalarga tushuntirish juda muhimdir. Bu yerda notoʻgʻri tarbiyaning turli shakllari juda zararlidir. Bu bilan bogʻliq ravishda maslahat berish amaliyotida har bir muammo boʻyicha taraqqiyot jarayoni yosh davriga mosligi, uning yetakchi faoliyati va boshqalar haqidagi masalani muhokama qilish zarur. Mavjud qiyinchiliklarni yengishga qaratilgan faollik bolaning ehtiyojlari va qiziqishlarini man qilish hisobiga amalga oshirilmasligi kerak. Ota-onalarga bunday holatni tushuntirish, bola uchun ogʻir oqibatlarga olib keladigan keng tarqalgan pedagogik xatolarning oldini olish imkonini beradi. (Masalan, kichik maktab oʻquvchisi yoki oʻsmirni tengdoshlari bilan oʻynatmasdan, faqat oʻqish bilan shugʻullanishga majburlash).

Psixolog maslahat berish jarayonida muammoni faqat mulohazaga asoslanib tahlil qilish bilan chegaralanmasligi kerak. Bolaning yaqinlaridan, uning uchun qoʻrqish, xavotirlanish hissini yoʻqotish va bir vaqtda bola ehtiyojlariga sezgirlikni kuchaytirish, uning qiyinchiliklarini chuqur tushuntirish psixologning asosiy vazifasi hisoblanadi. Psixolog ota-onalarda xavotirlanish, aybdorlik, ruhiy siqilish hislari

mavjudligini sezgirlik bilan payqashi va bu hissiyotlarni ifodalashga ularga imkon berishi lozim.

Aybdorlik hissini yoʻqotishga qiyinchiliklarni tahlil qilish yoʻli bilan yordam berish eng yaxshi yoʻl hisoblanadi. Kasallikning vujudga kelishidan aybdor boʻlmasalarda kasal bolalarning ota-onalarida yashirin aybdorlik hissi mavjudligini nazarda tutish kerak. Iliq, ochiqchasiga suhbatlasha olmaydigan psixoterapevtlargina emas, maslahatchi-psixologlar ham bemorlarning holatini yomonlashtirishi mumkin. (Bu faqat bolalarga emas, ularga gʻamxoʻrlik qiluvchi kattalarga ham tegishlidir).

2.Ota-ona va oʻqituvchilarning bola bilan toʻgʻri muloqot uslubini shakllantirish boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqish

Har qanday psixoterapevtik suhbat ham, maslahatchining ota-onalari bilan suhbat ham bola shaxsini, uning muammolarini har tomonlama, chuqur va toʻgʻri tushunishni oʻz oldiga asosiy maqsad qilib qoʻyadi. Bu bilan bogʻliq ravishda otaonalar bilan ishlashda quyidagi tavsiyalar bildiriladi: bolani tekshirish chogʻida olingan aniq natijalarni chuqur muhokama qilish – bu koʻpincha maslahatchi xulosalariga katta ishonch tugʻdiradi; ota-onalar aniq, tushunarli tilda yozilgan psixologik xulosani qoʻllariga olishlari kerak, yoki xulosa va tavsiyalarni oʻzlari yozib olishlari mumkin, chunki bu maslahat natijalarini oʻylashga, xulosalardan kelib chiqib, aniq choralar izlashga, ularning toʻgʻriligini bolaning keyingi xulq-atvorida tekshirishga imkon beradi.

Oʻqituvchilar bilan ishlayotganda, bolalarda boʻlayotgan ijobiy oʻzgarishlarni belgilab qoʻyish, shubhasiz, bu oʻqituvchilarni xizmati va bu uni katta yutugʻi bilan belgilanadi. Psixolog ishi har doim sir saqlanishi kerak, shunda u pedagoglardan asl natijalarni oladi va jamoadagi yangi mutaxassisda paydo boʻlgan qadr-qimmatni baholay oladi. Eng muhimi oʻquvchilar bilan ota-onalar oʻrtasida aloqa oʻrnatish kerak. Bunda oʻz ixtiyori bilan muloqotga kirishi asos qilib olinadi, faqatgina bunda sizga murojaat qilayotgan ota-onalar bilan suhbatlar uyushtirish kerak. Buning uchun,albatta, eng muhimi psixolog oʻzi uchun qabul vaqti va kunini belgilab olishi kerak, bundan, albatta, barcha maktab oʻquvchilari va ota-onalar xabardor boʻlishlari

lozim. Oʻqituvchilar bilan individual ishlaganda seminarlarni tashviqot tarzida olib borish, psixologiyani oʻrganishdan tashqari maktab hayoti haqida aniq psixologik bilimlar berilsa, maqsadga muvofiq boʻladi.

Ilgʻor oʻqituvchilar bugungi kunda oʻquvchidagi oʻziga xoslikni chuqur bilishga yordam beruvchi psixodiagnostik uslublarning zarurligini anglab yetdilar. Lekin, afsuski, oʻqituvchilar bilan oʻtkaziladigan anketa natijalariga koʻra ularning 18%igina oʻquvchi shaxsini oʻrganishda oʻz pedagogik faoliyatlarida ayrim psixodiagnostik uslublardan foydalanadilar. Oʻquvchida «oʻqishga xohish»ni yuzaga keltirish oʻqituvchi oldida turgan asosiy muammolardandir. Oʻqituvchi oʻz mahoratini oshirgan holda oʻz diqqatini oʻquvchilar oʻquv motivlarini aniqlashga, ularning bilishga nisbatan qiziqishlari shakllanishida rivojlantiruvchi ijodiy motivlarni shakllantirishga qaratmogʻi lozim. Shuningdek, oʻqituvchi oʻquvchilari bilan boʻladigan muomala munosabatga alohida e'tibor berishi hamda oʻquvchi shaxsining rivojlanishini (oʻzlashtirish darajasidan qat'iy nazar) nazorat qilishi lozim. Bu borada asosiy mas'uliyat maktab ma'muriyatiga tushadi, chunki maktab jamoasi oʻrtasida tashkil etilgan ma'naviy-psixologik iqlim oʻquvchilar jamoasi bilan boʻladigan muomala-munosabatga oʻz ta'sirini oʻtkazadi. Oʻquv ishi shunday tashkil etilishi kerakki, bunda oʻquvchilar boshqalardan biron bir yaxshi tomoni bilan ajralishi; oʻzini erkin, mustaqil shaxs sifatida his qilishi, boshqalar e'tiborini qozonishi, atrofdagilar tomonidan yetarli baho olishga nisbatan boʻlgan ehtiyojini qondirishi lozim. Shuningdek, oʻquvchi oʻqituvchi uchun oʻqitish ob'ektigina boʻlib qolmasdan, balki faoliyat sub'ekti ham boʻlishi darkor. Bunda oʻquvchilar oʻqiyotganlarini, oʻrganayotganliklarini, oʻqituvchi esa ularga oʻqish va oʻrganishlari uchun yordam berayotganini anglasinlar.

Oʻquvchilar va ularning ota-onalari bilan yangi munosabatlarni oʻrnatish uzoq jarayon hisoblanadi. Koʻpincha pedagogik faoliyat koʻnikmalari namoyon boʻladi va psixolog maslahat berayotganda, suhbat vaqtida, treninglarda oʻqituvchi pozitsiyasida oʻzini namoyon qiladi. Bunday hollarda psixolog oʻz kasbiy pozitsiyasining xususiyatlarini oʻzlashtirib,oʻz ustida ishlashi darkor. Bu vazifa amaliyotchi psixologlar fakultetida psixologik bilimlarni olish bilan hal qilinmaydi. Maxsus

psixologik treninglarda ishtirok etish, tajribali psixologlar bilan doimiy muloqatda boʻlish, oʻquvchilar va ota - onalar bilan munosabatlarni mustaqil oʻzgartirishga intilish zarur.

3.Ota-onalar guruhlari

Ota-onalar bilan ish olib borishning individual shakllari bilan birga guruhiy shakliga rahbarlik qilish ham foydali hisoblanadi. Bolaning ota-onasi shaxslararo

muloqotda qiynalishini tan olganlari holda, ular bunday guruhlar tarkibiga kiritilishi tavsiya etiladi.
Ota-onalar guruhlariga rahbarlik qilish bola taraqqiyotining asosiy dalillarini, ularga mos ravishda munosabatlarning oʻzgarishini ota-onalar tushunmaganlarida ota-onalar va bolalar oʻrtasidagi munosabatlarni yaxshilashni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻyadi. Ota-onalar guruhlariga rahbarlik qilish xususiy muammolar boʻyicha maslahat berish shaklida va maxsus ota-onalar treninglari shaklida amalga oshirilishi mumkin. Zaruriyat tugʻilganda, ota-onalar oʻzlarining psixologik muammolarini hal qilishi uchun psixoterapevtik guruhlardagi mashgʻulotlarga tavsiya etish mumkin, bunday mashgʻulotlar ommaviy maslahat berish doirasida keng tarqalgan. Alohida masalalar boʻyicha maslahat berish guruh aʻzolari uchun, umumiy boʻlgan, munozarali muhokama qilish asosida ota-onalar va bolalar oʻrtasidagi munosabatlarni yaxshilashni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻyadi.
Ota-onalar treninglari bola xulq-atvoridagi yashirin ma'noni tushunish asosida ularning hissiyoti va kechinmalariga ota-onalarning sezgirligini oshirishni koʻzlaydi. Ota-onalar va bolalar oʻrtasidagi yomon munosabatlarning sababi bolalikda oʻzlashtirgan tarbiyaning xato illatlari (stereotiplari) boʻlishi mumkin.
Ota-onalar guruhlarida mashgʻulotlar oʻtkazish har xil turda boʻlsa, bu ishni tashkil etishning qator umumiy qoidalarini koʻrsatish mumkin. Amerikalik olim S.Slavson 3 asosiy qismni oʻz ichiga oladigan guruhning dastlabki qoidasi tushunchasini kiritadi:
432
Yuqorida sanab oʻtilgan qoidalarga asoslanib, mijoz-markazlashgan da'volash prinsipi asosida tuzilgan ota-onalarga maslahat berib, bola muammosida markazlashgan prinsipdan uzoqlashadi. Maslahat berish jarayonining markazi faqat bolagagina qaratilmasdan, balki bola muammosidan, ota-onalar va bolalar oʻrtasidagi munosabat muammosiga, ota-onalar muammolariga oʻzgarib turadi, shu bilan birga ota-onalarning oʻzlarini da'volashni amalga oshiradi. Maslahatchi bola xulqatvorining xususiyatlarini ota-onalarga ochib beradi va muammoni hal qilishning ikki qarama-qarshi usulini bayon qiladi. U yoki bu usulni tanlash ota-onalar hukmiga xavola qilinadi.
Maslahatchining, ota-onalar guruhlari olib boruvchisining asosiy oʻrni shundan iboratki, muammoni qoʻyish, munozarani rivojlantirish va uni hal qilish uchun guruh a'zolari izidan hamma narsani oynaga oʻxshab aks ettirishi, takrorlashi va tanlab berishi zarur. Boshqacha soʻzlar bilan aytganda, maslahatchining roli qoʻyilgan muammoli vaziyatlarni hal qilish jarayonida ota-onalarni toʻgʻri yoʻlga solishni tashkil etishdan iborat. Ota-onalarda bola tarbiyasi boʻyicha chuqur bilimga egalikni shakllantirishning psixologik sharoiti boʻlib, bolalar aloqalarini tushunish va empatik muloqot usullarini oʻzlashtirish zarurligini ota-onalar anglashi hisobalanadi.
Amerikalik psixolog X.Djaynotning fikricha, teng aloqa muloqotning 3 asosiy qoidasiga asoslanadi. Birinchidan, ota-onalar barcha vaziyatlarda boladagi ijobiy oʻzgarishni ma'qullashga intilishlari kerak, har qanday holatda ham uni kamsitmaslik, bolada ijobiy Men siymoni qoʻllab-quvatlashdan iborat. Ikkinchidan, bola bilan uning
433
qilgan ishi, bu ishning oqibati, vaziyat haqida gaplashish mumkin, bolaning xarakteri, shaxsi haqida gapirmaslik kerak, uning shaxsini salbiy baholashdan qochish lozim. Kattalarning bolalar haqida fikri, bolaning kelajakdagi taqdiriga tashhis

qoʻyishga, uni oldindan aytib berishga qaratilmaslik kerak. Maqtash va tanbeh berish ham oʻsha qoidaga asosan tuzilishi kerak: tayyor baholash oʻrniga, qilingan harakatlar va ular natijasini keng yoritib berish darkor, xulosa chiqarish va baho berishni bolaning oʻziga q oʻyib berish lozim. Uchinchidan, aloqa jarayonida kattalar taklif kirituvchi tashabbuskor boʻlishlari kerak. Bunda harakat usuli toʻgʻridan-toʻgʻri koʻrsatib berilmasligi kerak, balki muammoli vaziyatni hal qilish imkoniyatlarini bola oldiga shunday qoʻyish kerakki, bolaning oʻzi eng toʻgʻriroq usulni tanlashni mustaqil amalga oshirsin.

Ota-onalar, oʻqituvchilar va tarbiyachilar tomonidan bu qoidalarni kundalik hayotda ketma-ket amalga oshirilishi da'volash qoidalarini tarbiya amaliyotiga kiritishdan boshqa narsa emas. Psixodinamik nuqtai nazardan ota-ona guruhlariga rahbarlik qilishning maqsadi ota-onalarni bu qoidalardan amalda foydalanish malakasi bilan qurollantirishdan iboratdir. Boshqacha soʻzlar bilan aytganda, ota-ona guruhlarining mahsuli ota-onalarni bolaga da'volash munosabatida boʻlishni oʻrgatishdan iborat.

Hozirgi vaqtda chet elda ota-onalar trening guruhlari bolaga maslahat berish amaliyotida mahsuldor ish shakli sifatida juda ommaviy tus olgan. Lekin shuni aytib oʻtish kerakki, bolaga qaratilgan bir butun tuzatish tadbirlari sistemasidan ajratilgan holda ota-onalar treninglari, maslahat berish jarayonida tuzatish vazifalarini muvaffaqqiyatli hal qila olmaydilar.

Respublikamizda ota-onalar guruhlari bilan ish olib borishning zarurligi bolaning psixik taraqqiyoti uchun kattalar bilan muloqot hal qiluvchi rol oʻynashi bilan asoslanadi va tuzatish ishlarini oʻtkazishning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ayniqsa, bu muammo oilaviy psixoterapiya yoʻnalishida tuzatish ishlarining eng toʻgʻri shakli sifatida jadal ishlab chiqarilmoqda.

434

4.Ota-ona va bola orasidagi samarali muloqotning oʻziga xos jihatlari

Psixologiyada ota va ona munosabatlarni aniqlash turli xil pozitsiyalarga boʻlingan. “Ota” yoki “Ona” pozitsiyasida boʻlish – bu oʻzining boshqalardan ustunligini aniqlash, ragʻbatlantirish va jazolash huquqiga egalikni his qilish demakdir. “Ota” yoki “ona”ning murojaati, odatda, pand-nasihatli, e'tirozga oʻrin qoldirmaydigan, uzil-kesil boʻladi. U oʻzi buni doimo namoyon qilavermasa-da, biroq oʻziga hurmatni talab qiladi. U tartibni, nazorat qilishni va odatlarni boshqarishni, otalarga (onalarga) xomiylik qilib, xuddi zaifroq odamga yondoshgandek yondoshishni yoqtiradi.

“Katta” pozitsiyasi odamning atrofidagilar bilan teng darajada muloqotda boʻla olishini bildiradi. Atrofdagilarga oʻz hukmronligini ham oʻtkazmaydi yoki oʻziga nisbatan “ma'qullovchi” munosabatni ham kutmaydi.

“Bola” pozitsiyasida odam xafagarchilikka yuqori sezgirlik, koʻngli boʻshlik, oson ishonuvchanlik,oʻyinqaroqlik, injiqlik, boshqalardan mehr olishni istash, sezishni, kuchliroq odam tomonidan panoh topishni va shu kabilarni namoyon qiladi. Agar shu pozitsiyalar oʻzaro muvofiq kelsa va oʻzaro mos boʻlsa, masalan, kimdir juftiga nisbatan boʻlgan munosabatda “otalik” yoki “onalik” pozitsiyasini tutsa, ikkinchi tomon esa bajonidil “bolalik”ni namoyish etsa – bu yaxshi, agar ikkita “katta” pozitsiya oʻzaro toʻqnash kelsa, bu ham yaxshi, biroq oilada ikkita “ota” (“ona”) duch kelib qolsa, unda ularning muloqotida zoʻriqish, nizoli vaziyatlarning yuzaga kelishi muqarrar.

Oʻzbek oilasida bola tarbiyalashning ishontirish, tushuntirish, nasihat, ibratnamuna koʻrsatish, yaxshi fazilatlarni mashq qilish, ragʻbatlantirish, tanbeh berish, ogohlantirish, jazolash kabi usullar qoʻllaniladi.
Oilada bola tarbiyasining oʻziga xos qoidalari mavjud boʻlib, ota-onalar ulardan oʻrinli foydalanishlari lozim. Hususan ular:
- Oilada xissiy moslik, ruhiy xotirjamlik va iliq iqlim yaratish;
- Ota-ona obroʻsini saqlash;
- Tarbiyada ota-ona, kattalar oʻrtasida talabchanlik birligi;
- bola shaxsini mehnatda tarbiyalash;

- Oila, maktab va jamolatchilik hamkorligi;
- Bolani sevish va izzat qilish;
- Oilada qat'iy rejim va kun tartibi oʻrnatish;
- Tarbiyada bolalarning yosh va shaxsiy xususiyatlarni hisobga olish;
- Bola taraqqiyotini aniqlab berish;
- Bolada mustaqillik, tashabbuskorlik sifatlarini hosil etish va boshqalar.

Oilada qat'iy intizom va kun tartibining boʻlishi bolalar tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiladi. Bolalarning bilim olishdagi yutugʻi, ahloqi, salomatlik darajasi koʻp jihatdan oilada qaror toptirilgan oqilona rejimga bogʻliq. Shuning uchun ota-oanlarning oʻzlari ham bu borada ibrat koʻrsatishlari, oqilona tuzilgan oila rejimiga qat'iy amal qilishlari, farazandlariga ham oʻrgatishlari darkor.
Tarbiyada maqsadning aniqligi muhim oʻrin tutadi, chunki tarbiya ishlarini toʻgʻri yoʻnaltirish imkonini beradi. Ota va ona bolaning birinchi murabbiysi, uni tarbiyalashda shaxsan ibrat koʻrsatuvchi ta'sirchan omil hamdir.
Tarbiya usullari. Ibrat namuna usuli yaxshi xulq-atvor oʻrgatish, oʻrni kelganda nasihat qilish, jiddiy tanbeh berish, bola bilan vaqtincha gaplashmaslik, unga nisbatan munosabatni oʻzgartirish, ishontirish, jamoatchilikning, mahallaning ta'siri, ragʻbatlantirish kabilardan iboratdir. Har bir ota-ona tarbiyasining oʻziga xos nazariy hamda amaliy qonun-qoidalarini oʻzlashtirib ularga amal qilish lozim. Negaki, oilada bola tarbiyasi gʻoyat nozik murakkab masala boʻlib, ota-onadan pedagogik bilim, katta tarbiyachilik mahorati, bolalarning har birini oʻziga xos xususiyatlari haqida tushunchalar boʻlishini talab etadi.
Ota-onaning namunasi uning oilada, jamoada, mahallada tutgan mavqeidan kelib chiqadi. Zero, u sogʻlom, jismonan tetik, ongli, ahloqli, xushmuomala, kasbining jonkuyari, vatanparvar, didli boʻlishi, mehribon ota yoki ona sifatida atrofdagilar diqqatini oʻziga qaratishi, jamoatchilik oʻrtasida obroʻ-e'tibor qozonishi shart. Kattalarga hurmat va boʻysunish oʻzbek oilalaridagi an'anaviy tarbiya uslublaridan biridir. Oilada bolalarni toʻgʻri tarbiyalash ota-onalarnigina emas, balki xonadondagi katta yoshli kishilarning namunasi, oila shaxsini shakllantiruvchi, uning

dunyoqarashiga, xulq-atvoriga, jamoa orasida oʻzini tuta bilishiga tayyorlovchi omildir.
Ota va onaning bir-biriga doʻstona munosabati mehribonligi, gʻamhoʻrligi oʻz navbatida oilada farzandlarining munosabatlarini normal oʻstirishga yordam beradi. Ona qiziga muloyimlik, shirinsuhanlik, qizlarga xos boʻlgan oriyat, uyatchanlik, ibo, iffat kabi fazilatlarni shakllantirish bilan birga, unga uy-roʻzgʻor yumushlarini mukammal oʻrgatmogʻi zarur. Yoki aksincha ma'naviy qashshoq, yengil-yelpi

hayotga koʻnikib, tubanlik botqogʻiga botib qolgan ayrim ayollarning ayanchli qismatidan misollar keltirish ham maqsadga muvofiqdir.
Ota-ona nazokati degan ibora zaminida katta ma'no bor. Farzandlarga oqilona tarbiyaviy ta'sir oʻtkazishning eng muhim jihatlaridan biri ayni shu ota-onaning tarbiyachilik nazokatidir. Tarbiyachilik nazokati ota-onadan oʻgʻil-qizlar bilan toʻgʻri munosabatda, iliq muomalada boʻlishni, ularga hamisha gʻamhoʻrlik koʻrsatishni, ularning oldiga omilkorlik bilan talablar qoʻyishni, inson qadr-qimmatini hurmatlashga oʻrgatishni taqozo etadi. Boshqacha qilib aytganda, ota-onaning murabbiylik nazokati – oila a'zolariga tarbiyaviy ta'sir oʻtkazishning noyob tuygʻusi, turmush tajribasida sinalgan haqiqiy mezoni, muloqotga kirishishning me'yori hisoblanadi. Binobarin, nazokat bu – farzandlar izzat nafsiga tegmasdan, oʻrtaga hech bir nizo tushirmasdan, ularni roʻyi rost tarbiyalashdan iborat ota-onaning tarbiyachilik san'atidir.
Psixolog va sotsiologlarning tekshirishlariga qaraganda, oilaviy tarbiya kamchiliklari turli-tuman ekanligi dalillab koʻrsatilgan, ularni keltirib chiqaruvchi sabablar ochib berilgan:
 bolalarga kattalar tomonidan diqqat e'tiborning yetishmasligi;
 farzandlar bilan muloqotga kirishish istagining mavjud emasligi yoki xohishning yoʻqligi;
 ota-onalar bilan farzandlar oʻrtasida oʻzaro tushuntirishning yoʻqligi va unga ikki tomonlama intilishing yetishmasligi;
 ota-onalarning oʻgʻil va qizlarga nisbatan qoʻpol muomalada boʻlishlari;
437
 koʻr-koʻrona otalik va onalik mehr-muhabbatning hukm surishi va uning barqaror ahamiyat kasb etmasligi;
 oila davrasida, muhitida doimiy janjallarning qaror topganligi va ularni kamaytirish uchun intilishning yoʻqligi;
 ota-onalarning barqaror his-tuygʻulari, kayfiyatlari, ularning tartibsiz, tasodifiy xarakterga ega boʻlishi;
 ota-onalar shaxsiy qiziqishlarining oʻzaro mos tushmasligi va qaramaqarshiligi;
 katta-kichik yoshdagi farzandlar davrasida ota-onalarning salbiy xulq-atvorlari hamda ularning ichkilikbozliklari, giyohvandligi;
 ota-ona oʻrtasidagi oʻzaro tushunmovchiliklarning surunkasiga davom etishi;
 oila muhitida adolatsizlik, ikkiyuzlamachilik, oʻgʻrilik, tovlamachilik illatlarining namoyon boʻlishi;
 oila turmushining toʻralarcha qonun-qoidasi, shaxsiy manfaatdorlikka ruju qoʻyilganligi;
 ota-onalarning bilim saviyalari va madaniy darajalarining past ekanligi;
 oilada yaxshi an'analar, rasm-rusumlar yoʻqligi va ma'lum qolipdagi salbiy xatti-harakatlarga rioya qilishi kabi qator kamchiliklar oʻgʻil va qizlarni oqilona tarbiyalashga halal beradi, koʻzlangan maqsad sari intilishga gʻov boʻladi.
438
Takrorlash va muhokama uchun savollar:
1.Maslahat jarayonida ota-ona va oʻqituvchilar bilan ishlashning oʻziga xos jihatlari nimalardan iborat?
2.Ota-ona va oʻqituvchilarning bola bilan toʻgʻri muloqot uslubini shakllantirish uchun qanday

tavsiyalar ishlab chiqish mumkin?
3. Ota-onalar guruhi deganda nima tushunasiz?
4.Ota-ona va bola orasidagi samarali muloqotning oʻziga xos jihatlari nimalardan iborat?
Mavzu yuzasidan test savollari:
1. Psixolog hodisani har tomonlama oʻrganish natijalari haqida oʻtkaziladigan suhbat qanday maqsadni koʻzlaydi?
A. Bola psixik taraqqiyotining umumiy holatini toʻliq muhokama qilib, aniqlangan qiyinchiliklarning sababi, darajasi, xarakteri haqida aytib berish.
B.Koʻrsatiladigan yordamning aniq sistemasini yoki maxsus tuzatish dasturini birgalikda ishlab chiqish.
S. Ota-ona muammolarini, ularning bola qiyinchiliklariga munosabatini muhokama qilish.
D. Keyingi uchrashuvlarni (zaruriyat tugʻilsa) rejalashtirish.
*E. Barcha javoblar toʻgʻri.
2. Guruhning dastlabki qoidasi tushunchasi kim tomonidan kiritilgan?
*A. S.Slavson.
B.X.Djaynot.
S. E.Bern.
D. D.Rubinshteyn.
E. K.Rodjers.
3. Amerikalik olim S.Slavson guruhning dastlabki qoidasiga qanday qismni kiritadi?
A. Munozara predmeti – bolalar va ular bilan ota-onalarning oʻzaro harakat usullari.
B.Munozarani olib boruvchi guruhning hamma a'zolari tomonidan majburiy qabul qilinadigan yagona obroʻli kishi emasligi.
S. Guruhning hamma a'zolari munozarada erkin ishtirok etish huquqi.
*D. Barcha javoblar toʻgʻri.
E. B va S javoblar.
4. Amerikalik psixolog X.Djaynot muloqotning teng aloqasini qanday qoida bilan asoslaydi?

A. ota-onalar barcha vaziyatlarda boladagi ijobiy oʻzgarishni ma'qullashga intilishlari kerak, har qanday holatda ham uni kamsitmaslik, bolada ijobiy Men siymoni qoʻllab-quvatlash.
B. bola bilan uning qilgan ishi, bu ishning oqibati, vaziyat haqida gaplashish mumkin, bolaning xarakteri, shaxsi haqida gapirmaslik, uning shaxsini salbiy baholashdan qochish.
S. aloqa jarayonida kattalar taklif kirituvchi tashabbuskor boʻlishlari.
*D. Barcha javoblar toʻgʻri.
E. B va S javoblar.
5. “Ota” yoki “Ona” pozitsiyasidagi insonlarning xususiyatlarini aniqlang.
*A. Oʻzining boshqalardan ustunligini aniqlash, ragʻbatlantirish va jazolash huquqiga egalikni his qilish.
B.Odamning atrofidagilar bilan teng darajada muloqotda boʻla olishi.
S. Xafagarchilikka yuqori sezgirlik, koʻngli boʻshlik, oson ishonuvchanlik, oʻyinqaroqlik, injiqlik, boshqalardan mehr olishni istash, sezishni, kuchliroq odam tomonidan panoh topish va shu kabilarni namoyon qiladi.
D. Atrofdagilarga oʻz hukmronligini ham oʻtkazmaydi yoki oʻziga nisbatan “ma'qullovchi” munosabatni ham kutmaydi.
E. Barcha javoblar toʻgʻri.
6. “Katta” pozitsiyasidagi insonlarga xos xususiyatlar qaysi javobda toʻgʻri berilgan?
A. Oʻzining boshqalardan ustunligini aniqlash, ragʻbatlantirish va jazolash huquqiga egalikni his qilish.
*B.Odamning atrofidagilar bilan teng darajada muloqotda boʻla olishi.
S. Xafagarchilikka yuqori sezgirlik, koʻngli boʻshlik, oson ishonuvchanlik, oʻyinqaroqlik, injiqlik, boshqalardan mehr olishni istash, sezishni, kuchliroq odam tomonidan panoh topish va shu kabilarni namoyon qiladi.
D. U oʻzi buni doimo namoyon qilavermasada, biroq oʻziga hurmatni talab qiladi.
E. Barcha javoblar toʻgʻri.

7. Qaysi javobda “Bola” pozitsiyasiga xos xususiyatlar toʻgʻri koʻrsatilgan?
A. Oʻzining boshqalardan ustunligini aniqlash, ragʻbatlantirish va jazolash huquqiga egalikni his qilish.
B.Odamning atrofidagilar bilan teng darajada muloqotda boʻla olishi.
*S. Xafagarchilikka yuqori sezgirlik, koʻngli boʻshlik, oson ishonuvchanlik, oʻyinqaroqlik, injiqlik, boshqalardan mehr olishni istash, sezishni, kuchliroq odam tomonidan panoh topish va shu kabilarni namoyon qiladi.
D. Atrofdagilarga oʻz hukmronligini ham oʻtkazmaydi yoki oʻziga nisbatan “ma'qullovchi” munosabatni ham kutmaydi.
440
E. Barcha javoblar toʻgʻri.
8.Tartibni, nazorat qilishni va odatlarni boshqarishni, juftiga otalarga (onalarga) xomiylik qilib, xuddi zaifroq odamga yondoshgandek yondoshishni yoqtirish qaysi pozitsiyadagi insonlarga xos?
A. “Bola” pozitsiyasi.
B.“Katta” pozitsiyasi.
*S. “Ota” yoki “Ona” pozitsiyasi.
D. Barcha javoblar toʻgʻri.
E. Bunday xususiyat hech qaysi pozitsiya uchun xos emas?
9. Ota-ona va bolalar orasidagi kelishmovchiliklar uchun zamin boʻlib xizmat qiladigan omillarni aniqlang.
1) Dunyoqarashlar orasidagi mavjud farq hisobga olinmasligi;
2) yoshlarning boʻsh vaqtini mustaqil tashkil etish, doʻstlar tanlashdagi mustaqilligi, xissiyot sohasidagi mustaqilligi, modaga bugungi kun talabiga mos kiyinishi kasb tanlashdagi mustaqilligi;
3) ota-onalar ichkilikka ruju qoʻyishi yoki buzuqchilik qilishi;
4) ba'zi bolalarni mehnat qilishga oʻrgatishmaganligi va buning oqibatida engil-elpi hayot kechirishga oʻrganib qolishi;
5) ayrim yoshlarning farzandlik burchini unutib qoʻyishi;
6) “katta” pozitsiyasida boʻlish.
A. 1,2,3,5,6.
*B.1,2,3,4,5.
S. 2,3,4,5,6.
D. 3,4,5,6.
E. 2,4,6.
10. Oilada bola tarbiyasining oʻziga xos qoidalari mavjud boʻlib, ota-onalar ulardan oʻrinli foydalanishlari lozim. Hususan ular:
A. Oilada xissiy moslik, ruhiy xotirjamlik va iliq iqlim yaratish; ota-ona obroʻsini saqlash.
B. Tarbiyada ota-ona, kattalar oʻrtasida talabchanlik birligi;bola shaxsini mehnatda tarbiyalash.
S. Oila, maktab va jamolatchilik hamkorligi; bolani sevish va izzat qilish; bolada mustaqillik, tashabbuskorlik sifatlarini hosil etish.
D. Oilada qat'iy rejim va kun tartibi oʻrnatish;tarbiyada bolalarning yosh va shaxsiy xususiyatlarni hisobga olish; bola taraqqiyotini aniqlab berish.
E.Barcha javoblar toʻgʻri.
441

26-BOB. MEHRIBONLIK UYLARI SHAROITIDA BOLALARNI PSIXOSOTSIAL QOʻLLAB-QUVVATLASHNING OʻZIGA XOS JIHATLARI

Reja:

1.Bolalar uyi va maktab-internat tarbiyalanuvchilarining ijtimoiy mavqei va ularning psixologik xususiyatlari.
2.Internat tarbiyalanuvchilarining adaptatsiyasiga ijtimoiy psixologik yordam koʻrsatish.
3.Bolalar uyi tarbiyalanuvchilarining hayotini izga qoʻyib olishiga yordam berishning oʻziga xos jihatlari.
4.Oʻsmir bola shaxsini shakllanishiga bolalar uyidagi sharoitning ta’siri.

5.Psixosotsial salomatlik va uning koʻrsatkichlari.
Mavzuning oʻquv maqsadi: talabalarni mehribonlik uylari sharoitida bolalarni psixosotsial qoʻllab-quvvatlashning oʻziga xos jihatlari bilan tanishtirish.
Darsning vazifasi: Talabalarga bolalar uyi va maktab-internat tarbiyalanuvchilarining ijtimoiy mavqei va ularning psixologik xususiyatlari hamda internat tarbiyalanuvchilarining adaptatsiyasiga ijtimoiy psixologik yordam koʻrsatish haqida ma’lumot berish.
Tayanch tushunchalar: Psixosotsial salomatlik, maktab-internat tarbiyalanuvchilari, ijtimoiy mavqei, ijtimoiy psixologik yordam, ijtimoiylashuv.

1.Bolalar uyi va maktab-internat tarbiyalanuvchilarining ijtimoiy mavqei va ularning psixologik xususiyatlari

Yetim va ota-ona qaramogʻisiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyasi muammosi bugungi kunda butun dunyoni tashvishga solayotgan muammoga aylanib bormoqda. Maxsus muassasalarda bolaning shaxsiy xususiyatlari va xulq-atvori shakllanish muammosi bilan bogʻliq bolani joylashtirishning qulay sharoitlari va toʻliq rivojlanishidagi imkoniyatlarining samarali shaklini ishlab chiqish, ularning hayotini yaxshilash, shu bilan birga har tomonlama me'yorda rivojlanishi uchun zarur imkoniyatlarni yaratib berish, bolalrni barcha huquq va manfaatlarini himoyalashga qaratilgan tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlanish masalasi keng amaliy ahamiyatga ega boʻlib bormoqda.
Nafaqat Oʻzbekiston, balki hamdoʻstlik davlatlarida qiyin hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan bolarni umumtarbiyaviy muassasalarga topshirish va u yerda bolalarni

jamoatchilik tarzida tarbiyalash, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun sharoitlar yaratib berish an'anasi keng joriy qilib kelinadi. Shunga muvofiq, jahon ilmiy dunyosi namoyondalari aynan mazkur muassasalarda bolalar yashaydigan sharoit va hayot tarzining ular ruhiyatiga nechogʻlik ta'siri majudligini oʻrganishga qaratilgan tadqiqotlari natijasi yetim va ota-ona qarovisiz qolgan bolalarning oʻziga xos xususiyatga ega ekanligi haqidagi ilmiy tasdiqlangan xulosalarning paydo boʻlishiga asos boʻlgan. Jumladan, mehribonlik uyi kabi muassasalarda tarbiyalanayotgan bolalarning toʻliq rivojlanishi uchun olib borilayotgan ham pedagogik, ham psixologo-korreksion tadbirlarning salmogʻi toʻliq oila tarkibida oʻsib-ulgʻayib kelayotgan tengdoshlari bilan olib borilayotgan ham pedagogik, ham psixologokorreksion tadbirlarning salmogʻi orasida katta tafovutlar mavjudligini koʻrsatmoqda.
Ijtimoiy, otalik va onalik deprivatsiyasi sharoitlarida ilmiy-uslubiy yondashuvlarning qay darajada sifatli boʻlishidan qat'iy nazar mazkur tarbiya muassasalarini bitirib chiqayotgan bolalarning hayotga moslashuvi va jamiyatga samarali integratsiyalushuvi jarayonida oʻziga xos kemtiklikni yuzaga keltirayotgani bejiz emas. Chunki toʻliq va axloqan, ma'nan yetuk oilada oʻsayotgan bola uning zaminida mavjud boʻlgan axloqiy me'yorlarni, ijtimoiy rol va munosabatlarni, xoʻjalik yuritish koʻnikmalarini, kelgusi avlodni tarbiyalash malakalarini egallab boradi.
1987 yildan boshlab bolalar uylariga (hozirgi mehribonlik uylari) va maktab internatlarda psixolog shtati joriy etildi. Ushbu hodisa oiladan tashqarida tarbiyalanayotgan bolalarning psixik rivojlanishi uchun maxsus psixologik yordam zarurligini tan olishni anglatadi. Mehribonlik uylari yoki maktab internatlardagi psixolog ishining asosiy yoʻnalishlari, prinsip va metodlari koʻp jihatdan oddiy maktabdagiga oʻxshash boʻladi. Biroq shu bilan birga ushbu muassasalardagi psixologlar ishi oʻziga xosliklarga ham ega. Bu oʻziga xoslik, birinchidan, bunday tip

muassasalardagi ta'lim tarbiya jarayonining oʻziga xosligi, ikkinchidan, bolalarning psixik rivojlanishidagi oʻziga xoslik tufayli kelib chiqadi.
Shu narsa ma'lumki, ilk bolalik davridanoq (1-3 yosh) internat tipidagi muassasalarda tarbiyalanayotgan bolalar bir qancha psixologik xususiyatlari bilan

oilada tarbiyalanuvchi bolalardan farqlanadilar: ba'zi xususiyatlarda ushbu muassasalarda tarbiyalanuvchi bolalar oddiy maktabdagi bolalar bilan barobar va hatto, ulardan ustunroq boʻlsa, ayrim xususiyatlari bilan ulardan hatto oʻzidan kichik yoshdagi oʻquvchilardan ham orqada qoladilar. Afsuski, bunday holat butun maktab yoshi davrida saqlanib qoladi.
Buni shu bilan tushuntirish mumkinki, psixologik rivojlanishda orqada qolish ancha vaqtli, maktabgacha yosh davridayoq vujudga keladi. Uni bartaraf etish ishi maxsus muassasalarda yetarli darajada olib borilmasligi oqibatida ular keyingi yosh bosqichlarida yanada chuqurlashib ketadi.
Mehribonlik uylari yoki maktab-internatlarda ishlay boshlar ekan, psixolog me'yoriy hujjatlarda koʻrsatilganidek, quyidagilarni amalga oshirishi talab etiladi: ota-onalar qaramogʻisiz qolgan bolalar bilan mehribonlik uylari hamda internat tipidagi muassasalarda olib boriladigan psixolog ishi ushbu muassasalar tarbiyalanuvchilarining psixologik jihatdan toʻlaqonli rivojlanishini ta'minlash, shaxs sifatida va intellektual rivojlanish xususiyatlarini, ta'lim tarbiya jarayonidagi buzilishlarning psixologik sabablarini diagnostika qilish va bunday buzilishlarni bartaraf etish uchun profilaktik tadbirlar oʻtkazishga yoʻnaltirishi kerak. Psixolog bola hayotidagi roʻy bergan fojianing bola psixik rivojlanishiga ta'sir etishini susaytirish va tegishli psixologik metodlarni oʻtkazish orqali bola shaxsi progressiv shakllanishini ta'minlash lozim.

2.Internat tarbiyalanuvchilarining adaptatsiyasiga ijtimoiy psixologik yordam koʻrsatish

Ijtimoiy ish kasbiy faoliyatining barcha yoʻnalishlariga nazar solsak, ular orasida ota-ona qaramogʻisiz qolgan bolalar bilan ish olib borish alohida oʻzining xususiyatlariga egaki, bu ijtimoiy ishchi xodimining majburiyatlari, ushbu kasb egasiga alohida mas'uliyat yuklaydi.
Mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan bolaning rivojlanishidagi ehtiyojlarini baholash parametrlari aniq amalga oshirilishini taqozo etadi. Bu borada chet el

tajribasiga tayanish foydadan holi boʻlmaydi.Chunki bolaning sogʻligʻi unga yaratilgan sharoit bilan bogʻliq boʻlib, doimiy nazoratni talab qiladi.
Ma'lumot – bolaning tugʻilganidan boshlab, aqliy rivojlanishi bilan oʻynash va muloqotga kirishish uchun zarur boʻlgan imkoniyatlarning mavjudligini ham inobatga oladi, bunda kitoblardan foydalana olish imkoniyati, boshqa yoshga xos boʻlgan egallanishi lozim boʻlgan koʻnikma va malakalarning egallanganligi, yutuq va erishilgan natijalar bilan bogʻliq his-tuygʻularni kechira olishi.
Hissiyotlarning rivojlanganligi. His-tuygʻular hamda xatti-harakatlar orqali bolaning namoyon etayotgan munosabati nazarda tutiladi.
Mansublik. Bolada shakllanayotgan shaxsiy individuallikka xos boʻlgan va alohida bir butun hamda qadrli insonligini his qila olishini oʻrganadi. U oʻz ichiga quyidagilarni oladi: bolaning oʻziga va qobiliyatlariga nisbatan munosabatini, oʻz obrazini qanday tasavvur qilishi va oʻzini qanday baholashi, oʻziga nisbatan ijobiy

bahoning mavjudligi. Bunga, shuningdek, irqiy, diniy mansubligini, jinsi, yoshi, chegaralangan imkoniyatlarini ham kiritish mumkin. Oilaga mansublilik hissi, oila, tengdoshlari guruhi va jamiyat tomonidan qabul qilinishi (madaniy mansublik ham) bilan bogʻliq his-tuygʻular kiradi.
Oila va ijtimoiy oʻzaro munosabatlar. Hayrihohlik, hamdardlik hamda boshqa insonning oʻrniga qoʻya olish imkoniyatining rivojlanishi. Ota-onalar yoki ular oʻrnini bosuvchi kishilar, aka-ukalar, opa-singillar, yaqin qarindoshlar, qoʻniqo ʻshnilar bilan muqim va hissiy iliq shaxslararo munosabatlarning yoʻlga qoʻyilganligi, tengdoshlar hamda bola uchun qadrli boʻlgan boshqa insonlar bilan doʻstona munosabatlarni oʻrnatishning ahamiyatini, shuningdek, oʻsha insonlarning bolaga nisbatan munosabatini ham inobatga olish zarur boʻladi. Alohida e'tiborni boladagi jismoniy imkoniyatlarning chegaralanganligi, unga ta'sir koʻrsatishi yoki oʻziga xizmat koʻrsatish koʻnikmalarining rivojlanishiga ta'sir koʻrsatishi mumkin boʻlgan boshqa ijtimoiy sharoitlarning yaratilganligiga qaratilishi lozim.
Ijtimoiy ish usulida oilaviy terapiya asosiy manbalardan biridir. Oilaviy terapiyaning muhim xususiyatlaridan biri shuki oila bilan amalga oshirilishi muhim boʻlgan andozalar ushbu terapiya orqali namoyon boʻladi. Oilaning umumiy

koʻrinishi, faoliyatini belgilaydi. Bizning respublikamizda ham ana shu koʻrinish oʻziga xos yondoshish bilan olib borilishini taqazo etadi. Xorij tajribasiga tayangan holda bu boradagi fikrimizni oydinlashtiramiz.
Italiyada birinchi marta oilaviy terapiya qoʻllanilgan. Mazkur ishning asosi patriarxal rol va majburiyat hisoblangan. Oila bilan ijtimoiy tizim yoki yaxlit organizm sifatida ish olib borilgan. Qanday sinfga, irqqa va tuzilishga qarab turli oilaviy hayot turlicha qabul qilinadi. “Me'yor”dagi oila haqida gapirish qiyin, har bir oila oʻz muloqoti va qadriyatlari, xulqi oʻziga xos namunaga ega. Shunday ekan, ijtimoiy ishchining vazifasi, “Bu oila qanday yashayapdi?” degan savolni tushinishi zarur boʻladi. Har bir oilaning rivojlanish yoʻlida bir qancha oʻtkinchi davrlarni bosib oʻtadi. Har bir oilaviy guruhni qayta qurish, oʻz a'zolarini yaxlit ta'minlash demakdir. Bolani istalgan yangi muhitga, bu oʻrinda yangi va bola uchun butunlay begona boʻlgan oilaga joylashtirish bolada oʻziga xos jarohatli kechinmalarini uygʻotishi sir emas. Shu bois bu bosqichda bola boshidan oʻtkazishi ehtimol boʻlgan kechinmalarni unutmagan holda bola va tutungan oila bilan ish olib borayotgan ijtimoiy xodim har bir holatga individual yondoshishi lozim. Bolani foster (tutingan) oilaga joylashtirish rejali jarayon sifatida tashkillashtirishiga alohida e'tibor berish kerak.

3.Bolalar uyi tarbiyalanuvchilarining hayotini izga qoʻyib olishiga yordam berishning oʻziga xos jihatlari

Bugungi kunda jahon tajribasi shuni koʻrsatmoqdaki, qiyin hayotiy vaziyatda qolgan oila va bolalarni qoʻllab-quvvatlash faoliyati bilan shugʻullanuvchi ijtimoiy xodimlarning faoliyatini faollashtirish, bolalarni institutsional, ya'ni jamoatchilik tarbiya muassasalariga emas, balki bolaning me'yorda rivojlanishi uchun namuna boʻla oladigan oila tarkibida tarbiyalash resurslarini qidirish jamiyatning kelgusidagi ravnaqini ta'minlash uchun oldindan qoʻyilgan ta'mal toshidir. Xususan, ijtimoiy xodimlar – bu qiyin hayotiy vaziyatda qolgan oila va bolalarning tang holatdan chiqib ketishiga salohiyatini, yordamini ayamaydigan, demakki, aholining oʻz farovonligiga erishishida har tomonlama yordam koʻrsatilishida koʻmaklashuvchi professional mutaxassisdir. AQSh, Angliya, Rossiya va Ukraina kabi davlatlarda mavjud aholini

446
ijtimoiy ish xodimlari kabi mutaxassislarning yordami asosida qoʻllab-quvvatlash tajribasi, butun dunyoda deinstitutsionalizatsiya jarayonining keskin tarzda kechishiga asos boʻlmoqda. Shuni ham unutmaslik lozimki, muvaqqat xarakterga ega boʻlgan va izchil ravishda ishlab chiqilgan himoyalash tizimida xizmat koʻrsatish ijtimoiy xodim kabi mutaxassislar hamkorligi va yordamida tashkillashtiriladi. Soʻnggi yillarda davlatimiz ijtimoiy himoya tizimiga joriy etib kelinayotgan ijtimoiy ish xodimlarining aholi oʻz hayotidagi ijtimoiy oʻzgarishlarda salmoqli hissalari mavjud. Xususan, oila oʻrnini bosuvchi tutingan (foster), ya'ni muqobil oilalarni tayyorlash, mazkur oilada tarbiya topayotgan yetim qolgan bolalar ruhiyatiga xos boʻlgan xususiyatlarning oʻzgarishini kuzatish, zaruriyatida tegishli yordamni koʻrsatish; ularning hayot tarzlarini tashkillashtirishga salohiyatli koʻmak berish; tutingan ota-onaga psixologik, ijtimoiy va pedagogik yordam koʻrsatishi funksiyasini bajaruvchi tashkilotlar bilan aloqa bogʻlagan holda, chet el tajribasidan va bizning hudud imkoniyatidan kelib chiqib moslashtirilishi va keng joriy etilishi bizning nazarimizda davlatimiz miqyosida qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan bolalarni ijtimoiy sifat koʻrsatkichi jihatidan oshishiga turtki boʻlishi zaruriy holdir. Mehribonlik uylari shunday tarbiyaviy muassasadir-ki, ularda ishlaydigan psixolog chuqur bilimlar bilan bir qatorda ma'lum bir shaxsiy sifatlari ancha rivojlangan boʻlmogʻi lozim. Bunday xususiyatlar qatorida quyidagilar asosiy oʻrin tutadi:
447
Ota-onasi mehridan mahrum boʻlgan bolalar bilan ishlashga kirishishdan oldin psixolog oʻzidan ana shu sifatlarni qidirib koʻrmogʻi lozim. Albatta, ota-onaning chin mehriga boʻlgan chanqoqni hech qanday sun'iy yoʻl bilan qondirib boʻlmaydi. Psixolog esa bolalarning psixologik jihatdan normal rivojlanishini ta'minlashi kerak.
Turli-tuman bolalar muassasalarida psixolog olib boradigan ishlarning mazmuni, ularga xos xususiyatlarning qisqa analizi shuni tasdiqlaydiki, haqiqatdan ham psixolog faoliyati muassasa turiga koʻra farqlanadi.

4.Oʻsmir bola shaxsini shakllanishiga bolalar uyidagi sharoitning ta’siri

Bola alohida olingan shaxs sifatida oʻz-oʻziga munosabatini shakllantirish jarayonida asosan ikki bosqichni boshidan kechiradi. Bu bosqichlar oʻsmirlik yoshining ikki xil davriga – kichik oʻsmirlik davri va katta oʻsmirlik davriga toʻgʻri keladi. Birinchi bosqichda bola oʻzini «bolalar»dan ajratib, endi oʻzini kattalar olamiga mansunbligini ta'kidlamoqchidek boʻladi. Bu davr uchun kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qilish va oʻzining mana shu yarashmagan qiliqlariga
448
tanqidiy baho bera olmaslik, uning katta yoshli kishilarga yaqin boʻlishi uchun yordam berayotgan bir guruh tengdoshlari bilan ortiq darajada bogʻliq boʻlib qolishi va shu singari holatlar xarakterlidir.
Ikkinchi bosqichda – endi oʻzining yosh bola emasligiga shubha qilmaydi va u oʻzligini aniq anglay boshlaydi, oʻz shaxsini ulugʻlab, oʻziga xos harakatlar qila boshlaydi. Bu davrga kelib, uning harakatlari oʻzi bilan oʻrtoq boʻlgan bir guruh tengdoshlariga bogʻliq boʻlmay qoladi. Atrofidagi har qanday kishining uning shaxsi haqidagi tanqidiy fikrni eshitgisi kelmaydi, xato boʻlsa ham oʻz fikrida qat'iy turishga harakat qiladi. Shuning uchun ham bu davrda bolaga ta'sir oʻtkazish

metodikasiga jiddiy e'tibor berish darkor.
Oʻsmirlik yoshida yuz bergan oʻzgarishlar, jumladan fiziologik oʻzgarishlar nafaqat uning xulqiga, xatti-harakatlariga ta'sir etibgina qolmay, uning bilishga boʻlgan munosabatlariga, mehnat va uning turlariga munosabatlarini ham oʻzgartirib yuboradi.Bu davr mobaynida bolaning atrofga va oʻziga boʻlgan avvalgi munosabatlari sinib, qayta tiklanadi va oʻsmirning mustaqil hayotga qadam qoʻyish bosqichi shakllanadi. Hayotga qadam qoʻyish birdaniga yuz beradigan hodisa emas, balki uzoq davom etuvchi jarayon boʻlib, uning biologik, psixologik va ijtimoiy tomonlari oʻz qoʻzgʻaluvchi kuchlari, taraqqiyotining oʻz maromi va sur'atlariga ega. Uning koʻpgina talablari (da'volari) yengilmas qiyinchiliklarga olib keladi, nizo yoki real voqelik bilan ziddiyatga kirishadi. Hayot tarzini amalda oʻzgartirib boʻlmaslik oʻsmirda psixologlar tomonidan shu yoshga xos deb koʻriladigan orzularni vujudga keltiradi.
Agarda oʻsmir oʻzida bilim va estetik ehtiyojlar, ma'naviy-axloqiy komillikka intilish kabi barqaror shaxsiy manfaat va xulq-atvor motivlarini yetarli darajada shakllantirsa, oʻtish davri inqirozi ancha yengil oʻtadi. Oʻsmirning ibratli kishilarni nazarda tutib ish koʻrishi, oliy va istiqbolli maqsadlarga munosib taqlid qilishi sub'ektning istalgan yoʻnalishdagi xulq-atvori, emotsiya va axloqini aniqlashga qodir. Bu kabi moʻljalli ish tutish xulq-atvorning turli yoʻnalgan motivlar qaramaqarshiligiga
barham berish yoki ularni qaysidir ma'noda tekislash va oʻsmirlarni yanada ichki uygʻunligini ta'minlashga qodir. Shu bilan birga oʻsmirlik davri

L.V.Vigotskiy (1960) ifodalaganidek, birgina formula bilan qamrab olinishi mumkin emasligini unutmaslik lozim. Uning xususiyatlarini tushunish uchun ushbu davrning psixik taraqqiyotiga dahldor ichki harakatga keltiruvchi kuch va ziddiyatlar oʻrganilishi, oʻsmirlik davrining barcha belgilar majmui tabiatini ochuvchi oʻziga xos psixologik va ijtimoiy yutuqlarni ajratish lozim. Bunday bosh psixosotsial muvaffaqiyatlardan biri ilk bosqichda (12-14 yoshda), L.I.Bojovich fikriga koʻra, oʻsmirlar oʻz fikrini ifodalash va oʻzini namoyon qilish imkoniyatini yaratuvchi oʻzo ʻzini anglash bosqichi, yakunlovchi bosqich (15-17 yosh) da esa oʻz kelajak muammosini ilk bosqichga xos orzu havaslar asosida emas, balki oʻzining haqiqiy imkoniyatlarini va tashqi sharoitlarni hisobga olgan holda hal etish zarurati bilan bogʻliq oʻz taqdirini oʻzi belgilashi hisoblanadi. Oʻsmirning oʻz taqdirini oʻzi belgilashi va hayotdagi maqsadini aniqlash zarurati bilan bogʻliq. Bu intilish va ehtiyojlardan mahrum boʻlish yosh davrlari psixologiyasida me'yor doirasida koʻriladigan inqirozni, ayrim hollarda esa, psixiatriya sohasiga doir psixologik xulqatvor koʻrinishlarini vujudga keltirishi mumkin. Shunday qilib, biz koʻrayotgan oʻsmirlik davriga fizik va psixik taraqqiyot darajasi va sur'atlarda ijtimoiy munosabatdagi anomal xulq-atvor koʻrinishlarini vujudga keltiruvchi ziddiyatlar bilan ifodalangan eng yuqori nomutanosiblik xos boʻlib, bu ma'suliyatli davr psixolog, sotsiolog va shifokor-psixiatr va psixogigienistlar tomonidan katta e'tibor talab qilishga loyiq. Agarda oʻsmirga bunday keskin davrda “oʻzligini topish”da, yangi manfaatlardan xabardor boʻlishda aql, nazokat bilan yordam berilmasa, kattalar bilan normal munosabatlarni oʻrnatishning eng toʻgʻri yoʻllari topilmasa, unda “oʻsmirlik me'yori”dan chetga chiquvchi nomaqbul xatti-harakatlar va xulqatvor

reaksiyasi yuzaga kelishi mumkin.
Bolalar uyida tarbiyalangan bolalarda “men oʻzim” degan tushunchani anglash oʻziga xos tarzda kechadi. Oʻziga boʻlgan munosabat bolaning aqliga qarab, uning atrof haqidagi bilimlari bilan bogʻliq holda qatnashadi. Mana hozir bolalar uyida yashovchi bolalarni oʻziga boʻlgan munosabatlarida farqlarni koʻrib chiqamiz.
450
Oila bagʻrida yashovchi bolalarda oʻziga boʻlgan oʻta ijobiy munosabat yaqqol koʻzga tashlanadi. Bunday bolalar oʻzlarini atrofdagilar munosabatiga qarab baholaydilar.
Shuni ta'kidlab oʻtish joizki, bolalar uyining 7-8 sinf bitiruvchilarida oʻzlariga ishonchi juda yetarli darajada boʻlgan. Atrofdagilarga boʻlgan munosabat, muomala kelajak hayotga bolaning oʻz yoʻlini topishida katta ahamiyatga ega. Shuning uchun bolalar uylaridagi oʻqituvchi va turli bolalarni yoshlikdanoq bunga oʻrgatish uchun ijobiy ishlar amalga oshirmoqda. Zero, bu ularning bosh vazifasi boʻlishi bilan birgalikda, ularni majburiyati hamdir. Shuning uchun bolalar uylarida va maktab internatlarida oʻziga xos uchrashuvlar tashkil qilinmoqda. Bunda bolalar har qanday qiyin vaziyatlarda yoki oʻzi haq boʻlib turgan holatlarda oʻz haqqini talab qilishi mumkin.

5.Psixosotsial salomatlik va uning koʻrsatkichlari

Olimlarning psixosotsial muammolarga qadimdan qiziqishlariga qaramay, psixogigiena sohasidagi mutaxassislarning ilk xalqaro birlashuvi 1910 yildagina AQSh va Kanada psixiatrlarining konferensiyasida, psixogigiena boʻyicha xalqaro assotsiatsiya tuzish toʻgʻrisida qaror qabul qilinganda boʻlib oʻtgan edi. Birinchi jahon urushi psixogigiena mutaxassislarining birlashish jarayonini buzdi, biroq bu kuchlarning halqaro uyushish gʻoyasi yashashda davom etdi. Germaniyada psixiatr R.Sommer 1925 yilda psixik gigiena boʻyicha nemis ittifoqiga asos soldi. Uning asosiy kuchi psixiatriya shifoxonalari tarkibiga doir islohatlar oʻtkazishga, shuningdek, tegishli muassasalardan chiqib ketgan shaxslar toʻgʻrisida ham gʻamxoʻrlikni inobatga olib, keng psixiatrik ijtimoiy ta'minotni yaratishga qaratilgan.
Psixogigiena tadqiqotlar doirasi bolalar va oʻsmirlarning nerv-psixik salomatligi, shuningdek, uni aniqlovchi omillar tizimini oʻrganish, shaxsning shakllanishi qonuniyatlarini aniqlash, bu murakkab psixosotsial jarayonda irsiyat rolini belgilash bilan kengayishi mumkin va lozim. Barcha tibbiy-ijtimoiy va psixogigienik tadbirlar majmuasi ularning izchillik va tadrijiy ontogenetik tamoyiliga asoslanishi lozim. Genetik bogʻlangan psixopatologiya profilaktikasining samarasini
451
oshirish uchun, xususan, nikohga kirayotgan yoshlar uchun “Baxt uylari”da psixologik maslahat berish xizmatini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Ayollarga maslahat berish joylarida bola rivojlanishining oʻziga xos tomonlari va bola nervpsixik taraqqiyotida ogʻishlarning oldini olish choralarini oʻz ichiga olgan parvarish qilish qoidalari haqidagi tibbiyot bilimlarini targʻib qilish masalasini oʻz ichiga olgan ota-onalar maktablarini ochish zarur.
Bu buzilishlarni oʻz vaqtida aniqlash maqsadida bolalarning psixik salomatligi ustidan doimiy dinamik nazoratni talab etgan xavf guruhini belgilab, bolalarni 1, 3, 5 va 7 yoshda poliklinika sharoitlarida psixonevrologlar tomonidan ommaviy koʻrikdan oʻtkazish tavsiya etiladi. Maktab yoshidagi bolalar va oʻsmirlarning salomatligi ustidan dinamik nazorat qilish, nerv psixik doiradagi

ogʻishlarni oʻz vaqtida aniqlash, shaxs shakllanishining u yoki bu anomaliyalari va maktab oʻquvchilarining gʻayri huquqiy xulq-atvor koʻrinishlarini barataraf etish uchun maktablarda shifokor tarbiyachi va psixolog ishini birlashtirib, psixogigienik xizmatni tashkil etish zarur. Buning uchun maktab shifokorlarining ishini, oʻqituvchilarining ishini oʻquvchilarning psixik salomatligi ustidan doimiy nazorat qilish vazifasi bilan toʻldirish lozim.

Bolalar psixiatriyasi va psixogigiena sohasida maktab shifokorlarining mahoratini oshirish shifokorlar malakasini oshirish institutlarining muvofiq keluvchi kafedralari bilan, kelajakda esa maktab shifokorlarining tibbiyot institutlarida bolalar psixiatriyasi, tibbiyot psixologiyasi va psixogigiena sohalarida kengaytirilgan dastur boʻyicha maxsus tayyorgarligini ta'minlash lozim. Tarbiyachi va maktab psixologlarining maktabdagi psixologik xizmatga mos keluvchi tayyorlovchi maorif vazirliklari bilan ta'minlashi lozim. Psixogigienik xizmatga oʻxshash tashkilotlar kasbiy texnik ta'lim tizimining oʻquv muassasalarida ham koʻzda tutilishi lozim. Bu chora tadbirlar ham sogʻliqni saqlash, ham huquqiy profilaktik masalalarni yechishiga shubhasiz imkon beradi.Huquqbuzarlik va jinoyatchilik ob'ektiv jarayonlar bilan bogʻliq boʻlganligini va ularning sabablari inson tabiatidagi kamchiliklarga asoslanmaganligi uchun bu jaholatga qarshi kurash jamiyat hayoti, bolalar tarbiyasi, oilada, jamoada munosabatlarining yaxshilanishi, jamiyat

jarayonlari boshqaruvini takomillashtirishdagi ma'lum kamchiliklarni bartaraf etishga asoslanishi lozim, degan xulosaga kelish mumkin. Mikro-ijtimoiy muhitni xususan bolalar va oʻsmirlar hayoti va tarbiyasining oilaviy-maishiy sharoitini sogʻlomlashtirish shaxs shakllanishiga salbiy ijtimoiy ta'sirlarga yoʻl qoʻymaslik maqsadida narkologik xizmatning majburiyat va vakolatlarini nafaqat surunkali alkogolizm va boshqa giyohvandlik turlariga, balki maishiy mastlik deb yuritiluvchi illatlarga ham qarshi kurashni yoygan holda kengaytirish zarur. Narkologik xizmat bu tomondan salbiy illatlarga berilgan oilalarni hisobga olishi va ularni ota-onalari bilan da'volash ham ma'rifiy ishlarni olib borishi lozim. Bolalar va oʻsmirlarning shaxs xususiyatlari toʻgʻri va uygʻunlashgan holda shakllanishiga oilaviy va birinchi navbatda onalik ta'sirining yaxshilanishi uchun ularning salomatligi va axloqi ustidan nazoratni oʻrnatish, turli ijtimoiy me'yorlardan ogʻishning oldini olish uchun mumkin qadar imkoniyat yaratishi, ayol-onalarga imkoni bor joylarda ishning uy xoʻjaligiga xos shakllarini taklif etish maqsadga muvofiqdir.

Soʻnggi yillarda keskin oshib borayotan xarakter anomaliyalari (nevropatiya va psixopatiya) asosan bolalar va oʻsmirlarning oʻtish davrida shakllanib, faqat katta yoshlilarda barqaror tuzulmali koʻrinishlarda namoyon boʻlishini unutmaslik lozim. Bundan bola organizmi rivojlanish bosqichlarining psixofiziologik tahlili va psixik buzulishlarining patogenetik asoslangan korreksion va profilaktik choralari, shuningdek, oʻsib kelayotgan avlod salomatligini saqlash mumkin boʻlgan roli yaqqol koʻrinib turadi.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

1.Bolalar uyi va maktab-internat tarbiyalanuvchilarining ijtimoiy mavqei va ularning psixologik xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?

2.Internat tarbiyalanuvchilarining adaptatsiyasiga ijtimoiy psixologik yordam koʻrsatish qanday tashkil etilmoqda?

3.Bolalar uyi tarbiyalanuvchilarining hayotini izga qoʻyib olishiga yordam berishning oʻziga xos jihatlari nimalardan iborat?

4.Oʻsmir bola shaxsini shakllanishiga bolalar uyidagi sharoitning ta’siri qanday?
5.Psixosotsial salomatlik nima?
453
Mavzu yuzasidan test savollari:
1. Psixolog hodisani har tomonlama oʻrganish natijalari haqida oʻtkaziladigan suhbat qanday maqsadni koʻzlaydi?
A. Bola psixik taraqqiyotining umumiy holatini toʻliq muhokama qilib, aniqlangan qiyinchiliklarning sababi, darajasi, xarakteri haqida aytib berish.
B.Koʻrsatiladigan yordamning aniq sistemasini yoki maxsus tuzatish dasturini birgalikda ishlab chiqish.
S. Ota-ona muammolarini, ularning bola qiyinchiliklariga munosabatini muhokama qilish.
D. Keyingi uchrashuvlarni (zaruriyat tugʻilsa) rejalashtirish.
*E. Barcha javoblar toʻgʻri.
2. Guruhning dastlabki qoidasi tushunchasi kim tomonidan kiritilgan?
*A. S.Slavson.
B.X.Djaynot.
S. E.Bern.
D. D.Rubinshteyn.
E. K.Rodjers.
3. Amerikalik olim S.Slavson guruhning dastlabki qoidasiga qanday qismni kiritadi?
A. Munozara predmeti – bolalar va ular bilan ota-onalarning oʻzaro harakat usullari.
B.Munozarani olib boruvchi guruhning hamma a'zolari tomonidan majburiy qabul qilinadigan yagona obroʻli kishi emasligi.
S. Guruhning hamma a'zolari munozarada erkin ishtirok etish huquqi.
*D. Barcha javoblar toʻgʻri.
E. B va S javoblar.
4. Amerikalik psixolog X.Djaynot muloqotning teng aloqasini qanday qoida bilan asoslaydi?
A. ota-onalar barcha vaziyatlarda boladagi ijobiy oʻzgarishni ma'qullashga intilishlari kerak, har qanday holatda ham uni kamsitmaslik, bolada ijobiy Men siymoni qoʻllab-quvatlash.
B. bola bilan uning qilgan ishi, bu ishning oqibati, vaziyat haqida gaplashish mumkin, bolaning xarakteri, shaxsi haqida gapirmaslik, uning shaxsini salbiy baholashdan qochish.
S. aloqa jarayonida kattalar taklif kirituvchi tashabbuskor boʻlishlari.
*D. Barcha javoblar toʻgʻri.
E. B va S javoblar.
5. “Ota” yoki “Ona” pozitsiyasidagi insonlarning xususiyatlarini aniqlang.
454
*A. Oʻzining boshqalardan ustunligini aniqlash, ragʻbatlantirish va jazolash huquqiga egalikni his qilish.
B.Odamning atrofidagilar bilan teng darajada muloqotda boʻla olishi.
S. Xafagarchilikka yuqori sezgirlik, koʻngli boʻshlik, oson ishonuvchanlik, oʻyinqaroqlik, injiqlik, boshqalardan mehr olishni istash, sezishni, kuchliroq odam tomonidan panoh topish va shu kabilarni namoyon qiladi.
D. Atrofdagilarga oʻz hukmronligini ham oʻtkazmaydi yoki oʻziga nisbatan “ma'qullovchi” munosabatni ham kutmaydi.
E. Barcha javoblar toʻgʻri.
6. “Katta” pozitsiyasidagi insonlarga xos xususiyatlar qaysi javobda toʻgʻri berilgan?
A. Oʻzining boshqalardan ustunligini aniqlash, ragʻbatlantirish va jazolash huquqiga egalikni his qilish.
*B.Odamning atrofidagilar bilan teng darajada muloqotda boʻla olishi.
S. Xafagarchilikka yuqori sezgirlik, koʻngli boʻshlik, oson ishonuvchanlik, oʻyinqaroqlik, injiqlik, boshqalardan mehr olishni istash, sezishni, kuchliroq odam tomonidan panoh topish va shu kabilarni namoyon qiladi.
D. U oʻzi buni doimo namoyon qilavermasada, biroq oʻziga hurmatni talab qiladi.
E. Barcha javoblar toʻgʻri.

8. Qaysi javobda “Bola” pozitsiyasiga xos xususiyatlar toʻgʻri koʻrsatilgan?
A. Oʻzining boshqalardan ustunligini aniqlash, ragʻbatlantirish va jazolash huquqiga egalikni his qilish.
B.Odamning atrofidagilar bilan teng darajada muloqotda boʻla olishi.
*S. Xafagarchilikka yuqori sezgirlik, koʻngli boʻshlik, oson ishonuvchanlik, oʻyinqaroqlik, injiqlik, boshqalardan mehr olishni istash, sezishni, kuchliroq odam tomonidan panoh topish va shu kabilarni namoyon qiladi.
D. Atrofdagilarga oʻz hukmronligini ham oʻtkazmaydi yoki oʻziga nisbatan “ma'qullovchi” munosabatni ham kutmaydi.
E. Barcha javoblar toʻgʻri.
8.Tartibni, nazorat qilishni va odatlarni boshqarishni, juftiga otalarga (onalarga) xomiylik qilib, xuddi zaifroq odamga yondoshgandek yondoshishni yoqtirish qaysi pozitsiyadagi insonlarga xos?
A. “Bola” pozitsiyasi.
B.“Katta” pozitsiyasi.
*S. “Ota” yoki “Ona” pozitsiyasi.
D. Barcha javoblar toʻgʻri.
E. Bunday xususiyat hech qaysi pozitsiya uchun xos emas?
455
9. Ota-ona va bolalar orasidagi kelishmovchiliklar uchun zamin boʻlib xizmat qiladigan omillarni aniqlang.
7) Dunyoqarashlar orasidagi mavjud farq hisobga olinmasligi;
8) yoshlarning boʻsh vaqtini mustaqil tashkil etish, doʻstlar tanlashdagi mustaqilligi, xissiyot sohasidagi mustaqilligi, modaga bugungi kun talabiga mos kiyinishi kasb tanlashdagi mustaqilligi;
9) ota-onalar ichkilikka ruju qoʻyishi yoki buzuqchilik qilishi;
10) ba'zi bolalarni mehnat qilishga oʻrgatishmaganligi va buning oqibatida engil-elpi hayot kechirishga oʻrganib qolishi;
11) ayrim yoshlarning farzandlik burchini unutib qoʻyishi;
12) “katta” pozitsiyasida boʻlish.
A. 1,2,3,5,6.
*B.1,2,3,4,5.
S. 2,3,4,5,6.
D. 3,4,5,6.
E. 2,4,6.
10. Oilada bola tarbiyasining oʻziga xos qoidalari mavjud boʻlib, ota-onalar ulardan oʻrinli foydalanishlari lozim. Hususan ular:
A. Oilada xissiy moslik, ruhiy xotirjamlik va iliq iqlim yaratish; ota-ona obroʻsini saqlash.
B. Tarbiyada ota-ona, kattalar oʻrtasida talabchanlik birligi;bola shaxsini mehnatda tarbiyalash.
S. Oila, maktab va jamolatchilik hamkorligi; bolani sevish va izzat qilish; bolada mustaqillik, tashabbuskorlik sifatlarini hosil etish.
D. Oilada qat'iy rejim va kun tartibi oʻrnatish;tarbiyada bolalarning yosh va shaxsiy xususiyatlarni hisobga olish; bola taraqqiyotini aniqlab berish.
E.Barcha javoblar toʻgʻri.

27-BOB. INTERNAT TARBIYALANUVCHILARINING MOSLASHUVIGA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK YORDAM

Reja:
1.Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari bilan olib boriladigan korreksion-rivojlantiruvchi ishlar.
2.Internat tarbiyalanuvchilari shaxsining rivojlanishini ijtimoiy-psixologik qoʻllab-quvvatlash.
3.Jamoadagi psixologik iqlim shaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi omil sifatida. 4.Bolalarning jamiyatga moslashuvidagi qiyinchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yoʻllari.
Mavzuning oʻquv maqsadi: talabalarni internat tarbiyalanuvchilarining moslashuviga ijtimoiy-psixologik yordam koʻrsatish masalalari bilan tanishtirish.
456

Darsning vazifasi: Talabalarga мehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari bilan olib boriladigan korreksion-rivojlantiruvchi ishlar hamda internat tarbiyalanuvchilari shaxsining rivojlanishini ijtimoiy-psixologik qoʻllab-quvvatlash haqida maʼlumot berish.
Tayanch tushunchalar: Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari, internat tarbiyalanuvchilari, jamiyatga moslashuv, jamoadagi psixologik iqlim.

1.Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari bilan olib boriladigan korreksionrivojlantiruvchi ishlar

Bugungi kunda mehribonlik uylarida joriy etilayotgan xizmat muassasa xodimlaridan ish jarayoni tartibi va usullarini qaytadan koʻrib chiqishni taqazo etadi. Chunki xizmat xodimlari endilikda bolaning quyidagi huquqlari va manfaatlarining himoyalanishini ta'minlash maqsadidi har bir masalada konsilium tashkillashtirishlari va hamjihatlikda masalani hal qilishlari zarur boʻladi.
Psixolog ishini quyidagi yoʻnalish boʻyicha olib boradi:
1.*Psixologik-profilaktik ishlar.* Ushbu yoʻnalish oʻz vaqtida bolalarni intellektual rivojlanishida chetga chiqish, buzilishlarni oldini olish, toʻlaqonli rivojlanishiga har bir yoshga qarab sharoitlar yaratishdan iborat.
Profilaktik ishlar pedagogik jamoalar bilan birga olib boriladi. Psixologikprofilaktik ishlarda psixolog quyidagi tadbirlarni oʻtkazadi:
A) bolalar tashkilotiga kelgan bolalarni bir bolalar tashkilotidan boshqasiga oʻtganda, uydan maktabgacha bolalar uyigacha va maktabgacha yoki maktab internatiga oʻtganda ushbu bolalarda turli tekshirish olib boradi. Har bir bola bilan individual ishlanadi.
B) pedagogik konsiliumlarni tashkil qiladi. Ogʻir yoki noaniq kasalliklarni aniqlash va ularni davolash choralarini belgilash uchun chaqiriladigan vrachlar kengashi.
*Diagnostik ish.*Bu yoʻnalish turli tarbiyalanuvchilarning bolalar tashkilotiga kelgan kunidan boshlab chuqurlashtirilgan turli pedagogik tekshirishlarni aniqlaydi. Har bir bolaning individual rivojlanishiga ahamiyat beradi va bolalarni tarbiyasi, oʻqishi buzilish sabablarini aniqlaydi.
457
Diagnostik ish davomida quyidagi konkret masalalarni yechadi.
A) Har bir tarbiyalanuvchilarning psixik rivojlanishiga oid turli tekshiruvlarni olib boradi.
B) Tarbiyalanuvchilar bilan proforientatsiya ishlarini toʻgʻri tashkil qiladi. Har bir bolaga tarbiya ishlarini olib borish davomida individual yondashadi va bolalarni qiziqishlari, qobiliyatlari va moyilliklarini aniqlaydi.
V) Tarbiyalanuvchilarning kattalar va tengdoshlari bilan muloqoti diagnostikasi olib boriladi va muammolarning turli sabablarini aniqlaydi.
G) Profilaktika jarayonida ishtirok etuvchi mutaxassislar bilan birgalikda differentsial diagnostikani aniqlashadi.
*Psixokorreksiya va rivojlantiruvchi ishlari.*Ushbu yoʻnalish bolaning individual va shaxsi shakllanishiga turlicha ta'sir koʻrsatadi. Reja va dasturlar ushbu yoʻnalish tarbiyalanuvchilarining yoshiga qarab belgilanadi.
A. Psixolog reja va dasturlarni tuzadi va amalga oshiradi, ushbu reja va dasturlar bolaning turli rivojlanishiga va shaxs shakllanishiga qaratiladi.
B. Turli korreksiya (ya'ni tuzatish) dasturlarini tuzatadi va amalga oshiradi.

Ushbu dastur bolaning psixik rivojlanishiga yoʻl qoʻyilgan ogʻish, chetga chiqishlarini tuzatishga xizmat qiladi.
*Konsultativ ishlar.*Konsultativ ishlarni amalga oshirish uchun psixolog quyidagi vazifalarni hal qiladi yoki bajaradi:
A) bolalar tashkilotida pedagogik jamoa a'zolarini va ma'muriyatga bolalarning ta'lim va tarbiya muammolari boʻyicha konsultatsiya beradi.
B) har bir tarbiyalanuvchilar bilan individual va guruhiy maslahatlar olib boradi. Ushbu maslahatlar oʻqish, rivojlanish, oʻzini-oʻzi kuzatish, kattalar va tengdoshlar bilan munosabatlari muammolari boʻyicha belgilanadi.
V) internat tipidagi bolalar tashkilotlarida pedagogik jamoa a'zolarini psixologik madaniyatini koʻtarilishga olib keladi.
Psixologik xizmat bolalar uylaridagi va maktab internatlaridagi yetim bolalar va ota onasiz, qarovsiz boʻlgan bolalar toʻla qonli ruhiy rivojlanishiga, ularning shaxsiy

intellektual rivojlanishiga, oʻqishi va tarbiyasiga qaratilgan boʻlib, ularning profilaktikasi bilan shugʻullanadi va shunday buzilishlarning oldini oladi.
2. Psixolog oʻzining ijodini aniq tashkilotlarda, internat tipidagi tashkilotlarda har bir tashkilotning sharoitlariga, nizomiga koʻra yuritadi.
3. Psixolog barcha muammolar yechimini tarbiyalanuvchi qiziqishlari va uning har tomonlama, garmonik rivojlanish vazifalariga qaratishi lozim.
4. Psixolog oʻzining ijodini pedagogik jamoa bilan va bolalar uyi yoki maktab internati ma'muriyati bilan chambarchas bogʻlaydi.
1987 yil bolalar uylari va maktab internatlarida psixolog vazifasi joriy etildi. Bu vazifaning joriy etilishi ota-onasiz qolgan bolalar uchun oʻziga xos psixologik yordam kerak.
- Bunda psixologning bolalar uylaridagi va maktab internatlaridagi vazifasi koʻproq oddiy maktabdagi vazifaga oʻxshaydi.
- Bunda psixologdan oʻta ajoyib, sezgirlik qobiliyatini talab etiladi. U oʻz xatti-harakatlari bilan boshqalarga oʻrnak boʻladi.
- Shunisi ma'lumki, bolalar uylarida yoki maktab-internatlarida tahsil olib yashayotgan, bolalar, oila bagʻrida yashaydigan bolalardan tubdan farq qiladi. Xatto ular oʻz tengdoshlari tugul oʻzlariga nisbatan yoshroq bolalardan aqliy rivojlanish boʻyicha ortda qolib ketgan deb aytish mumkin.
Maktab ta'limiga tayyorgarlik. Maktabning birinchi sinfiga kelgan yetim bolalar va ota-onali bolalarni tarbiyalashda quyidagilarga e'tibor beriladi:
Odatda maktabga maktabgacha ta'lim bolalar uyidan kelgan bolalar bilim olishga boshqa bolalarga nisbatan yaxshiroq tayyor ekanligi koʻrinadi. Ular harflarni bilishmaydi, hatto ba'zilari boʻgʻinlab oʻqishni bilmaydi. 10gacha sanashadi. Bu bolalar maktabda bilim olishga tayyorgarliklari yaxshi ekanligini koʻrsata olishadi. Ular oʻqituvchini bergan vazifalarini bajarib kelishga mas’uliyat bilan qarashadi.
Maktab internatda oʻqigan bolalar atrofdagi narsalarni bilishga, yaqinroq anglashga qobiliyati mavjud. Tajribalar shuni koʻrsatadiki, bolalar uylarida tarbiya olgan bolalar kattalarga nisbatan boʻlgan yaxshi muomalalari va munosabatlari bilan boshqalardan ajralib turishadi va bu orqali katta muvaffaqiyatga erishishlari mumkin. Bunday

qobiliyatga ega boʻlgan bolalar oʻtmish va kelajakdan toʻgʻri xulosa chiqargan holda keyingi hayotlariga munosib poydevor qoʻya olishadi.

2.Internat tarbiyalanuvchilari shaxsining rivojlanishini ijtimoiy-psixologik qoʻllab-quvvatlash

Oʻzbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan soʻng, asosiy ustivor yoʻnalishlaridan biri alohida koʻmak va e'tiborga muxtoj odamlarga manzilli yordam koʻrsatish boʻlgan ijtimoiy himoya va aholiga xizmat qilishning prinsipial jihatdan yangi tizimi shakllandi. Bu sharoitda ijtimoiy sohada aholining ijtimoiy himoyaga muxtoj qatlami bilan ishlashda bilim va koʻnikmaga ega boʻlgan yuqori malakali xodimlarga ehtiyoj va tegishli tarzda yangi kasbiy faoliyat – "Ijtimoiy ishchi"ga zaruriyat yuzaga keladi.

Oʻzbekistonda ijtimoiy ish instituti 90-yillar oxiriga kelib shakllana boshladi. Buning uchun 1998 yilda bilim va ta'lim ixtisosliklari va yoʻnalishlar Umumdavlat klassifikatoriga kiritilishi asos boʻldi. Oʻzbekiston Respublikasi kasblar va lavozimlar milliy klassifikatoriga "ijtimoiy ish kasbi va ijtimoiy ish mutaxassisligi" kiritildi.

Internat tipidagi bolalar tashkilotlaridagi psixologik xizmatlar quyidagicha belgilanadi:

1. Bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda toʻlaqonli rivojlanishini ta'minlash. Tarbiyalanuvchilarning rivojlanish qonuniyatlari, qobiliyatlarini shakllantirish.
2. Har bir tarbiyalanuvchilarga individual yondashish.
3. Tarbiyalanuvchini mustaqil hayotga tayyorlash, alohida ishlar olib borish.
4. Tarbiyalanuvchilarni intellektual shaxs rivojlanishi va orqada qolishini oldini olish.

SOS-bolalar qishloqchasi– bu yetim qolgan yoki ota-ona qarovisiz qolgan bolalar bilan ishlashning oʻziga xos usuli. Bu usulga avstriyalik pedagog German Gmayner asos solgan. Bugungi kunda u dunyoning 124 mamlakatida keng qoʻllanib kelmoqda.

SOS - bolalar qishloqchasi bir necha kottedj-uylardan iborat. Ularning har birida «ona» va 6-8 ta bola yashaydi. Bu bolalar yoki ota-onasidan yetim qolgan, yoki ularning ota-onasi ota-onalik huquqidan mahrum etilgan. Qishloqda hech kim ulardan haqiqiy hayotlarini va ularga «onalik» qilayotgan odam aslida onalari emasligini yashirmaydi. Bolalar qishloqchasidagi alohida uylarda onalarning yordamchilari - «xolalari» ham yashaydi. Ular dam olish kunlari «ona» kasal boʻlib qolganda, yoki biror ish bilan uydan ketganda «ona»ning oʻrnini bosadilar. Qishloqchani direktor boshqaradi. U qishloqchadagi alohida uyda oilasi bilan birga yashaydi. Direktorlik vazifasidan tashqari u qishloqchadagi barcha bolalarga ota va erkak kishining namunasidir. Albatta, qishloqchada boshqa erkak kishilar – direktor oʻrinbosari, usta, haydovchi, xavfsizlikni ta'minlash xodimi ham mavjud. Shu bilan birga qishloqchaning faoliyat koʻrsatishida psixologning ishiga alohida e'tibor beriladi. U ham bolalarga, ham «ona» larga, ham xodimlarga psixologik yordam koʻrsatadi. Bolalar shaharchasi direktori jismoniy va yuridik shaxslar bilan munosabatlarda, shuningdek, sudlarda tarbiyalanuvchilarning huquqlari va manfaatlarini himoya qiladigan qonuniy vakil hisoblanadi. Direktor, agar vasiylik va homiylik organi tomonidan ma'muriyat va bolalarning manfaatlari oʻrtasida qaramaqarshilik mavjudligi aniqlansa, bolalarning manfaatlarini ifodalashga haqli emas. Ular oʻrtasida kelishmovchiliklar boʻlgan taqdirda vasiylik va homiylik organi

boshqa vakilni tayinlashi shart. Bolalar shaharchasi oilalarida tarbiyachilar Oʻzbekiston Respublikasining 30 yoshga toʻlgan, biroq 55 yoshdan katta boʻlmagan fuqarolari — yolgʻiz ayollar yoki farzandsiz er-xotinlar boʻlishi mumkin. Tegishli ma'lumotga ega boʻlgan shaxslarga ustunlik beriladi. Tarbiyachi bolalar shaharchasi oilasi boshligʻi hisoblanadi. U Oʻzbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda tanlov asosida ishga qabul qilinadi. Xalq ta'limi vazirligi tarbiyachilarning malaka tavsiflarini ishlab chiqadi va belgilaydi. Tanlashda oliy yoki oʻrta maxsus pedagogik, shuningdek, psixologik yoki tibbiy ma'lumotli, ijtimoiy ish koʻnikmasiga ega boʻlgan shaxslarga ustunlik huquqi beriladi. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga koʻra quyidagi shaxslar tarbiyachilar boʻlishi mumkin emas:

461

- sud tomonidan huquqiy layoqatsiz yoki huquqiy layoqati cheklangan deb e'tirof etilganlar;
- sud tomonidan ota-onalik huquqidan mahrum qilinganlar yoki ota-onalik huquqi cheklanganlar;
- qonun bilan oʻziga yuklangan majburiyatlar zarur tarzda ijro etilmaganligi uchun vasiy (homiy) majburiyatlaridan chetlatilganlar;
- agar farzandlikka olish ularning aybi bilan sud tomonidan bekor qilingan boʻlsa, sobiq farzandlikka olganlar;
- sudlanganlar;
- sogʻligʻiga koʻra bola tarbiyasi boʻyicha majburiyatlarni bajarishga qodir boʻlmagan shaxslar.

Tarbiyachining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- bolalarni tarbiyalash, ularning sogʻligʻi, jismoniy, psixik, axloqiy-ma'naviy kamol topishi toʻgʻrisida gʻamxoʻrlik qilish;
- oilada axloqiy-ma'naviy va uy muhitini yaratish;
- oʻz majburiyatlarini tarbiyalanuvchilarning huquqlari va manfaatlariga zarar yetkazgan holda bajarmaslik;
- bola uchun oʻziga berilgan hujjatlarning saqlanishini ta'minlash;
- har olti oyda tibbiy dispanser koʻrigidan oʻtish;
- har ikki yilda Oʻzbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markaziy institutida qoʻshimcha oʻqitishning ikki haftalik kursidan oʻtish;
- qonun hujjatlariga va mehnat shartnomasiga muvofiq boshqa majburiyatlarni bajarish.

Pedagoglar, ijtimoiy xodimlar va psixologlar qonun hujjatlariga muvofiq tarbiyalanuvchilarga ruhiy va ijtimoiy pedagogik yordam koʻrsatadilar, ular bolalar shaharchasi tarbiyalanuvchilarining ruhiy, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish ishlarini tashkil qiladilar.

3.Jamoadagi psixologik iqlim shaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi omil sifatida

462

Shaxs sotsializatsiyasi toʻgʻrisida gap ketarkan, uning fanda koʻpincha “shaxs taraqqiyoti” yoki “tarbiyasi” tushunchalari bilan sinonimdek ishlatilishiga alohida e'tibor berish kerak. Lekin sotsializatsiya sof ijtimoiy-psixologik tushuncha boʻlib, aytib oʻtilgan tushunchalardan farq qiladi. Sotsializatsiya – bu individning ijtimoiy muhitga qoʻshilishi, ijtimoiy ta'sirlarni oʻziga singdirishi va aktiv ravishda muloqot

sistemasiga kirib borishi jarayonidir. Bu jarayon ikki tomonlama boʻlib, bir tomondan, shaxs aktiv ravishda ijtimoiy ta'sirlarni qabul qiladi, ikkinchi tomondan esa, ularni hayotda oʻz xulq-atvorlari, munosabatlarida namoyon etadi.
Shaxs sotsializatsiyasi yoki shakllanishining oʻz sohasi, bosqichlari va muassasalari mavjud.
Shaxsning shakllanishi asosan uch sohada amalga oshiriladi:
1) faoliyat sohasi, ya'ni umri mobaynida shaxs turli faoliyatlarga bevosita yoki bilvosita jalb etilgan boʻlib, bu jarayonda faoliyatlar katalogi kengayib, boyib boraveradi. Har bir faoliyat turi individdan maxsus fazilatlarni, malaka va koʻnikmalarni, bilimlarni talab etadiki, ularni qoniqtirish yoʻlidagi aktivligi unda oʻziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlar kompleksini shakllantiradi;
2) muloqot sohasi, ayniqsa, maktabgacha yosh davrdagi va oʻsmirlik davrlaridagi muloqot sistemalari bolada bir qancha ijtimoiy-psixologik xislatlarni paydo qiladiki, buning natijasida u faol hayotiy mavqega ega boʻladi, jamiyatda oʻz oʻrnini tasavvur qilishga erishadi.
3) oʻz-oʻzini anglash sohasi, ya'ni “Men” obrazining yil sayin oʻzgarib borishi jarayoni boʻlib, avval oʻzini boshqalardan farqliligini, oʻzicha mustaqil harakat qilish, mustaqil fikr yurita olish qobiliyatini anglash, soʻngra esa oʻz- oʻzini baholash, anglash, nazorat qilish xususiyatlari rivojlanadiki, ular ham faol shaxs psixologiyasining tarkibiy qismidir.
Shaxs sotsializatsiyasi, yuqorida ta'kidlab oʻtganimizdek, bola tugʻilishi bilan boshlansa-da, sezilarli samaradorlik nuqtai nazaridan uning bosqichlari farqlanadi. Masalan, birinchi bosqich–mehnat faoliyatigacha boʻlgan bosqich boʻlib, unga bolaning maktabgacha davri hamda oʻqish yillari kiradi. Bu davrdagi sotsializatsiyaning ahamiyati va oʻziga xosligi shundaki, bu davrda asosan tashqi

ijtimoiy muhit, ijtimoiy ta'sirlar faol ravishda ongga singdiriladi, mustaqil xayotga tayyorgarlik borasida muhim bosqich oʻtiladi.
Ikkinchi bosqich – mexnat faoliyati davri. Bu davr odamning yetuklik yillari bilan bogʻliq boʻlib, avvalgi davrlarda singdirgan ijtimoiy ta'sirlarni bevosita faol faoliyatda, shaxslararo munosabatlar sistemasida namoyon etadi. Kasbga ega boʻlib, aniq xayot yoʻlini tanlagan, turmush qurib, kelgusi avlodni tarbiyalayotgan shaxsda namoyon boʻladigan barcha ijtimoiy fazilatlar shu davrning mahsulidir. Nihoyat, uchinchi davr — mehnat faoliyatidan keyingi davr boʻlib, bunga asosan faol mehnat faoliyatidan soʻng qarilik gashtini surayotganlar kiradi. Bu davrda ham shaxs sotsializatsiyasi davom etaveradi, chunki endi ilgarigi davrlarda orttirilgan tajriba boshqalarga uzatiladi, shunga koʻra shaxs strukturasida ham xususiy oʻzgarishlar roʻy beradi.
Fransuz psixologi P.Janening fikriga ko’ra, inson psixikasi ijtimoiy munosabatlarga bogʻliq, zotan jamiyat va tabiat o’rtasidaga turli aloqalar tizimining shakllanishi, insonning ulgʻayishini belgilaydi. U aloqa sifatida xatti-harakatni tushunadi, bu esa kishining atrof-muhitga shaxsiy munosabatidan boshqa narsa emas, albatta. P.Janening ta'kidlashicha, eng qimmatli, ahamiyatli, ijtimoiy harakat hamkorlikdagi faoliyatda o’z ifodasini topadi, shaxslararo tashqi munosabatlar rivojlanishining muhim tamoyili hisoblanadi.

4.Bolalarning jamiyatga moslashuvidagi qiyinchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yoʻllari

AQSh va Angliyada oʻz biologik ota-onasi bilan yashash imkoniyatiga ega boʻlmagan bolalarni foster oilalarga berish zanjirsimon kelishuvga binoan tuziladigan shartnoma talabalari asosida amalga oshiriladi: Gʻarb mamlakatlarida bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimida amalga oshiriladigan barcha tadbirlarning markaziy ishtorokchisi sifatida ijtimoiy xodim amaliy masalalarni hal etuvchi mutaxassis sifatida faoliyat yuritadi. Qiyin hayotiy vaziyatdagi oila, yetim qolgan bola yoki nogiron bola, voyaga etmagan huquqbuzar bolalar toifasi bilan ishlovchi
464
ixtisoslashgan ijtimoiy xodimlar shular jumlasidandir. Bunday vaziyatlarda foster oila bilan ishlashga ixtisoslashgan ijtimoiy xodim xizmatidan foydalaniladi. Lekin, shu bilan bir qatorda, bolaning biologik oilasi bilan ishlovchi alohida ijtimoiy xodim xizmati ham koʻrsatib boriladi.
Bugungi kunda mehribonlik uylarida joriy etilayotgan xizmat muassasa xodimlaridan ish jarayoni tartibi va ususllarini qaytadan koʻrib chiqishni taqazo etadi. Chunki xizmat xodimlari endilikda bolaning quyidagi huquqlari va manfaatlarining himoyalanishini ta'minlash maqsadida har bir masalada konsilium tashkillashtirishlari va hamjihatlikda masalani hal qilishlari zarur boʻladi:
tarbiyalanuvchilarni huquq va manfaatlarini hamda ularning mol-mulkini himoya qilish;
tarbiyalanuvchilar bilan diagnostik, psixologik-profilaktik maslahat berish va reabilitatsiya ishlarini olib borish;
mehribonlik uyining tarbiyalanuvchilari, pedagoglari, ma'muriy va boshqa xodimlari bilan psixologik-profilaktik maslahat berish ta'lim (seminarlar, treninglar) ishlarini olib borish;
tarbiyalanuvchilarning ota-onalari yoki ularning oʻrnini bosuvchi shaxslar bilan maslahat berish va reabilitatsiya ishlari olib borish.
Ijtimoiy xodim rahbarligi ostidagi xizmatning xodimlari ish faoliyati asosiy quyidagi yoʻnalishlarini ajratib, koʻrsatish lozim:
a) tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy huquq va manfaatlarini himoya qilish;
b) bolaning mehribonlik uyida yashashga moslashish uchun zarur boʻlgan imkoniyatlarni aniqlash va rivojlantirish, tarbiyalanuvchining xulq-atvoridagi salbiy oʻzgarishlarning oldini olish;
v) tarbiyalanuvchilarni muqobil oilaviy shakllariga joylashtirish yoki oʻz biologik oilasiga qaytarish ishlari bilan shugʻullanish.
Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi bolalarning ijtimoiy vaziyatga alohida e'tibor qaratilgan holda, tarbiyalanuvchining aksariyatini ijtimoiy yetimlar yoki “shartli yetimlar”, kam ta'minlangan oilalarning farzandlari tashkil etishining guvohi boʻlamiz.
465
“Mehribonlik uyi toʻgʻrisidagi nizom”ning qayta koʻrib chiqilgan tahriri endilikda hududlardagi vasiylik va homiylik organi hamda voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyasiga alohida majburiyatlar yuklaydi. Chunki chekka viloyatlarimizdagi mehribonlik uylarida ham muassasa kontingenti qatorida oʻz otaonasi bilan yashash imkoniyatiga ega boʻlgan bolalar ham tarbiyalanmoqda. Ular qanchalik yaxshi sharoitda yashashmasin bu muassasadagi chiroyli hayot, yetarli moddiy va ma'naviy ta'minot, qat'iy rejali kun tartibi, xodimlarning almashinuvi muammosi mavjud boʻlsada, ularning bolaga nisbatan mehri, munosabati oʻz

tugʻishgan ota-onasining, qarindosh-urugʻlarining oʻrnini bosa olmaydi. U oʻz oilasida olishi mumkin boʻlgan oilaviy tarbiya tajribasini oila a'zolari bilan shaxslararo munosabat qurish bu siyosatlarning qanchalik boshqa yaxshi sharoit ta'minlamasin, oʻz oilasidagidek ololmaydi, oʻz oilaviy mansubligi koʻplab quvvatlash, ularning samarali ijtimoiylashuvini ta'minlashda oila oʻrnini hech bir joy bosa ololmaydi. Shu bois ham endilikda mehribonlik uyidagi bolalarning manfatlarini toʻliq himoyalash mazmuniga birmuncha oʻzgarishlar kiritilishi davr talabi taqozo etayotgan masalalardan biridir. Yani muassasa tarbiyalanuvchisining oʻz biologik ota-onasi bilan aloqasini tiklash, oʻzaro ijobiy munosabatlarni shakllantirish, zaruriyatda ota-onasi va yaqin qarindoshlari bilan pisixolog maslahat ishlarni olib borish, zarur ijtimoiy yordam koʻrsatilishini tashkillashtirish, imkon boʻlganida ularni oʻz oilalariga qaytarish kabi tadbirlar, endilikda muassasada faoliyat yuritayotgan ijtimoiy ish xodimi faoliyatining asosiy mazmunini tashkil etishi lozim.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

1.Psixologik maslahatda “mijoz” va “konsultant” tushunchasining oʻziga xos jihatlari nimadan iborat?

2. Oʻzaro ta’sirda konsultant – “past” pozitsiyasi qanday namoyon boʻladi?

3. Konsultant – “yuqori”pozitsiyasi va ularning dinamikasi haqida bayon eting.

3.Refleksiya tushunchasining mazmuni nima?

4. Muloqot oʻzaro ta’sir usuli sifatida qanday namoyon boʻladi?

5. Noverbal vositalar muloqotda qanday ahamiyatga ega.

466

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Refleksiya tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?

*A. muloqot jarayonida suhbatdoshning pozitsiyasida turib, oʻzini tasavvur qilishdir, oʻziga birovning koʻzi bilan qarashga intilishdir.

B.bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va hattiharakatlariga ta'sir koʻrsata olishdir.

S. korxona (jamoa)ning tashkiliy tuzilishi, boshqaruv tizimi va ishlab chiqarish jarayoniga, hizmat koʻrsatish tizimini, mehnat va dam olish rejimini oʻzlashtirish.

D. mehnat tashkilotidagi turmush xususiyatlari va boʻsh vaqtni oʻtkazish an'analarini oʻzlashtirish.

E. xodimlar uchun mehnat vaqtida zarur boʻladigan shart-sharoitlarni oʻzlashtirish jarayon

GLOSSARIY

ABULIYA – eng oddiy, osongina masalalar bo`yicha ham ma'lum qarorga kelish qobiliyati yo`qligida namoyon bo`ladigan o`ta irodasizlik.

AVTORITARIZM – buyruq asosidagi talablarga o`ylamasdan ko`r-ko`rona bo`ysunish. Uni avtoritet so`zi bilan adashtirmaslik kerak.

ADAPTATSIYA – sezgi organlarining ularga ta'sir etuvchi rag`batlarga yaxshi idrok etish va retseptorlarni ortiqcha yuklamadan saqlash maqsadida moslashishi.

ADEKVATLIK – teng, o`xshash, muvofiq. Masalan, javoblarning adekvatligi va h.k.

467

AKMEOLOGIYA – tibbiyot, ijtimoiy va tabiiy fanlarning tutashuvida maydonga kelib, fenomenologiyani, inson taraqqiyotining qonuniyat va mexanizmlarini, insonning kamolotga erishish pog`onasida uning bu taraqqiyoti

ancha yuqori darajaga erishuvini o`rganadigan fan.
AKSELERATSIYA – bolalar va o`smirlarda oldingi avlodga nisbatan bo`y nisbati va jinsiy taraqqiyotining tezlashishi, jadallashishi.
ALTRUIZM – shaxs qabul qilgan qadriyatlar yo`nalishi bo`lib, bunda uning ma'naviy bahosi mezoni va asosiy mohiyati asosida o`zga odamning yoki ijtimoiy guruhning manfaatlari yotadi.
AMBIVALENTLIK – bir vaqtda qarama-qarshi hissiyotlarning namoyon bo`lishi ( masalan, kulgu va qayg`u).
AMBITSIYA – manmanlik, o`ta o`zini sevish, o`z-o`zi bilan faxrlanish, o`zo` ziga baho berish.
ANALITIK PSIXOLOGIYA – psixologiyadagi oqim (1913 yili K.G.Yung asos solgan). Unda jamoaviy ongsizlik haqidagi g`oya ilgari suriladi.
ANTITSIPATSIYA – odamning hodisalar rivoji, xatti-harakat natijalarini oldindan ko`ra olish qobiliyati.
ANTROPOGENEZ – odamning kelib chiqish jarayoni.
AN'ANA – avloddan-avlodga o`tib boradigan va muayyan jamiyat, ijtimoiy guruhlar ichida uzoq vaqt saqlanadigan ijtimoiy va madaniy meros elementlari.
APATIYA – kishining tevarak-atrofdagi olamga nisbatan befarq holati. A. og`ir kechinmalar yoki kasalliklar natijasida kelib chiqadi.
ASSOTSIATIV PSIXOLOGIYA – XVII-XIX asrlarda maydonga kelgan psixologiya fanining yo`nalishi. U tushuntirishning asosiy yo`llari tariqasida assotsiatsiyani asos qilib oladi.
ASTENIYA – kuchli toliqish va organizmning madorsizligida namoyon bo`ladigan psixik holsizlanish.
AUTIZM – atrofdagi odamlardan chegaralanib, shaxsiy kechinmalarga berilishdan iborat psixologik begonalashuv holati.

AUTOGEN MASHQ – o`z-o`zini ishontirish va o`z-o`zini idora qilishga asoslangan psixoterapevtik usul.
AUTSAYDER – ijtimoiy psixologiya atamasi bo`lib, psixologik sig`isha olmaganligi tufayli guruh tomonidan inkor etilgan guruh a'zosi.
AFFEKT – kuchli, jo`shqin va nisbatan qisqa muddatli emotsional kechinmalar tariqasida ro`y beradigan psixologik holat.
AHLOQ – shaxsning jamiyatga va boshqa kishilarga nisbatan burchini belgilab beruvchi me'yorlar tizimi, ma'naviy hulq qoidalari.
AXLOQIY BARKAMOLLIK – eng oliyjanob xarakter xislati, har qanday sharoitda ham aqloqiy talablarga qatiy rioya qilinadigan ahloqiy e'tiqod.
AQLIY HARAKATLARNING BOSQICHMA-BOSQICH SHAKLLANISHI NAZARIYASI – rus psixologi P.Ya.Galperin tomonidan ishlab chiqilgan va uning shogirdlari tomonidan rivojlantirilgan ta'limot bo`lib, bilim, ko`nikma va malakalar shakllanishining umumiy psixologik asoslari bosqichma-bosqich ma'lum dastur asosida rivojlanadi.
BILISHGA QIZIQISh – aqliy-intellektual hislar mahsuli, bu odamning tevarak-atrofdagi olamni bilish ehtiyoji tariqasida namoyon bo`ladi.
BIOGRAFIK METOD – odamni uning tarjimai holi bilan bog`liq bo`lgan hujjatlar orqali o`rganish usuli.

BIXEVIORIZM – XX asr boshlarida AQShda maydonga kelgan yo`nalish bo`lib, bunda psixologiyani o`rganish predmeti qilib faqat odamning hulq-atvori olingan. Bu yo`nalishning asoschilari D.Uotson, E.Torndayklardir.
BOSHQARISH – tabiatning turlicha bo`lgan (biologik, ijtimoiy va texnik, tizimlari funksiyalarini, ularning ishini tashkil qilish, maqsad va dasturlarini amalga oshirishga qaratilgan jarayon).
BOSHQARUV PSIXOLOGIYASI – psixologiya fanidagi boshqarish faoliyatining psixologik qonuniyatlarini o`rganuvchi soha.
VIJDON – ahloqiy ong tushunchasi. U yaxshilik va yomonlikni ajrata olish, o`z xatti - harakatlariga axloqan javob bera olishga qaratilgan ichki e'tiqoddan iborat.
469
VYURTSBURG MAKTABI – XX asr boshlaridagi nemis psixologlari (K.Byuller, N.Ax, O.Kyulpe va boshqalar) asos solgan ilmiy maktab. Unda birinchi bo`lib maxsus eksperimentlar predmeti qilib tafakkur o`rganildi.
GENEZIS – biror bir hodisa yoki narsa rivojlanishi jarayonining qonuniyatlarini aks ettiruvchi tushuncha.
GENETIK METOD – psixik holatlarning paydo bo`lishi va ularning quyidan yuqoriga qarab rivojlanish jarayonini o`rganish usullari.
GENETIK PSIXOLOGIYA – odam individual psixologik xususiyatlarining kelib chiqishi, ularning shakllanishida genotip va muhitning rolini o`rganadigan soha.
GENIALLIK – shaxsning eng yuksak darajadagi ijodiyoti bilan o`zini namoyon qilish hodisasi.
GENOTIP – ota-onadan farzandga o`tadigan genlar majmui, irsiy asosi.
GERONTOPSIXOLOGIYA – psixologiya tarmog`i, qarilik davri psixologiyasini o`rganadi.
GESHTALTPSIXOLOGIYA – hozirgi zamon chet el psixologiya maktablaridan biri bo`lib, XX asrning 30-yillarida Germaniyada shakllangan. Unda murakkab psixik hodisalarni tushuntirish uchun hodisalarning bir butunligini asos qilib olinadi. Asoschilar:M.Vertgeymer, V.Kyoler, K. Koffka.
GIPNOZ – bosh miya ba'zi markazlarini tormozlash natijasida odamlarda va hayvonlarda maxsus ravishda hosil qilinadigan sun'iy uyqu.
GURUH – odamlarni birgalikdagi faoliyat mazmuni yoki muloqotda bo`lish xarakteri kabi qator belgilariga asoslangan birligi. Guruhlar real va shartli bo`lishi mumkin.
DEBILLIK – tug`ma yoki turmush jarayonida hosil qilingan aqliy zaiflik.
DEPERSONALIZATSIYA – shaxsda shaxsiy «men» hissining yo`q bo`lishi.
DEPRESSIYA – tushkunlik kayfiyati; odamda intilishlarning susayishi, harakatlarning tormozlanishi bilan bog`liq ravishda yuzaga keladigan ruhiy holat.
DETERMINIZM – tabiatdagi barcha narsalar, shu jumladan, psixik hodisalarning ro`y berishi ob'ektiv sabablar va qonunlar bilan belgilanadi, degan qarash.
470
DIALOG – ikki va undan ortiq kishilarning o`zaro og`zaki gaplashishi.
DIN PSIXOLOGIYASI – diniy ong, his-tuyg`ular kabi fenomenlarning ijtimoiy-psixologik omillarini o`rganuvchi psixologiya tarmog`i.
DIFFERENTSIAL PSIXOLOGIYA – psixologiya fanining bir qismi bo`lib, kishilar o`rtasidagi individual psixologik farqlarni o`rganadi.

DIFFUZ GURUH – odamlarning tasodifiy birlashuvi natijasida hosil bo`lgan guruh.
DIQQAT – ongning muayyan ob'ektga yo`naltirilishi va unda to`planishidan iborat psixik holat. Diqqat ixtiyorsiz, ixtiyoriy, va ixtiyoriydan keyingi turlarga ajratiladi.
DOMINANTA – markaziy nerv tizimining vaqtincha hukmron qismi bo`lib, boshqa qismlar faoliyatini tormozlaydi.
ETAKCHI FAOLIYaT – faoliyat turlaridan biri bo`lib, bunda faoliyat ta'sirida ma'lum davr ichida shaxs sifat jihatidan o`zgaradi. Masalan, bog`cha yoshi davridagi o`yin faoliyati.
YOSH – individning ma'lum aniq vaqtda belgilangan psixik taraqqiyotining bosqichi.
YOSH PSIXOLOGIYASI – psixologiya fani tarmoqlaridan bo`lib, turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlarini va rivojlanish qonuniyatlarini o`rganadi.
YOSH DAVRI NIZOLARI – o`ziga xos, uncha uzoqqa cho`zilmaydigan ontogenez davrlari bo`lib, bu vaqtda keskin psixik o`zgarishlar ro`y beradi.
JAMOA – maqsadlari jamiyat maqsadiga mos keladigan umumiy faoliyat bilan birlashgan odamlar guruhi.
ZAVQLANISH – muvaffaqiyatli biror bir ijodiy ishni ko`rish, eshitish, sezish orqali paydo bo`ladigan psixik holat.
IDEAL – biror narsaning namunasi, ayrim odam yoki guruh xatti-harakatlari va intilishini belgilovchn oliy maqsad.
IDENTIFIKATSIYA – shaxsning o`zini o`zga odam bilan emotsional va boshqa tomondan tenglashtirishi.

IDEOMOTOR AKT – muskullar harakati haqidagi tasavvurlarning real harakatlarga ta'siri.
IDROK – sezgi a'zolariga ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning bevosita yaxlitligacha aks ettirilish jarayoni.
IDROKNING KONSTANTALIGI – idrok sharoiti o`zgarsa-da, idrok qilishdan hosil bo`lgan narsalar (ularnnng shakli, rangi, hajmi) idrok etilishining nisbatan o`zgarmasligi, turg`unlik holati.
IDROKNING PREDMETLILIGI – jamiki olamdan olingan ma'lumotlaraxborotlarni ichki olam ob'ektiga kiritish xususiyati.
IDROKNING BUTUNLILIGI – idrok xususiyatlaridan bo`lib, bu sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etib turgan ob'ektlarni, ularning belgi va xususiyatlari bilan birgalikda qo`shib idrok qilishdan iborat.
IERARXIYA – narsa va hodisalarni ketma-ketlik bilan bir-biriga teng bo`ysundirish usuli.
IKKILANISH – ijod jarayonida «Ha» va «Yo`q»larni bir-biriga taqqoslash natijasida yuz beradigan tafakkur turi.
IMIDJ – shaxsning boshqalar tomonidan tan olinadigan o`ziga xos xususiyatlari.
INDIVID – biologik turga kiruvchi alohida tirik mavjudot.
INSTINKT – organizmning hayotiy ehtiyojlarining qondirilishi munosabati bilan namoyon bo`ladigan, nasldan-naslga o`tadigan tug`ma harakatlar tizimi.

INTERVYU – bu ijtimoiy psixologiya metodi bo`lib, qo`yilgan savollarga berilgan javob tariqasida axborotlarni to`plash usuli.
INTERIORIZATSIYA – tashqi amaliy harakatlarning ichki aqliy amallarga aylanish jarayoni.
INTERFERENSIYA – malakalardagi salbiy ta'sir bo`lib, bunda eski malaka yangisining shakllanishiga halaqit beradi
INTROVERSIYA – shaxs uchun o`z fikrlari, sezgilari, kechinmalarining birlamchi qadr-qiymatga egaligi.
INTROSPEKSIYA – kishining o`z-o`zini kuzatishidan iborat metod.
472
INFANTILIZM – ba'zi katta yoshdagi odamlarning gavda tuzilishi va psixik funksiyalarida bolalik xislatlarining saqlanib qolishidan iborat psixofiziologik nuqson.
ISTE'DOD – shaxs qobiliyati rivojining yuqori darajasi.
KAYFIYAT – birorta emotsiyaning barqaror kechishi.
KASB TANLASH – insonning ijtimony foydali mehnatga o`z hissasini qo`shishi zarurligini anglashi natijasida kasbga yo`nalish olishi.
KASB-HUNARGA YO`NALISH BERISH – yoshlarni ishga yo`llash maqsadida ularning xohishlari, qiziqishlari, shakllangan qobiliyati, layoqatiga qarab tegishli psixologik-pedagogik va tibbiy tadbirlarni o`tkazish.
KICHIK GURUH – a'zolari birgalikdagi faoliyat bilan shug`ullanuvchi va bevosita shaxslararo munosabatda bo`luvchi kishilar guruhi.
KONTENT ANALIZ – turli mantlarni o`rganish bilan matnlarning o`ziga xos xarakterli tomonlarini aniqlash.
KONFORMLIK – individning guruh fikrlariga tashqi tomondangina qo`shilib, ichki tomondan esa qo`shilmay o`z fikrida qolishi, guruhga ongli ravishda moslashishi.
KORRELYATSION TAHLIL – tekshirilayotgan hodisalar yoki omillarning shakllari, belgilaridagi aloqadorlik darajasini (bir-biriga bog`liqligini) baholashning statistik metodi.
KUZATISH – psixologiya metodlaridan biri bo`lib, odamning xattiharakatlarida namoyon bo`ladigan turli hodisalarni o`rganish va sub'ektiv psixik hodisalar to`g`risida ma'lumot olishdan iborat.
KUZATUVCHANLIK – shaxs xususiyatlaridan biri, u idrok qilish jarayonida narsaning kamdan-kam uchraydigan, ammo muhim tomonlarini payqay olishida namoyon bo`ladi.
KO`NIKMA – odamning ma'lum ishni bajarishga tayyorligida ko`rinadigan qobiliyati. Ko`nikma mahoratning asosini tashkil qiladi.
473
LABORATORIYA TAJRIBASI – psixologiya metodlaridan biri, tekshiriluvchiga ta'sir etuvchi barcha omillarni qat'iy nazorat qilgan holda sun'iy sharoitda o`rganish.
LAYOQAT – nerv tizimining irsiy determinatsiyalashgan anatomik-fiziologik xususiyati, odamda qobiliyatlar tarkib topishi va rivojlanishining dastlabki tug`ma, tabiiy zaminidir.
LIBIDO – psixoanaliz ta'limotining asosiy tushunchalaridan bo`lib, jinsiy maylni bildiradi.

LOKUS NAZORAT – odamning o`z faoliyati natijalariga javobgarligini tashqi kuchlardan ko`rishi (eksternal yoki tashqi lokus nazorati) yoki o`zining qobiliyatlaridan, intilishlaridan ko`rish xislati (internal yoki ichki lokus nazorati).
LONGITYUD TADQIQOT – tekshiriluvchilarni uzoq muddat va doimiy ravishda o`rganish. Longityud tadqiqot odamdagi individual va yosh davrlaridagi o`zgarishlarni qayd qiladi.
MAYL – shaxs qiziqishlari va fikrlarining biror faoliyat bilan shug`ullanishga jalb etilganligi.
MALAKA – mashq qilish jarayonida ish harakatlar bajarishning avtomatlashgan usullari.
MALAKALAR INTERFERENTSIYASI – avval hosil qilingan malakalarning keyinchalik boshqa yangi malakalar hosil bo`lish jarayoniga salbiy ta'sir ko`rsatishi natijasida yangi malakalarning susayib qolishi.
MAJBURIYAT YOKI JAVOBGARLIKNI HIS QILISH – erkinlikning qarama-qarshi jihati bo`lib, bu shaxsning manfaatlariga xizmat qiladi.
MAHORAT MADANIYATI – har bir tadbirni zo`r, quvonchli, qalbdan tashkil qilish.
MASHQ – o`zlashtirish maqsadida qayta-qayta bajariladigan harakatlar.
MA'NAVIY MADANIYAT – insonning ijodiy, ma'naviy, badiiy faoliyatini tashkil qilishdir.

MEDITATSIYA – inson psixikasi va ongini chuqur jamlangan holatga keltirish maqsadida o`z-o`ziga aqliy ta'sir o`tkazish. Bu holatda odamning tanasi bo`shashgan, hissiy kechinmalar va tashqi muhit ta'sirlaridan holi bo`ladi.
MELANXOLIK – temperament turlaridan, psixik faollikning sust, tez ta'sirlanuvchan, xatto arzimagan narsalar uchun ham juda chuqur ta'sirotga berilishi bilan xarakterlanadi.
«MEN», «U», «OLIY MEN» – Z.Freyd ta'limoti bo`yicha shaxs strukturasi komponentlari.
MEN-KONSEPSIYA – odamning o`zi to`g`risidagi nisbatan barqaror, aniqlangan, o`z kechinmalarida ifodalanadigan taassurotlari tizimi.
MENTALITET – psixik xususiyatlar, sifatlar va jarayonlarning o`ziga xos tuzilishi, yig`indisi, shaklini anglatuvchi umumlashgan tushuncha.
METOD – bilishning nazariy va amaliy o`zlashtirish usullari yig`indisi.
MEHNAT – odamning ma'lum maqsadga, o`z ehtiyojlarini qondirish uchun borliqni bilish va uni qayta qurishga, moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishga yo`naltirilgan faolligi.
MEHNAT PSIXOLOGIYASI – psixologiya sohasi, turli mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini o`rganadi.
MILLIY XARAKTER – biror bir millatga xos xususiyatlar.
MILLIY STEREOTIP – ma'lum millatning obrazi bo`lib, u o`zida o`sha millatga xos shaxs xususiyatlari, xulq-atvor sifatlarini ifodalaydi.
MONOLOGIK NUTQ – bir odamninig o`z fikrlarini og`zaki yoki yozma ravishda ifodalash nutqi.
MOTIV – ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog`liq faoliyatga undovchi sabab.

MOTIVATSIYA – odamni faollikka undovchi sabablar majmui.
MOTIVLAR KURASHI – qaror qabul qilish bilan bog`liq irodaviy harakatlar bosqichi.
MUAMMOLI VAZIYAT – bilish ehtiyojini qondirishda tafakkur qilish sharti bo`lgan psixologik vaziyat.
475
MUAMMOLI TA'LIM – o`quvchining faolligini oshirishga qaratilgan va o`qituvchi tomonidan tashkil qilinadigan o`qitish usuli.
MULOQOT – ikki yoki undan ortiq odamlarning o`zaro bir-biriga ta'sir etishi. Odamlar o`rtasida axborot almashish, o`zaro ta'sirning yagona yo`lini ishlab chiqish, o`zgalarni idrok qilish va tushunib baholashni o`z ichiga oladi.
MUSIQIY TERAPIYA – asab tizimi buzilgan bemorlarni davolashda musiqadan foydalanish.
MUSIQIY QOBILIYAT – shaxsning musiqiy layoqatini belgilovchi psixologik xususiyatlari.
MUSIQIY PSIXOLOGIYA – san'at psixologiyasining sohasi bo`lib, odamga va uning faoliyatiga musiqa ta'sirini o`rganadi.
MUHANDISLIK PSIXOLOGIYaSI – psixologiya tarmog`i, odam mehnatining psixologik xususiyatlarini, faoliyat jarayonida texnika vositasi bilan munosabatda bo`lishni o`rganadi.
MUHIT – organizm tug`ilgan, rivojlanadigan va yashaydigan tashqi omillar, sharoitlar va ob'ektlar majmuasi.
NARKOMANIYA – narkotik vositalarni qabul qilish natijasida vujudga keladigan kasallik.
NEYROPSIXOLOGIYA - muayyan psixik jarayonlar sodir bo`lishini ta'minlaydigan neyron tarmoqlarini o`rganuvchi fan. Psixofiziologiyaning oliy psixik funksiyalar mexanizmini o`rganadigan qismi.
NUTQ – odamlarning til vositasi bilan aloqa qilishining tarixan tarkib topgan shakli. Nutq – muloqotda tildan foydalanish jarayoni.
OLIGOFRENIYA – aqliy etishmovchilik (tug`ma yoki orttirilgan xili bo`ladi). Uch xil darajaga ega: debillik, imbetsillik va idiotizm.
OLIGOFRENIYA – aqliy zaiflik, psixik funtsiyalarning taraqqiyotdan ortda qolishini o`rganuvchi fan.
OLIY NERV FAOLIYATI TURI – oliy nerv faoliyati xususiyatlarining barqaror yig`indisi (kuchi, vazminligi, harakatchanligi va boshqalar).
476
ONG – ob'ektiv borliqni psixik aks ettirishning faqat insongagina xos yuqori shakli.
ONGSIZLIK – odam ongiga borib etmagan psixik jarayonlar majmui.
ONTOGENEZ – organizmning individual rivojlanish davri.
ORZU – shaxsning o`zi uchun yoqimli bo`lgan istiqbol obrazlarni ongida yaratishdan iborat xayol turi.
PANTOMIMIKA – inson gavdasining mimika, imo-ishora, intonatsiyalar bilan birga uning psixik holatini ifodalovchi harakatlari.
PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA – psixologiya tarmog`i, ta'lim va tarbiya qonuniyatlarining psixologik asoslarini o`rganadi.
PILOTAJ TADQIQOT – tadqiqotning muammoli izlovchi turi, asosiy

tadqiqotgacha o`tkaziladigan va soddalashtirilgan shakli.
PROAKTIV TORMOZLANISh – avvalgi faoliyatning qayta-qayta ko`p takrorlanishi natijasida keyingi materiallarni esga tushirishning yomonlashuvi.
PROEKTIV METOD – shaxsni tadqiq qilish metodlaridan biri. Bu metodda masalan, tajriba vaziyatlarida rasmlar idrok qilinib, uning talqini beriladi.
PROFESSIOGRAMMA – professiografiya natijalarining rasmiylashtirilgan ko`rinishi bo`lib, uning maqsadi mavjud kasblarning turli mezonlarini ta'riflash va klassifikatsiya qilishdan iborat.
PSIXIKA – yuksak darajada tashkil topgan materiya – miyaning funksiyasi. Uning mohiyati voqelikni tuyg`ular, idrok, tasavvur, fikrlar, iroda va boshqalar ko`rinishida aks ettirishdan iborat.
PSIXOANALIZ – ongsiz psixik jarayonlar va motivatsiyani o`rganishga asoslangan psixologik ta'limot. XIX asr oxiri XX asr boshlarida avstriyalik psixiatr Z.Freyd tomonidan ishlab chiqilgan.
PSIXOGIGIENA – umumiy gigienaning insonning nerv-psixik salomatligini saqlash va mustahqamlash tadbirlarini ishlab chiqadigan bo`limi.
PSIXODIAGNOSTIKA – psixik taraqqiyot darajasi va individual psixologik xususiyatlarni aniqlash maqsadida odamni har tomonlama tekshirib ko`rish usuli.

PSIXODRAMA – guruhiy psixoterapiya turi bo`lib, bunda ishtirokchilar navbatma-navbat aktyor va tomoshabin rolida bo`lishadi. D.Moreno tomonidai ilk bor qo`llanilgan.
PSIXOKORREKSIYA – psixologik ta'sir ko`rsatish metodlari yordamida psixologik yordamga muhtoj sog`lom inson psixologiyasi yoki xulqini maqsadga muvofiq o`zgartirish.
PSIXOLOGIYA – odamning ob'ektiv borliqni sezgi, idrok, tafakkur, tuyg`uhissiyot va boshqa psixik holatlar orqali aks ettirish jarayonini o`rganadigan fan.
PSIXOLOGIYA TARIXI – psixologiya tarmog`i, psixologik tushuncha va faktlar, ularning kelib chiqishi, qadimgi davrdan to hozirga davrgacha bo`lgan rivojlanish jarayonini o`rganadi.
PSIXOFIZIOLOGIYA – psixologiya va neyrofiziologiyaning psixikani uni neyrofiziologik asoslari bilan birga o`rganishga xizmat qiluvchi bo`limi.
PUBERTAT DAVR – jinsiy etilish davri.
RELAKSATSIYA – odamdagi jismoniy zo`riqishning psixik keskinligi tugashi natijasida paydo bo`ladigan osoyishtalik holati.
REMINISSENSIYA – avval unutilgan deb hisoblangan materiallarning keyinchalik esga tushishidan iborat xotira jarayoni, ya'ni vaqtinchalik unutish holati.
REPREZENTATIVLIK – tanlov guruhining o`rganilayotgan sifatlar majmui ishonchliligi va to`g`riligini ifodalovchi mezon.
RESPONDENT – psixologik tadqiqotda malum bir savolga javob beruvchi kishi.
RETROAKTIV TORMOZLANISH – oldin eslab qolingan materiallarni keyingi faoliyat ta'sirida vaqtincha unutish.
REFERENT GURUH – shaxsning har tomonlama ishongan, o`ziga yaqin tutgan guruhi.
RETSIPIENT – o`ziga yo`llangan xabarni qabul qilib oluvchi kishi.
RIVOJLANISHNING ENG YAQIN ZONASI – murakkab vaziyatni hal

etishda bolaning mustaqilligi hamda kattalar rahbarligida bajarilgan vazifa orasidagi farq. Bu tushuncha L.S.Vigotskiy tomonidan kiritilgan.
478
SANGVINIK – temperament turlaridan biri. Bu tur chaqqon, harakatchan, taassurotlari tez-tez o`zgarib turadigan, boshqa kishilarga nisbatan dilkashlik va mehribonlik qilishi bilan xarakterlanadi.
SEVGI – boshqa shaxsga, kishilar jamoasi yoki fikrga yo`naltirilgan intim, chuqur his-tuyg`u.
SEZGILAR – psixik aks ettirishniig oddiy usuli tariqasida hayvonlarga ham, odamlarga ham xos xususiyat. Voqelikdagi narsa va hodisalarning ayrim belgi va xususiyatlarini bilib olishni ta'minlaydi.
STENIK HISLAR – shaxsning faolligini oshiruvchi hislar (masalan: xursandchilik).
STRESS – kuchli qo`zg`ovchilar ta'sirida yuzaga keladigan ruhiy holat.
SUGGESTIYA – kishining psixik sohasiga ta'sir ko`rsatish jarayoni.
SUHBAT – psixologiya metodlaridan biri. Nutq yordamida bevosita yoki bavosita ma'lumot berish va olish jarayoni.
TABIIY EKSPERIMENT – tekshiriluvchining o`ziga bildirmagan holda uni o`yin, o`qish, mehnat faoliyatida o`rganishdan iborat psixologik tajriba.
TASAVVUR – sezgi a'zolariga qachonlardir ta'sir etgan narsa va hodisalarning yaqqol hissiy obrazi.
TAFAKKUR – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli. Sezgi idrok va tasavvurlar orqali bevosita bilib bo`lmaydigan narsa va hodisalar tafakkurda ongli ravishda aks etadi. Tafakkur jarayonida fikr vujudga keladi, bu fikrlar inson ongida hukm, tushuncha, xulosa shakllarida namoyon bo`ladi.
TAXISTOSKOP – qat'iy belgilangan qisqa vaqt davomida ko`rish qo`zg`atuvchilarini namoyon qilish asbobi. Idrok, xotira, diqqat va boshqa jarayonlarni tadqiq qilishda ishlatiladi.
TEMPERAMENT – shaxsniig individual psixologik xususiyatlari majmui.
TEST – standartlashtirilgan psixologik sinov.
TOLERANTLIK – birorta yoqimsiz omilga chidamlilik yoki kam e'tibor berish holati.
TUSHUNISH – biror narsaning manosi va ahamiyatini anglash qobiliyati.
479
UMUMIY PSIXOLOGIYA – psixologiyaning umumiy qonuniyatlarini, nazariy asoslarini, metodlarini nazariy va eksperimental tadqiq qiluvchi sohasi.
USTANOVKA – kishining tevarak atrofidagi odamlarga yoki ob'ektlarga nisbatan qanday munosabatda bo`lish, ularni ma'lum darajada idrok qilish, sezish, ularga baho berish va qandaydir harakat qilishga tayyorgarligini anglatadigan holat.
FAOLIYAT – insongagina xos, ong bilan boshqariladigan ehtiyojlar tufayli paydo bo`ladigan va tashqi olamni o`zgartirishga yo`naltirilgan faolligi.
FAOLIYAT MAHSULINI TAHLIL QILISh – psixologiyaning ilmiytekshirish metodlaridan biri bo`lib, shaxsning bilim va mahorati, qobiliyati, qiziqishlari, didi, faoliyat turiga bo`lgan munosabatlari va uning o`zgarishini o`rganish usuli.
FAOLLIK – tirik materiyaning umumiy xususiyati bo`lib, tevarak-atrofdagi muhit bilan o`zaro ta'sirda bo`lishida namoyon bo`ladi.

FATAL – qochib bo`lmaydigan, oldini olib bo`lmaydigan hodisa.
FIZIOGNOMIKA – insonning tashqi ko`rinishi va uning biror shaxs turiga mansubligi o`rtasidagi qat'iy bog`liqlik haqidagi ta'limot.
FILOGENEZ – muayyan tirik mavjudot turining erda hayot boshlanganidan keyingi evolyutsion taraqqiyot jarayoni.
FLEGMATIK – temperament turlaridan biri. Bu harakatlarning sekinligi, barqarorligi, emotsional holatlarning tashqi ko`rinishlari kuchli emasligida namoyon bo`ladi.
FRUSTRATSIYA – kishining maqsadga erishish yo`lida uchragan, ob'ektiv ravishda engib bo`lmaydigan yoki sub'ektiv ravishda shunday tuyuladigan qiyinchiliklar tufayli paydo bo`ladigan psixik holati.
XARAKTER – kishidagi barqaror psixik xususiyatlarning individual birligi. U shaxsning mehnatga, atrofdagi narsa va hodisalarga, boshqa kishilarga va o`z-o`ziga bo`lgan munosabatlarida ifodalanadi.
XARAKTER AKTSENTUATSIYASI - xarakter alohida xususiyatlarining haddan tashqari ifodalanishi (psixopatiyaga yaqinlashuvi).

XOLERIK – temperament turi, u hissiyotning jo`shqinligi, kayfiyatning birdaniga tez o`zgarib qolishi, hissiyotning muvozanatsizligi va umumiy harakatchanligi bilan ifodalanadi.
SHAKLLANTIRUVCHI TAJRIBA – psixologiya metodi, bu metod orqali shaxsda zaruriy psixik jarayon yoki sifatlar rejali ravishda shakllantiriladi.
SHARTLI GURUH – odamlarning ayrim belgilari (yoshi, kasbi va h.k.)ga qarab birlashtiriluvchi guruh.
SHAXS – ijtimoiy munosabatlarga kirishuvchi va ongli faoliyat bilan shug`ullanuvchi betakror odam.
EDIP KOMPLEKSI – freydizm ta'limoti bo`yicha bolaning o`z onasiga nisbatan ongsiz jinsiy maylga ega bo`lishi va otasini raqib sifatida idrok etishi.
EYDETIZM – ba'zi iidividlarning avval idrok qilingan narsa va hodisalarni barcha tomonlari bilan esda qoldirish qobiliyati.
EKSPEKTATSIYA – individdan ijtimoiy rollarni talablarga muvofiq bajarilishini kutish.
EKSTERIORIZATSIYA – ichki psixik faoliyatning tashqi amaliy faoliyatga, jonli mushohadaga aylanishi.
EKSTRAVERSIYA – shaxsning tevarak-atrofdagi odamlarga, tashqi hodisalarga yo`nalishi.
EMPATIYA – boshqa odamlarning psixik holatlarini tushunish va ularga hamdardlik qilish qobiliyati.
ETNOPSIXOLOGIYA – psixologiya fanining sohasi, odam psixikasining etnik xususiyatlarini, milliy xarakterini, milliy o`zligini anglash, etnik stereotip singari fenomenlarni o`rganadi.
EHTIYOJ – odam va hayvon faolligining asosiy manbai, aniq sharoitlar bilan bog`liq zaruriyatning ichki holati.
EHTIROS – muayyan faoliyat turiga kuchli intilish bilan bog`liq davomli va barqaror emotsional holat.
E'TIQOD – maslakni amalga oshirish, shaxsning kundalik ehtiyojiga aylangan intilishi, xatti-harakati.

481
O`YIN – faoliyat turlaridan biri. Bu bolalarning kattalar faoliyati, ularning ishharakatlarini,
odamlar o`rtasidagi o`zaro munosabatlarni aks ettirishda ifodalanadigan
va tevarak atrofdagi borliqni bilishga qaratilgan faoliyatdir.
O`Z-O`ZINI TUTA BILISH – shaxsning muayyan sharoitlarda ortiqcha fikr,
his-tuyg`u, xatti-harakatlarni ongli ravishda tiyib turish, o`z fikr, xissiyot va
harakatlarini maqsadga muvofiq yo`naltira olishidan iborat irodaviy xarakter xislati.
O`QISH – shaxsning bilim va faoliyat usullarini egallashiga hamda uni
mustahkam esda saqlab qolish jarayoni. O`qish har qanday faoliyating zaruriy
qismlaridan bo`lib, u sub'ektni o`zgartirish jarayoni hamdir.
QOBILIYATLAR – shaxsga ma'lum faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish,
bilimlarni tez va osonlik bilan o`zlashtirishga yordam beruvchi individual psixologik
xususiyat.
G`AZAB – jahl chiqishidan iborat emotsional holat. Shaxsning ehtiyojlarini
qondirish jarayonida biror bir to`siqqa duch kelganda yuz beradi.
HARAKAT – maqsadga muvofiq yo`naltirilib, ongli ravishda amalga
oshiriladigan harakatlar yig`indisi.
HISSIYOT - odamning yuksak ehtiyojlari qondirilishi yoki qondirilmasligiga
nisbatan munosabati.
HUKM – tafakkur shakllaridan biri, u narsa va hodisalar o`rtasida o`zaro
bog`lanishlarning borligini tasdiqlash yoki inkor qilishda ifodalanadi.

ADABIYOTLAR

1. Adizova T.M. Psixokorreksiya. − T.2005.
2. Barotov Sh.R. Ta'limda psixologik xizmat. – Buxoro, 2007.
3. ДубровинаИ.В.Рабочая книга школьного психолога. – М.: Просвещение,
1991. – 303 с.
482
4. Дубровина И.В. Школьная психологическая служба. –М.: Педагогика,
1991. – 232 с.
5. Дубровина И.В. Практическая психология в образовании. – М.:
Педагогика, 1998.
6. Дубровина И.В. Я работаю психологом. –М. 2001.
7. Колесникова Г.И. Основы психопрофлактики и психокоррекции.Ростов –
н/Д.: Феникс.2002.
8. Лебедева Л.Д. Практика Арт-терапии: подходы, диагностика, система
занятий. – СПб.: Речь,2003.
9. Лендрет Г.Л. Игровая терапия: исскуство отношений. – М.:
Международная педагогическая академия, 1994.
10. Маркова И.В. Педагог-психолог. Основы профессиональной
деятельности. –М.: Самара, Издательский дом БАХРАХ, 2004. – 288с.
11. Maxmudova D.A. Psixokorreksiya asoslari. –T.: Fan va texnologiya nashriyoti.
2011.-128 b.
12. Миллс Дж.,Кроули Р. Терапевтические метафоры для детей и
внутренного ребенка. – М.,1996.
13. Мустакас Кларк. Игровая терапия. – СПб.: Речь, 2000.
14. Миллс Дж.,Кроули Р. Терапевтические метафоры для детей и внутренного

ребенка. – 1996.
15. Mirashirova N. Maktabgacha tarbiya muassasalarida psixologik xizmat. -T.: TDPU, 2003.
16. Nishanova Z.T. Psixologik xizmat. -T.: TDPU, 2006. - 162 b.
17. Nishanova Z . T. Psixologik xizmat. - T.: Yangiyol poligraf servis, 2007.
18. . Немов Р.. Психология .Кн.3. Психодиагностика.М.: 1998.
19. Немов Р.С. Психологическое консультирование.-М.: ВЛАДОС 2003.-528 с.
20. Nishanova Z.T., Xalilova N.I.Psixokorreksiya.- T.: Fan va texnologiya nashriyoti.2007.
483
21. Nishanova Z.T., Asomudinova Sh. Psixologik maslahat. –T.: O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2010 -248 b.
22. Nishanova Z.T., Alimbaeva Sh.T., Sherimbetova Z.Sh.Psixologik xizmat Elektron darslik. –T.: 2012 y.
23. Nishanova Z.T., Qurbanova Z., Abdiev S., Tulyaganova Sh.T. Psixodiagnostika.-T. Fan va texnologiya nashriyoti.2008.
24. Nishanova Z.T., Kamilova N.G., Alimova G.K. Psixogigiena.-T.: Fan va texnologiya nashriyoti.2009.-244b.
25. Осипова А.А. Введение в практическую психокоррекцию: групповые методы работы. Москва-Воронеж. 2000.
26. Осипова А.А. Обшая психокоррекция .-М.: 2005
27. Шевандрин Н.И. Психодиагностика, корекция и развитие личности. –м. 1998.

MUNDARIJA

KIRISH……..3
1-BOB. PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISHNING UMUMIY MEZONLARI.....4
2-BOB.TA’LIM SOHASIDAGI PEDAGOG-PSIXOLOGNING BURCHI VA MAJBURIYATLARI: ISHNING AHLOQIY TAMOYILLARI.....33
3-BOB.TA'LIM SOHASIDAGI PSIXOLOG FAOLIYATINING ME'YORIY HUJJATLARI.....52
4-BOB. AMALIY PSIXOLOG FAOLIYATINING ASOSIY KO`RINISHLARI……..75
484
5-BOB.PSIXOLOGIK MASLAHAT VA KORREKSIYANING MAQSADI, VAZIFALARI, TAMOYILLARI VA ULARNING AMALIY PSIXOLOGIYA STRUKTURASIDAGI O`RNI.....104
6-BOB.PSIXOSOTSIAL SALOMATLIK, ASOSIY KO`RSATKICHLAR VA BAHOLASH MEZONLARI.....122
7-BOB. PSIXOLOGIK MASLAHAT VA PSIXOKORREKSIYANING NAZARIY ASOSLARI.....137
8-BOB. PSIXOLOGIK MASLAHAT TAMOYILLARI.....150
9-BOB. PSIXOLOGIK KORREKSIYANING TAMOYILLARI VA UNI TASHKIL ETISH.....164
10-BOB. PSIXOKORREKSION DASTUR TUZILISHIGA QO`YILADIGAN TALABLAR VA ULARNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....174

11 BOB. KORREKSION TADBIRLAR OLIB BORADIGAN PSIXOLOGGA QO`YILADIGAN TALABLAR.....190
12-BOB. PSIXOLOG-KONSULTANTNING SHAXS XUSUSIYALARI VA KASBIY DEFORMATSIYASI.....200
13- BOB. “MIJOZ-KONSULTANT” TIZIMIDAGI O`ZARO TA’SIR, MULOQOT.....208
14- BOB. PSIXOLOGIK MASLAHAT VA PSIXOKORREKSIYANING TEXNOLOGIK ASOSLARI, O`ZARO TA’SIR USULLARI, DIREKTIVA, PARATEXNOLOGIYA.....220
15-BOB. PSIXOLOGIK MASLAHAT VA PSIXOKORREKSIYANING ASOSIY TEXNIKA VA METODLARI.....234
16-BOB. GURUHIY PSIXOLOGIK MASLAHAT. INDIVIDUAL VA GURUHIY PSIXOKORREKSIYA.....271
17-BOB. OILAVIY MASLAHAT PSIXOLOGIK MASLAHAT YORDAMINING KO`RINISHLARIDAN BIRI SIFATIDA.....289
18-BOB. ONTOGENETIK TARAQQIYOT INQIROZLARI PSIXOKORREKSIYASI VA PSIXOPROFILAKTIKASI.....310
485
19- BOB. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA KORREKSION ISHNING O‘ZIGA XOSLIGI.....328
20-BOB.YUQORI SINF O‘SMIRLARIDA KORREKSIYANING O‘ZIGA XOSLIGI.....358
21-BOB. BILISH JARAYONLARI KORREKSIYASI VA TARAQQIYOTI.....366
22-BOB. EMOTSIONAL SOHANI KORREKSIYALASH VA RIVOJLANTIRISH.....381
23-BOB. SHAXSLARARO MUNOSABATLARNI KORREKSIYALASH395
24- BOB. KASBIY O`ZLIKNI ANGLASH SOHASINI KORREKSIYALASH
25- BOB. OTA-ONA VA O`QITUVCHILAR BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKSION-PROFILAKTIK ISHLAR.....
26- BOB. MEHRIBONLIK UYLARI SHAROITIDA BOLALARNI PSIXOSOTSIAL QO`LLAB-QUVVATLASHNING O`ZIGA XOS JIHATLARI.....
27- BOB. INTERNAT TARBIYALANUVCHILARINING MOSLASHUVIGA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK YORDAM.....
GLOSSARIY
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR
СОДЕРЖАНИЕ
Введение
ГЛАВА I. ОБЩИЕ КРИТЕРИИ ОРГАНИЗАЦИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ
486
ГЛАВА II .ПСИХОКОРРЕКЦИЯ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ КОНСУЛЬТИРОВАНИЕ КАК ОСНОВНЫЕ ВИДЫ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРАКТИЧЕСКОГО ПСИХОЛОГА
1. Цель, задачи, принципы психологического консультирование и коррекции и их роль в структуре практического психолога.

2. Психосоциальное здоровье, основные параметры и критерии оценки.
3. Теоретические основы психологического консультирования и психокоррекции.
4. Принципы психологического консультирования.
5. Организация и принципы психологической коррекции.
6. Критерии структуры психокоррекционных программ и их своеобразие особенности.
7. Требование предъявляемые психологу, проводящий коррекционных программ.
8. Личностные особенности и профессиональная деформация психолога-консультанта.
9. Общение и взаимовлияние в системе «Клиент- консультант»
10. Технологические основы психологического консультирования и психокоррекции, приемы взаимовлияние, директива, паратехнология.
11. Основные методы и техника психологического консультирование и психокоррекции.
12. Групповое психологическое консультирование. Индивидуальное и групповое психокоррекция.
13. Семейное консультирование как один из проявлений психологической помощи.
14. Психокорреция и психопрофилактика кризисов онтогенетического развития.
15. Своеобразие коррекционной работы в начальных классах.
16. Своеобразие коррекционной работы старших подростков.
17. Коррекция и развитие познавательных процессов.
18. Развтие и коррекция эмоциональной сферы.
19. Коррекция межличностных отношений.
20. Коррекция сферы профессионального самосознания.
21. Коррекционно-профилактические работы с родителями и учителями.
22. Своеобразие аспекты психосоциальной поддержки детей домов милосердия.
487
23. Социально-психологическая помощь в адаптации воспитанников интернатов.__